

**Xankeldiyeva G.Sh., Muminova E.A.,  
Mirzayev A.T., Asraqulov A.S**

# **GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH**

**(darslik)**

**O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi  
Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv –  
uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan  
darslik sifatida tavsiya etilgan**

**Farg'ona - AL – FERGANUS - 2021**

**UO‘K: 330.34(075)**  
**КБК 65.011я7**  
**ISBN: 978-9943-7189-2-0**

**Xankeldiyeva G.Sh.**

Global iqtisodiy rivojlanish [Matn] : darslik / G.Sh. Xankeldiyeva.-Farg'ona: "AL-FERGANUS", 2021.-400 b.

Mazkur darslikda global iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq jarayonlar, ularning mazmuni, xususiyatlari hamda ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish asosida globallashuvning asosiy yo‘nalishlari va tendensiyalari ochib berilgan. Darslikda global iqtisodiy rivojlanishning sabab-oqibat bog‘lanishlari va global o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan bo‘lib, u bakalavriatning 5230100 – iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishining «Global iqtisodiy rivojlanish» fanidan darslik sifatida tavsiya etiladi.

#### **Taqrizchilar:**

**Gafurov U.V.** - iqtisod fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**G‘ayibnazarov B.K.**- iqtisod fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Farg‘ona politexnika instituti Kengashining 2020 yil 29 – oktabrdagi yig‘ilishi bilan nashrga tavsiya etilgan (2 – sonli bayonnoma)**

**O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv – uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan darslik sifatida nashr etishga tavsiya etilgan. (2021 yil 1 mart № 110 - sonli buyruq)**

**ISBN: 978-9943-7189-2-0**

© Xankeldiyeva G.Sh., Muminova E.A., Mirzayev A.T., Asraqulov A.S., 2021.  
© « AL-FERGANUS», 2021

UDC 330.34(075)  
ББК 65.011я7

ISBN: 978-9943-7189-2-0

**Хонкелдиева, Г.Ш.**

Глобальное экономическое развитие [Текст]: учебник / Г.Ш. Хонкелдиева – Фергана: «AL-FERGANUS», 2021. – 400 с.

В данном учебнике описываются основные направления и тенденции глобализации на основе процессов, связанных с глобальным экономическим развитием, их содержания, особенностей и соблюдения влияющих факторов. В учебнике описывается причинно-следственные связи глобального экономического развития и основные направления глобальных преобразований и рекомендуется в качестве учебника по дисциплине «Глобальное экономическое развитие» для направления бакалавриата 5230100 – Экономика (по отраслям и сферам).

**Рецензенты:**

**У.В.Гафуров.**- доктор экономических наук, профессор, Ташкентский государственный экономический университет

**Б.К.Гайибназаров** – доктор экономических наук, профессор, Ташкентский государственный экономический университет

**Публикуется по решению Совета Ферганского политехнического института Протокол № 2 от 29 октября 2020 года**

*Рекомендуется в качестве учебного пособия Координационным советом по деятельности учебно-методических объединений в сфере высшего, среднего специального и профессионального образования при Министерстве высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. (Приказ № 110 от 01 марта 2021 г.)*

**ISBN: 978-9943-7189-2-0**

© Хонкелдиева Г.Ш., Муминова Э.А., Мирзаев А.Т., Асракулов А.С 2021.  
© « AL-FERGANUS», 2021

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>16</b>
---------------------	-----------

### **I-BOB. “GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI .....**

1.1. “Global iqtisodiy rivojlanish” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va o‘rganish uslublari .....	19
1.2. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari.....	24
1.3. Globallasuv tushunchasining mohiyati va rivojlanish evolyutsiyasi .....	29
1.4. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining namoyon bo‘lish shakllari va globallasuv jarayoniga ta’sir etuvchi omillar .....	36
1.5. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining ko‘rsatkichlari va ustuvor yo‘nalishlari.....	41

### **II-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI KONSEPSIYALARINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA YO‘NALISHLARI .....**

2.1. Globallasuvga bag‘ishlangan ilmiy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi .....	48
2.2. Jahon iqtisodiyoti globallasuvi to‘g‘risidagi ilmiy konsepsiyalarning asosiy yo‘nalishlari .....	53
2.3. Global iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari .....	62
2.4. “Vashington konsensus” tomonidan ishlab chiqilgan “Jahon savdosini isloh etishning 10 tavsiyasi” .....	69
2.5. XX asr boshlarida jahon iqtisodiyoti globallasuvi nazariyalarining transformatsiyalashuvi va xususiyatlari .....	72

### **III-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLARI, BELGILARI VA SHAKLLARI. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....**

3.1. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining harakatlantiruvchi kuchlari.....	79
3.2. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining asosiy mexanizmlari .....	85
3.3. Jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar .....	90
3.4. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining belgilari .....	96

### **IV-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV MUAMMOLARI VA VA ULARNING GURUHLANISHI .....**

4.1. Global muammolar va ularning belgilari .....	103
4.2. Global muammolarning guruhlanishi .....	107

4.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining siklliligi tarixi va uning rivojlanish qonuniyatlari .....	114
4.4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi bosqichlari .....	119
4.5. Jahon iqtisodiyoti globallashuvidagi qarama-qarshiliklar .....	123

**V-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI MUAMMOLARINING OQIBATLARI VA HAL ETISH YO‘LLARI.....135**

5.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining afzalliklari .....	135
5.2. Globallashuv oqibatlari .....	137
5.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi tufayli vujudga keladigan xavf-xatarlar ....	144
5.4. Globallashuv tufayli milliy davlatlar suverenitetidagi o‘zgarishlar va transchegaraviy muammolarning integratsiyalashuvi .....	151

**VI-BOB. GLOBALLASHUV VA XALQARO SAVDONING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....165**

6.1. Global iqtisodiyot shakllanishida xalqaro savdoning o‘rni .....	165
6.2. Globallashuv sharoitida erkin savdo va proteksionizm savdo siyosatlari o‘rtasidagi nisbat .....	170
6.3. Jahon inqirozlarining xalqaro savdo ko‘lami, tarkibi va yo‘nalishlariga ta’siri. Xalqaro savdo dinamikasi va uning o‘zgarish xususiyatlari.....	174
6.4. Xalqaro savdoda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tutgan o‘rni.....	181
6.5. Xalqaro savdo rivojlanishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning o‘rni.....	185
6.6. O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirishining afzalliklari va yo‘qotishlari .....	191

**VII-BOB. GLOBAL, MIQTAQAVIY VA MILLIY MOLIYAVIY BOZORLAR .....198**

7.1. Global moliyaviy bozorlarning shakllanishi, amal qilishi va ularni tartibga solish vositalari .....	198
7.2. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga solishdagi o‘rni .....	202
7.3. Mintaqaviy va milliy moliya bozorlarining rivojlanishi va ularni tartibga solish muammolari .....	206
7.4. Globallashuv sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar davlat moliyasi va moliyaviy tizimdagi islohotlarning yo‘nalishlari .....	214
7.5. O‘zbekiston Respublikasi moliya bozori holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari .....	219
7.6. O‘zbekistonning xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv muammolari.....	229

**VIII-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA ISHCHI KUCHI BOZORI VA MIGRASIYASI MUAMMOLARI.....234**

8.1. Jahon ishchi kuchi bozori tushunchasining mohiyati, shakllanish sabablari va rivojlanish omillari .....234

8.2. Jahon ishchi kuchi bozorining rivojlanish bosqichlari, rivojlangan mamlakatlardagi demografik vaziyat va demografik muammolar .....238

8.3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ko‘rinishlari, tarkibi, yo‘nalishlari va migrantlarni o‘ziga jalb qiluvchi markazlar .....246

8.4. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining dinamikasi, mintaqalararo migratsion jarayonlar va ularning ustuvor oqimlari .....253

8.5. Ishchi kuchi eksporti va importining mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri.....258

8.6. Global inqirozlarning jahon ishchi kuchi miqyosi va tarkibiga ta’siri, xalqaro ishchi kuchi bozorini tartibga solish vositalari .....262

8.7. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tartibga solish masalalari .....266

**IX-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA TRANSMILLIY KORPORASIYALAR .....275**

9.1. Transmilliy korporatsiyalarning mohiyati, belgilari va turlari hamda jahon iqtisodiyoti globallashuvidagi o‘rni .....275

9.2. Transmilliy lashuv indeksi, uni hisoblash usullari .....281

9.3. Transmilliy korporatsiyalarning jahon iqtisodiyoti globallashuvidagi o‘rni.....284

9.4. Transmilliy korporatsiyalar turlari va ularning xalqaro kapitalni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi o‘rni .....290

9.5. Transmilliy korporatsiyalarning mintaqaviy va tarmoq tarkibi, holati va rivojlanish tendensiyalari .....295

9.6. O‘zbekistonda transmilliy korporatsiyalar faoliyati va moliya-sanoat guruhlarini tuzish istiqbollari.....300

**X-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATDOSHЛИGINI TA’MINLASH MUAMMOLARI .....311**

10.1. Milliy xavfsizlik tushunchasining mohiyati, turlari va ularning guruhlanishi.....311

10.2. Iqtisodiy xavfsizlik, uning turlari, ko‘rsatkichlari va indikatorlari tizimi. Tashqi va ichki xavflar .....314

10.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillar. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda tashqi omillarning o‘rni.....326

10.4. Milliy va xalqaro raqobatbardoshlik tushunchalarining mohiyati, raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari va mezonlari .....332

10.5. Mamlakatning raqobat ustunliklari nazariyasi va raqobatbardoshlikni aniqlash usullari .....338

10.6. Globallashuv sharoitida mamlakat milliy raqobatbardoshligini oshirish omillari .....	346
10.7. Mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda milliy iqtisodiyot xavfsizligi o'rnining kuchayib borishi .....	352
<b>TESTLAR.....</b>	<b>359</b>
<b>ATAMALAR LUG`ATI .....</b>	<b>378</b>
<b>ADABIYOTLAR .....</b>	<b>388</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>	<b>16</b>
<b>ГЛАВА I. ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ КУРСА “ГЛОБАЛЬНОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ”.....</b>	<b>19</b>
1. Предмет, цель, задачи и методы изучения курса “Глобальное экономическое развитие”.....	19
1.2. Причины и условия возникновения глобализации мировой экономики.....	24
1.3. Сущность и эволюция развития понятия глобализации .....	29
1.4. Формы проявления глобализации мировой экономики и факторы, влияющие на процесс глобализации .....	36
1.5. Показатели и приоритетные направления глобализации мировой экономики.....	41
<b>ГЛАВА II. ФОРМИРОВАНИЕ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ КОНЦЕПЦИЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....</b>	<b>48</b>
2.1. Возникновение и развитие научных взглядов, посвященных глобализации.....	48
2.2. Основные направления научных концепций глобализации мировой экономики.....	53
2.3. Приоритетные направления глобального экономического развития.....	62
2.4. “10 рекомендаций по реформированию мировой торговли”, разработанный “Вашингтонским консенсусом” .....	69
2.5. Трансформация и особенности теорий глобализации мировой экономики в начале XX века .....	72
<b>ГЛАВА III. ДВИЖУЩИЕ СИЛЫ, ПРИЗНАКИ И ФОРМЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. ФАКТОРЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....</b>	<b>79</b>
3.1. Движущие силы глобализации мировой экономики.....	79
3.2. Основные механизмы глобализации мировой экономики.....	85
3.3. Факторы, влияющие на становление и развитие процессов глобализации в мировой экономике .....	90
3.4. Признаки глобализации мировой экономики.....	96
<b>ГЛАВА IV. ПРОБЛЕМЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ИХ ГРУППИРОВКА.....</b>	<b>103</b>
4.1. Глобальные проблемы и их симптомы .....	103
4.2. Группировка глобальных проблем. ....	107



4.3. История циклов глобализации мировой экономики и закономерности ее развития .....	114
4.4. Этапы глобализации мировой экономики .....	119
4.5. Противоречия в глобализации мировой экономики.....	123

## **ГЛАВА V. ПОСЛЕДСТВИЯ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....135**

5.1. Преимущества глобализации мировой экономики .....	135
5.2. Последствия глобализации .....	137
5.3. Риски, возникающие глобализацией мировой экономики .....	144
5.4. Изменения в суверенитете национальных государств и интеграция трансграничных проблем в связи с глобализацией.....	151

## **ГЛАВА VI. ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ.....165**

6.1. Роль международной торговли в формировании глобальной экономики.....	165
6.2. Соотношение между политикой свободной торговли и протекционизма в условиях глобализации.....	170
6.3. Влияние мировых кризисов на масштабы, состав и направления международной торговли. Динамика международной торговли и особенности ее изменения .....	174
6.4. Роль развитых и развивающихся стран в международной торговле.....	181
6.5. Роль международных экономических организаций в развитии международной торговли.....	185
6.6. Преимущества и потери вступления Узбекистана во Всемирную торговую организацию.....	191

## **ГЛАВА VII. ГЛОБАЛЬНЫЕ, РЕГИОНАЛЬНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ФИНАНСОВЫЕ РЫНКИ .....198**

7.1. Формирование, функционирование и инструменты регулирования глобальных финансовых рынков .....	198
7.2. Международные финансовые организации и их роль в регулировании международных валютных отношений.....	202
7.3. Развитие и проблемы регулирования региональных и национальных финансовых рынков.....	206
7.4. Государственные финансы и реформы финансовой системы развивающиеся стран в условиях глобализации.....	214
7.5. Состояние, тенденции и перспективы развития финансового рынка Республики Узбекистан.....	219
7.6. Проблемы интеграции Узбекистана на международный финансовый рынок.....	229

## **ГЛАВА VIII. ПРОБЛЕМЫ РЫНКА ТРУДА И МИГРАЦИИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....234**

- 8.1. Сущность, причины формирования и факторы развития мирового рынка труда.....234
- 8.2. Этапы развития мирового рынка труда, демографическая ситуация и демографические проблемы в развитых странах.....238
- 8.3. Виды, структура, направления международной миграции рабочей силы и центры привлекающие мигрантов .....246
- 8.4. Динамика международной миграции рабочей силы, межрегиональные миграционные процессы и их приоритетные потоки в мировой экономике.....253
- 8.5. Влияние экспорта и импорта рабочей силы на экономику стран.....258
- 8.6. Влияние глобальных кризисов на масштаб и структуру мировой рабочей силы, инструменты регулирования международного рынка рабочей силы.....262
- 8.7. Вопросы регулирования трудовой деятельности граждан Республики Узбекистан за рубежом.....266

## **ГЛАВА IX. ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫЕ КОРПОРАЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....275**

- 9.1. Сущность, признаки и виды транснациональных корпораций и их роль в глобализации мировой экономики.....275
- 9.2. Индекс транснационализации и методы его расчета.....281
- 9.3. Роль транснациональных корпораций в глобализации мировой экономики.....284
- 9.4. Виды транснациональных корпораций и их роль в распределении и перераспределении международного капитала.....290
- 9.5. Региональная и отраслевая структура, состояние и тенденции развития транснациональных корпораций.....295
- 9.6. Деятельность транснациональных корпораций и перспективы создания финансово-промышленных групп в Узбекистане.....300

## **ГЛАВА X. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....311**

- 10.1. Сущность и виды понятия национальной безопасности и их группировка.....311
- 10.2. Экономическая безопасность, ее виды, система показателей и индикаторов. Внешние и внутренние риски.....314
- 10.3. Факторы, влияющие на экономическую безопасность в условиях глобализации. Роль внешних факторов в обеспечении экономической безопасности.....326

10.4. Сущность понятий национальной и международной конкурентоспособности, показатели и критерии конкурентоспособности...	332
10.5. Теория конкурентных преимуществ страны и методы определения конкурентоспособности.....	338
10.6. Факторы повышения национальной конкурентоспособности страны в условиях глобализации.....	346
10.7. Усиление роли национальной безопасности экономики в обеспечении устойчивого экономического развития страны .....	352
<b>ТЕСТЫ.....</b>	<b>359</b>
<b>ГЛОССАРИЙ.....</b>	<b>378</b>
<b>ЛИТЕРАТУРА .....</b>	<b>388</b>

## CONTENT

<b>INTRODUCTION.....</b>	<b>16</b>
<b>CHAPTER I. SUBJECT AND OBJECTIVES OF THE COURSE “GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT”.....</b>	<b>19</b>
1. Subject, purpose, objectives and methods of the course " Global economic development”.....	19
1.2. Causes and conditions of appearance of the globalization of the world economy.....	24
1.3. The essence and evolution of the concept of globalization.....	29
1.4. The forms of globalization of the world economy and factors influencing the process of globalization.....	36
1.5. Indicators and priorities for the globalisation of the world economy.....	41
<b>CHAPTER II. FORMATION, STAGES OF DEVELOPMENT AND DIRECTIONS OF THE CONCEPTS OF GLOBALIZATION OF THE WORLD ECONOMY.....</b>	<b>48</b>
2.1. Emergence and development of scientific views on globalization.....	48
2.2. Main directions of scientific concepts of globalization of the world economy.....	53
2.3. Priority directions for global economic development.....	62
2.4. "10 recommendations for world trade reform" developed by the “Washington consensus”.....	69
2.5. Transformation and features of the theories of globalization of the world economy at the beginning of the XX century.....	72
<b>CHAPTER III. DRIVING FORCES, SIGNS AND FORMS OF GLOBALIZATION OF THE WORLD ECONOMY. FACTORS OF GLOBALIZATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE WORLD ECONOMY .....</b>	<b>79</b>
3.1. The forces driving globalization of the world economy.....	79
3.2. The main mechanisms of globalization of the world economy.....	85
3.3. Factors influencing the formation and development of globalization processes in the world economy.....	90
3.4. The signs of globalization of the world economy.....	96
<b>CHAPTER IV. PROBLEMS OF GLOBALIZATION OF THE WORLD ECONOMY AND THEIR GROUPING.....</b>	<b>103</b>
4.1. Global problems and their symptoms.....	103
4.2. Grouping global problems .....	107

4.3. History of cycles of globalization of the world economy and patterns of its development.....	114
4.4. Stages of globalization of the world economy.....	119
4.5. Contradictions in the globalization of the world economy.....	123

**CHAPTER V. CONSEQUENCES AND WAYS TO SOLVE THE PROBLEMS OF GLOBALIZATION OF THE WORLD ECONOMY.....135**

5.1. Benefits of globalizing the world economy.....	135
5.2. Consequences of the globalization.....	137
5.3. Risks arising from the globalization of the world economy.....	144
5.4. Changes in the sovereignty of national countries and integration of cross-border issues in connection with globalization .....	151

**CHAPTER VI. GLOBALIZATION AND TRENDS IN INTERNATIONAL TRADE.....165**

6.1. The role of international trade in forming the global economy.....	165
6.2. The relationship between free trade and protectionist policies in the context of globalization.....	170
6.3. The impact of global crises on the scale, structure, and direction of international trade. Dynamics of international trade and peculiarities of its changes.....	174
6.4. Role of developed and developing countries in international trade.....	181
6.5. The role of international economic organizations in the development of international trade.....	185
6.6. Advantages and disadvantages of Uzbekistan's accession to the World trade organization.....	191

**CHAPTER VII. GLOBAL, REGIONAL AND NATIONAL FINANCIAL MARKETS.....198**

7.1. Formation, functioning and regulatory tools of global financial markets.....	198
7.2. International financial organizations and their role in regulating international monetary relations.....	202
7.3. Development and problems of regulation of regional and national financial markets.....	206
7.4. Public Finance and financial system reforms in developing countries in the context of globalization.....	214
7.5. Position, trends and prospects of development of the financial market of the Republic of Uzbekistan.....	219
7.6. Problems of Uzbekistan's integration into the international financial market.....	229

**CHAPTER VIII. PROBLEMS OF THE LABOR MARKET AND LABOR MIGRATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION.....234**

8.1. The essence, reasons of formation and development factors of the world labor market.....234

8.2. Stages of development of the world labor market, demographic situation and demographic problems in developed countries.....238

8.3. Types, structure and directions of international labour migration and the attracting centres of migrants.....246

8.4. Dynamics of international labor migration, interregional migration processes and their priority flows in the world economy .....253

8.5. Impact of labor exports and imports on national economies.....258

8.6. Impact of global crises on the scale and structure of the global labor force, tools for regulating the international labor market.....262

8.7. Issues of regulation of labor activity of citizens of the Republic of Uzbekistan abroad.....266

**CHAPTER IX. TRANSNATIONAL CORPORATIONS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION.....275**

9.1. The nature, characteristics and types of transnational corporations and their role in the globalization of the world economy.....275

9.2. The transnationalization index and its calculation methods.....281

9.3. The role of transnational corporations in the globalization of the world economy.....284

9.4. Types of transnational corporations and their role in the distribution and redistribution of international capital .....290

9.5. Regional and branch structure, conditions and development trends of transnational corporations.....295

9.6. The activities of transnational corporations and the prospects for the creation of financial-industrial groups in Uzbekistan.....300

**CHAPTER X. ECONOMIC SECURITY AND PROBLEMS OF ENSURING THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY IN THE GLOBALIZED WORLD ECONOMY.....311**

10.1. The essence and types of the concept of national security and their grouping.....311

10.2. Economic security, its types and system of indicators. External and internal risks.....314

10.3. Factors affecting economic security in the context of globalization. The role of external factors in ensuring economic security.....326

10.4. The essence of the concepts of national and international competitiveness, indicators and criteria of competitiveness.....332

10.5. Theory of a country's competitive advantages and methods for determining competitiveness.....338

10.6. Factors of increasing the country's national competitiveness in the context of globalization.....	346
10.7. Strengthening the role of national security of the economy in ensuring sustainable economic development of the country.....	352
<b>TESTS.....</b>	<b>359</b>
<b>GLOSSARY .....</b>	<b>378</b>
<b>LITERATURE .....</b>	<b>388</b>

## KIRISH

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishi boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish boshqichlaridan tubdan farq qiladi. Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an'analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o'tdiki, bu bosqichni "goballashuv" deb atamoqdalar.

XXI asr boshi jahon iqtisodiyotida tub transformatsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich tugallanishi - iqtisodiy rivojlanishning global modeli shakllanishi bilan belgilandi. Xalqaro iqtisodiy tizimning tarkibiy qismlari toboro mustahkamlanib, eng so'nggi ichki yaxlitlik, uyg'unlikni vujudga keltirmoqda. Iqtisodiy faoliyatning innovatsion strategiyalari va global iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalari ta'siri natijasida zamonaviy jahon iqtisodiy rivojlanishining asosiy tendensiyasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1) Milliy iqtisodiyotni transnatsionalizatsiya qilish va ularning o'zaro bog'liqligini chuqurlashtirish;
- 2) Mintaqaviy va subregional integratsiya jarayonlarini yanada mustahkamlash;
- 3) Jahon iqtisodiyotining ijtimoiylashuvi;
- 4) Iqtisodiy faoliyatning global institutsional muhitini shakllantirish.

Bu tendensiyalar dunyo mamlakatlarining jahon iqtisodiy xaritasidagi yangi dispozitsiyasini belgilab, ularning milliy iqtisodiy majmualarini mintaqaviy va global miqyosda faoliyat ko'rsatuvchi mezonlarga samarali moslashtirishga va xalqaro bozorlarda o'z o'rnini topishiga imkon yaratadi. Bu jahon sahnasida mustaqil siyosat olib borayotgan va xalqaro mehnat taqsimotining teng, kamsitilmaydigan shartlar asosida yangi modeliga qo'shilishga intilayotgan, ikki tomonlama munosabatlarda, umuman, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida o'z milliy manfaatlari ustuvorligini saqlagan holda unda munosib o'rin egallashni maqsad qilgan barcha davlatlarga tegishlidir.

Iqtisodiy globallashuv umumiy globallashuv jarayonining boshqa tarkibiy qismlari - siyosiy, ilmiy, texnik, axborot, ekologik, ijtimoiy, madaniyat va boshqa shakllari bilan yaqin munosabatda bo'lish orqali xalqaro ishlab chiqarish va mahsulot almashinuvining misli ko'rilmagan darajada jadal dinamikasi bilan iqtisodiy hayotni baynalmilallashtirishning eng yuksak ko'rinishidir. Iqtisodiy globallashuv jahon iqtisodiy rivojlanish resurslarini ilmiy va texnologik taraqqiyot bilan birgalikda safarbar qilish orqali ishlab chiqarish omillariga yuqori harakatchanlikni beradi, biznes operatsiyalari uchun sharoit va vositalarni birlashtiradi va bozorlarni diversifikatsiya qiladi, milliy iqtisodiyotning



raqobatbardosh rivojlanishi uchun mavjud barcha salohiyatni to'liq ishga tushirilishiga zamin yaratadi.

Iqtisodiy globallashtiruv qarama-qarshi diktatorlik va assimetrik xarakterda bo'lgani uchun uning foyda va tahdidlari mamlakatlarda tarmoqlar va sohalar bo'yicha o'ta notekis taqsimlanadi. Ma'lumki, XX asr davomida jahon iqtisodiyotining o'zagini triad mamlakatlari (Aqsh, Yaponiya va YEI) tashkil etib, ular o'zlarining ulkan ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish salohiyati tufayli jahon bo'yicha tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchilariga aylandilar. Uzoq yillar davomida jahon bozorining barcha segmentlarida tajovuzkor kengayishi harakatini sodir etish natijasida ular xalqaro savdoning deyarli 75% ini, investitsion va moliyaviy oqimlarning 80% ini o'z nazoratlariga oldilar. Shuning uchun ham bugungi kunda bu davlatlar jahon iqtisodiy tizimining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va jahon iqtisodiy rivojlanishining asosiy tendensiyalarini boshqarishlari mumkin. Ayni paytda, iqtisodiy globallashtiruv sharoitida jahon iqtisodiy qudratini taqsimlashning bu modeli deyarli o'z-o'zidan tugab, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotining autsayderlari bo'lgan bir guruh mamlakatlarning tez sur'atlar bilan sivilizatsion taraqqiyot yetakchilariga aylanishlari munosabati bilan vaziat tubdan o'zgarib bormoqda. Birinchi navbatda, Xitoy, Hindiston, Braziliya, Indoneziya, Singapur, Gonkong va yaqin Sharq mintaqasidagi qator mamlakatlarni bunga misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Ular o'z milliy resurs bazasini maksimal safarbar qilishi, iqtisodiy rivojlanishni globallashtiruvchi o'ziga xos omillardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishi tufayli yaqin kelajakda iqtisodiy, texnologik va moliyaviy quvvat jihatidan yangi jahon markazlariga aylanishi imkoniyatiga egadirlar.

Globallashtiruvni iqtisodiy jihatdan baholaydigan bo'lsak, u jahon xo'jaligining barcha hududlari va jabhalarini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tarkib topishi va rivojlanishini anglatadi. Globallashtiruv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globallashtiruv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko'rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyati yo'lga qo'yilishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga ko'tarilishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro'y beradi.

Iqtisodiy globallashtiruv qator yangi sifat belgilariga egaligi tufayli uni iqtisodiy hayot baynalmillallashtiruvining o'ziga xos alohida bosqichi sifatida ajratish mumkinki, bu bosqich o'tgan asrning boshi yoki o'rtalariga nisbatan farq qiladi. Hozirgi vaqtda xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liqligi nafaqat kuchliroq namoyon bo'lmoqda, balki global darajaga chiqib, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olmoqda. Bunda albatta, eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotlari

o‘zaro birikib ketadi, lekin boshqa mamlakatlar ham turli tezlik va jadallik bilan umumjahon jarayonlariga jalb etiladi. Komp’yuter texnikasi va elektron telekommunikatsiyaning tez rivojlanishi, yuqori tezlikka va tejamkorlikka ega transport turlarining paydo bo‘lishi qit’alar va davlatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, xalqaro ayirboshlash darajasining keskin o‘shishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotida ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonning globallashtirish jarayonlardagi ishtiroki iqtisodiyotimizga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli globallashtirish sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda uning zamonaviy xususiyatlarini e’tiborga olish, puxta o‘ylangan oqilona iqtisodiy siyosat yuritish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Jahon miqyosida globallashtirish va raqobat kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarni hisobga olishimiz, egallab turgan o‘rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora o‘sib borayotgan hayot talablariga mos hamda javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamnafas bo‘lishimiz zarur. Chunki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozni oldindan ko‘rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o‘ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo‘lgan mamlakatgina pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning globallashtirish sharoitida milliy iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Kasbiy faoliyati xo‘jalik sohasi bilan bog‘liq har bir mutaxassis o‘z korxonasi faoliyati doirasidagi u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo‘lishidan qat’i nazar, jarayonlarga jahon bozorining ta’sir qilish omillarini bilishi va hisobga olishi kerak bo‘ladi. Bunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko‘rinishlari globallashtirishdagi o‘ziga xos xususiyatlarni tahlil qilish, ularga moslashish omillarini o‘rganish makro va mikrodarajada jahon va milliy xo‘jalik konyukturasidan maqsadli xabardorlikning eng zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli “Global iqtisodiy rivojlanish” fani iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlashda, respublikada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida mamlakatning jahon xo‘jaligiga samarali integratsiyalashuvini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

## **I BOB. “GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

### **1.1. “Global iqtisodiy rivojlanish” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va o‘rganish uslublari**

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning o‘tgan 20 yilida jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining eng e‘tiborli jihati xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global ravishda rivojlanib borishi bo‘ldi. Jahon xo‘jaligi tizimida davlatlarning ayrim guruhleri, xalqaro iqtisodiy guruhlar, alohida kompaniya va tashkilotlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora kengayib bormoqda. Bu jarayonlar xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va baynalmilallashuvida, ularning bir-biriga bog‘liqligi va yaqinlashuvida, mintaqaviy xalqaro tuzilmalar va ayrim davlatlar guruhlarining rivojlanishi va munosabatlari mustahkamlanishida namoyon bo‘lmoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, hamkorlik va globallashtirish jarayonlari qarama-qarshi dialektik xarakterga ega. Globallashtirish munosabatlarning dialektikasi shundaki, ayrim mamlakatlar va iqtisodiy guruhlarning iqtisodiy mustaqillikka hamda iqtisodiyotini mustahkamlashga intilishi global iqtisodiyotning yanada integratsiyalashuvi, jahon iqtisodiy munosabatlarning kengayishi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

Global iqtisodiy munosabatlarning predmetini ikki asosiy qism – global iqtisodiy munosabatlarning o‘zi va uni amalga oshirish mexanizmi tashkil qiladi.

Global iqtisodiy munosabatlar alohida mamlakatlar, ularning mintaqaviy birlashmalari, shuningdek, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin egallovchi alohida korxonalar (transmilliy, ko‘pmilliy va xalqaro korporatsiyalar)ning global iqtisodiy tizimdagi o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan iqtisodiy munosabatlari majmuini o‘z ichiga oladi.

Global iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish mexanizmi esa huquqiy me‘yorlar va ularni amalga oshirish vositalari (xalqaro iqtisodiy shartnomalar, kelishuvlar, «kodekslar», xartiyalar va boshqalar), global iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadi yo‘naltirilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Global iqtisodiy munosabatlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti.
2. Xalqaro tovar va xizmatlar savdosi.
3. Xalqaro kapital va investitsiyalar harakati.
4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.

## 6. Global iqtisodiy integratsiya.

Global iqtisodiy munosabatlar XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda jahon xo'jaligi ko'rinishida o'rganilgan va bu munosabatlar mintaqaviy xarakterga ega bo'lgan. Jahon iqtisodiyotining global iqtisodiyot darajasiga o'zgarishi bilan bu munosabatlar kengayib va chuqurlashib, global xarakterga ega bo'ldi.

«Global iqtisodiy rivojlanish» fani turli milliy iqtisodiyotlarning o'zaro ta'sirlashuv qonuniyatlarini, tovar va xizmatlar oqimlarining harakati va jahon hamjamiyati ichidagi to'lovlarni, ushbu tovar va xizmatlar oqimini belgilab beruvchi hamda muvofiqlashtirib turuvchi iqtisodiy siyosatni, ularning jamiyat farovonligiga ta'sirini o'rganadi.

«Global iqtisodiy rivojlanish» fanining predmeti mikro va makroiqtisodiy fanlar predmetidan farq qiladi. Ushbu fanning o'rganish predmeti turli mustaqil davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari va ular o'rtasida yuzaga keladigan aloqalar tizimi hisoblanadi.

Global iqtisodiyot, odatda, tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari oqimiga qarshi mamlakatlar o'z chegaralarida o'rnatadigan ma'lum bir ichki cheklovlarning mavjud emasligi bilan xarakterlanadi.

Alohida mamlakatlar yoki hamkor guruhlar iqtisodiyoti bilan global iqtisodiyot o'rtasidagi qator farqlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchidan, har qanday korxonada iqtisodiyotida ichki bozorda ishlab chiqarilgan har qanday foydali buyum yoki xizmat tovar sifatida tan olinadi. Makroiqtisodiy yondashuv esa joriy mehnat orqali ishlab chiqarilgan bunday tovarlarni yalpi ichki mahsulot va milliy daromad tarkibiga kiritiladi.

U yoki bu milliy iqtisodiyotda kerakli buyum sifatida ishlab chiqarilgan yoki sotilgan tovar xalqaro savdoda tovar sifatida tan olinmasligi ham mumkin. Xalqaro savdo sohasida tovarlar savdo qilinadigan (tradable goods) va savdo qilinmaydigan (nontradable goods) tovarlarga ajratiladi. Faqat ichki iste'mol uchun ishlab chiqariladigan tovarlar savdo qilinmaydigan tovarlar sanaladi. Ular sirasiga qurilish mahsulotlarining katta qismi, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari, raqobatbardoshligining pastligi oqibatida savdo qilinadigan tovarlarning hammasi ham tashqi bozorlarda ayirbosh qilinmasligi mumkin. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dunyoda hech bir mamlakat ishlab chiqariladigan barcha turdagi tovarlar bo'yicha doimiy raqobat ustunligiga erisha olmaydi.

Ikkinchidan, har bir milliy iqtisodiyotda mehnat va kapitalning nisbatan erkin ko'chib yurishi kuzatiladi, bunga muvofiq, mamlakatda tegishli bozorlar shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Bunda hududlardagi ish haqi miqdorida bir oz farq kuzatilsa-da, ishchi kuchining erkin ko'chib yurishi mazkur farqni nisbatan kamaytiradi.

Global iqtisodiyotda esa nisbatan boshqacha holat kuzatiladi. Immigratsiya qonunlari, ishchilarning mamlakatdan mamlakatga ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq xarajatlar va boshqa to‘siqlar turli mamlakatlarda beriladigan ish haqlari o‘rtasidagi farqlarni tenglashtirishga monelik qiladi. Ishchi kuchi oqimiga qaraganda kapitalning xalqaro oqimida to‘siqlar nisbatan kam uchraydi. Bunday farqlar, o‘z navbatida, tovarlar oqimining harakati va ichki savdo operatsiyalarining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, korxonalar iqtisodiyoti mamlakat ichida erkin savdo qiladigan va davlat ko‘magidan foydalanmaydigan firmalar faoliyatini o‘rgansa, xalqaro savdo nazariyasi esa tashqi savdo yo‘liga qo‘yiladigan turli cheklovlar va ularning savdo oqimiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi.

To‘rtinchidan, makroiqtisodiyot fani mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan tadbirkorlik muhitini o‘rganadi. Davlat tomonidan qo‘llaniladigan fiskal va pul-kredit siyosati milliy chegaralar doirasidagina amal qiladi. Biroq davlat tomonidan amalga oshiriladigan ushbu siyosatlarning bir-biridan tubdan farq qilishi tovarlar oqimi va xalqaro shartnomalarning amal qilishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, odatda, har bir mamlakat o‘z valyutasiga ega bo‘lib, uning taklif qilinish darajasi Federalbank tomonidan nazorat qilinadi. Makroiqtisodiyot fani ana shunday yagona valyutaning amal qilishi va uning real vaziyatlarga ta’sirini o‘rganadi. Global iqtisodiyotda esa jahon xo‘jaligi aloqalarida qatnashuvchi mamlakatlar valyutalari o‘rtasidagi munosabatni yuzaga keltiradigan valyuta bozorlari, almashuv kursleri va unga davlatlarning aralashuvi natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar tadqiqot ob’ekti sifatida qaraladi<sup>1</sup>.

Savdo va savdo siyosati nazariyalari, shuningdek ishlab chiqarish omillarining bir mamlakatdan ikkinchisiga ko‘chib yurishi global iqtisodiyotning mikro darajasida o‘rganiladi. Global iqtisodiyotda mamlakatlar yoki mamlakatlarning iqtisodiy guruhleri mikroiktisodiyot fanidagi uy xo‘jaligi yoki firmalar singari qaraladi.

U yoki bu mamlakatning to‘lov balansi jami to‘lovlar va tushumlarga uzviy bog‘liqdir. Uni muvofiqlashtirish siyosati esa milliy daromad va baholar umumiy holatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ular bilan bog‘liq muammolar esa global iqtisodiyotning makroiqtisodiyot qismida o‘rganiladi. Bunda ochiq iqtisodiyot modeli, fiskal, pul-kredit siyosati va uning samaradorligi, xalqaro moliyaning makroiqtisodiy tahlili tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Uslubiy jihatdan, umumiy holda olib qaraganda, global iqtisodiyot mikro va makroiqtisodiy tamoyillarning alohida davlatlar yoki ularning iqtisodiy

---

<sup>1</sup> Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Milliy va jahon iqtisodiyoti. Darslik. – T.: 2010 y. – 16-18 betlar.

birlashmalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlari sohasida qo'llanilishini ifoda etadi.

Globallashuv predmetini globallashuv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi hamda oldinga harakatlantiruvchi tashkilotlar va siyosiy tuzilmalar faoliyatida yuzaga keluvchi munosabatlar sifatida tushunish lozim. Bunday holatda bu harakatning asosli yoki asossiz ravishda sodir etilishining ahamiyati yo'q. Agar biz rivojlanishning iqtisodiy yoki ijtimoiy mantig'iga amal qilsak, davlatni iqtisodiy shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadigan, milliy iqtisodiyotni yoki uning alohida tuzilmalarini xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro iqtisodiy integratsiya tizimiga kiritishga hissa qo'shishi nuqtai nazaridan globallashuv predmeti sifatida tan olamiz.

Globallashuv sub'ektlari ham davlatlararo iqtisodiy-harbiy bloklar va ittifoqlardan iboratdir. Bu tashkilotlarning jahon savdosi, pul-kredit va moliya munosabatlaridagi o'rni masalalari iqtisodiyot nazariyasi kursining tegishli mavzularida muhokama qilinadi. Shu bilan birga mahalliy sivilizatsiyalar tarixi va globallashuvning paydo bo'lishi o'rtasidagi bog'likliklar tahlil qilinadi. Mahalliy sivilizatsiyalar va zamonaviy transmilliy korporatsiyalar ham globallashuvning asosiy sub'ektlari sanaladi.

Globallashuv ob'ekti deganda sub'ektning nimalar bilan o'zaro aloqada bo'lishi, globallashuv muammolarini bartaraf etishda nimalarga etibor qaratish va qanday choralar ko'rishni tushunishimiz mumkin.

«Ob'ekt» so'zi lotincha «*objectum*» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, narsa degan ma'noni bildiradi va lotinchadan «*objicio*» - oldinga tashlamoq, qarshi chiqmoq ma'nosini bildiradi. Falsafiy nuqtai nazardan ob'ekt – predmetga qarshi turgan narsani o'z predmeti – amaliy va bilish faoliyatini ifodalovchi kategoriyadir. Demak, globallashuv ob'ekti sub'ektlarning dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyoti qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, yaratuvchi yoki o'zgartiruvchi ob'ektiv voqelikdir. Bunga xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, xalqaro savdo, global integratsiya va hamkorlik, kapitalni eksport qilish, mehnat migratsiyasi, ilmiy-texnik hamkorlik, narx siyosati, xalqaro infratuzilma, axborot texnologiyalari, kosmik tadqiqotlar, okeanlar va dengizlar, yerning ichki qismini o'rganish, sayyoralararo reyslar va boshqalar kiradi.

Yaqin davrlargacha global muammolarni hal qilishning asosiy vositasi harbiy kuch-qudrat va harakatlar bo'lib kelgan. Asta-sekin urush siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida o'z ma'nosini yo'qota bordi. Endilikda davlatlar o'rtasidagi muammolarni mintaqaviy qutblar hal qilmoqda, ammo global muammolar haligacha yetakchi davlatlar tomonidan hal qilinadi.

Mahalliy sivilizatsiya ma'naviy (madaniy, ahloqiy, diniy) va tarixiy qadriyatlar, iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlarni ifodalovchi bir guruh xalqlar

(etnik guruhlar, davlatlar)ni o'z ichiga olgan dunyodagi fuqarolik makonining bir qismini anglatadi.

Insoniyat tarixida bugungi kungacha sivilizatsiyalar harakatining to'rt avlodi mavjud.

Sivilizatsiyalarning birinchi avlodi miloddan avvalgi IV-II ming yillikda faoliyat ko'rsatib, Yer sharining nisbatan tor sohilini – 25° dan 60° shimoliy kenglikkacha egallab, uning chegarasi taxminan O'rta yer dengizi va Boltiq dengizining Janubiy qirg'og'idan Oxota va Sariq dengizigacha cho'zilgan.

Sivilizatsiyalarning ikkinchi avlodi Yevroosiyo, Afrika va Okeaniyani qamrab olgan. Insoniyat turlicha tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan bo'lib, aholining tez o'sishi qo'shimcha tabiiy resurslarni qidirish va ularni hayot jarayoniga jalb qilishni taqazo etadi.

Uchinchi avlod sivilizatsiyasi dunyoning rivojlangan, aholi yashaydigan qismini qamrab olgan. Bu bosqichda barcha mamlakatlarni ekologik va demografik dinamikani, jamiyat va tabiatning birgalikdagi evolyutsiyasini uyg'unlashtirish yo'llarini izlashga majbur qilgan global ekologik muammolar yuzaga keldi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirish, tabiat va jamiyatning o'zaro mutanosibliigi to'g'risidagi qarashlarni ilgari surish zarurati tug'ildi.

Hozirgi kunda sivilizatsiyaning to'rtinchi avlodi shakllanmoqda. Bu avlodning o'ziga xos xususiyatlari, birinchidan, ilgari mavjud bo'lgan odamlar jamoalari – kapitalizm va sotsializm asosida sifat jihatidan yangi sivilizatsiya ekanligi bo'lsa, ikkinchidan, ilgari inson industrial, siyosiy va mafkuraviy mashinaning bir qismi bo'lgan bo'lsa, bu davrda u o'zining ijodiy salohiyati, ma'naviy qadriyatlari va bilimlari bilan birinchi o'ringa qo'yiladi. Bu xususiyatlar dunyo sivilizatsiyasi makonini bo'lish mezonlarining asosini tashkil etadi. Uchinchidan, globallashuv va integratsiya tabaqalashuv (differensiatsiya) bilan qarama-qarshilikda bo'ladi. So'nggi bosqichda sivilizatsiya markazi Yevropa va Shimoliy Amerikadan Sharqqa o'tib bormoqda<sup>2</sup>.

Bu esa globallashuvga qarshi harakatning tarqalishidan dalolat beradi, bu harakatning miqyosi kengayadi, lekin globallashuv jarayonini to'xtatishning imkoni yo'q. Ushbu jarayondagi asosiy vazifa – globallashuv jarayonini jahon hamjamiyati nazorati ostida olib borish, uni tartibga solishda umume'tirofga va hurmatga sazovor eng ilg'or qoidalarni joriy etish, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti va madaniyatini oshirish uchun globallashuvning afzallik jihatlaridan unumli foydalanish, boy va kambag'al mamlakatlar hamda xalqlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishdir. Mahalliy sivilizatsiyalardan tashqari xalqaro tashkilotlar ham globallashuvning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. BMT o'z muassasalari —

---

<sup>2</sup> [http://www.intereconomic.ru/str\\_21.php](http://www.intereconomic.ru/str_21.php)

bosh Assambleya, xavfsizlik Kengashi, iqtisodiy va ijtimoiy Kengash, aholi xizmatlari, statistika, YUNESKO va boshqalar bilan butun insoniyat manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga mo'ljallangan. Bundan tashqari globallashuvning yirik sub'ektlari hisoblanuvchi tashqi iqtisodiy aloqalarning ayrim sohalarini tartibga soluvchi Xalqaro valyuta fondi, Jahon savdo tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar, Yevropa hamkorlik va xavfsizlik tashkiloti, OPEK, MDH kabi xalqaro institutlar shakllangan.

## **1.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari**

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlarda globallashuv tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Globallashuv muammolari tarixchilar, iqtisodchilar, texnologlar, faylasuflar va ko'plab mamlakatlarning siyosatchilari tomonidan muhokama qilinmoqda.

Ayni paytda globallashuv tarafdorlari bilan unga qarshi bo'lgan qarashlarning vujudga kelishi, asosan, ushbu tushunchaning turlicha talqin qilinishi bilan bog'liq bo'lmoqda.

Globallashuv jarayoni tarafdorlarining fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, aholi farovonligini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga imkon beradi.

Bu jarayonga qarshi bo'lganlar esa, globallashuv rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo ekspansiyasining kuchayishi, iqtisodiy jinoyatlarning ortishi (qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish, noqonuniy reeksport, narkotik moddalar savdosining ortishi va h.k.), atrof-muhit ifloslanishi, texnika xavfsizligiga amal qilmaslik, bolalar mehnatidan foydalanish va boshqa noxush hodisalar bilan bog'liq muammolar kuchayishiga olib keladi, deb hisoblaydilar. Biroq qanchalar xavotirli bo'lgani bilan globallashuv jarayonini baribir to'xtatib bo'lmaydi. Tahlilchilar globallashuv jahon iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ekologik tendensiyalarga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur o'rganishlari lozim bo'ladi.

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga, ya'ni global darajaga o'tishni boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy rivojlanishning bu yangi bosqichi oldingilaridan tubdan farq qiladi.

Mutaxassislar tomonidan uzoq muddatli tamoyillarni belgilash va kelajakdagi iqtisodiy strategiyani aniqlashga intilgan holda tuzilmaning eng xarakterli belgilarini muhokama qilish davom etayotgan bo'lsa-da, hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tuzilmasining quyidagi xususiyatlari o'z-o'zidan namoyon bo'lib turibdi:



a) samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejovchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;

b) konveyer, keng xalq ommasi iste'moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va ayniqsa, xususiy sektorning kreativ (ijodiy) alohida yo'naltirilgan xo'jalik faoliyatiga o'zgartirish;

v) milliy iqtisodiyotlarni ochiq lashtirish tamoyillarining hududiy miqyosdagi yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo'shib ketishi;

g) xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;

d) hal etilishi jihatidan jahondagi barcha mamlakatlarning jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, sivilizatsiyaning global muammolari deb atalmish ekologik, xomashyo, demografik muammolar yechimining dolzarblashuvi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim belgilarini sanab o'tgan holda, kasbiy faoliyati xo'jalik sohasi bilan bog'liq har bir mutaxassis uchun o'z faoliyatida u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo'lishidan qat'i nazar, alohida korxonada doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta'sir qilish omillarini bilishi va hisobga olishi kerak bo'ladi. Shuning uchun xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko'rinishlari globallashtirishni o'rganish, ularni modellashtirish usullari ko'p omillarga asoslangan tahlil va statistikaning qo'llanishiga qarab turli-tuman bo'lishiga qaramasdan, makro va mikro darajada jahon va milliy xo'jalik kon'yunkturasi bilan maqsadli xabardorlikning zaruriy shart-sharoitlari hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi. Bu sohalar tarkibiga asosan quyidagilar kiradi:

- tashqi, xalqaro, jahon miqyosidagi tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk ob'ektlari savdosi;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati (ishchi kuchi, kapital, axborot);

- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalari (beg'araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarining kredit va qarzlari, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar, valyuta operatsiyalari);

- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, injiniring va axborot sohasidagi hamkorlik.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashtirishini quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarish baynalmilallashtirishining chuqurlashuvi, ya'ni iste'mol uchun yaratiladigan mahsulotni tayyorlashda jahonning turli davlatlari ishlab chiqaruvchilari qatnashishi.

- kapital baynalmilallashuvining chuqurlashuvi, ya'ni davlatlararo xalqaro kapital harakatining o'sishi, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'rinishidagi fond bozorlarining baynalmilallashuvi;

- ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalari almashinuvi, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi;

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global miqyosdagi material, axborot, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida ayirboshlash baynalmilallashuvining kuchayishi, bunda xalqaro xizmatlar sohasi hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan asosiy yo'nalishlardan biriga aylanadi;

- xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishi, bunda rivojlangan davlatlarda kambag'al davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishga jalb etilishi;

- ishlab chiqarish va iste'molning baynalmilallashuvini atrof-muhitga ta'sirining ortishi, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi.

Globallashuv jarayoni quyidagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtirish;

- hozirgi paytda xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyoti ochiqligini ta'minlash;

- barcha bozorlardagi ishtirokchilarning munosabatlarda to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlash;

- moliyaviy va savdo operatsiyalarning qoida va chegaralarini universallashtirish;

- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni unifikatsiyalash;

- kapitalni joylashtirish, investitsiya jarayonlari va umumjahon to'lov-hisob tizimini standartlashtirish.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv davlatlar va integratsion uyushmalarning iqtisodiy faollikka intilishi, savdo va investitsion to'siqlarni olib tashlash, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi. Shu bilan birga globallashuv jarayoni davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pgina yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) global miqyosda harakat qiladi: ular chegarasi va milliy mansubligidan qat'i nazar, birinchi navbatda iste'molchilarning talabini qondirishi kerak. TMK uchun ichki bozorga nisbatan ko'pincha tashqi iqtisodiy

faoliyat muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ular globallashuv jarayonining sub'ekti bo'ladi. TMK – bu globallashuvning asosi, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir<sup>3</sup>.

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi bir nechta muhim iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda yuz beradi. Ushbu jarayonlarga xalqaro kapital migratsiyasi, erkin savdo, tashqi savdo siyosati kabi jarayonlarni kiritish mumkin.

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar taraqqiy etishi bilan birgalikda xorijiy investitsiyalar, portfelli investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallarning xalqaro harakatining kuchayishi globallashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy mablag'lar xalqaro oqimining o'sish sur'atlari xalqaro savdo hajmining o'sish sur'atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining o'sib borayotgani diqqatga sazovordir.

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikni diversifikatsiyalanishiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo'lga kiritmoqdalar. Odatda, investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foyda hajmi yuqori bo'lib, bu investorlarning yuqori foydani ko'zlagan holda o'z kapitallarini ma'lum hududlarga yo'naltirishiga turtki bo'ladi.

O'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda milliy xo'jalik tizimini rivojlantirish, shuningdek, diversifikatsiyaga erishish maqsadida ishlab chiqarish va eksportning mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. Shu vaqtning o'zida, bunday iqtisodiyotga ega aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq turli muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahonning ulkan kapital resurslari bozoriga kirish ushbu mamlakatlar uchun jamg'arishdan ko'ra ko'proq investitsiyalarni amalga oshirish, iqtisodiyotni isloh qilish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda jahon moliya bozorlari afzalliklaridan foydalanish imkoniyatini beradi<sup>4</sup>.

Tovar va xizmatlarning erkin savdosi globallashuvning o'ziga xos xususiyatidir. Ma'lumki, iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlari ixtisoslashuvi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligi oshishining qo'shimcha manbai bo'lib hisoblanadi. Xalqaro savdo bu kabi yutuqlarga boshqa yo'llar orqali ham erishishi mumkin. Xalqaro savdo orqali fan-

---

<sup>3</sup> Nazarova G.G., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. /prof. N.X. Jumaev tahriri ostida (o'quv qo'llanma), TDIU, 2011 y. 316 bet.

<sup>4</sup> «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003.

texnika yutuqlaridan foydalanish natijalari boshqa mamlakatlarga bilvosita va bevosita tarqaladi. Bevosita tarqalish fan-texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilishida va boshqa mamlakatlar ularni xarid qilishi loqali ham sodir bo'ladi. Bilvosita tarqalish esa, odatda, yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshishida va tovarlar sifatining yaxshilanishi orqali ro'y beradi.

Erkin savdo milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari sifatining yaxshilanishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, import orqali ishlab chiqaruvchilar soni kam bo'lgan yoki xorijiy tovar sifati darajasiga yetmagan iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatni vujudga keltirib, tovar tannarxining pasayishini ta'minlaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchli raqobat mavjud bo'lgan jahon bozorlariga chiqishi tovar hamda xizmatlar sifatining oshishi bilan birga tannarx pasayishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv jarayonlari va raqobat kuchaysa, ishchi resurslarining ma'lumoti va malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimi, ilmiy-texnik ustuvorlik hamda sifatli infratuzilmaga talab oshadi. Ishlab chiqarish omillari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faol axborot almashinuvini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy strategiyalarni o'z vaqtida tuzatib borish orqali mavjud ustuvorliklarni asrab qolish, ularni rivojlantirish va pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishiga erishish mumkin.

Globallashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishga ham zarurat tug'dirmoqda. U iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida izlanish va tadqiqotlar, ta'lim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo'shma korxonalar va xorijda tajriba almashinishning jadallashuvi orqali namoyon bo'lmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik sub'ektlarining faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o'zgarishlariga xos qarorlarni o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Erkin savdo va proteksionizm yaxlit holda samarasiz ekani shubhasizdir. Globallashuvning kutilmagan o'zgarishlari mamlakat tashqi savdosi shartlariga o'tkazadigan ijobiy ta'sirlarini imkon qadar oshirishi, salbiy ta'sir tahdidlarini kamaytirishda iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi tashqi savdoda olib boriladigan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki valyuta bozorini erkinlashtirish orqali eksport-import operatsiyalarini rag'batlantirish, erkin raqobat muhitida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini oshirish imkoni qo'lga kiritiladi. Bundan tashqari sanoat siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotning strategik muhim eksport tovarlari jahon bozori

kon'yukturasiyning o'zgarishlariga bog'liqlik darajasini kamaytirishga erishish mumkin.

Pol Roberts uchta savdo blokini taklif etadi. Bloklar mos ravishda Uchinchi, Ikkinchi va Birinchi olam mamlakatlari uchun tashkil etilib, mamlakatlar yashash tarzining o'sishiga muvofiq holda bir blokdan ikkinchisiga o'tadi. Bu kabi yondashuvning sababi, birinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning savdodan oladigan salmoqli nafni kamaytirishi hisobiga umumiy boyliklarning qisqarishidir. Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar iste'molchilarining xarid qobiliyati pastligi hisobiga savdoda salmoqli naf ko'ra olmasligi bilan bog'liq muammo tufayli ularda na iqtisodiy o'sish va na aholi farovonligida sezilarli darajada yaxshilanish ro'y beradi<sup>5</sup>.

Ikkinchi variant – odil savdo nazariyasi. Uning mazmun-mohiyati turli mamlakatlarda savdodan olinadigan nafning birmuncha tekis taqsimlanishi hamda ijtimoiy va ekologik standartlarning tenglashtirilishi maqsadida xalqaro tashkilotlar yordamida rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotlariga qiyosiy narxlar o'rnatishdan iborat. Bu nazariyani Laura Tayson qo'llab - quvvatlaydi. Ammo mazkur nazariyaning kamchiligi shundaki, bu kabi narx mexanizmiga aralashuv bozor munosabatlari qonuniyatlariga ziddir. Bundan tashqari unda ko'zda tutilgan jarayonlar qimmatga tushib, uzoq kelajakda ko'zlangan maqsadga erishilmaydi va iqtisodiyot faoliyatida samaradorlik pasayadi.

### **1.3. Globallashuv tushunchasining mohiyati va rivojlanish evolyutsiyasi**

XX asrning oxiri va XXI asr boshida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy jarayonlaridan biri progressiv globallashuv, ya'ni iqtisodiy hayotning baynalmilallashuv jarayonidagi sifat jihatidan yangi bosqichdir.

Globallashuv jarayonlarining oqibatlari to'g'risidagi turli nuqtai nazarlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari jahon iqtisodiy tizimiga jiddiy tahdid solmoqda, boshqalari esa keyingi iqtisodiy taraqqiyot uchun vosita bo'lmoqda. Globallashuvning oqibatlari ijobiy yoki salbiy bo'lishi noaniq, ammo, vaziyat shundayki, uning muqobili yo'q. Shuning uchun asosiy e'tiborni ushbu jarayonlar keltiradigan xavf-xatarlar (tahdidlar) hamda globallashuv jarayonida yuzaga keladigan imkoniyatlar va foydalarni o'rganishga qaratish zarur. Sababi globallashuv bir jihatdan katta xavf-xatar bo'lishi bilan birga ikkinchi tarafdin keng imkoniyatlar hamdir. Muhimi to'g'ri harakatlanish orqali jarayonni o'z foydasiga hal qilishdir.

---

<sup>5</sup> Г.Лещ, <http://www.contr-tv/discuss/353>

Buning uchun eng avvalo, “globallashuv”, “iqtisodiy hayotning baynalmilallashuvi”, “xalqaro iqtisodiy hamkorlik”, “xalqaro iqtisodiy integratsiya” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash zarur. Globallashuv jarayonining mohiyati, uning shart-sharoitlari, o‘ziga xos ko‘rinishlari, uning ijobiy hamda salbiy oqibatlariga aniqlik kiritish muammolarini hal qilish to‘g‘ri yondashuvni shakllantirishga asos bo‘ladi.

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi, umuman, xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi ortib boradi. Sababi tashqi omillarni hisobga olmasdan iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin emas. Bu hodisa iqtisodiy hayotning baynalmilallashuvi deb ataladi. Bu tushunchaning umumiy ta‘rifi quyidagicha: “Xo‘jalik faoliyatining baynalmilallashuvi alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi munosabatlar va o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning milliy iqtisodiyotlarga ta‘siri va mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida ishtirok etish darajasi va holatidir”.

Globallashuv jarayoni o‘zi rivojlanish taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. Dastlab u xalqaro iqtisodiy hamkorlik sifatida qaralgan: u, birinchi navbatda, muomala madaniyati sohasiga ta‘sir ko‘rsatdi. Bu esa xalqaro savdoning paydo bo‘lishi (XVIII asr oxiri – XX asr boshlari) bilan bog‘liq edi. XIX asr oxiriga kelib kapitalning xalqaro harakati yanada mustahkamlanib bordi, munosabatlar kengayib, iqtisodiy hamkorlik avj oldi.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida barqaror iqtisodiy aloqalar o‘rnatish, reproduktiv jarayonni milliy chegaralardan tashqarida ham rivojlantirish demakdir.

Keyingi bosqich xalqaro iqtisodiy integratsiya bo‘lib, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapitalning baynalmilallashuvi, ilmiy-texnologik taraqqiyotning globallashuvi va milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi va savdo erkinligining oshishi bilan uzviy bog‘langan. Shu o‘rinda integratsiya so‘ziga izoh berib o‘tadigan bo‘lsak, integratsiya (lotincha *integratio*) – alohida qismlarning umumiy, bir butun, bir butunlikka bog‘lanishini bildiradi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya milliy iqtisodiyotlarning yaqinlashuvi va o‘zaro moslashuvi, ularning xalqaro miqyosda takror ishlab chiqarish jarayoniga qo‘shilishidir. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani alohida milliy iqtisodiyotlar o‘rtasidagi mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiy birlashuvi jarayoni, chuqur va barqaror munosabatlarni rivojlantirish orqali turli shakl va darajadagi o‘z iqtisodiyotlarini boshqalarga nisbatan baholashlari deb ta‘riflash mumkin.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon xo‘jaligi rivojida ancha yuqori, samarali va istiqbolli bosqich, iqtisodiy munosabatlarni baynalmilallashtirishda sifat jihatidan yangi va murakkab bosqich hisoblanadi. Bu bosqich nafaqat milliy

iqtisodiyotlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, balki iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishni ham ko'zda tutadi. Binobarin, iqtisodiy integratsiyani mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar jarayoni sifatida baholash mumkin. U iqtisodiy mexanizmlarning yaqinlashishiga olib keladi, davlatlararo bitimlar maqomini oladi, uning shartlari davlatlararo tashkilotlar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Iqtisodiy integratsiya quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- turli mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlik (ularni to'liq yoki qisman birlashtirish);

- Dunyo mamlakatlari o'rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat harakati sohasida mavjud to'siqlarni bartaraf etish;


- yagona umumiy bozorni shakllantirish uchun alohida mamlakatlarning har biri bozorlarining yaqinlashuvini ta'minlash;

- hamkorlikka kirishgan agentlar o'rtasidagi farqlarning yiriklashishi;

- milliy iqtisodiyotlarning har birida xorijiy hamkorlarga nisbatan hech qanday kamsitish shaklining yo'qligi va boshqalar.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlari ikki tomonlama – mintaqaviy yoki global asosda kechadi. Hozirgi davrda integratsion birlashmalarning xarakterli xususiyati ularning mintaqaviy darajada rivojlanganligidir: umumiy va davlatlararo boshqaruv tizimlariga ega bo'lgan integral mintaqaviy iqtisodiy majmualarga endilikda asos solinmoqda.

Hozirgi bosqichda barcha xalqaro munosabatlar tizimida chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa globallashuvning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, iqtisodiy integratsiya va globallashuvga olib keluvchi o'zaro bog'langan jarayonlar zanjirini quyidagicha ifodalash mumkin (1.1-rasm).



### 1.1-rasm. Xo'jalik faoliyatini baynalmilallashtirish bosqichlari

Globallashuv zamonaviy jahon boshqaruv tizimining eng muhim xususiyatiga – sayyoramizning rivojlanish yo'lini belgilab beruvchi eng nufuzli kuchlardan biriga aylandi. Globallashuvning hukmronlik nuqtai nazariga ko'ra, jamiyatda hech qanday harakat, hech qanday jarayon (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqalar)ni to'liq cheklangan deb hisoblash mumkin emas. Xalqaro munosabatlarning globallashuvi bu – ijtimoiy hayot va xalqaro munosabatlar sohasidagi turli faoliyat sohalarida o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirning ortishidir.

U ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, mafkura, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, xavfsizlik, turmush tarzi va inson mavjudligining jamiki shart-sharoitlariga ta'sir ko'rsatadi.

“Globallashuv” tushunchasi so'nggi paytlarda iqtisodiy adabiyotlarda keng tarqalgan bo'lsa-da, u hali ham konseptual xarakterga ega bo'lgan amaliy jihatdan ro'y berishi aniq bo'lgan uzoq yo'ldir.

Globallashuv jarayonining iqtisodiy munosabatlardagi o'ziga xos ko'rinishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi (bunda dunyoning ko'plab mamlakatlaridan ishlab chiqaruvchilarning yakuniy mahsulotni yaratishda turli shakl va bosqichlarda ishtirok etishlari kuzatiladi;

- mamlakatlar o'rtasida, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya shaklida (tashqi savdo va ishlab chiqarish tezroq o'sib borayotgan xorijiy mamlakatlardagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi bilan) xalqaro kapital oqimlarining o'sishi hisobiga kapitalning baynalmilallashuvini chuqurlashtirish va shu asosda dunyo fond bozorining baynalmilallashuvi;

- integral ishlab chiqarish va iste'mol tizimlarida iqtisodiy birliklarni bog'lovchi ishlab chiqarish vositalari va ilmiy-texnik, texnologik bilimlar almashinuvi, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va hamkorlik shaklida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi hamda ishlab chiqarish hamkorligi, ishlab chiqarish resurslarining xalqaro harakati;

- xalqaro hamkorlikni ta'minlovchi global material, axborot, tashkiliy va iqtisodiy infratuzilmani shakllantirish;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi asosida birjalarning baynalmilallashuvini mustahkamlash, mujassamlashgan tovarlar bo'yicha xalqaro savdo miqyosini kengaytirish va sifatini oshirish;

- xalqaro mehnat migratsiyasining oshishi;

- ishlab chiqarish va iste'molning atrof-muhitga ta'sirida baynalmilallashuvning ortishi.

Globallashuv jarayonlari kelajakda quyidagi ko'rinishlarda yuzaga kelishi bashorat qilinmoqda:

- mintaqaviy integratsiya jarayonlarining intensivlashuvi;

- o'z iqtisodiy faoliyatini hali to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiy tizimlarining yanada ochiqligi;


- Har qanday bozorga barcha ishtirokchilarning hech qanday cheklolarsiz kirishi;

- savdo va moliyaviy operatsiyalar uchun qoidalarni universallashtirish;

- bozorni tartibga solish va nazorat qilishni unifikatsiyalash;



- kapital harakati, investitsiya jarayoni va global to'lov va hisob-kitob tizimiga bo'lgan talablarni standartlashtirish.



**1.2-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining tarkibiy qismlari**

Globallashuv va integratsiyaning bir nechasini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mintaqaviy va xalq xo'jaligi (makro daraja);
- tovar, moliya va valyuta bozorlari, mehnat bozorlari (mezodaraja);
- induvidial kompaniyalar (mikro daraja).

Globallashuvning makroiqtisodiy darajasi davlatlar va integratsion birlashmalarning savdoni erkinlashtirish, savdo va investitsion to'siqlarni olib tashlash, erkin savdo zonalarini yaratish va shu kabi usullar bilan o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga intilishida namoyon bo'ladi.

Globallashuvning mikroiktisodiy darajasi kompaniyalar faoliyatini ichki bozordan tashqarida kengaytirishda namoyon bo'ladi. Eng yirik ko'p millatli korporatsiyalarning aksariyati jahon miqyosida faoliyat yuritishi kerak: ularning bozori iste'mol darajasi yuqori bo'lgan har qanday sohaga aylanadi, ular chegara va millatidan qat'i nazar, hamma joyda iste'molchilar talabini qondira olishi kerak.

Barcha iqtisodiy sub'ektlarning erkin va samarali biznes faoliyati uchun yagona global iqtisodiy, huquqiy, axborot va madaniy makonni shakllantirish, tovar va xizmatlar, kapital va mehnat uchun yagona global bozorni yaratish va turli

mamlakatlarning iqtisodiy yaqinlashuvi va majmuaga o‘zaro global iqtisodiy birlashuvi dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Iqtisodiyotda globallashuvning o‘ziga xos xususiyati avtonom va integratsiyalashuv jarayonlarining birlashuvidir, deb belgilangan<sup>6</sup>. Bu “Naisbitt paradoksi”da o‘z aksini topgan: “Iqtisodiyotning globallashuv darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning eng kichik ishtirokchilari shunchalik kuchli bo‘ladi<sup>7</sup>”. J.Naisbitt bu fikri bilan bir tomondan siyosiy mustaqillik va o‘z-o‘zini boshqarish harakatini qayd qilgan.

Binobarin, globallashuv paradoksi jamiyatning ichki aloqalari qanchalik boy va mustahkam bo‘lsa, uning iqtisodiy va ijtimoiy mustahkamlanish darajasi shunchalik yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi. Uning ichki resurslari qanchalik to‘liq amalga oshirilsa, integratsion aloqalarning afzalliklaridan shunchalik muvaffaqiyatli foydalana oladi va jahon bozori sharoitlariga shunchalik oson moslashadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, birinchi navbatda, sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida rivojlangan bo‘lib, keyingi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlarni qamrab oladi. Ushbu jarayon birinchi navbatda rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlaydi va ularga qo‘shimcha afzalliklar beradi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon iqtisodiy maydonini o‘zgartirish, uni yagona hududga aylantirish, tovarlar (xizmatlar), axborot va kapitalning cheklanmagan harakatini yo‘lga qo‘yish jarayonida o‘z ifodasini topadi. Bu hududda g‘oyalarni tarqatish va ommaviy axborot vositalarini ko‘chirish ham oson bo‘lib, tegishli institutsional sub’ektlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik tizimlarini o‘rnatishga va bu orqali ayrim sub’ektlar rivojlanishiga yordam beradi.

Shu tariqa xalqaro miqyosda madaniy, axborot, huquqiy va iqtisodiy jihatdan yagona hududning paydo bo‘lishi jahon tizimlarining globallashuvi natijasidir. Boshqacha aytganda, globallashuv hodisasi iqtisodiy soha bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning barcha asosiy sohalari – mafkura, madaniyat va siyosatga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shak-shubhasiz, bu hodisa yangi asr jahon iqtisodiyotida yuqori mavqega ega bo‘lib, u globallashuvga moslashgan siyosat va iqtisodiyotda yangilangan jahon munosabatlari tizimining shakllanishidan iborat.

Jahon xo‘jaligi XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib tom ma’noda to‘liq tizimga aylandi. Biroq, jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni bir necha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Jumladan:

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi shakllanishining birinchi bosqichi (XIV – XIX asr oxiri) jahon tovar bozori va jahon savdosining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq

---

<sup>6</sup> Иванов Н. Глобализация и проблемы оптимальной стратегии развития. // Мировая экономика и международные отношения. — 2000. — № 2. — С. 15

<sup>7</sup> Naisbitt J. Global Paradox. N.Y., 1994, p. 11.

bo‘lib, keyinchalik jahon xo‘jaligi globallashtirish jarayonining dastlabki belgilarini o‘zida mujassam etadi.

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining ikkinchi bosqichi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) kapitalizmning ishlab chiqarishni monopoliyalashtirish bosqichiga o‘tishining dastlabki ko‘rinishi sifatida tavsiflanishi mumkin. Shuningdek, bu vaqtda yetakchi kuchlar o‘rtasida jahon hududlari va iqtisodiy ta‘sir zonalarini bo‘lib olinishi yuz berib, transchegaraviy kapital oqimlari (eksport) ortib bordi. Mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning turli shakllari rivojlanib bordi. Tovarlar almashinuvi bilan bir qatorda davlatlar o‘rtasida ishlab chiqarishning alohida omillari migratsiyasiga ham amal qilinadi. Bu bosqichda xalqaro mehnat taqsimotining, shuningdek, jahon savdosining kelajakdagi globallashtirish sohasida fundamental asoslar shakllandi.

Globalishtirishning uchinchi bosqichi (I va II jahon urushlari o‘rtasidagi davr) jahon iqtisodiy munosabatlarini o‘rnatishda erishilgan muvaffaqiyatlar uchun halokatli bo‘ldi. Bu davrda iqtisodiy rivojlanish sezilarli darajada tezlashgan bo‘lsa-da (birinchi xalqaro korporatsiyalar paydo bo‘ldi), bu davrdagi transmilliy xarakterdagi moliya tizimi o‘ta beqarordir. Buning oqibatida sanoat mamlakatlaridan uzoq muddatli kapital olib chiqib ketilganini qayd etish mumkin.

To‘rtinchi bosqich (ikkinchi jahon urushi oxiridan 90-yillar boshigacha) - davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy reja munosabatlarini yangicha qayta qurish, jahon iqtisodiyoti uchun yangi tartib-qoidalar izlab topishga urinish davri bo‘ldi. Bu davrda tashqi savdo siyosatini erkinlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish natijasida misli ko‘rilmagan iqtisodiy o‘sish sur‘atiga erishildi. Bu bosqichda jahon moliyasini globallashtirish uchun poydevor qo‘yilib, iqtisodiy taraqqiyotni tartibga soluvchi moliya-xo‘jalik tashkilotlarining makrotizimi tarkib topdi (BMT, XVF, jahon banki va IB va JSTning savdo tashkilotlari).

Beshinchi bosqich (90-yillar boshidan hozirgi davrga qadar) jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davridir. Bu davrning asosiy omillari sotsialistik tuzumning qulashi, binobarin, Markaziy va Sharqiy Yevropadagi sobiq ijtimoiy blok davlatlar va ularning mustamlakalari bo‘lgan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish ochiq bozorlarning keskin o‘sishi bilan xarakterlanadi.

Jahon banki statistikasiga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda 200 dan ortiq mamlakatlar mavjud. Shu munosabat bilan, ayniqsa, iqtisodiy sohada ko‘plab mamlakatlarning milliy suvereniteti va globallashtirish qonuniyatlari o‘rtasida keskin ziddiyatlar mavjud. Globalishtirish sharoitida eksport subsidiyalari va import to‘siqlari, markaziy bankning qayta moliyalash stavkalari va milliy valyutalar kursi kabi iqtisodiyotni makro jihatidan tartibga solishning milliy miqyosdagi an‘anaviy instrumentlari samaradorligi sezilarli darajada pasayadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonlari quyidagi holatlarni keltirib chiqardi:

1. Globallashuv mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy masofa deb ataladigan jahon rivojlanishining ob'ektiv omillari, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, transport va aloqa sohasidagi ilmiy va texnologik taraqqiyot singari sohalarda oraliq masofani kamaytirishga sabab bo'ladi.

2. Savdo va iqtisodiyotni erkinlashtirishning boshqa shakllari proteksionistik siyosatni cheklab qo'ydi va jahon savdosini erkinlashtirdi.

3. Transmilliylashuv hodisasi mamlakatning ayrim iste'mol va ishlab chiqarish, daromad va import, eksportni xalqaro markazlarning qarorlari bilan uning chegaralaridan tashqarida belgilanishiga olib keladi. Bu tizimda baynalmilallashuvda asosiy o'yinchilar va uning natijasi bo'lgan xalqaro korporatsiyalar (TMK) egallaydi.

4. Bozor iqtisodiyoti va erkin savdo tizimini baholashda global konsensusga erishish. Bu jarayon 1978-yilda Xitoyda islohotlar asosida yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari Sobiq Sovet Ittifoqining qulashi oqibatida va MDH mamlakatlari siyosati va iqtisodiyotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayonlar natijasida sotsialistik va bozor mafkuralarining yaqinlashuvi sodir bo'lib, ular o'rtasidagi tafovutlar iqtisodiyotga bozor yondashuvining deyarli bir xil ko'rinishidagi shakli bilan to'ldirildi. Bu yaqinlashishning tabiiy oqibati sotsialistik lager mamlakatlarining iqtisodiyotda bozor tushunchasining faol kirib kelishi bo'ldi.

5. Globallashuv madaniy taraqqiyotga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv sharoitida ommaviy san'at, mashhur madaniyat va ommaviy axborot vositalarida bir xillikka asoslangan va ingliz tilining keng tarqalishiga qaratilgan yondashuv mavjud.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining yana bir xususiyati XX asr oxirida moliya bozorlarining kosmik sur'atlar bilan rivojlanishi bo'ldi. Bu davrda kredit, valyuta va fond bozorlarining o'zgaruvchan roli xalqaro iqtisodiyot arxitekturasining o'zgarishiga olib keldi. Jahon moliyasini globallashtirish markazlari sifatida uchta yirik iqtisodiy hudud belgilanadi: AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiyadir. Bugungi kunda bu uchlik va ularda amalga oshirilayotgan iqtisodiy operatsiyalar jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi darajadagi muhim kuchga ega.

#### **1.4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining namoyon bo'lish shakllari va globallashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar**

XX asr oxirlariga kelib jahon xo'jaligining rivojlanishi va faoliyati globallashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Bundan tashqari

globallashuv insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar faoliyat sohaslarida namoyon bo‘la boshladi. Jamiyat hayotining u yoki bu sohasida sodir bo‘layotgan jarayonlar globallashib, boshqa sohalardagi jarayon va hodisalarga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda globallashuvning huquqiy makonning globallashuvi, siyosiy munosabatlarning globallashuvi, iqtisodiyotning globallashuvi, axborot-kommunikatsiya makonining globallashuvi, etnik globallashuv va boshqa turlari farqlanadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi so‘nggi davrlarda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Ular turli mamlakatlarning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida o‘z aksini topgan.

Sohaga oid adabiyotlarda globallashuv ko‘rinishlari sifatida integratsion jarayonlar va integratsiya shakllari, xususan, integratsion birlashmalar ko‘rsatiladi.

Integratsion birlashmalarning turkumlanishi, asosan, ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiyotining makro va mikro darajada o‘zaro yaqinlashish va bir-biriga naqadar chuqur kirib borish holatini baholashda namoyon bo‘ladi. Bu mezon ko‘ra integratsiyaning to‘rt ko‘rinishi (erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqlar)ni ajratib ko‘rsatish mumkin (1.1-jadval).

### 1.1-jadval

#### Integratsion birlashmalarning ko‘rinishlari<sup>8</sup>

Ko‘rinish nomi	Ittifoq ichida erkin savdo	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo-bojxona siyosati	Ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi	Qonunchilik, ijtimoiy va valyuta sohalarda iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish
Erkin savdo hududi	X			
Bojxona ittifoqi	X	X		
Umumiy bozor	X	X	X	
Iqtisodiy ittifoq	X	X	X	X

Erkin savdo hududlari (ESH) xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining boshlang‘ich bosqichi sanaladi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklanishlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

Erkin savdo hududlari amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o‘zaro savdosi aloqalari turli bojlar, litsenziya va kvotalarni muzlatish va asta-sekin bekor qilish to‘g‘risidagi bitimlarning imzolanishi natijasida shakllanadi. Bunda, YEI, NAFTA

<sup>8</sup> Nazarova G.G‘., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2005. 247-b

va MERKOSUR tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish cheklangan tartibga ega, bu dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi pozitsiyalarni qamrab oladi.

Erkin savdo hududlarining ijobiy jihatlariga kelsak, eng avvalo, ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatida barqarorlikning o'rnatilishini kiritish mumkin. Erkin savdo hududlari a'zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonining tezlashishiga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan maksimal darajada samarali foydalanish imkoniga ega bo'ladilar.

Erkin savdo hududlarining salbiy jihatlariga esa, ichki bozorda raqobatning kuchayishi bilan belgilanadi. Bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va ular uchun bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari erkin savdo hududlarini yaratish millatlararo tartibga soluvchi organlarni tashkil etish holatlarida kuzatilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, qarorlar qabul qilishni sekinlashtiradi, shuningdek, qabul qilingan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Biroq qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, integratsiyaning boshlang'ich bosqichidagi erkin savdo hududlari jahon iqtisodiyotida keng tarqalishi ham mumkin.

Bojxona ittifoqi (BI) huquqiy nuqtai nazardan olganda ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro va uchinchi bir mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan soliq siyosatining o'rnatilishini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan olganda esa bojxona ittifoqini tashkil etish – bu yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va bu makon doirasida esa har qanday bojxona chegaralarini olib tashlanishini anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solishning bu ko'rinishi Bojxona ittifoqi qatnashchilari o'rtasida bojsiz savdonigina emas, balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan tarif tizimini joriy qilishni ham nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan farqi ham ana shundadir.

Bojxona ittifoqlarining yaratilish va ularning shakllanishining aniq natijalari unga a'zo mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol sohasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlarda o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi savdoning kengayishi hisobiga aholining turmush farovonligini oshiradi, biroq ayni bir paytda ishlab chiqaruvchilarning arzon mahsulotlariga nisbatan qimmat tovar ishlab chiqarishga moslashishlari hisobiga farovonlikni pasaytiradi.

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishning keng tarqalgan ko'rinishi sifatida bojxona ittifoqi haqida gapirganda shuni esdan chiqarmaslik lozimki, uning faoliyati uzoq vaqt mobaynida alohida olingan mamlakatlarning jami tovarlar va xizmatlar nomenklaturasiga tarqalmasligi mumkin. Bojxona ittifoqlarining rivojlanishi jarayonlarini birgalikda tartibga solish sohasining asta-sekin kengayib borishidan darak beradi. Ya'ni bosqichma-bosqich olib boriladigan

mazkur jarayon oxir-oqibat millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar va institutlarni tashkil etishni taqazo etadi.

Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan asosiy farqi ittifoq chegaralarida muvofiqlashtirilgan savdo-bojxona rejimini joriy etishdir.

Integratsion jarayonlarning keyingi rivojlanishi integratsiyaning eng yuksak ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan umumiy bozor hamda iqtisodiy ittifoqning shakllanishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotida ko‘plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma‘lumki, aynan umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko‘p diqqatga sazovordir.

Umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning zamonaviy bosqichida Yevropa Ittifoqining ahamiyati kattadir. Bu tashkilot iqtisodiy integratsion jarayonlarning eng yuqori cho‘qqisiga intilishini yaqqol namoyish etayotgan hozirgi kundagi yagona iqtisodiy ittifoqdir.

Globalashuvning yuqorida qayd etilgan ko‘rinishlari qator omillar ta‘sirida yuzaga keladi.

Globalashuv hodisasi mohiyatini tushuntiruvchi sabablarning tizimli tahlili uning taraqqiyotini belgilovchi quyidagi omillar guruhini ajratishni taqazo etadi (1.3-rasm):

**1. Iqtisodiy omillar** – kapitalning ulkan konsentratsiyasi va markazlashuvi, xalqaro korporatsiyalar qudratining o‘shishi, ishlab chiqarish va hamkorlik xalqaro ixtisoslashuvini intensivlashtirish, xalqaro marketing, elektron tijorat, xalqaro logistika.

**2. Siyosiy omillar** – davlat chegaralari asta-sekin shaffoflashib, odamlar, tovarlar, xizmatlar va kapitalning harakat erkinligiga ko‘proq imkoniyat yaratib beradi.


**3. Xalqaro omillar** – uning dinamikasini globalashuv jarayonini rag‘batlantiruvchi yirik xalqaro voqealar sanalari bilan bog‘laydi.

**4. Texnik-texnologik omillar** – axborot, texnologiyalar, tovarlar va moliyaviy resurslarni tezkor tarqatishga imkoniyatlar yaratadigan zamonaviy transport vositalari, axborot tizimlari va texnologiyalari, aloqa va telekommunikatsiyalar, moslashuvchan avtomatlashtirilgan, vositalar majmuidan iborat bo‘lib, ularni ishlab chiqarishni rivojlantirish natijasida xarajatlar hajmi kamayadi.

**5. Ijtimoiy omillar** – an‘analar, ijtimoiy aloqalar va urf-odatlar ahamiyatining zaiflashuvi odamlarning geografik, ma‘naviy va hissiy jihatdan harakatchanligini oshirishga yordam beradi.

6. Tovar va kapital bozorlarini erkinlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, bojxona, savdo va soliq qonunlarini yumshatish va birlashtirish milliy iqtisodiyot va ularning tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro iqtisodiy bog'liqligini ham oshirdi.

Quyidagi omillar globallashtirishni harakatga keltiruvchi moliyaviy tizimlarning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va bu ta'sir butun global tizimlarning u yoki bu darajada o'zgarishiga olib keladi:



### **1.3-rasm. Globallashtirish jarayoni rivojlanishini belgilovchi omillarning asosiy guruhlari**

- iqtisodiy munosabatlarni transmilliylashtirish va milliy moliya bozorlarida integratsiyalash jarayonini jadal rivojlantirish;

- global moliyaviy bozorlarni tartibga solishning nisbiy yengillashuvi (ularning hajmlari va aylanmalarning ortishi bilan raqobatning ortishi);

- rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga kirib borishi bilan global moliya tizimining kengayishi;

- kapital hajmining doimiy o'sishi va o'ta harakatchanligi keskin vaziyatni yuzaga keltiradi; makroiqtisodiy va global (davlatlararo iqtisodiy integratsiya, shu jumladan, moliyaviy va pulning tarkibiy qismlari) darajada moliyaviy resurslarning yuqori konsentratsiyasi;



- kapital konsentratsiyasiga moyillik, global tijorat va moliyaviy tuzilmalar mustaqilligining ortib borishi;
- moliyaviy operatsiyalarning intensivligi, harakatchanligi va moliyaviy bozorlar o‘zaro bog‘liqligining ortib borishi;
- moliyaviy vositalarning xilma-xilligi va ularning yuqori darajadagi harakatchanligi.

### **1.5. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning ko‘rsatkichlari va ustuvor yo‘nalishlari**

Jahon iqtisodiyotining globallashtirishi - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qarorlar qabul qilishda sezilarli ta‘sir ko‘rsatish salohiyatiga ega bo‘lgan alohida shaxslar xulq-atvoriga (nano daraja), alohida korxonalar (mikro daraja), davlatlar ichidagi mintaqalarning tovar, moliyaviy, valyuta va mehnat bozorlari (mezo daraja), milliy iqtisodiyot (makro daraja) va xalqaro, shu jumladan, mamlakatlararo mintaqaviy daraja (mega darajasi)da ta‘sir qiluvchi iqtisodiy munosabatlarga ta‘sir qiluvchi ko‘p darajali hodisadir (1.2-jadval). Bozor munosabatlari sharoitida nano va mikro darajadagi alohida korxonalar, firmalar va tadbirkorlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha shakllaridagi belgilovchi sub‘ektlar bo‘lganligi tufayli globallashtirishning tarkibiy asosini tashkil etadi.

Globallashtirish ta‘sir sohalarida kapital eksporti va xalqaro qayta taqsimlanishidagi transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini belgilovchi nano va mikro darajadagi sub‘ektlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Jahon xo‘jaligi aloqalari mezo darajada – yirik davlatlar tarkibidagi mintaqalar, tovar va xizmatlar, kapital, mehnat, moliya-kredit va valyuta bozorlari darajasida ham amalga oshadi.

Globallashtirish omillarining jahon iqtisodiy shart-sharoitlari iyerarxiyasiga ta‘sirining megavariantligi bozor munosabatlarida o‘z-o‘zini tartibga solish tamoyillaridan foydalanib bo‘lmavligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham global tendensiyalar va ochiqlik bilan bir qatorda rivojlanayotgan va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlar bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda ham proteksionistik yo‘nalish saqlanib qolmoqda.

Globallashtirish mega darajada milliy iqtisodiyotlarning xalqaro o‘zaro ta‘siri ko‘rinishida to‘liqroq namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish va kamaytirish borasidagi maqsadli sa‘y-harakatlar mega darajada muhim ahamiyat kasb etmoqda, boshqa tomondan esa, globallashtirish jarayonlarini rag‘batlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish va umuman, jahon hamjamiyatiga ta‘sir qiluvchi global, xususan, keng

ko‘lamli muammolarni hal qilish uchun zaruriy resurslarni jamlash kerak. Bu jarayonlarni ta‘minlash vazifasi mintaqaviy va xalqaro, hukumatlararo va nodavlat tashkilotlar zimmasiga tushadi.

## 1.2-jadval

### Globallashuvning ta‘sir doirasi va chegaralari<sup>9</sup>

Predmet doirasi	Tadqiqot ob‘ekti	Predmeti	Sub‘ekti
Mega iqtisodiyot	Global iqtisodiyot – mega daraja	Jahon iqtisodiyoti yagona tizim ko‘rinishida	Jarayonli va ob‘ektli yondashuvlar
Xalqaro iqtisodiyot	Mega iqtisodiyot alohida mamlakatlar iqtisodiyotining majmuasi – mega daraja	Mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar	Ob‘ektli yondashuv
Makro iqtisodiyot	Alohida mamlakat iqtisodiyoti – makro daraja	Alohida mamlakatlar ichidagi iqtisodiy jarayonlar	Jarayonli yondashuv
Mezo iqtisodiyot	Tarmoqlar, mintaqalar, majmualar va yirik korxonalar iqtisodiyoti – makro va mezo daraja	Mintaqalar, tarmoqlar va majmualar orasidagi iqtisodiy munosabatlar	Ob‘ektli yondashuv
Mikro iqtisodiyot	Korxonalar o‘zaro munosabatlari kesimida tarmoq bozorlari iqtisodiyoti – mikro daraja	Korxonalarda resurslarni jalb etish, narx va ishlab chiqarish hajmining shakllanishidagi iqtisodiy jarayonlar	Jarayonli yondashuv
Mini iqtisodiyot	Bo‘linmalar kesimidagi korxonalar iqtisodiyoti – mikro daraja	Korxonalar bo‘linmalari orasidagi iqtisodiy munosabatlar	Ob‘ektli yondashuv
Nano iqtisodiyot	Ishlab chiqarish, taqsimot, iste‘mol jarayonlarining alohida ishtirokchilari xulq-atvori – nano daraja	Iqtisodiyotning individual ishtirokchilari xulq-atvorini belgilovchi jarayonlar va omillar	Jarayonli va ob‘ektli yondashuvlar

Globallashuvning ustun ko‘rinishlari sifatida tovarlar, xizmatlar, moliyaviy kapitalning harakati, texnologiyalar diffuziyasi va ishchi kuchi migratsiyasi sohasidagi transchegaraviy tranzaksiyalarning ortishi bilan aloqador davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ortishini tushungan holda globallashuv jarayonining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkin (1.4-rasm).

O‘tgan yarim asrdan ko‘proq vaqt mobaynida globallashuv ko‘rsatkichlaridan biri sifatida xalqaro savdo yo‘nalishida sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab

<sup>9</sup> Роцеско С. Глобализация: взаимодействия в рамках многообразия. // Сборник научных докладов «Глобализация и крупные периферийные страны». –Москва: Международные отношения, 2003. – С.45

chiqarishiga qaraganda tezroq o‘shish dinamikasi kuzatilmoqda. Bu davrda jahon tovar va xizmatlar eksporti jahon birlashgan yalpi ichki mahsulotidan qariyb uch barobar oshdi. XX asrning 70-yillaridan boshlab, Bretton-Vuds konferensiyasining asosiy kelishuvlari rad etilgandan so‘ng, tariflar va savdo to‘g‘risidagi Bosh bitim (GATT) bo‘yicha savdoni erkinlashtirishga asoslangan yangi iqtisodiy tartib paradigmasi va Jahon savdo tashkiloti (1995 yil)ning shakllanishi bilan davom etdi. U global iqtisodiy rivojlanish uchun yangi shart-sharoitlar yaratdi. 1947 yili, ya‘ni GATT tashkil etilgan vaqtda shartnomada qatnashuvchi rivojlangan mamlakatlar import tariflarining o‘rtacha tortilgan darajasi 40% ga teng bo‘lib, 1970 yilga kelib bu ko‘rsatkich 8-10 %ga, 1990 yilga kelib esa 6,3% ga qisqardi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda import bojxona tarifining o‘rtacha tortilgan darajasi Jahon savdo tashkiloti a‘zolari uchun 3,8% ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 15,5% ni tashkil etadi<sup>10</sup>.



**1.4-rasm. Globallashuv jarayonini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar<sup>11</sup>**

Shu bilan birga, tashqi savdoni tartibga solish jarayonida amalda qo‘llaniladigan kvotalar, litsenziyalar va boshqa shakldagi tarifsiz cheklovchi to‘siqlarning ahamiyati ortib bormoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, xalqaro savdoni yanada erkinlashtirish jarayonlari aniq emas, chunki ular rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun ma’lum

<sup>10</sup> Ляменков А.К. Тенденции развития международной торговли в условиях глобализации мирового хозяйства.// В кн. Глобализация мирового хозяйства и место России. -М., 2000. – С. 161.

<sup>11</sup> Филипп Р.Лейн и Джан-Мария Милези-Фиретти. Изучение глобальных дисбалансов // Финансы и развитие (МВФ). – 2006. – март. – С.38-41.

darajada xavf tug'diradi. Shu sababli ular milliy iqtisodiyotning rivojlanish muammosini hal qilish uchun yetakchi iqtisodiy kuchlar bilan farqni kamaytirish uchun proteksionistik chora-tadbirlardan oqilona foydalanish kerak.

Iqtisodiy globallashtirishdagi liderlik o'rniga moliya sektori asosiy da'vogar bo'lib, uning xalqaro darajada jadal rivojlanishi muayyan muammolar va ziddiyatlar bilan bog'liq. So'nggi yillarda dunyo miqyosida "moliyaviy makon" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi.

- iqtisodiy birjalarni mustahkamlash (TMKlar faoliyati, investitsiyalarni rivojlantirish);

- valyuta bozorlari orqali katta miqdorda pul o'tkazish, transmilliy bitimlar tuzish va bir davlatdan tashqarida mulkiy huquqlarni amalga oshirish;

- moliyaviy sektorning real sektordan o'zib ketishi: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining jahon savdosiga nisbatan tez ortib borishi;


- valyuta va moliya bozorlaridagi bitimlar hajmining xalqaro savdo hajmidan ortib ketishi va hakazo.

O'tgan asrning oxirgi o'n yilligining boshida xalqaro kapital transfertlari kuniga 1,3 trln. \$ dan oshib ketdi, bu esa 130 yil davomida taxminan 20 barobar o'sishni anglatdi.

Bu davrda yillik valyuta savdosi 400 trillion \$ dan oshib, jahon savdosi yillik hajmining deyarli 80 barobarini tashkil etdi. Oxirgi ikki o'n yil mobaynida bu ko'rsatkich 40 barobarga o'sdi. Bunday operatsiyalarga xizmat ko'rsatishda eng yangi aloqa va axborot tizimlaridan foydalaniladi.

Jahon moliyaviy oqimlarining salmoqli qismi tovar va xizmatlarning xalqaro harakatiga xizmat ko'rsatish, shuningdek, kapitalning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari bilan bog'liq. Butun dunyo bo'ylab harakatlanayotgan kapitalning bu qismini turli shakllarda erkinlashtirish iqtisodiyotda yaxshi samara berdi, ko'plab milliy iqtisodiyotlarga va jahon iqtisodiy munosabatlari tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hodisalarning barchasi moliyaviy globallashtirishning jadal rivojlanayotganligini ko'rsatadi va u quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi (1.5-rasm).

Moliyaviy globallashtirish orqali moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va xalqaro kapital oqimlari transchegaraviy bitimlarining ko'payishi va xilma-xilligi, shuningdek, moliyaviy va telekommunikatsiya texnologiyalarining tez va keng tarqalishi natijasida butun dunyo mamlakatlarining o'zaro bog'liqligi kuchayib borishini anglatadi. Yangi moliyaviy vositalarning rivojlanishi, milliy moliya bozorlarining kengayishi, xalqaro banklar va boshqa moliya institutlarining rivojlanishi jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlarini o'z ichiga olgan holda faoliyat ko'rsatuvchi global moliya tizimini yaratdi.



**1.5-rasm. Moliyaviy globallashuvning asosiy ko'rsatkichlari<sup>12</sup>**

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jarayonlarni tizimli ko'rsatkichlar asosida baholash jahon mamlakatlari, uning ayrim mintaq va hududlarida globallashuv jarayonining holati va rivojlanish tendensiyalarini aniq baholash hamda jarayonlarni chuqurlashtirish yo'nalishlarini to'g'ri belgilash imkonini kengaytiradi.

### **I bob bo'yicha qisqacha xulosalar**

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning o'tgan 20 yilida jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining o'ziga xos jihatlaridan biri xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global ravishda rivojlanib borishidir. Jahon xo'jaligi tizimida alohida davlatlar guruhlari, xalqaro iqtisodiy guruhlar, alohida kompaniyalar va tashkilotlar orasidagi iqtisodiy munosabatlar borgan sari kengayib, chuqurlashib bormoqda. Bu jarayonlar xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va baynalmilallashuvida,

<sup>12</sup> Филипп Р.Лейн, Джан-Мария Милези-Фиретти. Изучение глобальных дисбалансов // Финансы и развитие (МВФ). – 2006. – март. – С.38-41.

ularning bir-biriga bog‘liqligi va yaqinlashuvida, mintaqaviy xalqaro tuzilmalar va davlatlar guruhlarining rivojlanishi va mustahkamlanishida namoyon bo‘ldi.

Global iqtisodiy munosabatlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti.
2. Xalqaro tovar va xizmatlar savdosi.
3. Xalqaro kapital va investitsiyalar harakati.
4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.
6. Global iqtisodiy integratsiya.

Jahon xo‘jaligi XX va XXI asrlar chegarasida to‘liq tizimga aylandi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi rivojlanish jarayonida quyidagi bosqichlardan o‘tdi.

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi shakllanishining birinchi bosqichi (XIV – XIX asr oxiri) jahon tovar bozori va jahon savdosining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, u jahon xo‘jaligining globallashuv jarayonining dastlabki elementlariga aylandi.

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining ikkinchi bosqichi (XIV asr oxiri – XX asr boshlari) kapitalizmning ishlab chiqarishni monopollashtirish bosqichiga o‘tishining dastlabki bosqichi sifatida tavsiflandi.

Globallashuvning uchinchi bosqichi (I va II jahon urushlari o‘rtasidagi davr) jahon iqtisodiy munosabatlarini o‘rnatishda o‘tgan muvaffaqiyatlar uchun halokatli bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqich (ikkinchi jahon urushi oxiridan 90-yillar boshigacha) davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy reja munosabatlarini yangicha qayta qurish, jahon iqtisodiyoti uchun yangi tartib topishga urinish davri bo‘ldi.

Beshinchi bosqich (90–yillar boshidan hozirgi davrga qadar) jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davridir. Asosiy omillar – sotsialistik tuzumning qulashi, binobarin, Markaziy va Sharqiy Yevropadagi sobiq ijtimoiy blok davlatlar va qolgan mustamlakalarning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, bu mamlakatlarda ochiq bozorlarning o‘sishidir.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qarorlar qabul qilishda ustun ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga ega bo‘lgan alohida shaxslar xulq-atvoriga (nano daraja), alohida korxonalar (mikro daraja), davlatlar ichidagi mintaqalarning tovar, moliyaviy, valyuta va mehnat bozorlari (mezo daraja), milliy iqtisodiyot (makro daraja) va xalqaro, shu jumladan mintaqaviy mamlakatlararo daraja (mega darajasi)da ta’sir qiluvchi iqtisodiy munosabatlarga ta’sir qiluvchi ko‘p darajali hodisadir.

## **Tayanch iboralar**

Jahon iqtisodiyoti, globallashuv, baynalmilallashuv, global iqtisodiy munosabatlar, global iqtisodiy integratsiya, globallashuv ob'ekti, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, erkin savdo hududlari, ochiq iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimoti, moliyaviy globallashuv.

## **Nazorat uchun savollar**

1. «Global iqtisodiy rivojlanish» fani milliy iqtisodiyotlar bilan o'zaro ta'sirlashuvi qonuniyatlarini tushuntiring.
2. Global iqtisodiy munosabatlar tizimiga qanday munosabatlar kiradi? Ularning asosiy jihatlarini izohlang.
3. «Global iqtisodiy rivojlanish» fani predmetining mikro va makroiqtisodiy fanlar predmetidan farq qilovchi jihatlarini tushuntiring.
4. Globallashuv ob'ekti sifatida sub'ekt nima bilan o'zaro aloqada bo'lishini, globallashuv muammolarini bartaraf etishda nimalarga qarshi turishini tushuntiring.
5. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining qaysi sohalarini qamrab olgan?
6. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi qanday jarayonlarda namoyon bo'ladi?
7. Globallashuv jarayoni qanday jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi?
8. Iqtisodiy integratsiya qaysi jarayonlarda o'z ifodasini topgan?
9. Xo'jalik faoliyatini baynalmilallashtirish bosqichlarini tushuntiring.
10. Globallashuv iqtisodiy o'zgarishlarning ko'proq qaysi jarayonlarda o'z aksini topadi?
11. Kelajakda globallashuv jarayonlari qanday ko'rinishlarda yuzaga kelishi bashorat qilinmoqda?
12. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi rivojlanish jarayonida nechta bosqichni bosib o'tgan? Ularni izohlang?
13. Qanday omillar globallashuv jarayonlarining tezlashishiga sabab bo'ladi?
14. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalarini tushuntiring.

## **II BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI KONSYEPSIYALARINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA YO‘NALISHLARI**

### **2.1. Globallashuvga bag‘ishlangan ilmiy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi**

“Globallashuv” tushunchasi 1996 yildan boshlab Davos forumining asoschisi va prezidenti Klaus Shvab rahbarligidagi jahon iqtisodiy forumining 25-sessiyasida “Sayyoradagi asosiy jarayonlarning globallashuvi” mavzusida bo‘lib o‘tgan muhokamadan so‘ng maxsus atama sifatida kiritildi.

1981 yilda amerikalik sotsiolog J.Maklean tomonidan “globallashuv” atamasi konseptual atamalardan biri sifatida ishlatilgan. Uni iqtisodiyot fani atamasi sifatida birinchi marta 1983 yilda T.Levit “Harvard Business Review” jurnalidagi ko‘p millatli korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan alohida mahsulotlar uchun bozorlarni birlashtirish jarayonini tasvirlab bergan maqolasida qo‘llagan.

1985 yilda R.Robertson globallashuv atamasini maqolalaridan biriga sarlavha sifatida qo‘yadi va uni batafsil talqin qiladi. R.Robertsonning ta’rifiga ko‘ra, globallashuv alohida mamlakatlarda ijtimoiy haqiqatga xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan turli omillar (masalan, yaqin iqtisodiy va siyosiy aloqalar, madaniy va axborot almashinuvi) ta’sirini oshirish jarayonidir. Bugungi kungacha bu atama ma’no mundarijasi ko‘p manbalarda R.Robertsonning ta’rifi asosida tushuntiriladi. Chunki, globallashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra iqtisodiy, siyosiy, axborot va ijtimoiy sohalarni qamrab oladi.

Mavjud adabiyotlarda “globallashuv” tushunchasining mohiyatini quyidagicha talqin etish mumkin: “Globallashuv (lotincha “globus” – shar) – nazariya va siyosatdagi dunyoning ajralmas iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va siyosiy yagona tizim sifatida shakllanishi, tashkil topishi, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi asosidagi yondashuv tamoyilidir”.

Shu bilan birga, globallashuv hodisasining yagona va to‘laqonli ta’rifi hali ham mavjud emas. Hozirgi kunda globallashuv atamasining talqinida 3 xil yondashuv mavjud:

1. Fan nuqtai nazaridan olingan tor doiradagi yondashuv. Bir qator tadqiqotchilar globallashuvni 90-yillarning boshidan to hozirgi kunga qadar yangi komponentlar va texnologiyalar asosida moliyaviy va axborot makonini shakllantirishning ob’ektiv va sifat jihatidan yangi jarayoni deb tushunadilar.



## Globallashuv haqidagi ilmiy g'oyalarning 1950 yildan hozirgi kungacha rivojlanishi

<b>I-davr. 1950–1990 yillar</b>		
<b>Mualliflar</b>	<b>Yondashuvning o'ziga xos jihatlari</b>	<b>Globallashuv nazariyalari</b>
R.Robertson, M.Uoters, G.Terborn, A.Zinovev, I.Vallerstrayn, D.Meyer, N.Luman	Globallashuv tarixiy jarayon sifatida qaraladi. Globallashuv jarayonlarining hayotning muayyan sohalarida namoyon bo'lishi. Hodisani to'liq yoritishga da'vo qilmaydigan bir qancha aniq ta'riflar taklif etiladi. Ayrim tadqiqotchilar globallashuvni ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasi sifatida talqin etadilar.	I.Vallerstainning jahon tizimli tahlili nazariyasi (1974 yil). D.Meyerning milliy davlat nuqtai nazaridan jahonni tizimli tahlil nazariyasi (1987 yil). I.Vallerstain "Zamonaviy jamiyat to'g'risidagi global tasavvur nazariyasi" (1984 yil). N.Lumanning fikricha, ijtimoiy jarayonlarni global tushunish zamonaviylik ijtimoiy tavsifining yanada tejamli usulidir. (1970-80-yillar). R.Robertsonning globalizatsiya nazariyasi (globallashuv + mahalliyashtirish). (1990 yil)
<b>II-davr. 1990–2000 yillar</b>		
<b>Mualliflar</b>	<b>Yondashuvning o'ziga xos jihatlari</b>	<b>Globallashuv nazariyalari</b>
I.Vallerstayn, G.Terborn, M.Archer, R.Robertson, M.Fezerstoun, A.Appadurai, B.Terner, A.Zinovev, N.S.Mironenko	Ta'riflar ko'proq iqtisodiy xarakterga ega. Globallashuv jamiyat hayotining turli sohalariga singib bormoqda.	G.Terborn "Globallashuv to'lqinlari" (2000 yil). A.Zinovev "Globallashuv nazariyasi jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi ulkan jarayon sifatida" (2000-yillar). N.S.Mironenko jahon iqtisodiyotini rivojlantirish uchun globallashuv modelini taklif etadi (1990-yillar).
<b>III-davr. 2000-yillardan hozirgi davrgacha</b>		
<b>Mualliflar</b>	<b>Yondashuvning o'ziga xos jihatlari</b>	<b>Globallashuv nazariyalari</b>
M.Kastels, L.Ye.Grinin, R.Robertson	Globallashuvni hayotning barcha sohalarining murakkab o'zaro aloqalarida ko'rib chiqish, globallashuvning kelajakdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini unifikatsiyalash, prognozlash. Global iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiya jarayoni.	R.Robertsonning globallashuvning madaniy jihatlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati natijasida yaratilgan ijtimoiy jarayonlarning globallashuvi haqidagi jamoaviy (ijtimoiy) g'oyalarning ahamiyatiga e'tibor qaratadigan nazariyasi (2003 yil).

2. Mafkuraviy yondashuv. Ayrim mualliflarning fikricha, globallashuv atamasining joriy etilishi G'arb davlatlari tomonidan neoliberalizmga qarshi

jarayonga targ'ibot etuvchi javob bo'ldi. Globallashuv TMK va davlat, shuningdek, xalqaro tuzilmalar (Jahon banki, JST) qudratining yangi mafkuraviy asoslanishi sifatida ko'riladi. Shu bilan birga globallashuvni dunyoning amerikalashuvi sifatida baholovchi qarashlar ham bor.

3. Tarixiy yondashuv. Ushbu yondashuv vakillari globallashuvni modernizatsiyalash jarayonining o'ziga xos rivojlanishi, dunyo integratsiyasining zamonaviy bosqichi va insoniyat ajralmas sivilizatsiyasining shakllanishi deb biladilar. Globallashuv ma'lum bosqichlarda rivojlanayotgan, o'zaro bog'langan yagona iqtisodiy, siyosiy va madaniy makon sifatida butunjahon birlashuvi jarayoni hisoblanadi.


Yuqorida keltirilgan yondashuvlardan kelib chiqib, globallashuvning mohiyatini quyidagi ko'rinishda ifodalash maqsadga muvofiq.

**Globallashuv** (lotin tilidan "*globus*" – shar, fransuz tilidan "*global*" – umumiy) – xalqaro hamjamiyatning barcha sohalarida chuqurlashib borayotgan o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlikka asoslangan tubdan yangi global tizimni shakllantirish, tashkil etish, faoliyat ko'rsatish va rivojlantirishning ob'ektiv jarayonidir.

Globallashuvni ilmiy tushunish u bilan bevosita bog'liq bo'lgan hodisalar guruhining umumiyliigi va farqlarini anglashga asoslangan bo'lishi kerak, boshqacha aytganda, globallashuvning alohida shakllari mohiyatini to'g'ri anglash lozim. Globallashuvning sohalar va yuzaga kelish jihatlari bo'yicha quyidagi asosiy shakllarini ko'rsatib o'tish mumkin (2.1-rasm):

- *tabiiy globallashuv* – boshqa ijtimoiy-madaniy an'analar yutuqlarining turli ijtimoiy-madaniy an'analar orqali in'ikos etishning tadrijiy jarayoni. Bu idrok asosan ixtiyoriy bo'lib, muayyan ijtimoiy-madaniy an'ananing rivojlanish darajasiga, uning boshqa ijtimoiy-madaniy an'analarning ma'lum yutuqlarini o'rganish va amalda qo'llashga intilishiga bog'liq;

- *sun'iy globallashuv* bu – dunyo haqida muayyan g'oyalarni kuch bilan yoki boshqa usullar (aldash, ishontirish, sotib olish va boshqalar) bilan singdirishga urinishdir. Shu bilan birga, sun'iy globallashuv iqtisodiy, siyosiy qadriyat dunyoqarash tushunchalarini majburiy joriy etish bilan bog'liq ekan, bu ko'proq inqilobiy jarayondir. Sun'iy globallashuv muayyan mamlakat, din yoki siyosiy g'oya da'volarini tavsiflaydi. Bunday da'voning paydo bo'lishi o'z holicha xolis bo'lib, dunyoda u yoki bu sohada rivojlangan muvozanatni saqlab qola olmagan mamlakatlar, dinlar va siyosiy g'oyalarning zaiflashuvini aks ettiradi. Nomutanosiblik sun'iy globallashuvga intilish kuchli bo'lgan qator yo'nalishlarning faollashuviga olib keladi;



### 2.1-rasm. Globallashuvning sohalar va yuzaga kelish jihatlari bo'yicha shakllari

- *iqtisodiy globallashuv* – nafaqat xalqaro tovar (moliyaviy) oqimlarini intensivlashtirish va TMKlarning o'sish jarayoni, balki mahalliy iqtisodiy jarayon (tizim)larni tarkibi va ta'siri jihatidan baynalmilallashtirish shaklida jahon mehnat taqsimoti tizimining institutsionallashtirish jarayoni, ya'ni muntazam amaliyotga kiritilishi hamdir;

- *siyosiy globallashuv* – nafaqat xalqaro tashkilotlar soni va ta'sirini oshirish, balki mahalliy siyosiy aksiyalar yoki harakatlarning baynalmilallashtirish shaklidagi jahon xalqaro munosabatlar tizimini institutsionallashtirish jarayonidir;

- *madaniy globallashuv* – nafaqat G'arb ommaviy axborot tizimlari va TMKlarning estetik va xulq atvor standart ramzlarning global kengayish jarayoni, balki mahalliy jamoalarning ko'p madaniyatlilik holatida jahon madaniyatiga institutsionallashtirish jarayoni hamdir.

Globallashuvning shakllanishi ungacha bo'lgan bir qator tushuncha va jarayonlarning to'laqonliligi shakllanganligi hamda amal qilinishiga ham bog'liq.

Bunday tushuncha va jarayonlar ketma-ketligini "bayanalmilallashtirish – mintaqalashuv – globallashuv" ko'rinishida ifodalash mumkin. Sanab o'tilgan

tushunchalar aks etgan hodisalar ilgari mamlakat ichkarisidagi jarayonlar majmuasining yagona davlat chegaralaridan chiqqan holda ro'y berishini ifodalaydi. Bunda hodisalarning vujudga kelish sharoitlari va vaqtlarida, ularning mohiyati, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy vazifalarida, jarayonlar predmetlari to'plamida tegishli farqlar kuzatiladi. Bundan tashqari hodisalarning ko'lami, chuqurligi va intensivligida, shuningdek, ularning bevosita va uzoq muddatli natijalari va oqibatlarida muayyan farqlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu yo'sin muntazam ko'rsatkichlar jadvalini ishlab chiqish mumkin emas, faqat nomlangan konseptual seriyalar va unga kiritilgan toifalar haqidagi tasavvurlarnigina bayon qilish mumkin, xolos.

Baynalmilallashuv ilgari faqat ichki hisoblangan tushunchaning dastlabki doiradan chiqishi yoki jahon iqtisodiyoti va siyosatida bir necha sub'ektlar harakati biror umumiy vazifa, maqsad va tadbir atrofida birlashtirilishini nazarda tutadi.

Baynalmilallashuv xalqaro hayotdagi barcha ishtirokchilarni to'la jalb qilmasa-da, sub'ekt va makonni egallash jihatidan universal hisoblanadi. Baynalmilallashuv mahalliy darajada yoki faoliyatning alohida yo'nalishlari, turlari va sohalariga tatbiq etishda yanada samarali rivojlangan. Baynalmilallashuv tarixan juda erta yuzaga kelishi lozim bo'lgan hodisa bo'lib, dastlabki ijtimoiy-hududiy ob'ekt (shaharlar, davlat qismlari va boshqalar)larning yuzaga kelishi bilan namoyon bo'lgan. Baynalmilallashuvning funksional jihatlari tarkibiy ta'sirlarga nisbatan ustundir. Uning asosiy vazifasi – real dunyoda barqaror xalqaro munosabatlarni ta'minlashdan iborat.

Mintaqalashuv ko'pincha XX asr oxiridagi jahon iqtisodiyoti va siyosatining o'ziga xos xususiyati sifatida ko'riladi. Biroq mintaqalashuv hodisasisiz nafaqat antik va o'rta asrlar, balki bugungi davrda ham o'rta va yirik davlatlar rivojlanishi mumkin emas.

Mintaqalashuv sub'ektlari faqat o'z davri uchun xalqaro munosabatlarning yetakchi sub'ektlari hisoblanadi. Bunday sub'ektlardan olingan huquq va vakolatlar asosida harakat qiluvchi o'z agentlari bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda globallashuv bilan bog'liq jarayonlarni tushuntirishda sanoatlashuv davridan keyingi davr, axborot inqilobi asri, texnoglobalizm va boshqa tushunchalar ko'p qo'llaniladi. Ularning barchasi globallashuv keltiradigan eng muhim o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi.

Globallashuv jarayonining rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar va boshqalar (virtual davlatlar – Erkin Birma koalitsiyasi) muhim ahamiyat kasb etadi. Kastels globallashuvni iqtisod, madaniyat, ijtimoiy tashkilotlar va milliy davlatlar o'rtasidagi tobora kuchayib borayotgan o'zaro bog'liq munosabatlar deb hisoblaydi. Globallashuv axborot texnologiyalari va ommaviy axborot

vositalarining o‘sib borayotgan o‘zaro bog‘liqligi yangi madaniyat ko‘rinishlarini shakllantirmoqda.

## **2.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi to‘g‘risidagi ilmiy konsepsiyalarning asosiy yo‘nalishlari**

Zamonaviy sharoitda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha shakllarining rivojlanishini belgilovchi va bir vaqtning o‘zida sintez qiluvchi asosiy yo‘nalishlardan biri iqtisodiy globallashuv jarayonidir. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) ekspertlari globallashuvni “...tovarlar, xizmatlar va global kapital oqimlaridagi xalqaro bitimlarning ko‘payishi va xilma-xilligi natijasida dunyodagi mamlakatlarning o‘sib borayotgan iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, texnologiyaning tobora tez va keng tarqalishi” sifatida talqin qilishadi.

Umuman, globallashuv jarayoni umumbashariy bo‘lib, nafaqat iqtisodiyotni, balki jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini: siyosat, ijtimoiy soha, axborot tizimi, ta‘lim, madaniyat va boshqa sohalarni qamrab oladi. Amalda globallashuv ko‘rsatib o‘tilgan sohalarda rivojlanayotgan turli xil, ammo o‘zaro chambarchas bog‘liq globallashuv jarayonlarining murakkab majmuasidir. Shuning uchun ham uning turli jihatlari ko‘pgina fanlarning o‘rganish ob‘ekti bo‘lib, globallashuv tom ma‘noda fanlararo tadqiqot ob‘ektidir. Masalan, texnika fanlari vakillari alohida mamlakatlarda yuzaga keladigan yangiliklar va yangi texnologiyalarni texnik bilimlarning yagona global majmuasiga birlashtirishda namoyon bo‘ladigan “texnoglobalizm” tushunchasini ko‘rib chiqadilar. Ular energetika, aloqa, telekommunikatsiya, transport va shu kabi qator sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari va boshqa sohalarda mohiyatan global “texnologik makrotizimlar” ning paydo bo‘lishini tahlil qiladilar. Sotsiologlar va faylasuflar globallashuv konsepsiyasini madaniyat va insoniy qadriyatlarning universallashtirish ta‘sirida turli mamlakat va mintaqalarda yashovchi odamlarning turmush tarzida kechadigan yaqinlashish tendensiyalari bilan bog‘lashadi. Globallashuv jarayonlari siyosat sohasida (shu jumladan, harbiy-siyosiy sohada) ham yuz berib, bu yangi globallashuv muammolari jarayonida yuzaga keladigan yirik xalqaro institutlarning (birinchi navbatda, BMT) o‘rni va roli masalasini ko‘taradi.

Lekin globallashuvning eng harakatchan jarayoni iqtisodiy sohada yuz beradi. Shu bilan birga iqtisodiy globallashuvning ob‘ektiv va sub‘ektiv jihatlari yoritib beriladi. Darhaqiqat, bir tomondan, iqtisodiyotning globallashuvi – bu yagona global iqtisodiy yaxlitlikka tomon tabiiy, ob‘ektiv ravishda belgilangan harakat jarayoni, iqtisodiy hayotning sifat jihatidan yangi, yuqori baynalmilallashtirish bosqichidir. Boshqa tomondan, iqtisodiyotning globallashuvini dunyoning yetakchi mamlakatlari, yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) va transmilliy banklar

(TMB), jahon moliyaviy markazlari o‘z manfaatlari uchun amalga oshirilayotgan aniq iqtisodiy siyosat shakli sifatida baholash mumkin.

Albatta, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqa sub’ektlari (iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lmagan mamlakatlar va ularning uyushmalari, korporativ biznes va boshqalar) iqtisodiy globallashuv jarayonida ham o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarmoqchi bo‘ladi. Shuning uchun ham iqtisodiy globallashuv jarayoni muqarrar ravishda keskin ziddiyatlar bilan kechadi.

Bu jarayonlar iqtisodiy globallashuv nazariyasi alohida o‘rin tutgan jahon iqtisodiyoti nazariyalarining rivojlanishida o‘z aksini topishi zarur.

Iqtisodiy globallashuv muammolari bo‘yicha shakllangan nazariy qarashlarni baholash so‘nggi yillarda olimlar turlicha yondashuvlarga asoslanadilar. Shartli ravishda ularning uchta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Giperglobalistik yo‘nalish (giperglobalizm)
2. Shubha yo‘nalishi (skeptitsizm).
3. Transformatsion yo‘nalish.

Ulardan birinchisi bo‘lgan giperglobalizm yo‘nalishi milliy chegaralarni yo‘q qilishning mutlaq jarayoni va mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy farqlarning yo‘qolishi bilan bog‘liq. XX asrning 70-yillaridan boshlab shakllanib kelayotgan yagona jahon bozori doirasida kapital, tovarlar va axborotlarning erkin harakati bu yerda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish vakillarining fikricha bu yangi sharoitda, “milliy egoizm” tushunchasi ma’nosiz bo‘lib qoladi. Giperglobalizmning eng taniqli namoyandalari qatoriga K.Omai, F.Fukuyama va R.Rayxlarni kiritish mumkin.

“Globallashuv” atamasining dastlabki mualliflaridan va targ‘ibotchilaridan biri K.Omai bo‘lib, u o‘zining bir nechta asarlarini shu masalaga bag‘ishlagan.

U o‘z asarlarida “an’anaviy milliy davlatlar biznes nuqtai nazaridan, global iqtisodiyotdagi birliklar” yoki “dunyoning sobiq xaritasi illyuziyadan boshqa narsaga yaramay qoldi” degan fikrlarni ilgari surdi.

K.Omai tomonidan zamonaviy davlatlar rivojlanayotgan global tizimda mahalliy hokimiyat birliklariga aylanib borayotganligi, unda moliyaviy bozorlar va transmilliy korporatsiyalar hal qiluvchi rol o‘ynay boshlaganligi ta’kidlanadi.

K.Omai davlatlarni global iqtisodiyotning “g‘ayritabiiy” birliklariga aylangan “o‘tmishning ixtiyoriy debitorlari” deb baholaydi. K.Omai fikriga ko‘ra, “mintaqaviy davlatlar”, “tabiiy iqtisodiy zonalar”, “tabiiylik” va uning ko‘lami global iqtisodiyotning ehtiyojlariga ko‘ra shakllantiriladi.

Mashhur futurist F.Fukuyama asarlarida ham giperglobalizmning ba’zi qoidalari ishlab chiqilgan. F.Fukuyama o‘zining “Tarixning oxiri va so‘nggi odami” (1992 yil) nomli monografiyasida giperglobalizm nuqtai nazaridan dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarini o‘rganadi. Uning fikricha,

hozirgi kunga kelib barcha rivojlangan davlatlar mohiyatan liberal-demokratik siyosiy institutlarni yaratdilar, boshqa mamlakatlar esa bozor iqtisodiyoti yoʻnalishida isloh qilinib, global iqtisodiy tizimga yanada jadal integratsiyalashmoqda. Zamonaviy texnologiya alohida mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga taʼsir etib, ularni yagona global iqtisodiy tizimiga bogʻlashga xizmat qiladi.

F.Fukuyama oʻz tadqiqotlarida jahon iqtisodiyotida sodir boʻlayotgan integratsiya jarayonlarining madaniy jihatiga alohida eʼtibor beradi. Uning fikricha, rivojlanayotgan integratsion hamjamiyat aʼzolari oʻz faoliyatlarini mavjud institutlar, normalar va qoidalarga muvofiq amalga oshirishlari oʻzaro ishonchni anglatadi. Bu nuqtai nazardan ularning xatti-harakatlari oldindan taxmin qilinadi. Shunday qilib, globallashtirish jarayonlarini faol joylashtirish deyarli butun dunyoda liberal demokratik qadriyatlarning faol tarqalishiga asosan amalga oshiriladi.

Koʻrinib turibdiki, giperglobalizm vakillari mohiyatan oʻzlarining asosiy funksiyalaridagi davlatlarning yoʻqolishi va kelajakda – umuman milliy davlatlarning yoʻq boʻlishi bilan birga toʻliq madaniy diffuziyani bashorat qiladilar. Giperglobalizm oʻta qutbli pozitsiya boʻlib, uning ichida jamiyat zamonaviy taraqqiyotining ayrim real jihatlari mutlaqlashtiriladi, deb aytish mumkin.

Giperglobalizmni koʻp jihatdan tanqid qilish natijasida skeptitsizm (shubha-gumon) yoʻnalishi vujudga keldi. Bu yoʻnalishda koʻplab tadqiqotlar amalga oshirildi. S.Xantington, P.Xirst, G.Tompson va S.Krasnerlarni skeptitsizmning faol tarafdorlari qatoriga kiritish mumkin. Bu mualliflarning ilmiy qarashlarini umumlashtirib, ularda aks ettirilgan gʻoyalarni quyidagi asosiy tezislar koʻrinishiga keltirish mumkin:

- oxir-oqibatda umumiy madaniy yaqinlashishga erishish mumkin emas;
- zamonaviy sharoitlarda roʻy berayotgan tovarlar, mehnat va kapitalning transmilliy harakati oʻz tarixiga ega boʻlib, bu tarixda oʻzining yuksalish va pasayish, taraqqiyot va retsessiyasiga ega boʻlgan;
- garchi tarix davlatlar rolining muayyan darajada cheklanganligini koʻrsatsada, millatlar va milliy davlatlarga hech qanday tahdid yoʻq.

S.Xantingtonning qayd etishicha, zamonaviy dunyoda sodir boʻlayotgan jarayonlar dunyo madaniy gomogenligidan koʻra koʻproq boʻlinish va mojarolarga sabab boʻladi. Aslida uning oʻzi asosiy asarlaridan biri boʻlgan “Tamaddunlar toʻqnashuvi va jahon tartibini qayta tiklash” asarida birinchi marta vaziyatni shu tarzda baholadi<sup>13</sup>.

---

<sup>13</sup> S.Hutington. The Clash of Civilizations and the Remaking of the World Order. — N.Y., 1996.

S.Xantington fikriga ko‘ra, jahonda sotsialistik tuzum parchalangandan so‘ng ikki qutbli dunyo o‘rnida paydo bo‘lgan yangi dunyoda odamlar va xalqlar o‘rtasida nafaqat siyosiy yoki mafkuraviy, balki madaniy farqlar yuzaga kelganligi aniq ko‘rinib qoldi.

S.Xantingtonning fikricha, zamonaviy dunyoda “mintaqaviy siyosat etnik munosabatlar darajasida amalga oshiriladi va global siyosat sivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar darajasida amalga oshiriladi. Superkuchlarning raqobati sivilizatsiyalar to‘qnashuviga yo‘l beradi”. Uning fikricha, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi jahon miqyosida ikki shaklda – mikro va makro darajadagi o‘zaro aloqador ziddiyatlar sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Bunday mojarolarning sabablari sifatida S.Xantington zamonaviy xalqaro siyosatning bir qator muammolariga ishora qiladi:

- global siyosatning shakllanishi va BMT, XVJ, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar faoliyatiga ta’sirning ortishi;

- harbiy sohadagi raqobat;

- xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar va boshqalar bo‘yicha kelishmovchiliklarning ortishida o‘z aksini topuvchi mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatlariga bo‘lgan munosabatlaridagi o‘zgarishlar;

- millatlararo nizolar (xususan, bir sivilizatsiyani ifodalovchi davlatlarning turli sivilizatsiyaga mansub mamlakatlarda o‘z aholisini himoya qilish uchun urinishlarida namoyon bo‘ladi);

- qadriyat va madaniyatlar muammolari (ma’lum bir davlatlar o‘z qadriyatlari va madaniyatini boshqa sivilizatsiyaga mansub kishilarga sun’iy ravishda yuklashga harakat qilganda yuzaga keladigan ziddiyatlar);

- dunyoning yetakchi mamlakatlari ishtirokida ayrim hollarda yuzaga keladigan hududiy muammolar.

S.Xantington zamonaviy dunyoning mamlakatlar va ayrim ta’limotlar kesimidagi sakkiz sivilizatsiyasini o‘rganib chiqadi: g‘arb, konfutsiylik, yapon, musulmon, hind, slavyan-pravoslav, lotin Amerikasi va Afrika sivilizatsiyalari. Shu bilan birga, xalqaro mojarolarning asosiy yo‘nalishi, uning fikricha, kelajakda G‘arb va boshqa sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ziddiyatdan iborat bo‘ladi.

Umuman olganda, S.Xantington fikrlari aslida madaniy mintaqalashuv jarayoniga qarshi bo‘lib, giperglobalizm vakillariga xos global madaniy “diffuziya” va gomogenazatsiya ehtimolini rad etadi.

1990-yillar boshidan buyon giperglobalizm qoidalarini tanqid qiluvchi boshqa bir qator tadqiqotlar chop etilgan. Bular qatoriga P.Xirst, G.Tompson va S.Krasner kabi mualliflarning asarlarini kiritish mumkin.

P.Xirst va G.Tompsonning fikricha, XX asrning 90-yillari oxirigacha erishilgan iqtisodiy hayotning baynalminallashuv darajasi yuqori bo‘lishiga



qaramay, jahon iqtisodiyoti hali to'la globallashtirmagan. Ushbu fikrni asoslash uchun yetakchi bo'lgan haqiqiy ko'p millatli korporatsiyalar soni hali nisbatan kam; xalqaro tovarlar va kapital xizmatlar oqimlari bozor iqtisodiyoti rivojlangan yetakchi mamlakatlar guruhida nisbatan ko'proq jamlangan.

P.Xirst va G.Tompsonning fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitlarda iqtisodiyotni boshqarishning shakl va usullari o'zgarib bormoqda. Bu sohada siyosat markazlashib bormoqda, milliy davlatlar esa parallel va raqobatlashuvchi boshqaruv organlarining murakkab tizimi unsurlaridan biriga aylanmoqda. Ularning fikricha, boshqaruv samarali bo'lishi uchun xalqaro va milliy darajadagi boshqaruv organlarini yagona, yaxshi integratsiyalashgan tizimga birlashtirish zarur.

P.Xirst va G.Tompson uchta darajadagi boshqaruv organlari o'zaro munosabatlarining quyidagi shakllarini belgilaydi:

- dunyoning yetakchi mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni shartnomalar tuzish orqali boshqarish, masalan, valyuta kurslarini barqarorlashtirish yoki qisqa muddatli spekulativ moliyaviy operatsiyalarni cheklash vazifasini hal etish mumkin;

- dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan iqtisodiy faoliyatning ayrim yo'nalishlari bo'yicha xalqaro tartibga solish organlarini tashkil etish orqali samarali boshqaruv (masalan, GATT / JST tizimi);

- savdo bloklarini yaratishga asoslangan yirik iqtisodiy makonlarni boshqarish (masalan, "umumiy bozor" vazifalaridan uzoqlashtirilgan Yevropa Ittifoqi), bunday guruhlar global iqtisodiy bosimga muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsatishi mumkin;

- bu sharoitda milliy davlatlar xususiy va davlat manfaatlari o'rtasidagi raqobatni muvofiqlashtiruvchi siyosat olib boradilar. Natijada "yarim ixtiyoriy" iqtisodiy hamkorlik va muvofiqlashtirish maqsadlaridagi qo'llab-quvvatlash tizimi shakllanadi;

- mintaqaviy miqyosda ularni tashqi zarbalardan himoya qilish va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida sanoat hududlarini qo'llab-quvvatlash vazifalari hal etilishi mumkin.

P.Xirst va G.Tompsonning qarashlaridagi eng muhim jihat sifatida milliy davlatlarni zamonaviy jahon iqtisodiyotining markaziy elementi va predmeti sifatida baholashini ko'rsatib o'tish mumkin.

Ushbu masaladagi P.Xirst va G.Tompsonning yondashuvlari ko'p jihatdan S.Krasner tomonidan ishlab chiqilgan fikrlarga mos keladi. Uning fikricha, globallashtirish jarayoni davlat faolligini oshirish jarayoni bilan parallel ravishda ishlaydi.

Bir tarafdin, giperglobalizm tarafdorlari, ikkinchi tomondan, skeptitsizm tarafdorlari fikrlari bilan taqqoslash mumkin bo'lgan yana bir yetakchi g'oya globalistik yo'nalish asoschilari J.Rozenau, D.Xeld, A.Mak-Gryular boshlab bergan "transformatsion" yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari globallashtirishni bir tomonlama va soddalashtirilgan tushunchalar sifatidagi qarashlarga qarshi bo'lib, globallashtirishni jamiyatning barcha sohalarida yuz beruvchi murakkab va serqirra jarayon sifatida talqin etadilar.

Globallashtirishga giperglobalizm, skeptitsizm va transformatsion yondashuvlarni talqin qilish jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayoni naqadar murakkab, noaniq va ziddiyatli ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Uning o'z mantig'i va rivojlanish dialektikasi mavjud. Shu bilan birga, milliy davlatlar faoliyatida ham, zamonaviy xalqaro tashkilotlar tizimida, shakl va faoliyatida ham tegishli o'zgarishlar ro'y berishi kerak.

XX asrning 50–60-yillarida G'arbning rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasining tez sur'atlar bilan o'sishi kuzatildi. Biroq, farovonlikning o'sishi bilan bir vaqtda global ekologik, demografik va oziq-ovqat muammolari tobora chuqurlasha boshladi. 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida o'tkir global muammolarning paydo bo'lishi insoniyatni bu muammolarni hal etish yoki yumshatish yo'llarini topishga mo'ljallangan yangi g'oya va tushunchalar ishlab chiqishga majbur qilib qo'yganini kam sonli kishilargina anglab yetdilar. Aynan shu davrda global inqirozdan chiqish yo'lini qidirish bilan shug'ullanuvchi jamoat tashkilotlari paydo bo'la boshlaydi.

Rim klubi ana shunday jamoat tashkilotlarining eng mashhuridan hisoblanadi. Doimiy tuzilmaga va budjetga ega bo'lmagan holda Rim klubining faoliyati zamonaviy jamiyatda keng aks-sado beradi. Rim klubini yaratish g'oyasi italiyalik sanoatchi, iqtisodchi Aurelio Pechcheiga tegishli. Uning asl g'oyasi jahon muammolarini muhokama qilish va ularni hal qilish yo'llarini topish uchun kichik bir doirani yaratishdan iborat edi.

1968 yilning aprelida insoniyatning hozirgi va kelajakdagi murakkab ahvolini muhokama qilish maqsadida Rimda 30 nafar olim, iqtisodchi, pedagog va xodimlardan iborat guruh to'plandi. Bu uchrashuv a'zolari 100 kishidan ko'p bo'lmagan norasmiy, moliyaviy jihatdan mustaqil tashkilot hisoblangan Rim klubining shakllanishini belgilab berdi.

Ushbu yig'ilishda klub amalga oshirishi kerak bo'lgan ikkita asosiy vazifa belgilandi: odamlarni "insoniyat qiyinchiliklari"ni iloji boricha aniqroq doirada bilishga yordam berish; mavjud holatni to'g'rilashga yordam beruvchi barcha bilimlardan foydalanish, mavjud vaziyatga hissa qo'shadigan yangi munosabatlar, siyosat va institutlarni tashkil etishga undash.

Shunday qilib, Rim klubining yaratilishi turli ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiysi global muammolarning paydo bo'lishi va ularni hal etishda global hamkorlik g'oyalarining zaruriyati edi.

Rim klubi a'zolari tomonidan o'z faoliyati davomida iqtisodiy o'sish va global muvozanat masalalari o'rganilib, tadqiqot natijalari va yangiliklar ma'ruzalar ko'rinishida taqdim etib borilgan (2.2-jadval).

## 2.2-jadval

### Rim klubi tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy ma'lumotlar

Yil	Ma'ruza nomi	Mualliflar
1972	O'sish chegaralari	D.Medouz va boshqalar
1974	Insoniyat burilish nuqtasida	M.Mesarovich va E.Pestel
1975	Xalqaro tartibni qayta ko'rib chiqish	Ya.Tinbergen
1976	Chiqindilar asri chegaralaridan tashqarida	D.Garbor va boshqalar
1977	Insoniyat uchun maqsadlar	E.Laslo va boshqalar
1978	Energiya: teskari hisob	T.Monbrial
1979	Ta'lim olish uchun chegaralar yo'q	J.Botkin, E.Elmanjra, M.Malitsa
1980	Uchinchi dunyo: jahonning to'rtidan uch qismi	M.Gerne
1980	Boylik va farovonlik haqida dialog	O.Jiriani
1980	Kelajakka eltuvchi yo'nalishlar	B.Gavrilishin
1981	Shimol va Janub hamkorligi imperiativlari	J.Sen-Jur
1982	Mikroelektronika va jamiyat	G.Fridrixs, A.Shaff
1984	Uchinchi dunyo o'zini o'zi boqa oladi	R.Lenuar
1986	Ummonlar kelajagi	E.Mann-Borgaze
1988	Yalangoyoqlar inqilobi	B.Shnayder
1988	O'sishdan tashqarida	E.Pestel
1989	Ma'naviy qashshoqlik chegaralari	O.Jarini, V.Siel
1989	Ochlikni yenggan Afrika	A.Lemma, P.Malaska
1991	Birinchi global inqilob	A.King, B.Shnayder
1994	Boshqaruv qobiliyati	Ye.Dror
1995	Janjal va uyat: qashshoqlik va rivojlanmaganlik	B.Shnayder
1995	Hayotni ta'minlovchi milliy boylikda tabiatni e'tiborga olish	V.Van Diren
1997	To'rtinchi omil: boylikning ikkilanishi, resurslarni ikki marta tejash	Z.Vayszekker, E.Lovins, L.Lovins
1997	Ijtimoiy birlik chegaralari: ziddiyatlar va xilma-xillik sharoitida tushunish	P.Berger
1998	Biz qanday ishlashimiz kerak	O.Jarini, P.Lidtko
1998	Dengizlarni global resurs sifatida boshqarish	E.Mann-Borgaze
1999	Tarmoqda: farazli jamiyat	J.L.Sebrian
2000	Insoniylik g'alaba qiladi	R.Mon
2001	Axborot jamiyati va demografik inqilob	S.kapitsa
2002	San'at o'ylashga majbur qiladi	F.Fester
2003	Ta'lim va ishning ikkilangan spirali	O.Jarini, M.Malitsa
2004	O'sish chegaralari – 30 yildan so'ng	D.Medouz va boshqalar
2005	Xususiyashtirish chegaralari	E.Vayszekker

Taqdim etib borilgan har bir ma'ruzada jahonni siyosiy, iqtisodiy, madaniy yoki ekologik jihatdan taraqqiy ettirishdagi alohida va global muammolar o'rganilib, yakunda ushbu muammolarni hal etishning muqobil variantlari tavsiya etilgan. Rim klubi tomonidan ishlab chiqilgan traktatlar so'nggi yillarda jahon taraqqiyotidagi muammolarni yechishda yetakchi manbalardan biri bo'lib kelmoqda.

Shunday qilib, Rim klubi taraqqiyot va rivojlanish (shu jumladan, barqaror rivojlanish konsepsiyasi) bo'yicha zamonaviy qarashlarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Rim klubi g'oyalarining asosiy kamchiligi zamonning keskin siyosiy vaziyatida ularni amalga oshirish imkoni yo'q edi.

1983 yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya (ARXK) tashkil etildi. Ushbu tadqiqot guruhining faoliyati BMT Bosh Assambleyasi qarori bilan yaratilgani bois tashkil etilgandan buyon jahon hamjamiyati e'tiborini tortib kelmoqda. Komissiya ishining maqsadi jahon taraqqiyoti tamoyillarini izlashdan iborat bo'lib, ular asosida birgalikdagi xalqaro harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. 1987 yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiyaning "Umumiy kelajagimiz" nomli hisobotida chop etilgan asosiy postulatlar jahon taraqqiyoti Barqaror rivojlanish konsepsiyasi nomli tamoyiliga aylandi. Konsepsiya iqtisodiyot va atrof-muhit o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish, ilmiy-texnik portlashlarning salbiy oqibatlarini oldini olish uchun mo'ljallangan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining paydo bo'lishining asosiy sabablari iste'mol falsafasining hukmronligi, resurslarni yo'q qilish texnologiyalarining ustunligi va global iqtisodiy muammolar edi.

Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish maqsadida quyidagi asosiy vazifalarni belgiladi:

1. O'sish jarayonlarini jonlantirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi jon boshiga iqtisodiy o'sishni yiliga 5-6% ga, rivojlangan mamlakatlarda esa 3-4% ga oshirish.

2. O'sish sifatining o'zgarishi, ya'ni foydaning yanada adolatli taqsimlanishiga o'tish hamda kam resurs talab qiladigan sifatli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Iqtisodiy o'sish ekotizimlarning ko'payish qobiliyatiga putur yetkazmasligi kerak. Konsepsiya mualliflarining fikricha, iqtisodiyotning miqdoriy o'sishini uning rivojlanish sifati bilan almashtirish zarur.

3. Yer yuzidagi barcha aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish. Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya bandlik, oziq-ovqat, energetika, uy-joy, suv, sanitariya, ta'lim va sog'liqni saqlashni asosiy ehtiyojlar sifatida belgilab berdi. Insoniyatning asosiy vazifalaridan biri – bu ehtiyojlarni har kim qondira olishi uchun iqtisodiy tizim yaratishdir.

4. Aholi sonining barqaror, ya'ni ekotizimlarning mahsuldor sig'imiga mos keladigan darajasini ta'minlash.

5. Resurs bazasini saqlash va mustahkamlash.

6. Texnologiyaning qayta yo'naltirish va inqirozlar yuzaga kelishining oldini olish.

7. Qaror qabul qilishda ekologik-iqtisodiy jihatlarni birlashtirish. Barqaror rivojlanish bilan iqtisodiy o'sish ekologik muammolarni keltirib chiqarmasligi kerak. Bu barqaror rivojlanish tushunchasining asosiy g'oyasi hisoblanadi. Global ekologik va iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi munosabatlar zamonaviy dunyodagi eng muhim muammo sifatida ko'rib chiqildi.

Barqaror rivojlanishga erishish dunyoning alohida mamlakatlari va mintaqalarida, ayniqsa, butun dunyoda ijtimoiy va siyosiy keskinlikni to'liq bartaraf etish imkonini bermaydi. Shunday bo'lsa-da, barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish global vazifa hisoblanadi, ammo har bir mamlakat konsepsiyaning g'oyalarini amalga oshirish uchun o'z faoliyat dasturini ishlab chiqishi lozim.

Shunday qilib, globallashuvning rivojlanishida va xususan, barqaror rivojlanish bo'yicha zamonaviy qarashlarning shakllanishida Rim klubi faoliyati katta rol o'ynadi. Rim klubi, shuningdek, boshqa shu kabi tashkilotlarning shakllanishi dunyoda global muammolarning paydo bo'lishi va avj olishi bilan bog'liq bo'ldi. Biroq Rim klubi nafaqat global muammolarni, balki ularning bir-biri bilan aloqalarini tadqiq qilgan birinchi tashkilot edi. Global muammolarning o'zaro bog'liqligi g'oyasi asosida Rim klubining eng mashhur ma'ruzasi – "O'sish chegaralari" hisoboti yaratildi.

Ushbu hisobotning paydo bo'lishi globalistika va global prognozlash rivojlanishida butunlay yangi bir bosqich bo'ldi. Hisobot mualliflari ijtimoiy-iqtisodiy omillarning global muammolarning rivojlanishi va o'zaro aloqasiga ta'sirini hisobga olmaganiga va tadqiqot usulida xatolar ehtimoli borligiga qaramay, hisobot mualliflari asosiy maqsadga erishishga muvaffaq bo'ldilar. Hisobotni nashr etishning eng muhim natijalarini global muammolar haqidagi munozaraning boshlanishi va G'arb mamlakatlaridagi ziyoli insonlar orasida dunyo masalalariga qiziqish kuchayishi deyish mumkin. Bundan tashqari Rim klubi "iste'mol falsafasi"ni jiddiy rivojlantirishga muvaffaq bo'ldi, uning hukmronligi global muammolarning paydo bo'lishi va avj olishining eng muhim sabablaridan biridir.

"O'sish chegaralari" hisoboti chop etilgandan so'ng nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham yerni saqlab qolish va global muammolarni hal qilish yoki hech bo'lmaganda ijobiy tomonga siljitish yo'llarini izlash insoniyat rivojlanishining asosiy kun tartibidan o'rin oldi.

### 2.3. Global iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari

Klassik paradigmadan keyin shakllangan yangi ilmiy tafakkur doirasida turli fanlar bir-biriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ularda o‘zaro integratsiya jarayoni yuz beradi. Shu bilan birga, fanlarning o‘zaro aralashib ketishi emas, balki bir fan doirasidagi tushuncha, yondashuv, nazariya va atamalar boshqa bir fan doirasida faol qo‘llanilishi kuzatiladi. Ayniqsa, klassik paradigmadan keyingi ilmiy tafakkurda ijtimoiy tizimlarning o‘zaro aloqadorligi va ularning tabiiy tizimlar bilan o‘zaro yaqin munosabatlarni ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu aniq fanlarda bu tabiiy va gumanitar tushunchalarning faollashuvida namoyon bo‘ladi. Ana shunday fanlararo bog‘liqlik asosida zamonaviy dunyoni tushunish yo‘nalishidagi murakkab nazariya va tushunchalar yaratiladi. Fanlararo zamonaviy kompleks tushunchalardan biri – globallashuvdir.

Globalashuvning asosan bugungi kungacha bo‘lgan nazariyalar taraqqiyotida 4 ta katta guruhga ajratiladi:

1. “Jahon tizimlari” nazariyasi (I.Vallerstayn).
2. “Umumjahon madaniyati” nazariyasi (R.Robertson).
3. “Umumjahon boshqaruvi” nazariyasi.
4. “Global kapitalizm” nazariyasi.

Ko‘rsatib o‘tilgan nazariyalarning har biri o‘zining tadqiqot ob’ekti, sub’ekti va predmetiga ega bo‘lib, ushbu nazariyalar bugungi kunda ham jahon globallashuvi muammolari tadqiqida muhim ahamiyatga ega.

Globalashuvning “jahon tizimlari” nazariyasi asoschisi I.Vallerstayn hisoblanib, uning konsepsiyasi keyinchalik bir qator ushbu nazariya namoyandalari tomonidan kengaytirilgan.

I.Vallerstayn tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya juda mustahkam an’anaga asoslangan. Odatda, jahon-tizim tahlilining uchta asosiy manbai sifatida – klassik marksizm, F.Brodelning jahon-iqtisodiyot haqidagi ta’limoti va o‘zaro bog‘liq rivojlanish nazariyasi qaraladi. K.Sorinelning fikricha I.Vallerstayn K.Marksdan mehnat va kapitalning qarama-qarshiligi, kapitalning to‘planishi, shuningdek, feodalizm va kapitalizm kabi ijtimoiy tizimlar, dialektik usul va boshqa ko‘plab tushunchalarni olgan. “Annallar” maktabidan esa uzoq davriy tarixiy sikllar va savdo aloqalari bilan birlashtirilgan yirik iqtisodiy mintaqalar g‘oyalarini, bog‘liqlik ta’limotidan markaz va atrof-muhit o‘rtasidagi qarama-qarshilik g‘oyasini olgan<sup>14</sup>.

F.Brodel birinchilardan bo‘lib keyinchalik jahon-tizim tahlilining asosiy kategoriyasiga aylangan “jahon iqtisodiyoti” tushunchasini kiritgan. U jahon

---

<sup>14</sup> Soriel C. Immanuel Wallerstein’s World System theory // Annals of the University of Oradea, Economic Science Series. 2010. Vol. 19. P. 220–224.

iqtisodiyotini “o‘zi uchun yetarli bo‘lgan, sayyoraning iqtisodiy jihatdan mustaqil qismi” deb ta’rifladi<sup>15</sup>. Olamlar-iqtisodiyotlar kesib o‘tish xarajatlarni oshirib yuboruvchi ma’lum bir to‘siqlar bilan bir-biridan ajralib turadi. O‘tmishda cho‘llar, okeanlar, tog‘ tizmalari va boshqalar shunday to‘siq bo‘lgan. Jahon iqtisodiyoti o‘zining tuzilishi va rivojlanish dinamikasiga ega bo‘lib, uni iqtisodiy muhitning yuksalish va pasayish davrlari sifatida cheksiz ta’riflash mumkin. F.Brodel jahon-iqtisodiyot tizimida bir “yirik shahar” yoki bir necha “yirik shaharlar” ko‘rinishidagi markazlari bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi.

I.Vallerstaynning dastlabki asarlari nashr etilgandan so‘ng F.Brodel o‘z pozitsiyasini aniqlab: “Har qanday jahon iqtisodiyoti markazlashgan shaklda joylashgan zonalardan iborat. O‘rta zonani markaz atrofida joylashgan maydon tashkil etadi... Keyin o‘rta zona atrofida oraliq zonalar vujudga keladi. Nihoyat, jahon iqtisodiyoti tizimini tavsiflovchi mehnat taqsimotida qatnashuvchi emas, balki tobe va qaram hudud bo‘lgan juda katta maydondagi periferiya joylashadi. Bunday periferik hududlarda odamlarning hayoti do‘zaxga o‘xshaydi. Buning asosiy sababi – ularning geografik joylashuvida aks etadi”<sup>16</sup>.

G‘arb mamlakatlari aholisining uzoq yillar davomida koloniyalardagi og‘ir mehnati va tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish orqali iqtisodiy muvaffaqiyatga va yuqori turmush darajasiga erishganligi to‘g‘risidagi Andre Gunder Frankning tadqiqotlari I.Vallerstayn g‘oyalarining rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

Jahon-tizim yondashuvining shakllanishida Prebish va Frank singari Lotin Amerikasi taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan Jon Fridmanning g‘oyalari ham muhim rol o‘ynadi. Fridman har qanday mamlakatda mavjud bo‘lgan to‘rtta iqtisodiy va geografik zonani farqlagan. U ushbu zonalarni – eng ko‘p yangilik ro‘y beradigan, aholi va kapital jamlangan asosiy yadro - mintaqalar; yadro - mintaqalarga ulangan va undan rivojlanish uchun impulslar oladigan rivojlanayotgan mintaqalar; yangi resurslar ishlab chiqilayotgan resurs-chegara mintaqalari; resurs bazasining yemirilishi oqibatida turg‘unlik va iqtisodiy depressiya holatiga kelgan degradatsiyalanayotgan mintaqalarga ajratadi. Bunday mintaqalar, Fridmanning fikricha, alohida mamlakatlar, hududlar va hatto jahon miqyosida ham uchrashi mumkin.

I.Vallerstayn jahon-iqtisodiyot tizimi konsepsiyasini yadro-mamlakatlar tomonidan chekka mamlakatlarni ekspluatatsiya qilish g‘oyasi bilan birlashtirib, katta tarixiy tizimlarni vaqt va makonda mahalliyashtirilgan iqtisodiy qonuniyatlar bilan tahlil qilishga qaratilgan o‘z nazariy paradigmasini yaratdi. Bunday

---

<sup>15</sup> Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм. XV–XVIII вв. Т. 3. Время мира. М.: Прогресс, 1992. — 679 с.

<sup>16</sup> Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм. XV–XVIII вв. Т. 3. Время мира. М.: Прогресс, 1992. — 679 с.

yondashuv ijtimoiy fanlar ilgari amalga oshira olmagan ko'pgina kategoriyalarning rad etilishiga olib keldi. I.Vallersteyn, eng avvalo, jamiyat tushunchasidan voz kechishni taklif qildi, chunki, uning fikricha, mehnat taqsimotini umumiy jahon tizimida alohida davlatlar, xalqlar yoki madaniyatlar kesimidan tashqarida ko'rib chiqish samarasizdir.

Tahlil birligi sifatida tadqiqotchi o'z-o'zini rivojlantiruvchi yaxlitlik sifatida qaraluvchi jahon-tizimdan foydalanishni taklif etdi.

Jahon-tizim – savdo va mehnat taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan siyosiy jihatdan uyushgan va iqtisodiy jihatdan o'zaro aloqada bo'lgan hududlar majmuidir.

Bunday tizimning birinchi varianti sifatida mini tizim, ya'ni ibtidoiy jamoa ko'rinishidagi yopiq va o'ziga yetarli bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy birlik olinadi. Vaqt o'tishi bilan mini-tizimlar o'z chegaralaridan tashqariga chiqa boshlaydi, boshqa tarafdin, ilgari yopiq bo'lgan iqtisodiy birliklar bilan almashinuv jarayonlarida ishtirok etib, jahon-tizimining shakllanishiga olib keladi.

Vallersteyn jahon-tizimlarining ikki turini ajratib ko'rsatadi: jahon-imperiya va jahon-iqtisodiyot. Jahon-imperiya sub'ektiv hududlarga soliq undirish orqali jahon-imperiyaning birligini qo'llab-quvvatlovchi siyosiy kuchlar bilan birlashadi.

Jahon-iqtisodiyot tizimi bir-biri bilan doimiy ziddiyatda bo'lishi mumkin bo'lgan, biroq shunday sharoitda ham barqaror iqtisodiy aloqalarni saqlab turuvchi mustaqil davlatlar guruhidan iborat bo'ladi. Jahon-iqtisodiyoti tizimlari qadimdan mavjud bo'lgan, biroq keyinchalik raqobatchi davlatlardan biri boshqalarni o'ziga bo'ysundirgan va jahon – iqtisodiyot tizimi jahon-imperiya tizimiga aylangan, ya'ni iqtisodiy tushuncha siyosiy tushuncha darajasiga chiqqan. Biroq, 1450-yillarda G'arbiy Yevropada maxsus jahon-iqtisodiyot tizimi paydo bo'ldi va u qisman siyosiy tuzilishni saqlab qoldi. Bu haqda Vallersteyn shunday deb yozgan edi: "XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Yevropada jahon-iqtisodiyot tizimi deb atash mumkin bo'lgan tizim paydo bo'ldi. Garchi u buyuk imperiya bilan bir xil darajada bo'lsa-da, u imperiya emas edi, faqatgina uning ayrim xususiyatlariga ega edi. U imperiyalar, shahar-davlatlar yoki miliy davlatlar kabi siyosiy emas, balki iqtisodiy birlik edi... Garchi ular ma'lum darajada madaniy aloqalar, shuningdek, siyosiy bitimlar va hatto Konfederatsiya tuzilmalari tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lsa-da, ushbu tizim elementlari o'rtasidagi asosiy aloqalar tabiatan iqtisodiy edi"<sup>17</sup>.

Vallersteyn talqinidagi kapitalizm an'anaviy marksistik tushunchadan ancha uzoqdir, chunki tadqiqotchi jahon bozorida faoliyat ko'rsatadigan har qanday mamlakatni kapitalistik jahon iqtisodiyotining bir qismi sifatida ko'rib chiqadi.

---

<sup>17</sup> Wallerstein I. The modern world-system. Vol. I: Capitalist agriculture and the origins of the European world-economy in the sixteenth century. San Diego: Academic Press, 1974. — 440 p



Uning konsepsiyasida kapitalizm iqtisodiyotning qaysidir darajasidagi ukld sifatida qaralmaydi. Vallerstayn jamg'arish manfaatlari boshqa har qanday mulohazalardan ustun bo'lgan "tarixiy kapitalizm" haqida gapirishni afzal ko'radi. Aslida, tarixiy kapitalizm bir xil makon va dunyoviy xususiyatlarga ega kapitalistik jahon-iqtisodiyot va jahon-tizimi bilan belgilangan: "Shunday qilib, - deb yozadi Vallerstayn – tarixiy kapitalizm kapitalni cheksiz jamlash iqtisodiy maqsad bo'lgan, ishlab chiqarishning aniq, vaqt va makon jihatidan chegaralangan joydir. Bu unda ijtimoiy bir butunlikka hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan va muayyan shart-sharoitlarni belgilaydigan, o'z qoidalariga muvofiq harakat qiladigan va boshqalar ham ularga moslashishi zarur bo'lgan ijtimoiy tizimdir"<sup>18</sup>.

Globallashuvning keyingi nazariyasi "umumjahon madaniyati" nazariyasi deb nomlanib, ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu nazariyani g'lokolizatsiya nazariyasi deb ham atashadi. Ushbu nazariyaning asoschisi amerikalik britan tadqiqotchisi R.Robertson hisoblanadi.

G'lokalizatsiya nazariyasining asosiy tushunchalarini ko'rib chiqishda, avvalo, globalizatsiya orqali nimani tushunamiz, degan savolga javob berishimiz kerak. Ushbu savol mohiyatini tushunishda biz U.Bekning "Globalizatsiya nima?" nomli asariga tayanamiz. U.Bek tadqiqotning mavzu doirasini aniqlash uchun uchta tushuncha – globallashuv, g'loballik va globalizm tushunchalarini alohida ajratgan holda yondashishni taklif qiladi. U globallashuvni "milliy davlatlar va ularning suvereniteti transmilliy ishtirokchilar faoliyati bilan o'zaro bog'langan va ularning qobiliyatiga, yo'nalishiga va kimligiga bog'liq bo'lgan jarayonlar", - deb belgilaydi; boshqacha aytganda, u yagona davlat va hukumatsiz jahon jamiyatining mavjudligiga ishora qiladi.

"Globallashuv" atamasi, U.Bek fikriga ko'ra, "endi sayyorada sodir bo'layotgan hech bir hodisaning mahalliy chegaradagi voqe'likka aloqasi yo'q, barcha ixtirolar, g'alabalar va falokatlar butun dunyoga taalluqli va biz hayotimizni va harakatlarimizni, tashkilot va muassasalarni "mahalliy-global" o'qda qayta ko'rib chiqishimiz va tashkil etishimiz lozim". Shunday qilib, g'loballik ob'ektiv bayonotning bir turi sifatida qabul qilinadi. U.Bek "g'loballik" va "globallashuv"dan "globalizm"ni, ya'ni jahon bozori hukmronligining neoliberal mafkurasi, globallashuvni g'arblashuv deb hisoblovchi qarashlarni o'ylab ko'rishga chaqiradi. Globalizm globallashuvning iqtisodiy aspektini barcha boshqa jihatlar ustidan ustuvorligini e'tirof etgan holda globallashuvni monokauzal deb hisoblaydi.

Shunday qilib, g'lokalizatsiya nazariyasi g'loballikning holatini tushunish uchun mo'ljallangan bo'lib, globallashuvni global jamiyat rivojlanishining

---

<sup>18</sup> Валлерстайн И. Исторический капитализм. Капиталистическая цивилизация / Пер. с англ. М.: КМК, 2008. — 176 с.

tendensiyalaridan biri sifatida va, ayni paytda, globalizmdan har tomonlama uzoqlashib, butunlay boshqacha yondashuvni taklif qiladi.

R.Robertson birinchi bo‘lib ijtimoiy fanlarga “glokalizatsiya” tushunchasini kiritgan. Ungacha “glokalizatsiya” tushunchasi yapon marketingida (“dochakuka”) qo‘llanilgan: dastlab u texnologiyalarning mahalliy sharoitga moslashishini, keyinchalik global mahsulotni o‘ziga xos mahalliy bozorga moslashtirishni nazarda tutgan. R.Robertson ushbu tushunchadan globallashuv jarayonlarini umumiy tahlil qilishda foydalanadi.

R.Robertsonning globallashuv modeli jahon-tizim nazariyasi va global tizim nazariyalari tanqidi asosida shakllangan. 1968 yilda R.Robertson madaniyat sohasi dunyoning tizimlashtirilishida juda muhim, degan xulosaga kelgan bo‘lsa, 1980-yillar o‘rtalarida milliy iqtisodiyot va davlatlarning global o‘zaro bog‘liqligida dunyoning yagona ijtimoiy-madaniy makonga aylanishi ham muhimligi to‘g‘risidagi fikrni olg‘a surdi.

Shaxslar ongi va faoliyatining globallashuv nazariyasi predmetiga kiritilishi Robertsonni globallik va lokallik o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishga undadi. Natijada R.Robertson globallashuv jarayonida ikki tendensiyaning aniqladi: jahon hayotining global institutsionallashuvi, niversalizm, globallashuvning gomogenligi tendensiyasi va globallashuvning lokallashuvga moyilligi, xususiylik, geterogenlik tendensiyasi. Shunday qilib, glokalizatsiya nazariyasidagi asosiy semantik tushunchalar “globallik” va “lokallilik”; bu nazariyaning boshlang‘ich nuqtasi global madaniy yo‘nalishlarning mahalliy kontekstda o‘zgarishi, boshqacha aytganda, ularning mahalliyashtirilganligidir; shu bilan bir qatorda, mahalliy madaniy qadriyatlar va mohiyatlar ham jahon miqyosida qayta talqin etiladi.

Shuni ham aytish kerakki, glokalizatsiya tushunchasi bilan bir qatorda regionalizm, mintaqalashuv avtonomlik, traditsionalizm, alohidalik, gibridlanish, parchalanish va fragegratsiya kabi boshqa bir qator tushunchalar zamonaviy globallashuvni mahalliy ko‘rinishlarda tavsiflovchi jarayonlarning o‘ziga xosligi va murakkabligini aniqlashtirishda foydalaniladi.

Quyida glokalizatsiya nazariyasini jamiyatning turli sohalariga yoki iqtisodiyot, siyosat va madaniyatni o‘z ichiga olgan asosiy tuzilmalarga qanday tatbiq etilishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi.

Albatta, barcha davom etayotgan jarayon va tendensiyalarni qamrab olishning iloji yo‘q, shuning uchun iqtisodiyot, siyosat va madaniyat sohalarida glokolizatsiya tamoyillarini izohlovchi misollarini sanab o‘tish bilan cheklanamiz.

Iqtisodiyotda glokalizatsiya proteksionizm siyosatida va global iqtisodiy inqirozlar davrida davlatning rolini mustahkamlashda namoyon bo‘ladi. Shuni ham aytish mumkinki, transmilliy korporatsiyalarning xo‘jalik faoliyati turli mahalliy

mazmunlarda muayyan o'ziga xoslik kasb etib, u mahsulotlarning milliy bozorlarga moslashuvida, reklamaning o'ziga xos xususiyatlarida va mahsulotni reklama qilish usulida o'z ifodasini topadi.

Siyosiy sohada glocalizatsiya milliy davlatlar oldiga qo'yilgan globalizatsiya muammosiga tabiiy javob bo'ladi. Bunday holatda mumkin bo'lgan javoblar sifatida millatchilik tendensiyalarini mustahkamlash yoki mintaqaviy integratsiyaga intilishni ko'rsatib o'tish mumkin.

Madaniyat sohasida glocalizatsiyani "ko'pmadaniyatlilik" atamasi sifatida ko'rsatib o'tish mumkin. Madaniyat sohasidagi diversifikatsiya madaniyatlarning birlashishi, g'arblashuvi va gomogenlashuvi haqidagi asosiy prognozlariga zid holat ko'rinishidir, bu esa uning tijoratlashuvi bilan ham bog'liq.

Agar glocalizatsiyaning mumkin bo'lgan ko'rinishlarini umumlashtirsak, turli madaniyatlarda paydo bo'lgan global muammoga mahalliy javoblarning beshta asosiy turini belgilab o'tish mumkin<sup>19</sup>:

- global oqim va institutlarning harakatiga nisbatan mahalliy madaniyatning maksimal ochiqligi (masalan, Afrikada g'arblashtirish ssenariysi bo'yicha globallashtirishga qarshilik ko'rsatish uchun yetarlicha tarixiy va madaniy an'analarga va siyosiy ambitsiyalarga ega bo'lmagan mamlakatlar mavjud);

- mahalliy madaniyatning global madaniyat shakllari bilan har qanday o'zaro bog'liklik va integratsiyasiz ham mavjud bo'la olishi (masalan, Xitoydagi "boshqariladigan globallashtirish");

- kuchli mahalliy aks ta'sir natijasida global oqimlarning moslashuvi va o'zgarishi;

- mahalliy madaniyatni globallashtirish jarayonlaridan kurash va rad etish orqali himoya qilinishi (bu holat uchun eng yorqin misol sifatida Shimoliy Koreyadagi holatni ko'rsatish mumkin);

- mintaqalashuv (masalan, Yevropa Ittifoqi integratsiyasi loyihasining timsoli bo'lib, milliy va mintaqaviy Yevropa identifikatsiya turlarini tabiiy ravishda birlashtiradi).

Muayyan turdagi aks ta'sirni tanlash bir qator omillarga bog'liq bo'lib, R.Robertson mantig'ining davomi sifatida ular orasida ijtimoiy-madaniy omilni asosiy omil sifatida ajratib ko'rsatish mumkin. Har holda, zamonaviy dunyoda biz ba'zan qarama-qarshi yo'nalishlarni birlashtiradigan murakkab jarayonlarga duch kelamiz, glocalizatsiya nazariyasi yordamida ularning aniqlanishi va tushunilishi mumkin.

Globalashuvning yana bir nazariyasi "umumjahon boshqaruvi" nazariyasi nomi bilan mashhur. Ushbu nazariya namoyandalari bugungi kunda mavjud

---

<sup>19</sup> Кирьянова Л.Г. Общество в контексте глобально-локальных отношений / Л.Г.Кирьянова. –Томск: Дельтаплан, 2007. 136 с

bo‘lgan Yevropa Ittifoqi, BRIKS va shu kabi iqtisodiy birlashmalar siyomosida jahon iqtisodiyotini umumjahon boshqaruvi g‘oyasini olg‘a suradilar.

O‘tgan davrlarda xalqaro tartibning amaliy imkoniyati doirasida markazlashuv va markazdan qochish tendensiyalarining dinamik muvozanatiga erishildi, bunda davlatlarning haqiqiy sub’ektligi yoki mavjudligi ularning nisbiy muvofiqligini ta’minlash sharti edi. Bu vaqt globallashuv sharoitida davlatning funksiyalarini inversiya qilish bilan o‘tdi va endi uning tashqi siyosati ichki siyosatning davomi hisoblanadi va aksincha. Globallashuvning ko‘plab imperativlari allaqachon “yangi dunyo tartibi”ni belgilamoqda va bu imperativlar ichida eng muhimi chegara bilmaydigan axborot inqilobidir. Ammo u neoimperial tendensiyalar (“axborot urushlari”)da, uzoq muddatli iqtisodiy raqobatda, virtual moliyaviy o‘yinlarning sirli dunyosida keng qo‘llaniladi. Bularning barchasi muqarrar ravishda “muvofiqlashtirilgan” hududdan, ya’ni suveren davlatlardan ajratilgan darajadagi jarayonlarning tartibsizligiga olib keladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan voqe‘liklar davlatning dunyodagi an’anaviy maqomini shubha ostiga qo‘yadi. F.Brokgauza va I.Yefronning “Ensiklopedik lug‘ati”da ularning mustaqilligi “boshqa hech qanday kuch” buyruq berishi yoki uning irodasini amalga oshirish uchun qonuniy hokimiyatga ega bo‘lmasligi kerak”ligi ko‘rsatib o‘tilgan. Hatto eng qudratli davlatlar ham bugun bunday to‘la suverenitetga ega emas. Agar ambitsiyalarini chetga olib tashlansa, daniyalik siyosatshunoslar X.Xolm va G.Sorensenlarning atamalariga ko‘ra, globallashuv kontekstida tezkor suverenitetining bir qismidan voz kechishdir<sup>20</sup>.

Biroq bu ob’ektiv tendensiya ko‘pincha iqtisodiy markazlashuv ruhida talqin qilinib, bu jarayonda birlamchi bo‘g‘in sifatida dunyoning mintaqalashuvi va davlatning rivojlanishi o‘rtasiga teng belgi qo‘yiladi. F.Bobbitning fikriga ko‘ra, agar mintaqa-davlat hali millat-davlat va muayyan suveren xususiyatlarini saqlab qolgan bo‘lsa, bozor-davlat bu xususiyatlarni yo‘qotadi. Shunday qilib, mintaqa-davlat chinakam global tuzilma – bozor-davlatga o‘tish shaklidir.

Fransiya tadqiqotlar milliy markazi direktori M.K.Smuts bunday boshqaruvning uch tomonlama kredosini: “...ishtirok etish, muzokaralar, muvofiqlashtirish”ni shakllantirdi<sup>21</sup>. Bu yerda asosiy kalit so‘z va tushunchalar sifatida loyihalar, hamkorlik, konsensus ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tushunchalar “yaxshi boshqaruv” negizidagi asl mohiyat – ijodiy qobiliyatni loyihalashni asosini tashkil etadi.

Zamonaviylikning turli modellarini taqqoslab, nemis politologi Yevropa Ittifoqi neoliberal globallashuvga nisbatan samarali qarshi turuvchi shaklga

<sup>20</sup> Пономарева Е. Суверенитет в условиях глобализации// Свободная мысль. – М., 2007. – №11.

<sup>21</sup> Смутс М.К. О «хорошем» управлении в международных отношениях// Международный журнал социальных наук. 1998. – №22.

aylanishi mumkin va, shuning uchun ham, Yevropa Ittifoqi globallashuvni konstruktiv yo‘nalishga aylantira oladigan “transmilliy davlatlar tizimi” elementlaridan biriga yo‘naltira oladi. Shu bilan birga, u “eng mustabid shakl”ga aylanadigan “global davlat” g‘oyasiga qattiq qarshi chiqadi.

Sayyoraviy boshboshdoqlikni global tartib timsollariga aylantirish qobiliyati globallashuvning innovatsion ekzistensial muammosi bo‘lib qolmoqda. Unda insoniyat tarixida birinchi marta rivojlanish yo‘nalishida omon qolish sharti ustuvorlik qilmoqda. Globallashuvning barcha sub’ektlari o‘rtasida uzluksiz, ochiq va qonuniy polilog tartibi va yarim huquqiy “global moliyaviy tuzilma”dan yangi dunyo tartibini yaratish uchun “global siyosiy tuzilma” yo‘nalishidagi sinergiyaga talab mavjud.

Pirovardida, global boshqaruv rivoji umuminsoniylik va xususiylik qarama-qarshiligini emas, balki ularni sintez qilish imkoniyatini yangi pog‘onada qayta ishlab chiqadi. Shu munosabat bilan Parij instituti siyosiy tadqiqotlar professori B.Badi bunday boshqaruv “asta-sekin yangi ijtimoiy shartnoma uchun asosiy talab bo‘lib kelmoqda, chunki globallashuv imperativ bo‘ysunuvchi dunyoda yashash uchun asosiy mezon, ya’ni o‘zaro bog‘liqlikdir...” deb ko‘rsatib o‘tadi<sup>22</sup>.

Umuman olganda, ushbu diskursga “yaxshi boshqaruv” (good governance)ni modellashtirishning qadriyat-semantik ustunlari va uning tuzilmalari hamda texnologiyalarini tushunish yuzasidan umumiy muammo yuzaga keldi.

Bunday asimmetriya, U.Bekning iborasi bilan aytganda: “globallashuvning har qanday modeli “yaxshi ob-havo falsafasi”dan boshqa narsa emas”<sup>23</sup>.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan globallashuv nazariyalari bugungi kunda ham taraqqiy etmoqda, ushbu nazariyalar turli olimlar va tadqiqotchilar tomonidan muntazam ravishda yangilanib, to‘ldirib borilmoqda.

#### **2.4. “Vashington konsensus” tomonidan ishlab chiqilgan “Jahon savdosini isloh etishning 10 tavsiyasi”**

Dunyoda globallashuv fonida jahon savdosini takomillashtirish va isloh qilish yo‘nalishida ko‘plab yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida “Vashington konsensus” tomonidan ishlab chiqilgan “Jahon savdosini isloh etishning 10 tavsiyasi” muhim o‘rin tutadi.

Vashington konsensus 10 ta standart iqtisodiy islohotlar paketini o‘z ichiga oluvchi siyosiy tavsiyalardan iborat bo‘lib, ushbu tavsiyalar jahon moliyaviy-

---

<sup>22</sup> Кузнецов В. Что такое глобализация? // Мировая экономика и международные отношения. – М., 1998. – №2, 3.

<sup>23</sup> Бек У. Политическая динамика в глобальном обществе риска// Мировая экономика и международные отношения. – М., 2002. – №5.

iqtisodiy sharoitida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki va AQSh G'aznachilik departamenti kabi institutlar tomonidan keng qo'llanilgan.

Bu atama birinchi marta 1989 yilda ingliz iqtisodchisi Jon Uilyamson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu tavsiyalar makroiqtisodiy barqarorlashtirish, savdo va investitsiyalar uchun iqtisodiy ochiqlik va ichki iqtisodiyotda bozor kuchlarini kengaytirish kabi sohalardagi siyosatni o'z ichiga oladi.

Uilyamson tomonidan ushbu atamadan foydalanilgandan keyin, mavjud ziddiyatlarga qaramasdan, Vashington konsensus iborasi ikkinchi, kengroq ma'noda kuchli bozorga yo'naltirilgan yondashuvga nisbatan umumiy yo'nalishda juda keng qo'llanildi. Ushbu bahs-munozara va ziddiyatlarga qaramasdan, bir qator institutlar va iqtisodchilar ushbu tavsiyalardan agar u alohida mamlakatlar sharoitlariga mos keladigan bo'lsa, har qanday strategiyadan foydalanish samarali bo'lishi nuqtai nazaridan keng foydalanishmoqda.

Vashington konsensusning jahon savdosini isloh etish bo'yicha 10 ta tavsiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Budget kamomadini minimallashtirish. Ushbu tavsiya yalpi milliy mahsulot (GDP)ga nisbatan katta moliyaviy kamchiliklardan qochish uchun fiskal siyosat intizomini kuchaytirishni nazarda tutadi.

2. Korxonalariga berilgan subsidiyalarni minimallashtirish. Bunda asosiy e'tibor asosiy ko'rsatkichlar o'sishini ta'minlash, aholining kambag'al qatlamlariga yo'naltirilgan boshlang'ich ta'lim, tez tibbiy yordam va infratuzilmalarga yo'naltirilgan davlat subsidiyasi xarajatlarini qayta ko'rib chiqishga qaratiladi.

3. Soliq bazasi keng, soliq stavkasi esa past bo'lishi zarurligi. Ushbu tavsiyada soliq islohotlarini amalga oshirish orqali soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish va o'zgarmas chegaralardagi past soliq stavkalarini belgilash ko'zda tutiladi.

4. Foiz stavkalari ichki moliya bozorlari tomonidan belgilanishi zarurligi. Bunda foiz stavkalari bozor tomonidan belgilanishi va u aniq ko'rsatkichlar uchun ijobiy bo'lishi nazarda tutiladi.

5. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi almashuv kursi eksportni rivojlantirishi zarurligi.

6. Tashqi savdo tariflari minimal bo'lishi zarurligi. Bunda savdoni erkinlashtirish – litsenziyalash va boshqa miqdoriy cheklovlarni olib tashlash orqali importni erkinlashtirish, past va nisbatan yagona tariflardagi savdoni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ko'rinishida tavsiflanadi.

7. Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish siyosati qabul qilinishi zarurligi.

8. Xususiylashtirish har tomonlama rag'batlantirilishi zarurligi.

9. Davlat tomonidan tartibga solishni minimallashtirish. Bunda tartibga solishning moliyaviy muassasalardan tashqari barcha ko'rinishlarini olib tashlash nazarda tutiladi.

## 10. Xususiy mulk huquqi kafolatlanishi va kuchaytirilishi zarurligi.

Uilyamson Vashington konsensus atamasi odatda uning birlamchi ma'nosidan boshqacharoq ko'rinishda ishlatilishini aytib o'tadi.

Uilyamson ko'rsatib o'tilgan 10 ta tavsiyadan dastlabki 3 tasi iqtisodiy doiralarda isbotsiz qabul qilinishi, qolgan 7 tasi esa munozaralarga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tgan. U tavsiyalarning asosiy qismi davlatning ayrim funksiyalarini qisqartirishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, ta'lim va sog'liqni saqlashni qo'llab-quvvatlash kabi funksiyalar davlatning doimiy funksiyalaridan bo'lishini ham ko'rsatib o'tgan. U bozor fundamentalizmini qo'llab-quvvatlamasligini aytadi va konsensus tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar to'g'ri amalga oshirilsa, kambag'allarga foyda keltiradi, deb hisoblaydi.

Qayd etilganidek, Uilyamsonning e'tirozlariga qaramay, Vashington konsensus atamasi 1970-yillardagi Keyns ta'limotidan keyingi erkin bozor siyosatiga nisbatan umumiy siljishni tavsiflash maqsadida keng qo'llanilgan.

2000-yillarda turli siyosatchilar tomonidan keng ma'noda konsensus 2008 yildagi global moliyaviy inqirozdan so'ng o'z dolzarbligini ta'kidladilar. Bozor muvaffaqiyatsizliklariga javoban hukumatlarning kuchli aralashuvidan so'ng, Jahon banki kabi global institutlarning qator mutaxassislari Vashington konsensusi o'z hayotini yashab o'tdi deya boshladilar. Ular orasida Britaniyaning sobiq Bosh vaziri Gordon Braun 2009 yilgi G-20ning London sammitidan so'ng "eski Vashington konsensusi tugadi" deb e'lon qilgan.

Ko'pgina mamlakatlar Vashington konsensusi tavsiyalarining turli tarkibiy qismlaridan ba'zan XVF va Jahon bankidan kredit olish maqsadida qo'llashgan. Bu islohotlar natijalari ancha munozarali. Ayrim tanqidchilar islohotlar beqarorlikka olib keldi, degan iddaolarga e'tibor qaratishgan. Ayrim tanqidchilar Vashington konsensusini Argentina iqtisodiy inqirozi kabi o'ziga xos iqtisodiy inqirozlarda, shuningdek, lotin Amerikasidagi iqtisodiy tengsizlikning kuchayishida ham ayblashgan.

Uilyamsonning o'zi turli mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish, bandlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tavsiyalarni "...yumshoq qilib aytganda - umidsizlik" sifatida umumlashtiradi. U bu cheklangan ta'sirni uchta omilga qaratadi:

- a) konsensusning o'zi vayron qiluvchi iqtisodiy inqirozlarning oldini olish mexanizmlariga alohida e'tibor bermaydi;
- b) tavsiyalarda keltirilgan islohotlar aslida to'liq amalga oshirilmagan;
- s) islohotlar daromad taqsimotini yaxshilash bo'yicha yetarli darajada samarali emas va u qo'shimcha harakatlar bilan to'ldirilishi lozim edi.

Uilyamson va boshqa tahlilchilar ham Chili kabi izchil ravishda tegishli siyosiy o'zgarishlarini amalga oshirgan bir qator mamlakatlardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning uzoq muddatli yaxshilanishiga ishora qilishadi.

Uilyamsonning o'zi ta'kidlaganidek, bu atama bozor fundamentalizmi yoki neoliberalizmining sinonimi sifatida asl niyatiga nisbatan kengroq ko'lamda ishlatilib kelindi. Uilyamsonning fikrlari Jorj Soros va Nobel mukofoti laureati Jozef Stiglitslar tomonidan keng ma'noda tanqid qilingan. Vashington konsensus tavsiyalari yuqoridagilar bilan birga Erik Reynert kabi Lotin Amerikasi siyosatchilari va iqtisodchilari tomonidan tanqid qilindi. Bu atama, umuman, neoliberal siyosat bilan bog'liq bo'lgan erkin bozorni kengaytirish, AQSh va uning ta'siri bo'yicha cheklovlar hamda milliy mamlakatlar suvereniteti bilan bog'liq munozaralarga aylandi.

Tashqi qarzni yanada kengaytirish yoki eksport daromadini oshirish oson, Lotin Amerikasining ko'p davlatlari proteksionizmni qisqartirish va iqtisodiyotning eksport yo'nalishini oshirish uchun parallel siyosatni amalga oshirishda kuchli moliya intizomi orqali umumiy ichki talabni kamaytirishga qaratilgan aniq barqaror yo'nalishlarni topa olmadilar.

Shunday bo'lsa-da, o'tgan asrning oxiri va asrimizning o'tgan davri uchun Vashington konsensus tomonidan jahon savdosini isloh etish yo'nalishidagi tavsiyalar ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga integratsiyasida muhim omil bo'ldi.

## **2.5. XX asr boshlarida jahon iqtisodiyoti globallashuvi nazariyalarining transformatsiyalashuvi va xususiyatlari**

Zamonaviy dunyo noaniqliklarga to'la. Turli qit'alardagi atmosfera haroratining ko'tarilishi va boshqa anomaliyalar bilan kuzatilayotgan tabiiy ofatlar ob-havo tizimining keskin o'zgarayotganligini ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlar chegaralari endi yil fasllariga qarab odatiy tebranishlarni o'z ichiga olmaydi, uning ichida oldindan bashorat qilinmagan yangi jarayonlar yuzaga kelmoqdaki, bu mavjud tizimning odatdagi tuzilmalari o'zgarayotganligini va ularni tushuntiruvchi nazariyalar eskirayotganini ko'rsatadi. Tabiiy o'zgarishlar bilan birga siyosiy hamda iqtisodiy o'zgarishlar qonuniyatlarida ham yuqoridagi kabi tizim o'zgarishlari yuz berayotganligini ko'rish mumkin.

Shunisi xarakterliki, so'nggi yillarda iqtisodiy globallashuvning salbiy jihatlarini tanqidiy baholash kuchaydi va bu jarayondagi ziddiyatlarni tahlil qilish g'arb olimlari, shuningdek, o'z hukumatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlarda muhim lavozimlarni egallagan amaliy siyosatchilar tomonidan ham avj oldi. Ana shunday tanqidchilarning yorqin misoli sifatida 2001 yilda asimmetrik axborotli



bozorlar yo‘nalishidagi tadqiqotlari uchun Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan J.Stiglitsni ko‘rsatish mumkin. J.Stiglits iqtisodiy fanlarning yangi tarmog‘i hisoblanuvchi “axborot iqtisodiyoti” fanining asoschisi hisoblanadi. J.Stiglits tomonidan “nomaqbul tanlash” va “axloqiy xatar” konsepsiyalari ishlab chiqilgan. U matematik usullardan foydalanib, bozor agentlarining to‘liqsiz, noaniq va asimmetrik axborotlar va nomukammal raqobat sharoitida umumiy bozor muvozanatiga erisha olmasligini isbotlagan.

J.Stiglits J.Keyns va F.Ruzveltning davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini qo‘llab-quvvatlash borasidagi g‘oyalari izdoshi bo‘lib, zamonaviy kapitalizmni yaxshilash va takomillashtirish kerak, deb hisoblaydi.

Iqtisodiy globallashuv jarayoniga haqiqiy baho bergan holda, u o‘zining “Globalizatsiya va uning nomutanosibliklari” nomli monografiyasida shunday deydi: “Men globalizatsiya ya’ni erkin savdo va milliy iqtisodiyotlarning yaqinroq integratsiyalashuvi yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlash yo‘lidagi kuch bo‘lishi mumkin, deb hisoblayman va u yer yuzidagi barcha odamlarning hayotini yaxshilash mumkin bo‘lgan rivojlanish salohiyatiga ega. Globallashuvning salbiy ta’siri rivojlanayotgan mamlakatlarga mafkuraviy siyosat tufayli yetkazilgan zarardan emas, balki global savdo tizimiga xos adolatsizliklardan xabardorlik hamdir. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning ikkiyuzlamachiligi, adolatsizligi ayon bo‘lib qoldi, bu – o‘z bozorlarini yopiq qoldirgan holda, turli yordamlar bahonasida rivojlanayotgan mamlakatlarni o‘z mahsulotlari uchun bozorlarni ochishga majbur qilishda ko‘rinadi. Hozirgi vaqtda bu ikkiyuzlamachi siyosatni faqat tor egoistik monopol manfaatlari rivojlangan mamlakatlarning yopiq bozorlariga bog‘liq bo‘lgan kishilargina oqlaydilar. Bunday siyosat boylarni boyitib, kambag‘allarni yanada kambag‘allashtirishi va o‘sib borayotgan norozilikni yanada kuchaytirishi ko‘pchilikka ayon bo‘lib bormoqda”.

Tabiiy o‘zgarishlar jamiyat haqidagi oldingi bilimlarning haqiqatligini shubha ostiga oladigan chuqur ijtimoiy o‘zgarishlar bilan birga keladi. XXI asrda o‘zgarishlarning jadal yuz berishi ijtimoiy taraqqiyot haqidagi avvalgi adolatli deb hisoblangan barqaror g‘oyalarni o‘zgartiruvchi bog‘liq bo‘lmagan, tasodifiy jarayon va hodisalarning tartibsiz majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Terrorizm, ekstremizm, milliy va irqiy dushmanlikning keng tarqalishi va ularga hamroh bo‘lgan mahalliy qurolli mojarolar hamda ommaviy migratsiya kabi jahon siyosatidagi jarayon va hodisalar ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning nazoratsiz tabiatini ifodalaydi. Zamonaviy dunyo tartibini tasvirlashda “turbulentlik” atamasining tobora ko‘proq qo‘llanilayotganligi jahon siyosatidagi xalqaro jarayonlarning oldindan aytib bo‘lmasligini juda aniq aks ettirayotgani tasodifiy emas.

Turbulentlik (lotincha “*turbulentus*” – turbulent, tartibsiz) – suyuqliklar va gazlarga xos hodisa bo‘lib, ularning oqimlarida turli kattalikdagi ko‘plab quyunlar hosil bo‘ladi, natijada ularning gidrodinamik va termodinamik xususiyatlari odatdagi ko‘rsatkichlardan tashqariga chiqadigan tebranishlarni boshdan kechiradi<sup>24</sup>. Bu atama jismoniy va ijtimoiy muhitda yuz berayotgan tasodifiy o‘zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladi.

Jahon siyosatida turbulentlik tushunchasini globallashtirishning transformatsion nazariyasi asoschilaridan biri – amerikalik siyosatshunos J.Rozenau taklif etgan bo‘lib, u 1990 yilda ko‘rib o‘tilayotgan holatni keng yorituvchi “Jahon siyosatida turbulentlik: o‘zgarishlar va davomiylik nazariyasi” asarini nashr etdi<sup>25</sup>. Bu tushunchaga ko‘ra, jahon tizimi keskin o‘zgarishlar natijasida yuqori tanglikni boshdan kechirmoqda, bu esa jahon siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalar va jarayonlarni beqaror holga keltirib, ularni qayta tashkil etmoqda. Tizimning odatiy o‘zgarishlari anomaliyalar bilan almashtiriladi, tashkil etilgan tuzilmalar tarqalib ketadi, yangi jarayonlar ishlab chiqiladi, natijalar qisqa umr ko‘radi va tizim uzoq beqarorlik davriga kiradi.

Turbulent siyosatning asosiy xususiyati noaniqlik bo‘lib, qonuniyatlar yetishmasligi bilan xarakterlanadi. Jahon siyosati oldindan belgilangan qoidalar yoki chegaralarga ega bo‘lmagan bosqichga kiradi, chunki dunyoda keskinlik kuchayadi, munosabatlar o‘zgaradi va asosiy siyosatchilar tomonidan siyosiy rivojlanishi falajlanadi. Ushbu jarayonda ilgari barqaror bo‘lgan va uning o‘zgaruvchan tarkibiy qismlarining tebranishini cheklab qo‘ygan jahon siyosatining parametrlari yo‘q bo‘lmoqda.

J.Rozenau joriy siyosiy tizim parametrlarini o‘zgartiradigan beshta asosiy sababni ajratib ko‘rsatadi:

- texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan industrial jahon tartibidan postindustrial jahon tartibiga o‘tish;
- transmilliy xarakterga ega bo‘lgan atmosferaning ifloslanishi, terrorizm, narkotrafik, valyuta inqirozlari va OITS kabi hodisalarning paydo bo‘lishi;
- davlatlarning tobora yirik xalqaro masalalar bilan uzviy bog‘ligi ortishi natijasida o‘z vakolati doirasida yirik siyosiy masalalarni samarali hal eta olmasligi;
- barcha tashkiliy darajalarda markazdan qochish tendensiyalarining keng tarqalishi;

---

<sup>24</sup> Большой энциклопедический словарь. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая Российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1998. – С. 1233.

<sup>25</sup> Rosenau J.N. Turbulence in World Politics. A Theory of Change and Continuity. – Princeton (N. J.): Princeton University Press, 1990. – 480 p.

- dunyoni idrok qilishning o'zgarishi va dunyo aholisi tahliliy qobiliyatining ortishi.

Nemis siyosatshunosi Xanns Maull turbulentlikni quyidagi uchta keng qamrovli tendensiya ta'siridagi xalqaro munosabatlarning globallashuvi oqibatlari sifatida tavsiflaydi:

- geosiyosatning geoiqtisodiyot ustidan hukmronligi;
- davlatlararo munosabatlardan jamiyat va transmilliy sohaga tobora ko'proq o'tayotgan global xavfsizlik muammosining mutatsiyalari;
- turli qadriyatlar tizimi va mafkuralar o'rtasidagi ziddiyatlar intensivligining ortib borishi<sup>26</sup>.

Uning fikricha, yuqori o'zaro bog'liqlik bilan belgilangan tizimlardagi global o'zaro ta'sirlar dinamikasi siyosiy nazoratning murakkabligini ko'rsatadi, bu esa mavjud tizimning qulashiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqotchilar va siyosatchilar ijtimoiy va siyosiy hayotning tartibsiz tabiatini dunyodagi global o'zgarishlar bilan bog'laydilar. Shu asosda jismoniy va ijtimoiy sohalar o'rtasidagi bog'liqliklar, shuningdek, mavjud dunyo tartibining belgilangan qoidalar doirasida ishlamayotganligi tushuntiriladi. J.Rozenau turbulentlik sababini tartibga solishning murakkabligi, global makonni egallash vakolatlariga egalik qilishga harakatlarda ko'radi<sup>27</sup>.

XX asr oxirida jahon siyosiy tizimida yagona kuch uchun mavqega ega bo'lgan iyerarxiya vujudga keldi. Biroq, ushbu yagona kuchning jahon miqyosida tartibni saqlash va maqsadlariga erishish imkoniyatlari cheklangan. Masalan, AQSh imkoniyatlari turli sohalarni tobe uchun yetarli harbiy kuchga ega, biroq yuz berayotgan vaziyatlarning aksariyatini harbiy kuch bilan barqarorlashtirib bo'lmaydi.

Global jarayonlarining murakkablashib borishi sharoitida jahon miqyosida hokimiyatni jamlash masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Shu bois muayyan muammolarni hal etishga qaratilgan xalqaro tuzilmalar oldingi o'ringa chiqadi va ularning hamkorligi jahon siyosatida yuzaga kelayotgan tahdid va qiyinchiliklarni bartaraf etishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy turbulentlikka avval belgilangan tartib va madaniy an'analar qarshilik ko'rsatadi. Mavjud tartibni saqlovchi kuchlar va transformatsiyaga intiluvchi kuchlar o'rtasidagi kurash natijalarini bashorat qilish uchun turbulentlik tushunchasi ichidagi mavjud tendensiyalarni aniqlash va tahlil qilish kerak. Turbulentlik tadqiqotlari jahon siyosatini o'zgartirishga hissa qo'shuvchi turli

---

<sup>26</sup> Maull H.W. World Politics in Turbulence // Internationale Politik und Gesellschaft Online. 2011, N.1. – P. 11–25. – [http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-1\\_03\\_a\\_maull.pdf](http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-1_03_a_maull.pdf)

<sup>27</sup> Rosenau J.N. Along the Domestic-Foreign Frontier: Exploring Governance in a Turbulent World. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – P. 144–173

harakatlantiruvchi kuchlarni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lib, natijada yangi qoida va tartiblar tan olindi.

Axborot qarama-qarshiliklari elementlarining ta'siri ortib borishi voqelikni idrok etishni o'zgartiruvchi yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Masalan, Oksford lug'atini tuzuvchilarning fikriga ko'ra, 2016 yil "haqiqatdan keyingi" ("post-haqiqat") davr deb ataladi. Bu atama XXI asrning boshlarida hozirgi zamonga tegishli har qanday tushuncha, voqeaning o'rinsizligini ifodalash uchun qo'llaniladi<sup>28</sup>.

"Post-haqiqat" tushunchasi jamoatchilik fikrini shakllantirishda ob'ektiv faktlar hissiyotlar va shaxsiy e'tiqodlarga murojaat qilishdan ko'ra kamroq ahamiyatga egaligini bildiradi.

"Post-haqiqat" ko'pincha real narsadan ko'ra ko'proq mashhur bo'luvchi "soxta yangiliklar" ("fake news")ga asoslanadi. Collins English Dictionary mualliflari 2017 yildagi eng mashhur so'z sifatida "soxta yangiliklar" ("fake news") so'zini e'lon qilishgan. Collins "soxta yangiliklar"ni "yangiliklar niqobi ostida tarqalgan yolg'on, shov-shuvli ma'lumotlar" deb ataydi<sup>29</sup>. Collins ning ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda dunyo ommaviy axborot vositalarida "soxta yangiliklar" dan foydalanish 365 % ga oshdi.

"Soxta yangiliklar"ning xavfliligi shundaki, axborot makonidagi shov-shuvli xabarlar sifatida buzilgan, yolg'on, soxta yangiliklar ustunlik qila boshlaydi va ular real muammolarning muhokama markazidan chetlashtiradi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi nazariyalari XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida mantiqiy va sifat jihatidan tobora yangilanib, o'zgarib bormoqdaki, buning natijasida globallashuv sharoitidagi iqtisodiy jarayonlar yangicha talqin va xususiyatlarni kasb etmoqda.

## II bob bo'yicha xulosalar

"Globallashuv" tushunchasi 1996 yildan boshlab Davos forumining asoschisi va prezidenti Klaus Shvab rahbarligidagi jahon iqtisodiy forumining 25-sessiyasida "Sayyoradagi asosiy jarayonlarning globallashuvi" mavzusida bo'lib o'tgan muhokamadan so'ng alohida atama sifatida kiritildi.

"Globallashuv" atamasi 1983 yilda T.Levit tomonidan birinchi marta "Harvard Business Review" jurnalidagi maqolasida qo'llanilgan. 1981 yilda amerikalik sotsiolog J.Maklean tomonidan "globallashuv" atamasi konseptual atamalardan biri sifatida ishlatilgan. 1985 yilda R.Robertson globallashuv

---

<sup>28</sup> Keyes R. The Post-Truth Era: Dishonesty and Deception in Contemporary Life. – New York: St. Martin's, 2004.

<sup>29</sup> Fake news is «very real» word of the year for 2017 // The Guardian. 2017. – 2 November. – <https://www.theguardian.com/books/2017/nov/02/fake-news-is-very-real-word-of-the-year-for-2017>

atamasini o‘z maqolalaridan birining nomi sifatida qo‘lladi va uni batafsil talqin qiladi. R.Robertsonning ta‘rifiga ko‘ra, globallashuv alohida mamlakatlarda ijtimoiy haqiqatga xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan turli omillar (masalan, yaqin iqtisodiy va siyosiy aloqalar, madaniy va axborot almashinuvi) ta‘sirini oshirish jarayonidir.

“Globallashuv (lotincha “globus” – shar) – nazariya va siyosatdagi dunyoning ajralmas iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va siyosiy yagona tizim sifatida shakllanishi, tashkil topishi, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishiga yondashuv tamoyilidir”.

Iqtisodiy globallashuv muammolari bo‘yicha shakllangan nazariy qarashlarni baholab, iqtisodchi va siyosatshunos olimlarning turli yondashuvlarining uchta asosiy yo‘nalishini shartli ravishda ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Giperglobalistik yo‘nalish (giperglobalizm)
2. Shubha yo‘nalishi (skeptitsizm).
- 3) Transformatsion yo‘nalish.

Globallashuv nazariyalarining bugungi kungacha bo‘lgan taraqqiyotida asosan 4 ta muhim nazariyaga farqlanadi:

1. “Jahon tizimlari” nazariyasi (I.Vallerstayn).
2. “Umumjahon madaniyati” nazariyasi (R.Robertson).
3. “Umumjahon boshqaruvi” nazariyasi.
4. “Global kapitalizm” nazariyasi.

Dunyoda globallashuv fonida jahon savdosini takomillashtirish va isloh qilish yo‘nalishida ko‘plab yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida “Vashington konsensus” tomonidan ishlab chiqilgan “Jahon savdosini isloh etishning 10 tavsiyasi” muhim o‘rin tutadi. Vashington konsensus 10 ta standart iqtisodiy islohotlar paketini o‘z ichiga oluvchi siyosiy tavsiyalardan iborat bo‘lib, ushbu tavsiyalar jahon moliyaviy-iqtisodiy sharoitida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki va AQSh G‘aznachilik departamenti kabi institutlar tomonidan keng qo‘llanilgan.

### **Tayanch iboralar**

Globallashuv, transmilliy korporatsiyalar, jahon savdo tashkiloti, baynalmilallashuv, transmilliy banklar, giperglobalizm, skeptitsizm, global siyosat, “transformatsion” yondashuv, jahon-iqtisodiyot tizimi konsepsiyasi, glokalizatsiya nazariyasi, “Vashington konsensus”, turbulentslik.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Globallashuv atamasini birinchi marta qachon va kim tomonidan qo‘llanilgan?


2. Hozirgi kunda globallashuv atamasining talqiniga qandan yondashuvlar mavjud?
3. Globallashuv haqidagi ilmiy g'oyalarning 1950 yildan hozirgi kungacha rivojlanish nazariyalarini tushuntiring.
4. Globallashuvning sohalar va yuzaga kelish jihatlari bo'yicha shakllarini tushuntiring.
5. S.Xantingtonning zamonaviy dunyoning sakkiz sivilizatsiyasi haqidagi nazariyasini tushuntiring.
6. P.Xirst va G.Tompson boshqaruv organlarining uchta darajadagi o'zaro munosabatlarning qaysi shakllarini belgilab beradi?
7. Rim klubi tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy ma'lumotlar qaysilar?
8. Globallashuv nazariyalarining bugungi kungacha bo'lgan taraqqiyotida asosan qanday muhim nazariyalarga ajratiladi?
9. I.Vallerstayn tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyani tushuntiring.
10. "Vashington konsensus" tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon savdosini isloh etishning 10 tavsiyasi"ning mohiyatini tushuntirib bering.

### **III BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING HARAKATLANTIRUVCHI KUHLARI, BELGILARI VA SHAKLLARI. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

#### **3.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvini harakatlantiruvchi kuchlari**

Jahon xo'jaligining globallashuvi milliy iqtisodiyotni baynalmilallashtirish bosqichi bo'lib, unda jahon xo'jaligi butunlay yangi, ilgari mavjud bo'lmagan sifat va xususiyatlarni kasb etadi. Ushbu xususiyatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin (3.1-rasm):

- jahon xo'jaligi yaxlitligining keskin ortishi;



**3.1-rasm. Globallashuv natijasida shakllangan jahon xo'jaligining yangi sifat xususiyatlari**

- deyarli barcha mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining o'zaro bog'liqligining ortishi;

- ilgari yopiq holatda bo'lgan milliy iqtisodiyotlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etilishi;


- turli mamlakatlarda boshqaruv tizimlari va shakllarining bir xilligi va o'xshashligining ortishi;

- jahon moliyaviy, tovar va mehnat bozorlarining shakllanishi.

Globallashuv jarayonlari murakkab va kompleks jarayon bo'lganligi sababli, bugungi jamiyatda iqtisodiyotga ham, hayotning boshqa ko'plab sohalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, u nafaqat iqtisodiy, balki boshqa ijtimoiy fanlarda ham tadqiqot predmeti hisoblanadi va uning harakatlantiruvchi kuchlari texnika fanlari tadqiqotida o'z o'rnini topadi.

Yuqoridagi rasmda ko'rsatib o'tilgan jahon xo'jaligining yangi va avval mavjud bo'lmagan xususiyatlari globallashuv jarayonining chuqurlashuvi hamda milliy iqtisodiyotlarning barcha sohalarining o'zaro bog'liqligi ortishi natijasida yuzaga keladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi uni harakatga keltiruvchi qator kuchlar ta'sirida shakllanadi. Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin (3.2-rasm):



**3.2-rasm. Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar**



1. Kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi.
2. Xo‘jalik hayotining transmilliylashuvi, ya’ni yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishi.
3. Jahon va milliy darajadagi bozor raqobati.
4. Fan texnika taraqqiyoti.
5. Texnologik innovatsiya taraqqiyoti.
6. Iqtisodiy faoliyat (xo‘jalik hayoti)ning erkinlashuvi.
7. Xizmat va kapital bozorini tartibga solishning qisqarishi.
8. Jahon xo‘jaligi erkinlashuvi jarayonining kuchayishi.

XX asrning so‘nggi yillaridan boshlab jahon siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar, mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning integratsiyalashuvi bilan globallashuv jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Ushbu jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida jahon miqyosida moliyaviy resurslarning konsentratsiyasi va alohida moliyaviy markazlarda markazlashuv jarayoni, ya’ni kapitalning jahon miqyosida qayta taqsimlanishi yuz berdi. Jahon moliya (valyuta, qimmatli qog‘ozlar, sug‘urta, kredit va boshqa) bozorlarining globallashuv jarayonida alohida mamlakatlar hududidan global miqyosga kengayishi milliy iqtisodiyotlarning globallashuvga bog‘liqlik darajasini oshirdi.

Moliyaviy resurslarning nisbatan faol harakati jahon moliyaviy markazlari orqali yuz bera boshladi. Ushbu markazlar qatoriga Yevropada – London, Frankfurt, Parij, Syurix, Jeneva, Lyuksemburg; Amerikada – Nyu-York va Chikago, Osiyoda – Tokio, Singapur, Syangan, Bahrayn kabi moliyaviy markazlarni kiritish mumkin. So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar natijasi sifatida mintaqaviy moliyaviy markazlar qatoriga Keyptaun, San-Paolo, Shanxay va boshqalar qo‘shilgan bo‘lsa, Karib dengizi basseynidagi ayrim ofshor markazlari – Panama, Bermud, Bagam, Kayman va Antil orollari bir qancha vaqtdan buyon jahon moliyaviy markazlari sifatida faoliyat olib bormoqda<sup>30</sup>.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jahon moliyaviy markazlari jahon moliyaviy resurslar bozoridagi resurslarning asosiy harakat yo‘nalishlarini belgilab berayotganligi milliy iqtisodiyotlar hamda uning tarkibiy qismlarini o‘z faoliyatini jahon moliyaviy markazlari faoliyatiga moslagan holda faoliyat yuritishga majbur qilmoqda.

Globalashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlarning yana biri bu – iqtisodiy faoliyatning transmilliylashuvi, ya’ni yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishidir.

Transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng harakatchan sub’ektlaridan biri bo‘lib, shakllanish davridan hozirgi kunlargacha jiddiy taraqqiy

---


<sup>30</sup> Мировая экономика: Учебник для вузов / Под ред. проф. Ю.А.Щербанина. М.: ЮНИТИДАНА, 2004. С. 84-85.

etdi. TMKlar “kolonial-xomashyo” shaklidan global kompaniyalar ko‘rinishigacha rivojlanib keldi. TMKlar taraqqiyoti ularning son va sifat jihatidan o‘sishi bilan XXI asrning boshlariga kelib son jihatidan 100 mingdan ortiqroqqa yetib keldi<sup>31</sup>.

TMKlar ishtirokidagi qo‘shilishlar va qo‘shib olinishlar shaklida kapitalning xalqaro birlashishi (konsolidatsiyasi) jarayoni bugungi kunda jahon iqtisodiyotining transmilliylashuvi va globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi asosiy kuchlaridan biriga aylandi.

Hozirgi vaqtga kelib TMKlarning jahon iqtisodiyotiga ta’siri juda yuqori. Bir millionga yaqin xorijiy filiallarni boshqarayotgan 100 mingdan ortiq TMKlarning qo‘l ostida xususiy ishlab chiqarish fondlari (XIChF)ning 30 %i, xalqaro savdoning 50 %dan ortig‘i mujassamlashgan, ular tomonidan jahon bozorlaridagi deyarli barcha xomashyo savdosi nazorat qilinmoqda. TMKlarning umumiy valyuta zahirasi jahonning barcha federal banklarining birgalikdagi zahirasidan bir necha marta ko‘pligidan, ushbu moliyaviy resurslar miqdorining 1-2% ga o‘zgarishi istalgan ikkita mamlakat valyutasi paritetini o‘zgartirib yuborishga qodir.

Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan yana biri jahon va milliy darajadagi bozor raqobatidagi o‘zgarishlar hisoblanadi. Globallashuv sharoitida raqobatning quyidagi turlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin (3.3-rasm):



**3.3-rasm. Globallashuv sharoitida raqobat turlari<sup>32</sup>**

<sup>31</sup> Nazarova G.G'., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. / prof. N.X. Jumaev tahriri ostida (o'quv qo'llanma). –T.: TDIU, 2011 y. 162-163 b.

1. Bir mamlakat doirasidagi korxonalar o'rtasidagi raqobat (tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslari hamda qulay shart-sharoit uchun tadbirkorlik raqobati).
2. Turli mamlakatlar korxonolari o'rtasidagi raqobat.
3. Korxonalar va TMKlar o'rtasidagi raqobat.
4. TMKlar tarkibidagi alohida mintaqaviy bo'linmalar o'rtasidagi raqobat.

Jahon iqtisodiyotining globallashtiruvigacha bo'lgan davrda raqobatning dastlabki ikki turi, ya'ni bir mamlakat doirasidagi korxonalar o'rtasidagi hamda turli mamlakatlar korxonolari o'rtasidagi raqobat shakli mavjud bo'lgan bo'lsa, globallashtiruv sharoitida aytib o'tilgan raqobat turlariga korxonalar va TMKlar o'rtasidagi hamda TMKlar tarkibidagi mintaqaviy bo'linmalar o'rtasidagi raqobat turlari qo'shildi.

Turli mamlakatlar korxonolari o'rtasidagi raqobat munosabatlariga globallashtiruv quyidagi umumiy iqtisodiy va bozor omillari orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- ichki bozorlarda raqobat sharoitlarining og'irlashishi va tashqi bozorlarga chiqish to'siqlarining kamayishi natijasida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishni istovchi ko'p miqdordagi sub'ektlarning paydo bo'lishi;

- jahon savdosining rivojlanishi va tashqi savdo ishtirokchilari uchun sharoitlarni tenglashtirish yo'nalishidagi xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi;

- turli bozorlardagi faoliyatni tez muvofiqlashtirish, o'zgarayotgan bozor sharoitlariga tez moslashish imkonini beruvchi aloqa vositalarining rivojlanishi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda tashish xarajatlari ulushini pasaytirish imkonini beruvchi transport (konteyner tashish, katta o'lchamli aviatashuvlar) tizimlarining rivojlanishi;

- milliy bozorlarga ikki tomonlama kirish imkoniyatini kengaytiruvchi xorijiy investorlarga nisbatan turli mamlakatlar hukumati ijobiy munosabatining shakllanishi;

- turli mamlakatlar iste'molchilarining mahsulot va xizmatlar iste'moli xususiyatlarining borabarashtirilishi va boshqalar.

Globallashtiruv jarayonini harakatlantiruvchi eng asosiy kuchlardan yana biri fan texnika taraqqiyoti hisoblanadi. Bizning davrimizda ilmiy-texnika taraqqiyoti global ahamiyatga ega bo'lgan omilga aylandi. Ilmiy va texnologik taraqqiyot ko'p jihatdan jahon iqtisodiyotining holatini belgilaydi. Keng miqyosda ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar insoniyat hayotini doimiy o'zgartirib, ishlab chiqarish tizimida, ishlab chiqarish mahsuloti va iste'molda moddiylashadi. Har qanday

---

<sup>32</sup> Еремин А.В. Влияние процесса глобализации на формирование и трансформацию конкуренции. Евразийский международный научно-аналитический журнал. Проблемы современной экономики, №3 (11), 2004. –С. 64-66.

mamlakatning ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti, ilmiy-texnikaviy salohiyati mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Texnologik innovatsiya taraqqiyoti ham globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan biri bo'lib, fan-texnika taraqqiyoti darajasi ko'p jihatdan texnologik innovatsiya taraqqiyotiga bog'liq. Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda jahon eksportining 15% dan ortig'ini tashkil etuvchi yuqori texnologiyalar va ilmtalab ishlab chiqarish tarmoqlarining o'rni ortib bormoqda. Yuqori texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar bozorida bozorning 80 %ini nazorat qilayotgan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya mamlakatlarning kompaniyalari yetakchilik qilmoqda. Ushbu kompaniyalar qatoriga so'nggi yillarda Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur kabi mamlakatlar kompaniyalari qo'shib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalarga aylanayotgan yangi bilimlarni yaratuvchi yirik korporatsiyalarga ushbu mamlakatlar YaIM o'sishining 70-85% qismi to'g'ri keladi. Yirik korporatsiyalar eski tizimdan farqlanuvchi "yangi iqtisodiyot"ni shakllantirgan bo'lib, uning asosini yangi axborot texnologiyalari tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat (xo'jalik hayoti)ning erkinlashuvi ham globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarining o'ziga ham, ushbu jarayonlar oqibatlariga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi yana bir harakatlantiruvchi kuch - iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, tovarlar, xizmatlar va kapital uchun bozorlarni erkinlashtirishdir. Shu munosabat bilan turli ma'muriy to'siq va cheklovlarni olib tashlash iqtisodiy hayotni baynalmilallashtirishni chuqurlashtirish tendensiyasini mustahkamlaydi.

G'arb mamlakatlari liderlarining neoliberalizm mafkurasiga sodiqligi va iqtisodiyotga davlatning aralashuvini cheklashi globallashuv jarayonlarida ma'lum darajada o'zining izini qoldirdi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, globallashuv xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini mustahkamlash jahon mamlakatlarning iqtisodiy hayotini tartibga solish bilan birga, hali ham uning neoliberal ko'rinishida, ya'ni neoliberal model doirasida rivojlanmoqda. Rus tadqiqotchisi V. Kollontayning fikriga ko'ra globallashuvning neoliberal modeli quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- jahon iqtisodiyotining bir qismi bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini monetarist asosda gomogenizatsiyalashni majburlashga e'tibor qaratiladi;

- bozor mexanizmi rivojlanishning asosiy regulyatori sifatida tan olinadi;

- milliy iqtisodiy kompleks, milliy suverenitet va qisman davlat ham tugab boruvchi kategoriya hisoblanadi;


- asosiy sa'y-harakatlar davlatning iqtisodiy rolini zaiflashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qaratilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va erkinlashtirishning yuqori darajasi iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin, chunki ochiqlik institutsional islohotlar, jumladan, pul-kredit, moliyaviy va huquqiy tizim islohotlari bilan yaxshi qo'llab-quvvatlanadi va iqtisodiy jihatdan kuchli strategik hamkorlar bilan barqaror aloqalar o'rnatiladi.

### **3.2. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning asosiy mexanizmlari**

Jahon iqtisodiyoti globallashtirish jarayonlarini harakatga keltiruvchi kuchlarning aniq bir nuqtada uchrashishi natijasida yuzaga keluvchi mexanizmlar faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bu mexanizmlar globallashtirish jarayonlarining asosiy natijalarini aks ettiruvchi jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular globallashtirishdagi raqobat, ishlab chiqarish ko'lamining bir mamlakat doirasidan chiqib, ko'p millatli ko'rinish olishi, alohida yo'nalish yoki hududda faoliyat ko'rsatuvchi moliya bozorlarining birikishini ta'minlashi mumkin.

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayonini shakllantiruvchi hamda tezlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratib beruvchi uch asosiy mexanizmning amal qilishi bilan izohlanadi (3.4-rasm).



### **3.4-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning asosiy mexanizmlari**

Jahon savdosida raqobatning kuchayishi natijasida, bir tomondan milliy ishlab chiqaruvchilar va tashqi raqobatchilar o'rtasidagi raqobat, ikkinchi tomondan tashqi raqobatchilar o'rtasidagi raqobat orqali iste'molchilar uchun juda qulay xarid va iste'mol sharoitlari yaratiladi.

Raqobat ko'lami xalqaro ixtisoslashuv va turli sohalardagi hamkorlik ta'siri ostida xalqaro savdoda ishtirok etuvchi tashqi savdo operatsiyalari ishtirokchilari sonining keng o'sishi bilan bog'liq. Iqtisodiy hayotning baynalmilallashtirish raqobat

bazasini kengaytiradi. Yirik monopoliyalar bilan bir qatorda o'rta, kichik va hatto eng kichik firmalar ham bozor raqobatiga kirishadi. An'anaviy rivojlangan eksportga ega mamlakatlar raqobatiga "yangi industrial mamlakatlar" orasidan yangilari qo'shib, jahon bozoridagi vaziyatni o'z foydasiga o'zgartirishga qat'iy urinishlar qiladi. Milliy eksportchilarni qo'llab-quvvatlash va tashqi savdo operatsiyalarini shakllantirishda hukumatlarning faol ishtiroki me'yorga aylandi.

Raqobatning keng tarqalishi uning o'ziga xos jarayonlari harakatini ham tezlashtiradi: uning shakl va usullarini jadal yangilash, yangi raqobatbardosh mahsulotlar va yangi bozorlarni izlab topish darajasi ortadi. Fan-texnika taraqqiyoti raqobatga maxsus o'zgarish xususiyati (dinamika)ni beradi. Qayerda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va foydani maksimallashtirish bo'yicha raqobat bo'lsa, fan-texnika taraqqiyoti nafaqat raqobatning samarali vositasi, balki uning eng kuchli katalizatori sifatida maydonga chiqadi.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish mahsulot turini yangilash, bozor talabidagi o'zgarishlarga tez javob berish, mahsulot sifat xususiyatlariga o'sib boruvchi talablarni qondirish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Bugungi kunda yangilik raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biriga aylangani bejiz emas. Bu, asosan, butunlay yangi ehtiyojlarini yoki shunday yangi bozorlarni tashkil etish yoki allaqachon yuqori sifat darajasiga ega bo'lgan ma'lum ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi.

Jahon sanoati eksporti tahlili ushbu davrda kimning eksporti eng tez sur'atlar bilan ortib borayotganligi, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti ta'siri bilan tez yangilanayotganligi, qaysi tovarlar raqobat ustunligiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mutaxassislarning fikricha, tubdan yangi mahsulot ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan kompaniyalar ishlab chiqarishga joriy etilganidan keyin 5-10 yil ichida foyda o'sish sur'ati an'anaviy mahsulot ishlab chiqarishni davom ettirayotgan raqobatchilarnikidan ikki barobar yuqori bo'ladi. Yangi mahsulotlarning bozordagi muvaffaqiyatiga, an'anaviy narxlardan farqli o'laroq, mahsulotning iste'mol xususiyatlari (sifat, yangilik, ishonchlilik va hokazolar)ga bog'liq holda nisbatan yuqori narxlarni belgilash mumkin. Bu raqobatning narx bilan bog'liq bo'lmagan shakllari ahamiyatini oshirish konsepsiyasini qo'llab-quvvatlashda kuchli dalildir.

Ayni paytda, narx asosidagi raqobat ma'lum darajada cheklangan, lekin uni yetarli darajada hisobga olmaslik xato bo'ladi. Jahon amaliyotida mahsulotlar (yarim o'tkazgichlar, maishiy elektron uskunalari)ning keng ko'lamlari va tez arzonlashishiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Odatda, fan-texnika yutuqlaridan foydalanib narxlarni pasaytirish ishlab chiqarish xarajatlarini keskin kamaytirish orqali yuz beradi.

Uzoq vaqt davomida iste'molchilarning afzalliklari o'zgarib turadigan markaz sifatida narxning ahamiyati sifat, yangilik, mahsulotning progressivligi va ishonchliligi, xalqaro standartlarga muvofiqligi, ishlash qulayligi, dizayni, iste'molga tayyorligi, texnik xizmat ko'rsatish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar hisobiga pasayib bormoqda. Iste'mol qiymatlarining yangi tizimini tashkil etuvchi bu parametrlar raqobatning yangi epitsentrlarini tashkil etib, u alohida eksport qiluvchi firmalarni ham, eksportyor sifatida harakat qiluvchi butun mamlakatlarni ham qamrab oladi.

Iste'molchi talablari doirasi qanchalik keng va ularning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, eksport qiluvchilarga va ularning raqobatbardoshligiga nisbatan talablar shunchalik kuchayadi. Zero, raqobatbardosh mahsulot, odatda, faqat raqobatbardosh korxonadan ishlab chiqarilishi mumkin va bunday korxonadan o'z mamlakatining raqobatbardoshligi sifatida tavsiflanadigan muayyan shart-sharoitlarga muhtoj.

Raqobatbardoshlik – bu korxonalarining raqobatchilar mahsulotiga nisbatan narx va narx bilan bog'liq bo'lmagan xususiyatlari bo'yicha iste'molchilarga yanada jozibador bo'lgan mahsulotlarni loyihalashtirish, ishlab chiqarish va sotish bo'yicha real va potensial qobiliyatidir.

Mamlakat raqobatbardoshligini aniqlash uchun 340 ga yaqin ko'rsatkich va ekspertlarning 100 dan ortiq baholaridan foydalaniladi. Tahlil ma'lumotlari quyidagi omillarga asoslangan holda guruhlanadi:

- iqtisodiyotning salohiyati va o'sish sur'atlari;
- sanoat ishlab chiqarish samaradorligi;
- fan va texnika yutuqlarining o'zlashtirilish darajasi;
- ichki bozorning o'zgaruvchanligi va sig'imi;
- moliya tizimining moslashuvchanligi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ta'siri;
- ishchi kuchining malaka darajasi;
- mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik;
- ijtimoiy-iqtisodiy va ichki siyosiy vaziyat.

Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining yana bir mexanizmi bu – ko'p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi hisoblanadi.

So'nggi o'n yilliklarda xilma-xil, ko'pincha bir-biriga zid ta'sir ko'rsatuvchi jahon iqtisodiyotining globallashtiruv jarayoni jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotining asosiy sohalarida bosqichma-bosqich chuqurlashib bormoqda. Tovarlar, xizmatlar, xodimlar va investitsiyalar transchegaraviy almashinuvining keskin o'sishi o'zaro bog'liq ko'plab omillar, shu jumladan, o'z operatsiyalarini kengaytirishda chet el bozorlariga tobora ko'proq yo'naltirilgan firmalarning o'zgaruvchan strategiyasining natijasidir. Masalan, "Fortune Global 500"

ro'yxatiga kiruvchi kompaniyalarining 98% dan ortig'i tashqi bozorlarda faoliyat ko'rsatadi.

O'z navbatida, iqtisodiyotning globallashuvi firmalarning tashkiliy tuzilishi va geografiasiga, shuningdek, ularning strategiyasi va taktikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Firmalarni nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global bozorlarda ham raqobatga kirishishiga hamda ushbu bozorlarda mavjud imkoniyatlardan foydalanishga majbur qiladi. Shunday qilib, ikki tomonlama jarayon rivojlanmoqda va tezlashmoqda, natijada globallashuv firmalar faoliyatiga ta'sir qiladi, uning natijalari globallashuv jarayonining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) xalqaro biznes sohasida eng muhim o'yinchilar bo'lishi davom etmoqda, ular faoliyatining baynalmilallashuvi asta-sekin xalqaro ishlab chiqarish makonini shakllantirmoqda, bu esa mamlakatlar, mintaqalar va tarmoqlarning tobora ko'payib borishini qamrab olmoqda.

“Ko'p millatli ishlab chiqarish” atamasining turli talqinlari mavjud. Ushbu ishlab chiqarishni xorijiy nazorat yoki qaror qabul qilish ostida tovarlar va xizmatlar, shuningdek, oraliq va yakuniy mahsulotlar ishlab chiqarish sifatida talqin qilinishi ushbu atamani aniq va lo'nda izohlaydi<sup>33</sup>.

Xalqaro ishlab chiqarish ustidan nazorat sub'ektlari yirik ko'p millatli korxonalar hisoblanadi<sup>34</sup>.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) ko'p millatli ishlab chiqarish amalga oshiriladigan korxonalarni boshqarish ustidan nazoratni amalga oshirish uchun TMKlarning eng muhim vositasi hisoblanadi. Umumiy qabul qilingan ta'rifga ko'ra, TTXI uzoq muddatli munosabatlarni talab qiladigan va boshqa mamlakatda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar (to'g'ridan-to'g'ri investor) ustidan uzoq muddatli nazoratni aks ettiruvchi investitsiyadir.

Firmalar mavjud aktivlarni sotib olish yoki yangi investitsiyalar kiritish yo'li bilan tashqi bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin. Muayyan turdagi investitsiyalarni tanlash bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ularning asosiy qismi investitsiya kiritilayotgan mamlakatning institutsional va madaniy xususiyatlari hisoblanadi. Mahalliy bozordagi bitim xarajatlari darajasi, mamlakatdagi erkinlashtirish va xususiylashtirish siyosati, mintaqaviy integratsiya darajasi, valyuta xatarlari, shuningdek, birlashish uchun kerakli moliyaviy vositachilar roli ham muhim ahamiyatga ega.

Ko'p millatli ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarishning milliy doiradan chiqib, xalqaro darajaga o'tishi bilan xarakterlanadi va ushbu mexanizmning

---

<sup>33</sup> UNCTAD, World Investment Report, 2002. Transnational Corporations and Export ompetitiveness. – New York and Geneva: United Nations, 2006. P. 3.

<sup>34</sup> Волгина Н.А. Международная экономика. – М.: Эксмо, 2006. - С. 425-429



faoliyati yuqorida aytib o'tilgan ko'p millatli korxonalar (transmilliy korporatsiya)larning rivojlanishi bilan bog'liq.

Globallashuv jarayonlarining rivojlanishida xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi mexanizmi ham muhim o'rin tutadi. Chunki ko'p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi va jahon savdosida raqobat jarayonlarining kuchayishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarning ko'chishi hamda ularning integratsiyasi bilan bog'liq.

Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyasi ko'p millatli ishlab chiqarishning tayanch nuqtasi hisoblangan transmilliy va ko'p millatli korporatsiyalar faoliyatini yo'naltiruvchi ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonlariga yangiliklarni joriy etish uchun zaruriy moliyaviy oqimlarni yo'naltiradi.

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko'lamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valyuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan o'nlab, ba'zan yuzlab marta ortiqdir.

Jahon iqtisodiyoti faoliyatidagi kapital davriy aylanmasi qonuniyati moliyaviy bozor rivojlanishining ob'ektiv asosidir. Jahonning ba'zi joylarida ortiqcha erkin kapital paydo bo'ladi, ba'zi joylarda unga talab paydo bo'ladi. Jahon valyuta va moliya-kredit bozorlari bu qarama-qarshiliklarni jahon xo'jaligi darajasida hal qiladi. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar bozorlari tashkil topishining ko'rinishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kapitalning ishlab chiqarish va bank ishlaridagi konsentratsiyasida;
- xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvida;
- banklararo telekommunikatsiyalarning rivojlanishida.

Jahon moliya markazlari bu - banklar, ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari yig'iladigan joy. Unda xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar, oltin oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Xalqaro moliya markazlari orasida London, Nyu-York, Frankfurt, Parij, Syurix, Tokiodagi bozorlar ajralib turadi.

Davlatlararo har tomonlama hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida xalqaro tashkilotlar va fondlar yuzaga chiqmoqda. Ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda umumiy tushdagi maqsadlarga erishish uchun davlatlar, milliy institutlar, nodavlat assotsiatsiyalarni birlashtiradi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish uchun o'z fondlarini tashkil etadilar.

Davlatlararo kelishuvlar asosida ishtirokchi davlatlarning yagona moliya va kredit siyosatlarini amalga oshirish uchun pul mablag'larining davlatlararo

maqsadli fondlari tuziladi. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko‘ra bir nechta turlarga bo‘linadi.

Moliya-kredit tashkilotlarining davlatlararo va xalqaro fondlari ushbu fondlarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Ular nizom kapitalida ishtirok etuvchilarga maqsadli kreditlar ajratadilar va maqsadli fondlarni tashkil etadilar. Bu tashkilotlar faoliyati davomida olgan daromadlaridan ulushiga ko‘ra dividend to‘laydilar hamda turli maqsadlar uchun zahira fondlarini shakllantiradilar. Mazkur tashkilotlar jumlasiga Xalqaro investitsiya banki (XIB), Xalqaro iqtisodiy hamkorlik banki (XIHB), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YETTB), Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ni kiritish mumkin.


Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi mexanizmi globallasuv jarayonining muhim qismi bo‘lib, jahon moliyaviy resurslarining mintaqalar hamda tarmoqlar kesimida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta‘minlaydi.

### **3.3. Jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar**

Jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tahlili ushbu jarayonlar bir qator omillarning ta‘siri natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Bu omillar sifatida globallasuvning alohida harakat yo‘nalishlari ob‘ektlariga bog‘liq ravishda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin (3.5-rasm):

- mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning keskin kuchayishi;
- milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy ochiqligining jadal sur‘atlar bilan ortishi;
- xalqaro savdo va kapitalning mamlakatlararo harakati asosida jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotga ta‘sirining intensivlashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimoti sifatining shakllanishi;
- jahon moliya bozorining milliy segmentlari o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishi va global moliya bozorlarining shakllanishi;
- axborot tizimi va telekommunikatsiyaning rivojlanishi;
- transmilliy korporatsiya (TMK)lar faoliyatining global kengayishi;
- rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarning xalqaro savdo, xalqaro kredit, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlariga jalb etilishi.
- jahon iqtisodiyoti sub‘ektlari tarkibining keskin murakkablashuvi;
- jahon iqtisodiyotida rivojlanib borayotgan yirik (alfa) shaharlar ta‘sirining kuchayishi.

Quyida globallasuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarning mohiyati va ta‘sir darajasini umumiy holda ko‘rib chiqaylik.



### 3.5-rasm. Globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ilk davlatlar bilan bir paytda ob'ektiv reallik sifatida paydo bo'lgan keng ko'lamdagi rang-barang aloqalar va munosabatlarning muhim tarkibiy qismini ifodalaydi. Uzoq tarixga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi sivilizatsiyalar eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq iqtisodiy sohada o'zaro aloqalar olib borishganiga doir bir talay misollarga duch kelamiz, chunki ular xoh Qadimiy Misr yoki Shumer madaniyati bo'lsin, xoh Hind vodiysi madaniyati yoki Shan-In davridagi Xitoy bo'lsin, kelib chiqishining avtonomligi va geografik jihatdan ajralganligiga qaramasdan, bir-birlari bilan xo'jalik munosabatlarini o'rnatishga va ularni keyin ham davom ettirishga intilishgan<sup>35</sup>.

Juda ko'p manbalar shundan guvohlik beradiki, ahyon-ahyonda tartibsiz tabiatdagi natural tovar ayirboshlash ko'rinishidagi munosabatlar o'rniga asta-sekin antik davr (eramizdan avvalgi I ming yillar - eramizning I ming yillarining o'rtalari)ga xos bo'lgan tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asosidagi doimiy xo'jalik aloqalari vujudga keladi.

O'rta asrlarning boshlanishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilgarilanma harakatida iqtisodiyotning yalpi naturallashuvi, mulkning korporativ-tabaqalangan tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlarning sakralizatsiyasiga asoslangan orqaga

<sup>35</sup> Nazarova G.G., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. / prof. N.X.Jumaev tahriri ostida (o'quv qo'llanma). – TDIU, 2011 y. 8-11-betlar.

chekinishni keltirib chiqardi. Biroq shaharlarning o'sishi va savdo-ssuda kapitalining rivojlanishi Buyuk jug'rofiy kashfiyotlar ochilgan davrda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy sohadagi aloqalarning misli ko'rilmagan darajada kengayishiga va Yevropadagi yetakchi davlatlar: Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya va Britaniyaning kolonial imperiyalari tashkil topishiga poydevor yaratdi.

Aynan ana shu omil, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va aloqa vositalarida ulkan olg'a siljishni ifodalagan XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridagi sanoat to'ntarishi (inqilobi) zamonaviy ko'rinishdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi uchun zarur bo'lgan muhit sifatida global iqtisodiy makrotizimni yuzaga kelish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, insoniyatni XIX-XX asrlar bo'sag'asida taraqqiyotning industrial davriga o'tishi an'anaviy ko'rinishdagi hududiy xo'jalik tizimlari evolyutsiyasidan oldingi davrga yakun yasadi, jahon miqyosida Yevropa (aniqrog'i, ingliz-amerika) bozor iqtisodiyoti modelining g'alabasini ifodaladi.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, Yevropa, Shimoliy Amerika va, ma'lum darajada, Yaponiya milliy xo'jaliklarini, ikkinchi tomondan, keng ko'lamdagi mustamlaka periferiyalarni o'z ichiga olgan jahon iqtisodiy kompleksi (majmuasi)ning yuzaga kelishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining shunday ko'rinishi tashkil topishiga olib keldiki, bu ko'rinish shu holatda ma'lum o'zgarishlar bilan hozirgi kunda ham mavjuddir. Albatta, o'tgan o'n yillik davr xalqaro iqtisodiy munosabatlar tabiati va tuzilmasiga ma'lum o'zgartirishlar kiritdi.

Mustamlakachilik imperiyalarining tugatilishi va rivojlanayotgan mamlakatlar (180 dan ortiq) deb atalmish guruhlarning vujudga kelishi natijasida iqtisodiy aloqalar uch iqtisodiy markaz, ya'ni AQSh, Yevropa, Yaponiya bilan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi yosh davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishini oldi. SSSRning tarqalib ketishi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'liga o'tishi rejali-buyruqbozlik xo'jaligining samarasiz ekanligi va rivojlanishning bozor modeliga keng ko'lamda o'tish muqarrar ekanligini namoyish qildi.

Va nihoyat, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashuvi bilan birga kuzatiluvchi ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi bir qator integratsion guruhlar, shuningdek, universal va ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar paydo bo'lishini rag'batlantirdi.

Davlatlarning yopiq tipdagi xo'jalik tizimi (avtarkiya)dan qutulishga intilishi haqida gapirganda, yetakchi mamlakatlar o'z siyosatlarida global bozor makrotizimini qurishning asosiy sharti bo'lgan barcha uchun barobar raqobat muhitini saqlash yoki yaratishni ilgari suruvchi «ochiq eshiklar» va «teng imkoniyatlar» tamoyillarini amalda qo'llaganliklarini qayd etib o'tish kerak.

Xalqaro mehnat taqsimotiga kelsak, iqtisodiy turmushning ushbu favqulodda hodisasi xo‘jalik taraqqiyotining ilmiy-texnikaviy tarkibiy qismi birinchi darajali ahamiyat kasb etganligi tufayli yangi sifatlarga ega bo‘ldi. Natijada, milliy iqtisodiyotlarning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy-jug‘rofiy omil ikkinchi darajali bo‘lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng transmilliy korporatsiyalar (TMK) nomini olgan xalqaro monopolistik guruhlar davlat chegaralarini kesib o‘tish orqali sayyoramizning barcha mamlakatlari va hududlari bo‘ylab menejment va marketingning yangi uslublarini tarqatish yo‘nalishida globallashuv jarayonlariga ta’sir etmoqda.

Xo‘jalik sohasida baynalmilal ayirboshlash mexanizmlari sezilarli darajada murakkablashdi - ko‘plab yangi huquqiy me‘yor va tartiblar paydo bo‘ldiki, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi hamda iqtisodiy masalalar bo‘yicha ikki va ko‘p tomonlama bitimlarda mustahkamlandi.

Oxirgi ellik yil davomida bir necha rivojlanish bosqichlarini, ya’ni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, biologizatsiya kabilarni boshidan kechirgan ilmiy-texnikaviy inqilob global jahon bozorida tamomila yangi segmentning – axborotlar va texnologiyalar bozorining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu bozorning rivojlanish yo‘nalishlari bugungi kunda jahonning globallashuv markazlarining belgilanishiga asos bo‘lmoqda.

So‘nggi yillardagi alohida shaharlarning yiriklashuvi va ularda sanoat-moliyaviy guruhlarning faol harakati jahon iqtisodiyotining globallashuviga ta’sir etuvchi omillardan biriga aylanib bordi.

Globallashuv davrida shaharlar o‘zlarining yangi funksiyalarini namoyon etmoqda. Bu jarayonning mohiyati bir qancha yirik jahon markazlari hisoblangan shaharlarda eng muhim iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy funksiyalarning jamlanishida ko‘rinadi. O‘tgan asrning oxirida “global shaharlar” deb ataladigan shaharlar paydo bo‘la boshladi. “Global shaharlar konsepsiyasi” mualliflari amerikalik sotsiolog va iqtisodchi S.Sassen-Koob (1991) va A.King (1990) hisoblanadi. Ularning fikriga ko‘ra, global shaharlar global iqtisodiy, moliyaviy va innovatsiyalarni boshqaruv markazlaridir.

Global shaharlarning eng yirik tadqiqotchilaridan biri, britaniyalik iqtisodchi P.Teylorning fikricha, global shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi bu shaharlarning qandaydir o‘ziga xos xususiyatlariga emas, balki ular o‘rtasidagi kapital, mehnat, axborot, boshqaruv va boshqa resurslar oqimi harakatiga bog‘liq. Shuning uchun shaharning bu resurs oqimlarini o‘ziga jalb qilish qobiliyati muhimdir, aks holda u muqarrar ravishda o‘ziga raqobatchi bo‘lgan shaharlarga yutqazadi. Jahon shaharlari o‘rtasidagi munosabatlar qat’iy iyerarxik tuzilishga ega. P.Teylorning fikriga ko‘ra, dunyo shaharlari uch sinfga bo‘linadi: “ $\alpha$ -alfa”, “ $\beta$ -

beta” va “ $\gamma$ -gamma” shaharlar. Iyerarxiyaning eng past o‘rnini  $\gamma$ -shaharlar egallaydi – ular sanoat, xom-ashyoni qazib olish va qayta ishlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan shaharlardir.  $\beta$ -shaharlar o‘z nazorati ostidagi  $\gamma$ -shaharlar hosil qilgan resurs oqimlarini qayta taqsimlaydi va  $\alpha$ -shaharlar  $\beta$ -shaharlarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan. Shu bilan birga, har bir shaharning juda aniq belgilangan mas’uliyati, o‘z maydoni bor va bu iyerarxik holatda iqtisodiy makonni kengaytirish yoki kamaytirish jarayoni juda sekin boradi.

Global shahar (“alfa shahar” deb ham yuritiladi) – global iqtisodiy tizimning muhim elementi hisoblangan shahardir. “Global shahar” atamasi quyidagi yo‘nalishlar asosida global ta’sirga ega bo‘lgan urbanizatsiyalashgan mintaqani anglatadi:

1. Shahar hududiy boshqaruv sifatini yaxshilash markazi, mamlakat va mintaqa uchun o‘rish nuqtasi hisoblanib, xalqaro sahnada “dunyo darvozasi” vazifasini bajaradi.

2. Shahar mintaqaviy va global iqtisodiy tarmoq tuzilmasining muhim elementi sifatida faoliyat ko‘rsatib, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Shahar nafaqat o‘zi joylashgan mintaqaga, balki sayyoraning boshqa makro mintaqalariga, bu bilan esa sivilizatsiyaga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

4. Zamonaviy dunyoda shaharlar mintaqaviy aloqa markazlari, global, mintaqaviy va hududiy darajadagi nufuzli iste’mol va elitalarning o‘zaro aloqalari markazlari sifatida harakat qiladi.

5. Zamonaviy global shaharlar rivojlangan va yuqori harakatchan ta’lim muhiti tufayli bilimlarni ko‘paytirish va yangi mutaxassislarni tayyorlash markazlaridir.

Global shaharlar – jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada integratsiyalashgan markazlardir. Global shaharning asosiy mezonlari sifatida, bizning fikrimizcha, quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

1. Ishbilarmonlik faolligi darajasi – elita qatlam o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning jadalligi, sanoat va mintaqaviy manfaatlarga asoslangan manfaatlar uchun bosim guruhlarini shakllantirish imkoniyatlari.

2. Inson kapitali – dunyoning yetakchi “bilim markazlari” qatoriga kiruvchi ilmiy va o‘quv klasterlari, oliy o‘quv yurtlari soni; chet ellik talabalar, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan aspirantlar soni; ilmiy-tadqiqot markazlari va jahon darajasidagi ilmiy maktablar soni.

3. Axborot kapitali – yetakchi mahalliy ommaviy axborot vositalarida xalqaro yangiliklar hajmi; axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, shu jumladan, INTERNET va boshqalar.

4. Madaniy kapital – turistik jozibadorlikning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichi; muzey va ko‘rgazma saytlari hamda boshqa jahon darajasidagi madaniyat muassasalari; xalqaro Olimpiya harakatida ishtirok etish, sport, madaniyat va san’at sohasidagi maxsus tadbirlar o‘tkazish.

5. Siyosiy vazn - shaharning xalqaro siyosiy faoliyatda ishtirok etish darajasi va ahamiyati, masalan, xorijiy elchixonalar, konsulliklar, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari soni; shaharda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlar darajasi; siyosiy va xalqaro tadqiqotlar markazlari soni.

6. Innovatsiya salohiyati – boshqa shaharlar va mintaqalar tomonidan xalqaro darajada o‘z samaradorligini isbotlagan kashfiyotlar, texnologiyalar, patentlar ko‘rinishidagi shahar tajribasini o‘zlashtirish amaliyotlari soni.

7. Investitsiya kapitali – investitsiyalar hajmi, xorijiy kompaniyalarning vakolatxonalari soni, chet el kapitali ishtirokida tuzilgan shartnoma va bitimlar soni.

Jahon shaharlari tarmog‘ini ajratish uchun umumiy qabul qilingan variant 10 yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu ajratish mezonlariga ko‘ra jahon shaharlarining 3 ta asosiy yo‘nalishi – Yevropa, AQSh va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mavjud bo‘lib, ular barcha sinflardagi shaharlar –  $\alpha$ -,  $\beta$ - va  $\gamma$ -shaharlarni ifodalaydi. Ayni paytda, geosiyosiy markazda joylashgan va bir-biri bilan raqobatlashuvchi faqat uch alfa shaharlar bor. Bular Nyu-York, London va Tokio shaharlaridir. Nyu-York – Shimoliy va Janubiy Amerika, London – Yevropa, Afrika, Tokio - Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo mintaqalarini nazorat qilsa,  $\beta$ -shaharlar (Moskva, Sanpaul, Seul) Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniyani nazorat qiladi.  $\gamma$ -shaharlar esa alohida kichik mintaqalar va hududlarni nazorat qilmoqda<sup>36</sup>.

So‘nggi ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq shaharlari global shaharlar toifasiga kiradi.  $\alpha$ -shaharlar guruhi: London, Parij, Nyu-York, Tokio, Frankfurt-Mayn, Gonkong, Los-Anjeles, Milan, Singapur shaharlaridan;  $\beta$ -shaharlar: San-Fransisko, Sidney, Toronto, Bryussel, Madrid, Mexiko, San-Paolo, Moskva, Seul shaharlaridan;  $\gamma$ -shaharlar: Amsterdam, Boston, Karakas, Dallas, Dyusseldorf, Jeneva, Xyuston, Jakarta, Yoxannesburg, Melburn, Osaka, Praga, Santyago, Vashington, Bankok, Pekin, Monreal, Rim, Stokgolm, Varshava, Atlanta, Bonn, Berlin, Buenos-Ayres, Budapesht, Kopengagen, Gamburg, Istambul, Kuala Lumpur, Manila, Mayami, Minneapolis, Shanxay kabi shaharlardan iborat<sup>37</sup>.

<sup>36</sup> Трейвиш А. И. От Персеполиса до Франкфурта / А. И. Трейвиш // Независимая газета. Сценарии, 22.04.2008.

<sup>37</sup> Савкин Д. А. Глобальный город как актор мировой политики : автореф. дис. на соискание науч. ст. канд. полит. наук : спец. 23.00.04 – полит. пробл. межд. отн., глоб. и регион. разв. / Д. А. Савкин. – СПб гос. ун-т. – СПб.: 2010. 32 с

Transmilliy shahar tizimi asosiy ishlab chiqaruvchi firmalar va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar o'rtasida yangi turdagi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi natijasida paydo bo'ldi. Yirik moliya bozorlarining baynalmilallashuvi moliyaviy oqimlarning milliy chegaralarni kesib o'tishiga imkon beradi. Bu hodisa turli qimmatli qog'ozlar va tovar birjalari faoliyati orqali yuzaga keladi. Moliyaviy resurslar chegaralar va qit'alarga e'tibor bermasdan, bozorlarda mamlakatlar va firmalarga ko'chib o'tadi. Milliy hukumatlar endi bu jarayonlarni nazorat qila olmaydi<sup>38</sup>.

Global shaharlar iste'mol, hayot sifati va identifikatsiyalash uchun belgilovchi ahamiyat kasb etib bormoqda. Ilmiy-madaniy taraqqiyot, fan, biznes va davlatning o'zaro hamkorligi hamda insoniyatning global axborot kun tartibining shakllanishi sodir bo'ladi. Bugungi kunda shaharlar turli ijtimoiy tabaqa vakillari va turli e'tiqodga ega odamlar munosabatga kirishadigan joylarga aylandi va ularning o'zaro muloqot qilishlari uchun aniq qoidalar yo'q<sup>39</sup>.

Global xo'jalik makrotizimi tuzilmasini tabiiy ravishda murakkablashuvi bozor muhiti funksiyalarining tabaqalanishi bilan birga kuzatiladi. Bu funksiyalarning asosiylari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- indikativ – bozor agentlari, ya'ni ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va iste'molchilarni tovar va xizmatlarga talab va taklif tamoyillari yo'nalishi to'g'risida axborotlardan xabardor qilish;

- tartibga solish – jahon narxlar harakatiga ta'sir o'tkazish;

- kommunikativ – harakatdagi bozor agentlari o'rtasida aloqalarni ta'minlash;

- sanatsiyalash – raqobat kurashi jarayonida bozorning «o'z-o'zini davolashi» jarayoni, ya'ni iqtisodiy jihatdan samarasiz kompaniyalarni bartaraf etish va talabga ega bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarishni to'xtatish.

### **3.4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining belgilari**

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon iqtisodiyotining barcha tarkibiy qismlari mavjudligining eng muhim shakliga aylanib bormoqda. Hech kim, hatto eng rivojlangan milliy iqtisodiyot va uning tarkibiy qismlari (iqtisodiyotning real sektori) ham endilikda jahon iqtisodiyoti bilan yaqin o'zaro aloqasiz, mutlaq o'z-o'zini ta'minlash rejimida rivojlana olmaydi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvini harakatlantiruvchi kuchlar va omillarning aniq mexanizmlar orqali harakatga kelishi natijasida jahon

---

<sup>38</sup> Вагин В. В. Городская социология / В. В. Вагин [электронный ресурс]. Режим доступа: <http://vasilievaa.narod.ru>

<sup>39</sup> Sassen S. The Global City: New York, London, Tokyo. – Princeton U.P., 2001.



iqtisodiyotining globallashuvi yuzaga keladi. Globallashuv jarayonlarining natijalari uning alohida belgilariga asosan baholanishi mumkin.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallashuvini quyida keltirilgan asosiy belgilar orqali aniqlash va baholash mumkin (3.6-rasm):

- xalqaro mehnat taqsimotidagi sifat o'zgarishlari;
- transmilliy korporatsiyalarning jahon iqtisodiyotida yetakchi rol o'ynashi;
- jahon ho'jaligi munosabatlarning milliy iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ustuvorligi;
- global axborot-texnologik taraqqiyotning chuqurlashuvi;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish integratsiyalashuviga universal, keng qamrovli ta'siri;
- texnologik, ekologik, statistik, moliyaviy standartlarning uyg'unlashuvi;
- xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va intensivlashuvi;
- kapital integratsiyasi shakl va mexanizmlarining global miqyosda kengayishi;
- xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining jahon iqtisodiyotini global tartibga solish rolining vujudga kelishi;
- iqtisodiy mintaqalarning to'liq hududiy integratsiya bilan qamrab olinishi;
- jahon iqtisodiyoti integratsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi;
- xalqaro bozorlar va tovarlarning globallashuvi.

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishi boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi.

Mutaxassislar uzoq muddatli tamoyillarni belgilash va kelajakdagi iqtisodiy strategiyani aniqlashga intilgan holda tuzilmaning eng xarakterli belgilarini muhokama qilishni davom ettirayotgan bo'lsalar-da, hozirgi kundayoq xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tuzilmasining quyidagi xususiyatlari o'z-o'zidan namoyon bo'lib turibdi:


a) samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejovchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;

b) konveyer, keng xalq ommasi iste'moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va, ayniqsa, xususiy kompaniyalarning alohida yo'naltirilgan kreativ (ijodiy) xo'jalik faoliyatiga o'zgartirish;

v) milliy iqtisodiyotlarni ochiqshartirish tamoyillarining hududiy miqyosdagi yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo'shib ketishi;

g) xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;

d) hal etilishida jahondagi barcha mamlakatlarning jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, sivilizatsiyaning global muammolari deb atalmish ekologik, xom ashyo, demografik kabi muammolarning keskinlashishi.



### **3.6-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvini aks ettiruvchi asosiy belgilar**

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim belgilarini sanab o'tgan holda, kasbiy faoliyati xo'jalik sohasi bilan bog'liq har bir mutaxassis uchun o'z faoliyatida alohida korxonada doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta'sir qilish omillarini u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo'lishidan qat'i nazar, bilishi va hisobga olishi kerak.

Shuning uchun xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko'rinishlarining globallashuvini o'rganish, ularni modellashtirish usullari ko'p omillarga asoslangan tahlil va statistikani qo'llanishiga qarab turli-tuman bo'lishiga qaramasdan, makro va mikrodarajada jahon va milliy xo'jalik kon'yunkturasidan muvaffaqiyatli xabardorlikning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi, ya'ni;

- tashqi, xalqaro, jahon miqyosidagi tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk ob'ektlari savdosini;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatini (ishchi kuchi, kapital, axborot);

- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalarini (beg'araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarining kredit va qarzlari, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar, valyuta operatsiyalari);

- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, injiniring va axborotlar sohasidagi hamkorlikni.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarish baynalmilallashuvining chuqurlashuvi. Ishlab chiqarish baynalmilallashuvi iste'mol uchun yaratiladigan mahsulotni tayyorlashda jahonning turli davlatlari ishlab chiqaruvchilari qatnashishini namoyon qiladi;

- kapital baynalmilallashuvining chuqurlashuvi, ya'ni davlatlaro xalqaro kapital harakatining o'sishi, bunda, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'rinishida, fond bozorlarining baynalmilallashuvi;

- ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalarini almashinuvi natijasida, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi;

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global miqyosdagi material, axborot, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida ayirboshlashni baynalmilallashuvini kuchayishi, bunda xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan xizmatlar sohasi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanadi.

- xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishi. Bunda rivojlangan davlatlarda kambag'al davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishga jalb etiladi.

- ishlab chiqarish va iste'molning baynalmilallashuvini atrof-muhitga ta'sirining ortishi, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishini keltirib chiqaradi;

Globalashuv jarayoni quyidagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtirish;

- hozirgi paytda xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyotining ochiqligini ta'minlash;

- barcha bozorlardagi ishtirokchilarning to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlash;

- moliyaviy va savdo operatsiyalarning qonun-qoida va chegaralarini universallashtirish;

- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni bir me'yorga keltirish, ya'ni unifikatsiya qilish;

- kapital joylashtirish, investitsion jarayonlar va umumjahon to'lov-hisob tizimini standartlashtirish.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashtirish davlatlar va integratsion uyushmalarning iqtisodiy faollikka intilib, savdo va investitsion to'siqlarni olib tashlash, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi. Undan tashqari globallashtirish jarayoni davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

### **III bob bo'yicha xulosalar**

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish uni harakatga keltiruvchi qator kuchlar ta'sirida shakllanadi. Globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi.

2. Xo'jalik hayotining transmilliylashuvi, ya'ni yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishi.

3. Jahon va milliy darajadagi bozor raqobati.

4. Fan - texnika taraqqiyoti.

5. Texnologik innovatsiya taraqqiyoti.

6. Iqtisodiy faoliyat (xo'jalik hayoti)ning erkinlashuvi.

7. Xizmat va kapital bozorini tartibga solishning qisqarishi.

8. Jahon xo'jaligi erkinlashuvi jarayonining kuchayishi.

Globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan yana biri jahon va milliy darajadagi bozor raqobatidagi o'zgarishlar hisoblanadi. Globallashtirish sharoitida raqobatning quyidagi turlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Bir mamlakat doirasidagi korxonalar o'rtasidagi raqobat (tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslari hamda qulay shart-sharoit uchun tadbirkorlik raqobati).

2. Turli mamlakatlar korxonalari o'rtasidagi raqobat.

3. Korxonalar va TMKlar o'rtasidagi raqobat.

4. TMKlar tarkibidagi alohida mintaqaviy bo'linmalar o'rtasidagi raqobat.

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayonini shakllantiruvchi hamda tezlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratib beruvchi uch asosiy mexanizmning amal qilishi bilan izohlanadi.

1) Jahon savdosida raqobatning kuchayishi

2) Ko'p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi

3) Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tahlili ushbu jarayonlar bir qator omillarning ta'siri natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi. Bu omillar sifatida globallashuvning alohida harakat yo'nalishlari ob'ektlariga bog'liq ravishda quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning keskin kuchayishi;
- milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy ochiqligining jadal sur'atlar bilan ortishi;
- xalqaro savdo va kapitalning mamlakatlararo harakati asosida jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotga ta'sirining intensivlashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimoti sifatining shakllanishi;
- jahon moliya bozorining milliy segmentlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi va global moliya bozorlarining shakllanishi;
- axborot tizimi va telekommunikatsiyaning rivojlanishi;
- transmilliy korporatsiya (TMK)lar faoliyatining global kengayishi;
- rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarning xalqaro savdo, xalqaro kredit, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlariga jalb etilishi;
- jahon iqtisodiyoti sub'ektlari tarkibining keskin murakkablashuvi;
- jahon iqtisodiyotida rivojlanib borayotgan yirik (alfa) shaharlar ta'sirining kuchayishi.

### **Tayanch iboralar**

Jahon xo'jaligi, mehnat bozori, globallashuv jarayonlari, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, kapitalning konsentratsiyalashuvi, fan texnika taraqqiyoti, texnologik innovatsiya taraqqiyoti, iqtisodiy faoliyat, transmilliy korporatsiyalar, investitsiyalar, xalqaro moliya bozorlari.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Globallashuv natijasida shakllangan jahon xo'jaligining yangi sifat xususiyatlarini tushuntiring.
2. Qanday kuchlarni globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga kiritish mumkin?
3. Moliyaviy resurslarning nisbatan faol harakati qaysi jahon moliyaviy markazlari orqali yuz bera boshlagan?
4. Globallashuv sharoitida raqobatning qaysi turlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin?
5. Turli mamlakatlar korxonalarini o'rtasidagi raqobat munosabatlariga globallashuv qanday umumiy iqtisodiy va bozor omillari orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi?
6. Rus tadqiqotchisi V.Kollontayning fikriga ko'ra globallashuvning neoliberal modeli qanday asosiy xususiyatlarga ega?

7. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar bozorlari tashkil topishining ko'rinishi nimalarda namoyon bo'lishini tushuntiring.

8. Globallashuvning alohida harakat yo'nalishlari ob'ektlariga bog'liq ravishda qaysi omillar ko'rsatib o'tiladi?

9. "Global shahar" atamasi qaysi yo'nalishlar asosida global ta'sirga ega bo'lgan urbanizatsiyalashgan mintaqani anglatadi?

10. Global shaharning qanday asosiy mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq?

11. Jahon iqtisodiyoti globallashuvini qanday asosiy belgilari orqali aniqlanadi va baholanadi?

12. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining qanday sohalarini qamrab oladi?

13. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi qaysi jarayonlarda namoyon bo'ladi?

## IV BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV MUAMMOLARI VA ULARNING GURUHLANISHI

### 4.1. Global muammolar va ularning belgilari

Sivilizatsiya rivojlanishining hozirgi bosqichida har qachongidan ko'ra dolzarb masalalar paydo bo'ldi, ularni hal qilmasdan iqtisodiy taraqqiyot yo'lida insoniyatning oldinga siljishini davom ettirish mumkin emas. Bu inson faoliyatining faqat bir qismi bo'lishiga qaramay, XXI asrda uning rivojlanishi xavfsizlik va tinchlik, tabiiy muhit, ma'naviy, diniy va falsafiy qadriyatlarga bog'liq.

Zamonamizning global muammolari hozirgi zamonda insoniyatning vujudga kelishi va taraqqiyotiga xavf tug'diruvchi zamonaviy dunyoning dolzarb, hayotiy va keskin ziddiyatlari majmuidir<sup>40</sup>.

Global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra bartaraf etilishi yer yuzida hayotni davom ettirish imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan muammolar hisoblanadi. Global muammolarni hal etish nafaqat mamlakatlarning iqtisodiy sa'y-harakatlarini birlashtirish natijasida, balki siyosiy qarashlar, jamoatchilik ongidagi o'zgarishlar, xalqaro huquq sohasida va boshqalar bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, bu muammolarni hal qilishning iqtisodiy asoslari va global iqtisodiy ahamiyati eng muhim hisoblanadi.

Global muammolar deganda, sayyoramizdagi barcha odamlarning hayotiga ta'sir etadigan va ularni hal etish uchun barcha davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur bo'lgan muammolar tushuniladi.

Turli adabiyotlarda global muammolarning belgilari sifatida, odatda, quyidagi to'rtta mezunga javob beradigan belgilar ko'rsatiladi<sup>41</sup>:

- ular universal xarakterga ega va nafaqat butun insoniyatning, balki sayyoramizning deyarli har qanday hududida bo'lgan shaxslarning manfaatlariga ta'sir qiladi;

- butun dunyoda, shuningdek, alohida qit'alar, mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ob'ektiv omil sifatida yuzaga keladi;

- ushbu muammolarni o'rganish va hal qilish sayyoramizdagi barcha odamlarning, mamlakatlarning, davlat organlarining va fuqarolik tashkilotlarining xalqaro darajadagi birgalikdagi sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi;

- hal etilmagan global muammolar insoniyatning yashashi va uning kelajagiga tahdid soladi.

---

<sup>40</sup> Апухтина Н.Г. Человек в эпицентре глобальных проблем современности. –Челябинск. 1997. – С. 6.

<sup>41</sup> Мировая экономика: Учебник для вузов / Под ред. проф. Ю.А.Щербанина. – М.: ЮНИТИДАНА, 2004. -С. 60-61.

Bu xususiyat va belgilar ayrim tushuntirishlarni talab qiladi.

Shu bilan birga har qanday muammoning globallashuvi dunyo aholisining nochor va azob chekayotgan qismi hayotidagi roli bilan emas, balki sayyoramizda yashovchi barcha xalqlarning taqdiri uchun ahamiyati bilan belgilanadi. Bundan tashqari bu muammolarni to'liq hal qilish mumkin deb hisoblash ham noto'g'ridir. Muammolarni hal qilish ko'pincha ularning keskinlik darajasini yumshatish va nazorat qilishdan iborat bo'ladi.

Butun dunyoga ta'sir etuvchi eng keskin ijtimoiy-tabiiy ziddiyatlar majmuasi sifatida global muammolar "mintaqaviy", "lokal" va "mahalliy" muammolarga ajratiladi.

**"Mintaqaviy" muammolar** tushunchasi alohida qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy markazlari, alohida jahon ijtimoiy tizimlarida yoki hech bo'lmaganda, dunyoning eng yirik mamlakatlarida yuzaga keladigan dolzarb muammolarni tavsiflaydi.

**"Lokal" muammolar** alohida davlatlar va ulardan ayrimlarining katta hududlaridagi muammolarni anglatadi. Ular jiddiy tabiiy ofatlar natijasida vujudga kelgan qiyinchiliklarni ham o'z ichiga oladi.

**"Mahalliy" muammolarni** alohida hududlar, davlatlar va joylardagi muammolar, masalan, sanoat avariylari, chuchuk suv taqchilligi, transport muammolari va boshqalar ko'rinishida tavsiflash mumkin.

"Global", "mintaqaviy", "lokal" va "mahalliy" muammolar qanday umumiy nisbatda tushuniladi?

Global muammolar sayyoraning istalgan mintaqasiga tegishli bo'lgan holda barcha mintaqalar uchun teng darajada o'tkir bo'lmagan muammolar hisoblanadi. Barcha global muammolar bir vaqtning o'zida mintaqaviy muammo hisoblangan holda, shu bilan birga, ular bevosita lokal yoki mahalliy ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin, ya'ni mintaqaviy muammolarning hammasi ham global emas.

Global va mintaqaviy muammolar o'rtasidagi chegaralar juda aniq bo'lib, bu bizga ma'lum bir tarixiy davrda muayyan miqdordagi global muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Mintaqaviy, lokal va mahalliy muammolarning chegaralari shartli, harakatchan bo'lib, ularning miqdori global muammolarga qaraganda ancha salmoqli. Barcha muammolar o'zgaruvchan bo'lib, ularning ba'zilar hal etilishi bilan o'z dolzarbligini, global xarakterini yo'qotadi va mintaqaviy yoki mahalliy toifaga o'tadi, boshqalari esa miqdor va sifat jihatidan global miqyosga ko'tarilishi ham mumkin.

Global muammolarni hal qilmasdan turib, insoniyatning yashashi mumkin emas. Masalan, dunyoning ziddiyatli mamlakatlari va mintaqalarida yadro



qurollarining tarqalishi yer yuzining barcha aholisi uchun yadro falokati va uning oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Global muammolarning umumbashariy tabiati ushbu muammolarning ko'rinishlarini har qanday mamlakatda ko'rish mumkinligini anglatadi. Biroq, barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan har bir muammo global emas. Masalan, ishsizlik har qanday mamlakatda mavjud, lekin biz buni global muammo deb atamaymiz, chunki u har bir mamlakat uchun o'ziga xos, alohida ichki muammo hisoblanadi.

Bundan tashqari, ishsizlik muammosi global muammolarning boshqa xususiyatlariga javob bermaydi. Global muammolar barcha mamlakatlarga ta'sir qiladi, lekin ularning ta'sir darajasi alohida mamlakatlarda bir-biridan farqlanadi. Masalan, insoniyatning eksponensial o'sishi bilan bog'liq demografik muammo mamlakatlarning turli guruhlarida turlicha xarakterga ega.

Rivojlangan Shimol va rivojlanayotgan Janub mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishidagi hozirgi nomutanosiblikda butun insoniyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurati alohida xalqlarning global muammolarni hal etish jarayoniga qo'shgan hissasini belgilaydi. Bundan tashqari ayrim global muammolarning jiddiyligi turli mamlakatlar uchun farq qiladi va, shuning uchun, alohida muammolarni hal qilishda mamlakatlarning manfaatlari va ishtiroki darajasi farqlanadi. Shunday qilib, Afrika mintaqasining kam rivojlangan mamlakatlarida qashshoqlik muammosini hal qilish mahalliy aholining ko'pchiligi uchun omon qolishning kalitidir. Rivojlangan ("oltin milliard") mamlakatlarining bu muammoni hal etishdagi ishtiroki faqat axloqiy motivlar bilan belgilanadi va ko'pincha insonparvarlik yordami yoki boshqa xayriya shaklida ifodalanadi.

Global muammolarning paydo bo'lishi va rivojlanishi inson faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u faqatgina o'z-o'zini yo'q qilishga qaratilgan mutlaqo salbiy jarayon emas. Bundan tashqari, deyarli barcha global muammolar insonlarning ijodiy faoliyati natijasida yuzaga keladi. Ular chuqur salbiy ta'sirga ega bo'lgan taraqqiyotning natijasidir. Global muammolarning global ekologik muammo shaklida paydo bo'lishi va avj olishida insonning ta'sir kuchini ko'rishimiz mumkin.

Insoniyatning global muammolari favqulodda va zarur yechimlarni topishni talab qiladi, ammo ko'plab olimlar bunday yechim kuchli ishlab chiqarish va texnologik qo'llab-quvvatlashga emas, balki axloq va ma'naviyatga asoslangan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Afsuski, jahon iqtisodiyotining hozirgi texnologik rivojlanishi muayyan inqirozli vaziyatlarni hal etishga ko'maklashadi va ularni hal etishda jarayonga ko'proq va cheklangan resurslarni yo'naltiradigan yangi, yanada chuqurroq muammolarni keltirib chiqaradi. Insonning tabiatga, boshqa odamlarga, o'ziga bo'lgan axloqiy munosabati muammolarni kuch

pozitsiyasidan voz kechishni va har qanday xarajat bilan cheksiz iqtisodiy o‘z-o‘zini cheklash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va o‘zaro yon berish global falokatning oldini olishi kerak.

Global muammolar o‘zaro bog‘liqlikning yaqqol ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida hozirgi davr sivilizatsiyasi o‘zining rivojlanish jarayonida hech qachon hozirgi kundagidek keskin muammolar girdobiga duch kelmagan. Jahon iqtisodiyotida bu muammolarni hal etmasdan turib, insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib harakat qila olmaydi. Jahon iqtisodiyotida u yoki bu muammoni global, ya’ni umumjahon miqyosdagi muammo ekanligini ko‘rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- muammolarning olamshumul ahamiyat kasb etishi;
- muammolarning insonlar hayotining barcha sohalariga taalluqliligi;
- muammolarni hal etishda ko‘pchilik davlatlarning birgalikda harakat qilishi.

Olimlar va jamoat arboblari orasida mamlakatlar yoki hududlar taraqqiyotidagi o‘ziga xos masalalarning global muammolarga aylanishi xususida turli fikr va qarashlar konsepsiyasi mavjud. Shuni qayd etib o‘tish joizki, bu jarayonga asosiy sabab jahon xo‘jaligining XX asr industrial bozor iqtisodiyoti bosqichiga xos bo‘lgan ekstensiv rivojlanishi bo‘ldi. Ammo oxirgi o‘n yilliklarda Yevropa, Amerika va Osiyoning rivojlangan mamlakatlari o‘z iqtisodiyotlarini intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tkazish uchun qanchalik faol harakat qilayotgan bo‘lsa-da, ko‘plab qoloq, rivojlanayotgan, shuningdek, bir qator o‘tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar uchun intensivikasiyalash jarayoni yechilmagan eng muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda global muammolarning paydo bo‘lish xususiyatlarini tavsiflash uchun turli xil yondashuvlar mavjud. Eng global muammolar insoniyatning butun tarixi davomida hamrohlik qilgan. Ammo taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida bu tabiat tufayli yuzaga kelgan muammolar va falokatlar edi: muzlik davri sharoitida keskin iqlim o‘zgarishi insoniyatning yashashi uchun muammo tug‘dirdi. Tarixning keyingi bosqichlarida esa global muammolar sotsiogen xarakterga ega bo‘la boshladi. Shunday qilib, jamiyatning samarali iqtisodiyotga o‘tishi bilan bog‘liq dastlabki ijtimoiy inqilob, intertribal aloqalar va almashinuv bilan ajralib turdi.

Global muammolarning mohiyati insoniyatning tabiiy va ijtimoiy sharoitni o‘zgartirishdagi moslashuvi va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatining yetarli emasligidan iborat. Odamlar har doim ham o‘z harakatlarini keng jarayonlar bilan bog‘lay olmaydilar. Global muammolarda insonning tabiati bilan bog‘liq ob’ektiv qonunlar hamda shaxsiy, guruhli, etnik va boshqa intilishlar bilan bog‘liq sub’ektiv

omillar, ko‘pincha o‘z-o‘ziga xizmat qiluvchi, pragmatik va merkantil, dialektik shaklda bo‘ladi<sup>42</sup>.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida global muammolarning namoyon bo‘lish xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Birinchi, ular insoniyat hayoti va farovonligi uning tarixi davomida to‘plangan ijobiy yoki salbiy salohiyatga, odamlarning “isyon”ni tan olish va uning oldini olish qobiliyatiga hamda istagiga bog‘liq bo‘lsa, insoniyat o‘zi yaratgan dunyoga qarshi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatni aks ettiradi.

Ikkinchi, global muammolar alohida o‘ziga xos tizim bo‘lib, uning elementlaridan hech biri boshqa komponentlar bilan aloqani hisobga olmagan holda alohida ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Uchinchi, zamonaviylik global muammolarning keskinlashuv davrini ifodalaydi.

Bir qator jarayonlar global muammolarni keskinlashtiruvchi manbalar sifatida qaraladi:

- tabiatga nisbatan hukmronlik munosabatini shakllantiradigan ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar;

- insonning tabiatni o‘zlashtirishi natijasida eng muhim ekologik munosabatlarni izdan chiqaradigan aloqadorliklar;

- ayrim hududlarda aholining haddan ziyod tez ko‘payishi va boshqalarda aholining kam o‘sishi nafaqat oziq-ovqat yoki ekologik muammolarni yuzaga keltiradi, balki siyosiy xavf-xatarlarni oshiradi va demokratiyaga tahdid soladi;

- inson hayotiga ta’sir etuvchi tabiatning ichki faoliyati va boshqalar.

Rus olimi A.I.Kostinning fikricha, global muammolarning keskinlashuvi bilan insoniyat xavf-xatarga to‘la tarixiy davrga kirib bormoqda, bu davrda nafaqat odamlar, balki jonzorlar ham xavf ostida bo‘ladilar. Lekin zamonaviy o‘zgarishlar insoniyatga nafaqat har qanday xavf va tahdidlarni, balki yangi imkoniyatlarni ham olib kelib, global tahdid va kataklizmalarga qarshi turish yo‘llarini belgilab berdi.

## **4.2. Global muammolarning guruhlanishi**

Bugungi kunda global muammolar jahon miqyosida turli tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Global muammolarni xususiyatlari bo‘yicha guruhlariga ajratish muammolarni turli mamlakatlar kesimida umumlashtirish va ularni bartaraf etish bo‘yicha yo‘nalishlarni aniq belgilash imkonini beradi.

---

<sup>42</sup> Габдулхакова Р.В., Махов А.А. Глобальные проблемы современности: Учебное пособие. – Уфа: Изд-во УГНТУ, 2000. – 54 с.

Mutaxassislar tomonidan global muammolar “to‘plami” turlicha belgilanadi. Ushbu muammolar ro‘yxati turli adabiyotlarda turlicha belgilanib, 2500 tagacha yetishi mumkin.

Ushbu yo‘nalishdagi eng ko‘p ma‘lumotlar “Rim klubi” a‘zolari A.King va B.Shnayderlarning “Birinchi global inqilob” (1989) nomli tadqiqotida o‘z aksini topgan. Ular tomonidan aniqlangan global muammolar antropogen faoliyatning kengayishi, iqlimning global isishi va uning energetika sohasiga ta‘siri, global ko‘lamdagi oziq-ovqat ta‘minoti, demografik o‘zgarishlar, axborot jamiyati ko‘rinishidagi muhim ijtimoiy-tabiiy jarayonlar ta‘sirida keskinlashmoqda.

Bu ijtimoiy-tabiiy jarayonlar sayyoramiz aholisining miqdoriy tarkibi va ularning harakatlar energiyasi chegara-sayyoraviy sohaga tegishli bo‘lganligi sababli katta tashvish tug‘diradi. Buni amerikalik matematik va fizik Jon von Nyuman o‘zining mashhur “chegaralangan o‘lchamdagi postulati”da aniqlab bergan. Chegarani buzish halokatga olib keladi, bu kelajak avlodlarga tahdid soladigan sayyoraviy miqyosdagi falokatga olib keladi.

A.King va B.Shnayder tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan eng muhim ijtimoiy-tabiiy jarayonlar insoniyatni har doim bir darajadan boshqa darajaga olib o‘tadi, ammo bu muammolar hech qachon bunday global miqyosda bo‘lmagan. Insoniyat tarixida birinchi marta inson faoliyati, ya‘ni antropogen ta‘sir uning o‘z xavfsizligiga tahdid sola boshladi.

Global muammolarning turli tasniflari mavjud, ammo ularning har biri shartli, chunki barcha muammolar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va aniq chegaralarga ega emas.

1980-yillar boshida ishlab chiqilgan va umumiy qabul qilingan tasnifga ko‘ra, global muammolarning uchta asosiy guruhi mavjud:

1. Insoniyatning asosiy ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq muammolar (global yadroviy falokatning oldini olish, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqni qisqartirish va boshqalar);

2. Inson va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq muammolar (ekologik, energiya, xomashyo va oziq-ovqat, kosmik tadqiqotlar va boshqalar);

3. Insonlar va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarga qaratilgan muammolar (ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish, xavfli kasalliklarni bartaraf etish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, savodsizlikni bartaraf etish va boshqalar).

Global muammolarning nisbatan to‘liq tipologiyasi B.N.Savchenko tomonidan taklif etiladi. Ushbu tipologiya muammolarning 5 ta asosiy xususiyati – xavfsizlik, taraqqiyot, borliqning tabiiy asoslarini saqlash, adolat va turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishga asoslanadi. Insoniyatning global

muammolariga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni boshqa muammolardan, hatto sayyoraviy tabiatdan ajratishga ham urinishlar mavjud:

- yagona davlat yoki mamlakatlar chegarasidan tashqariga chiqadigan global namoyon bo‘lish ko‘lami;

- alomatlarining jiddiyligi;

- murakkab tabiat: barcha muammolar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan;

- barcha mamlakatlar va xalqlar uchun tushunarli va dolzarb bo‘lgan umumbashariy mohiyat;

- insoniyat kelajagi taraqqiyotining borishini ma‘lum jihatlarda aniqlash qobiliyati;

- global muammolarni faqat butunjahon hamjamiyati, barcha mamlakatlar va etnik guruhlarining sa‘y-harakatlari orqali hal qilish mumkinligi.

Akademiklar V.V.Zagladin va I.T.Frolovlar tomonidan global muammolar uchta guruhga ajratilgan:

1. “Intersotsial”, ya’ni eng umumiy va dolzarb muammolar:

a) urush xavfining oldini olish va tinchlikni ta’minlash;

b) yangi xalqaro iqtisodiy tartib o‘rnatish.

2. “Jamiyat va tabiat” munosabatlari tizimida yuzaga keladigan muammolar:

a) ekologik;

b) energetika;

s) xomashyo;

d) dunyo okeanini rivojlantirish;

e) kosmik tadqiqotlar.

3. “Inson-jamiyat” tizimida yuzaga keladigan muammolar:

a) aholi o‘sishini nazorat qilish;

b) sog‘liqni saqlash masalalari;

v) ta’lim masalalari va boshqalar.

Shu bilan birga, oziq-ovqat muammosi kabi ayrim muammolar har uchala guruhga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lganligi sababli, guruhlardan biriga aniq bir tarzda bog‘lana olmasligi ta’kidlanadi <sup>43</sup>.

Global muammolar tadqiqotchisi N.G.Apuxtina global muammolarni hal qilishning dolzarbligi ustuvorligiga asoslangan turlicha mazmunga ega bo‘lgan to‘rtta muammo guruhini ajratib ko‘rsatadi:

- eng asosiy, o‘tkir va ko‘p vektorli muammo: uchinchi jahon urushining oldini olish. Insoniyatning mavjudligi va boshqa global muammolarni hal qilishning muvaffaqiyati bu muammoning hal etilishiga bog‘liq.

---

<sup>43</sup> Загладин В.В., Фролов И.Т. Глобальные проблемы современности: научный и социальный аспект. – М.: 1981.

- insoniyat kelajagi bilan bog‘liq va ularni amalga oshirishda katta moddiy, insoniy va ilmiy-texnik xarajatlarni talab qiluvchi ikki muammo: dunyo okeanlari va tashqi makon taraqqiyoti. Ushbu muammolarning dolzarbligi an’anaviy energiya va ovqatlanish manbalarining tugashi bilan bog‘liq.

- inson va jamiyatning tabiatga noto‘g‘ri munosabatlari bilan bog‘liq muammolar:

- a) ekologik;
- b) oziq-ovqat;
- s) energetika;
- d) xomashyo.

- jamiyat ichidagi munosabatlarning nomukammalligi, jamiyat va insonning mohiyati, tabiati, mazmuni va maqsadini tor va yuzaki tushunish bilan bog‘liq muammolar:

a) mintaqalar, mamlakatlar va xalqlarning notekis rivojlanishini bartaraf etish muammosi;

b) demografik muammo;

s) inson biologik salomatligini saqlash va mustahkamlash;

d) madaniyatni asrash va rivojlantirish muammosi – inson va uning asosiy kuchlarining ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar.

Professor Yu.Gladkiy tomonidan taklif qilingan global muammolarni ularning umumiy xususiyatlari asosidagi tasnifi ham o‘ziga xosdir<sup>44</sup>:

1. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi umumbashariy muammolar.

2. Tabiiy va iqtisodiy xarakterdagi muammolar.

3. Ijtimoiy xarakterdagi muammolar.

4. Hal qilinmasligi hayotning ommaviy yo‘qolishiga olib keladigan aralash xususiyatli muammolar.

5. Ilmiy xarakterdagi muammolar.

6. Aralash xarakterdagi “kichik” muammolar.

Tabiiyki, birinchi guruhdagi umumbashariy muammolar ro‘yxati yadroviy urushning oldini olish va sayyoramizdagi tinchlikni asrash muammosidan boshlanadi.

Birinchi guruhga davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlashgina emas, balki insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan dunyo barqaror rivojlanishining global muammosi ham kiradi. Bu muammo dolzarb muammolardan biri bo‘lgan va faqat dunyoning barcha davlatlari hamkorligi orqali hal qilinishi mumkin bo‘lgan kam rivojlangan mamlakatlarning qoloqligini bartaraf etish muammosi bilan

---

<sup>44</sup> Гладкий Ю. Глобалистика: трудный путь становления // Мировая экономика и международные отношения, 1994.- № 10.- С. 104-116

adashtirmaslik kerak. Jahon hamjamiyatini tashkil etish va boshqarish darajasini oshirish ham umumbashariy xarakterdagi eng muhim muammolardan biridir.

Ikkinchi guruh asosan tabiiy va iqtisodiy xarakterdagi muammolardan iborat bo‘lib, ular ko‘pincha globallashuv jarayoni bilan bog‘liq. Ularning har biri yer yuzidagi hayotning tabiiy asoslariga bevosita bog‘liq bo‘lib, sivilizatsiyaga katta xavf tug‘diradi. Jahon fanida ekotizim muvozanatlari uchun halokatli bo‘lgan yer biosferasiga antropogen ta’sirning misli ko‘rilmagan darajadagi jadalligiga uzluksiz urg‘u berilmoqda.

Global energetika muammosining o‘zagini uglevodorodlarning, birinchi navbatda, neft va gazning cheklangan tabiiy zahiralari tashkil etadi, tez sur‘atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyot esa energiya sarfini oshirishni talab qiladi. Bunday sharoitda insoniyat o‘tish davriga – organik resurslarga asoslangan energiyadan-energiyaga deyarli bitmas-tuganmas asosiga tayanishga majbur (yadro energiyasi, quyosh energiyasi va boshqalar). Bu davr inson faoliyatining barcha sohalarida energiya tejaydigan texnologiya va har tomonlama energiya tejamkorligining rivojlanishi bilan ham ajralib turadi.

Energetika sohasi global xomashyo muammosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mineral xomashyoga bo‘lgan talabning tobora ortib borishi va uning ko‘plab turlarining tugab borishi bilan bog‘liq. Mineral resurslar hajmi deyarli o‘zgarmasdir va agar ularning cheksiz o‘sib borayotgan iste’moli davom etsa, ular yaqin kelajakda tugab qoladi, bu esa insoniyatni o‘ta murakkab vaziyatga soladi.

Jahon bo‘yicha 1 milliard atrofidagi insonlarning ommaviy ochligi va to‘yib ovqatlanmasligi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, global oziq-ovqat muammosi ham bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.


Uchinchi guruhga insoniyatning bugungi kuni va kelajagi uchun “ijtimoiy bomba” hisoblanuvchi demografik, millatlararo munosabatlar, “ruh ekologiyasi” (ommaviy madaniyat, axloq, oila inqirozi), demokratiyaning cheklanishi, sog‘liqni saqlash singari ijtimoiy xarakterdagi muammolar kiradi.

Ommaviy halokatlar bilan bog‘liq aralash muammolarning to‘rtinchi guruhiga mintaqaviy nizolar, jinoyatchilik, texnologik avariylar, tabiiy ofatlar va boshqalar kiradi.

Beshinchi guruhda sof ilmiy muammolar - kosmik tadqiqotlar, Yerning ichki tuzilishini tadqiq qilish, uzoq muddatli iqlimni prognoz qilish va boshqalar kiradi. Ushbu muammolarning hal etilmasligi insoniyatga katta tahdid solmaydi. Chunki bu muammolarning hal etilishi zarur bo‘lgan holatlarning keskinligini ma’lum darajada yumshatadi xolos.

Oltinchi guruhdagi global muammolarga jahonning barcha hudud va mintaqalariga xos va to‘liq bartaraf etilish imkoniyati kam bo‘lgan byurokratiya, korrupsiya, egotsentrizm kabi kichik muammolar birlashtirilgan.

Globalashuv muammolari tasniflarini nazariy jihatdan o'rgangan holda bugungi taraqqiyot davri uchun global muammolarni umumlashtirish asosida quyidagi guruhlariga umumlashtirish maqsadga muvofiq (4.1-rasm).



#### 4.1-rasm. Global muammolarning asosiy guruhlari

**1-guruh.** Global siyosiy muammolar. Ushbu guruh muammolari jahon, mintaqalar va mamlakatlar siyosiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi global muammolardan iborat:

- global, mintaqaviy va hududiy tinchlikni saqlash;
- quolsizlanish va konversiya;
- mahalliy urushlar va nizolar;
- xalqaro terrorizm;
- “yopiq” mamlakatlar muammosi va boshqalar.

**2-guruh.** Global iqtisodiy muammolar. Ushbu guruh muammolari jahon, mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi global muammolardan iborat:

- transmilliy kapital;
- iqtisodiy urushlar va nizolar;



- rivojlanayotgan mamlakatlar qoloqligining kuchayishi;
- global demografik muammolar (rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik portlashlar, aholi ortiqchaligi, taraqqiy etgan mamlakatlarda aholi soni qisqarishi, aholining “qarishi”, migratsiya);
- Shimol-Janub muammosi;
- xalqaro qarzdorlik;
- moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar;
- energetika muammosi va boshqalar.

**3-guruh.** Global ijtimoiy muammolar. Ushbu guruh muammolari jahon, mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi global muammolardan iborat:

- aholi daromadlaridagi tabaqalanishning kuchayishi;
- ishsizlik va qashshoqlik;
- to‘yib ovqatlanmaslik;
- kasalliklar va giyohvandlikka qarshi kurash;
- megapolislar;
- inson salohiyatini rivojlantirish muammosi;
- oziq-ovqat muammosi;
- xavfsizlik;
- demografik va boshqa muammolar.

**4-guruh.** Global ekologik muammolar. Ushbu guruh muammolari jahon, mintaqalar va mamlakatlar ekologik holatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi global muammolardan iborat:

- global ifloslanish;
- radioaktiv ifloslanish;
- kislota yomg‘irlari;
- tuproq eroziyasi;
- resurslarning cheklanganligi;
- global iqlim isishi;
- ozon qatlami yemirilishi;
- ekologiya va barqaror rivojlanish;
- inson xavfsizligini ta’minlash muammosi;
- jahon okeani muammosi va boshqa muammolar.

Global muammolarni tizimlashtirish nazariy asoslardan ko‘ra empirik asoslangan, tasniflashning nazariy asoslarini, ayniqsa, mazmun jihatidan o‘rganish hali tugallanmagan. Shu sababli global muammolar tasnifi boshqacha shaklga ham ega bo‘lishi mumkin, bularning barchasi uning qanday mezonlarda asoslanishiga bog‘liq.

### 4.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining siklliligi tarixi va uning rivojlanish qonuniyatlari

Globallashuv nafaqat oxirgi ikki asrda, balki insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlarida, jumladan, qadimgi tarixda ham mavjud bo'lgan. Qadimgi davrlarda ham globallashuv va global iqtisodiyotning mavjudligi bugungi kunda yetakchi iqtisodiy tarixchilar tomonidan e'tirof etilgan. Masalan, I.Uollershteynning yozishicha, Rim imperiyasi ham, qadimgi Xitoy ham antik davrda "jahon tizimi" deb nomlangan jahon iqtisodiyotiga ega bo'lgan. Zamonaviy G'arbiy Yevropa davlatlari birinchi marta o'rta asrlar oxirida globallashuv jarayoni bilan to'qnash keldilar. I.Uollershteynning fikricha, g'arbiy Yevropa shaharlari va mamlakatlari o'rtasidagi savdoning keskin o'sishi natijasida XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab "Yevropa jahon iqtisodiyoti", ya'ni Yevropa mamlakatlarini qamrab olgan global iqtisodiyot shakllana boshladi<sup>45</sup>.

Biroq, undan avvalroq qadimgi Rus va Vizantiyada globallashuv jarayonlari yuz berganligi tarixdan ma'lum. Jumladan, ma'lumotlariga ko'ra, O'rta yer dengizida intensiv xalqaro savdo qadimgi dunyo qulashidan avval VII-VIII asrlar mobaynida davom etgan<sup>46</sup>. Ammo keyinchalik IX asr davomida yana xalqaro savdoning asta-sekin o'sib borishini ko'ramiz, bu jarayon endi nafaqat Sharqiy O'rta yer dengizi (birinchi navbatda, Vizantiya), balki qadimgi Rus hududini ham qamrab oladi. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, Vizantiya, Rossiya va boshqa qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi intensiv xalqaro savdo X-XI asrlarda o'z cho'qqisiga yetdi<sup>47</sup>. Biroq, bundan oldin ham, IX asrda globallashuv qo'shni mintaqani – Volgabo'yi, Kaspiy dengizi va Arab sharqidagi davlatlarni qamrab oldi<sup>48</sup>.

Shunday qilib, bu davrda mintaqaviy globallashuvning ikki jarayoni parallel ravishda rivojlandi: ulardan biri Volga-Kaspiy savdo yo'li bilan bog'liq bo'lib, VIII asrning oxirida boshlandi va X asrning oxirigacha davom etdi; ikkinchisi, O'rta yer dengizi bilan bog'liq – Qora dengiz savdo yo'li – Qora dengizga quyiladigan daryolar havzalari (Dnepr, Don, Dnestr, Janubiy Bug)da IX asrning ikkinchi yarmida boshlandi va XII asrning ikkinchi yarmigacha davom etdi. Bu savdo yo'llarining birinchisi o'sha davrda "**Varyaglardan forsiylarga**", ikkinchisi – "**Varyaglardan yunonlarga**" deb atalgan.

---

<sup>45</sup> Wallerstein I., *The Modern World-System. Capitalist Agriculture and the Origins of the European World-Economy in the Sixteenth Century.* – New York, 1974, pp. 15-18.

<sup>46</sup> R.Hodges, D.Whitehouse, *Mohammed, Charlemagne and The Origins of Europe.* – Oxford, 1983, pp. 4, 169-176

<sup>47</sup> В.Кропоткин, *Клады византийских монет на территории СССР.* – М.: 1962 г., карты 3-12

<sup>48</sup> В.Кропоткин, *Экономические связи Восточной Европы в I тысячелетии нашей эры.* – М.: 1967 г., с. 118-124; И.Спасский. *Русская монетная система. Историко-нумизматический очерк.* – М., 1960 г., с. 23

Globalashuv doimo bozor iqtisodiyotiga asoslangan. Globalashuvni intensiv xalqaro savdoni bozordan tashqari sharoitlardan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Globalashuvning mohiyati bo'lgan xalqaro savdoning tez rivojlanishi doimo o'z-o'zidan bozor kuchlarining ta'sirida vujudga kelgan.

Iqtisodiy tarixni o'rganish ma'lum hududlarda globalashuv ro'y bergan davrlarni aniqlashga imkon beradi. Ayrim hollarda globalashuv davrlari ketma-ket yuz berib, bu hodisaning davriyligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Shunday qilib, qadimgi davrda O'rta yer dengizida rivojlangan global iqtisodiyotning markazlari qadimgi Gretsiya va Karfagen bo'lgan. Shu nuqtai nazardan miloddan avvalgi VI-II asr o'rtalarida Yunon-Karfagen siklini ajratib ko'rsatish mumkin. O'rta dengizning qadimgi tarixida va qadimgi Xitoy tarixida ham shunga o'xshash sikllar kuzatiladi. G'arbiy Yevropada ham xuddi shunday sikllar XII asrdan to hozirgi davrgacha ro'y berdi.

Umuman olganda, insoniyat tarixidagi globalashuvni 5 ta davrga ajratish mumkin (4.2-rasm):


**Globalashuv tarixining 1-davri.** XII asr o'rtalari – XV asr oxiri. Jahon iqtisodiyotining markazi – Italiya va uning Venetsiya, Genuya, Florensiya, Piza kabi savdo davlatlari. Siklning oxirida Italiya davlatlarining globalashuv jarayonidagi pasayishi va Fransiya hamda Ispaniya tomonidan Italiya ustidan hukmronlik uchun 60 yillik urushning boshlanishi.

**Globalashuv tarixining 2-davri.** XVI asr o'rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi. Globalashuv markazlari – Niderlandiya va Gabsburg imperiyasi (keyinchalik Ispaniya va Avstriya imperiyalariga bo'linib ketgan). Siklning oxiri o'ttiz yillik urushda Ispaniya-Avstriya Gabsburglar imperiyasining mag'lubiyati va ingliz inqilobi bilan belgilanadi, undan keyin Angliya, Germaniya va Skandinaviya proteksionizm siyosatiga o'tib, bojxona bilan bog'liq muammolar tufayli globalashuvdan to'sildi.

**Globalashuv tarixining 3-davri.** XVIII asr. Globalashuv proteksionistik siyosat yuritmagan bir qator Yevropa mamlakatlari (Fransiya, Ispaniya, Polsha, Niderlandiya)ni, shuningdek, o'sha davrda jahon iqtisodiyoti bilan birinchi marta aloqaga chiqqan bir qator yangi hududlar (Amerika, Hindiston, G'arbiy Afrika)ni qamrab oldi. Globalashuv markazlari – Buyuk Britaniya va Fransiya. Siklning oxiri fransuz inqilobi va Napoleon urushlari bilan belgilanadi.

**Globalashuv tarixining 4-davri.** 1840-1920-yillar. Davr boshida G'arbiy Yevropadagi qator mamlakatlar (Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniya) Napoleon urushlari tugaganidan keyin olib borgan proteksionistik siyosatdan erkin savdo siyosatiga o'tdilar. Xalqaro savdoning jadal o'sishiga transportning rivojlanishi (temir yo'llar qurilishi, transatlantik liniyalar uchun kuchli paroxodlardan foydalanish va boshqalar) ham yordam berdi. Globalashuvning

asosiy markazi Buyuk Britaniya bo‘lib, u o‘sha davrga kelib sanoat inqilobini amalga oshirgan va boshqa barcha mamlakatlar ustidan katta raqobat ustunligiga ega bo‘lgan. Sikl oxiriga kelib globallashuv birinchi marta dunyoni deyarli to‘liq egallab oldi, Buyuk Britaniya esa global iqtisodiyotning yangi markazlari bo‘lgan AQSh va Germaniya oldida o‘z ustunligini yo‘qotdi. Sikl oxirida Buyuk depressiya boshlandi (1929-1939 yy.), dastlabki yillarda g‘arb davlatlari inqirozga qarshi kurashish maqsadida yuqori proteksionistik to‘siqlarni joriy etdilar.



**4.2-rasm. Globallashuv tarixining asosiy bosqichlari**

**Globallashuv tarixining 5-davri.** 1960-yillarning oxiri – hozirgi davr. Siklning boshlanishi rivojlangan g‘arb mamlakatlarining proteksionizmdan erkin savdo siyosatiga o‘tishi bilan belgilanadi (zamonaviy JST tizimiga asos solgan Kennedi raundidan keyin). Globallashuv global iqtisodiyotning sobiq markazlari – AQSh, G‘arbiy Yevropaning pasayishi va yangi markazlar – Yaponiya, Janubi-

Sharqiy Osiyo, Xitoy va Hindistonning paydo bo'lishi bilan birga kechdi. 2008 yildagi jahon moliyaviy inqirozidan so'ng global turg'unlik davri boshlandi.

Yuqoridagi davrlarning barchasida globallashuv sikli boshlanishining asosiy belgisi – xalqaro savdoning keskin o'sishi bo'ldi. Globallashuvning butun sikli davomida yoki, hech bo'lmaganda, birinchi bosqichida bu ko'rsatkich manfaatdor mamlakatlarning umumiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada ortda qoldirdi (YaIM o'sishi, aholi daromadlari darajasining o'zgarishi va boshqalar). Qadimgi globallashuvning tegishli sikllari davomida ham xalqaro savdoning keskin o'sishi haqida ma'lumotlar mavjud.

Xuddi shu tendensiyalar 3-sikl davomida jahon iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatgan mamlakatlarda ham sodir bo'ldi. Shunday qilib, XVIII asr davomida Fransiya tashqi savdosi 5-6 martaga, ayniqsa, Fransiyaning o'z mustamlakalari bilan savdosi 13 martaga ortdi<sup>49</sup>.

Biroq, bu davrda Fransiya iqtisodiyotida sezilarli taraqqiyot yoki o'sish yuz bermadi va aholining qashshoqlashuvi 1789-1795 yillardagi fransuz inqilobini keltirib chiqardi. Globallashuv ta'sirida bo'lgan boshqa mamlakat (Ispaniya, Polsha)larda esa iqtisodiy turg'unlik ularning xalqaro savdodagi faol ishtiroki bilan davom etdi.

4-sikl davomida jahon miqyosida xalqaro savdoda misli ko'rilmagan o'sish kuzatildi. 1815 yildan 1914 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida barcha Yevropa mamlakatlarining eksport hajmi qariyb 40 barobar ortdi, bu esa iqtisodiy o'sish sur'ati va aholining o'rtacha turmush darajasidan ancha oshib ketdi<sup>50</sup>.

Xuddi shu tendensiyalar globallashuvning zamonaviy 5-davrda ham sodir bo'ldi.

Demak, globallashuv siklining asosiy qonuniyati siklning boshlang'ich bosqichida xalqaro savdoning keskin o'sishi bo'lib, bu davrda xalqaro savdo hajmi iqtisodiy o'sishning umumiy ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada oshib ketadi va bu tendensiya, odatda, siklning o'rta bosqichida saqlanib qoladi.

Globallashuv sikllarining asosiy qonuniyati bilan birga boshqa qonuniyatlar ham mavjud. Masalan, globallashuv yangi siklning boshlanishi har doim pul muomalasi sohasida o'ziga xos tendensiya – narxlarning umumiy o'sishi (inflyatsiya) hamda oltin va kumushning qadrsizlanishi bilan birga keldi. XIII-XVII asrlarda G'arbiy Yevropada kumush va oltinda ifodalangan narxlar umumiy darajasining sezilarli miqdorda o'sishi kuzatildi. Bu o'zgarishning sabablari haqida turli taxminlar mavjud.

---

<sup>49</sup> Goubert P. L'ancien regime. Paris, 1969-1973, tome II, p. 198; Mandrou R. La France aux XVIIe et XVIIIe siecles. – Paris, 1987, p. 89

<sup>50</sup> Cambridge Economic History of Europe. – Cambridge, 1989, Vol. VIII, p.1.

Bugungi kunda ilmiy doiralarda asosiy nuqtai nazar I.Brennerning narxlarning umumiy o'sishi sanoatning rivojlanishi, savdoning o'sishi va yerga egalik qilish va moliya sohasida spekulyativ faoliyatning keskin o'sishiga sabab bo'lganligi haqidagi gipotezasiga tayanadi. Ko'rib turganimizdek, narxlar tez o'sishining birinchi davri (XII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrning birinchi yarmi) G'arbiy Yevropa globallashuvining birinchi sikliga to'g'ri keldi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida kumush bilan ifodalangan narxlarning o'rtacha darajasi taxminan 3 marta oshgan bo'lsa, intensiv umumiy narx o'sishining ikkinchi davri (XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asrning birinchi yarmi) globallashuvning ikkinchi sikliga to'g'ri keldi<sup>51</sup>.

Zamonaviy siklning o'ziga xos jihati shundaki, milliy pulning oltin va kumushga (ilgari har doim mavjud bo'lgan) bog'lanishi 1971 yildan boshlab butunlay yo'q qilindi, ammo globallashuv bilan bog'liq bo'lgan umumiy belgilar o'zgarishsiz qoldi. Siklning birinchi bosqichida (1967-1982 yillar) barcha yetakchi g'arb mamlakatlarida kuchli inflyatsiya kuzatildi. Shunday qilib, 1949 yildan 1965 yilgacha bo'lgan davrda AQShda chakana narxlar 29% ga, 1965 yildan 1982 yilgacha esa 100% ga oshgan. Shunday qilib, AQSh dollari bu davrda 2 marta, Italiya lirasi va Britaniya funt sterlingi kabi boshqa valyutalar bir necha marta qadrsizlandi. Biroq, siklning o'rtasida avvalgi globallashuv davrida bo'lgani kabi barcha g'arb mamlakatlarida kuchli inflyatsiya to'xtadi<sup>52</sup>.

Globallashuvning 5-sikli davomida oltin narxining dinamikasi yuqoridagi tarixiy misollardagi kabi bir xil qonuniyatlarga amal qilgan. Siklning birinchi bosqichida (1967-1982 yillar) sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u dollarning kuchli qadrsizlanishi va 1971 yilgacha dollarning oltinga rasmiy bog'lanishi sharoitida bu narx sun'iy ravishda past bo'lishi mumkinligi bilan izohlanishi mumkin.

Globallashuv jarayonlari tarixini o'rganish uning tamaddunida yana ikki qonuniyatni ochib berdi. Ulardan biri turli tovar bozorlarida narx darajasining tenglashuvi bo'lsa, ikkinchisi kredit foiz stavkasining, shuningdek, foyda me'yori va investitsiya daromadliligi darajasining barqaror pasayishi hisoblanadi.

Global iqtisodiyot shakllanishidan oldingi davr (eramizdan avvalgi V asrga qadar va eramizning V asridan boshlab)da foiz stavkalari yuqori (yiliga 20% dan ortiq) edi. Ko'rinib turibdiki, yarim natural xo'jalikka xos bunday yuqori foiz stavkalari rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos emas. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yunon davlatchiligida bozor iqtisodiyoti rivojlana boshlagach, foiz stavkasi keskin pasayib, yiliga 12 %ga tushib ketdi.

---

<sup>51</sup> J.Gould, The Price Revolution Reconsidered. Economic History Review, XVII, 2, 1964, pp. 250-251

<sup>52</sup> International Financial Statistics.

Ma'lum davrlarda foiz stavkalarining pasayishi va narxlarning barqarorlashish tendensiyasi to'xtagan va teskari tendensiya bilan o'rin almashgan. Antik davrda bu rimliklar tomonidan eramizdan avvalgi II asr o'rtalarida Karfagen va Korinf halokatidan to eramizning I asri oxirida Rim fuqarolik urushlarining oxirigacha bo'lgan davrda sodir bo'lgan. G'arbiy Yevropa tarixida esa bu teskari tendensiya XV asr oxiridan XVI asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda yuz bergan. Turli mamlakatlar o'rtasida sodir bo'lgan urushlar va yangitdan shakllantirilgan har bir siyosiy o'zgarish natijasida globallashuvning navbatdagi sikli boshlangan.

#### 4.4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi bosqichlari

Fransuz tarixchisi F.Braudel o'z tadqiqotlarida muayyan jamoatchilik bilan aloqa va funksiyalarning faqat xalqaro emas, balki global xarakterdagi milliy davlatlar chegarasidan tashqariga chiqish davri XVI-XVII asrlarga to'g'ri kelishini ta'kidlagan. Hozirgi globallashuv kapital baynalmilallashuvining bevosita davomi bo'lib, uning boshlanishi Yevropa kapitalizmining shakllanish markazlari (Genuya, Gollandiya, Angliya) atrofida "jahon iqtisodiyoti" ning ilk ko'rinishlarini vujudga keltirdi.

B.Badi, V.Kuznetsov qarashlarida ham shunga o'xshash nuqtai nazar mavjud. Jumladan, V.Kuznetsovning fikricha: **"Globallashuv chiziqli jarayon emas. U siklik to'lqinlarda rivojlanmoqda va hozircha bir nechta bosqichdan o'tdi. Buyuk geografik kashfiyotlar, Ispaniya va Portugaliya mustamlakachi imperiyalarining vujudga kelishi XIX asrda dunyoning kapitalistik mustamlakasidan tortib sovuq urush oqibatlarining sotsializm tufayli barcha hodisalar globallashuvga aloqador bo'lib, uning muayyan bosqichlari sanaladi<sup>53</sup>".**

Mavjud adabiyotlarda globallashuv jarayoni bosqichlari uchta asosiy davrga bo'lib ko'rsatiladi (4.3-rasm):

**I bosqich – 1880-1920 yillar.** Ushbu bosqichning asosiy belgisi - globallashuv jarayoni ishtirokchilarining asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy mustamlakalardagi xomashyo manbalarini egallab olishga qaratilganligibilan ajralib turadi .


**II bosqich – 1920-1970 yillar.** Ushbu bosqichning asosiy belgisi jahondagi mahsulot bozorlarini egallab olishga urinish hisoblanadi.

**III bosqich – 1970 yildan hozirgi kunga qadar.** Ushbu bosqichning asosiy belgilari investitsiya tarkibining optimallasuvi, global yoki mintaqaviy xalqaro

---

<sup>53</sup> Кузнецов В.И. Что такое глобализация? // Мировая экономика и международные отношения, 1998, №2, с. 16

iqtisodiy integratsiya afzalliklaridan foydalanish, global raqobatbardoshlikni ta'minlash, saqlash va oshirish asosida jahonning tez o'sib borayotgan bozorlaridagi o'z o'rnini mustahkamlashga qaratilganligidir.



#### 4.3-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining bosqichlari

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining birinchi bosqichi “**Pax Britannica**” deb nomlanib, ushbu integratsion sikl XIX asr o'rtalaridan Birinchi jahon urushigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Jahon bozori, haqiqatan ham, buyuk geografik kashfiyotlar davrida shakllana boshladi, lekin faqat 1900-yillarning boshlariga kelib, iqtisodiy munosabatlar uchun ochiq bo'lgan butun dunyoni qamrab oldi. Yevropa “jahon iqtisodiyoti”ning markazi vazifasini bajarilishini o'z zimmasiga oldi va globallashuv jarayonini boshlab berdi.

Sanoat inqilobi natijasi sifatida dunyoning iqtisodiy birligi vujudga keldi. Bu jarayonda Buyuk Britaniya birinchi bo'lib ishlab chiqarish sanoatini yaratdi. mamlakatning “**dunyo ustaxonasi**”ga aylanishi uning tashqi savdo siyosatini tubdan o'zgartirdi. Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablar anaxronizmga aylandi – mamlakatda xomashyo va oziq-ovqat tanqisligi yuzaga keldi.

Ushbu davrda “**erkin savdo**” davri boshlandi. Cheklovlarning bekor qilinishi umumiy xalqaro savdoning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Tarixda “erkin



savdo”ga o‘tish hatto **“shok terapiyasi”**ning birinchi namunasi deb ataladi: atigi o‘n yil ichida jahon savdosining miqdori deyarli ikki barobar oshdi. XIX asr o‘rtalaridan to birinchi jahon urushi boshlanguniga qadar xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida liberal jahon tartiboti ustun keldi.

1870-yillarning o‘rtalaridan boshlab tovar eksporti bilan birga kapitalni eksport qilish ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga kapital qo‘yilmalarning ko‘chishi global iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Masalan, shu davrda fransuz aholisining 10% ga yaqini Rossiya obligatsiyalariga ega edi. Rossiyada nizom kapitalining uchdan bir qismiga chet elliklar, xususan nemislar egalik qilishgan. Xalqaro qarz olishning **“buyuk davri”** 1914 yilda nihoyasiga yetdi.

Shunisi ahamiyatliki, globallashuv omillari iqtisodiyotdan tashqari boshqa sohalarda ham namoyon bo‘ldi. K.Doych tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ichki kapital aylanmasiga nisbatan xalqaro kapital aylanmasining ulushi 1950-yillar boshida 1913 yilga nisbatan ancha past va 1880 yilga nisbatan biroz past bo‘lgan.

XIX asr o‘rtalarida baland ko‘tarilgan migratsiya to‘lqini ta’sirida dunyo yangi davrga o‘tdi. 1880 yillarda amal qilingan mehnat migratsiyasidagi yengilliklar tufayli Skandinaviya aholisining 7%i, Italiya aholisining 6% dan ko‘prog‘i AQShga ko‘chib kelgan.

1900 yillarda antik va uyg‘onish davriga xos bo‘lgan dunyo birligi va yaxlitligi hissi qayta tiklandi: 1896 yildan boshlab Jahon Olimpiya o‘yinlari o‘tkazila boshladi, 1901 yildan boshlab xalqaro Nobel mukofotlari ta’sis etildi, 1887 yilda xalqaro muloqot tili - *esperanto* yaratildi. Global kapitalizm tizimi 1910 yilga kelib o‘z cho‘qqisiga yetdi. Dunyo aholisining taxminan 89%i valyuta ayrboshlash mumkin bo‘lgan mamlakatlarda yashagan, dunyo savdogarlar va sayohatchilar uchun ochiq edi. Biroq 1914 yil avgusti “Rax Britannica” tarixiga chek qo‘ydi.

Birinchi (1914-1918 yillar) va Ikkinchi jahon urushlarining yuzaga kelishi (1939-1945 yillar) jahon iqtisodiyoti globallashuvi birinchi bosqichiga yakun yasab, uning yangi belgi va xususiyatlar bilan ikkinchi bosqichga o‘tishiga olib keldi. Globallashuvning ikkinchi bosqichida jahonda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalarga bog‘liq holda bir necha sikllarda o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, uning birinchi sikli 1914-1945 yillardagi global tarqoqlik (dezintegratsiya) bilan boshlandi.

V.S.Solovyovning yozishicha, har qanday jiddiy va uzoq muddat davom etgan urush muqarrar ravishda dunyo miqyosidagi aloqalarda silkinishlarga olib keladi. XIX asrning oxirida erkin savdo tizimining qulashi birinchi jahon urushi davrida urush davri iqtisodiyotiga xos bo‘lgan turli cheklovlarni joriy etish va avtokratik

jarayonlarni mustahkamlash bilan boshlandi. Bu jarayon iqtisodiy tarix nuqtai nazaridan 1914 yilga keib tugadi.

1914 yildan boshlab xalqaro mehnat taqsimoti tizimida qattiq cheklovlar joriy qilindi. Birinchi jahon urushi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni qisman izdan chiqardi. Munosabatlarning izdan chiqishi urushdan keyin juda katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. 1929-1933 yillardagi Buyuk depressiya jahon iqtisodiyotida yangi tartibsizliklarni boshlab berdi. Ko'pchilik davlatlarning savdo siyosatida proteksionizm va iqtisodiy millatchilik ko'rinishlari keskin darajada oshib bordi. 1938 yilda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tashqi savdoga bog'liqligi 1880 yilga nisbatan 1,5 barobar past va 1850 yilga nisbatan atigi 20% yuqori bo'ldi. Yevropa mamlakatlarida chet elliklarni ishga joylashtirishni ta'qiqlovchi tizim joriy etildi.

Ikkinchi jahon urushi jahon iqtisodiy aloqalarini birinchi jahon urushidan ham ko'proq izdan chiqardi

Jahon iqtisodiyotidagi "buyuk sinish" texnologik ukladlarning o'zgarishi bilan bog'liq chuqur ildiz otgan sabablarga ham ega edi. Eski industrial mamlakatlar (Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Shveysariya)da temiryo'l qurilishi davri tugadi. N.D.Kondratev jahon iqtisodiyotining yangi siklik o'sishini avtomobil sanoati bilan bog'ladi. Ford konveyeri 1913 yilda ish boshlaganiga qaramay ikkinchi jahon urushidan keyingina bu sohada yuksalish – boshlandi.

Ushbu davr oralig'ida Buyuk Britaniya "global iqtisodiy yetakchilik"ni qo'ldan boy berdi, AQSh esa bu vaqtda ushbu vazifani qabul qilib olishga hali tayyor emas edi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ikkinchi global integratsiya sikli 1946 yildan boshlandi. Ushbu sikl XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro mehnat taqsimotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan avtomobilsozlik, neft qazib olish va qayta ishlash kabi tarmoqlarni vujudga keltirgan ikkinchi sanoat (texnologik) inqilobi ta'sirida yuzaga keldi. XX asr o'rtalarida avtomobillar, neft, va neft mahsulotlari jahon savdosida uchta eng muhim tovar guruhi hisoblanib, jahon eksportining taxminan 25% ni tashkil etdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, jahon iqtisodiyotidagi ko'plab jarayonlarni noldan boshlash lozim bo'ldi. 1970 yillarning birinchi yarmiga kelib xalqaro mehnat taqsimoti va tashqi savdoning jahon iqtisodiyotidagi ulushi qayta tiklandi. Bu davrda sanoat mamlakatlari tovar eksportining YaIMdagi ulushi 1913 yildagi natijalar darajasiga qaytdi.

1974 yilda Jahon hamjamiyati tomonidan BMT qoshida transmilliy korporatsiyalar bo'yicha komissiya va TMKlar markazi tashkil etilishi jahon iqtisodiyotida TMKlarning roli o'sib borayotganidan dalolat beradi. Biroq 1990-

yillar boshidagina yalpi jahon mahsulotining ulushi sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 1913 yildagi ko'rsatkichga yetdi.

Qo'shma Shtatlar savdo aylanmasi XX asr o'rtalarida jahon savdosining 80% ini tashkil etganligi uning ikkinchi globallashuv to'liqining "etakchisi" bo'lganligini ko'rsatadi. AQShning tashabbusi va to'la qo'llab-quvvatlashi bilan global iqtisodiy tashkilotlar - JST, XVF va Jahon banki yaratildi va ular globallashuvning hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyatiga aylandi.

Shuni e'tirof etish kerakki, bugungi kunda dunyoda globallashuv va iqtisodiy birlikning "ikkinchi to'liqini" kuzatilmoqda. Ko'rsatib o'tilganidek, ba'zan integratsiya davrlari parchalanish davrlari bilan o'rin almashadi. Bu o'zgarishlar uzoq vaqt davomida sodir bo'ladi va odatda, iqtisodiy rivojlanish tabiatidagi "umumiy" o'zgarishlar, masalan, ilmiy va texnologik inqilob tufayli ro'y beradi.

#### **4.5. Jahon iqtisodiyoti globallashuvidagi qarama-qarshiliklar**

O'z tabiatiga ko'ra, globallashuv jarayoni ziddiyatli bo'lmasligi mumkin emas. Globallashuv jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlarning asosiy manbalaridan biri – alohida ishtirokchilar salohiyatidagi katta farqlardir. Rollar taqsimotini belgilovchi boshlang'ich imkoniyatlar tengsizligi globallashuvning g'oliblari va yo'qotuvchilari o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarga asos bo'ladi. Zamonaviy globallashuvning qutblovchi ta'siri ko'p jihatdan G'arb dunyosining neoliberal siyosatiga bog'liq. Kapitalning erkin harakatiga baho berib, neoliberalizm dunyo mintaqalari o'rtasidagi tengsizlikni mustahkamlaydi.

Ziddiyatlarning yana bir manbai dunyoning turli tomonlarida yashovchi aholi turmush tarzidagi fundamental farq hisoblanadi. Bugungi globallashuv G'arb mamlakatlarining g'oyasi hisoblanadi. G'arb sivilizatsiyasi dunyo aholisining kichik qismini tashkil etganligi sababli, globallashuv jarayonlarining rivojlanishi dunyoning qolgan qismida haqli norozilik va shikoyatlarga sabab bo'ladi.

Ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar globallashuv ta'sirida jahon jamiyatida chuqur salbiy holatlarni keltirib chiqaradigan o'ta ziddiyatli hodisa - ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlaridir deb hisoblashadi.

V.L.Inozemsevning fikricha, globallashuvning jahon tengsizligi muammolariga ta'siri masalasi, mavjud dunyo tartibining barqarorligiga asosiy tahdid soluvchi asosiy omildir.

Albatta, dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va mintaqalarning notekis rivojlanishiga faqat globallashuv sabab bo'lmaydi, ular doimo mavjud bo'lgan va doimiy xarakterga ega. Ammo globallashuvning hozirgi neoliberal modeli jahon iqtisodiyotidagi salbiy tendensiyalarning saqlanib qolishiga va yanada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Umumlashtirib aytganda, neoliberal globallashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- jahon iqtisodiyotining bir qismi bo'lgan mamlakatlarni iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini qat'iy monetarist asosda majburiy gomogenlashtirish;

- bozor mexanizmi taraqqiyotni tartibga soluvchi asosiy mexanizm sifatida tan olinishi;

- milliy iqtisodiyot, mustaqillik va, hatto, davlatning tugab boruvchi kategoriya sifatida ko'rsatilishi va ularni tezroq bartaraf etish muvaffaqiyat garovi sifatida qaralishi;

- asosiy sa'y-harakatlarni davlatning iqtisodiy rolini susaytirish, savdoni erkinlashtirish va boshqaruvni izdan chiqarishga yo'naltirish.

Neoliberalizmning asosiy xavfi shundaki, periferik mamlakatlar davlat tomonidan bozor elementining halokatli kuchlaridan, kuchli raqobatchilarning ekspansionistik tajovuzlaridan, halokatli moliyaviy va iqtisodiy inqirozlardan umuman himoya qilinmagan. Bunday model qoloq mamlakatlarning barqaror va oqilona rivojlanishini ta'minlay olmaydi. Neoliberal model yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhitni hech qachon hisobga olmaydi.

Globallashuvni harakatlantiruvchi kuchlarning har biri o'z-holicha ziddiyatligi va to'la ma'nodagiumumjahon birlashuviga olib kela olmasligi globallashuv jarayonining birinchi va eng muhim ichki ziddiyatidir.

Shu o'rinda ikkinchi ziddiyatni global va milliy ziddiyat deb aytish mumkin. Ya'ni globallashuv mamlakatlarning o'ziga xos milliy iqtisodiy xususiyatlarining yo'qolishiga olib keladi. Buning sababi iqtisodiyotga kirib kelayotgan umumjahon unsurlarning nisbatan samarali faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq. TMKlar har qanday milliy kompaniyadan ko'ra raqobatbardoshdir, chunki u kuchli asosiy kompaniya tomonidan moliyalashtiriladi, zamonaviy ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyalariga, shu bilan birga, yuqori mehnat unumdorligiga ega. Iqtisodiy globallashuvning madaniy, ijtimoiy-siyosiy va boshqalar bilan to'ldirilishi muhim omildir. Shu tufayli, ular ishlab chiqarish shaklidan kat'i nazar, xoh ular uy-ro'zg'or buyumlari, xoh oziq-ovqat va hokazolarda aks etuvchi demokratik ideallar yoki iste'mol qulayliklari bo'lsin, jamoatchilik ongida umumbashariy ezgulik va umuminsoniy qadriyatlar timsoli sifatida shakllanadi.

Globallashuvning yana bir ziddiyati shundaki, u turli mamlakatlar guruhlarining iqtisodiy rivojlanishida kengaygan bo'shliqqa olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar globalizatsiyaga yanada tayyor bo'lib, o'z milliy boyliklarini oshirmoqda.


So'nggi yillarda turli davlatlarning iqtisodiy globallashuvga moslashuvida turli muammolar vujudga kelmoqda. Bu muammo rivojlanayotgan mamlakatlarning, shu jumladan, o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarning jahon

xo'jaligi tizimiga to'liq integratsiyasida namoyon bo'lmoqda. Ammo rivojlanayotgan hamda kam rivojlangan davlatlarda bu katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Globalashuv borgan sari o'z faoliyatini kengaytirayotgan va mustaqil xarakterga ega bo'layotgan moliyaviy bozorlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Globalashuv farovonlik keltirishi bilan birgalikda ko'p imkoniyatlardan mahrum etishi ham mumkin.

Jahon iqtisodiyoti globalashuvining asosiy qarama-qarshiliklarini umumlashgan holda quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilish ushbu ziddiyatlarning mohiyatini real baholash imkonini beradi (4.4-rasm):

- mamlakatlar va mamlakatlar guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
- mamlakatlar va global moliyaviy institutlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
- ayrim mamlakatlar bilan TMK va jahon moliya markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
- yirik TMK, TMB (transmilliy bank)lar va xalqaro moliya markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar.



#### 4.4-rasm. Jahon iqtisodiyoti globalashuvining asosiy qarama-qarshiliklari

Globalashuv jarayonidan ancha uzoq bo'lgan yer sayyorasining deyarli yarim aholisi, ya'ni 3 milliard kishi, kuniga 2 AQSh dollaridan kam pulga yashashga majbur. BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan ta'kidlaganidek: **“Globalashuv butun insoniyatga foyda keltirishi mumkinligiga men ishonaman. Ammo ko'rinib turibdiki, ayni kunlarda millionlab odamlar, dunyo jamiyatining katta qismi bundan yuz o'girmoqda. Ular hayotlarida globalashuv mevalarining ko'pligi tufayli emas, aksincha ozligi, xatto butunlay yo'qligi tufayli kambag'aldirlar”**.

Hozirda tabiiy ravishda faqat bir mamlakat miqyosida hal qilib bo'lmaydigan va samarali hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar vujudga keldi. Mintaqaviy darajadagi texnologiya va ekologik salbiy oqibatlariga Chernobil va Orol fojiasini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda texnika va texnologiyaning rivojlanishi va shu jarayonga moslashmaganligi tufayli ishchilarning bo'shatilishi va ishsizlikning o'sishi keskin tus olmoqda. Kambag'allik, etnik to'qnashuvlar va boshqa lokal fojialar tufayli aholining ommaviy ravishdagi migratsiyasi ro'y bermoqda (Afg'oniston, Osiyo va Afrikaning alohida mamlakatlari).

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi natijasida jahon xo'jaligi sohalarining bog'liqligi darajasi o'zining yangi pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat bermoqda. O'zaro bog'liqlik darajasining oshishi har tomonlama rivojlanishga sabab bo'lish bilan birgalikda bir qancha xavflarni ham vujudga keltirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi ta'sir omillari iqtisodiy soha ichida yoki makrodarajadagi xavflar bilan xarakterlanadi.

Tashqi iqtisodiy omillar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavflardan biri mamlakatning tashqi qarzlari paydo bo'lishi va uning kuchayishidir. Ma'lumki, tashqi qarzlarning salmog'i mamlakat YaIMning 1/2 qismidan ortishi xavfli hisoblanadi. Qarzning me'yoridan ortishi esa, kelajakda nafaqat mazkur qarzni qaytarishda qiyinchilik tug'diradi, balki investitsiya qilish va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarining qiskarishi, valyuta zahiralarning kamayib ketishi va to'lov balansi inqirozi kabi hodisalarga sababchi bo'ladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSh davlatining tashqi qarz miqdorining o'sib borganligi va uning YaIMga nisbatan salmog'i o'sganligi 2008 yildagi moliyaviy inqirozning kuchayishida asosiy omillardan biri bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda, xususan, AQSh va ayrim MDH davlatlari (Qirg'izistondan tashqari) tashqi qarzlarning YaIMga nisbatan salmog'i ortib borgan.

Axborot texnologiyalari va global moliya bozorlarining taraqqiy etishi kapitalning qisqa muddatda yer sharining turli joylarida joylashgan bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga o'tib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu kabi jarayonlar ham keskin iqtisodiy vaziyatga, qolaversa, inqirozga ham olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, portfel investitsiyalar va qisqa muddatli kreditlar yuqori mobillik darajasiga ega. Doimiy makroiqtisodiy barqarorlik sharoitida bu kabi qo'yilmalarning xorijdan ko'p miqdorda kirib kelishi o'ziga xos tavakkalchilik tug'diradi. Bunday vaziyatda makroiqtisodiy mutanosiblikning ichki siyosatga bog'liq bo'lmagan o'zgarishi turli salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi moliyaviy inqirozga olib keladi.

Shuningdek, globallasuvning xavflaridan biri bu real turmush darajasining pasayishidir. Globallasuv jarayonida boy va kambag'al davlatlar o'rtasidagi farq

tobora kuchaymoqda. Jahonning boy bo'lgan 1/5 qismi va uning kambag'al bo'lgan 1/5 qismi daromadlaridagi farq 1913-yillarda 1/11, 1960-yillarda 1/30 va 2000-yillarda 1/74 ga teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, vaziyat tobora keskinlashmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzining YaIMdagi ulushi 2000-yillarda Afrikaning Sahroi Kabirdan pastki qismida 108 foiz, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada 46 foiz, Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 33 foiz, Shimoliy va Janubiy Amerikada 34 foizga teng bo'lgan.

So'nggi yillarda uning salbiy tomonlarini yo'qotish yoki yumshatish borasidagi turli xil takliflar uning salbiy jihatlarini aniqlashga yordam bermoqda. Globallashuvning xavf-xatarlarining oldini olish borasidagi jahon hamjamiyatining harakatlari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- rivojlangan mamlakatlarda axborot-texnologiya inqilobiga asoslangan "yangi iqtisodiyot" haqidagi tezisning vujudga kelishi;

- 1999 yilda Florensiyadagi Konferensiyada Amerika va Yevropaning rivojlangan mamlakatlari hukumat boshliqlari va vakillari tomonidan taklif etilgan "uchinchi yo'l" konsepsiyasi va "inson kapitaliga investitsiyalar" asosida jamiyat, davlat va bozorlar o'rtasidagi samarali balansning ko'rib chiqilishi;

- "to'g'ri boshqarish" ("good governance"), "qonun ustuvorligi" ("role of law"), iqtisodiy islohotlar, transparentlik, demokratik saylovlar, inson huquqlarini himoya qilish, ekologik standartlarni nazorat qilish va boshqa shu kabilarni amalga oshirishni rivojlanayotgan mamlakatlardan talab qilish hisobiga "katta sakkizlik", XVF, Jahon banki ularga moliyaviy va boshqa turdagi yordamlar berish taklifi, ya'ni "rivojlanish" muammosi;

- globallashuvning salbiy taraflarini va uning insonlarga ta'sirini kamaytirish.

Globallashuvning bu muammolarini milliy va xalqaro institutlar faoliyatini muvofiqlashtirish orqali hal qilish mumkin.

Shuningdek, jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar saqlanib qolayotgani, davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o'limi, epidemiyalar insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to'siqlar bo'lib qolmoqda.

Bu muammolarni hal etishda 2000 yilda bo'lib o'tgan BMTning Ming yillik Sammitida "Ming yillik Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muhim tarixiy hujjat XXI asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Ming yillik rivojlanish maqsadlari (MRM) sifatida belgilangan aniq maqsadlarning sakkizta yo'nalishini ajratdi. Ular:

- 1) o'ta qashshoqlikka va ochlikka barham berish;
- 2) umumiy boshlang'ich ta'limga erishish;

- 3) ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish va ayollarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish;
- 4) bolalar o‘limini qisqartirish;
- 5) onalar salomatligini yaxshilash;
- 6) OIV/OITSGa, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash;
- 7) ekologik barqarorlikni ta‘minlash;
- 8) rivojlanish maqsadida global hamkorlikni shakllantirish.

Bu maqsadlarning har biriga erishish maqsadida muayyan vazifalar belgilangan bo‘lib, u MRM jahon hamjamiyatining uzoq muddatli davr uchun global loyihasidir. Unda nazarda tutilgan ishlar jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shunday qilib, yuqorida ko‘rsatilgan muammolarni barcha mamlakatlar va ularning guruhlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, turli xil jamiyatlar, siyosiy kuchlar va harakatlar ishtiroki orqali tahlil qilish va hal etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

**Antiglobalizm** – bu globallashuv jarayonlarning hozirgi kunda namoyon bo‘layotgan ba’zi jihatlari (transmilliy korporatsiyalarning gegemonligiga va turli xil xalqaro savdo tashkilotlariga, asosan, Jahon savdo tashkilotiga e‘tirozlar, shuningdek, global tengsizlik, TMKlarning gegemonligi, bir qutbli dunyoning shakllanishi, atrof-muhitning ifloslanishi, milliy urf-odatlarining yo‘qolib ketishi va h.k.lar)ga qarshi yo‘naltirilgan siyosiy harakatdir.

“Antiglobalizm” atamasi 1998 yil iyunda Fransiyada paydo bo‘ldi. Fransiyada bir nechta nashriyotlar, ijtimoiy assotsiatsiyalar va kasaba uyushmalari birgalikda, “ATTAC” (Association for the Taxation of Financial Transactions for the Aid of Citizens) tashkilotiga asos solishdi va “Tobin solig‘i”ni muomalaga kiritmoqchi bo‘lishdi. Tobin solig‘i 1972 yilda Jeyms Tobin tomonidan taklif etilgan bo‘lib, unda dunyo miqyosida barcha moliyaviy operatsiyalarning 0,1 foizi miqdoridagi ulush qashshoqlikni yo‘qotish va uchinchi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishga yo‘naltirilishi ko‘zda tutgan.

Bundan tashqari, ATTAC tashkiloti rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzlarni kechishni ham talab qildi. Keyinchalik antiglobalistlarning qatori kengaydi: ko‘p sonli marksistlar, patsifistlar, hayvonlar g‘amxo‘rlari, vegetarianlar, anarxistlar, “yashillar”, izolyatsionistlar, kasaba uyushmalari, diniy kamchilikni tashkil qiluvchilar, yoshlar, ekologik, talabalar va urushga qarshi harakatlar, inson huquqi sohasidagi kurashchilar, iste‘molchi huquqi himoyachilari, xomila abortiga qarshilar, ishsizlar ularga qo‘shildi.

2001 yilda Portu-Alegreda antiglobalistlarning birinchi xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi. Forumda Fransiyaning olti sotsialist vaziri va Belgiya bosh vaziri shaxsan ishtirok etdi.



Keyinchalik Sietl, Praga, Genuya, Barselona, Davos va boshqa shaharlarda, shuningdek, globallashuvni ma'qullaydigan "Katta yettilik" davlatlari, XVF, Jahon banki uchrashuvlari o'tadigan shaharlarda bunday chiqishlar odatiy hol bo'lib qoldi. Antigloballashuv harakatining faolligi yildan-yilga oshib bormoqda (4.1-jadval).

#### 4.1-jadval

##### Antigloballashuv yo'nalishidagi noroziliklarning xronologiyasi

O'tkazilish joyi	Vaqti	O'tkazilgan rasmiy xalqaro uchrashuvlar nomi	Norozilik bildiruvchi qatnashchilarning soni, (ming kishi)
Siyetl (AR)	1999, noyabr	Jahon savdo tashkiloti	100
Praga (Chexiya)	2000, sentabr	Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki	10
Davos (Shveysariya)	2001, yanvar	Umumjahon iqtisodiy Forumi	30
Gyoteborg (Shvetsiya)	2001, iyun	AQSh-Yevropa Ittifoqi Sammiti	25
Portu-Alegri (Braziliya)	2001, yanvar	Umumjahon ijtimoiy Forumi	20
Genuya (Italiya)	2001, iyul	"Sakkizlik" (G8) Sammiti	300
Barselona (Ispaniya)	2002, mart	Yevropa Ittifoqi sammiti	500
Florensiya (Italiya)	2002, noyabr	Yevropa ijtimoiy forumi	1000
Plato Larzak (Fransiya)	2003, avgust	Fransiya antiglobalistik harakatining 30-yilligi	300
Mumbay (Hindiston)	2004, yanvar	Umumjahon ijtimoiy Forumi	100
Portu-Alegri (Braziliya)	2005, yanvar	Umumjahon ijtimoiy Forumi	150

Antigloballashuv xarakteridagi noroziliklar ko'pincha rasmiy sammitlar va xalqaro uchrashuvlarga moslab o'tkazilib, paralell sammitlar deb ham atala boshlandi. 1988-2001 yillar davomida 70 ga yaqin parallel sammitlar o'tkazilgan. Antiglobalistlar har kuni dunyoning turli burchaklarida har xil ijtimoiy forum, miting va turli xil namoyishlar o'tkazishadi.

2003 yilgacha dunyoda 2500 ta antiglobalistik tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan. Oxirgi yillarda ular tomonidan o'tkazilgan tadbirlar qatoriga quyidagilarni aytib o'tish mumkin. 1999 yil iyunda Kyolnda antiglobalistlarning birinchi yirik namoyishi bo'lib o'tdi. 2000 yilda antiglobalistlarning informatsion tarmog'i Indi Media tashkillashtirildi. 2001 yil yanvarda Braziliyaning Portu-Alegri shahrida

antiglobalistlarning Umumjahon ijtimoiy forumi bo‘lib o‘tdi. Unda 122 davlatdan 20 ming vakil qatnashdi. 2001 yil Genuyadagi “Katta sakkizlik”ning uchrashuvini buzish uchun 300 ming antiglobalistlar yig‘ilishdi. Qarama-qarshi kuchlar to‘qnashishi natijasida bir nafar vakil va bir nafar politsiya xodimi qurbon bo‘ldi, 300 dan ortiq kishi kattiq jarohat oldi. 2006 yil yanvarda Karakasda Umumjahon ijtimoiy forumi bo‘lib o‘tdi.

Oxirgi yillarda yuqorida aytib o‘tilgan ATTAC tashkilotidan tashqari quyidagi antiglobalistik loyihalar ham tashkil topdi.

Antigloballashuv xarakteridagi noroziliklar ko‘pincha rasmiy sammitlar va xalqaro uchrashuvlarga moslab o‘tkazilib, paralell sammitlar deb ham atala boshlandi. 1988-2001 yillar davomida 70 ga yaqin parallel sammitlar o‘tkazilgan. Antiglobalistlar har kuni dunyoning turli burchaklarida har xil ijtimoiy forum, miting va turli xil namoyishlar o‘tkazishadi.

2003 yilgacha dunyoda 2500 ta antiglobalistik tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan. Oxirgi yillarda ular tomonidan o‘tkazilgan tadbirlar qatoriga quyidagilarni aytib o‘tish mumkin. 1999 yil iyunda Kyolnda antiglobalistlarning birinchi yirik namoyishi bo‘lib o‘tdi. 2000 yilda antiglobalistlarning informatsion tarmog‘i Indi Media tashkillashtirildi. 2001 yil yanvarda Braziliyaning Portu-Alegri shahrida antiglobalistlarning Umumjahon ijtimoiy forumi bo‘lib o‘tdi. Unda 122 davlatdan 20 ming vakil qatnashdi. 2001 yil Genuyadagi “Katta sakkizlik”ning uchrashuvini buzish uchun 300 ming antiglobalistlar yig‘ilishdi. Qarama-qarshi kuchlar to‘qnashishi natijasida bir nafar vakil va bir nafar politsiya xodimi qurbon bo‘ldi, 300 dan ortiq kishi kattiq jarohat oldi. 2006 yil yanvarda Karakasda Umumjahon ijtimoiy forumi bo‘lib o‘tdi.

Oxirgi yillarda yuqorida aytib o‘tilgan ATTAS tashkilotidan tashqari quyidagi antiglobalistik loyihalar ham tashkil topdi:

- **“Global harakat”**. Katta megapolis va qishloq markazlari ko‘chalarida muntazam ravishda qat’iy noroziliklarni o‘tkazishga qaratilgan harakat;

- **“Blek Blok”** (“Black block”). Magazin va ofislarni talon-taroj qilishga va politsiya bilan to‘qnashuvlarga ixtisoslashgan, anarxizm pozitsiyasida turadigan, kapitalizm, davlat va urushlarga qarshi harakat;

- **“Uchinchi pozitsiya”** («The Third Position»). Tashkilot Londonda tashkil topdi. Mafkuraviy asosi – qarshilikning agressiv usullarini qo‘llovchi eng chap va eng o‘ng tomon dunyo qarashiga ega bo‘lganlar guruhi;

- **“Ya Basta”**. Italyan tashkiloti, Chyapas harakatini qo‘llab-quvvatlovchi va neoliberalizmga qarshi guruh;

- **«Xaktivist»**. Xaker aktivistlarning uyushmasi bo‘lib, ular asosan siyosiy masalalar bo‘yicha harakat qilishadi;

- **Radikal ekologlar** (etakchi Ralf Nayder va nazariyotchi Myurrey Bukchin). Ular faqat bozor iqtisodiyotiga qarshi kurash orqali total ekologik talofatlarni oldini olish mumkin degan g'oyani ilgari surishadi.

Antiglobalistlar globallashuvning asosan quyidagi salbiy oqibatlarini dalil sifatida keltirishadi:

- boy va kambag'al davlatlar daromadlari orasidagi farqning kattalashib ketayotganligi;

- ayrim madaniyatning ustunligi, erkin ijodning kamayishi, standart fikrlashning ko'payishi;

- tabiatga nisbatan yirtqichlarcha munosabat, ekologik muammolarni "chetlab o'tish", iflos ishlab chiqarishlarni "uchinchi dunyo"ga ko'chirish;

- kapitalni oshirish maqsadida neoliberalizm g'oyalarining ravnaq topishi, rivojlanmagan mamlakatlarni xomashyo bazasiga aylantirish.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy-siyosiy harakat samaradorligi uch omilga bog'liq: olg'a surilayotgan fikrlarning mashhurligi yoki qanchalik zamondan orqada qolganligiga; tashkiliy tuzilmasiga; moliyaviy manbasining barqarorligiga.

Odatda ommaviy axborot vositalarida birinchi ikkita omil ko'p talqin qilinsada, harakatning kuchini ko'proq uchinchi omil aniqlaydi. Har qanday ijtimoiy-siyosiy harakat singari, antiglobalistik harakatning ham moliyaviy manbasi quyidagilar:

- majburiy yoki ixtiyoriy a'zolik badali;

- tarafdorlarning qo'shgan hissalar;

- harakatga oid adabiyot va tovarlarni sotishdan tushgan mablag' (simvollar va agitatsion materiallar)

- davlat va turli xil fondlarning grantlari;

- madaniy va ta'limga oid tadbirlarni amalga oshirishdan tushgan mablag' (filmlarni namoyish qilish, adabiyotlarni sotish, festivallar, konferensiyalar, treninglar, seminarlar va h. k.)

Antiglobalistlar ham, odatda, buyurtma asosida namoyish, norozilik, festival va boshqa tadbirlarni o'tkazishadi. Odatda, bunday namoyishlar Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta fondi, Jahon Banki, Katta sakkizlik, NAFTA va Yevropa Ittifoqining yig'ilish sammitlariga qarshi uyushtiriladi. Antiglobalistlarni bezovta qiladigan yana bir masalalardan biri bu "yuqumli" moliyaviy inqirozlardir.

Antiglobalistlar, asosan, G'arbning katta kapitalistik guruhlariga va TMKlariga qarshi turmoqdalar. Ularning fikricha, liberalizm g'oyalari orqali TMKlar butun dunyoni boshqarishga intilishadi va shu bilan birga milliy qadriyatlarni toptashadi. Antiglobalistlar XVF va Jahon Banki tavsiya etgan siyosatni amalga oshirgan mamlakatlar ko'pincha achinarli holatlarga tushib qolayapti, deb hisoblaydilar.

#### IV bob bo'yicha qisqacha xulosalar

Global muammolar deganda, sayyoramizdagi barcha odamlarning hayotiga ta'sir etadigan va ularni hal etish uchun barcha davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur bo'lgan muammolar tushuniladi.

Turli adabiyotlarda global muammolarning belgilari sifatida odatda quyidagi to'rtta mezonga javob beradigan belgilar ko'rsatiladi:

- ular universal xarakterga ega: nafaqat insoniyatning, balki sayyoramizning deyarli har qanday hududida mavjud butun tiriklik olamining manfaatlariga ta'sir qiladi;

- butun dunyoda, shuningdek, alohida qit'alar, mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ob'ektiv omil sifatida yuzaga keladi;

- ushbu muammolarni o'rganish va hal qilish sayyoramizdagi barcha odamlar, mamlakatlar, davlat organlari va fuqarolik tashkilotlarining xalqaro darajadagi birgalikdagi sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi;

- hal etilmagan global muammolar insoniyatning bugungi hayoti va kelajagiga tahdid soladi.

Globallashuv muammolari tasniflarini nazariy jihatdan o'rgangan holda bugungi taraqqiyot davri uchun xarakterli bo'lgan quyidagi guruhlarini belgilash mumkin:

1-guruh. Global siyosiy muammolar.

2-guruh. Global iqtisodiy muammolar.

3-guruh. Global ijtimoiy muammolar.

4-guruh. Global ekologik muammolar.

Insoniyat tarixidagi globallashuv 5 ta davrga ajratiladi.

1. XII asr o'rtalari – XV asr oxiri.

2. XVI asr o'rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi.

3. XVIII asr.

4. 1840-1920-yillar.

5. 1960-yillarning oxiri – hozirgi davr.

Mavjud adabiyotlarda globallashuv jarayoni bosqichlari uning alohida xususiyatlari va belgilariga ko'ra uchta asosiy davrga bo'lib ko'rsatiladi.

I bosqich – 1880-1920 yillar. Ushbu bosqichning asosiy belgisi globallashuv jarayoni ishtirokchilarining asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy mustamlakalardagi xom ashyo manbalarini egallab olishga qaratilganligidir.

II bosqich – 1920-1970 yillar. Ushbu bosqichning asosiy belgisi jahondagi mahsulot bozorlarini egallab olishga urinish hisoblanadi.

III bosqich – 1970 yildan hozirgi kunga qadar. Ushbu bosqich investitsiya tarkibining optimallasuvi, global yoki mintaqaviy xalqaro iqtisodiy integratsiya

afzalliklaridan foydalanish, global raqobatbardoshlikni ta'minlash, saqlash va oshirish asosida jahonning tez o'sib borayotgan bozorlaridagi o'rnini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

### **Tayanch iboralar**

Sivilizatsiya, global muammolar, "lokal" muammolar, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, globallashuv siklliligi, global siyosiy muammolar, global iqtisodiy muammolar, global ijtimoiy muammolar, global ekologik muammolar, Xalqaro Valyuta fondi, xalqaro moliya bozorlari.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Global muammolar va ularning belgilarini tushuntiring.
2. Global muammolarning belgilari sifatida odatda qanday mezonlarga javob beradigan belgilar ko'rsatiladi?
3. "Mintaqaviy" muammolar tushunchasi qanday dolzarb muammolarni tavsiflaydi?
4. "Global", "mintaqaviy", "lokal" va "mahalliy" muammolar qanday umumiy nisbatda tushuniladi?
5. Umumjahon miqyosdagi muammolar ekanligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar qaysilar hisoblanadi?
6. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida global muammolarning namoyon bo'lish xususiyatlari sifatida qaysilarni ko'rsatib o'tish mumkin?
7. 1980-yillar boshida ishlab chiqilgan umumiy qabul qilingan tasnifga ko'ra, global muammolarning nechta asosiy guruhi mavjud va ularni tushuntiring.
8. Global muammolarni umumlashtirish asosida qanday guruhlariga umumlashtirish maqsadga muvofiq?
9. Insoniyat tarixidagi globallashuv nechta davrga ajratiladi?
10. Globallashuv jarayoni bosqichlari uning alohida xususiyatlari va belgilariga ko'ra nechta asosiy davrga bo'lib ko'rsatiladi?
11. Neoliberal globallashuvning asosiy xususiyatlarini tushuntiring.
12. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy qarama-qarshiliklarini umumlashgan holda qaysi yo'nalishlarda tahlil qilish ushbu ziddiyatlarning mohiyatini real baholash imkonini beradi?

## V BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI MUAMMOLARINING OQIBATLARI VA HAL ETISH YO‘LLARI

### 5.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining afzalliklari

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuv jahon iqtisodiyoti rivojlanishining eng muhim omillaridan biriga aylandi. Shu sababli u ko‘plab mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar va jamoat arboblarning diqqat-e‘tiborini tortdi. Ko‘plab xorijiy hamda mahalliy olim va tadqiqotchilar globallashuv nazariyasini ishlab chiqish, uning mohiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan asarlar yozdilar. Ular jahon hamjamiyati e‘tiborini globallashuv sharoitida milliy davlatlarni rivojlantirishning eng maqbul yo‘llarini izlashga qaratdilar.

Globalashuv jarayonining sabablari va mohiyati hamda uning ijtimoiy ahamiyati bo‘yicha olimlar o‘rtasida yagona kelishuv mavjud emas. Shunday bo‘lsa-da, globallashuv mamlakatlar savdo integratsiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyat sub‘ektlarining hududiy savdo aloqalarini kengayishi jarayoni, alohida mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, dunyodagi mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy o‘zaro bog‘liqligining o‘sishi va boshqalar sifatida qaralmoqda<sup>54</sup>.

Umuman olganda, jahon xo‘jaligining globallashuvi – bu jahonni axborot, tovar, xizmat, kapital va g‘oyalar erkin taqsimlanadigan yagona hududga aylantirishdir. Globalashuvning asosiy xususiyati – milliy iqtisodiyotlarning turli to‘siqlar bilan ajratilgan yakkalangan iqtisodiyotidan bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan umumiy, yagona iqtisodiy tizimga o‘tish hisoblanadi. Globalashuvning ob‘ektiv omili, birinchi navbatda, transport va aloqa sohasidagi taraqqiyot bo‘lib, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy masofalarni kamaytiradi. Zamonaviy telekommunikatsiya tizimlari, real vaqt rejimida dunyoning istalgan nuqtasidan kerakli ma‘lumotlarni olish imkonini beradi, xalqaro biznesni tashkil etish, turli mamlakatlarga texnologiya va biznes tajribasini uzatishni osonlashtiradi<sup>55</sup>.

Proteksionistik siyosatni cheklab, jahon savdosini erkinlashtiradigan xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiyotni erkinlashtirishning chuqurlashuvi ham globallashuv jarayoniga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyasi va yagona iqtisodiy hududni mumkin bo‘lgan darajada kengaytirish soliq, qulay tarif va tarifsiz tartibga solish, daromadlarni adolatli taqsimlash va davlat tomonidan tartibga solish sohasida ko‘plab savollarni keltirib chiqaradi.

<sup>54</sup> Холопов А. Глобализация и макроэкономическое равновесие // Мировая экономика и международные отношения. – 2005. – №2. – С. 15–23.

<sup>55</sup> Стриженко А.А. Глобализация мировой экономики: основные тенденции // Ползуновский альманах. – 2000. – №3.

Erkinlashtirish natijasida tariflar sezilarli darajada pasaytiriladi hamda tovarlar va xizmatlar savdosida mamlakatlar o'rtasidagi to'siqlar bartaraf etiladi. Globallashuvning asosiy manbalaridan biri transmilliy kompaniyalarning paydo bo'lishidir, ularning paydo bo'lishi natijasida mamlakat ishlab chiqarishi va iste'moli, eksport va importining katta qismi milliy davlatdan tashqarida xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qarorlarga bog'liq bo'ladi. Hozirgi bosqichda ko'p millatli kompaniyalar jahon iqtisodiyotining yetakchi kuchlari sifatida harakat qiladi va muayyan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning muhim qismini nazorat qiladi.

TMKlarning katta qismi rivojlangan mamlakatlarda joylashgan bo'lsada, so'nggi yillarda ular rivojlanayotgan Janubiy Koreya, Xitoy, Meksika, Braziliya, Tayvan, Gonkong, Singapur va Malayziya kabi mamlakatlarda ham shakllanmoqda. Ushbu yangi ko'p millatli korporatsiyalar jahon bozorida qattiq raqobatga kirishib, qulay shart-sharoitlar va bozorlar uchun faol kurashmoqda.

TMKlarning o'sib borayotgan ta'siri sharoitida alohida milliy iqtisodiyotning mavjud bo'lib qolishi uchun kurashda davlatlar ular bilan kuchli sheriklar yoki raqiblar sifatida tobora ko'proq hisoblashishlari kerak<sup>56</sup>.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon iqtisodiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri moliya bozorlarining jadal rivojlanishi hisoblanadi<sup>57</sup>. Ko'pgina iqtisodiyotlar moliyaviy globallashuvning oqibatlari va davlatning bu jarayonni boshqarishdagi rolini qayta baholash va global inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga imkon beradigan bozorlarni tartibga solishning yangi metodologiyasini ishlab chiqish zarurati bilan to'qnash kelmoqda.

Taraqqiyotning bugungi sharoitida globallashuv jarayoni xalqaro raqobatni keskinlashtiruvchi asosiy omil bo'lib, uning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin (5.1-rasm):

- xalqaro raqobatni keskinlashtirish orqali xaridorlar uchun tovar va xizmatlarning iste'mol xususiyatlari va xarid qilish sharoitlari qulaylashadi;
- mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish jarayonida transport va kommunikatsiya xarajatlari qisqaradi;
- ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonining kengayishi bilan ko'lam (miqyos) samarasi ortadi va tannarx pasayadi;
- jahon miqyosida innovatsiyalarni uzluksiz qo'llash imkoniyati va bu bilan mehnat unumdorligini ortadi;
- fan va texnika taraqqiyoti jadallashadi;

---

<sup>56</sup> Некипелов А. Глобализация и стратегия развития экономики России // Проблемы прогнозирования, 2001, №4. – С.7.

<sup>57</sup> Нечай А. Глобализация мировой экономики и роль государства // Журнал международного права и международных отношений, 2010. – №4.


- iqtisodiy samaradorlik ortishi bilan tarmoq, hudud va mintaqa miqyosida iqtisodiy o‘shish darajasi ortadi;

- iqtisodiy chegaralarning kamayishi bilan o‘zaro manfaatli savdo rivojlanadi;

- jahon miqyosida yalpi ichki mahsulot hajmi va jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlar darajasi ortadi.

Turli xalqaro iqtisodiy birlashmalar, milliy iqtisodiyotlar yetakchi mavqeni saqlab qolish va jahon sahnasida o‘z ta‘sirini yanada kengaytirish uchun globallashuv jarayonlarining afzalliklarini yuqori darajada oshirish muhim bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- xalqaro mehnat taqsimoti natijasida globallashuv ixtisoslashuv va xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi, nafaqat milliy, balki jahon miqyosida ishlab chiqarishning o‘shishini rag‘batlantiradi va bozor chegaralarini kengaytiradi, zamonaviy bozor taraqqiyoti institutlarining rivojlanishi va o‘zaro aloqasiga yordam beradi;



### 5.1-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining afzalliklari

- xalqaro savdoga qo‘yilgan to‘siqlarning kamayishi uning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ko‘payishiga yordam beradi. Dunyodagi hech bir mamlakat rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning strategik vazifalarini hal eta olmaydi, o‘z resurslari bilan davlat



budjeti taqchilligi va tashqi qarzdorlik majburiyatlarini qoplay olmaydi. Investitsiya – har qanday mamlakat iqtisodiyotining o‘shishi va rivojlanishini moliyalashtirish muammolarini hal qilish imkonini beruvchi, kapital, nou-xau va texnologiyalarning kirib kelishiga ko‘mak beruvchi, mamlakatlar iqtisodiyotiga barqarorlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatuvchi moliyaviy vositadir. Ma’lumki, rivojlangan mamlakatlar investitsiya mexanizmidan foydalanish orqali iqtisodiy o‘shishga erishgan. Iqtisodiy rivojlanish dastlab milliy investitsiyalarni jalb etsa, keyin to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mamlakatdan oqib chiqish jarayoni boshlanadi;

- globallashuvning ijobiy natijasi ta’sirida transport va kommunikatsiya xarajatlari qisqaradi va bu, o‘z navbatida, ko‘lam samarasi orqali tejamkorlikka olib keladi, xarajatlar kamayadi va barqaror iqtisodiy o‘shish yuz beradi. Ilg‘or texnologiyalarning tarqalishi, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz yangilanishi va modernizatsiyasi natijasida globallashuv yuqori mehnat unumdorligi, yuqori ish haqi va yuksak turmush darajasiga olib keladi.

## **5.2. Globallashuv oqibatlari**

Iqtisodiy globallashuv, avvalo, tovarlar, kapital va mehnat resurslarining global integratsiyasidir. Bu ikki jarayon kapital, mehnat, tovar va xizmat bozorlari va iqtisodiy shakllar, ya’ni iqtisodiyot tashkiliy tuzilmalarining globallashuvi bilan ifodalanadi.

Davlatlarning o‘shib borayotgan o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligi sharoitida ko‘p funksiyali xalqaro institutlar – Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB) va Jahon savdo tashkiloti (JST) paydo bo‘ldi. XVFning roli a’zo mamlakatlardagi makroiqtisodiy vaziyatga budget va tashqi savdo tanqisligini kamaytirish, inflyatsiyani kamaytirish, pul-kredit siyosatini yaxshilash va tashqi qarz olishni boshqarishga yordam berish orqali ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Jahon banking asosiy vazifalari a’zo mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy masalalari - davlat xarajatlarini optimallashtirish, moliya institutlarining faoliyati, mehnat bozori va savdo siyosatiga oid vaziyatga e’tibor qaratishdan iborat. Jahon savdo tashkiloti esa xalqaro savdo aloqalarini boshqarish yo‘nalishida faoliyat olib boradi.

Jahonda tovar va xizmatlar uchun yagona bozor yuzaga kelib, uning asosiy muassasasi Jahon savdo tashkiloti hisoblanadi. Savdoning rivojlanishi ishlab chiqarishning o‘shishini belgilovchi asosiy omilga aylandi. Agar 70-yillarda xalqaro savdo hajmi jahon yalpi mahsulotining atigi 30 % ni tashkil etgan bo‘lsa, XXI asr boshida u ikki barobarga oshib, 60% ga yetdi.

Iqtisodiy globallashuvning navbatdagi xususiyati – xorijiy investitsiyalarning tobora o‘shib borayotganligidir. Endilikda, avvalgi davrlardan farqli o‘laroq,

hukumatlarning iqtisodiy taraqqiyot va ish o'rinlarini yaratishdagi faolligi boshqa davlatlardan kirib keluvchi sarmoyalarni o'z hududiga qanchalik jalb qila olishi bilan belgilanadi. O'tgan yigirma yil mobaynida xorijiy investitsiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri oqimi yuz baravar ko'paydi. Osiyo mamlakatlari har yili xorijdan 230 milliard dollardan ortiq, Lotin Amerikasi mamlakatlari esa 70 milliard dollardan ortiq sarmoya jalb etmoqda. Investitsiya iqtisodiy rivojlanish, mamlakat raqobatbardoshligi va innovatsion taraqqiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi.

Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi migratsiya oqimlarining o'sishiga yordam beradi. Ommaviy migratsiya, ya'ni bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tuvchi va kamida bir yil davomida o'z vatanidan tashqarida yashayotgan odamlarning harakati globallashuv jarayonining eng ko'zga ko'ringan ko'rinishlaridan biri bo'lish bilan birga bu jarayonni tezlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Odatda, moliyaviy resurslar, tovar va xizmatlar bozorining baynalmilallashuvi davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi yoki sivilizatsiyalararo ziddiyatlarga olib kelmaydi. Mehnat resurslarining harakatchanligi esa, aksincha, migratsiyani import qiluvchi mamlakatlarda jiddiy muammolar keltirib chiqarishi va keskin noroziliklarning ortishiga olib kelishi mumkin. So'nggi yillarda sanoati rivojlangan va boy mamlakatlarda mahalliy aholi orasida immigratsiyaga qarshi kurash kuchayib borayotgani tasodifiy emas.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi aholi nafaqat rivojlangan mamlakatlarga nisbatan olti barobar tez o'sib bormoqda, balki turli yosh tuzilishiga ham ega. Bu mamlakatlarda, odatda, aholining yarmidan ko'pi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil etsa, rivojlangan mamlakatlarida buning aksi kuzatiladi. Masalan, 2050 yilga kelib Yaponiyada 65 va undan oshgan aholining ulushi 17% dan 36% gacha oshishi kutilmoqda<sup>58</sup>.

Shu bilan bir qatorda bugungi kunda rivojlangan davlatlar malakali mutaxassislar uchun kurashmoqda. O'tgan yetti yil ichida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan amerikaliklarning uchdan bir qismi chet elliklardir.

Jahon savdosi va ishlab chiqarishining sezilarli darajada o'sishi, ularning baynalmilallashib borishi, tabiiyki, xalqaro moliya tizimida ham tub o'zgarishlarga, uning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. Har kuni valyuta bozori orqali 1,2 trillion AQSh dollari almashtiriladi. Xalqaro banklararo tizim va hisob-kitob tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi kunlik 6 trillion dollardan ortiqroqni tashkil etadi<sup>59</sup>.

---

<sup>58</sup> World Migrant Stock: The 2005 Revision Population Database (<http://esa.un.org/migration>)

<sup>59</sup> D.Yergin, The Prize. The Epic quest for Oil, Money, and Power. Simon & Schuster, - New York, 1999. p.17

Globalashgan jahon bozorida milliy iqtisodiyotlarning chegaralari o'z-o'zidan yo'qoladi hamda ularning o'zaro munosabatlari va o'zaro bog'liqligi juda kuchli bo'ladi. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'tishi – **“Domino effekti”** tahdidi deyarli muqarrar bo'lib qoladi.

Davlatlar va mintaqalarning o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi davlatlararo, birinchi navbatda, mintaqaviy iqtisodiy tuzilmalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Mintaqaviy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuviga yordam beruvchi omillardan biri transmilliy korporatsiyalarning o'z faoliyatini mintaqaviy darajada real integratsiyaga intilishidir.

**Real integratsiya** – bu milliy iqtisodiyotlarning birikib ketishi bo'lib, bunda sherik mamlakatlarning takror ishlab chiqarish jarayonlari milliy chegaralardan tashqariga chiqadi va birlashma tarkibidagi boshqa mamlakatlarning o'xshash jarayonlari bilan qo'shib ketadi, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar esa har bir a'zo mamlakat milliy xo'jaligining uyg'unlashgan tarkibiy qismiga aylanadi.

Integratsiyalashuv jarayonlari to'rtinchi texnologik uklad shakllangan yoki shakllanayotgan mintaqalarda chuqurlashadi va kengayadi. Bunga Yevropa Ittifoqi misol bo'la oladi. Uning markaziy qismida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining erkin harakatlanishi yo'lida deyarli barcha to'siqlar olib tashlangan. Bu yerda milliy davlatlarni saqlab qolgan holda o'z mohiyatiga ko'ra yagona iqtisodiy makon shakllangan bo'lib, unda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun bir xil ichki va tashqi harakat qoidalari va hatto yagona valyuta – yevro joriy etilgan. Tarixda bunday mustaqil va ancha farovon mamlakatlarning ixtiyoriy ravishda, hech qanday zo'rlashlarsiz va bosimlarsiz o'z moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqaruv resurslarini birlashtirish holati kuzatilmaydi. Yevropa Ittifoqi hozirgi kunda yagona, ancha ilgari ketgan integratsion blok hisoblanadi. Rivojlanayotgan mintaqalarda siyosatchilarning hech qanday urinishlari ushbu jarayonlarni kuchaytirishga va rag'batlantirishga qodir emas.

Gap shundaki, bunday mintaqalar mamlakatlari bir-biriga ancha cheklangan turdagi tovarlarni, asosan, qishloq xo'jaligi yoki yoqilg'i-xomashyo mahsulotlarini taklif etishlari mumkin. Bundan tashqari ular texnologik jihatdan qoloqligi tufayli mana shu tovarlarni ham katta mehnat xarajatlari bilan ishlab chiqaradilar. Mehnat haqi xarajatlari pirovard mahsulot qiymatining katta qismini tashkil qiladi. Bunday mamlakatlarning barchasida mehnat bir xil arzon bo'lib, ish haqi darajasidagi farqlarning yo'qligi bir xil tovarlarning narx raqobatbardoshligidan foydalanish imkonini bermaydi. Demak, mazkur mintaqalarda Rikardoning bitta tovar guruhida davlatlararo ayirboshlashning foydaliligini aniqlab beruvchi nisbiy ustunlik yuqori emas. Bu ustunliklar rivojlangan mamlakatlar bilan savdodagina ko'zga tashlanadi, chunki u yerda mehnat ancha qimmat turadi. Shu sababli chekka makromintaqalarning asosiy eksport oqimlari rivojlangan mamlakatlarga

yo'naltiriladi. Bunday mintaqalar o'rtasida investitsiyalar va yuqori texnologiyali xizmatlarni ayirboshlash imkoniyatlari esa ancha past.

Shu sababli jahon iqtisodiy makonida milliy xo'jaliklarning yuqori o'zaro bog'lanishi mavjud bo'lgan mintaqalar bilan birga bunday bog'lanishlar past va zaif bo'lgan mintaqalar mavjud. O'zaro bog'liqlikni aniqlashning eng oddiy usuli – bu YuNKTADning yillik statistik to'plamlarida an'anaviy beriladigan mazkur birlashmaning a'zo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdoning mamlakat jahon umumiy savdosidagi ulushi hisoblanadi. Lekin bu ko'rsatkich milliy xo'jaliklarning o'zaro birlashish darajasini taxminan ko'rsatadi. Uni aniqroq qilib, mamlakatning o'z iqtisodiy sheriklariga nisbatan iqtisodiy ochiqlik darajasi yordamida ko'rib chiqish mumkin. Bu ochiqlik ikki jihatga: savdo-siyosiy va takror ishlab chiqarish jihatlariga ega.

**Savdo-siyosiy ochiqlik** davlat makroiqtisodiy siyosatining tashqi savdo, fiskal, valyuta va boshqa yo'nalishlari bilan aniqlanadi. U mamlakatlarda aloqalarni davlat chegarasining ikki tomonidagi rezidentlar va norezidentlarning o'zaro iqtisodiy harakatlarini murakkablashtiruvchi sun'iy (hukumat joriy etgan) to'siqlardan ozod qilish darajasi bilan o'lchanadi. Bu ma'noda mamlakatning eng ma'qul ochiqligi – mamlakat ichida rezidentlar uchun berilgan bunday to'siqlardan holi erkinlikdir. U yoki bu mamlakatning savdo-siyosiy ochiqligini aniqlash ancha murakkab, chunki rasmiy import to'siqlari (tarif stavkalari) turli notarif to'siqlar, dempingga qarshi choralar bilan almashtiriladi yoki kuchaytiriladi. Bundan tashqari, pasaytirilgan milliy valyuta kursining proteksionistik samarasini ham hisobga olish kerak.

**Takror ishlab chiqarish ochiqligi** bu – milliy iqtisodiyotning jahon xo'jalik aloqalari tizimiga jalb etilganlik darajasi. U mamlakat eksporti va importi hajmining uning YaIM hajmiga nisbati bilan o'lchanadi. Eksport va import – bu istalgan mamlakat milliy iqtisodiyotini tashqi muhit bilan bog'lab turuvchi ikkita juda muhim kanaldir, uning takror ishlab chiqarish siklining ikki tarkibiy qismidir. Milliy mahsulotni yaratish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayoni yaxshi amal qilishi uchun ular tashqi savdo aylanmasi orqali amalga oshirilishi kerak.

Ayrim G'arb tadqiqotchilari bu jihatni sun'iy ko'rinishga ega savdo-siyosiy ochiqlikdan farqli o'laroq, tabiiy ochiqlik deb ham ataydilar. Biroq takror ishlab chiqarish ochiqligi mustaqil, savdo-siyosiy ochiqlikka qarshi turuvchi omil sifatida qaralmaydi, chunki uning import kabi tarkibiy qismi ko'p jihatdan proteksionizm darajasiga, eksport qismi esa tashqi bozorlarda milliy kompaniyalarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish usullariga bog'liqdir. Shunday qilib, takror ishlab chiqarish ochiqligi ma'lum ma'noda savdo siyosati bilan tuzatiladi. Lekin umuman olganda, u biror milliy xo'jalikning holatini aks ettiruvchi ob'ektiv sharoitlar bilan aniqlanadi. Shuning uchun ikki yoki bir nechta mamlakatlarning integratsiyalashuv

darajasini baholashda ularning o'zaro savdo rejimlarini liberallashtirish emas, balki aynan takror ishlab chiqarish ochiqligi muhim sanaladi.

Takror ishlab chiqarish ochiqlik darajasi mamlakatning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning ichki bozorining hajmi va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Bu omillarning birinchisi yuqorida ko'rib o'tildi. Lekin bir xil texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi takror ishlab chiqarish ochiqligi mamlakat ichki bozorining hajmiga bog'liq. U qanchalik katta bo'lsa, bu yerda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning qanchalik ko'p qismi mamlakat ichida iste'mol qilinsa, tashqi sotish bozorlariga ehtiyoji va iste'mol va investitsion tovarlar va xizmatlar importiga qaramlik shunchalik kichik bo'ladi. Taxminan bir xil rivojlangan yetti mamlakatdan eng yirigi bo'lgan AQShning iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar eksporti va importiga kamroq bog'liq, Amerikaga qaraganda 62 marta kichik ichki bozorga ega Irlandiyada esa import bo'yicha takror ishlab chiqarish ochiqligi deyarli 70 %, eksport bo'yicha – 80 % ga teng. Juda kichik ichki bozorga ega Lyuksemburgda esa bu ikkala ko'rsatkich 100 % dan ancha ortib ketadi. Ko'rinadiki, bu qonuniyat rivojlanayotgan mamlakatlarda ham amal qiladi.

Nihoyat, takror ishlab chiqarish ochiqligi mamlakatning tabiiy resurslar – energiya resurslari, sanoat uchun xomashyo va aholi uchun oziq-ovqat bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. Bu jihatdan kamroq ta'minlangan mamlakat o'z ehtiyojlarini import hisobiga qondirishga majbur, bu esa savdo balansini muvozanatlashtirish uchun eksportni ko'paytirishni talab qiladi. Lekin, ayni vaqtda, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik, odatda, dastlabki sanoatlashtirish bosqichlaridan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni shakllantirishga o'tishni susaytiradi va shu orqali mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalariga tortilishini orqaga suradi.

Shunday qilib, mamlakat qanchalik yuqori texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, yalpi mahsulotning kichik hajmiga ega bo'lib, tabiiy resurslar bilan kam ta'minlangan bo'lsa, uning takror ishlab chiqarishdagi ochiqlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Biror integratsion guruhi a'zo mamlakatlarining o'zaro takror ishlab chiqarish ochiqligining kattaligi ularning iqtisodiyotlari qanchalik bir-biriga singib ketganligini ko'rsatadi. Turli savdo-iqtisodiy bloklar doirasida bunday singib ketish darajasini taqqoslash uchun ularning har birida uning o'rtacha darajasini bilish zarur. Biroq uning o'rtacha darajasini topish asosida ikkita qiyinchilikka ega. Ulardan birinchisi shundaki, yirik, o'rta va mayda mamlakatlarning bir-biriga nisbatan turli darajada ochiqlikka ega.

Zamonaviy globallashtayotgan dunyoda barcha mamlakatlar tez yoki sust darajada yanada yuqori texnologik ukladlar tomon, va demak, yanada murakkablashgan tarmoq ichki savdosi tuzilmasi, ishlab chiqarish jarayoni

taqsimoti va ishlab chiqarish kooperatsiyasining turli-tuman shakllari tomon rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, bu jarayonlarning barchasi milliy iqtisodiyotlar doirasi bilan cheklanmaydi va chegaralardan tashqariga chiqib ketadi. YuNKTAD mutaxassislari ta'kidlashicha, ishlab chiqarish ko'lami, unumdorlik va texnologik nou-xaularning ma'lum darajasidan o'tib ketgan firmalar tobora faolroq chet elda savdo qilishga intiladi. Eksport sotish bozorlarini kengaytiradi va ishlab chiqarish ko'lami miqyosidan iqtisod qilishdan to'laroq foydalanish imkonini beradi, shu bilan birga, firmalarni yangi mahsulotlar va jarayonlar, shuningdek, yangi raqobat xatarlari bilan sinaydi. Bunda o'xshash iqtisodiy tuzilmaga va texnologik salohiyatga ega mamlakatlar o'rtasidagi bu jarayon ma'lum rivojlanish darajasiga yetgandan so'ng tezlasha boshlaydi.

Natijada milliy iqtisodiyotlarning takror ishlab chiqarish ochiqligi tezroq o'sadi. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining ochiqligi 80-yillarning o'rtalaridan, aniqrog'i, energetik inqirozni boshdan kechirgandan so'ng, boshlab ortmoqda.

Bu an'ana, ayniqsa, oxirgi o'n yillikning boshlariga kelib yanada kuchaydi. Bu o'rinda gap mintaqaviy integratsiya ishtirokchilari blokining ichki ochiqligi to'g'risida emas, balki milliy iqtisodiyotlarning umuman barcha tashqi sheriklarga nisbatan ochiqligi to'g'risida bormoqda. Bloklarning ichki ochiqligi umumiy iqtisodiyotning tabiiyki, bir qismi sanalib, ancha kichik bo'ladi.

Shunga qaramay, bloklardagi ochiqlikning o'sib borishi asosida mintaqaviylashuv jarayonlariga tobora ko'proq mamlakatlarni jalb qilish uchun sharoitlar yetiladi. Ularning o'ziga teng yoki yuqori texnologik ukkladga erishgan boshqa mamlakatlar bilan o'zaro harakat qilish qobiliyati asta-sekin ortib boradi.

Bunday jalb qilish asosan uch shaklda:

- 1) mavjud ko'p tomonlama bloklarga yangi mamlakatlarning qo'shilishi;
- 2) bunday bloklar bilan imtiyozli savdo munosabatlarini o'rnatish (erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqlari shaklida);
- 3) ikki tomonlama ittifoqlarni tashkil qilish ko'rinishida amalga oshadi.

Shunday qilib, mintaqaviy integratsion jarayonlar katta yoki kichikroq bloklar doirasida amalga oshadigan dastlabki bosqich o'z o'rnini eski yoki yangi sanoatlashgan mamlakatlardan iborat mustahkam o'zakka va o'rtacha rivojlangan mamlakatlardan iborat chekka qismlarga ega yangi savdo-iqtisodiy tuzilmalarning shakllanishiga bo'shatib beradi. Bunday tuzilmalar doirasida yirik bozor hududi, yuqori innovatsion salohiyat va qo'shni mamlakatlarga ham kiritishga tayyor ortiqcha kapitalni jamlagan kuchli o'zakka ega bloklar tomonidan tabiiy jalb qiluvchi kuchlar sifatida harakat qiladi. Ularning o'z mintaqaviy blokiga qo'shilishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida hamda blokka qo'shilgandan so'ng kuchli raqobat sharoitlariga moslashishlarni tezlashtirish maqsadida katta

moliyaviy va texnik yordam ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi o'n yillar mobaynida Sharqiy Yevropaning shunday maqomdagi nomzod mamlakatlariga yirik miqdorda yordam ko'rsatgan<sup>60</sup>.

Zamonaviy bosqichning yana bir muhim an'ana bu- ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy bloklardan voz kechib, ko'proq ikki tomonlama kelishuvlar asosida ishlash tomon yo'nalishdir, ular sheriklarga ko'proq harakatlanish erkinligini, alohida qiziqish uyg'otuvchi tovarlar va xizmatlar turlari bo'yicha imtiyozlar to'g'risida kelishib olish va kelishuvlar mazmunining o'zini diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Shu bilan birga ikki tomonlama alyanslar nafaqat qo'shni mamlakatlar o'rtasida, balki bir-biridan uzoqda joylashgan mamlakatlar o'rtasida ko'proq yuz beradi. Masalan, AQSh Avstraliya, Isroil, Singapur, Iordaniya, BAA va Ummon bilan, Hindiston Chili va Mavrikiya bilan, Singapur Iordaniya, Peru, Chili bilan, Yaponiya Meksika bilan shunday kelishuvlarga ega<sup>61</sup>.

Shunday qilib, jahon iqtisodiy makoni ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy kelishuvlar tarmog'i orqali tobora keng qamrab olinmoqda. Bu shuni anglatadiki, JST boshchiligida liberallashtirilayotgan xalqaro savdo bilan birga tobora kengroq mintaqaviy bozor makonlari paydo bo'lmoqda, ular proteksionistik to'siqlardan nisbatan holi bo'lganligi sababli ham milliy iqtisodiyotlarning bloklarga qo'shilishi uchun yanada qulay imkoniyat yaratadi.

Yaqin kelajakda bloklararo bunday kelishuvlarning yanada ko'payishi kutilmoqda. Bu jarayonlarning har ikkalasi hozirgi kunda tez shakllanayotgan mintaqaviy va mintaqalararo savdo-iqtisodiy bloklar tarmog'i vaqt o'tishi bilan butunjahon erkin savdo zonasiga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi. JSTning barcha yoki deyarli barcha a'zolarini qamrab oluvchi bunday global tizim ko'p jihatdan jahon hukumatlararo tashkilotlar o'rnini egallashi, to'liq egallamagan taqdirda hech bo'lmaganda, uning xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam beruvchi mexanizmi rolini kamaytirib bemalol uning o'rnini bosishi mumkin.

Shu bilan birga uning rivoji iqtisodiy globallashuv va mintaqaviylashuv o'rtasidagi mavhum ziddiyatga barham beradi. Bu ularning nafaqat hududiy mos kelishi tufayli, balki xo'jalik hayoti baynalmilallashuvini rivojlantirish va barqarorlashtirishdagi maqsadlar mushtarakligi tufayli ro'y beradi. To'rtinchi, keyin esa beshinchi texnologik ukladning butun dunyo bo'yicha tarqalishi bilan milliy iqtisodiyotlarning ham global doirada, ham makro va mikromintaqalar darajasida o'zaro bog'liqligi kuchayib boradi. Nihoyat, ularni ulkan integratsion aralashmaga aylantiradiki, bu yerda davlat chegaralarining ahamiyati kamayadi, ular hatto yo'q bo'lib ketishi ham mumkin.

<sup>60</sup> Европейский союз: факты и комментарии. М., Институт Европы РАН. Декабрь 2002 – февраль 2003. С. 23.

<sup>61</sup> Fiorentino R., Verdeja L., and Toqueboeuf Ch. The Changing Landscape of Regional Trade Agreements. 2006.

Albatta, bu faqat taxmin, xolos. Xo‘jalik hayoti baynalmilallashuvining amalda rivojlanishi kutilmagan qiyinchiliklarga duch kelishi va o‘z yo‘nalishini o‘zgartirishi ham mumkin. Lekin dunyo hamjamiyati odida milliy iqtisodiyotlar o‘zaro bog‘liqligining kuchayishidan boshqa yo‘l yo‘q. Milliy xo‘jaliklar va ularni himoyalovchi mustaqil davlatlar davri asta-sekin, lekin izchil ravishda o‘tmishga aylanmoqda.

### **5.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi tufayli vujudga keladigan xavf-xatarlar**

Globallashuv jarayoni jamiyatning har bir sohasiga bevosita va bilvosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Globallashuv ziddiyatli jarayon bo‘lib, u ko‘plab ijobiy jihatlarga ega bo‘lish bilan birga o‘zida turli tahdidlar, xatarlar va risklarni yashiradi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlari ishtirok etayotgan globallashuv jarayonining yigirma birinchi asrda qanday xatarlar olib kelishi mumkinligini tahlil qilish, ayniqsa, dolzarbdir.

Globallashuv jarayonining asosiy sharti jahon mamlakatlari bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ko‘plab jarayonlarni soddalashtirish uchun umumiy hamjamiyatiga birlashishga moyil bildirishida o‘z aksini topadi. Darhaqiqat, bir jihatdan olganda, globallashuv turli ishtirokchilarning jahon bozoriga chiqishini osonlashtiradi<sup>62</sup>.

Globallashuv tufayli jahon moliya bozori ishtirokchilariga moliyaviy axborot hajmi ortib bormoqda, resurslar ko‘lami kengaymoqda - xorijiy resurslarga kirish, texnologik va boshqaruv tajribasi osonlashmoqda. Jahon bozorida hukumat va moliya institutlarining shaffofligini ta’minlash, xalqaro moliya institutlarining mavqeini mustahkamlash va rivojlanayotgan bozor mamlakatlarning jahon bozorini rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirish bo‘yicha keng qamrovli axborot standartlari amalga oshirilmoqda<sup>63</sup>.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining qabul qilinishi va baholanishi bir-biridan farq qiladi. Ya’ni globallashuv turli iqtisodiy tizimlar yoki hududlarda o‘ziga xos tarzda talqin etiladi. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, birinchi navbatda, rivojlangan mamlakatlarda yuz beradi. Keyinchalik rivojlanayotgan mamlakatlarni qamrab oladi<sup>64</sup>.

---

<sup>62</sup> Филатова, А. С. Анализ основных рисков глобализации / А. С. Филатова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 8.2 (67.2). — С. 57-59.

<sup>63</sup> Громыко, Ан.А. Глобализация и глобальное управление: возможности и риски / Ан. А. Громыко // Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 25 Международные отношения и мировая политика. — 2013. - №3. — с.3 – 25.

<sup>64</sup> Постиндустриальный мир и процессы глобализации // Мировая экономика и международные отношения. — 2000. — № 3. — С. 91. Постиндустриальный мир и процессы глобализации // Мировая экономика и международные отношения. — 2000. — № 3. — С. 91.



Globalashuv orqali erishiladigan manfaatlarining adolatsiz taqsimlanishi mintaqaviy, milliy va xalqaro darajadagi mojarolar xavfini tug‘diradi. Bugungi sharoitda boshqa turdagi manfaatlar bilan bir qatorda olinadigan daromadlar ham qutblashmoqda, ya’ni jadal rivojlanayotgan mamlakatlar boy mamlakatlar doirasiga kirib bormoqda va globalashuvdan o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalanib, o‘z mavqegini mustahkamlashga harakat qilmoqda, kambag‘al mamlakatlar esa ulardan tobora orqada qolmoqda<sup>65</sup>.

Globalashuv afzalliklarining notekis taqsimlanishi va ba’zi mamlakatlardagi salbiy oqibatlarining jahon iqtisodiyotidagi o‘rniga bog‘liq. Shu asosda xo‘jalik faoliyati baynalmilallashuvining hozirgi rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan xavf-xatarlarning mamlakatlarga tegishliligi nuqtai nazaridan uch guruhga ajratish mumkin:

- 1) barcha mamlakatlar uchun xavf-xatarlar;
- 2) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xavf-xatarlar;
- 3) rivojlangan mamlakatlar uchun xavf-xatarlar.

Jahon iqtisodiyoti globalashuvi oqibatida yuzaga keluvchi asosiy xavf-xatarlar quyidagidan iborat (5.2-rasm):


Ularni batafsil tavsiflab o‘tadigan bo‘lsak, avvalo globalashuv afzalliklarining turli mamlakatlar o‘rtasida notekis taqsimlanishi xavf-xatarlarning eng birinchi navbatda yuz beruvchi turiga kiradi. Globalashuv tamoyillariga ko‘ra globalashuv afzalliklari, ya’ni yetakchi hisoblangan mamlakatlar hamda taraqqiyoti yetakchi mamlakatlarga bog‘liq bo‘lgan mamlakatlarda notekis taqsimlanadi. Masalan, xalqaro raqobatni keskinlashtirish orqali xaridorlar uchun tovar va xizmatlarning iste‘mol xususiyatlari va xarid qilish sharoitlari, transport va kommunikatsiya xarajatlari qisqarishi, ko‘lam (miqyos) samarasi ortishi va tannarxning pasayishi, innovatsiyalarning uzluksiz qo‘llanilish imkoniyati, fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallashuvi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlarning ortishi kabilar globalashuvning afzalliklari sifatida vujudga keladi. Ammo ulardan foydalanish darajasi dunyo bo‘yicha teng taqsimlangan emas; yetakchi mamlakatlarda rivojlanayotgan yoki periferiya hududlarida joylashgan mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Bunda tom ma’noda adolatsizlik kuzatilib, ushbu afzalliklardan foydalanish darajasi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar va uchinchi dunyo mamlakatlari hisoblanuvchi xudud imkoniyati o‘zaro keskin farq qiladi.

Xavf-xatarlarning ikkinchi ko‘rinishi jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari qayta ishlash sanoatida bandlikning kamayishi va iqtisodiyotda deindustrialashish xavfining vujudga kelishi bilan bog‘liq. Ushbu xatar guruhida umumlashgan

---

<sup>65</sup> Мартин, Г.П. Западная глобализация: атака на процветание и демократию: пер. с нем. / Г.П.Мартин, Х.Шуман. – М.: Издательский дом «АЛЬПИНА», 2001. – С. 52–53.

xatarlar globallashuvning chuqurlashishi, TMKlarning rivojlangan mamlakatlardan sanoat, qayta ishlash, qishloq xo'jaligi, qazib olish tarmoqlari faoliyatini resurs nuqtai nazaridan qulay mamlakatlar hududiga olib chiqib ketilishi oqibatida xizmatlar sohasining keng rivojlanish tendensiyasi bilan izohlanadi. Natijada bu mamlakatlarda deindustriyalar jarayoni yuzaga kelishi hamda ishchi kuchi migratsiyasida beqarorlik vujudga kelishi kuzatiladi.



### 5.2-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi oqibatida yuzaga keluvchi xavf-xatarlar

Globallashuv tufayli dunyoning turli mamlakatlarida malakali va malakasiz ishchilarning ish haqi darajasidagi farqning oshishi va ishsizlikning o'sishi.

Globalashuv tufayli yuz beradigan jiddiy xavf-xatarlardan yana biri dunyoning turli mamlakatlarida malakali va malakasiz ishchilar oladigan ish haqi miqdoridagi farqning oshishi va ishsizlikning kuchayishi muammosidir. Bu xatarini turli mamlakatlar tomonidan globalashuvning afzalliklaridan foydalanish darajasi hamda mamlakatlarning global tizimdagi maqomidan kelib chiqqan holda izohlash mumkin. Chunki global tizimda yetakchi bo'lgan mamlakatlardagi ish haqi va daromadlar darajasi tizimdagi "qaram" mamlakatlardan keskin farqlanadi. Shu bilan birga mehnat resurslarining malaka darajasi bo'yicha bu mamlakatlardagi holatida ham yuqoridagi mutanosiblikni ko'rish mumkin, ya'ni yetakchi mamlakatlarda yuqori ish haqi va daromad oluvchi malakaga ega bo'lgan mehnat resurslarining va "qaram" mamlakatlarda esa past malakali mehnat resurslarining konsentratsiyasi kuzatiladi.

Keyingi navbatda ish haqi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarish quvvatining ish haqi past bo'lgan mamlakatlarga o'tkazilishi ham globalashuvning ayrim jahon mamlakatlari taraqqiyotiga xavf soluvchi xatarlardan hisoblanadi. Nisbiy ustunliklar nazariyasi asosida ishlab chiqarish quvvatlarining resurs qiymati va xarajatlari nisbatan past mamlakatlarga ko'chirilishi ushbu ishlab chiqarishdan asosiy manfaatdor bo'lgan mamlakatga tannarxning kamayishi ko'rinishida samara keltirsa, ishlab chiqarish ko'chirilgan mamlakatlar uchun yangi daromad manbai sifatidagi samara bilan birga atrof-muhitning ifloslanishi, daromadlarning juda sekin ortib borishi, nisbatan eskirgan texnologiyalarning kirib kelishi kabi xatarlarni keltirib chiqaradi.

Ko'rilayotgan xavf-xatarining kelib chiqishi globalashuv tartiblariga ko'ra mehnat resurslari migratsiyasiga nisbatan to'siqlarning butunlay olib tashlanishi natijasida jahon miqyosida ishchi kuchi mobililigining ortishida ham ko'rinadi. Ushbu chegaralarning olib tashlanishi siyosiy jihatdan nobarqaror bo'lgan mintaqalar bilan birga ishchi kuchi migratsiyasining ish haqi va daromadlar darajasi past bo'lgan mintaqalardan rivojlangan mintaqalarga yuqori darajaga ortishiga olib keladi. Natijada, birinchi ko'rsatib o'tilgan mintaqalardagi rivojlanish darajasi yanada pasayadi va global darajadagi nomutanosibliklar yanada chuqurlashadi. Shu bilan birga, ikkinchi mintaqalardagi malakali ishchi kuchi mobililigi ham ortib, mintaqalardagi mehnat bozorida nomutanosibliklar kelib chiqishi mumkin.

Yana bir tahdid ommaviy urbanizatsiya bilan bog'liq ravishda global demografik, texnologik va tarkibiy o'zgarishlarning xalqaro keskinlik va ixtiloflar vujudga kelishiga olib kelishidir. So'nggi yillarda jahon miqyosida urbanizatsiya (shaharlashuv) darajasining kuchayishi nafaqat global, balki milliy darajada ham demografik muammolarning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Yirik shaharlar (megapolislar – alfa, beta va gamma shaharlar)ning paydo bo'lishi va rivojlanishi

oqibatida ushbu shaharlar doirasida demografik, texnologik va tarkibiy o'zgarishlarning va, buning natijasida, ushbu hududlarning milliy davlat tarkibidagi mustaqilligining kuchayishi kelgusida xalqaro keskinlik va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Bugungi kunda dunyoning moliyaviy markazlari sifatida shakllangan hududlarda aytib o'tilgan ixtilof va ziddiyatlarning dastlabki ko'rinishlari yuzaga kela boshladi.

Globalashuvning jahon ekologik tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va istiqbolda mamlakatlar o'rtasidagi mojaralar manbaiga aylanishi, esa uning eng katta tahdidlaridan sanaladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi xatarlar bilan bir qatorda atrof-muhitga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuzaga kelgan ekologik muammolar (o'rmonlarning tugab borishi, transchegaraviy suv manbalarining ifloslanishi, alohida mintaqalarning cho'llashuvi, atmosferaning global ifloslanishi va boshqalar) milliy va mntaqaviy chegaralardan o'tib, transchegaraviy muammolar ko'rinishini oladi. Ekologik muammolarning kengayishi xudud jihatdag bir-biriga yaqin bo'lgan, chegaradosh mamlakatlar o'rtasidagi mojarolarga sabab bo'ladi va natijada muammolar ekologik nuqtai nazardan siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan jahon iqtisodiyoti globalashuvi oqibatida yuzaga keluvchi xavf-xatarlarni alohida mamlakat yoki mintaqa, shu bilan birga aniq yo'nalishdagi muammolar sifatida talqin etish ma'lum darajada noto'g'ridir. Chunki ushbu muammolar vaqt o'tishi bilan birga hudud va yo'nalishlarni qamrab olgan holda jahon darajasiga ko'tariladi. Shuni hisobga olgan holda, globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni to'g'ri baholash, ularning ko'lamini aniq belgilab olish jahon tizimining rivojlanishida muhim hisoblanadi.

Globalashuvning eng jiddiy xatarlari, birinchi navbatda, kam rivojlangan mamlakatlarga ta'sir etadi. Ushbu mamlakatlarning asosiy qismi baynalmilallashuv jarayonida xomashyo yetkazib beruvchi va mehnatga layoqatli mahsulot ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadilar. Shuni ta'kidlash zururki, ularning rivojlanish istiqboli ko'p jihatdan ilg'or bo'lgan mamlakatlarga bog'liq bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun globalashuv quyidagi xatarlarni yuzaga keltiradi:

- rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslanganda texnologik tafovutning kattaligi;
- ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning o'sib borishi, marjinallashuv;
- aholi asosiy qismining qashshoqlashuvi;
- istiqbol rejalarining jahon iqtisodiy tizimi barqarorligi va samarali faoliyatiga bog'liqligining ortishi;

- TMKlar tomonidan alohida mamlakatlarda milliy yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish imkoniyatining cheklanishi;

- xalqaro moliyaviy tashkilotlardan tashqi qarzdorlikning o‘shishi.

Globalashuvdan eng katta samarani sanoati rivojlangan mamlakatlar oladi, ular jarayonda ishlab chiqarishni yuqori texnologiyali mahsulotlarga yo‘naltirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradilar. Shu bilan birga mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan va texnologik jihatdan atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishni rivojlanayotgan mamlakatlar hududiga ko‘chiradilar, biroq ular ham globalashuvdan ma‘lum darajada aziyat chekishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda globalashuv jarayoni ta‘sirida yuzaga keluvchi muammolar:

1) ishsizlik darajasining ortishi;

Bunga asosan sanoatda ish o‘rinlarini qisqartiradigan yangi texnologiyalarning joriy etilishi, mehnattalab mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarishning rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘chirilishi hamda ishchi kuchi xarakatchanligining maksimal darajada ortishi kabi omillar sabab bo‘ladi.

2) TMKlar o‘z manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘yishi. Bunda milliy davlatlarning roli zaiflashadi va ba‘zi boshqaruv funksiyalari xalqaro tashkilotlar va uyushmalar ixtiyoriga o‘tadi<sup>66</sup>. Bu esa o‘zaro bog‘liv ravishda aholi xavfsizligi va imtiyozlarni cheklaydi.

Eksport bilan bog‘liq tashqi savdodan katta foyda oluvchi tarmoqlar kapital va malakali ishchilarning boshqa qator tarmoqlarga nisbatan ko‘proq qismini tortib oladilar. Ular bozorning ochiqlik darajasi oshganligi sababli raqobat ustunligini yo‘qotadilar va o‘zgargan sharoitlarga moslashish uchun kapital qo‘yilmalari va ish o‘rinlarini yo‘qotish hisobiga o‘z foydasiga qo‘shimcha sa‘y-xarakatlarni amalga oshirishlari kerak. Natijada, ijtimoiy xarajatlar yuqori bo‘lgan sharoitda ishchi kuchi qayta taqsimlanadi.

Globalashuvning salbiy jihatlari, ko‘p hollarda yuzaga keluvchi ijtimoiy-siyosiy mojarolar bilan bog‘lanadi. Ammo bu salbiy jihatlar siyosiy bitimlar asosida global hamkorlikni rivojlantirish yoki yangi xalqaro institutlarni yaratish orqali yumshatilishi mumkin<sup>67</sup>.

Mamlakatlar yangi sharoitlarga moslashish va jahon iqtisodiyotining baynalmilallashuvi orqali yuzaga keluvchi imkoniyatlardan foydalanish uchun globalashuvga munosib javob berishlari kerak.

---

<sup>66</sup> Ивановский, З.В. Высшее образование в условиях глобализации / З.В. Ивановский // Знание. Понимание. Умение. – 2006. – № 1. – С. 109–111.

<sup>67</sup> Постиндустриальный мир и процессы глобализации // Мировая экономика и международные отношения. – 2000. – № 3. – С. 91.

Xalqaro hamjamiyatda xalqaro iqtisodiyot amal qilishini yagona tizimga birlashtirish, rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish, yagona bozor makonini yaratish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu tendensiya rivojlanishning boshqa yoʻnalishi dunyoni mintaqalashtirish, xalqaro iqtisodiyotdagi alohida mamlakatlar va mamlakatlar guruhlarining oʻrni va ahamiyatini qayta taqsimlashda yuzaga keladigan uning koʻp tomonlama qarama - qarshiligi bilan toʻldiriladi<sup>68</sup>.

Ekologik muammolar globallashuv jarayonining oʻziga xos muammolaridan biri hisoblanadi. Inson va tabiat oʻrtasida halokatli holatda qolgan ekologik inqiroz ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari hamda bioqobiqning resurs-biologik imkoniyatlari rivojlanishining bir-biriga muvofiq kelmasligi bilan tavsiflanadi. Uning alohida xususiyatlari insonning tabiatga taʼsiri kuchayishi va inson tomonidan jamiyatni rivojlantirish uchun tabiatni oʻzgartirishga qaratilgan harakatning meyordan ortib ketishida aks etadi.

Ekologik muammo atrof-muhit holatining yomonlashuvi, uni chiqindilar bilan ifloslantirish hamda bu bilan yer kurrasida boshqa jonzotlar qatori insoniyatning oʻziga ham tahdid solishida aks etadi. Atrof-muhit va rivojlanish boʻyicha tuzilgan maxsus xalqaro komissiya atrof-muhit sifatini va umumiy ekologik vaziyatni yaxshilash dasturini ishlab chiqdi. Bu komissiya va boshqa xalqaro tashkilotlar ekologik muammolarni hal qilish yoʻnalishida halqaro hujjatlar ishlab chiqmoqda, ular harbiy xarajatlar va konversiyani qisqartirish natijasida boʻshagan vositalarni ekologik budjetga yoʻnaltirish zaruratiga asoslanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bugungi kunda oʻz yalpi milliy mahsulotining oʻrtacha 1,7 % ini ekologik ehtiyojlar uchun sarflamoqdalar. Lekin bu miqdor juda kam, chunki tabiiy muhitga yetkazilayotgan zarar kattaligi yiliga taxminan yalpi milliy mahsulotning 6 % ini tashkil qilmoqda. 2010 yilga kelib, tabiatni muhofaza qilish tadbirlari xarajatlari 550 mlrd. dollargacha oʻsdi, bu 1970 yildagi xarajatlar darajasidan 10 marta koʻpdir.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda hududiy hamkorlikning ahamiyatini ham alohida taʼkidlash lozim. Xususan, Yevropa Ittifoqi hujjatlarida atrof-muhitni muhofaza qilishning hududiy strategiyalarini rivojlantirish va Yevropa hududidagi (Yevropa ekologik jihatdan eng inqirozli mintaqa hisoblanadi) tabiiy resurslardan uzoq kelajakda ham oqilona foydalanish zarurati bir necha bor taʼkidlangan. Yevropa Ittifoqida soliqqa tortish tizimi ham tabiiy muhitni saqlashni ragʻbatlantirishga asoslanadi.

Global xatarlar ichida demografik xatarlar ham alohida ahamiyatga ega. Aholi boʻyicha BMT fondi soʻnggi yillarda butun dunyoda aholi soni oʻsishini cheklashni taklif qilgan holda, Vatikan va islom fundamentalistlari pozitsiyalariga

---

<sup>68</sup> Johanson J. The Mechanism of Internationalization. – N.Y., 2000.

qaramay, sayyoraning demografik rivojlanishi bo'yicha rejani ishlab chiqdi. Demografik muhit, uning dinamikasi va muammolari xorijiy kompaniyalar uchun alohida qiziqishlarni o'zida mujassamlashtiradi, chunki bu ma'lumotlar bozorlarni tashkil qiladigan iste'molchilar haqidagi kerakli axborotlarni beradi. Shuning uchun ham turli mintaqalardagi aholi miqdori, uning o'sish tendensiyalari, yosh tuzilmasining o'sishi va boshqa demografik xarakteristikalar salohiyatli talabni o'rganish uchun asos bo'la oladi.

Global muammolarni alohida mamlakatlar yoki alohida kompaniyalar darajasida hal qilib bo'lmaydi. Ularni hal qilish, boshqarish, va xalqaro huquqiy va iqtisodiy me'yorlarini aniqlash uchun yagona xalqaro mexanizm zarur. Global muammolarni hal qilish, xalqaro kuchlarni muvofiqlashtirishda, resurslardan foydalanish hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda BMT, XVF, JST hududiy va tarmoq tashkilotlari muhim o'rin tutadi.

Yuqorida ta'kidlangan global xatarlarning muhimligi va jiddiyligi tufayli xorijiy kompaniyalarning iqtisodiy siyosati ham o'zgarib boradi. Ularning faoliyatiga demografik omillar, iste'molchilar miqdorining o'zgarishi, ularning ijtimoiy holati, kishilar holatiga ta'sir ko'rsatuvchi urush xavfi, hayotga atrof-muhitni himoya qilish bilan bog'liq siyosatning yangi yo'nalishlarini kiritadigan ekologik muammolar, xalqaro okeanlar va kosmik makonni egallash muammolari jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **5.4. Globallashuv tufayli milliy davlatlar suverenitetidagi o'zgarishlar va transchegaraviy muammolarning integratsiyalashuvi**

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi ijtimoiy-iqtisodiy hayot va uning alohida sohalarida milliy mamlakatlar o'rni va vakolatlarining qisqarishiga olib keladi. Bunda milliy iqtisodiyotlarning iqtisodiy mustaqilligi va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar kengayishi hisobiga davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining ta'sir doirasi qisqarib boradi.

Globallashuvning ustun tomonlarini ko'rish bilan birga uning jahon siyosiy-iqtisodiy tizimiga ta'siridagi o'ziga xos salbiy jihatlarini ham o'rganish jarayonning milliy mamlakatlarda shakllangan tizimlarni rivojlantirishda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash imkonini kengaytiradi. Jumladan, globallashuv ta'sirida milliy davlatlarning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, alohida hudud yoki mintaqalardagi transchegaraviy muammolarning integratsiyasi kelajakda jahondagi tinchlik siyosatiga qanday ta'sir etishi mumkinligini alohida ssenariylar asosida o'rganish muhim hisoblanadi.

Siyosatshunoslikda suverenitet davlatning to'la mustaqilligi, ya'ni ichki siyosatda ustunligi va tashqi siyosatda dahlsizligi shaklidagi eng muhim xususiyati sifatida ta'riflanadi<sup>69</sup>.

Bu tushuncha XIX asrda keng tarqalgan bo'lsa-da, o'rta asrlardagi feodal hukmdorlikning yagona boshqaruv kuchi g'oyasidan kelib chiqqan. Ushbu tushuncha o'tgan asrning boshlarida N.Makiavelli (mutlaq yoki avtokratik monarxiya irodasining qudratli kuchi sifatida), J.Boden ("siyosiy jamiyatdagi fuqarolar va sub'ektlar ustidan eng yuqori, mutlaq va doimiy hokimiyat" sifatida) va boshqa asarlarda o'zining qator aniq ta'riflariga ega bo'ldi. Bu g'oya (suverenitet) XVII asrdagi 30 yillik urush va 1648 yilda Vestfal dunyosining tugaganidan so'ng yanada mustahkamlandi. Keyinchalik milliy suverenitet (ko'pincha davlat suvereniteti bilan sinonim) tushunchasi keng tarqaldi. Hozirda bu tushunchalar BMT Nizomida va boshqa ayrim xalqaro shartnomalarda davlatlarning suveren tengligi va xalqlarning o'z-o'zini belgilash huquqi to'g'risidagi qoidalar shaklida aks etgan.

Albatta, amalda davlat va millatlar suvereniteti doimo turli chegaralar bilan muntazam cheklanib kelgan. Ammo bugungi kunda davlatlarning to'liq harakat erkinligi g'oyasi ham nazariy jihatdan noto'g'ri bo'lib chiqmoqda. Haqiqatan ham, ichki suverenitet doirasi xalqaro shartnomalar, jumladan, inson huquqlari masalalari bo'yicha qonuniy ravishda qisqartirildi va aslida allaqachon o'rnatilgan an'analardan kelib chiqdi<sup>70</sup>.

Urushdan keyingi davrdan boshlab ko'pgina mamlakatlar ixtiyoriy ravishda suveren g'oyalar va elementlar bilan o'zlarini cheklay boshladilar. Ushbu fikr tasdig'i uchun suverenitet pasaytirilgan hududlarga nazar tashlashning o'zi kifoya. Bojlar va soliqlarni belgilash va ularning miqdorini aniqlash huquqi; tovarlar (kapital) va muayyan faoliyatni olib kirish va eksport qilishni ta'qiqlash yoki rag'batlantirish; milliy valyutani chop etish; mahbuslarni saqlash va ular mehnatidan foydalanish qoidalarini belgilash; muayyan siyosiy erkinliklarni e'lon qilish yoki ularni cheklash; saylovlarning asosiy qoidalari va saylov ta'qiqlarini ishlab chiqish va boshqa ko'plab muhim masalalar faqat davlatning xohish-istaklari bilan belgilanadi. Endi esa butun dunyo ko'z o'ngida yevropaliklar bir umumiy valyuta (evro) uchun muqaddas milliy valyutalaridan voz kehdilar.

Va nihoyat, suverenitetda hamisha eng muhim jihat sifatida e'tirof etiladigan element – urush va tinchlik huquqining xalqaro nazorat ostiga o'tishi. Jahon

---

<sup>69</sup> Джерри, Д., Джерри, Дж. (сост.) 1999. Большой толковый социологический словарь: в 2 т. Т. 2. М.: Вече.

Аверьянов, Ю. И. (сост.) 1993. Политология. Энциклопедический словарь. М.: Изд-во Моск. Коммерч. ун-та.

<sup>70</sup> Аверьянов, Ю. И. (сост.) 1993. Политология. Энциклопедический словарь. М.: Изд-во Моск. Коммерч. ун-та.



urushlari va totalitar boshqaruv mutlaq suverenitet, jumladan, urush va repressiya boshlash huquqi xavfli ekanligini ko'rsatdi. Bularning barchasi hech kim aralashmaydigan va faqat milliy huquq va urf-odatlar bilan tartibga solinadigan davlatning ichki ishlari torayib, xalqaro yoki jamoa huquqi kengaya borishini anglatadi. 2004 yildagi Ukraina voqealari uning nafaqat eng yaqin qo'shni davlatlar, balki mamlakatdan geografik jihatdan uzoq bo'lgan mamlakatlar ham uning saylov jarayonlariga ochiqdan ochiq aralashishini ko'rsatdi.

Shunday qilib, bugungi kunda o'tgan davrlarga nisbatan butunlay erkin va mustaqil davlatlar suvereniteti ancha pasaydi. Muhimi shundaki, davlatlar o'zining suveren vazifalaridan kamdan-kam holatlarda ixtiyoriy ravishda voz kechadilar. Bunday altruizmni mamlakatlar jahon miqyosida ayrim real ustunliklarga ega bo'lish evazigagina suverenitetdan voz kechayotganligi bilan izohlanadi<sup>71</sup>. Tabiiyki, bunday "almashinuv" asosan bayon etilgan jarayonlarning kuchli ta'siri natijasidagina amalga oshishi mumkin bo'ladi.

Siyosatshunoslik fanida "milliy suverenitet doktrinasi eskirganligi"<sup>72</sup>, "suverenitet" tushunchasini jahon siyosiy hamjamiyatining shakllanishi hamda xususiy suverenitetlar chegarasini aniqlash, suverenitet tamoyillarining iyerarxik tuzilishi,<sup>73</sup> shuningdek, TMKlar va nodavlat tashkilotlari bilan aloqalar doirasida qayta baholash lozimligi dolzarb masala sifatida ko'tarilmoqda<sup>74</sup>. Biroq, aksariyat tadqiqotchilar suverenitet mohiyatidagi o'zgarishlarning jiddiyligini va bu tushunchani qayta ko'rib chiqish zarurligini hali ham tushunib yetmayaptilar.

Umumiy holda davlat hali ham tarixiy va siyosiy hayotning eng yuqori birligi bo'lib qolmoqda. Biroq bugungi kunda ifodalangan erkinliklarning chegarasi bo'lishga olib keluvchi va bu chegara doirasini davlatdan yuqori turuvchi ob'ektlarga beruvchi yangi kuchli omillar paydo bo'lmoqda. Ko'rib o'tilgan tendensiyalar kelajakda rivojlanishda davom etadi. Masalaning murakkablik jihati shundaki, bu bir tomonlama va aniq jarayon bo'lmasdan, ayrim yo'nalishlarda suverenitetning kamayishi, lekin ba'zi yo'llar bilan mustahkamlanishi va hatto o'sishi kuzatiladigan ko'p qirrali jarayondir. Shunga ko'ra, milliy davlatlarni juda tez hisobdan chiqarib yuborish noto'g'ri, chunki u uzoq vaqt davomida yetakchi sub'ekt bo'lib kelgan. Ayrim tadqiqotchilarning xavotirlari ham o'rinli, davlat suvereniteti va an'anaviy funksiyalarining keskin qisqarishi betartibliklarni keltirib chiqarishi mumkin<sup>75</sup>.

---

<sup>71</sup> Злоказова, Н. Е. 2004. Расширение ЕС: за и против с позиций его членов. МЭМО 1: 62–69.

<sup>72</sup> Киссинджер, Г. 2002. Нужна ли Америке внешняя политика? -М.: Ладомир.

<sup>73</sup> Аверьянов, Ю. И. (сост.) 1993. Политология. Энциклопедический словарь. М.: Изд-во Моск. Коммерч. ун-та.

<sup>74</sup> Уткин, А. И. 2000. Векторы глобальных перемен: анализ и оценки основных факторов мирового политического развития. Полис 1: 38–54.

<sup>75</sup> Уткин, А. И. 2000. Векторы глобальных перемен: анализ и оценки основных факторов мирового политического развития. Полис 1: 38–54.

Umuman olganda, butun tarixni insoniyatning yaqinlashish jarayoni sifatida ifodalash mumkin. Shu sababli aynan globallashuv qachon boshlanganligi haqida qizg'in bahs-munozaralar hali to'htamagan. Ayniqsa, buyuk geografik kashfiyotlardan boshlab jahon integratsiyasining tezlashish jarayoni yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq, globallashuv deb ataladigan hozirgi jarayon hali ham ilk bosqichlarda rivojlanib kelmoqda<sup>76</sup>.

Aniq aytish mumkinki, globallashuv dunyoning barcha sub'ektlariga bog'liq bo'lgan jarayondir. Davlatlar uchun umumiy bo'lgan muammolar sonining ortishi, shuningdek, integratsion sub'ektlar soni va turlarining kengayishi bundan dalolatdir. Globallashuv jarayonlari keng ma'noda kurrai zamin miqyosiga ega bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning asosiy sohalarida o'zaro munosabatlarning keskin o'sishi va murakkablashuvi bilan ajralib turadi<sup>77</sup>.

Boshqacha aytganda, alohida mamlakatlar, millatlar, mintaqalar va boshqa sub'ektlar (korporatsiyalar, turli uyushmalar va boshqalar) bir markazga birlashadi. Alohida mahalliy hodisalar va mojarolar ko'plab mamlakatlarga ta'sir etadi, shu bilan birga, dunyoning eng muhim markazlaridagi qarorlar barcha mamlakatlar taqdiriga ta'sir qiladi.

Globallashuv juda xilma-xil jarayonlar majmui bo'lib, hayotning deyarli barcha sohaları uning ta'siri kuzatiladi. Tabiatda ko'pgina ijobiy va salbiy hodisalar ham global xarakter kasb etib kelmoqda. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun kurash, globallashuvga qarshi harakatning o'zi, terrorizm, giyohvand moddalar savdosi va boshqalar. Bu borada islom dini bilan bir qatorda boshqa dinlarni ham globallashtirish g'oyasi e'tiborlidir.

Har qanday taraqqiyot jarayonida vaziyatning ma'lum qismi vaqtincha bo'lsa ham avvalgidan ham yomonroq holatga tushadi. Shuning uchun ham ayrim jarayonlarning kelajakda katta istiqbolga ega bo'lishi ularning har bir jihati ijobiyligini e'tirof etishni nazarda tutmaydi. Jarayon tanqidchilarining ta'kidlashlaricha, globallashuv har doim ham ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Xususan, ular globallashuvning bir xil taqsimlanmagan afzalliklariga va turli mamlakatlar turmush darajasining kengayishiga ishora qilishadi. Tabiiyki, milliy suverenitetning kamayishi nafaqat ijobiy tomonga ega, balki salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqaradi. Har qanday keskin burilish kabi bu jarayon ham juda ko'p salbiy holatlarni keltirib chiqaradi, masalan, vatanparvarlik kabi fazilatlarining zaiflashishi. Chegaralarning ochiqligi esa qaysidir jihatdan yaxshi, qaysidir jihatdan esa (masalan, terrorizmning tarqalishi nuqtai nazaridan) yomon. Ayniqsa,

---

<sup>76</sup> Каплински, Р. 2003. Распространение положительного влияния глобализации: анализ "цепочек" приращения стоимости. Вопросы экономики 10: 4–26.

<sup>77</sup> Иванов, Н. П. 2004. Человеческий капитал и глобализация. МЭМО 9: 19–31.

axloqiy yoʻnalishda mavjud boʻlgan meʼyorlarning oʻrnini bosuvchi, kerak boʻlsa, undan-da kuchlilari targʻib qilinmasa, juda koʻp salbiy oqibatlar kelib chiqadi.

Bir tomondan, baʼzi tendensiyalarga qarshi kurashish foydasiz. Biroq, boshqa tomondan, rivojlanish uchun toʻlanadigan “badal”ning turi va hajmi oldindan maʼlum boʻlsada, muqarrar yuzaga kelishi kutilayotgan zararni birmuncha kamaytirish, oʻtish davri qiyinchiliklarini tinchlik bilan, salbiy oqibatlarni kamaytirgan holda amalga oshirish mumkin boʻladi.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, ularning baynalmilallashuvi globallashtirish mexanizmi sifatida harakat qiladi. Albatta, bu oʻzgarishlar, odatda, amaliy korporativ va shaxsiy maqsadlar uchun amalga oshiriladi. Lekin ular, dastlab, baʼzi sabablarga koʻra, keyinchalik butunlay kutilmagan va oldindan aytish qiyin boʻlgan natijalarga olib kelishi mumkin. Biroq, jamiyatning boshqa quyi tizimlarida ishlab chiqarish va tarkibiy oʻzgarishlar oʻrtasida sezilarli vaqt oraligʻi mavjud. Bundan tashqari har doim jamiyatda turli omillar oʻrtasida murakkab bogʻlanishlar bor. Shunday qilib, ishlab chiqarish va siyosat oʻrtasidagi chuqur sabab-oqibat munosabatlari sezilarli darajada oʻzgarib, amalga oshiriladi shuning uchun ham ular har doim ham sezilavermaydi.

Biroq, zamonaviy texnik-iqtisodiy kuchlar qarshisida milliy chegaralar oldingiga qaraganda ancha jiddiylashganini inkor etish qiyin. Bunga koʻpgina omillar, xususan, savdo, transportning kuchli rivojlanishi, xalqaro kapital, TMKlar va boshqalar yordam beradi<sup>78</sup>.

Shuni ham yodda tutish kerakki, “globallashtirayotgan dunyoda nafaqat davlatlar, balki koʻproq hudud va mintaqalar oʻzaro aloqada boʻladi”.

Lekin bularning barchasi eski, avval oʻrganilgan fikrlar. Umumiy holatda quyidagilarni texnika va axborot sohalaridagi yangi tendensiyalar sifatidan alohida ajratib koʻrsatish mumkin:

- axborot tarqatish tezligi va sayyoramizdagi istalgan joyda joylashgan odamlar oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot qilish imkoniyati;
- efirga chiqish uchun texnik erkinlik;
- auditoriyaning bir necha marta oʻsishi;
- axborot olish imkoniyatining yuqoriligi va uning xalqaro miqyosda toʻliqligining ortishi;
- kompyuter texnologiyalari va kompyuterlarning mavjudligi. Majoziy maʼnoda aytganda, zamonaviy inson turli xil maʼlumotlarni qabul qiladigan va

---

<sup>78</sup> Зименков, Р. И., Романова, Е. М. 2004. Американские ТНК за рубежом: стратегия, направление, формы. МЭМО 8: 45–53.

uzatadigan, ko'pincha, milliy chegaralarni chetlab o'tadigan ministansiya funksiyalariga ega bo'ladi<sup>79</sup>.

Ishlab chiqarishning eng tez o'sayotgan sohalari, masalan, tijorat maqsadlarida tobora ko'proq foydalaniladigan fazo yoki INTERNET o'z tabiatiga ko'ra alohida milliy doiralardan yuqori turadi<sup>80</sup>.

Milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi yaqin aloqa dunyoning turli burchaklaridagi mahalliy inqirozlarga juda tez va asosan oldindan rejalashtirilmagan holda javob berishga olib keladi, so'nggi yillarda turli mamlakatlarda yuz bergan inqirozlar buni tasdiqlaydi<sup>81</sup>. Ushbu beqarorlikning asosiy sabablarini siyosiy institutlar allaqachon milliy chegaralarni allaqachon tark etganligi va moliya (tovar va xizmatlar) bozorlaridagi tebranishlarni rejalashtiruvchi hamda boshqaruvchi jahon boshqaruv tuzilmalarini talab qiluvchi iqtisodiyotdan ortda qolayotganligi bilan izohlash mumkin.

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'zgarishi, hayotning barcha sohalarida, jumladan, siyosiy sohada ham u yoki bu tarzda islohotlarga olib keladi. Martin Veberning fikricha, global iqtisodiyotning shakllanishi, alohida davlatlarning jahon tarixiy jarayonlariga ta'sirining zaiflashuviga olib keladi. Biroq davlatdagi o'zgarishlar ko'p jihatdan iqtisodiyot katta rol o'ynaydi. Suverenitetni tubdan o'zgartirish uchun esa jamiyatning boshqa sohalarida ham jiddiy islohotlarni amalga oshirish zarur.

Globalashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi davrda alohida mintaqalarda mavjud bo'lgan turli transchegaraviy muammolar bir-biri bilan integratsiyalashib, global muammolar ko'rinishiga keladi. Jahon miqyosida hozirgi davrda mavjud bo'lgan transchegaraviy muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- suv transporti yo'nalishlari;
- gidroenergetika sohasidagi energiya ta'minoti masalalari;
- yerlarni sug'orishda mavjud bo'lgan transchegaraviy suv manbalaridan foydalanish;
- turli texnogen holatlar (radiatsiya tarqalishi, suv toshqini va boshqalar);
- anklav va eksklav hududlardagi transport yo'lagi masalalari va boshqalar.

Yuqorida ko'rib o'tilgan transchegaraviy muammolar globalashuv jarayonlari ta'sirida birlashadi va ushbu muammolarning bartaraf etilishi hudud bilan bog'liq mamlakatlar manfaatlariga u yoki bu darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi.

---

<sup>79</sup> Гринин, Л. Е. 1999а. Современные производительные силы и проблемы национального суверенитета. ФиО4: 5–44.

<sup>80</sup> Филиппова Т.В. Социология в Интернете. Социс5: 2000.131–137.

<sup>81</sup> Волконский В.А. Изменения в мире за столетие и парадигмы экономической науки. В: Осипов Ю.М. и др. (ред.), Экономическая теория на пороге XXI века. - М.: Юристъ, 1998. – С. 214–224.

Transchegaraviy muammolarni bartaraf etishda mazkur hududlarning mintaqalashuvi yechim sifatida qaraladi.

Kommunikatsiyalarning intensivlashuviga yordam beruvchi globallashuv transchegaraviy mintaqalarning shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ularning shakllanishida sanoat, transport, savdo korxonalari, ta'lim, ilmiy va madaniy muassasalar ishtirok etadi va ular o'rtasida ko'plab aloqalar o'rnatiladi. Yevropada transchegaraviy hududlarning shakllanishida Yevropa Ittifoqining mintaqaviy siyosati katta yordam beradi, bu turli mamlakatlarning chegara hududlari, shu jumladan, Yevropa Ittifoqidan tashqaridagi aloqalarni rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Globalashuv sharoitida mintaqalashuvni o'rganish juda dolzarb bo'lib, Pol Krugman tomonidan ushbu masalani hal etish uchun "yangi iqtisodiy geografiya" doirasidagi urinishlar iqtisodiyot yo'nalishida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Transchegaraviy mintaqalashuv – umumiy mintaqalashuv jarayonining maxsus qismi hisoblanadi. Transchegaraviy mintaqalashuvni o'rganishga o'tishdan oldin, ushbu muammo ko'rib chiqiladigan mintaqaviy paradigmani aniqlash kerak. Umuman olganda, aloqalarni intensivlashtirishga hissa qo'shadigan globallashuv mintaqalashuvni oshirish ta'siriga ega. O'z-o'zidan shakllangan yoki maqsadli ravishda shakllangan mintaqalar qo'shimcha raqobat afzalliklariga ega bo'lishga harakat qiladilar. Ular iqtisodiyot va ijtimoiy sohani tezroq va har tomonlama rivojlantiradilar, innovatsiyalar orqali hududning barqaror rivojlanishini ta'minlaydilar. Natijada dunyoda yana qutblashuv jarayoni kuchayadi: mavjud resurslaridan eng samarali foydalanadigan hududlar boshqalarga nisbatan tezroq rivojlanadi.

Globalashuv sharoitida nazariy fikrlash va tahliliy amaliyot bilan isbotlangan va aksiomalar deb hisoblash mumkin bo'lgan mintaqalashuv bilan bog'liq uchta gipotezani ko'rsatib o'tish mumkin, Ular:

- globallashuv mintaqalashuvni kuchaytiradi;
- mintaqalashuv esa qutblanishga olib keladi ;
- dastlabki ikki aksioma asosida globallashuv qutblanishni kuchaytiradi.

Qutblanishning chuqurlashuvi, sivilizatsiyalarning siklik rivojlanishi va jahon yetakchiligining o'zgarishi muqarrarligi haqidagi Kondratiyev-Vallerstayn gipotezasiga muvofiq, yangi o'sish xodisalari paydo bo'la olmaydi degani emas. Bu gipotezani mintaqaviy rivojlanish va raqobatni baholashda ham qo'llash mumkin.

Bunda asosiy masala mintaqaviy rivojlanishni rejalashtirishda yuqoridagi aksiomalar mamlakatlar, mintaqalar va hududiy boshqaruv organlari tomonidan qanday qo'llanilishi kerakligi hisoblanadi. Davlat organlari:

a) o‘shish nuqtalari rivojlanishini rag‘batlantirish orqali qutblanishni rag‘batlantirishi;

b) qoloq hududlarni qo‘llab-quvvatlash, qishloq-shahar hamkorligini rivojlantirish, rivojlanishning turli darajalariga ega bo‘lgan hududlar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish orqali uyg‘unlashuvni ta‘minlashga intilishi;

s) mintaqaviy tafovutlarga befarq munosabatda bo‘lishi mumkin.

Transchegaraviy mintaqalashuvning paydo bo‘lishi ko‘p jihatdan iqtisodiy globallashtirish jarayonlariga bog‘liq bo‘lib, bozorlarni mustahkamlash va iqtisodiyotni makon doirasida tashkil etishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Lekin transchegaraviy mintaqalashuv davlatlar va xalqaro tashkilotlarning global masalalarni hal etish imkoniyatlari cheklanganligiga nisbatan munosabatdir. Tinch-totuv yashash va iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash uchun jamoaviy harakatlarni tashkil etuvchi yangi tizimlar talab qilinadi.

Dunyoda paydo bo‘lgan izchil mintaqalarning umumiy iyerarxik tizimida transchegaraviy hududlarning o‘rnini 5.1-jadvaldagi kabi ko‘rsatish mumkin.

## 5.1-jadval

### Mintaqalar iyerarxiyasi

Iyerarxik daraja	Mintaqalar ko‘rinishi
<i>Davlatlararo mintaqalar</i>	
Global daraja	Jahon siyosiy tizimi
Mega mintaqalar	Yevropa Ittifoqi, MDH, Afrika Ittifoqi, Arab mamlakatlari ligasi va boshqalar
Xalqaro makro mintaqalar	Ittifoq mamlakatlar (Rossiya va Belarus), Baltika mintaqasi, BeNiLyuks va boshqalar
Transchegaraviy mezo mintaqalar	Yevropa mintaqalari
Transchegaraviy mikro mintaqalar	Hamkorlikdagi alohida ikkita munitsipal birlik hududlari
<i>Mamlakatlar ichidagi mintaqalar</i>	
Makro mintaqalar	Federal okruglar
Mezo mintaqalar	Ma‘muriy-hududiy birliklar
Mikro mintaqalar	Tuman va shaharlar
- II (yuqori) daraja	Munitsipal tumanlar va shahar okruglari
- I (quyi) daraja	Shahar va qishloqlar
Mahalliy daraja	Aholi punktlari

Transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- mahalliy chegaraoldi aloqalari;

- davlatlarning ma'muriy-hududiy bo'linmalar va munitsipal birliklarning o'zaro hamkorligi (shaharlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri kelishuvlar, mintaqalararo hamkorlik to'g'risidagi bitimlar va boshqalar doirasida);

- turli mamlakatlar sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy yo'nalishlardagi transchegaraviy loyihalarni amalga oshirish;

- chegaraning har ikki tomonida turli darajadagi ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni o'z ichiga oluvchi transchegaraviy hamkorlikning tarmoq shakli; bu bosqichda transchegaraviy hududlar shakllanadi.

Iqtisodiy hamkorlik, ayniqsa, integratsiya natijasida jarayon ishtirokchilarining raqobatbardoshligi oshadi. Chuqur iqtisodiy jihatdan integratsiyalashgan transmilliy hududlarni shakllantirish mexanizmi F.Perrou tomonidan tavsiflangan bo'lib, u "harakatlantiruvchi birliklar" yoki "rivojlanish qutblari" tegishli "ta'sir zonalari" bilan o'rab olingan maqsadli faoliyatni jahon iqtisodiyotining asosi deb hisoblaydi. Bu birliklar yirik firmalar, sanoat majmualari va iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridir.

Faol "o'sish qutblari" va ular muhitining o'zaro ta'siri aglomeratsiya samarasi bilan kechadi va iqtisodiy mexanizmning yakkalanib qolgan elementlari mavjud bo'lmagan "rivojlanish qutblari" paydo bo'lishiga olib keladi. "Rivojlanish qutblari", "rivojlanish zonalari" va "rivojlanish o'qlari" o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar paydo bo'ladi. F.Perrou rivojlanish o'qlari rivojlanish qutblarining tizimlari bo'lib, ularning paydo bo'lishi va amalga oshirilishini aloqalarning o'qlari har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Rivojlanish zonalari va o'qlarining o'zaro tortilishi natijasida ular milliy manfaatlardan tashqariga chiquvchi va butun mintaqalarni qamrab oluvchi murakkab o'zaro manfaatli iqtisodiy tizimga aylanadi. F.Perrou bunday tizimlarni "integratsiya zonalari" deb ataydi, "rivojlanish qutblari" esa bir vaqtning o'zida "integratsiya qutblari" ga aylanadi<sup>82</sup>.

Shunday qilib, transchegaraviy mintaqalashuv globallashuv sharoitida faol rivojlanayotgan ob'ektiv jarayondir. Bu jarayon Yevropada muvaffaqiyatli amalga oshib, quyidagi uch asosiy vazifalarni hal etmoqda:

1) transchegaraviy mintaqalar faoliyatida ishtirok etayotgan sub'ektlarning raqobat qobiliyatini mustahkamlash;

2) turli mamlakatlari mintaqalarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tenglashtirishga ko'maklashish;

3) chuqur integratsiyalashgan umumevropa iqtisodiy, madaniy, ilmiy va ta'lim makonini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish.

So'nggi yillarda, global moliyaviy beqarorlikning surunkali tabiati tobora o'zini ko'rsatmoqda. Global iqtisodiyotning sekin o'sishi (2016 yilda 2,3%)

---

<sup>82</sup> Perroux F. Multinational investments and the analysis of development and integration poles // Economies et societes. 1973. № 5-6.

sharoitida AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya, shuningdek, moliyaviy tebranishlar bilan birgalikda Xitoy kabi ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy aktivlarning tez o‘sishi kuzatilmoqda.

McKinsey & Company ekspertlari: **“Global kredit pufagi yorilishidan yetti yil o‘tib, buyuk Depressiya davridan keyingi eng kuchli moliyaviy inqiroz yuzaga keldi, qarzdorlik o‘shida barqaror davom etmoqda. Qarzdorlikni kamaytirish yoki qarzga olingan aktivlar ulushini qisqartirish o‘rniga barcha yirik iqtisodiyotlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan qarzdorlik ulushini 2007 yildagidan ko‘ra ko‘proq darajaga olib chiqmoqdalar. Bu yillar davomida global qarzdorlik hajmi YaIM ga nisbatan 17,7 punktga ko‘tarilib, jami 57 trillion dollarga yetdi. Bu esa dunyoning moliyaviy barqarorligiga yangi xavf tug‘diradi va global iqtisodiy o‘shiga putur yetkazadi”**, deb yozadilar<sup>83</sup>.

XVFning so‘nggi hisob-kitoblarga ko‘ra, oxirgi yillarda o‘rta muddatli moliyaviy xatarlar kamayish o‘rniga ortib bormoqda. Bu bilan jahon mamlakatlari va bozorlar keskin tebranishlarga nisbatan yanada zaiflashadi, iqtisodiy hamda moliyaviy turg‘unlik yuzaga keladi<sup>84</sup>.

Global moliyaviy beqarorlik va takrorlanuvchi moliyaviy inqirozlarning sinergetik tabiati zamonaviy dunyoning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanib, rivojlanishning ushbu bosqichida qator omillar asosiy etib belgilanadi.

Birinchi omil – aholi ko‘payishiga asoslangan **populyatsiya omili**. Dastlab Rim klubi tomonidan tomonidan e‘tibor qaratilgan insoniyat taraqqiyotining populyatsiya sifatida rivojlanishidagi cheklanishlar va barqaror takror ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarning tugab borishi borgan sari keskinlashmoqda<sup>85</sup>. Sayyora aholining yuqori sur‘atlarda o‘shini ko‘tara olmaydi, chunki insoniyatning sayyoriga global ekologik ta’siri Yer sharining biologik imkoniyatidan oshib ketdi<sup>86</sup>. Vaziyat daromad va resurslarning dunyo bo‘yicha juda notekis taqsimlanganligidan kelib chiqadi: dunyo aholisining taxminan 80%igacha dunyo boyligining atiga 6% i to‘g‘ri keladi, ish haqi darajasi mehnat unumdorligidan ortda qolgan va ishchilarning daromaddagi ulushi kamayib bormoqda<sup>87</sup>. Bu esa tabiiy resurslar uchun kurashning jadallashuviga olib keladi, uning oqibatlarini dunyoning qator mintaqalarida ko‘rish mumkin.

---

<sup>83</sup> Dobbs, R., Lund, S., Woetzel, J. and Mutafchieva, M. (2015). Debt and (not much) deleveraging. Report – McKinsey Global Institute (<http://www.mckinsey.com/global-themes/employment-and-growth/debt-and-not-much-deleveraging> – Accessed 8 Feb. 2017).

<sup>84</sup> МВФ (2016). Доклад по вопросам глобальной финансовой стабильности: Аналитическое резюме. Международный валютный фонд, 26 сентября.

<sup>85</sup> Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J. and Behrens, W. (1972). Limits to Growth. New York: New American Library.

<sup>86</sup> UNDP (2014). Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilience. New York: United Nations Development Programme.

<sup>87</sup> ПРООН (2015). Доклад о человеческом развитии 2015. Труд во имя человеческого развития. Резюме. New York: United Nations Development Programme.



Ikkinchi omil **sivilizatsion omil** hisoblanadi. Ushbu omil qisman global demografik dinamikaning notekisligi bilan bog‘liq. 2050 yilga kelib dunyo aholisi 1,3 barobar oshib, 9,7 mlrd. kishiga yetishi mumkin. Shu bilan birga Yevropa aholisi taxminan 4% ga kamayishi, ammo Afrika aholisining 2 martadan ko‘proq, Osiyo aholisining esa 1/6 marta ortishi kutilmoqda<sup>88</sup>. Bu esa G‘arb sivilizatsiyasi salohiyati pasayib, g‘arbdan tashqari sivilizatsiyalar - Xitoy, Hind, Islom sivilizatsiyalari salohiyatining yuksalib borayotganidan dalolat beradi<sup>89</sup>.

Uchinchi omil **texnologik omil** hisoblanadi. Bu omil jahon iqtisodiyotining uzun tebranishli rivojlanishi va ustun texnologik tuzilmalarning o‘zgarishi bilan bog‘liq<sup>90</sup>. Bunday yirik texnologik o‘zgarishlar davrlarining dastlabki bosqichi, odatda, bir necha o‘n yilliklarni o‘z ichiga olib, eski ishlab chiqarishni avvalgi texnologik baza negizida takomillashtirish imkoniyatlari mavjud emasligi va yangilari hali to‘liq yaratilmaganligi oqibatida kelib chiquvchi beqarorlik bilan tavsiflanadi. Natijada eski texnologik yechimlarni va ularning bozor qiymatini o‘zida mujassam etgan aktivlarning asosiy qiymati o‘rtasida bo‘shliqlar vujudga keladi.

To‘rtinchi omil **ishlab chiqarishning tarqalish (allokatsiya) omili**. Globallashgan dunyoda ishlab chiqarish zanjirlaridagi aloqalar butun sayyora bo‘ylab joylashadi. Shu bilan birga ularning aniq joylari va konsentratsiyalari resurslar, bozorlar, samaradorlik, strategik aktivlar va boshqalar bo‘yicha imtiyozlarning mavjudligi kabi turli omillar bilan belgilanadi<sup>91</sup>.

Beshinchi omil **moliyaviy omildir**. U jahon moliya bozorlarining jadal rivojlanishi va xalqaro kapital oqimlarining harakatchanligining tubdan oshishi bilan bog‘liq. O‘tgan o‘n yilliklar davomida, global moliyaviy bozorlar, xalqaro savdo va kapital oqimlari tez o‘sishi, normativ erkinlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi mahalliy va global moliyaviy muammolarning chuqurlashuviga olib keldi. Moliyaviy aktivlarning real iqtisodiyotdan ajralish jarayoni bank inqirozlari ko‘lamining kengayishiga olib keldi.<sup>92</sup>

Hozirgi kunda global moliya tizimi jiddiy muvaffaqiyatsizliklar bilan faoliyat ko‘rsatmoqda. J.Stiglitsning qayd etishicha: “Hozir, dunyo past darajadagi umumiy talabdan aziyat chekmoqda. Moliya bozorlari jamg‘armalarni daromadlar xarajatlardan oshgan joylardan investitsiya talab qilinadigan joylarga o‘tkazish vazifasini to‘laqonli bajara olmayotganligini isbotladi. AQSh Federal rezerv tizimi

<sup>88</sup> United Nations, Department of Economic and Social Affairs. Population Division, 2015, pp. 2-3

<sup>89</sup> Хантингтон, С. (2003). Столкновение цивилизаций. М.: АСТ.

<sup>90</sup> Schwab, K. (2015). The Fourth Industrial Revolution. What It Means and How to Respond // Foreign Affairs, 12 December.

<sup>91</sup> Dunning, J. (1998). Location and the Multinational Enterprise: A Neglected Factor? // Journal of International Business Studies, 29(1), 45–66.

<sup>92</sup> United Nations Development Programme, 2014, pp. 46–47.

raisi Ben Bernanke moliyaviy muammolarni “jahon miqyosidagi jamg‘armalar ortiqchaligi”, deb tasvirlaganda yanglishgan edi. Lekin bunday katta infratuzilma ehtiyojlari mavjud bo‘lgan dunyoda muammo jamg‘armalarning ortiqchaligi yoki qulay investitsiya imkoniyatlari yo‘qligida emas. Muammo bozorni manipulyatsiya qiluvchi, qimmatli qog‘ozlar savdosida spekulyatsiya hisobiga muvaffaqiyat qozongan, ammo asosiy maqsadiga erisha olmagan jahon moliyaviy tizimining o‘zidir.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, globallashuvning yangi jahon modelining joriy etilishi bilan, undagi asosiy g‘oyalar va globallashuvdan olinadigan samara o‘rtasida ma‘lum bir doiradagi ziddiyatlar yuzaga kelmoqda va bu globallashuv modellarini ham doimiy ravishda yangilab borish lozimligini ko‘rsatadi.

## **V bob bo‘yicha qisqacha xulosalar**

Globalashuv jarayonining sabablari va mohiyati hamda uning ijtimoiy ahamiyati bo‘yicha olimlar o‘rtasida yagona kelishuv mavjud emas. Shunday bo‘lsada, globallashuv mamlakatlar savdo integratsiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyat sub’ektlarining hududiy savdo kengayishi jarayoni, alohida mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, dunyodagi mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy o‘zaro bog‘liqligining o‘sishi va boshqalar sifatida qaralmoqda.

Taraqqiyotning bugungi sharoitida globallashuv jarayoni xalqaro raqobatni keskinlashtiruvchi asosiy omil bo‘lib, uning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- xalqaro raqobatni keskinlashtirish orqali xaridorlar uchun tovar va xizmatlarning iste‘mol xususiyatlari va xarid qilish sharoitlari qulaylashadi;
- mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish jarayonida transport va kommunikatsiya xarajatlari qisqaradi;
- ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonining kengayishi bilan ko‘lam (miqyos) samarasi ortadi va tannarx pasayadi;
- jahon miqyosida innovatsiyalarni uzluksiz qo‘llash imkoniyati va bu bilan mehnat unumdorligini ortadi;
- fan va texnika taraqqiyoti jadallashadi;
- iqtisodiy samaradorlik ortishi bilan tarmoq, hudud va mintaqa darajasida iqtisodiy o‘sish darajasi ortadi;
- iqtisodiy chegaralarning kamayishi bilan o‘zaro manfaatli savdo rivojlanadi;
- jahon miqyosida yalpi ichki mahsulot hajmi va jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlar darajasi ortadi.

Globalashuv jarayonining asosiy sharti mamlakatlar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, ko'plab jarayonlarni soddalashtirish uchun jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishga moyilligida o'z aksini topgan. Darhaqiqat, bir tomondan, globalashuv turli ishtirokchilarning jahon bozoriga chiqishini osonlashtiradi.

Globalashuv tufayli jahon moliya bozori ishtirokchilariga moliyaviy axborot miqdori ortib bormoqda, resurslar ko'lami kengaymoqda - xorijiy resurslarga kirish, texnologik va boshqaruv tajribasi osonlashmoqda. Jahon bozorida hukumat va moliya institutlarining shaffofligini ta'minlash, xalqaro moliya institutlarining mavqeini mustahkamlash va rivojlanayotgan bozor mamlakatlarining jahon bozorini rivojlantirishdagi rolini oshirish bo'yicha keng qamrovli axborot standartlari amalga oshirilmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun globalashuv quyidagi xatarlarni yuzaga keltiradi:

- rivojlangan mamlakatlar bilan texnologik tafovutning ortishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning o'sib borishi, marjinalashuv;
- aholi asosiy qismining qashshoqlashuvi;
- kam rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiy tizimining barqarorligi va samarali faoliyatiga bog'liqligining ortishi;
- TMKlar tomonidan alohida mamlakatlarda milliy yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish imkoniyatining cheklanishi;
- xalqaro moliyaviy tashkilotlarga bo'lgan tashqi qarzdorlikning o'sishi.

Rivojlangan mamlakatlarda globalashuv jarayoni ta'sirida yuzaga keluvchi muammolar:

1) ishsizlikning ortishi natijasida:

- sanoatda yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida ish o'rinlarining qisqartirilishi;
- ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlar va ko'pgina tarmoqlarning yopilishiga sabab bo'luvchi mehnattalab mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarishning rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirilishi;
- ishchi kuchi harakatchanligining ortishi;

2) TMKlarning o'z manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yishi natijada milliy davlatlarning roli zaiflashadi va ba'zi boshqaruv funksiyalari xalqaro tashkilotlar va uyushmalar zimmasiga o'tadi.

### **Tayanch iboralar**

Jahon iqtisodiyoti globalashuvi, jahon xo'jaligining globalashuvi, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro iqtisodiy birlashmalar, xalqaro savdo, investitsiya, xalqaro valyuta fondi, ommaviy migratsiya, integratsiyalashuv jarayonlari, ishchi kuchi mobilligi.

## Nazorat uchun savollar

1. Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining afzalliklarini tushuntiring.
2. Globallashtiruv jarayoni xalqaro raqobatni keskinlashtiruvchi asosiy omil bo'lib, uning asosiy afzalliklari nimalarda ko'rinadi?
3. Jahon iqtisodiyoti globallashtiruv tufayli qanday xavf-xatarlar vujudga keladi?
4. Globallashtiruv oqibatlarida qanday o'zgarishlar yuz beradi?
5. Globallashtiruv rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qanday xatarlarni yuzaga keltiradi?
6. Rivojlangan mamlakatlarda globallashtiruv jarayoni ta'sirida yuzaga keluvchi qanday muammolar mavjud?
7. Jahon miqyosida hozirgi davrda mavjud bo'lgan transchegaraviy muammolar qatoriga qanday muammolar kiritiladi?
8. Global moliyaviy beqarorlik va takrorlanuvchi moliyaviy inqirozlarning sinergetik tibiati qanday asosiy omillarga tayanadi?
9. aholi soni ko'payishiga asoslangan kopulyatsiya omilining asosiy ahamiyati haqida tushuntiring.
10. Transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirishning qanday bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin?

## VI BOB. GLOBALLASHUV VA XALQARO SAVDONING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

### 6.1. Global iqtisodiyot shakllanishida xalqaro savdning o‘rni

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o‘zaro bog‘liqligi, rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an‘analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o‘tdiki, bu bosqichni “globallashuv” deb atamoqdalar.

Yangi tushuncha iqtisodiyot, siyosat va madaniyatga ham birdek taalluqlidir. Biroq aynan iqtisodiyot globallashuvi barcha globallashuv jarayonlarining negizini tashkil etadi va o‘rnatilgan jahon tuzilmasiga tahdid soladi. XX asrda global iqtisodiyot kuchli dinamizm bilan rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida savdning o‘shish sur‘atlari jahon yalpi mahsulotining o‘shish sur‘atlariga nisbatan tezroq rivojlandi (6.1-jadval).

6.1-jadval.

**Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi**  
(10 yillik qo‘shimcha o‘shish sur‘ati, %)

Yillar	Yalpi ichki mahsulot (GDP)	Jahon yalpi mahsuloti o‘shishida yetakchi mamlakatlar
1820-1870	0,7	Buyuk Britaniya
1900-1950	2,3	AQSh
1950-1980	1,5	Yaponiya
2000-2020	5,4	Xitoy
2010-2030	5,2	Hindiston

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asr davomida jahon yalpi mahsulotining qo‘shimcha o‘shish sur‘atlari 0,7 % atrofida bo‘lib, bu davrda jahon mamlakatlari ichida Buyuk Britaniya yetakchi o‘rinda bo‘lgan. XX asrning birinchi yarmida AQSh jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yetakchi o‘ringa chiqdi va bu davrda ko‘rsatkichning qo‘shimcha o‘shish o‘rtacha surati 2,3 %ga ko‘tarildi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng jahon yalpi ichki mahsulotining o‘shish darajasida sezilarli pasayish kuzatildi (1,5 %) va bu davrda Yaponiya jahonning yetakchi mamlakatiga aylandi.

XXI asrning boshlariga kelib, jahon iqtisodiyoti rivojlanishi qutblari o‘zgarib, Xitoy va Hindiston jahon iqtisodiy taraqqiyotida yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Asrimizning o‘tgan davrida jahon yalpi mahsulotining 10 yilliklar davomidagi qo‘shimcha o‘shish darajasi 5 %dan ortiqroqni tashkil qilmoqda.

Iqtisodiy globallashuv qator yangi sifat belgilariga egaligi tufayli uni iqtisodiy hayot baynalmilallashuvining alohida bosqichiga ajratish mumkinki, bu bosqich o'tgan asrning boshi yoki o'rtalariga nisbatan farq qiladi. Xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liqligi hozirgi vaqtda nafaqat kuchliroq namoyon bo'lmoqda, balki global darajaga chiqib, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olmoqda. Albatta, eng avvalo, sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotlari o'zaro birikib ketadi, lekin boshqa mamlakatlar ham turli tezlik va jadallik bilan umumjahon jarayonlariga jalb etiladi. Kompyuter texnikasi va elektron telekommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, yuqori tezlikka va tejamkorlikka ega transportning paydo bo'lishi barcha qit'alar va davlatlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, xalqaro ayirboshlashning keskin o'sishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratdi.

Bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chayotgan tovarlar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchi oqimlari, global kompaniyalar va axborot tizimlari, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va korporatsiyalar faoliyati global iqtisodiyotni tashkil etadiki, barcha milliy xo'jaliklar u yoki bu darajada unga qo'shiladi. Global iqtisodiyotdagi har qanday uzilishlar xavf-xatarlarni olib keladi.

Iqtisodiy globallashuvning erishilgan darajasi ko'pgina bashoratlardan o'tib ketdi. Yuqorida keltirilgan jahon tovarlar va xizmatlar eksporti va jahon yalpi ichki mahsuloti o'rtasidagi o'zaro nisbat global o'zaro bog'liqlikning haqiqiy ko'lamlarini kamaytiradi. Chunki jahon YaIMning 60 % xizmatlarga to'g'ri keladi, ularning ko'p qismi esa (ta'lim, tibbiy xizmat ko'rsatish, davlat boshqaruvi, ulgurji va chakana savdo) xalqaro savdoning predmeti hisoblanmaydi. Bu savdo qilinmaydigan (nontradable) deb ataluvchi, ya'ni xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan xizmatlardir. Jahon savdosida ishtirok etmaydigan xizmatlar chiqarib tashlangan jahon YaIMda tovarlar eksportining ulushi umumjahon YaIM hajmida tovarlar eksportining ulushiga nisbatan ancha ko'p (ayrim hisoblarga ko'ra, deyarli 50 %) <sup>93</sup>.

Angus Meddisonning (AQSh) ushbu metodikadan foydalangan holda 1992 yil uchun olgan natijasi 31 % ga teng. Agar xizmatlar eksporti ham hisobga olinsa, 1992 yil uchun ushbu ko'rsatkich yana 20 % ga ko'payib, 37 %ni tashkil etgan bo'lardi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar milliy ishlab chiqarishning xalqaro savdodagi ishtiroki o'tgan asrning boshiga nisbatan juda yuqori darajaga yetganligini ko'rsatadi (6.2-jadval).

2000 yilda jahon miqyosida ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning o'sish darajasi 5,2 %ni tashkil etib, bu ko'rsatkich 207 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida 2010 yilda 0,9 % gacha pastlagan va keyingi davrda (2015-2020 yillarda) o'rtacha 2,5 % atrofida o'sgan.

---

<sup>93</sup> Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации. Учебник- М. 2007- С. 15.

Xalqaro savdoning o‘shish darajasiga ham yuqorida aytib o‘tilgan global inqirozlarning ta’siri yuqori bo‘lib, 2020 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 4,2 %ga yetgan. Xalqaro savdoning jahon yalpi mahsulotiga nisbati esa yillar davomida barqaror o‘shish tendensiyasiga ega.

### 6.2-jadval

#### Jahon yalpi mahsuloti va xalqaro savdo hajmining o‘shish sur‘atlari<sup>94</sup>, %

Ko‘rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020*
Jahon yalpi mahsuloti	5,2	5,3	-0,9	2,4	2,5
Xalqaro savdo	12,4	12,5	-17,3	-10,2	4,2
Xalqaro savdoning jahon yalpi mahsuloti o‘shishiga nisbati	23,8	26,4	25,7	27,8	30,2

Mamlakatlar ichki ishlab chiqarishning jahon bozoriga yo‘naltirilganlik darajasi bo‘yicha keng farqlanadi. globallashuv ta’siri ostida ularning ko‘pchiligida bu daraja ko‘paymoqda. 100 yil (1890-1990 yillar) ichida tovarlar eksporti va YaIMning o‘zaro nisbati Germaniyada 15,9 % dan 24,0 % gacha, Fransiyada – 14,2 % dan 17,1 % gacha, Italiyada – 9,7 % dan 15,9 % gacha, Yaponiyada – 5,1 % dan 8,4 % gacha, AQShda – 5,6 % dan 8,0 % gacha oshgan. Lekin, masalan, Angliyada – Britaniya imperiyasining tarqalib ketishi sababli ushbu daraja – 27,3 % dan 20,6 % gacha kamaygan. Agar bu ko‘rsatkichlar faqat tovar eksportiga tegishli bo‘lsa, quyidagi ma’lumotlar ayrim mamlakatlar YaIMda tovarlar va xizmatlar eksportining ulushini aks ettiradi (6.3-jadval).

### 6.3-jadval

#### Tovarlar va xizmatlar eksporti<sup>95</sup> (YaIMga nisbatan %, milliy valyutada hisoblangan)

Mamlakatlar	1995	2015
Belgiya	72,6	84
Buyuk Britaniya	28,2	25
Germaniya	...	31
Niderlandiya	53,0	65
Rossiya	...	34
AQSh	11,1	9
Fransiya	23,5	26
Xitoy	14,6	32
Yaponiya	...	12

<sup>94</sup> Angus Maddison, Monitoring the World Economy, OECD, Paris, 2015, pp. 20, 39, 227, 239.

<sup>95</sup> International Financial Statistics, IMF, 2016.

Boshqa sharoitlar teng bo'lganda yirik mamlakatlar Belgiya, Niderlandiya kabi kichik mamlakatlarga nisbatan ko'proq ichki bozorga tayangan holda rivojlanishga qodir. Umuman olganda, hozirgi vaqtda qator mamlakatlar uchun jahon bozori milliy bozorga qo'shimcha sifatida emas, balki xalq xo'jaligi amal qilishining zaruriy shartiga aylandi.

Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda tashqi bozorning roli ichki bozorning roliga tenglashadi. Bu baynalmilal o'zaro bog'liqlik va kooperatsiyaning yangi sifat darajasi bo'lib, zamonaviy davrning alohida hodisasi sifatida global iqtisodiyot to'g'risida gapirishga imkon beradi.

Hozirgi sharoitda globallashuv jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo o'sishining muhim rag'batlantiruvchi omiliga aylandi. U shaxsiy muloqot hamda inson shaxsining ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. U ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, sayyorada inson hamda tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi bilan asoslanadiki, ulardan yanada unumli foydalanish uchun xalqaro kooperatsiyani chuqurlashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Globallashuvning iqtisodiyot liberallashtirishiga ta'siri davlatlarning o'zaro bog'liqligi va xalqaro tashkilotlarda ishtirokining ortib borishida namoyon bo'ldi. Aynan xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish davlatlarning davlat va nodavlat segmentlarini qamrab olgan institutsional tuzilmalarining shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Zamonaviy globallashuv jahon bozorlari va inson faoliyatining barcha sohalaridagi hududiy iqtisodiyotlarning tizimlashgan integratsiyasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida barqaror iqtisodiy o'sish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullari tatbiq etilishining tezlashishi yuzaga keladi. Globallashuv rivojlanishining hozirgi bosqichida jahon xo'jaligi mamlakatlarining nafaqat o'zaro, balki jahon xo'jaligining yaxlit tarzdagi holati va o'sish sur'atlariga bog'liqligi ham tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati integratsion jarayonlar rivojlanishi va bozor o'zgarishlariga alohida ahamiyat berayotgan va asosiy ustuvor yo'nalish - bozor islohotlarini chuqurlashtirish va keyingi iqtisodiy liberallashtirish bo'lib qolayotgan hozirgi zamonaviy sharoitlarda hududiy va jahon bozorlaridagi talablar va raqobat shakllari keskin ortib boradi. Ular, o'z navbatida, galdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish zaruriyatini talab etuvchi omillarga aylanadi. Faqat barqaror iqtisodiy rivojlanish va to'liq quvvatdagi bozor infratuzilmasini shakllantirishgina bizning mamlakatimizga global jahon xo'jaligi tizimiga samarali integratsiyalashish imkonini beradi.

**“Iqtisodiy globallashuv”** tushunchasi mazmunidan kelib chiqib, quyidagi bir necha darajaga ajratiladi: umumjahon, davlat, tarmoq va alohida kompaniya darajasi. Ularning har biri uchun muayyan mezonlar mavjud. Umumjahon



ma'nosida globallashuv, ko'pincha, turli mamlakatlar o'zaro iqtisodiy bog'liqligining o'sishi sifatida belgilanadi hamda tovarlar, xizmatlar, moliyaviy resurslar va texnologiyalarni xalqaro ayirboshlashning o'sishi bilan ifodalanadi.

**Alohida davlat darajasidagi globallashuv** davlat iqtisodiyoti va jahon xo'jaligi munosabatlarining intensivligi sifatida tushuniladi. Alohida mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga tortilish darajasi turlicha bo'lib, quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi – mamlakat yalpi milliy mahsulotidagi eksport va import ulushi, xorijiy investitsiyalar hajmi, texnologiyalar almashinuvidan to'lovlar kelishi va ketishi.

**Tarmoq globallashuvi** asosiy ko'rsatkichlari tashqi bozorda sotilgan mahsulotning ushbu tarmoq mahsuloti umumiy hajmidagi ulushi, shuningdek, unga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning ushbu tarmoqqa kiritilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmidagi ulushi hisoblanadi. Aniq bir kompaniyaning jahon xo'jaligi munosabatlariga tortilganligi uning xorijdan olayotgan daromadlari hamda uning jahonning turli hududlaridagi shoxobchalari orqali xalqaro kapital, tovar va texnologiyalar ayirboshlashdagi ishtiroki bilan belgilanadi.

Globallashuvning quyidagi belgilari ajratib ko'rsatiladi: axborot texnologiyalaridagi inqilob; iqtisodiy inqilob; liberal demokratiya o'rnatilishi; milliy lashtirish siyosati sifatida “lokallashuv”; gorizontal munosabatlar; qutblashish (polyarizatsiya).

Hozirgi vaqtda globallashuv jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining muhim tendensiyasi bo'lib, milliy xo'jalik sub'ektlari manfaatlarining davlat milliy chegaralaridan chiqishi, transmilliy iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalar faoliyat sohalari yaratilishi va kengayishi; xususiy, milliy iqtisodiy muammolarni yechish uchun jahon xo'jalik manfaatlari va jahon resurslari mobilizatsiyasini talab etuvchi, global, jahon darajasiga ko'tarilishini anglatadi.

Shuni aytish mumkinki, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiy integratsiya va kapital, tovarlar, ishchi kuchining jahon bo'ylab ko'chishining o'sib borayotganligi; ilmiy kommunikatsion inqilob turtki bo'lgan texnologik integratsiya asosida erishilgan iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning kritik darajasini aks ettiradi. Ko'p davlatlar jahon iqtisodiyotining ushbu fenomenini, uning ijobiy va salbiy taraflarini o'z iqtisodiy rivojlanishining milliy konsepsiyalarini ishlab chiqishda tobora yaqqolroq tarzda hisobga olmoqdalar.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi integratsiyaga nisbatan keng tushunchadir, chunki iqtisodiy globallashuv bir-biri bilan bog'lanmagan jahon xo'jaligi qismlarining ham o'zaro bog'liqligini talab etadi. U har qanday iqtisodiyot, har qanday bozordagi muammo jahon global muammosi maqomiga

ega bo'lishi va u nafaqat ko'p tomonlama, balki umumiy kuchlar hisobiga hal etilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Global bozorning shakllanishi, turli xil firmalar o'rtasidagi raqobatning kuchayganligi ularni kapitalni jamlash, o'z doirasiga yangi ishlab chiqaruvchilarni yanada ko'proq jalb etish, o'z o'rinlarini birgalikda saqlab qolish uchun kuchlarni o'zaro birlashtirishga undaydi. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining yaratilishi ham AQShga iqtisodiy qarshilik ko'rsatish, qudratli Amerika sanoat-moliya korporatsiyalari bilan raqobat kurashida bardoshlilik usulidir. Shunday qilib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligi ortib boradi.

## **6.2. Globallashuv sharoitida erkin savdo va proteksionizm siyosatlari o'rtasidagi nisbat**

Jahon tajribasiga ko'ra, zamonaviy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish davomli jarayon bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy strategiya ishlab chiqilishini, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, xo'jalik aloqalari shakl va usullarini tubdan qayta tuzishni talab etadi.

Globallashuvning hukumat faoliyatiga ta'siri juda murakkab bo'lib, siyosatdagi har xil kuchlar muvozanati va ta'sirini o'ziga qamrab oladi. Birinchi qarashda, globallashuv ba'zi bir milliy monopoliyalarni - aloqa, televideniye, radioni buzadi. Xalqaro telefon xizmati va fakslar jo'natilishi, odatda, boshqa tovarlar va xizmatlarga qaraganda oddiy aholi uchun ancha arzon. Bugungi kunda internet haqiqatan ham global tarmoq bo'lib, kommunikatsiyalar va axborot almashuvida katta imkoniyatlar yaratadi va shu bilan birga xalqaro qo'ng'iroqlarda davlat xizmati ulushini kamaytiradi.

Bu o'zgarishlar davlat funksiyalarini faqat kamaytirib qolmasdan, aholida milliy tegishlilik hisasini pasaytiradi. Biroq ushbu o'zgarishlarning ahamiyatini oshirib yubormaslik kerak. Davlat modem, faks va shu kabilarni ishlab chiqarish va ishlatishni nazorat qiladi. Davlat televizion stansiyalar, simsiz telefonlar uchun radiochastotalardan foydalanish uchun litsenziyalar berilishini ham nazorat qiladi. Davlat sirlarini, kompyuter tarmoqlari bilan ishlashning xususiy mulkchilik huquqini himoyalash uchun texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy global kommunikatsiya tizimi davlatning kuchsizlanishiga olib keladi, deb hisoblash qo'pol xatodir.

Shunga o'xshash holatni iqtisodiyotda ham ko'ramiz. Bu borada bir nechta muammo ko'rib chiqilmoqda.

Birinchidan, global bozorlarning, ayniqsa, bir kunlik aylanishi 1 trillion dollarni tashkil etuvchi valyuta bozorlarining faoliyatini nazorat qilish. Bu faoliyat,

masalan, ishsizlik, inflyatsiya darajasini tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan o'tkazilayotgan mustaqil milliy siyosatni o'rnatishga putur yetkazadi.

Ikkinchidan, qisqa va uzoq muddatli kapital, yuqori malakaga ega mehnat resurslari kabi ishlab chiqarishning yuqori safarbarligini ko'rsatuvchi omillar davlat tomonidan ishlab chiqarishni joylashtirish, daromadning taqsimlanishi, soliq stavkalarining o'rnatilishi va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ish bilan band qilish sohalari ustidan nazoratni ancha kamaytiradi.

Shunday qilib, globallashuv davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi harakatlarini cheklaydi, lekin uni bekor qilmaydi.

Alohida olingan mamlakatlar uchun globallashuvdan keladigan foyda yoki yo'qotishlar integratsiya bilan emas, balki bu mamlakatlar ichki bozori tuzilmasining xususiyatlari bilan ko'proq bog'liq. Globallashuv raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu sababli jahon bozoriga chiqish muvaffaqiyat kafolati hisoblanmaydi. Masalan, kemasozlik, aviatahshish xizmatlari, kimyoviy qayta ishlash, po'lat ishlab chiqarish kabi sohalar xalqaro raqobat sharoitida o'z daromadlarini yo'qotib, tavakkal qilishga majbur bo'lmoqdalar. Globallashuv jahon bozorida to'g'ri strategiyani tanlay olganlarga eng ko'p foyda keltiradi va bu bilan xalqaro raqobatning salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Globallashuv fenomenining mohiyati shundaki, u jahon bozorida tan olingan va tan olinmaganlarning foydalari farqini kuchaytiradi. Bu barcha sohalarda (sport, san'at, fan, musiqa, bank ishi yoki korporativ sohalar) o'z aksini topadi.

Hozirgi sharoitda tashqi savdo siyosati davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita hisoblanadi va tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Globallashuv tamoyillarini hisobga olgan holda davlatning tashqi savdosi jahon xo'jaligi tizimi bilan bog'langan va muqarrar ravishda nafaqat milliy huquqiy me'yorlar, balki xalqaro huquqiy standartlar bilan ham tartibga solinadi.

Davlatning tashqi savdo siyosati hukumat olib borayotgan umumiy iqtisodiy yo'nalishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, eksport-import tovar oqimlarining hajmi, tovar tarkibi va jug'rofiy yo'nalishini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan budjet-soliq faoliyati sohaslaridan biri hisoblanadi.

XX asrda globallashuv jarayoni ta'sirida tashqi savdo siyosatini amalga oshirish tamoyillari va unga yondashuvlar, o'z navbatida, xo'jalik faoliyatining bu sohasini tartibga solish amaliyoti ham o'zgarib bordi. Birinchi jahon urushigacha (1914—1918 yy.) bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi deyarli rad etilgan. Iqtisodchilar va siyosatchilar orasida A.Smitning bozordagi «ko'rinmas qo'l»ning muhim ahamiyatga egaligi haqidagi formulasiga asoslanuvchi neoklassik maktab tarafdorlarining qarashlari hukmron bo'ldi. Keyinchalik, XX asrning 30-40 yillarda ishlab chiqarish sohasini

davlat tomonidan tartibga solishni ilgari surgan J.M.Keyns nazariyasi tarafdorlarining nuqtai nazarlari ustuvorlik qildi. Va nihoyat, XX asrning 70-80 yillarda M.Fridman boshchiligidagi “Chikago maktabi”ning monetaristik tamoyillarni yoqlovchilarning mavqelari ko‘tarildi. Ular davlat tomonidan iqtisodiyotga har tomonlama, tashqi savdo siyosatiga esa muomala sohasi orqali ta’sir ko‘rsatish mexanizmlaridan foydalanishni ustuvor deb hisoblashadi.

Bugungi kunda davlatlar o‘rtasida tovar ayirboshlash amaliyotida yuqorida sanab o‘tilgan nazariy fikrlarning barcha yo‘nalishlari sintezidan foydalanilmoqda. Shuning uchun ham mamlakat tashqi savdosi holatiga ta’sir ko‘rsatish vositalari qatoriga u yoki bu hukumat ega bo‘lgan turli-tuman makroiqtisodiy dastaklar kiradi.

Hozirgi zamon tashqi iqtisodiy siyosatida ikki asosiy tamoyil: bir tomondan, davlatlarning ochiq turdagi iqtisodiyotga, ya’ni tashqi savdoni erkinlashtirishga o‘tish, ikkinchi tomondan, jahon bozoridan ajralganlik unsurlarini saqlab qolish, ya’ni proteksionistik chora-tadbirlarni amalga oshirish tamoyillari mavjudligini qayd etib o‘tish kerak.

Tashqi savdo siyosatining bir-biri bilan raqobat qiluvchi ikki yo‘nalishi: erkin savdo siyosati va proteksionizmni ajratib ko‘rsatish mumkin.

**Erkin savdo siyosati** sof holda deyarli mavjud bo‘lmaydi, chunki unga ko‘ra boshqa mamlakatlar bilan tashqi savdo sohasida ayirboshlash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga davlatning aralashuvi talab qilinadi. Haqiqatda esa ko‘rsatib o‘tilgan jarayonlarga davlatning aralashuvi minimallashtiriladi.

**Proteksionizm siyosati** – bu boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish siyosatidir. Bu siyosatning maqsadi milliy kompaniyalarning milliy va xorijiy bozorlardagi faoliyatiga xorijiy raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu ichki bozorni himoyalash va milliy kompaniyalarning xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashish orqali amalga oshiriladi.

Proteksionizm, odatda, ichki va tashqi bozorlarda doimiy ravishda o‘zgarib boradigan raqobat shart-sharoitlariga moslasha olmaydigan, faoliyatini qayta qura olmaydigan milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ifodalaydi. Ko‘p mamlakatlar tomonidan xalqaro savdoni cheklash bo‘yicha har qanday cheklashlarni olib tashlash bo‘yicha deklaratsiyalar e’lon qilinganiga qaramasdan, proteksionizm jahon hamjamiyatidagi barcha mamlakatlar milliy iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lgan va shunday bo‘lib qolmoqda.

Eksport-import operatsiyalarini tartibga solishning tarifli va tarifsiz usullari proteksionistik tashqi savdo siyosatining instrumentlari hisoblanadi. Tarifsiz usullar miqdoriy va yashirin usullarga bo‘linadi.

Savdo siyosatining ayrim instrumentlari asosan importni cheklash va eksportni qo‘llab-quvvatlash zaruriyati tug‘ilganda qo‘llanadi (6.4-jadval).

#### 6.4-jadval

##### Savdo siyosati instrumentlari<sup>96</sup>

Usullar	Savdo siyosati instrumentlari	Ustun ravishda tartibga soladi
Tarifli	Bojxona bojlari	Import
	Tarif kvotasi	Import
Tarifsiz Miqdoriy	Kvotalash	Importt
	Litsenziyalash	Import, eksport
Yashirin	«ko‘ngilli eksport cheklashlari»	Eksport
Moliyaviy	Subsidiyalar	Eksport
	Kreditlash	Eksport
	Demping	Eksport

Shuni ham e‘tiborga olish lozimki, alohida olingan mamlakatda tashqi savdoni tartibga solishning u yoki bu vositalarini tanlash mamlakatning ichki iqtisodiy vaziyatiga va jahon bozoridagi mavqeiga, alohida vaziyatlarda esa butun bir omillar majmuasiga bog‘liq. Masalan:

- raqobat kurashining keskinlashishi;
- valyuta kurslarining beqarorligi;
- to‘lov balanslarining kamomadlari;
- o‘tish davri iqtisodiyotidagi va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari kabilar.

Tashqi savdoni tartibga solish vositalarining turlari doimiy ravishda kengayib bormoqda, bu xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi sohalari, ya‘ni axborot ayirboshlash yoki servis xizmatlar iqtisodiyoti kabilarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Ularni tovar oqimlariga ta‘sir ko‘rsatish tabiatiga ko‘ra bir-biridan jiddiy farq qiluvchi ikkita asosiy turga - iqtisodiy va ma‘muriy turga ajratish mumkin.

Iqtisodiy (tarifli deb ham ataladigan) usullardan foydalanganda ishlab chiqaruvchi va iste‘molchilar, eng avvalo, narx mutanosibligi, tovar va resurslar eksporti hamda importning sifati va shartlariga amal qilishadi.

Tashqi savdoni tartibga solishning ma‘muriy (mos ravishda tarifsiz) usullaridan foydalanilganda bozor mexanizmiga davlat organlari tomonidan ta‘sir

<sup>96</sup> К.А.Семёнов. Международные экономические отношения: Учебник для вузов. –М., ЮНИТИ – ДАНА, 2003. С.189.

o'tkaziladi, ularning qarorlari va xatti-harakatlari ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning xohishlarini belgilab beradi.

Tarifli usullar tovar narxiga bevosita ta'sir qiladi. Bu usullar davlatlarning tashqi savdo amaliyotida eng keng tarqalgan, chunki ular birdaniga uchta vazifani hal qilish imkonini beradi:

- fiskal – budget uchun qo'shimcha mablag'lar olish;
- rag'batlantiruvchi – xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
- proteksionistik – milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Tashqi savdoni tarifli tartibga solish usullari jumlasiga bojxona bojlari, bojlar, yig'imlar, shuningdek, boshqa bilvosita soliqlar, masalan, aksizlar kiradi.

Tarifsiz usullar – tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Ular ko'proq rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlarga xosdir.

Tarifsiz ta'sir qilish vositalariga kvotalash, litsenziyalash, eksportni subsidiyalash, demping, kartel bitimlar va mamlakatlar o'rtasidagi tovar oqimlari yo'lida texnik to'siqlarni yaratish kabilar kiritiladi.

Jahondagi mamlakatlar va hududlar bo'yicha statistik axborotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish tarifli va tarifsiz usullarning kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi.

Tarifli usullarning mavqei keyingi paytda pasayib bormoqda, bu esa Jahon savdo tashkiloti tomonidan a'zo mamlakatlar oldiga qo'yilgan strategik vazifa, ya'ni ular o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlashda tarifli cheklashlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog'liq. Tarifsiz cheklashlarning ahamiyati «tanlovli» proteksionistik savdo siyosatining kengayib borishi tufayli ortib bormoqda.

### **6.3. Jahon inqirozlarining xalqaro savdo ko'lami, tarkibi va yo'nalishlariga ta'siri. Xalqaro savdo dinamikasi va uning o'zgarish xususiyatlari**

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida xalqaro savdoning mavqei XX asrda tobora oshib bordi. Buning asosida, birinchi navbatda, xalqaro savdoning hajmi 1870-yillardan boshlab muntazam ravishda o'sib borishi yotar edi (6.5-jadval). Agar 1870-1913 yillarda eksportning o'rtacha yillik o'sishi 3,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1950-2005 yillarda bu ko'rsatkich 6,2 foizni tashkil etdi, savdoni YaIMdagi ulushi esa ushbu davrda 4,6 foizdan 19,4 foizgacha oshdi.

## 6.5-jadval

**Jahon eksporti va jahon YaIMning o'zgarishi<sup>97</sup>, 1870-2010 yy. (mlrd AQSh doll., 1990 yildagi doimiy dollar narxlarida)**

	1870	1913	1870-1913 yillardagi o'rtacha yillik o'sish, %	1950	1998	2010	1950-2010 yillardagi o'rtacha yillik o'sish, %
Eksport	50,3	212,4	3,4	296	5817	8043	6,2
YaIM	1102	2705	2,1	5336	33726	41456	3,8
Savdo/YaIM, %	4,6	7,9		5,5	17,2	19,4	-

XX asrning 50-yillaridan so'ng jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Jahon eksporti 1948 yilda atigi 59 mlrd. dollarga teng bo'lgan bo'lsa, 2010 yilga kelib u 10,159 trln. dollarni tashkil qildi (6.6-jadval).

Ushbu davr ichida mintaqalarning jahon eksportidagi hissasi ham o'zgardi: Shimoliy Amerikaning hissasi 28,1 foizdan 14,5 foizgacha tushgan bo'lsa, Yaqin Sharq va Osiyoning ulushi esa qariyb ikki barobar o'sdi. 1993-2010 yillar ichida MDH mamlakatlarining hissasi ham ikki barobardan ko'proq oshdi.

1950-2000 yillar orasidagi davrda xalqaro savdoda tovar aylanmasi 14-15 barobar o'sdi. Mutaxassislarning fikricha, 1950-1970 yillarni xalqaro savdoning "oltin asri" deb aytish mumkin. Aynan ana shu davrda jahon eksporti yiliga o'rtacha 6-7%ga o'sdi. Ammo, 70-yillarda u 5,5% ga tushib, 80-yillarda yanada kamaygan edi. 80-yillarning oxirida va 90-yillarda jahon eksporti sezilarli ravishda jonlanganligini ko'rishimiz mumkin (90-yillarning o'rtasida 8-9% ni tashkil etgan). Bu davrda xalqaro savdoning barqaror o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvining rivojlanishi;
- ilmiy-texnika inqilobi (ITI);
- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati kengayishi;
- xalqaro savdoning Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);
- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko'plab davlatlarning importni son jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi rejimga o'tishlari, erkin savdo hududlarining tashkil topishi;

<sup>97</sup> World Trade Report 2007. - P. 244.

- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;
- mintaqaviy to'siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo hududlarining tashkil etilishi;
- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishi. Ularning orasida tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan "yangi industrial davlatlar"ning ajralib chiqishi va h.k.

### 6.6-jadval

#### Mintaqa va ayrim mamlakatlar guruhleri bo'yicha jahon eksporti<sup>98</sup>, 1948-2005 yy.

Mintaqa va ayrim mamlakatlar guruhleri	Yillar							
	1948	1953	1963	1973	1983	1993	2003	2010
<b>Hajmi, mlrd. AQSh dollari</b>								
<b>Jahon</b>	<b>59</b>	<b>84</b>	<b>157</b>	<b>579</b>	<b>1838</b>	<b>3675</b>	<b>7369</b>	<b>10159</b>
<b>Hissasi, %</b>								
<i>Jahon</i>	<i>100,0</i>	<i>100,0</i>	<i>100,0</i>	<i>100,0</i>	<i>100,0</i>	<i>100,0</i>	<i>100,0</i>	<i>100,0</i>
Shimoliy Amerika	28,1	24,8	19,9	17,3	16,8	18,0	15,8	14,5
Janubiy va Markaziy Amerika	11,3	9,7	6,4	4,3	4,4	3,0	3,0	3,5
Yevropa	35,1	39,4	47,8	50,9	43,5	45,4	46,0	43,0
MDH	-	-	-	-	-	1,5	2,6	3,3
Afrika	7,3	6,5	5,7	4,8	4,5	2,5	2,4	2,9
Yaqin Sharq	2,0	2,7	3,2	4,1	6,8	3,5	4,1	5,3
Osiyo	14,0	13,4	12,6	15,2	19,1	26,1	26,1	27,4
Ayrim mamlakatlar guruhleri:								
GATT/JST a'zolari	63,4	68,7	72,8	81,8	76,5	89,5	94,3	94,4
Yevropa Ittifoqi	-	-	27,5	38,6	30,4	36,1	42,4	39,4
Sobiq Sovet Ittifoqi	2,2	3,5	4,6	3,7	5,0	-	-	-
Rivojlanayotgan davlatlar	31,4	28,3	22,6	20,2	26,8	25,2	30,3	34,1
Rivojlangan davlatlar	66,4	68,2	72,9	76,3	68,2	73,3	67,1	32,6

XX asrning 50-yillaridan so'ng jahon iqtisodiyotida tashqi savdo dinamikasining notekisligi namoyon bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida, jahon bozorida davlatlar o'rtasidagi kuchlar nisbatiga ta'sir ko'rsatdi.

<sup>98</sup> World Trade Report 2007. - P. 244.



Jahon iqtisodiyotida AQShning hukmronligi pasaya boshladi. Masalan, 1950 yilda AQShning ulushiga jahon eksportining 1/3 qismi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilga kelib faqat 1/8 qismi to'g'ri kelgan edi. O'z navbatida, Germaniya eksporti Amerikanikiga yaqinlashdi, hatto ayrim yillarda undan ham oshib ketdi. Germaniyadan tashqari boshqa G'arbiy Yevropa davlatlarining eksporti ham o'sdi. 90-yillarda G'arbiy Yevropa xalqaro savdoning asosiy markazlaridan biriga aylandi. Uning eksporti AQShnikiga nisbatan qariyb 4 barobarga o'sdi.

XX asrning 80-yillariga kelib xalqaro savdo sohasida Yaponiya katta o'sishga erishdi. 1983 yilda u birinchi marta mashina eksporti bo'yicha birinchi o'ringa chiqdi. Yaponiya jahonda yengil va yuk avtomillarini, kundalik elektrotexnika asbob-uskunalar va boshqalarni olib chiqish bo'yicha boshqa davlatlardan ancha oldinlab ketdi. Yaponiya eksportining 1/3 qismi AQShga to'g'ri keladi. AQShning Yaponiya bilan bo'ladigan savdodagi defitsiti 90-yillarda 50-60 mlrd. doll.ni tashkil etdi.

80-yillarning oxiriga kelib Yaponiya raqobatbardoshlik omillari bo'yicha ilg'or davlatlardan biri bo'lib qoldi. Bu davrda unga "yangi industrial davlatlar" Singapur, Gonkong, Tayvan qo'shildi. Ammo 90-yillarning o'rtalariga kelib AQSh yana raqobatbardoshlik omillari bo'yicha oldingi o'rinlarga chiqib oldi. Undan keyin Singapur, Gonkong, Yaponiya bormoqda. Raqobatbardoshlik omillari bo'yicha Fransiya – 17, Xitoy – 34, Turkiya – 40, Rossiya – 48 o'ringa ko'tarildi. Gretsiya, Meksika, Polsha, Vengriya va Venesuela esa ro'yxatning eng oxirida turadi.

Jahon savdosida Oxirgi yillarda o'sish kuzatilmoqda va bu jarayon barcha mintaqalarga taalluqlidir. Eksport va importning eng tez o'sish sur'atlari Janubiy va Markaziy Amerika, MDH, Yaqin Sharq va Osiyoda kuzatilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar hozircha asosan rivojlangan davlatlar uchun xomashyo yetkazib beruvchi bo'lib qolmoqda. Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlarning oziq-ovqat va xomashyo (neftdan tashqari) eksportidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarning o'z eksportlarini sanoat mahsulotlari hisobiga diversifikatsiya qilishga urinishlari sanoati rivojlangan davlatlarning u yoki bu shakldagi qarshiligiga duch kelmoqda. Shu bilan birga ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, "yangi industrial mamlakatlar" o'z eksportlari tarkibini shakllantirishda ancha muvaffaqiyatga erishib, unda tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlari, shu jumladan, mashina va uskunalar ulushini ko'paytirmoqda.

Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda "yangi industrial davlatlar", ayniqsa, Osiyoning to'rt "kichik ajdarhosi" (Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur) o'z eksportlarini tez sur'atlarda ko'paytirib bormoqda. Ularning jahon eksportidagi ulushi 90-yillarning o'rtalarida 10-11 %ni tashkil

qilgan edi. Oxirgi o'n yilliklarda tez rivojlanayotgan XXR 2-3 %ni, AQShning jahon eksportidagi ulushi 12,3 %ni, G'arbiy Yevropaning eksportidagi ulushi 43 %ni, Yaponiyaning ulushi 9,5 %ni tashkil etgan edi.

Xalqaro tashkilotlarning (BMT, XVF) bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1981 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda xalqaro savdo yiliga o'rta hisobda 5,2 %ga o'sgan, ammo 1990 yildan boshlab uning o'sishi bir tekis bo'lmay, ba'zan sekinlashish tendensiyasiga ham ega bo'lgan. Masalan, 1989 yilda u 8,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 1993 yilda 4 %ni tashkil qildi. Ayni bir paytda Osiyo-Tinch okeani mintaqasining "yangi industrial mamlakatlari" tashqi savdosining o'sish sur'atlari 10-11% ni tashkil etgan.

90-yillarning o'rtalari va 2000-yillarning boshlarida jahon savdosining tez o'sishi asosan AQSh, Italiya, Kanada, Ispaniya importining keskin o'sishi bilan, shuningdek, sanoati rivojlangan davlatlarning (Yaponiyadan tashqari) Uzoq Sharq mamlakatlari va Lotin Amerikasi bozorlaridagi kon'yukturalarining yaxshilanishi bilan bog'liqdir.

Jahon iqtisodiyotida alohida davlatlarning dunyo savdosi taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rib chiqar ekanmiz, 1990-yillarda AQSh dunyodagi eng yirik eksport qiluvchi davlat bo'lgan. Bu davlatning tashqi savdo hajmi 1-1,5 trln. dollarni tashkil qilib, dunyo umumiy savdo hajmining 28-29% ni tashkil qilgan edi. AQSh ketidan Germaniya (802 mlrd. dollar – 18,8%), so'ng Yaponiya (672 mlrd. dollar – 15,8%) turgan. 90-yillarda dunyoning o'nta eng yirik savdo mamlakatlariga – Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, Gonkong, Belgiya (Lyuksemburg bilan birgalikda)ni kiritish mumkin. Eksportning eng yuqori o'sish sur'atlarini Xitoy, Singapur, Chili va Finlyandiyada kuzatish mumkin. 2000-yillarning boshida Markaziy va Sharqiy Yevropa eksportning o'sish sur'atlari bo'yicha Osiyodan keyin ikkinchi o'rinni egallagan.

Jahon savdosining eng dinamik va intensiv rivojlanayotgan sohasi ilmtalab tovarlar bilan savdodir. Jahon iqtisodiyotida ilmtalab mahsulotlar eksporti yiliga 500 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Yuqori texnologiyali mahsulotlarning sanoati rivojlangan davlatlar eksportidagi ulushi 40%ga yaqin. Mashina va uskunalarning bilan savdoning roli sezilarli ravishda o'sdi. 1980 yildan 2000 yilgacha sanoati rivojlangan davlatlardan mashina va uskunalarining eksporti uch marta o'sdi. Elektrotexnika va elektron uskunalar eksporti eng tez sur'atlar bilan o'smoqda. Mashina-texnika mahsulotlari eksportining 25 %i ularning ulushiga to'g'ri keladi.

Xalqaro savdoning tez rivojlanayotgan sohalaridan yana biri kimyo mahsulotlari savdosidir. Shuningdek, hisob-kitoblarga ko'ra, jahonda xalqaro xizmatlar savdosi ham keskin sur'atlarda o'sgan, XXI asrning birinchi o'n yilligida 1990 yilga nisbatan uning eksporti 2,68 marta, importi esa 2,54 marta ortgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarga kelsak, Janubiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Tinch

okeani mintaqalarida bu turdagi savdo hajmi o'rtacha 5 martagacha oshgan. Shuningdek, xizmatlar savdosining tarkibi ham so'nggi 15 yil mobaynida tubdan o'zgarib, undagi sug'urta, moliya va boshqa xizmat turlarining ulushi ortgan.

So'nggi yillarda jahon eksportining hajmi o'sishi bilan birga uning tarkibi ham o'zgarib boshladi. Bu, birinchi navbatda, jahon eksportida turli xizmatlar (ayniqsa transport, turizm, bank-moliya, axborot-kommunikatsion xizmatlarning) ulushining ortishi bilan bog'liqdir.

Axborot-texnologiya mahsulotlari eksporti va importi mintaqalar miqyosida farq qilib, bu borada, ayniqsa, Osiyo mamlakatlari katta yutuqlarga erishgan. XXI asrning boshiga kelib ularning axborot-texnologiya mahsulotlarini jahon eksportidagi ulushi 50 foizga oshib ketgan bo'lib, ushbu mahsulotlarning jahon importidagi hissasi esa 40 foizni tashkil etdi. Osiyo mamlakatlari ichida axborot-texnologiya mahsulotlari savdosi bo'yicha Xitoy eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlari axborot-texnologiya mahsulotlarining eksporti va importi bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Shimoliy Amerikaning jahon savdosida axborot-texnologiya mahsulotlari eksporti va importi bo'yicha ulushi pasaydi va oqibatda bu mahsulot turi bo'yicha mintaqaga eng katta sof import qiluvchiga aylandi. Janubiy-Markaziy Amerika, Afrika, Yaqin Sharq va MDH mamlakatlari hanuzgacha ushbu mahsulot turlari bo'yicha jahon eksportida past o'rinlarni egallamoqdalar. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlar ayni vaqtda axborot-texnologiya mahsulotlarining yirik importyorlari hisoblanadi.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida xalqaro savdodagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham o'ta muhim hisoblanadi.

Birinchi, milliy iqtisodiyot uchun xalqaro savdoning rivojlanishi iqtisodiyot globallashuvi ijobiy yutuqlaridan foydalanilganlikni ko'rsatadi.

Keyingi 30 yil ichida YaIMning, eksport va import ulushining o'sishi ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarda xalqaro savdoning o'rni o'sayotganligini ifodalamoqda. Sharqiy Osiyo davlatlarida va Tinch okean hududlarida bu 24 foizdan 54 foizgacha, Lotin Amerika davlatlari va Karib havzasi hududlarida 15 foizdan 25 foizgacha o'sgan<sup>99</sup>.

Ikkinchidan, jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning har xil guruhlarida o'zgarishlarga olib keldi: uchinchi guruhlarining (asosan axborot sohasi bo'yicha) birinchi va ikkinchi guruhlaridan ustun kelishi. Bu o'zgarishlar, oxir-oqibat, xalqaro savdo tizimida o'zgarishlarga olib keldi. Natijada, xalqaro almashinuvga kirmagan ba'zi xizmatlar savdosining ahamiyati oshdi<sup>100</sup>.

<sup>99</sup> Entaring the 21-st Century. World Development Report 1999-2000. The world Bank. Washington, 2000. - P. 52.

<sup>100</sup> World Economic and Social Survey. 1996. - P. 278-279.

Uchinchidan, xalqaro savdo jarayonining jahon iqtisodiyotiga nisbatan o‘sishi asosan savdo tizimining xalqaro institutlar, birinchi navbatda, Jahon savdo tashkiloti (JST) faoliyatida erkinlashtirish xo‘jalik faoliyatlarining globallashtiruviga asos bo‘lmoqda.

Globallashuv jarayoni o‘tgan asrning 80-90 yillarida, avvalo, bir qator jarayonlarning rivojlanishi evaziga yaqqol ko‘zga tashlandi. Ular qatoriga: xalqaro infratuzilmaning jadal rivojlanishi va global telekommunikatsiya tizimining shakllanishi bilan birga xalqaro savdoning yuqori sur‘atlarda o‘sishi kabi jarayonlarni kiritish mumkin.

Global axborot tizimi – INTERNETning rivojlanishi nafaqat yangi kommunikatsion tizimga, balki moliyaviy operatsiyalarni, marketingni, reklamani amalga oshirishda, mutaxassislar malakasini oshirishda hamda xalqaro savdoning tez sur‘atlar bilan o‘sishi, yangi shakllarining paydo bo‘lishi (elektron savdo) va tarkibi o‘zgarishiga ham olib keldi.

### 6.7-jadval

#### Tarmoqlar bo‘yicha V2V tizimining qo‘llanilishidan olinadigan xarajatlar tejami<sup>101</sup>

Tarmoqlar	Xarajatlar tejami, %
Aerokosmik soha	11
Kimyo	10
Kommunikatsiya va aloqa	5-15
Kompyuter	11-20
Elektron jihozlar	29-39
Oziq-ovqat	3-5
Metallni qayta ishlash	22
OAV va reklama	10-15
Neft va gazni qayta ishlash	5-15

Internetning tez sur‘atlar bilan tarqalishi natijasida “E-economy” – elektron iqtisodiyot, “E-commerce” – elektron savdo, “E-company” – elektron kompaniya tushunchalari jahon iqtisodiyotida katta o‘rin egallay boshladi. Misol uchun, “business to business (B2B)” tizimidan foydalanish bir qator xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratib beradi (6.7-jadval).

Xalqaro darajadagi o‘zgarishlar O‘zbekistonga ham ta’sir etmay kolmadi. So‘nggi yillarda davlat tomonidan tashqi savdoda, xususan, eksportda qayta ishlash tarmog‘i mahsulotlarining hissasini oshirish bo‘yicha bir qator samarali chora-

<sup>101</sup> Пороховский А.А. Новая экономика: американский вызов. //США – Канада: экономика, политика, культура. 2001, №6 – С.10.

tadbirlar amalga oshirildi. Natijada tashqi savdo va to'lov balanslari ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

#### **6.4. Xalqaro savdoda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tutgan o'rni**

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyati asosan ushbu davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatining erkinlashtirilishi, ochiq iqtisodiyotning yaratilishi bilan bog'liqdir.

Jahonning barcha rivojlangan davlatlari boshqa davlatlar bilan, birinchi o'rinda, o'zaro doimiy tashqi savdo aloqalarni olib borishadi. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarning dunyo eksportidagi ulushi oxirgi o'n yil ichida qat'iy 70-75% darajasida turibdi. XXI asr boshida rivojlangan davlatlarning eksport kvotasi 27 %ni tashkil qilgan (rivojlanayotgan davlatlarda 12%, o'tish davri iqtisodiyoti davlatlarida esa 5,5 %ni tashkil etgan). G'arbiy Yevropaning kichik rivojlangan davlatlarida (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) eksport kvotasi 40-50% atrofida bo'lgan. 90-yillardagi tovar va xizmatlar eksportining o'rtacha yillik o'sish sur'ati rivojlangan davlatlar umumiy mahsulotining o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarning eksport tarkibida ilmiy texnologik xarakterga ega bo'lgan mahsulotlar birinchi o'rinda turadi, eksport sanoat tovarlari orasida esa asosiy o'rinda axborot texnologiyalari va elektronika sanoat mahsulotlari, elektr aloqa uskunalari va elektron mikrosxemalar turadi. 90-yillar o'rtasida rivojlangan davlatlar ushbu mahsulotlarning 70 %ni jahon bozoriga chiqarishgan bo'lsa, XXI asrning dastlabki o'n yilligida bu ulush 75 foizni tashkil etdi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarning eksport xizmatlari hozirgi kunda tez sur'atlar bilan o'sib rivojlanib bormoqda. Oxirgi o'n-o'n besh yillar ichida ushbu mamlakatlarda eksport xizmatlari tovar olib chiqilishiga nisbatan tezroq o'sdi va uning eksportdagi umumiy ulushi 23 foizdan 30 % ga o'zgardi. Bu jarayonga 90-yillarning o'rtalarida INTERNET va axborot uzatishning boshqa aloqa tizimlarida kuzatilgan kuchli rivojlanish turtki bo'ldi. Ularga bevosita bog'liq ravishda eksportning kasbiy xizmat ko'rsatish turi ham rivojlanib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlar turli xildagi tovarlarning yirik importyorlari ham hisoblanadi. 80-yillar bilan taqqoslaganda, rivojlangan davlatlar aholisining oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalari va boshqa predmetlari bilan ta'minlanishida importning roli ancha o'sgan edi. Shu bilan bir qatorda bu mamlakatlarning jahon importidagi (ruda, yoqilg'i va metallardagi)

ulushi ancha qisqardi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining ochiqligiga qaramasdan ushbu davlatlarning hukumat rahbarlari o'zlarining eksportyorlarini faol qo'llab-quvvatlashadi, ya'ni, davlat eksport kreditlarini kafolatlaydi. Ular o'zlarining jahon bozoridagi mahsulotlarini yuqori raqobatbardoshligiga erishmaguncha, asosan, eng yuqori texnologiya sohalarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksportini subsidiya qiladi. Xo'jalik tarmoqlarining baynalmilallashuv darajasi keskin tebranadi.

Qator tarmoqlar yuqori darajada eksportga yo'naltirilgan. AQSh qishloq xo'jalik mahsulotlarining taxminan  $\frac{1}{4}$  qismini, uning ayrim turlari bo'yicha – yarmidan ortiq qismini eksport qiladi. AQSh sanoatida tashqi bozor bilan chambarchas bog'langan 7 ta qayta ishlash sanoati tarmoqlaridan iborat sektor hosil bo'lgan, ularning hissasiga jami sanoat mahsulotlari eksportining  $\frac{3}{4}$  qismi to'g'ri keladi. Umumiy mashinasozlik mahsulotining 30 % ga yaqini, dvigatellar va turbinalar bo'yicha 20 % dan ortig'i, samolyotlar bo'yicha 40 % dan ortig'i, kompyuterlar va elektronikaning 46 % eksport qilinadi. Umuman olganda, qayta ishlash sanoati mahsulotining 20 % eksport qilinadi.

Shu bilan birga, qayta ishlash sanoatining qator tarmoqlari: bosmaxona, rezina-texnika, oziq-ovqat, to'qimachilik, mebelsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish xalqaro mehnat taqsimotida nisbatan kam ishtirok etadi. Bu tarmoqlar asta-sekin xorijiy raqobatchilarga nafaqat ichki bozorlarning katta qismini, balki xalqaro bozorlarni ham topshirib qo'ydi.

Tovarlar va xizmatlar importi mamlakat ishlab chiqarishida muhim o'rinni egallaydi. Uning hisobiga ichki talabning 14-15 %, shu jumladan, qayta ishlash sanoati mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning 26 %, ayrim tovarlar bo'yicha esa undan ham yuqori qismi qondiriladi. Masalan, AQSh har yillik avtomobillar sotuv hajmining 30 % i import ulushiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda import ulushi dastgohlar va asbob-uskunalar sotuvlarining 50 % gacha, maishiy elektronika, kiyim-kechak, poyabzal va boshqa ayrim tovarlar sotuvlarida 60-80 % gacha o'sdi.

Amerika energiya iste'molining importga o'rtacha qaramlik darajasi 59 %ni tashkil etadi. Neft importi ahamiyatining o'sishi AQSh oldiga uzluksiz yetkazib berishlar va shunga bog'liq holda yetkazib berish hududlarini diversifikatsiyalash vazifasini qo'yadi.

AQSh tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi (1988-1990 yillardan tashqari). 2000-yillarda AQShning jahon eksportidagi ulushi 1990-yillardagi 13-14 %ga qaraganda 10 %gacha pasaygan bo'lsa, jahon importidagi ulushi 16-18 % gacha ko'tarildi<sup>102</sup>.

---

<sup>102</sup> Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.

AQSh tashqi savdo aloqalarining xarakterli xususiyati – ularning kamomadga egaligidir. 1971 yildan beri AQSh tashqi savdosi kamomad bilan yakunlanadi, bu kamomad qator tarmoqlarda raqobat ustunligining zaiflashuvi natijasi va amerika iqtisodiyotining o‘sib borayotgan baynalmilallashuvi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Yaponiya xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Jahon eksportining 5,3 % i uning hissasiga to‘g‘ri keladi.

Eksport kvotasi miqdoriga ko‘ra u yarim ochiq iqtisodiyotlar qatoriga kiritilishi mumkin, chunki YaIMning 12 % i eksport qilinadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha u AQShga yaqin turadi, lekin YeI ko‘rsatkichidan 1,5 marta orqada. Ba‘zi sanoat tarmoqlari (soatlar, magnitofonlar, kassa apparatlari, nusxa ko‘chirish mashinalari ishlab chiqarish) deyarli butunlay eksport uchun ishlaydi.

So‘nggi yillarda Yaponiya eksporti tarkibida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Avtomobillar (16,3 %) va maishiy elektrotexnikaning yuqori ulushga egaligi bilan birga kapital vositalar eksporti ko‘payib bordi. Umumiy mashinasozlik mahsulotlari, ilmiy asbob-uskunalar ulushi katta miqdorda o‘sdi.

Import tarkibi sanoatning xalqaro ixtisoslashuvi, xo‘jalikning baynalmilallashuvi jarayonlarini aks ettiradi. Ko‘pgina mineral va qishloq xo‘jalik xomashyo tovarlari bo‘yicha u dunyoning eng yirik xaridori hisoblanadi. Jahon neft, toshko‘mir, paxta va jun importining 10 %i Yaponiyaga to‘g‘ri keladi. Mashinasozlik mahsuloti importda asosiy o‘rinni egallaydi, uning ulushi jiddiy ko‘payib, 32 % ni tashkil etmoqda.

Yaponiya tashqi savdosida rivojlanayotgan mamlakatlar muhim o‘rin egallaydi: uning eksportining deyarli yarmi va importining 40 % dan ortig‘i ular hissasiga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, Yaponiya uchun XXR, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Fors ko‘rfazi mamlakatlari bilan savdo katta ahamiyatga ega.

Yevropa Ittifoqining tashqi savdoga qaramligi boshqa rivojlangan mamlakatlardan yuqori emas: jahon tovar aylanmasi hamda xizmatlar savdosining 18 %ini tashkil qiladi<sup>103</sup>.

Yevropa Ittifoqi mashinasozlik, kimyo sanoati mahsulotining yetakchi eksportchisidir. Ushbu tovarlar guruhi eksportining 20-23 % uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Biroq so‘nggi yillarda qator ilg‘or va istiqbolli tovarlar eksportida tutgan o‘rnining pasayishi kuzatiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga qayta ishlash sanoati mahsulotlari eksportida yuqori texnologiyali tovarlar ulushi 17 %ni, AQSh va Yaponiyada esa mos ravishda 31 va 24 %ni tashkil etadi.

Yevropa Ittifoqi qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti bo‘yicha AQShdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi (jahon eksportining 13 %). Don mahsulotlari eksportidagi ulushi 8 %ni tashkil etadi. Eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarga sut

---

<sup>103</sup> Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 443.

mahsulotlari va tuxum, go'sht va go'sht mahsulotlari, sabzavotlar, mevalar va shakar kiradi.

Yevropa Ittifoqi jahon importida ham katta o'ringa ega. U mashina va uskunalarning, qator qishloq xo'jalik mahsulotlarining yirik importyori hisoblanadi. Importda, shuningdek, mineral xomashyo va nometall yarim tayyor mahsulotlar muhim ahamiyatga ega. U iste'mol qilinadigan energetik xomashyoning 2/5 va boshqa xomashyo mahsulotlarining 3/4 qismini import qiladi. Yevropa Ittifoqining asosiy savdo sherigi AQSh – uning ulushi jami tovar aylanmasining 20 % dan ortig'ini tashkil qiladi. So'nggi o'n yillikda AQSh bilan savdo kuchaydi, Yaponiyaning ulushi ham ortib bormoqda. 1990-yillar Yevropa Ittifoqi tashqi savdosida tub burilish davri bo'ldi, chunki u ijobiy saldo bilan yakunlana boshladi, 2000-yillarning birinchi o'n yilligida ijobiy saldo YaIMning 0,1-0,2 % atrofida bo'ldi va asosan tovarlar va xizmatlar savdosi bilan ta'minlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) yalpi ichki mahsulotning miqdori bo'yicha dunyoda AQShdan so'ng 2-o'rinda turadi. XXR jahon xo'jaligida o'z nufuziga ega bo'lgan davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

YaIMning yillik o'rtacha o'sishi 1995 yildan 2003 yillargacha o'rtacha yiliga 8,5 %ni, 2003 yilda esa 14 %ni tashkil etib, 1980-2005 yillarda YaIM hajmi deyarli 5 marotaba o'sdi. Islohotlarni o'tkazishning 30 yillik davri mobaynida Xitoyda tashqi savdo hajmining yillik qo'shimcha o'sishi 18 % dan ortiq, ya'ni YaIM o'sishiga nisbatan 2 barobar ortiq bo'ldi. JSTga qo'shilgandan so'ng, eksportning o'rtacha yillik qo'shimcha o'sishi 27 %ni tashkil qildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida Xitoy, shuningdek Sharqiy Osiyo mamlakatlari eksporti rivojlangan mamlakatlar talabining pasayishiga tez munosabat bildirdi. Xususan, inqiroz boshlangan yilning o'zidayoq Xitoy eksportining o'sish sur'ati sekinlashdi - 2007 yildagi 25,7 %dan 2008 yilda 17,3 % gacha pasaydi (6.8-jadval).

Xitoy va boshqa Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining o'sish manbai bo'lgan eksport hozirda ular iqtisodiyotining zaiflik manbalaridan biriga aylandi. So'nggi 12 yil mobaynida tashqi savdoga qaramlikning o'sishi bilan mintaqa mamlakatlari eksportining geografiyasi ham o'zgarib bordi. Shu bilan birga, mintaqaning o'z eksport ulushini va yuqorida ko'rsatilgan shakllanayotgan bozorlarga qaramligini ko'paytirgan boshqa mamlakatlarining bozorlarida ham o'xshash o'zgarishlar ro'y berdi. Mazkur tendensiya ko'pchilik eksportlarning Osiyo rivojlangan mamlakatlar bozoriga qaramlikni kamaytirish yo'liga o'tganligi to'g'risidagi fikrlarni aytishiga asos bo'lmoqda.



**Xitoy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida eksport dinamikasi<sup>104</sup>, o'tgan yilga nisbatan %**

Mamlakatlar	Yillar						
	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Xitoy	22,4	34,6	35,4	28,4	27,2	25,7	17,3
Yaponiya	2,5	13,3	20,4	6,0	8,0	9,9	10,0
Koreya Respublikasi	8,0	19,3	31,0	12,0	14,4	14,1	13,6
Gonkong (XXR)	5,4	11,8	15,9	11,6	9,4	8,8	5,3
Tayvan	7,3	11,3	21,4	8,4	13,1	10,2	...
Singapur	2,8	27,9	24,2	15,7	18,2	10,1	13,0
Malayziya	6,9	11,3	20,8	11,5	13,4	9,6	15,9
Indoneziya	3,1	8,4	12,6	22,9	19,0	14,0	23,1
Tailand	4,8	18,2	21,6	15,0	16,9	17,2	16,9
Filippin	9,5	2,9	9,8	3,8	14,9	6,4	-2,9
Vetnam	11,2	20,6	31,4	22,5	15,1	16,1	16,3
Sharqiy Osiyo, (Yaponiyadan tashqari)	9,7	19,4	25,5	17,2	18,3	16,3	18,0

2007 yilda boshlangan moliyaviy inqirozning oldingi inqirozlarga nisbatan murakkab va kompleks xarakterini ham hisobga olish zarur. Xitoy iqtisodiyoti JSTga qo'shilganidan so'ng, uning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi kuchaydi va mamlakat jahon bozori kon'yunkturasiga jiddiy munosabat bildiradi. Birinchi va ikkinchi to'lqin yangi industrial davlatlarga (YaID) kelsak, jahon moliyaviy inqirozi ularga yanada kuchli ta'sir o'tkazadi, chunki ular mintaqa ichki savdosida Xitoy orqali AQSh va Yaponiyaga ishlab chiqarish kooperatsiyasi doirasida oraliq mahsulotlarni yetkazib berishda keng ishtirok etadi. Bu orqali AQSh va Yevropa bozorlaridagi iqtisodiy retsessiya ko'pgina Sharqiy Osiyo mamlakatlari qatori Xitoy eksportining pasayishiga olib keladi.

Umuman olganda, Osiyo mintaqasi inqiroz holatlariga avvalgi o'n yilga nisbatan yaxshiroq tayyor ekanligini ko'rsatmoqda. Chunki o'tgan davr mobaynida keng ko'lamlı islohotlar o'tkazildi, savdo va to'lov balanslari yaxshilandi, xorijiy valyuta zahiralari yaratildi.

### **6.5. Xalqaro savdo rivojlanishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning o'rni**

Xalqaro savdodagi sodir bo'layotgan jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz, erkinlashtirish uning eng asosiy yo'nalishi ekanligini ta'kidlash lozimdir. Bugungacha bo'lgan davrda xalqaro savdoni erinlashtirish jarayonida boj to'lovlari sezilarli kamaytirildi, ko'pgina cheklovlar, kvotalar va boshqa to'siqlar bekor

<sup>104</sup> Economic and Social Survey of Asia and Pacific-2009. N.Y., ESCAP, 2009. P. 174. World Economic Situation and Prospects-2009. N.Y., UN, 2009. P. 37.

qilindi. Biroq, xalqaro savdoda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning eng asosiysi – proteksionizm siyosatining ko'p sohalarda, jumladan, iqtisodiy guruhlar va mamlakatlarning savdo-iqtisodiy bloklari miqyosida rivoj topishidir.

Savdo-iqtisodiy bloklarning paydo bo'lishidagi dastlabki qadam bu erkin savdo hududlari (ESH)ning yaratilishidir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 90-yillarning o'rtalarida dunyo savdosining 42-45% erkin savdo hududlarida olib borilgan. Jahonda eng mashhur erkin savdo hududlariga Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi, Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqalar kiradi.

Jahon xo'jaligida 9 ta eng yirik xalqaro hududiy savdo bloklarining tarkibi quyidagicha bo'lgan:

1. **Yevropa Ittifoqi** – Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Gretsiya. YeIga 2004 yil 1 mayda Polsha, Chexiya, Estoniya, Litva, Latviya, Sloveniya, Slovakiya, Vengriya, Kipr, Malta, 2007 yilda Bolgariya va Rumuniya davlatlari ham a'zo bo'ldi.

2. **Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA)** – AQSh, Kanada, Meksika.

3. **Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi** – Islandiya, Norvegiya, Shvetsariya, Lixtenshteyn.

4. **Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi** – Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Tailand, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Indoneziya, Fillipin, Tayvan, Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Kanada, AQSh, Meksika, Chili, Rossiya, Peru, Ekvador.

5. **Janubiy Amerika umumiy bozori (MERCOSUR)** - Braziliya, Argentina, Paragvay, Urugvay.

6. **Janubiy Afrika Taraqqiyot qo'mitasi (SADS)** – Angola, Botsvana, Lesoto, Malavi, Mozambik, Mavrikiy, Namibiya, JAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve.

7. **G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta Ittifoqi** – Kot d'Ivuar, Burkina-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.

8. **Janubiy Osiyo hududiy hamkorlik assotsiatsiyasi** – Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Bangladesh, Maldiv orollari, Butan, Nepal.

9. **And pakti davlatlari** – Venesuyela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya.

Bunday bloklarning tuzilishiga siyosiy, iqtisodiy va tarixiy xarakterga ega bo'lgan ob'ektiv jaryonlar sabab bo'lgan edi. Bir tomondan, bunday jarayonlarning kuchayishi xalqaro savdoni kuchaytirs (iqtisodiy zona, blok va iqtisodiy hududlar miqyosida), boshqa tarafdin esa har qanday yopiq tuzilma ba'zi bir to'siqlarni vujudga keltiradi. Savdo-iqtisodiy guruhlarning o'zaro aloqalari natijasida global

savdo bozori yo'lida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab to'siq va qarama-qarshiliklar mavjud.

Xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo'lgan to'siqlarni bartaraf qilish va erkinlashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tashkilotlar orasida Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) markaziy o'rinni egallaydi. 1947 yilda 23 mamlakat tarafidan GATT tashkilotini tuzish haqida kelishuv imzolandi va u 1948 yilda kuchga kirdi. 1995 yilning 31 dekabrda GATT o'z faoliyatini tugatdi va uning o'rniga Jahon savdo tashkiloti (JST) barpo qilindi.

GATT – bu ko'p tomonlama xalqaro kelishuv bo'lib, u a'zo mamlakatlarning o'zaro savdosiga aloqador ko'pgina tamoyillar va huquqiy me'yorlarni, shuningdek, savdo va davlat boshqaruviga oid qoidalarni o'z ichiga oladi. Jahon iqtisodiyotida GATT eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri bo'lgan va uning faoliyat doirasi dunyo savdosining 94-95 % ini qamrab olgan.

GATTning huquqiy mexanizmi bir qator qonun-qoidalarga asoslangan:

- savdoda huquqiy buzilishni oldini olish uchun, birinchidan, eksport, import va tranzit operatsiyalarni, ular bilan bog'liq bo'lgan boj va to'lovlar borasida eng qulay shart-sharoit yaratish, ikkinchidan, import va milliy tovarlar uchun ichki soliq va to'lovlar borasida, shuningdek, ichki savdoni boshqaruvchi qonun-qoidalar borasida teng huquqlilikni ta'minlaydigan milliy tartiblarni yaratish;

- eng qulay rejim (EQR), ya'ni kelishuvga kirishayotgan taraflar orasida ular tarafidan uchinchi davlatlarga berilayotgan (yoki beriladigan) barcha imtiyoz va ustunliklardan foydalanish huquqini yaratish. Bu qoida tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishi, boj to'lovlari, ishlab chiqarish, dengizchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy holatiga tegishlidir;

- milliy bozorni himoya qilishda ko'proq tarifli vositalardan foydalanish, import va boshqa notarif cheklashlardan voz kechish;

- ko'p tomonlama muzokaralar olib borish yo'li bilan boj tariflarini pasaytirish;

- rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdoda preferensial (imtiyoz berish) tizimni o'rnatish;

- savdo borasida paydo bo'lgan kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish;

- bir-biriga savdo-siyosiy yon bosishda hamkorlik qilish.

GATTning faoliyati raundlarga birlashgan ko'p tomonlama muzokaralar yo'li bilan olib borilgan. GATT o'z faoliyatini boshlaganidan beri 8 raund o'tkazilgan bo'lib, buning natijasida o'rtacha boj miqdori o'n barobar kamaygan.

1996 yilning yanvarida GATTning o'rnini Jahon savdo tashkiloti (JST) egalladi. Uni 81 ta mamlakat ta'sis etdi. JSTni tashkil topishiga 7 yillik "Urugvay raundi" muzokaralari sabab bo'ldi.

JSTning GATTdan farqi nafaqat a'zo mamlakatlar sonida (1994 yil yakunida GATTda – 128ta, JSTda esa 2003 yilda – 154 ta), balki JST nizomida qo'llanilishi ko'rsatilgan tijorat faoliyati va savdo siyosatini keng qamrab olganligida ko'rinadi. GATT faqat tovarlar savdosi masalalari bilan shug'ullangan bo'lsa, JST xizmatlar savdosi hamda intellektual mulk huquqi savdosini ham qamrab oladi.

Savdoning eng yirik sohasi bo'lgan tovar va xizmatlar savdosini qamrab oluvchi bitimlar uch qismdan iborat. Ular umumiy rejaga asoslangan, lekin tafsilotlar bo'yicha farqlanadilar:

- ular uchta keng ko'lamli asosdan boshlanadi: Savdo va tariflar bo'yicha bosh bitim (GATT), Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitim (GATS) va Intellektual mulk savdosi bo'yicha bosh bitim (TRIPS);

- ma'lum sohalar yoki masalalar bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha bitimlar va ilovalar;

- yakuniy qismda mamlakatlarning o'z bozorlariga ma'lum xorijiy mahsulotlarni yoki xizmatlarni kira olishini ta'minlovchi majburiyatlar jadvali berilgan. GATTga nisbatan ular tovarlar tarifi bo'yicha chegaralangan majburiyatlar shaklini va ba'zi bir qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan turli kombinatsiyadagi tariflar va kvotalar shaklini oladi. GATS doirasida majburiyatlar xorijiy xizmat ko'rsatuvchilarga bozorga qay darajada kira olishlariga ijozat berilishi ko'rsatilgan.

Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitim (GATS) xalqaro xizmatlar savdosini qamrab oluvchi ko'p tomonlama qoidalar paketidir. Bu soha bo'yicha muzokaralar Urugvay raundida bo'lib o'tdi. GATT kabi GATS ham uch qismdan iborat: umumiy tamoyillar va majburiyatlarni o'z ichiga olgan asosiy matn; ayrim sohalar bilan bog'liq ilova; ayrim mamlakatlarning o'z bozorlariga kira olishni ta'minlashlari borasidagi maxsus majburiyatlari.

Intellektual mulk huquqlari savdosi bo'yicha JST bitimi – TRIPS bu huquqlarni butun jahon bo'ylab himoya qilish va ularni yagona xalqaro qoidalarga birlashtirishga urinish hisoblanadi. Bahslar tug'ilganda JSTning bahslarni hal qilish tizimidan foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtda ushbu tashkilotga 150 dan ortiq mamlakat, shu jumladan, MDH mamlakatlari – Qirg'iziston, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya va Moldova davlatlari a'zo bo'lib kirgan. O'zbekiston Respublikasi 1994 yildan beri JSTda kuzatuvchi sifatida ishtirok etib kelmoqda. Hozirgi kunda JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar jarayoni davom etmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida liberallashtirish jarayonlari mutloq ko'pchilik davlatlar uchun savdo samaradorligini kengaytirish va oshirishning eng muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Xususan, XVF baholashiga ko'ra, agar rivojlangan mamlakatlar savdo to'siqlarini minimal darajagacha pasaytirishsa, ular bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi savdo 14 %ga oshadi. Barcha davlatlarda savdo va kapital harakatining to'liq erkinlashtirilishi rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning 40 %ga, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning 63 %ga, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning 94 %ga kengayishiga olib kelgan bo'lar edi<sup>105</sup>.

Tahlillarning ko'rsatishicha, savdoning erkinlashtirilishi eksportyor va importyorlar uchun hatto an'anaviy eng sezgir tarmoqlarda ham foydalidir. Kembrij universitetida o'tkazilgan tadqiqotlarda qishloq xo'jalik mahsulotlariga tariflar va subsidiyalarning bir daqiqalik bekor qilinishi rivojlangan mamlakatlar uchun YaIMning 0,43 %i (taxminan 100 mlrd.doll.) va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun YaIMning 0,51 %i (30 mlrd. dollardan ortiq) darajasida iqtisodiy samara keltirishi aniqlangan.

Xalqaro savdoning ko'p tomonlama erkinlashtirilishining jahon xo'jaligi tizimida resurslardan yanada to'g'ri va samarali foydalanish evaziga keltiradigan iqtisodiy samara bilan birga, ayrim mamlakatlar uchun, ayniqsa, o'zgargan raqobat sharoitlariga moslashuvning ilk bosqichida vaqtinchalik zarar keltirishi ham mumkin. Har qanday vaziyatda savdo erkinlashtirilishidan olinadigan samaralar ishtirokchi mamlakatlar uchun bir xil bo'lmaydi, chunki ba'zi davlatlar raqobatbardosh milliy ishlab chiqarishga va jahon bozorlarida mustahkam o'rinlarga egaligi sababli ko'proq foyda oladi.

So'nggi yillarda ko'pgina davlatlarning ixtisoslashuvi mintaqaviy integratsiyalashuv va o'zaro savdoning erkinlashtirilishi jarayonlarining kuchli va ba'zan hal qiluvchi ta'siri natijasida shakllandi. Mintaqaviy savdo kelishuvlari a'zo mamlakatlar bozoriga imtiyozli kirish, JSTdagi kamsitishsiz kirishni ta'minlovchi a'zolikdan farqli ravishda, nafaqat boshqa mamlakatlardan mol yetkazib beruvchilar bilan teng raqobat sharoitlarini, balki eng asosiysi, jiddiy afzalliklarga (bojlarni kamaytirilishi yoki bekor qilinishi, notarif va boshqa to'siqlarning cheklanishi yoki olib tashlanishi kabi) ega bo'lishini bildiradi. Bundan tashqari, eng ilg'or iqtisodiy birlashmalarda integratsion jarayonlar tovar ayirboshlash bilan cheklanmasdan, xizmatlar savdosi, kapital va fuqarolar harakatlanishini ham qamrab oladi. Bu esa qo'shimcha samara keltiradi. Umuman hozirgi kunda xalqaro savdoning yarmidan ortig'i imtiyozli asosda amalga oshirilmoqda.

---

<sup>105</sup> World Economic Outlook, IMF, September. 2002, P. 124

Integratsion jarayonlar hozirgi vaqtda keng qamrovli, universal xarakter kasb etdi. JSTning 152 ta a'zosidan faqat Yaponiya va Mongoliya hech bir mintaqaviy savdo kelishuvida ishtirok etmaydi. Barcha mintaqaviy savdo kelishuvlarining deyarli 90 % erkin savdo hududi (ESH), qolgan qismi yagona tashqi savdo siyosati o'tkazuvchi bojxona ittifoqi shaklida qayd etilgan.

XXI asr boshida jahonda quyidagi eng asosiy mintaqaviy savdo kelishuvlari va integratsion tashabbuslar namoyon bo'lmoqda:

- Kanada Chili va Kosta-Rika bilan erkin savdo hududi haqida shartnomalar tuzgan;

- Janubiy Amerika Umumiy bozori (MERCOSUR), Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Singapur bilan muzokaralar olib bormoqda. Karib umumiy bozori (KARISOM, 15 mamlakat) bilan erkin savdo hududi tashkil qilish masalasi o'rganilmoqda;

- AQSh Iordaniya bilan erkin savdo hududi haqida shartnoma tuzgan, Chili, Koreya Respublikasi, Singapur va Turkiya bilan muzokaralar olib bormoqda. Avstraliya bilan kelishuvni imzolash imkoniyati o'rganilmoqda;

- Meksika Chili, Salvador, Gonduras, Gvatemala, EAST va Isroil bilan erkin savdo hududi haqida shartnomalar tuzgan. MERCOSUR, Ekvador, Peru, Urugvay, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi bilan erkin savdo hududi tuzish haqida muzokaralar olib bormoqda;

- Karib hamjamiyati va Karib umumiy bozori (KARISOM) Dominik Respublikasi va Kuba bilan erkin savdo hududini tashkil etish haqida shartnoma tuzgan;

- Markaziy Amerika umumiy bozori (MAUB, 5 mamlakat) Chili bilan erkin savdo hududi haqida, And hamjamiyati (5 mamlakat) – Braziliya bilan, MERCOSUR - Panama bilan erkin savdo hududi tashkil etish haqida muzokaralar olib bormoqda;

- Yevropa Ittifoqi (27 mamlakat) JAR, Chili va Meksika bilan erkin savdo hududi haqida shartnoma imzolagan. YeI – MERCOSUR, YeI – Fors ko'rfazi mamlakatlari hamkorlik kengashi doirasida bloklararo erkin savdo hududi haqida muzokaralar olib borilmoqda;

- Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga (ASEAN) a'zo-mamlakatlar 2005 yilda tariflar erkinlashtirilishini tugatish va erkin savdo hududi tuzish haqida qaror qabul qildilar;

- Koreya Respublikasi Chili, Meksika, Tailand, Yangi Zelandiya bilan erkin savdo hududini tashkil etish haqida muzokaralar olib bormoqda. Singapur Yangi Zelandiya bilan erkin savdo hududi haqida shartnoma tuzgan, Avstraliya va EAST mamlakatlari bilan muzokaralar olib bormoqda. Tailand Avstraliya, Xorvatiya,

Chexiya bilan erkin savdo hududi tuzish imkoniyatlarini o'rganmoqda. Xitoy ASEAN bilan erkin savdo hududi haqida muzokaralar olib bormoqda;

- Afrika qit'asida 5 yetakchi iqtisodiy birlashma erkin savdo hududi va bojxona ittifoqini shakllantirishni yakunlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda;

- Fors ko'rfazi mamlakatlarining hamkorlik kengashi (6 mamlakat) 1999 yil noyabrda 2005 yilda yagona tashqi tariflarni o'rnatish haqida qaror qabul qildi. Arab mamlakatlari ligasi (14 mamlakat) 2007 yilda umumiy bozorni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ydi.

Quyidagi asosiy belgili va tendensiyalar zamonaviy integratsion jarayonlar uchun xos:

- ikki tomonlama mintaqaviy savdo kelishuvlar sonining tez ko'payishi va geografik tarkibining kengayishi;

- ilg'or mintaqaviy savdo kelishuvlari integratsiyaning yanada yuqori darajalar tomon rivojlanishi;

- mamlakatlarning bir vaqtning o'zida turli darajali integratsiya modellarida ishtirok etishi;

- mintaqaviy integratsion mamlakatlarni shakllantirish va ular atrofida keng doiradagi mamlakatlarning birlashishi;

- bloklararo mintaqaviy savdo kelishuvlarining paydo bo'lishi.

Bularning barchasi mintaqaviy savdo kelishuvlarining xalqaro mehnat taqsimotini rivojlantirishning asosiy iqtisodiy-huquqiy vositasi sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Oxirgi o'n yillikda uch marta ko'paygan mintaqaviy savdo kelishuvlarning tez o'sishi a'zo mamlakatlarning nafaqat uchinchi mamlakatlar oldida o'z mahsulotlarining baho raqobatbardoshligini oshirish uchun afzalliklarga ega bo'lishga intilishi bilan, balki transmilliy ishlab chiqarishning kengayishi, TMK manfaatlarini va ularga xizmat qiluvchi savdo siyosatining globallashuvi bilan bevosita bog'liq.

## **6.6. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirishining afzalliklari va yo'qotishlari**

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida har qanday mamlakatning global iqtisodiy tashkilotlarga qo'shilishi ushbu mamlakat uchun ma'lum bir yo'qotishlar bilan birga katta afzalliklarni ham beradi. Bugungi sharoitda mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, xalqaro tashkilotlarga qo'shilishdan olinadigan afzalliklar yo'qotishlardan ustun bo'lmoqda.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan, bugungi kunda jahon mamlakatlarining xalqaro savdodagi ishtirokini muvofiqlashtiruvchi birlashma Jahon savdo tashkiloti hisoblanadi. Ushbu tashkilotga qo‘shilishning o‘zaro kelishgan shartlarining mavjudligi har qanday mamlakatning ham tashkilotga a‘zo bo‘lishida ma‘lum bir talablarni qo‘yadi.

JSTga a‘zo bo‘lish jarayoni uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, to‘rt bosqichdan iborat (6.9-jadval).

## 6.9-jadval

### JSTga a‘zo bo‘lish bosqichlari<sup>106</sup>

Bosqichlari	Talablar
Tayyorgarlik bosqichi	Mamlakatlardan Jahon savdo tashkiloti doirasidagi kelishuvlarga taalluqli savdo va iqtisodiy masalalar mazmunini ochib berish talab etiladi. Ushbu ma‘lumotlar “Tashqi iqtisodiy rejim to‘g‘risidagi Memorandum” shaklida taqdim etilishi zarur.
Muzokaralar bosqichi	Ishchi guruh va a‘zolikka da‘vogar mamlakatlar o‘rtasida ikki tomonlama muzokaralar boshlanadi. Bu muzokaralar tarif stavkalari, bozorlarga kirish bo‘yicha aniq majburiyatlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarga tegishli bo‘lib, Jahon savdo tashkiloti doirasidagi kelishuvlarga taalluqlidir.
A‘zolik shartlarini loyihalashtirish bosqichi	Ishchi guruhi ikki tomonlama muzokaralarni tugatgandan so‘ng a‘zolik shartlarini shakllantiradi. Ushbu shartlar “A‘zolik to‘g‘risidagi Protokol” va a‘zo bo‘layotgan mamlakat imzo qo‘yishi lozim bo‘lgan ro‘yxatda aks ettiriladi.
Qaror qabul qilish bosqichi	Hisobot, protokol va majburiyatlar ro‘yxati Jahon savdo tashkiloti Bosh Kengashi yoki Vazirlar konferensiyasiga taqdim etiladi. Agar Jahon savdo tashkiloti a‘zolarining uchdan ikki qismiga teng ovoz to‘plansa, mamlakat Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘ladi.

Birinchi bosqichda JSTga qo‘shilishni xohlovchi davlatlarning hukumat boshliqlari JSTda kuzatuvchilik huquqini beruvchi ariza beradi. Bunda hukumat JSTga yuboruvchi o‘z memorandumida mamlakatning savdo va iqtisodiy siyosatini to‘liq qamrab olgan jihatlarni takdim etadi. Bu memorandumga qo‘shilish to‘g‘risidagi so‘rovlarni to‘liq o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Shundan so‘ng JSTga ariza beruvchi davlatlar bo‘yicha ishchi guruh tuziladi.

Ikkinchi bosqichda ishchi guruh yig‘ilishlarida ariza bergan hukumat tovar va xizmatlar savdosiga nisbatan o‘z huquq va majburiyatlarini aniqlab olish maqsadada qiziquvchi a‘zo mamlakatlar hukumatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama muzokaralar olib boradi. Muzokaralar natijasida JSTga kirayotgan davlat tovarlar va xizmatlar savdosi bo‘yicha bajarishi lozim bo‘lgan va o‘zgartirilmaydigan aniq tariflar beradi.

<sup>106</sup> Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. / i.f.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: Moliya, 2011. – 708 b.



Uchinchi bosqichda ariza beruvchi davlatning savdo rejimini o'rganish va bozorga kirishga imkon beruvchi muzokaralar tuzish bilan ishchi guruh asosiy qo'shilish shartlarini ishlab chiqadi. Ushbu shartlar "A'zolik to'g'risidagi Protokol" va a'zo bo'layotgan mamlakat imzo qo'yishi lozim bo'lgan ro'yxatda aks ettiriladi. Yig'ilish natijasiga ko'ra JSTga kirayotgan davlat to'g'risida qaror tayyorlaydi va bu hujjatlar Bosh kengash yoki Vazirlar konferensiyasida tasdiqlash uchun takdim etiladi.

To'rtinchi bosqich qaror qabul qilish bosqichi hisoblanib, hisobot, protokol va majburiyatlar ro'yxati JST Bosh Kengashi yoki Vazirlar konferensiyasiga takdim etiladi. Qo'shilish to'g'risidagi qaror JST a'zolarining 2/3 qismi ovoz bergan takdirda imzolangan hisoblanadi.

JSTga a'zo bo'lgan davlat Urugvay raundi qamrab olgan bitimlarni qabul qilishi va amalga oshirishi kerak bo'ladi.

MDH mamlakatlaridan Qirg'iziston, Moldova, Gruziya, Armaniston, Ukraina va Rossiya JSTning a'zolari hisoblanadi. MDH mamlakatlarining JSTga a'zo bo'lish tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 2011 yil noyabrda Rossiya va JST o'rtasida davom etayotgan 18 yillik muzokaralar tugadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga va jahon xo'jaligiga chuqurroq integratsiyalashib borishga intilmokda. Hozirgi kunda jahondagi iqtisodiy munosabatlarda globallashtirish jarayoni tobora kuchayib bormoqda.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda tashqi aloqalar, ayniqsa, tashqi savdo aloqalarining ahamiyati beqiyosdir<sup>107</sup>.

Shuning uchun hukumatimiz tomonidan mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimiz JSTga a'zo bo'lish orqali o'z eksport salohiyatini yanada oshirishni reja qilmoqda. Hozirgi kunda 164 ta mamlakat JSTga a'zo hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi 1994 yilda a'zo bo'lish to'g'risida ariza topshirgan va shu kundan e'tiboran kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda JSTga a'zolik borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ekspertlar tomonidan ushbu a'zolik orqali qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan natijalar tahlil qilinmoqda<sup>108</sup>.

---

<sup>107</sup> Vahobov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: Baqtriya-press, 2015.

<sup>108</sup> Margianti E. S. et al. Systematical analysis of the position and further development of Uzbekistan national industry in the case of economic modernization. Monograph. Indonesia, Jakarta, Gunadarma Publisher ISBN 978-602-9438-41-3. — 2014.

Unga ko‘ra, a‘zolik O‘zbekistonga quyidagicha afzalliklar olib kelishi mumkin:

- iqtisodiy o‘shish;
- bozor mexanizmlarining rivojlanishi;
- ishlab chiqarish va eksportning oshishi;
- ilmiy - texnik rivojlanish;
- korrupsiya darajasini kamaytirish;
- yangi tarmoqlar va u bilan bog‘liq ravishda yangi ish o‘rinlarining vujudga kelishi;
- raqobat muhitining yaxshilanishi;
- xalqaro maydonda harakatlanish uchun keng yo‘l ochilishi.

Mamlakatimizda Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 2017 yilda O‘zbekiston tashqi savdo vaziri AQShning Markaziy va Janubiy Osiyo bo‘yicha savdo vakili yordamchisi Mark Linskot bilan JSTga a‘zo bo‘lish masalasini ko‘rib chiqdi. 2018 yil boshida Xalqaro savdo eksperti Yovan Yekich O‘zbekiston vazir maslahatchisi lavozimiga tayinlandi<sup>109</sup>.

2018 yil 13 mart kuni O‘zbekiston Respublikasining JSTga kirishini yangilash va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligiga BMTning rivojlanish dasturi ko‘magida texnik yordam ko‘rsatishga jalb qilish masalasida Osiyo Taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro rivojlanish bo‘yicha AQSh agentligi (USAID), O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha Germaniya jamiyati (GIZ) va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtirokida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

2018 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Yo‘l haritasi” tasdiqlandi. Ushbu yo‘l haritasida 34 ta tadbir kiritilgan bo‘lib, ular JSTga kirishni yangilash borasida hujjatlarni tayyorlash va mamlakat qonunchiligini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

2018 yil boshida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga tashrifida Janubiy Koreya tomoni O‘zbekistonni JSTga a‘zo bo‘lishiga ko‘maklashishini ma‘lum qilgan. 2019 yil O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish bo‘yicha arizani ko‘rib chiqish uchun tashqi savdo rejimi to‘g‘risidagi memorandum loyihasi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, JSTga a‘zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralari o‘tkazishning tashkiliy va yuridik masalalari ishlab chiqildi. Memorandum mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

2019 yil boshida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirining o‘rinbosari S.Saifnazarov mamlakatimizni Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish

---

<sup>109</sup> Kurpayanidi K. I., Abdullaev A. M. Activation of foreign economic relations on the basis of innovative development. Practice of Uzbekistan/ LAP LAMBERT Academic Publishing, European Union, Germany, 2018.

bo'yicha ishchi guruh raisi Ji-ah Paikni qabul qildi. U uchrashuvda a'zolik masalalari to'g'risida fikr almashilindi.

Tashkilotga a'zo bo'lgach, ko'pgina taraqqiy topgan davlatlar bilan teng huquqli savdo muzokaralarida ishtirok etish va muammolar yuzasidan murojaat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Holbuki, ushbu jarayon mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga va aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi. Umuman, JSTga a'zo davlatlar o'zaro ko'p tomonlama savdo muzokaralarini o'tkazish, savdodagi nizolarni hal etish, a'zo mamlakatlar milliy savdo siyosatini monitoring qilish kabi masalalarni ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasining 3-ustuvor yo'nalishi asosida mamlakatimizda valyutani tartibga solish, tashqi savdo, bojxona va soliq qonunchiligini liberallashtirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, bu o'z o'rnida mamlakatimiz JSTga a'zo bo'lishi uchun yangi shart-sharoit yaratib beradi.

## **VI bob bo'yicha qisqacha xulosalar**

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi, rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an'analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o'tdiki, bu bosqichni "globallashuv" deb atamoqdalar.

Iqtisodiy globallashuv qator yangi sifat belgilariga egaligi tufayli uni iqtisodiy hayot baynalmilallashuvining alohida bosqichiga ajratish mumkinki, bu bosqich o'tgan asrning boshi yoki o'rtalariga nisbatan farq qiladi. Xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liqligi hozirgi vaqtda nafaqat kuchliroq namoyon bo'lmoqda, balki global darajaga chiqib, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati integratsion jarayonlar rivojlanishi va bozor o'zgarishlariga alohida ahamiyat berayotgan va asosiy ustuvor yo'nalish - bozor islohotlarini chuqurlashtirish va keyingi iqtisodiy liberallashtirish bo'lib qolayotgan hozirgi zamonaviy sharoitlarda hududiy va jahon bozorlaridagi talablar va raqobatning keskin shakllari ortib boradi. Ular, o'z navbatida, navbatdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish zaruriyatini talab etuvchi omillarga aylanadi. Faqat barqaror iqtisodiy rivojlanish va to'liq quvvatdagi bozor infratuzilmasini shakllantirishgina mamlakatimizning global jahon xo'jaligi tizimiga samarali integratsiyalashishi imkonini beradi.

Jahon tajribasiga ko'ra, zamonaviy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish davomli jarayon bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy strategiya ishlab chiqilishi, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, xo'jalik aloqalari shakl va usullarini tubdan qayta tuzishni talab etadi.

Globalashuv fenomenining mohiyati shundaki, u jahon bozorida tan olingan va tan olinmaganlarning foydalari farqini kuchaytiradi. Bu barcha sohalarda (sport, san'at, fan, musiqa, bank ishi yoki korporativ sohalari) o'z aksini topadi.

Hozirgi sharoitda tashqi savdo siyosati davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita hisoblanadi va tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Jahon iqtisodiyotining globalashuvi sharoitida har qanday mamlakatning global iqtisodiy tashkilotlarga qo'shilishi ushbu mamlakat uchun ma'lum bir yo'qotishlar bilan birga katta afzalliklar ham beradi. Bugungi sharoitda mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, xalqaro tashkilotlarga qo'shilishdan kuriladigan afzalliklar yo'qotishlardan ustun bo'lmoqda.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda tashqi aloqalar, ayniqsa, tashqi savdo aloqalarining ahamiyati beqiyosdir.

Shuning uchun hukumatimiz tomonidan mamlakat eksport salohiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimiz o'zining eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida JSTga a'zo bo'lishni reja qilgan. Hozirgi kunda JSTga 164 ta mamlakat a'zo hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi 1994 yilda a'zo bo'lish to'g'risida ariza topshirgan va shu kundan e'tiboran kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda JSTga a'zolik borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ekspertlar tomonidan a'zolik olib kelishi mumkin bo'lgan natijalar tahlil qilinmoqda.

### **Tayanch iboralar**

Xalqaro savdo, globalashuv, iqtisodiy globalashuv, lokallashuv, globalashuv fenomeni, tashqi savdo siyosati, ekin savdo siyosati, proteksionizm siyosati, savdo-iqtisodiy integratsiya, integratsion jarayonlar, Jahon savdo tashkiloti.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Global iqtisodiyot shakllanishida xalqaro savdoning o'rnini tushuntiring.
2. Globalashuvning qanday belgilari ajratib ko'rsatiladi?
3. Globalashuv fenomenining mohiyatini tushuntiring.
4. Qanday omillar xalqaro savdoning barqaror o'sishiga ta'sir ko'rsatadi?
5. Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyati qaysi xususiyatlar bilan bog'liq?

6. Xalqaro savdo rivojlanishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning o'rnini tushuntiring.

7. Jahon xo'jaligida 9 ta eng yirik xalqaro hududiy savdo bloklarining tarkibiga qaysi davlatlar kiradi?

8. Xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo'lgan to'siqlarni bartaraf qilish va erkinlashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qanday o'rin tutadi?

9. Savdoning eng yirik sohasi bo'lgan tovar va xizmatlar savdosini qamrab oluvchi bitimlar uch qismdan iborat. Ular umumiy rejaga asoslangan, lekin tafsilotlar bo'yicha qanday farqlanadi?

10. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni uzok va murakkab jarayon bo'lib, u necha bosqichdan iborat?

11. Jahon savdo tashkilotiga a'zolik O'zbekistonga qanday afzalliklar olib kelishi mumkin?

## VII BOB. GLOBAL, MINTAQAVIY VA MILLIY MOLIYAVIY BOZORLAR

### 7.1. Global moliyaviy bozorlarning shakllanishi, amal qilishi va ularni tartibga solish vositalari

XX asrning soʻnggi yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, mamlakatlar oʻrtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga oʻtishi, milliy xoʻjalik aloqalarining integratsiyalashuvi bilan globallashuv jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Globallashuv natijasida jahon xoʻjaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik toʻsiqlarning yoʻqolishiga, uning oʻrniga xalqaro iqtisodiy xoʻjalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xoʻjalikning funksional aloqalari tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globallashuv – iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon boʻlmoqda.

Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga sezilarli taʼsir etgan oʻzgarishlar sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

- 1950-yillardan boshlab AQSh korporatsiyalarining oʻz xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi, jahon bozorida Yevropa va Yaponiya korporatsiyalari faoliyatining sezilarli oʻsishi, xalqaro maydonda Yaponiya va AQSh korporatsiyalari oʻrtasidagi raqobatning kuchayishi;

- 1957 yilda Londonda Britaniya hukumatining funt-sterling ustidan nazorat oʻrnatishiga javob tariqasida yevro-dollar bozorining yuzaga kelishi;

- 1958 yilda dastlab “Umumiy bozor” deb atalgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YeIH) – hozirgi Yevropa Ittifoqining (YeI) tashkil topishi;

- XX asrning 60-yillarida Yaponiya iqtisodiyotining tez surʼatlar bilan oʻsishi, Uzoq Sharq biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarning vujudga kelishi;

- 1971-1973 yillarda Brettonvuds tizimining qulashiga olib kelgan jahon moliyaviy inqirozlari, valyutaning belgilangan kursi tizimidan suzuvchi valyuta kurslariga oʻtilishi;

- 1971-1979 yillardagi birinchi va ikkinchi neft inqirozlarining jahon iqtisodiy tizimiga bosim oʻtkazishi. Ushbu davrda neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkilotining (OPEK) neft narxini sezilarli darajada oshirishi;

- 1982 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlariga xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq jahon qarzdorlik inqirozining boshlanishi;

- 1980-yillarda Yaponiyaning xalqaro moliyaviy kuch va jahon kapitalining manbasi sifatida yetakchi mamlakatga aylanishi;

- 1987 yilda “Katta yettilik” mamlakatlari tomonidan Parijda Luvr bitimining imzolanishi. Ular o‘z valyuta kurslarining dollarga nisbatan tor tebranish doirasida sun’iy ravishda almashtirish orqali kuchsizlanib borayotgan dollarni qo‘llab-quvvatlashni rejalashtirdilar. Shuningdek, ushbu mamlakatlar kelishilgan iqtisodiy siyosat yuritishni mo‘ljalladilar.

- 1987 yilda YeiH yagona Yevropa aktini qabul qilish orqali 1992 yilda yaxlit Yevropa bozorini tashkil qilishni rejalashtirilishi. Bunda mazkur tashkilotning G‘arbiy Yevropa moliyaviy va iqtisodiy holatiga sezilarli ta’sir etishi kutiladi.

- 1989-1992 yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlarining o‘z siyosiy yo‘nalishlarini o‘zgartirishi. Ularning kommunistik dunyoqarashdan ko‘p partiyaviylikka, markazdan rejalashtiriladigan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishi jahondagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy holatga chuqur ta’sir etdi.

- 1992 yildan keyin yaxlit Yevropa bozorining yuzaga kelishi, 1993 yil noyabr oyidan Shimoliy Amerika erkin savdo bitimining (NAFTA) kuchga kirishi, 1993 yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATYeS) konferensiyasi va boshqa jarayonlar o‘tgan asrning 90-yillarida mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirdi.

XX asr oxiriga kelib jahon iqtisodiyotida to‘rtta asosiy tendensiya kuzatiladi.

Birinchidan, xom ashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘zgarishlar.

Xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar va sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida an’anaviy iqtisodiy aloqalar mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlar modeli quyidagicha edi: xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xomashyoni eksport qilib, olingan valyuta tushumlaridan sanoat mahsulotlari importini moliyalashtirganlar.

XX asrning 70-yillarida “Rim klubi” nomi bilan mashhur G‘arbiy Yevropa olimlari: “Dunyo miqyosida tez orada tabiiy resurslarning global taqchilligi yuzaga keladi”, deb bashorat qilgan edilar. Ushbu mulohazalarga asoslanib, ko‘pgina xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xomashyo sotish evaziga valyuta tushumini oshirish maqsadida kartellarga birlashdilar. Ammo sanoat texnologiyasi va qishloq xo‘jalik sohasining keskin rivojlanishi xomashyoga bo‘lgan talabning qisqarishiga olib keldi va natijada xomashyo bahosining pasayishi yuz berdi.

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo‘l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan bilim va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga o‘tildi. Jahon iqtisodiy tuzilmasidagi ushbu o‘zgarishlar natijasida bandlik tarkibida yuqori malaka talab qiluvchi mutaxassislariga ehtiyoj ortib, nisbatan past malakali mutaxassislariga talab pasayib bordi.

Axborot almashuvining osonligi tadbirkorlik faoliyatini, kichik biznes va shaxsiy tashabbusni rag‘batlantirdi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish bilimni va yuqori malakani talab qildi, shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish uchun inson kapitaliga investitsiya qilishning ahamiyati ortdi.

Uchinchidan, jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi. Ushbu o'zgarish xalqaro savdoga nisbatan xalqaro kapital harakatining tez sur'atda o'sishi bilan yuz berdi. Xalqaro moliya statistikasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon eksporti hajmi 1981 yildagi 2000 mlrd. AQSh dollaridan 1991 yilda 3447 mlrd. AQSh dollari darajasigacha, ya'ni 1,5 marta o'sgan. Shu vaqt mobaynida xalqaro obligatsiyalar emissiyasi 23 mlrd. dollardan 342 mlrd. dollargacha, ya'ni deyarli 15 marta o'sdi. Bundan tashqari, uchta yetakchi xalqaro moliya bozorlarida ko'plab xorijiy valyutalar aylanmasi sezilarli darajada o'sdi. 1986 yildan 1992 yilgacha Londonda xorijiy valyutaning kunlik o'rtacha aylanmasi 90 mlrd. dollardan 303 mlrd. dollargacha ortdi. Shu davrda Nyu-Yorkdagi kunlik aylanma 50 mlrd. dollardan 192 mlrd. dollargacha, Tokioda 48 mlrd. dollardan 128 mlrd. dollargacha ortgan.

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko'lamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valyuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan o'nlab, ba'zan yuzlab marta ortiqdir.

Davlatlar, xalqaro tashkilotlar, banklar, xususiy kompaniyalar tomonidan beriladigan xalqaro kreditlar ulkan hajmlarda amalga oshirilmoqda (7.1-jadval).

## 7.1-jadval

### 2006 yilda xalqaro kredit resurslar hajmi<sup>110</sup> (mlrd. doll.)

№	Ko'rsatkichlar	Dunyo	AQSh	Yevropa Ittifoqi
1	<b>Jahon YaIM</b>	<b>41255</b>	<b>11734</b>	<b>9616</b>
2	<b>Jahon valyuta zahiralarini (oltindan tashqari)</b>	<b>3866</b>	<b>175</b>	<b>281</b>
3	Fond bozorlarining kapitallashuvi	37168	16324	9270
4	Qarz qog'ozlari (davlat va xususiy)	57843	22307	19261
5	Tijorat banklari aktivlari	57316	8497	27993
	<b>3,4,5 qatorlarning yig'indisi</b>	<b>152327</b>	<b>47127</b>	<b>56524</b>

<sup>110</sup> Global Financial Report, IMF, 2006.



Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, 2006 yilda turli kredit resurslarining hajmi ulkan miqdorga – 152 trln. dollarga yetdi. Bu kapitalning hammasi ham xalqaro transaksiyalarda ishtirok etmaydi.

Chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning 20 %i xalqaro majburiyatlarni ifodalaydi. Bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga kapitallarning katta oqimi ularning iqtisodiy rivojlanishining o'zaro bog'liqligini paydo qiladi.

To'rtinchidan, transmilliy korporatsiyalarning qo'shma korxonalarini tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi. Bunda asosiy o'zgarish sifatida TMKlar va ularning turli mamlakatlardagi qo'shma korxonalarini sonining o'sib borishini ko'rish mumkin.

TMKlar tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ta'sir etdi. Qo'shma korxonalar xalqaro biznes integratsiyasining keng tarqalgan shakliga aylandi.

Shuningdek, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur. Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro institutlar hamda yetakchi mamlakatlar rahbarlari va moliya vazirlarining har yili bo'lib o'tadigan uchrashuvlarining xalqaro munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Texnologiyalar bo'yicha, atrof-muhitni asrash, moliya institutlarining faoliyati, buxgalteriya hisobotlari, milliy statistika (milliy hisoblar tizimi) va boshqalarga yagona andozalarni qo'llash kengaymoqda. Ushbu andozalar ta'lim va madaniy sohalarga ham yoyilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar orqali makroiqtisodiy siyosatning yagona mezonlari tatbiq etilmoqda. Valyuta-kredit, soliq, tashqi iqtisodiy siyosat, bandlik sohasi bo'yicha qo'yiladigan talablarning bir xillashuvi yuz bermoqda, xalqaro raqobat qoidalari ishlab chiqilmoqda.

Bu jarayonlar qanchalik jadal sur'atlarda amalga oshirilmasin, zamonaviy jahon iqtisodiyoti o'ta global holatda faoliyat yuritayotgani yo'q, balki u globallashuv jarayonlarining dastlabki bosqichlarini boshdan kechirmoqda.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning jahon bozoriga integratsiyalashuvi uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Ba'zi milliy bozorlarning ochiq, ba'zilarining qattiq tartibga solingan hozirgi holati bilan globallashuvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan liberallashuv o'zaro nomutanosib ko'rinish hosil qilmoqda.

Xalqaro tovarlar, xizmatlar va kapital almashinuvining erkinlashish an'anasi kengayayotgan bir paytda, har bir davlat eksport va importni tartibga solishning ma'lum usullarini saqlab qolmoqdalar. Ularning asosiy maqsadi tarkibiy qayta qurish va inqiroz davrining qiyinchiliklarini yengib o'tish, milliy xavfsizlikni ta'minlash – takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlovchi (energetika, transport, aloqa va x.k) va mamlakat mudofaa qobiliyati kabi strategik sohalarni moliyaviy ta'minlash, savdo sheriklardan munosib imtiyozlarni olish, shuningdek, budget tushumlarini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Amaldagi bunday proteksionizm fiskal muammolarni hal etishdan ko'ra ko'proq tarkibiy siyosat o'tkazish vositasi hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda erkin savdo g'oyasi (liberallasuv) bilan proteksionizm o'rtasida nafaqat qarama-qarshilik yuzaga chiqmoqda, balki milliy xo'jalikni jahon xo'jaligiga qo'shilish samarasini maksimal ta'minlash maqsadida xo'jalikni tartibga solishning yuqoridagi ikki usulining optimal birikmasidan foydalanilmoqda. Bunday birikmaning shakl va nisbatlari ma'lum vaqtdagi pragmatik manfaatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda globallasuv bilan birga integratsiya jarayonlarining yana bir shakli, ya'ni ma'lum geografik joylashuvga asoslangan hududiy integratsiya (hududiy lashuv) yuz bermoqda.

O'sib boruvchi globallasuv, hududiy lashuv, iqtisodiyotning transmilliy lashuvi va integratsiya natijasida eski davlatlararo tartibga solish mexanizmi tubdan o'zgaradi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ikki tomonlama munosabatlar chegarasidan chiqib, ko'p tomonlama tus olmoqda.

Ammo "milliy xo'jalik majmui", "mamlakatning milliy iqtisodiy manfaatlari" tushunchalari o'z ma'nosini saqlab qolmoqda. Milliy xo'jalik hamon ishlab chiqarish, almashinuv, taqsimot va iste'mol, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning asosiy markazidir.

## **7.2. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga solishdagi o'rni**

Global lashuv jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida davlatlararo har tomonlama hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida xalqaro tashkilotlar va fondlar yuzaga chiqmoqda. Ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda umumiy tUSDagi maqsadlarga erishish uchun davlatlar, milliy institutlar, nodavlat assotsiatsiyalarini birlashtiradi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish uchun o'z fondlarini tashkil etadilar.

Davlatlararo kelishuvlar asosida ishtirokchi davlatlarning yagona moliya va kredit siyosatlarini amalga oshirish uchun pul mablag'larining davlatlararo

maqsadli fondlari tuziladi. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) o'z daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi.

Birinchi turga moliya-kredit tashkilotlarining davlatlararo va xalqaro fondlari kiradi. Ular nizom kapitalida ishtirok etuvchilarga maqsadli kreditlar ajratadilar va maqsadli fondlarni tashkil etadilar. Bu tashkilotlar faoliyati davomida olgan daromadlaridan ulushiga ko'ra dividend to'laydilar hamda turli maqsadlar uchun zahira fondlarini shakllantiradilar.

Mazkur tashkilotlar jumlasiga Xalqaro Investitsiya banki (XIB), Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik banki (XIHB), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB), Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ni kiritish mumkin.

Xalqaro moliya tashkilotlari va fondlarning nizom kapitali shakllanishida, olingan daromadlarni taqsimlab, turli fondlarni tashkil etishda moliya munosabatlari katta rol o'ynaydi.

Milliy va xalqaro moliya-kredit institutlarining mablag'lari, xalqaro ishtirokchi-tashkilotlar fondi, manfaatdor mamlakatlarning valyuta fondlari va budjet mablag'lari to'lanadigan badallarning manbasi hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi (YeI)da ham qator davlatlararo fondlar, jumladan, Yevropa Ittifoqining budjeti, Yevropa Taraqqiyot fondi, Yevropa Valyuta Hamkorlik fondi va boshqalar tashkil etilgan.

Ikkinchi tur tashkilotlarining budjetlari ishtirokchilarning har yillik badallari evaziga tashkil etiladi. Bunday tashkilotlarga ma'lum sohalaridagi milliy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi xalqaro va umumjahon institutlari kiradi. Ularga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Vaqt Byurosi, Atom energetikasi bo'yicha Xalqaro Agentlik, Dengiz aloqasi bo'yicha Xalqaro Tashkilot, Ilmiy xizmatchilarning umumjahon Federatsiyasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Uchinchi tur xalqaro tashkilotlariga vaqtinchalik tusga ega bo'lgan ilmiy dasturlar va kongresslarni kiritish mumkin. Ularni moliyalashtirish qatnashuvchi ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Xalqaro biologiya dasturi (1964-1974 yy.), Xalqaro geodinamik loyiha (1971-1980 yy.), Xalqaro osoyishta quyosh yili (1964-1965 yy.), 1957 yildan boshlab har ikki-uch yilda chaqiriladigan Xalqaro tog' kongressi va boshqalar. Ushbu tashkilotlar turli mamlakat olimlari bilan yaxlit ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

To'rtinchi tur xalqaro tashkilotlari xalqaro ilmiy laboratoriyalar, institutlar, ittifoqlar, yaxlit va umumiy sohalar assotsiatsiyalari, ma'lum ilmiy sohalar bo'yicha byurolardan iborat. Ular mamlakatlarni, milliy ilmiy tashkilotlarni, assotsiatsiyalarni, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan alohida olimlarni birlashtiradi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu tashkilotlar yillik ulushli badallar, konferensiyalarda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish badallari, yuridik

va jismoniy shaxslarning xayriya mablag‘lari, davriy ilmiy nashrlardan daromadlar hisobidan tashkil etiladigan budjetlar tomonidan moliyalashtiriladilar. Mazkur tashkilotlarga misol qilib milliy va qo‘shma dasturlar bo‘yicha ishlaydigan Kuchli magnit maydonlari va past harorat bo‘yicha xalqaro fond, Xalqaro matematika markazi va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Beshinchi tur xalqaro tashkilotlari faoliyatning ma‘lum sohalariga ko‘maklashish va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni yig‘ish bilan shug‘ullanadilar. Masalan, Xalqaro Yovvoyi tabiat fondi davlat, jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslardan yovvoyi hayvonlar va tabiatni qo‘riqlash uchun mablag‘larni yig‘uvchi nodavlat tashkilotdir. Ushbu tashkilot boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ma‘lum tadbirlarni moliyalashtiradi. Fond o‘zining nashriga ega bo‘lib, uni sotishdan olinadigan daromadlar fond budjetining daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

“Olimpiya birdamligi” fondi rivojlanayotgan mamlakatlar milliy olimpiya qo‘mitalariga moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun tuzilgan. Mazkur fond milliy olimpiya qo‘mitalarining badallari, xususiy kompaniyalar, firmalar va xususiy shaxslarning xayriyalari, Xalqaro olimpiya qo‘mitasining investitsion va nashriyotchilik faoliyati natijasida olingan daromatlari hisobidan shakllantiriladi. Fondga olimpiya o‘yinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlarning 1/3 kelib tushadi (olimpiya o‘yinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlar mos ravishda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, “Olimpiya birdamligi” fondi va Olimpiya sport turlari bo‘yicha xalqaro Federatsiya o‘rtasida taqsimlanadi).

Fondning budjeti har yili tasdiqlanadi. Asosiy tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha hududlarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar xarajatlarning 75-85 foizini tashkil etadi. Ushbu tadbirlarga yig‘inlar o‘tkazish, xakamlar majlisini o‘tkazish, sport buyumlarini sotib olish, milliy olimpiya qo‘mitalariga moliyaviy yordamlar ko‘rsatish va boshqalarni kiritish mumkin. Boshqa mablag‘lar nashriyotchilik faoliyatiga va joriy xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan fondlarning tarkibiy tuzilishi, maqsadi, vazifalarini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida birinchi tur fondlar –moliya-kredit tashkilotlariga mansub Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) haqida ma‘lumotlarni keltiramiz.

Xalqaro Valyuta Fondi BMTning maxsus tashkiloti bo‘lib, uni tuzish to‘g‘risidagi kelishuv 1944 yilda Bretton-Vudsdagi valyuta-moliya masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan BMT konferensiyasida imzolangan. 1945 yilning 27 dekabrda ushbu kelishuv kuchga kirgan. Xalqaro Valyuta Fondi amalda o‘z faoliyatini 1946 yildan boshladi.

Bretton-Vuds kelishuviga muvofiq Xalqaro Valyuta Fondining vazifasi unga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarning oltin va AQSh dollarida ifodalangan valyuta

zahiralarini tartibga solish hamda a'zo mamlakatlarning valyuta paritetlarining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Ushbu kelishuvga ko'ra a'zo mamlakatlar o'z valyutalarini belgilangan kurslar asosida xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha almashinuvini ta'minlashlari shart edi. Shuningdek, mazkur mamlakatlar valyuta operatsiyalarini chegaralash bo'yicha mavjud to'siqlarni bekor qilishlari kerak edi (amalda 181 mamlakatdan atigi 60 mamlakat ushbu talabni bajargan).

Xalqaro Valyuta Fondining nizom fondi a'zo mamlakatlarga o'rnatiladigan kvotalar asosida to'lanadigan badallardan tashkil etiladi. Kvotalar har bir a'zo mamlakatning moliyaviy badal hajmini aniqlash, proporsional ravishda Xalqaro Valyuta Fondi kreditlari hajmini aniqlash hamda ovozlar sonini aniqlash uchun xizmat qiladi. Kvotalar hajmi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning jahon iqtisodiyoti hamda xalqaro savdodagi roliga bog'liq bo'ladi. Kvota yalpi ichki mahsulot, import va eksport hajmi, oltin-valyuta zahirolari hajmi ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi. Kvotalar hajmi har besh yilda qayta ko'rib chiqiladi.

Kvotalar hajmidan kelib chiqqan holda Xalqaro Valyuta Fondi boshqaruv organlarida ovozlar soni mamlakatlar o'rtasida taqsimlanadi. Har bir mamlakat 250 ta ovozga ega va har bir qo'shimcha 100000 SDR uchun 1 ta ovoz qo'shib beriladi. Hozirda boshqaruv organida ovozlarining eng ko'pi AQShga tegishli – 17,7 foiz.

Bugungi kunda Xalqaro Valyuta Fondining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- valyuta siyosati sohasidagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- valyuta siyosati sohasida balanslashgan rivojlanishda hamkorlik qilish;
- yuqori bandlik darajasi hamda real daromadlarni ta'minlash va rag'batlantirish, barcha a'zo mamlakatlarning iqtisodiy siyosati asosini tashkil etuvchi, ishlab chiqarish potensialini rivojlantirish uchun jahon savdosining balanslashgan o'sishini barqarorlashtirish;
- valyuta barqarorligini ta'minlash va a'zo mamlakatlar o'rtasida valyuta munosabatlarini soddalashtirish, shuningdek, raqobat muhitini shakllantirish nuqtai nazaridan kelib chiqqan soddala valyuta devalvatsiyasining oldini olish;
- ko'p tarmoqli to'lov tizimlarini tashkil etishda ishtirok etish, shuningdek, valyuta konvertatsiyasi bilan bog'liq cheklavlarni bekor qilish;
- a'zo mamlakatlarga to'lov balanslari taqchilligini yo'qotish uchun mablag'lar berish.

Oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun Xalqaro Valyuta Fondi o'z funksiyalari va tamoyillarini ishlab chiqqan.

Xalqaro Valyuta Fondi tamoyillari:

- tartibga solishdan chetga chiqish maqsadida xalqaro valyuta tizimi yoki valyuta kursi manipulyatsiyasini ta'qiqlash;

- valyuta inqirozlariga barham berish maqsadida valyuta bozorlarida intervensiyani amalga oshirish majburiyati;

Xalqaro Valyuta Fondining funksiyalari:

- kodeksda kelishilgan munosabatlarga amal qilish, xalqaro valyuta siyosati va davlatlararo to'lovlar aylanmasi sohalarida hamkorlik qilish;

- to'lov balansi taqchilligini yengib o'tish uchun moliyaviy yordam;

- maslahat va hamkorlik qilish.

Belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida Xalqaro Valyuta Fondi o'z va jalb qilingan mablag'lar hisobidan xorijiy valyutada kreditlar yoki a'zo mamlakat to'lov balansini tenglashtirish maqsadida SDR taqdim etadi.

Moliyaviy operatsiyalar faqatgina a'zo mamlakatning rasmiy organlari: g'aznachilik, Markaziy bank, valyutani barqarorlashtiruvchi fondlar bilan birga amalga oshiriladi. Xalqaro Valyuta Fondi resurslarini olishni tartibga soluvchi qoidalar barcha a'zo mamlakatlari uchun bir xil amal qiladi. Joriy operatsiyalar bo'yicha xorijiy valyutaga ehtiyoj sezgan mamlakat kreditning zarurligini isbotlashi shart. Bunday kreditlar hajmi quyidagi shart orqali tartibga solinadi: qarzdor mamlakatning milliy valyutasi uning kvotasini yil davomida 25 foizdan va umumiy hisobda kvota hajmining 200 foizdan ortib ketmasligi kerak. Kreditlar bo'yicha foizlar har bir moliya yili uchun daromad va xarajatlarni baholash asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Xalqaro Valyuta Fondi tarkibida alohida kredit turlari bo'yicha bir necha maxsus fondlar tashkil etilgan. Ushbu fondlardan aksariyat hollarda, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda savdo va to'lov tizimidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga kreditlar ajratiladi. Ushbu kreditlar, odatda, 4 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatlarda qaytarilishi mo'ljallanadi.

Keyingi yillarda Xalqaro Valyuta Fondining daromadi past bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'rta muddatli makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlariga ajratiladigan kreditlar salmog'i ortmoqda.

### **7.3. Mintaqaviy va milliy moliya bozorlarining rivojlanishi va ularni tartibga solish muammolari**

Globalashuv sharoitida jahon moliya tizimi barqarorligini, uning tarkibiy qismlari va funksiyalarining yaxlitligi nuqtai nazaridan dinamik muvozanatni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mazkur jarayonda, globalashuvning ta'sirini inobatga olgan holda xalqaro moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish

uchun aniq tamoyillarni belgilash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, ehtimoliy risklarni pasaytirish muhimdir.

Bugungi kunda moliyaviy globallashuv jarayoni xalqaro moliya tizimining institutsional muhitini sifat va miqdor jihatdan o'zgartiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir nechta milliy moliya bozorlarining xamkorligida global moliya bozorining shakllanganligi bu o'zgarishlarni aniq ko'rsatib bermoqda.

Moliyaviy globallashuv sharoitida jahon moliyaviy arxitekturasining barqarorligiga erishishda uning tarkibiy qismlari hisoblangan milliy iqtisodiyotlardagi valyuta tizimining barqarorligi, ichki moliyaviy sektorni liberallashtirish darajasi va moliyaviy ta'minotining holati muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda, mamlakatlar tomonidan kapital harakatidagi cheklovlarning bekor qilinishi va kapitalning erkin harakati uchun sharoit yaratish hamda barqaror valyuta siyosatini shakllantirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning samarali amalga oshirilishi muhimdir.

Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, global moliya tizimi milliy moliya tizimlari va ularni birlashtirgan xalqaro moliya tizimini o'z ichiga oladi, bunda milliy moliyaviy oqimlarning bir qismi xalqaro valyuta-kredit oqimlariga birlashadi va har bir hamkorlik qiluvchi davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirishda ishtirok etadi<sup>111</sup>.

Xalqaro moliya tizimi o'ziga transmilliy kompaniyalar va banklar, moliyaviy korporatsiyalar, alohida mamlakatlarning markaziy banklari, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, pensiya, investitsiya fondlari va sug'urta kompaniyalarini o'z ichiga olgan institutsional investorlar, yirik moliyaviy markazlarni qamrab oladi. Uning instrumentlariga depozitlar, xorijiy mamlakatlardan xarid qilingan mahsulot va xizmatlar, shu jumladan, aksiyalar uchun xalqaro pul o'tkazmalari, olingan va berilgan kreditlar, veksel, obligatsiyalar, shuningdek, hosila moliyaviy vositalar kabilarni kiritish mumkin.

Keyingi yillarda xalqaro moliya tizimida kapital harakati rivojlanishida transmilliy korporatsiyalarning (TMK) roli ortib bormoqda. Chunki, transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya tizimidagi o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. TMKlar yuqori darajadagi ishlab chiqarish va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan holda ilmiy sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga asosiy e'tibor qaratishadi. Mazkur holat esa ularning ishlab chiqarish faoliyati kengayishiga va texnologik rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga ular mahsulotlar va xizmatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasini, xalqaro kapital harakati hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

---

<sup>111</sup> Андропова Н.Э. Проблемы реформирования мировой финансовой архитектуры в условиях финансовой глобализации // Экономические науки.– 2012. – № 5.

Hozirgi davrda TMKlarning ta'siri barcha sohalarda kuchayib borgan holda ular xalqaro moliya tizimidagi o'zgarishlarni tartibga solishda asosiy sub'ektlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. quyidagi ko'rsatkichlar yordamida zamonaviy jahon moliya tizimida TMKlarning rolini ko'rish mumkin<sup>112</sup>:

- TMKlar jahon savdosining qariyb 2/3 qismini nazorat etadi;
- dunyo sanoat ishlab chiqarishining taxminan 1/2 qismi TMKlar hisobiga to'g'ri keladi;

- TMKlar bo'linmalarida ish bilan band aholi qatlamining qariyb 10% faoliyat yuritadi;

- jahondagi mavjud patent, litsenziya va nou-xaularning deyarli 4/5 qismi TMKlar tomonidan nazorat qilinadi. Shu boisdan ular global darajada moliyaviy munosabatlar rivojlanishiga hamda xalqaro kapital harakatiga keskin ta'sir etish salohiyatiga egadir.

Jahon iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatayotgan TMKlarning aksariyat qismi AQShga (174 ta) to'g'ri keladi, Yaponiya (38 ta), Buyuk Britaniya (38 ta), Xitoy (34 ta) kabi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar keyingi o'rinlarni egallagan<sup>113</sup>.

Hozirgi kunda ekspertlarning baholashiga ko'ra, jahon kapitali hajmi iqtisodiyot real sektori bahosidan uch baravar ko'p, ya'ni jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy majburiyatlar hajmi barcha mahsulotlar va xizmatlar qiymatidan uch baravarga yuqori bo'lib, bu tafovut yanada ortib bormoqda. Jahon kapitali, jumladan, bozor va bank depozitlari, shuningdek, obligatsiyalar hajmi 140 trln. dollardan oshib ketdi. Rivojlanayotgan va rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon kapital bozoridagi ishtirokining faollashuvi, sanoatlashuv darajasining ortishi hamda ularning xalqaro moliyaviy aylanmaga keng jalb etilishi natijasida jahon iqtisodiyotining moliyaviy globallashuvi yanada oshmoqda.

Mamlakatlarning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, moliya sektorining investitsiya maqsadlari uchun pul mablag'larini qayta taqsimlash hamda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlariga va rivojlanishga erishish imkoniyati shuncha ortadi. Mazkur jarayon jahon iqtisodiyotida moliyaviy sohadagi resurslar hajmining oshishiga hamda mamlakatlarning moliyaviy jihatdan integratsiyalashuvining kuchayishiga olib keladi. Bunda pul massasi, moliyaviy aktivlar, aksiyalar bozorining kapitallashuvi, kreditlar hajmi kabi ko'rsatkichlarning jahon yalpi ichki mahsulotiga nisbatini baholash muhimdir. Misol uchun, global moliyaviy aktivlarning jahon YaIMga

---

<sup>112</sup> Edwards S. Financial Openness, Currency Crises and output Losses in Strengthening Global Financial Markets, ed. by S. Edwards and M. Garcia. Chicago, 2006.

<sup>113</sup> Transnational corporations: investment and development. United Nations. New York and Geneva, 2018. Volume 25, Number 2.



nisbati 1980 yildan 2008 yilgacha bo'lgan davrda 103 foizdan 292 foizgacha oshgan, iqtisodchilarning baholashi bo'yicha mazkur ko'rsatkich 2020 yilda taxminan 420-450 foizni tashkil etishi keltirilgan<sup>114</sup>. Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, global moliyaviy aktivlar va boshqa ko'rsatkichlarning jahon YaIMga nisbati o'sishda davom etmoqda. Chunki, so'nggi yillarda moliyaviy aylanma va aktivlarning hajmi real iqtisodiyot dinamikasiga nisbatan jadal o'sishi kuzatilmoqda. Bunda asosan moliya, iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida rivojlangan mamlakatlarning ta'siri yuqori bo'lgan holda, ular jahon moliya tizimida o'z yetakchilik mavqeini mustahkamlashga qaratilgan faol chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

XX asrning 90 yillarida jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi 449 mlrd. dollarni tashkil etgani holda, 2018 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 2,3 trln. dollarga yetdi. Mazkur holat mamlakatlar iqtisodiyotiga, shuningdek, xalqaro kapital oqimiga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

## 7.2-jadval

### Jahon iqtisodiyotiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning rivojlanish dinamikasi<sup>115</sup>

Ko'rsatkichlar	Joriy baholardagi qiymati, mlrd. AQSh doll.					2018 yilda 1990 yilga nisbatan o'zgarish, marta
	1990 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	
Xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etish	205	2034	1919	1497	1297	6,3
Xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri chetga chiqarish	244	1683	1550	1425	1014	4,2
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi	449	3717	3469	2922	2311	5,1

XXI asrning o'tgan davrida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jahonda rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Xususan, jalb etilgan, chetga chiqarilgan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2018 yilga kelib 1990 yilga nisbatan 4-6 martaga ortgan. Biroq shu bilan birga, 2018 yilda dunyo miqyosida xorijiy investitsiyalarni

<sup>114</sup> Mapping Global Capital Markets. McKinsey Global institute Annual Reports.

<sup>115</sup> UNCTAD, World Investment Report 2019. Special economic zones. New York and Geneva, 2019.

to'g'ridan-to'g'ri jalb etish hajmi 2017 yilga nisbatan 13 foizga yoki 200 mlrd. dollariga kamaygan, xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri chetga chiqarish hajmi esa 411 mlrd. dollarga kamaygan. Shuningdek, dunyo bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 611 mlrd. dollarga kamaygan.

AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlar xalqaro bozordagi asosiy investorlar bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar taklifini shakllantiradigan mamlakatlar hisoblanadilar. Jumladan, 2018 yilda xorijga chiqarilgan jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 24 %i AQSh, 5,4 %i Kanada, 5,7 %i Germaniya, 11,2 %i Yaponiya, 6,9 %i Buyuk Britaniya hissasiga to'g'ri kelgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay iqtisodiy muhitni yaratgan mamlakat Xitoy hisoblanadi. 2018 yilda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 139 mlrd. dollarni tashkil etgani holda 2017 yilga nisbatan 5 mlrd. dollarga oshgan.

Jahon moliyaviy arxitekturasi holatiga va xalqaro moliya tizimi barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan yana biri sifatida xalqaro valyuta bozori namoyon bo'ladi.

Zamonaviy valyuta bozori milliy iqtisodiyotlarning integratsiyalashuvi va globallashtirish sharoitida ular o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning jadal rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Iqtisodiyot va axborot muhitida yangi innovatsion texnologiyalar xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida tezkor o'tkazmalar hamda hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon berdi, tovar ayirboshlash jarayonini tezlashtirdi va xalqaro valyuta bozorini jahon miqyosida yanada kengayishiga ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements) ma'lumotlariga ko'ra, 1992 yilda jahonda konversion operatsiyalarning bir kunlik yalpi hajmi 820 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 6,6 trln. dollarga yetdi.

### 7.3-jadval

#### 1992-2019 yillarda jahon valyuta bozorining kunlik aylanmasi hajmi<sup>116</sup> (mlrd. AQSh dollarida)

Yillar	1992	1995	1998	2001	2004	2007	2010	2013	2016	2019
Aylanma hajmi	820	1190	1527	1239	1934	3324	3973	5357	5067	6590

Ma'lumki, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, valyuta bozorida dunyoning barcha mamlakatlari ishtirok etadilar, lekin xalqaro valyuta bozorida

<sup>116</sup> Triennial Central Bank Survey: Foreign exchange exchange and derivatives market activity in 2019 / Bank for International Settlements. September, 2019.

ayrim mamlakatlarning ishtirok etish ko‘lami boshqalariga nisbatan yuqori hajmni tashkil etadi.

#### 7.4-jadval

##### Jahon valyuta bozori aylanmasining geografik tarkibi<sup>117</sup> (%da)

Ko‘rsatkichlar	2013 yil	2016 yil	2019 yil
<b>Jahon bo‘yicha</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Buyuk Britaniya	40,8	36,9	43,1
AQSh	18,9	19,5	16,5
Singapur	5,7	7,9	7,6
Yaponiya	5,6	6,1	4,5
Gongkong	4,1	6,7	7,6
Shveysariya	3,2	2,4	3,3
Boshqalar	21,7	20,5	17,4

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi hamda moliya va valyuta bozorlari o‘rtasida tizimli bog‘liqlik mavjud. Valyuta bozorlarida eng ko‘p ishlatiladigan va vaqt o‘tishi bilan o‘z qiymatini yo‘qotmagan valyuta AQSh dollari hisoblanadi. Agar 1989 yilda xalqaro valyuta bozorida bitimlarning 90 foizida AQSh dollaridan foydalanilgan bo‘lsa, 2019 yilda mazkur ko‘rsatkich 88 foizni tashkil etgan, o‘tgan o‘ttiz yil davomida AQSh dollari o‘zining yetakchilik rolini saqlab kelgan. Bu qisman dollarning boshqa valyutalar kross-kurslarini hisoblashdagi yetakchi roli, shuningdek, jahon valyuta bozori aylanmasining 2/3 qismiga teng bo‘lgan svop bitimlarida 95 foizni tashkil etganligi bilan bog‘liqdir. 2001-2010 yillarda dollarning ulushi sezilarli tebranishlarga uchragan, bu holat 2001 yil o‘rtalarida boshlangan va 2008 yildagi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ishlab chiqarishning pasayishi hamda ishsizlikning o‘sishi hisobiga yanada kuchaygan Amerika iqtisodiyotidagi retsessiya jarayoni bilan bog‘liq. Lekin, iqtisodiy omillar ta’siriga qaramasdan AQSh dollari hozirgi kunda ham konversiya operatsiyalarining 88 foizini tashkil etgan holda jahon valyuta bozorida yetakchilikni qo‘ldan bermay kelmoqda.

Xalqaro valyuta bozorida operatsiyalarda boshqa valyutalar, jumladan, yevro 32 foizni, iyena 1 foizni, funt sterling 13 foizni, Shveysariya franki 5 foizni, Avstraliya dollari 7 foizni, Kanada dollari 5 foizni, Gongkong dollari 4 foizni tashkil etgan.

Hozirgi davrda xalqaro moliya tizimi va undagi muhitga sezilarli ta’sir etuvchi omillar bo‘lib xalqaro kapital harakati, valyuta bozori holati va undagi operatsiyalarning dinamikasi hamda mazkur omillarni harakatga keltirishda asosiy rol o‘ynovchi TMKlar faoliyati namoyon bo‘lmoqda. Chunki TMKlarning xalqaro

<sup>117</sup> Triennial Central Bank Survey: Foreign exchange and derivatives market activity in 2019 / Bank for International Settlements. September, 2019.

investitsiya va valyuta bozoridagi ishtirokning faolligi, ularning jahondagi investitsion munosabatlar va xalqaro valyuta operatsiyalari holatiga, shu asosda xalqaro moliya tizimiga keskin ta'sir etish qobiliyatiga egaligini belgilab beradi.

## 7.5-jadval

### Yetakchi valyutalarning jahon valyuta bozori operatsiyalaridagi ulushi<sup>118</sup> (foizda)

Valyuta	1989	1992	1995	1998	2001	2004	2007	2010	2013	2016	2019
USD	90,0	82,0	83,0	87,0	90,4	88,7	86,3	85,0	87,0	88,0	88,0
EURO	-	-	-	-	37,6	36,9	37,0	39,0	33,0	31,0	32,0
DEM	27,0	40,0	8,0	5,0	-	-	-	-	-	-	-
FRF	2,0	4,0	8,0	5,0	-	-	-	-	-	-	-
JPY	27,0	23,0	24,0	22,0	22,7	20,2	16,5	19,0	23,0	22,0	17,0
GBR	15,0	14,0	10,0	9,0	13,2	16,9	15,0	13,0	12,0	13,0	13,0
CHF	10,0	9,0	7,0	7,0	6,1	6,0	6,8	6,0	5,0	5,0	5,0
CAD	1,0	3,0	3,0	4,0	4,5	4,2	4,2	5,0	5,0	5,0	5,0
AUD	2,0	2,0	3,0	3,0	4,2	5,9	6,7	8,0	9,0	7,0	7,0
HKD	-	1,1	0,9	1,0	2,3	1,9	2,8	2,0	1,0	2,0	4,0
SGD	-	0,3	0,3	1,0	1,1	1,0	1,2	1,0	1,0	2,0	2,0
Boshqa valyutalar	26,0	21,6	23,8	31,0	17,9	18,3	23,5	22,0	24,0	25,0	27,0

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti va bozorlari jiddiy omillar ta'siriga uchramoqda. Bular jumlasiga takrorlanuvchi va ta'sir doirasi keng bo'lgan moliyaviy va valyuta inqirozlari, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy sektorning zaifligini; offshor moliyaviy markazlar sonining ko'payishi, xususiy kapital hajmiga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishda xalqaro moliya institutlari imkoniyatlarining cheklanganligi, investitsiya institutlari, moliyaviy vositalar va operatsiyalar hajmining ko'payishi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur omillar xalqaro moliya tizimini isloh qilish zaruratini ko'rsatmoqda<sup>119</sup>.

Qayd etish joizki, bir qator yetakchi iqtisodchi olimlar va ekspertlar tomonidan yaqin yillarda jahonda moliyaviy inqiroz sodir bo'lishi prognoz qilinmoqda. Chunki keyingi davrda jahon moliyaviy kon'yunkturasi, jahon savdosi va dunyo ishlab chiqarish hajmi hamda yetakchi moliyaviy markazlar, shuningdek, xalqaro valyuta tizimida keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

<sup>118</sup> Triennial Central Bank Survey: Foreign exchange exchange and derivatives market activity in 2019 / Bank for International Settlements. September, 2019.

<sup>119</sup> Хелд Д. Глобальные трансформации: Политика, экономика, культура / Д.Хелд, Д.Гольдблатт, Э.Макгрю, Д. Перратон; пер. с англ. В. В. Сапова и др. Текст. –М.: Праксис, 2004. –576 с.

Mazkur holatni jahondagi yetakchi xalqaro moliya institutlari ham tasdiqlamoqda. Jumladan, Jahon banki joriy yilda jahon savdosi o'sish sur'atlari 2,6 foizdan 1,5 foizgacha pasayish prognozini keltirdi, XVF esa iqtisodiy inqirozning 2008 yildagiga qaraganda yanada keskin bo'lishini taxmin qilmoqda. XVF hisobiga ko'ra, joriy yil oxiriga qadar global YaIM 0,8 foizga yoki 700 milliard dollargacha kamayadi. Natijada esa dunyo mamlakatlarning 90 foizida iqtisodiy o'sish sur'ati pasayadi va oxirgi o'n yil ichidagi eng yomon holat aks etadi. Bunga qator omillar, jumladan, yetakchi mamlakatlarning savdo urushlari yo'lida boj to'lov miqdorlarining oshirilishi, turli xil sanksiyalarning qo'llanilishi, uglevodorodlarga talab va narxlarning keskin pasayishi hamda yirik fond bozorlaridagi "pufaklar"ning shakllanishi kabilar ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yetakchi valyutalarning ham xalqaro qiymatini keskin tushib ketishi va natijada mamlakatlarning xalqaro likvidligiga salbiy ta'sir etishi qayd etilmoqda.

XVF ekspertlari qayd etishicha, jiddiy retsessiya bo'lsa, defolt xavfi bilan bog'liq korporativ qarz hajmi 19 trillion AQSh dollariga yoki sakkizta yetakchi iqtisodidagi jami qarzning qariyb 40 foiziga yetadi. Bu moliyaviy inqiroz davrida kuzatilgan darajadan birmuncha yuqoridir.

Savdo urushlarini to'xtatish va ilg'or IT-texnologiyalar asosida tovarlar va xizmatlar almashishning yangi, yanada ishonchli va zamonaviy global tizimni yaratish global iqtisodiyotni sog'lomlashtirishning yagona yo'li hisoblanadi. Shu bilan birga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozli holatga, uning salbiy ta'sirlariga bardosh bera oladigan moliya tizimini shakllantirish, mamlakatlar moliya tizimida yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan inqirozli holatlarning oldini olish hamda ularning ta'sir doirasini kamaytirish lozim. Shuningdek, xalqaro moliya tizimidagi harakatlar hamjihatligini ta'minlash, moliyaviy operatsiyalarni xalqaro darajada tartibga solishning ta'sirchanligini oshirish zarur. Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyati xalqaro moliya tizimini global tartibga solish jarayonini isloh etishning ikkita variantini tavsiya etmoqda:

- 1) global tartibga solish institutining tashkil etilishi;
- 2) moliya bozorini tartibga solish bo'yicha xalqaro institutlar faoliyatini global darajada muvofiqlashtirilishi.

Global tartibga solish instituti faoliyatining tashkil etishdagi asosiy muammolardan biri jahon mamlakatlari milliy moliya tizimining rivojlanish darajasidagi farqlanishlar hisoblanadi<sup>120</sup>.

Shuningdek, bu jarayonda quyidagilarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq:

---

<sup>120</sup> Белов В.А. Основные направления реформирования мировой финансовой системы. Вестник РУДН, серия Юридические науки, 2013, № 4. –С. 211–214.

– kriptovalyutalar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy qoidalarini ishlab chiqish;

– kriptoaktivlar bozori faoliyatini tartibga solish mexanizmini yaratish;

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo‘yicha qoidalarni inobatga olgan holda moliya bozorlari faoliyati qoidalarini joriy etish;

– ayrim davlatlarning gegemonligi va valyuta munosabatlaridagi “shantaji” va “sanksion ustunligini” oldini olishga qaratilgan qat‘iy qoidalarni ishlab chiqish hamda bu jarayonda xalqaro moliya institutlari rolini oshirish lozim.

Shunday qilib, xalqaro moliya tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish istiqbolli jarayon bo‘lib, ular faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish va uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

#### **7.4. Globallashuv sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar davlat moliyasi va moliyaviy tizimdagi islohotlarning yo‘nalishlari**

Globallashuv jarayonlari jahon xo‘jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma‘lum miqdorda ta‘sir etadi. Bozorning turli ishtirokchilari o‘z manfaatlari yo‘lida harakat qilib, zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o‘zgarib turishi sababli jahon xo‘jaligi sohalarining bir-biriga bog‘liqlik darajasi oshib bormoqda. Georg Fisherning ta‘kidlashicha, jahon xo‘jaligida global o‘zgarishlar tarqalishining texnik mexanizmi mavjud.

Bunga “Buyuk depressiya” misol bo‘lib, inqiroz bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko‘pincha zanjirsimon shaklda tarqalgan: bozorning pasayishi – kapitalning boy berilishi – talabning qisqarishi, ishlab chiqarishni qisqartirish – davlat tomonidan import qiluvchilarga nisbatan bojxona to‘siqlarining o‘rnatilishi – xalqaro savdo kamayishi – savdo-sotiq bo‘yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi – tovar sifatini pasaytiruvchi bojxona to‘siqlarining o‘rnatilishi va hokazo<sup>121</sup>.

Globallashuv sharoitida bu kabi jarayonlarning sodir bo‘lishi shubhasiz, o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarda tegishli iqtisodiy siyosatni olib borilishini taqozo etadi. Bu vaqtda iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon ho‘jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu vaziyatda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavfni minimallashtirishdan ham iboratdir.

Har bir davlatning yillar davomida shakllangan o‘z tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bo‘lib, boshqa mamlakatlarning

---

<sup>121</sup> Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. – М.: 2000. – С.12

tajribalarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olish yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iqtisodiy rivojlanishning hamma uchun umumiy retseptlarini qo‘llash samarasiz bo‘lishi va iqtisodiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar ham globallashuv jarayonida munosib siyosat yuritish ustida bosh qotirib, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshlik darajasini oshirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Globallashuv sharoitida amalga oshiriladigan vazifalarning bozor tamoyillariga qat‘iy amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Globallashuv sharoitida xususiylashtirish va unga xos mulkchilikning milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘z daromadini maksimallashtirishdan manfaatdor mulkdorlar sinfining shakllanishi iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish, tovarlar sifatini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda eng muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Resurslarning mutanosib ravishda taqsimlanishi, ishlab chiqarish vositalaridan eng samarali va tejamkor holda foydalanilishi mulkchilikka xos xususiyatlardandir.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘siq bo‘lib hisoblangan muammolardan biri bu – moliyaviy tizimga ishonchsizlik oqibatida fond bozorining to‘laqonli ravishda shakllanmay qolishi, korxonalarining rentabellik darajasining pastligi va qimmatli qog‘ozlar egalarida haqiqiy mulkchilik hissining yo‘qligidir. Makrodarajadagi moliyaviy barqarorlik (budget tanqisligining qisqarishi, foiz stavkalari real qiymatining ijobiy o‘zgarishi, inflyatsiya darajasining pasayishi), ishlab chiqarish likvidlik darajasining oshishi, sohalarda tarkibiy jihatdan qayta tashkillashtirish natijasida korxonalar moliyaviy ahvolidan yaxshilanishi hamda investitsiyalar samaradorligining o‘sishi ko‘p jihatdan investitsion faollikning oshishi va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida monetar siyosat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim o‘rin egallaydi. To‘g‘ri monetar siyosat makroiqtisodiy barqarorlikni, bank tizimiga ishonch oshishini, moliya bozorlarining kengayishi va mustahkamlanishi, qulay investitsion muhit vujudga kelishi va mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini ta‘minlaydi. Shubhasiz, bu jarayonlar iqtisodiyotni qayta qurish jarayonlarini tezlashtirib milliy xo‘jalik tizimining raqobatbardoshlik darajasini oshiradi. Natijada mamlakatning globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etish evaziga katta yutuqlarga erishishi ta‘minlanadi.

Ta'kidlash joizki, globallashtirish sharoitida barqaror pul bozorining shakllanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u markaziy bankning maqbul hamda har tomonlama ishonchli va samarali pul-kredit siyosatini olib borishni ta'minlaydi<sup>122</sup>.

Banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalari va olib borilayotgan valyuta siyosatining ko'p tomonlama iqtisodiy rivojlanishini ta'minlab beradi. Masalan, foiz stavkasining haddan tashqari ko'tarilib ketishi bank daromadlarining kamayishi, buning natijasida kredit operatsiyalari miqdorining keskin kamayishiga olib keladi. Valyuta kursini boshqarish natijasida monetar siyosatda qattiq shartlarning vujudga kelishi ichki aktivlar narxlarining bir xil holatini ta'minlasa, shu vaqtning o'zida kelajakda valyuta kursining pasayishida xavfli hisoblangan tashqi qarzni oshirishiga sabab bo'ladi.

Rivojlangan va ma'lum muvozanatga ega moliyaviy tizim globallashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan qayta qurilishi va milliy xo'jaliklarning raqobatbardoshlik darajasining oshirishida iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi, jamg'arishning samarali tarzda investitsiyaga aylantirilishini ta'minlaydi.

Hukumat tomonidan hisob-kitob yuritish va uni boshqarishning to'g'ri hamda huquqiy tizimini ta'minlanishi samarali faoliyat yurituvchi moliyaviy tizimga asos soladi.

Moliyaviy tizimning erkinlashtirilishi natijasida uning ko'zlangan maqsadga erishishi bir necha shartlarga bog'liq. Bu kabi shartlar moliyaviy tizimni erkinlashtirgunga qadar amalga oshiriladigan vazifalar bo'lib, makroiqtisodiy va institutsional islohot olib borish hamda umumiy barqarorlikni ta'minlash ular sirasiga kiradi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida islohot olib bormasdan turib moliyaviy tizimni erkinlashtirib bo'lmaydi. Aks holda, maqsadga muvofiq bo'lmagan kapital harakati, foiz stavkalarining oshib ketishi hamda moliyaviy korporatsiyalarning qisqa vaqt ichida tushkun ahvolga uchrashiga sabab bo'ladi.

Globallashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy siyosatga bog'liq. Erkin moliyaviy siyosat bozor mexanizmlarini qanchalik ishga solsa, global raqobat uning vazifasi nechog'liq murakkab ekanligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda tashqi va ichki o'zgarishlarga mos valyuta siyosatini yuritish ma'quldir.

Marshal-Lerner teoremasiga ko'ra, eksport-import va tashqi qarzni xizmat ko'rsatishda valyuta kursining munosib ravishda optimal tanlanishi mamlakat manfaatlaridan holi emas. Globallashtirish sharoitida jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir mamlakat va mintaqalardagi vaziyatni doimiy tarzda o'rganib

---

<sup>122</sup> Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. – М.: 2000.



turish mamlakat moliyaviy tizimiga mas'ul rahbarlarning eng muhimli vazifasidir. Moliyaviy tizimni erkinlashtirish jarayonlari to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan banklar va korxonalarda tarkibiy o'zgartirishlar olib borish, iqtisodiyotda huquqiy va raqobatdosh muhit yaratish hamda maqsadga muvofiq bo'lgan boshqaruv va nazorat tizimini birgalikda olib borilishi islohotlardan ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Globalashuv sharoitida yuqori soliq to'lovlari nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi, daromadlarning yashirilishi va noqonuniy iqtisodiyotning shakllanishi, ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuv jarayonini susaytiradi, balki kapital va malakali ishchi kuchining chetga chiqib ketishiga ham olib keladi. Ushbu muammolarning ijobiy hal qilinishi fiskal siyosat olib borishning qay darajada optimal ekanligiga ham bog'liq. Ma'lumki, soliq tizimi to'lov va imtiyozlar yordamida siyosat olib borish va shu yo'l bilan iqtisodiy taraqqiyotga rahnamolik qilish xususiyatiga ega.

Erkin raqobat muhiti va huquqiy asoslangan xo'jalik tizimini yaratish uchun soliqlar miqdori va imtiyozlar shunday belgilanishi kerakki, u sohalarga mutanosib ravishda taqsimlansin. Buning uchun sohalar orasida to'g'ri solishtirma tahlil olib borilib, ularning qay birida soliq miqdori oshirilishi evaziga boshqa sohalarga imtiyoz ajratilishi samarali ekanligi aniqlanadi. Shu tarzda globalashuv jarayonlarining mamlakat iqtisodiyotiga o'tkazayotgan ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda soliq tizimi fiskal siyosat vazifasini emas, balki rag'batlantiruvchi omil vazifasini o'tashi zarur. To'lovlarning pasaytirilishi va soliqqa tortish tizimining soddalashtirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qilishi talab etiladi.

Globalashuv sharoitida faol investitsiya siyosati hamda qulay investitsion muhitni yaratish iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalash orqali milliy iqtisodiyotning jahon xomashyo bozorining beqaror kon'yunkturasiga bog'liqlik darajasini pasaytiruvchi va aholi daromadlarini oshishini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jamg'arish va investitsiyalarning me'yori milliy iqtisodiyotning uzoq kelajakdagi raqobatdoshligini belgilovchi muhim omil bo'lib borayotganligi sababli uning o'рни va ahamiyatini aniqlash o'ta mushkuldir. Qolaversa, investitsiya siyosati iqtisodiyotning boshqa vositalari orasida eng murakkab hisoblanadi. Chunki investitsiya siyosatini olib borish iqtisodiy siyosat yuritishning boshqa vositalariga qaraganda to'laqonli ravishda mamlakat ixtiyorida mavjud resurslarga bog'liq. Ushbu resurslar bo'lmasa investitsiya ham bo'lmaydi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiyalarga bo'lgan talab yuqori bo'lib, u iqtisodiy taraqqiyot mezoni sifatida o'rganiladi. Ushbu sohadagi siyosat

resurslarning mamlakat qiyosiy afzalliklariga ega yoki ustuvorlikka erishish mumkin bo'lgan sohalarga o'tib borishini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni olib borishga yo'naltirilishi zarur. Shuningdek, jamg'arishni rag'batlantiruvchi qulay investitsion muhitni yaratish hamda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning turli tarmoqlari – soliq-budjet, pul-kredit va tashqi iqtisodiy sohalarda kompleks tadbirlar olib borishni taqozo etadi.

O'tgan 50 yillik muddat jahon iqtisodiyotida muhim globallashuv jarayonlari yuz berganligi bilan ajralib turadi. Milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashib borishi xalqaro resurslar harakatining hajmlari va xarakteriga ta'sir qilish darajasiga chiqib bormoqda. Xalqaro savdoning yanada kengayishi imkoniyatlari, faqatgina xalqaro kelishuvlarni moliyalashtiruvchi bank sektori imkoniyatlari bilangina chegaralanib qolmoqda. Jahon moliya bozorlarining o'sishi, ular raqobatdoshligining oshishi va faoliyat doiralari kengayishi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiga imkoniyat yaratadi. Jiddiy moliyaviy muammolar domiga tushib qolgan (investitsiyalar va asbob-uskunalar, xomashyo, ehtiyot qismlar importi hajmining chegaralanganligi, shuningdek, ular tomonidan tuzilgan savdo shartnomalariga ishonchning pastligi) rivojlanayotgan mamlakatlar kengayib borayotgan jahon moliya bozorlarida qatnashishni faollashtirgan holda rivojlanishning yangi imkoniyatlarini ochishi va iqtisodiy muammolarni hal qilishda tanlov va qarorlar xilma-xilligini oshirishi mumkin.

Lekin hozirgi davrda hanuzgacha rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro bozorlar globallashuvidan yutadimi yoki yo'qmi aniq emas. Qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to'laqonli qatnashish imkoniyatlari hali mavjud emas. Milliy bozorlar tobora ochiqlashib borayotgan bir paytda jahon bozorlariga chiqish hali ham qiyin bo'lib qolmoqda. Hatto globallashuv jarayonlarida bevosita qatnashib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar uchun ham uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari umuman noaniqdir. Hozirgi davrda moliyaviy mablag'larni yer sharining istalgan nuqtasiga o'tkazish deyarli bir zumda amalga oshirilishi mumkin. Boshqa tarafdin esa, moliyaviy bozorlarning beqarorligi bilan bog'liq risklar oshib bormoqda, yuqori texnologiyalardan foydalanmaydigan ishlab chiqaruvchilar uchun jahon bozoriga chiqish qiyinlashib bormoqda.

## **7.5. O‘zbekiston Respublikasi moliya bozori holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davridan boshlab iqtisodiy mustaqillikning asosiy omili hisoblangan milliy moliya bozorini to‘laqonli shakllantirish va rivojlantirish borasida uzluksiz harakt qilib kelmoqda.

Milliy moliya bozori uning uch asosiy tarkibi hisoblangan bank tizimi, sug‘urta bozori hamda kapital bozorini shakllantirish, ularda bozor munosabatlarining amal qilishini ta‘minlash hamda global moliyaviy tizimga integratsiyalashuv yo‘nalishidagi faoliyat asosida rivojlanib bormoqda.

So‘nggi yillarda milliy moliya bozoridagi o‘zgarishlar milliy moliya tizimining tez sur‘atlarda xalqaro standartlarga yaqinlashib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimiz moliya bozorining xar bir tarkibiy qismi zaruriy elementlarga to‘liq ega bo‘ldi va tizim sifatida shakllandi.

Mustaqillikning dastlabki 25 yili davomida milliy moliya bozorini rivojlantirish bilan bog‘liq harakatlar ushbu bozorning zaruriy elementlarini shakllantirish, ularni bir-biri bilan bog‘langan tizimga aylantirish yo‘nalishida amalga oshirilgan bo‘lsa, so‘nggi davrlardagi moliyaviy islohotlarning asosiy yo‘nalishi shakllangan moliyaviy bozorlarning bozor qonuniyatlari asosida to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi, milliy moliya bozorlarining xalqaro va global moliya bozorlariga integratsiyalashuvini ta‘minlashni ko‘zda tutadi.

Quyida O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorining alohida tarkibiy qismlari bo‘yicha holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini ko‘rib chiqaylik.

Mamlakatimizda bugungi kunda milliy bank tizimi to‘liq shakllangan bo‘lib, hozirda 30 dan ortiq xususiy, davlat kapitali ishtirokidagi va xorijiy banklar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Milliy bank tizimi mavjud aktivlar hajmi jihatidan rivojlangan mamlakatlardan ancha ortda qolmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun ushbu aktivlarni sezilarli darajada oshirish kerak bo‘ladi. 2017 yil davomida aktivlarning umumiy o‘sish darajasi valyuta kursining 60 %ga devalvatsiyalashuvi va valyuta aktivlarining proporsional o‘sishi hisobiga 98 %ni tashkil etdi.

Davlatga qarashli banklar kapital va kredit portfeli nuqtai nazaridan ustunlik qiladi, ammo bu holat rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun maqbuldir. Chunki bu kredit oqimlarini iqtisodiyotning strategik muhim sohaslariga yo‘naltirish imkonini beradi.

Milliy bank tizimiga nisbatan aholi o‘rtasida ishonch darajasi nisbatan past bo‘lib, u bank tizimining rivojlanish sur‘atlarini sekinlashtiradi va iqtisodiyot yashirin sektorining saqlanib qolishiga hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda bank tizimidagi asosiy muammolarni umumlashgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

- iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim sohalariga moliyalashtirishni o'tkazishning samarasiz mexanizmlari amal qilinayotganligi;
- bank xizmatlari turlarining iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari talablariga to'liq javob bermasligi;
- bank sektorining yaxlit iqtisodiyotdagi ulushi kichikligi (jahon reytingida 86-o'rin);
- qarz kapitalining yuqori qiymati ( yiliga 23 %dan ortiq);
- moliyaviy tizimga aholi ishonchining pastligi (60 %dan kam);
- bozor jarayonlari, xalqaro hisob-kitob tizimlari va muvofiqlik amaliyotlarining past darajasi;
- xalqaro investorlar ishonch darajasining yuqori emasligi;
- bank xizmatlari sohasida raqobatning to'laqonli shakllanmaganligi va protsessing xizmatlari bozorining yopiqligi;
- moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat va monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi, qayta ishlash xizmatlari uchun bozorning yopiqligi;
- xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashning past darajada ekanligi.

## 7.6-jadval

### YaIM foizlarida bank aktivlarining nisbati va jahon reytingidagi o'rni<sup>123</sup>

Mamlakatlar	Jahon reytingidagi o'rni	YaIM foizlarida bank aktivlarining nisbati, %
Lyuksemburg	1	1550
Buyuk Britaniya	3	490
Gollandiya	6	385
O'zbekiston	81	65
Qozog'iston	117	41
Ozarbayjon	122	36
Qirg'iziston	125	32
Tojikiston	132	28

Yalpi ichki mahsulotga nisbatan bank aktivlarining ulushi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bank tizimi jahon reytingida 81-o'rinni egallab, yalpi ichki mahsulotga nisbatan bank aktivlarining ulushi 65 %dan ortiqroqni tashkil etadi (7.6-jadval).

<sup>123</sup> O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 259 b.

2017 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 82,6 trillion so‘mga yoki 98,2 %ga o‘sga (2016 yilda – 29 %) va 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, 166,6 trillion so‘mni, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 249,13 trillion so‘mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, jami aktivlarning umumiy o‘shishi 64 %ni tashkil etdi (52,8 trillion so‘m), bu milliy valyuta kursining keskin pasayishi oqibatida yuzaga keldi. Ushbu omil ta’siri ostida bank aktivlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati 2017 yil oxiriga kelib 67 %gacha (2016 yilda – 42,2 %) oshdi.

Milliy moliyaviy xizmatlar bozori hajmi 2014 yilgacha barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, 2015 yilda bu ko‘rsatkichning deyarli 3 marta pasayishi kuzatiladi. Biroq 2016 yildan boshlangan o‘shish 2017 yilda 2014 yilgi darajadan ham ortib ketadi (7.7-jadval).

**7.7-jadval.**

**O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy xizmatlar bozorining hajmi<sup>124</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2013	2014	2015	2016	2017
Ayirboshlash kursi, so‘m	2022	2222	2500	2703	5333
Bozor hajmi, mlrd so‘m	73293	90865	34458	54277	113053

Yuqorida ko‘rib chiqilgan umumiy tendensiyalar ta’sirida milliy bank xizmatlari tizimida faoliyat olib borayotgan banklarning umumiy va alohida samaradorlik ko‘rsatkichlari ham o‘zgarib bormoqda.

2017 va 2018 yillarda bank tizimining aksariyat samaradorlik ko‘rsatkichlari ortgan bo‘lsa-da (kapital yetarlilik ko‘rsatkichlari–14,7 %dan 18,8 %ga, kapital barqarorligi ko‘rsatkichlari – 10,7 %dan 12,4 %ga, moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari – 41,5 %dan 42,5 %ga, foizsiz daromad - -239,9 mlrd. so‘mdan 836,5 mlrd. so‘mga, sof foyda – 1152,8 mlrd. so‘mdan 1881,0 mlrd so‘mga), ayrim asosiy ko‘rsatkichlarning yil davomida pasayishi (moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari – 39,5 %dan 32,5 %ga, likvidlilik stavkalari – 25,4 %dan 23,6 %ga, soliqqa tortishdan oldingi sof foydaning jami aktivlarga nisbati ROA – 2,0 %dan 1,87 %ga, soliq to‘lashdan oldingi sof foydaning umumiy kapitalga nisbati ROE–17,95 %dan 17,13 %ga) kuzatiladi<sup>125</sup>.

Milliy bank tizimida moliyaviy xizmatlar hajmini keskin oshirishning asosiy omili sifatida E-banking tizimining joriy etilishi qaraladi. Ushbu tizim yordamida xususiy tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar aholining moliyaviy

<sup>124</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 260 b.

<sup>125</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 265 b.

xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini kengroq qamrab oladi, rivojlantirish institutlari va xususiy investorlar davlat loyihalarini moliyalashtiradi.

Masofaviy bank xizmatlarining joriy etilishi bilan quyidagi afzalliklarga erishiladi:

- moliyaviy xizmat infratuzilmasi yangilanadi;
- zamonaviy bank amaliyoti va mezonlari, shu jumladan, IT tizimlari joriy etiladi;
- raqamli bankingga o'tish va ushbu tizimda avvaldan mavjud xizmatlar turlarini saqlab qolish;
- yagona to'lov tizimida bank emitentlarining plastik (debet yoki kredit) kartalarini aniqlash va ulardan foydalanish;
- bank sektori to'liq liberallashadi;
- davlat faqat nazorat va tartibga solish funksiyalarini saqlab qoladi.

Bank tizimini yanada rivojlantirishga raqamli innovatsiyalar, ma'lumotlarni tahlil qilish va masofadan xizmat ko'rsatish asosida erishiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida milliy bank tizimini ushbu yo'nalishda isloh qilish 2025 yilgacha bo'lgan davrda ikki bosqichli jarayon asosida amalga oshirilishi belgilangan:

Birinchi bosqich (2020 yilgacha)da bank ilovalarini amaliyotga kiritish, mijozlarni ulash, qo'llab-quvvatlash xizmatini shakllantirish, kardrider va mobil terminallar tizimini kiritish, R2R hisob-kitoblarini yuritish, to'lovlarni fiskallashtirish, fiskal ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayonlarini to'liq amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Ikkinchi bosqich (2025 yilgacha)da esa SXX uchun tovarlarni hisobga olish va portal, tranzaksiyalarni boshqarish, mobil bank kriptografik identifikatorlari, tegishli xizmatlarning banklar raqamli platformalariga integratsiyalashuvi, aniq B2B, B2C tezkor o'tkazmalarini joriy etish, ochiq API, bank biznesida masofadan identifikatsiya, sun'iy intellekt va mashinaga o'rgatish asosidagi xizmatlar, chakana savdo va telekom orqali moliyaviy xizmatlarni taqdim etish hamda jarayonga bir qator fiskal operatorlarni jalb etish jarayonini amalga oshirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida milliy bank tizimini isloh qilishda quyidagi asosiy strategik tashabbuslarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

2025 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Korporativ boshqaruv mezonlarini takomillashtirish: direktorlar kengashi tarkibini mustaqil direktorlarning majburiy ishtiroki bilan standartlashtirish, rais almashuvi, rais va bosh ijrochi direktor vazifalarini aniq ajratish.

2. Chakana mijozlar, YaTT va o'rta korxonalarining ehtiyojlarini to'liq aks ettirish uchun mahsulot portfelini rivojlantirish.

3. Import-eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash xizmat turlarini kengaytirish.

4. Xalqaro hisobot mezonlariga moslashish.

5. Raqamli bankingni rivojlantirish, asraydigan texnologiyalar (LEAN) va omnikal banking sohalarida xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash hisobiga chekka hududlarga bank xizmatlari penetratsiyasini oshirish.

6. Bank sohasida tartibga solish va nazorat qilishning xalqaro standartlariga moslashish, shu jumladan, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish uchun Big Data tizimini joriy etish.

7. Dunyoning yetakchi bank uyushmalariga a'zo bo'lish.

8. Bank sohasini monitoring qiluvchi nazorat idoralari vazifalarini aniq taqsimlash.

9. Moliyaviy tartibga soluvchi tarkibida AML/CTF tartibga soluvchisini yaratish.

10. Raqamli mehnat sohasida **Middle office** va **Back office** ni to'liq avtomatlashtirish;

11. Mamlakatda yagona mijozlar bazasini yaratish.

12. Fuqarolarning omonatlarini sug'urtalashning samarali tizimini yaratish.

2030 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Bank jarayonlarini maqbullashtirish, jarayonlarni qisman avtomatlashtirish orqali CIRni 40% ga pasaytirish.

2. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va o'stirish uchun investitsion inkubatorlar va akseleratorlarni yaratish.

3. Mobil bank kriptografik identifikator texnologiyalarini va ko'chma portativ platformalarni joriy etish.

4. Qo'shimcha xizmatlarning banklar raqamli platformalariga integratsiyalashuvi.

5. O'zaro aloqador xizmatlarning integratsiyalashuviga, hamkorlikning vositachilik haqi olinadigan tizimlarini rivojlantirishga yordam beradigan bank ekotizimlarini yaratish.

6. Past qiymatli banknotlarni chiqarishni bosqichma-bosqich to'xtatish.

7. Portativ qurilmalar yordamida kontaktsiz to'lov tizimlarini rivojlantirish.

8. Bank sektorida tartibga solish va nazoratning xalqaro standartlariga moslashish va monitoring qilish.

2035 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Naqd pul aylanishini qisqartirish, naqd pulsiz to'lov vositalariga to'liq o'tish.

2. Bank dasturlarini shaxsiy raqamli qurilma bilan integratsiyalash.

3. O‘zaro investitsiyalar va kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish.
4. Likvidlikni joylashtirish tizimlarini yaratish va bank mahsulotlari bilan integratsiyalash.
5. Bank, sug‘urta va investitsion-jamg‘arma mahsulotlarini “yagona darcha”ga integratsiyalash.
6. Mahsulot sotish modelidan xaridorning hayot tarzini kuzatish va uning dolzarb moliyaviy ehtiyojlari modeliga o‘tish.
7. Korporativ boshqaruv mezonlarini tekshirish.
8. Bank sektorida tartibga solish va nazoratning xalqaro standartlariga moslashish va monitoring qilish.

### 7.8-jadval

#### Ayrim dunyo mamlakatlarining sug‘urta tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari<sup>126</sup>

Mamlakatlar	YaIMdagi ulushi, %	Hajmi, mlrd. AQSh dollari
O‘zbekiston	0,4	0,11
Gruziya	1,2	0,17
Ozarbayjon	0,8	0,32
Qozog‘iston	0,8	1,11
Rossiya	1,4	21,59
Braziliya	2,8	50,50
Janubiy Koreya	12,1	170,80

Sug‘urta va pensiya tizimi O‘zbekiston moliya bozorining ikkinchi tarkibiy qismi hisoblanib, bugungi kunda bu sohada sug‘urta bozorining elementlari yetarli shakllanmagan. Shu sababli mamlakatimizda sug‘urta bozorining faoliyati moliyaviy sektorning juda kichik segmentini tashkil etadi. 2017 yilda mamlakatimiz sug‘urta bozori faoliyati hajmi 0,11 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, sug‘urta bozori faoliyati hajmining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan. Milliy sug‘urta bozori faoliyati natijalarini ayrim mamlakatlarning ushbu sohadagi faoliyatiga taqqoslash ham sug‘urta tizimining moliya bozoridagi faoliyat ko‘lami juda pastligini ko‘rsatadi (7.8-jadval).

O‘zbekistonda sug‘urta bozori holati umumiy sug‘urta tizimi yaxshi rivojlanmaganligini, uning rivojlanishi uchun mamlakatda katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ko‘rsatkichlar orasida O‘zbekiston YaIMga nisbatan eng kichik sug‘urta portfeliga egadir, sug‘urta tizimining YaIMga nisbatan hajmi Janubiy Koreyaga nisbatan 30 baravar kam.

<sup>126</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 284 b.



## 7.9-jadval

### O‘zbekistonda sug‘urta mukofotlari va to‘lovlarining o‘shish dinamikasi<sup>127</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2013	2014	2015	2016	2017
Mukofotlar, mlrd so‘m	338	439	516	693	927
To‘lovlar, mlrd so‘m	67	75	111	131	270

Sug‘urta mukofotlari portfelining so‘mdagi qiymati, ayniqsa, 2015 yildan boshlab, yuqori sur‘atlarda o‘shib bormoqda. Sug‘urta kompaniyalari to‘lovlaridagi sug‘urta mukofotlari sezilarli darajada oshishi, yangi loyixalar ishlab chiqilishi sug‘urta xizmatlari bozorida yangi ishtirokchilarning paydo bo‘lishiga olib keladi (7.9-jadval).

Sug‘urta kompaniyalari investitsiya portfelining hajmi to‘plangan mukofotlarni oshirish hisobiga jadal sur‘atlar bilan o‘shib bormoqda. 2017 yilda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan zaiflashishi munosabati bilan investitsiyalarning keskin o‘shishi kuzatildi (7.10-jadval).

### 7.10-jadval. Sug‘urtalovchilar investitsiya hajmining o‘shish dinamikasi<sup>128</sup>, mlrd. so‘m

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2013	2014	2015	2016	2017
Sug‘urtalovchilar investitsiya hajmi	338	439	516	693	927
O‘shish, %	+43,6			+96,1	

Sug‘urta sektorining investitsion tuzilmasi o‘rta darajada konservativ bo‘lib, yuqori darajadagi diversifikatsiyani ko‘rsatmoqda. Bank depozitlarining yuqori ulushi sug‘urta kompaniyalarining odatiy joylashtirilish tuzilmasiga xos emas, ammo mavjud bozor sharoitida O‘zbekiston Respublikasi oqilona variant bo‘lishi mumkin. Keyinchalik bank xizmatlari bozori normallashuvi va asosiy foiz stavkasining pasayishi tufayli sug‘urtalovchilar mablag‘larining katta qismi qimmatli qog‘ozlar bilan almashinishi mumkin.

Sug‘urta tizimi rivojlanishining joriy darajasini o‘rganish tizimda quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko‘rsatadi:

- O‘zbekiston sug‘urta sektorining hajmi xalqaro ko‘rsatkichlar bilan solishtirganda iqtisodiyot hajmiga mos kelmaydi;

<sup>127</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 284 b.

<sup>128</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 285 b.

- mamlakatda majburiy sug'urta darajasi ixtiyoriy sug'urta darajasiga nisbatan ancha past;

- sug'urta mahsulotlari qatori iqtisodiyotning hozirgi talablariga javob bermaydi: tibbiy sug'urta, hayot va sog'liq sug'urtasi kabi turdagi sug'urta turlari mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida sug'urta va pensiya tizimini takomillashtirishda quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutilgan:

- aholi, biznes va hukumatning umumiy xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiyot va jamiyatning asosiy yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlaydigan xususiy sug'urta tizimini joriy etish;

- majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilish;

- ixtiyoriy va majburiy sug'urta nisbatlarini 4:1 nisbatga keltirish;

- sug'urta tizimining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2,8 %ga yetkazish;

- pensiya tizimini uch darajali – asosiy davlat pensiyasi, korporativ pensiya va individual pensiya tizim holatida qayta tashkil etish;

- pensiya tizimining yalpi ichki mahsulotdagi o'lchamini 7 %ga yetkazish;

- bir kishiga pensiya jamg'armasining o'rtacha hajmini 743 AQSh dollaridan 2510 AQSh dollarigacha oshirish;

- pensiya to'lovlarning umumiy tarkibida davlat pensiyasi ulushini 100 %dan 35 %gacha kamaytirish.

Kapital bozori bugungi kunda moliyaviy bozorning tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Kapital bozorining asosiy aylanmasi tizim sifatida shakllangan qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshadi.

O'zbekiston kompaniyalarining bozordagi kapitallashuvi rivojlanayotgan bozorlarga nisbatan yuqori, bunga banklar ulushi 60%ni tashkil qiladi. Bank aksiyalari eng ko'p savdoga qo'yilgan va aylanmalarning 86 foizini tashkil qiladi. Kapitalning kutilayotgan yuqori daromadi yuksak darajadagi risklari tufayli baland bo'lib, O'zbekiston Respublikasi investitsion salohiyatini sezilarli darajada cheklaydi. Aksiyalar bo'yicha kutilayotgan daromadning yuqoriligi investorlar katta miqdorda kapitalni O'zbekiston bozoriga kiritishlari mone'lik qiladi.

Institutsional investorlar O'zbekiston korporativ sektorining qimmatli qog'ozlarini "investitsiya" sifati bilan solishtirganda yuqori rentabellikka ega bo'lgan "ekzotik" aktiv sifatida ushlab qoladi.

Korporativ sektorda investorlar bilan aloqaning rivojlanish darajasi juda past (IR – investor relations)ligi, birja portalida korporativ sektor haqida yetarli ma'lumotlarning yo'qligi bozorning faol rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

2017 yil boshida birja kotirovkasi varag'ida 191ta kompaniya mavjud edi. Bozor kapitalizatsiyasi nafaqat mutloq hajmda ortda qolmoqda, balki

mamlakatning YaIMiga nisbatan hajmi ko'p rivojlanayotgan bozorlardan ham kam (7.11-jadval).

Listing kompaniyalariga tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, neft-gaz sanoati korxonalari, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, agrosanoat kompleksi, energetika, metallurgiya korxonalari va boshqalar kiradi. Aylanmaning eng katta qismini xorijiy investorlar tashkil etadi, chunki bozor o'sishi bilan ularning ulushi 80 foizga yetishi mumkin (misol - Janubiy Koreya).

O'zbekiston kapital bozoridagi holat tahlili ushbu tizimda quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi:

- O'zbekiston kompaniyalarining bozordagi kapitallashuvi juda past darajadali;

#### 7.11-jadval

### Ro'yxatga olingan kompaniyalarning bozor kapitalizatsiyasi<sup>129</sup>, YaIMga nisbatan %da

Davlatlar	Ro'yxatga olingan kompaniyalarning bozor kapitalizatsiyasi, %
O'zbekiston <i>- listing kompaniyalari soni</i> <i>- bozor kapitalizatsiyasi hajmi</i>	5 % <i>171 ta</i> <i>1,8 mlrd AQSh dol.</i>
Ukraina	11 %
Turkiya	23 %
Qozog'iston	35 %
Rossiya	44 %
Misr Arab Respublikasi	120 %

- bank tizimidan tashqari ishtirokchilarning baholanishi juda pastligi;

- rivojlangan kapital bozorlari bilan taqqoslaganda, xalqaro investorlar aylanma tarkibida nisbatan past ulushga egaligi;

- kapitalning kutilayotgan baland daromadi yuqori darajadagi mamlakat xavflar tufayli mamlakat investitsion salohiyatini sezilarli darajada cheklashi.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida milliy kapital bozorlarini isloh qilishda quyidagi asosiy strategik tashabbuslarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

2025 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Tartibga solish va nazorat qilishning xalqaro standartlarini moslashtirish, jumladan, korporativ boshqaruv, fondlar va kompaniyalar hisoboti standartlarini

<sup>129</sup> O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 295 b.

(shu jumladan, XMXS va XAS), mijozlarni tasniflash, ma'lumotlarni saqlash va oshkor qilish standartlari va boshqalar.

2. Professional bozor ishtirokchilari uchun axloq kodeksi va xatti-harakat standartlarini yaratish.

3. Kapital bozorida ishtirokchi davlatlarning jahon uyushmalariga, xususan, Osiyo va Yevropa nazorat va tartibga solish tashkilotiga kirishi.

4. Ichki qimmatli qog'ozlar bozorining jalb qiluvchanligini oshirish, IHHni joriy etish va jismoniy shaxslarga tegishli soliq imtiyozlarini taqdim etish.

5. Investitsiya sinfidagi davlat va korporativ yevroobligatsiyalarni, shuningdek, yuqori kredit reytingiga ega davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va mahalliy valyutadagi obligatsiyalar hajmini oshirish.

6. Standartlashtirish va nazorat qilish bo'yicha mahalliy brokerlik kompaniyalarining rivojlanishi, shuningdek, xalqaro ishtirokchilarni kapital bozorlariga ishtirokchilar yoki hamkorlar sifatida integratsiyalashtirish.

7. FCA (Buyuk Britaniya) misolida keng vakolatlarga ega mustaqil moliyaviy tartibga soluvchi tizimni yaratish.

8. Sinov va tekshirish orqali moliyaviy bozorlar xodimlarini litsenziyalash.

2030 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Investorlar va biznes egalarining, xususan, innovatsion rivojlanish yo'nalishlarida investitsion inkubatorlar va akseleratorlarni yaratish.

2. Zamonaviy iqtisodiyotning talablariga, xususan, jismoniy shaxslar uchun ETF, ishlab chiqarish korxonalarini uchun resurslar va valyuta hosilalari va institutsional investorlar uchun tuzilmali mahsulotlar talablariga javob beradigan mahsulot portfelini rivojlantirish.

3. Birja AT-infratuzilmasining texnologik jihozlanishi va hisoblash quvvatini rivojlantirish.

4. Chet ellik investorlarni jalb qilish uchun maxsus soliq tartiblari tamoyillarini ishlab chiqish.

2035 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Likvidliklarni joylashtirish tizimlarini yaratish va korporativ segmentdagi bank mahsulotlari bilan integratsiyalash.

2. Chakana segmentdagi bank, sug'urta va investitsion-jamg'arma mahsulotlarining integratsiyalashuvi va hayot sikliga xizmat ko'rsatish modeliga o'tish.

3. Kapital bozori aylanmasi hajmini 2,5 mlrd. dollaridan 114,0 mlrd.dollarigacha oshirish.

4. Kapital bozori aylanmasi hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 3,7 %dan 80 %ga oshirish.

5. Xorijiy investorlar ulushini 43 %dan 70 %ga yetkazish.

6. Kapitaldan kutilayotgan daromadni 22,7 % dan 11,7 % gacha o'zgartirish.

Milliy moliya bozori va uning tarkibiy qismlaridagi holat va o'zgarishlar tendensiyalarini o'rganish mamlakatimiz moliya bozorlari yaxlit bozor ko'rinishiga yetib kelayotganligi va to'laqonli faoliyat yuritishga qodirligini ko'rsatadi. Shu bilan birga moliya bozorlarida aniq muammolar mavjud bo'lib, mamlakatni 2035 yilgacha rivojlantirish Strategiyasida ushbu muammolarni bartaraf etish va moliya bozorlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

## **7.6. O'zbekistonning xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv muammolari**

Jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvda ilg'or mamlakatlarning boy tajribalariga tahliliy yondashish va ushbu tajribalarni eng optimal tarzda milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan so'ng mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatini olib borish imkoniyati yuzaga chiqdi. Respublikaning tashqi iqtisodiy siyosati xalqaro moliyaviy munosabatlarda milliy manfaatlarni himoya qilgan holda amalga oshiriladi va u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;
- teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- o'zining milliy va davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;
- respublika biron-bir davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi tamoyiliga to'la amal qilish;
- to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va ularni rivojlantirish;
- umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga rioya etish.

Tashqi iqtisodiy soha tarmoqlari majmuini vujudga keltirmasdan, moliya, bank-kredit tashkilotlari, bojxona xizmati ishini xalqaro me'yor va talablar darajasida yo'lga qo'ymasdan turib, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- birinchidan, respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;
- ikkinchidan, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini rivojlantirish;

- uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo‘jalik ishlarini yurituvchi sub’ektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o‘rnatishda o‘z mahsulotlarini chet ellarda sotishda ko‘proq erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda qo‘shimcha imtiyozli tartibni joriy qilishda aniq maqsadni ko‘zlab siyosat o‘tkazish;

- to‘rtinchidan, xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko‘lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa sharoitlarni yaratish;

- beshinchidan, xalqaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy majmuini vujudga keltirish;

- oltinchidan, xalqaro huquq va xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish.

Integratsiya munosabatlari, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanadi. O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko‘lamida integratsiya jarayonlariga qatnashsa-da, bitta muhim qoidaga amal qiladi; ya’ni bir davlat bilan munosabatlarni tiklash boshqa bir davlat bilan aloqalarini to‘xtatish hisobiga bo‘lmasligi lozim.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo‘lgan demokratik davlat haqidagi hozirgi zamon tushunchalariga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirishi mumkin.

Mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorlik o‘rnatgan taqdirdagina, ya’ni xalqaro mehnat taqsimotida o‘zining munosib o‘rnini topganda, mintaq va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etgandagina uni iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkoniyatlari kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yib, iqtisodiy hamkorlik sohasidagi ko‘pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a‘zolari safiga kirib bormoqda. Qisqa vaqt oralig‘ida respublika Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki (JB), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Osiyo va Tinch okeani ijtimoiy-iqtisodiy komissiyasi (OTIK), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB), Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Hamdo‘stlikning mintaqaviy iqtisodiy tashkiloti (HMIT) va shu kabi qator xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi.

Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida so‘z borganda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida O‘zbekistonning ishtiroki e’tiborga loyiqdir. Faqat Birlashgan Millatlar Tashkilotigina xavfsizlikni saqlash va ta’minlashga qaratilgan diplomatiyadan to tinchlik o‘rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo‘lgan vositalarga ega.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning strategik maqsadi –davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O‘zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar – Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Shimoliy Atlantika bloki (NATO), Qo‘shilmaslik Harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yilning iyul oyida Florensiyada O‘zbekiston bilan Yel Kengashi o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. Imzolangan ushbu bitim O‘zbekiston xavfsizligi va taraqqiyotini ta‘minlashda yana bir muhim hodisa bo‘lib, bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy va siyosiy sohalarni o‘zida qamrab oladi.

Jahon banki bilan birgalikda O‘zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va to‘lov balansini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va korxonalar darajasidagi islohotlarni amalga oshirish uchun tiklanish qarzi berish to‘g‘risidagi masalalar ko‘rib chiqildi va amalga oshirildi.

## **VII bob bo‘yicha qisqacha xulosalar**

Globalashuv natijasida jahon xo‘jaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik to‘siqlarning yo‘qolishiga, uning o‘rniga xalqaro iqtisodiy xo‘jalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xo‘jalikning funksional aloqalari tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globalashuv iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon bo‘lmoqda.

XX asr oxiriga kelib jahon iqtisodiyotida to‘rtta asosiy tendensiya kuzatiladi.

Bu, birinchidan, xomashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zgarishlar yuz berganligida qo‘rinadi.

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo‘l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan bilim va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga o‘tildi.

Uchinchidan, jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi kuzatildi.

To‘rtinchidan, transmilliy korporatsiyalarning qo‘shma korxonalarni tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi kuzatildi.

Shuningdek, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e‘tirof etish zarur. Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro

valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro institutlar hamda yetakchi mamlakatlar rahbarlari va moliya vazirlarining har yili bo‘lib o‘tadigan uchrashuvlarining xalqaro munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati ortib bormoqda.

Globallashuv sharoitida jahon moliya tizimi barqarorligini, uning tarkibiy qismlari va funksiyalari yaxlitligi nuqtai nazaridan dinamik muvozanatni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mazkur jarayonda, globallashuvning ta’sirini inobatga olgan holda xalqaro moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish uchun aniq tamoyillarni belgilash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, ehtimoliy risklarni pasaytirish o‘ta muhimdir.

Globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi ko‘p jihatdan moliyaviy siyosatga bog‘liq. Har qancha erkin moliyaviy siyosat bozor mexanizmlarini ishga solsa, global raqobat esa uning vazifasi nechog‘liq murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Bunday vaziyatda tashqi va ichki o‘zgarishlarga mos valyuta siyosatini yuritish ma’qul ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yib, iqtisodiy hamkorlik sohasidagi ko‘pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a’zolari safiga kirib bormoqda. Qisqa vaqt oralig‘ida respublika Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki (JB), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Osiyo va Tinch okeani ijtimoiy-iqtisodiy komissiyasi (OTIK), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB), Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Hamdo‘stlikning mintaqaviy iqtisodiy tashkiloti (HMIT) va shu kabi qator xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning strategik maqsadi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O‘zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar – Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Shimoliy Atlantika bloki (NATO), Qo‘shilmaslik Harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

### **Tayanch iboralar**

Global moliyaviy bozor, “Rim klubi”, Ilmiy-texnik taraqqiyot, transmilliy korporatsiyalar, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro moliya tashkilotlari, Bretton-Vuds kelishuvi, Jahon valyuta bozori aylanmasi.



## Nazorat uchun savollar

1. Global moliyaviy bozorlarning shakllanish belgilarini tushuntiring.
2. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar sifatida qanday faoliyat yo'nalishlari ko'rsatiladi?
3. XX asr oxiriga kelib jahon iqtisodiyotida nechta asosiy tendensiya kuzatiladi va ularni izohlang.
4. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Bugungi kunda Xalqaro Valyuta Fondining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
6. Xalqaro Valyuta Fondining funksiyalari nimalardan iborat?
7. Zamonaviy jahon moliya tizimida TMKlar rolini qaysi ko'rsatkichlar yordamida ko'rish mumkin?
8. Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyati xalqaro moliya tizimini global tartibga solish jarayonini isloh etishning qanday variantini tavsiya etmoqda va ularni tushuntiring.
9. Bugungi kundagi bank tizimidagi asosiy muammolari umumlashgan holda qanday ifodalanadi?
10. Masofaviy bank xizmatlarining joriy etilishi natijasidaqanday afzalliklarga erishiladi?
11. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati xalqaro moliyaviy munosabatlarda mamlakat milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qanday tamoyillarga asoslanadi?
12. Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda qanday yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi?

## VIII BOB. GLOBALASHUV SHAROITIDA ISHCHI KUCHI BOZORI VA MIGRATSIYASI MUAMMOLARI

### 8.1. Jahon ishchi kuchi bozori tushunchasining mohiyati, shakllanish sabablari va rivojlanish omillari

Aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyatining XX asr ikkinchi yarmidagi hayotining eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylandi. Aholi migratsiyasi deganda, ma'lum hududlarda insonlarning doimiy yashash joyini almashtirish yoki unga qaytish sharti bilan ko'chib o'tishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro (tashqi) migratsiyaning mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik va boshqa turdagi shakllari mavjud.

Biz xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori muammolarini ko'rib chiqamiz. Xalqaro ishchi kuchi bozori milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turli-tuman mehnat resurslari oqimini qamrab oladi. Xalqaro mehnat bozori ishchi kuchining milliy va mintaqaviy bozorlarini birlashtiradi. Xalqaro mehnat bozori mehnat migratsiyasi shaklida namoyon bo'ladi. Jahon bo'yicha 1960 yilda 3,2 mln., 2004 yilda esa 35 mln.dan ortiqroq migrant mavjud bo'lgan.

Jahon mehnat bozori deganda ishchi kuchini sotish, sotib olish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tushuniladi<sup>130</sup>.

Jahon mehnat bozorida ishchi kuchining qiymati baholanishi bilan birga uni yollash, ish haqining miqdori, mehnat sharoitlari, ta'lim olish va kasb mahoratini o'stirish imkoniyatlari, ish bilan bandlik kafolatlari va boshqa bir qator shartlar aniqlanadi. Jahon mehnat bozori jahon aholisining ish bilan bandlik darajasi, uning tarmoqlar, kasb-malaka, demografik, ishsizlikning ko'lami va o'zgarishi kabi asosiy jarayonlarni aks ettiradi.

Jahon mehnat bozori ham boshqa xil bozor tizimlari kabi makroiqtisodiy usullarni qo'llash sohasi bo'lib, u bir-biriga bog'liq bo'lgan talab va takliflar ta'sirida muntazam o'zgaradi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida jahon mehnat bozorining shakllanishi uchun mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan ta'minlash, bozor rag'batlari samarali ta'sir ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratuvchi tashkiliy tadbirlar tizimini vujudga keltirish lozim.

Jahon mehnat bozoriga o'tishning eng muhim sharti ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi munosabatlarda tenglik va erkinlik o'rnatishdir.

---

<sup>130</sup> Акопова Е.С., Воронкова О.Н. Мировая экономика и МЭО. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004. - С. 201

Jahon mehnat bozorining iqtisodiy talablariga javob beradigan me'yorda amal qilishi esa bir qator shartlarning bajarilishini taqozo qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- talab va taklifning erkin amal qilishini kafolatlovchi huquqiy asoslar mavjudligi;
- bozor sub'ektlarining erkin harakat qilishi uchun zarur zamin-iqtisodiy makonning mavjudligi;
- jahon mehnat bozori infrastrukturasi mavjudligi;
- ish haqi miqdorining chegaralanmaganligi, uy-joy bozorining mavjudligi va boshqalar.

Jahon mehnat bozorida amalga oshadigan munosabatlar doirasida asosan mamlakatlarning ishchi kuchini sotuvchi va sotib oluvchilar ishtirok etadi va bu jarayonga bir tomondan ishlash istagi bor bo'lganlar (bunga ish bilan band bo'lganlar ham, ishsizlar ham kiradi), ikkinchi tomondan – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun xodimlarni yollovchilar kiradi. Jahon mehnat bozori faqatgina bo'sh ish joylarini yaratishga va ishsizlarga ish topib berishgagina xizmat qilmasdan, balki yollanma mehnat sohasini keng mazmunda o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Ana shuning uchun ham mehnat munosabatlari va unda jalb etilgan xodimlar bilan bog'liq keng miqyosli soha jahon mehnat bozori va aholini ish bilan band etish siyosatining ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Bunga ish haqi muammolari, mehnat sharoitlari, bajarilayotgan ish hajmi va intensivlik darajasi, korxonalarda ish bilan ta'minlashning barqarorligi, mehnat motivlari, jahon mehnat bozorining egiluvchanligini ta'minlash, ishchi kuchini mehnatga tayyorlash va qayta tayyorlash kabilar kiradi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir qiladigan omil ish haqidir. Ammo ushbu mexanizmdagi har bir o'zgarish o'zaro bog'liq ravishda uning tarkibiga kiruvchi boshqa unsurlarning o'zgarishiga olib keladi. Chunonchi, ishchi kuchi miqdorining ortib ketishi ish haqining kamayib ketishiga va, o'z navbatida, ish joylari miqdorining nisbatan kamayishiga olib keladi va hakoza. Umuman olganda, bu to'g'ridagi asosiy ilmiy-uslubiy tasavvurlarni jahon iqtisodiyoti amaliyoti va nazariyasidan bilib olsak bo'ladi. Hozirgi paytda jahon mehnat bozorining amal qilinishi va nazariy tushunchasiga har xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish mehnat bozori haqidagi dunyoqarashimizni yanada boyitadi.

**Neoklassik yondashuv.** G'arb iqtisodiy nazariyasida mehnat bozoriga turli ishlab chiqarish zahiralaridan biri sotiladigan bozor deb qaraladi. Bunda

zamonaviy mehnat bozori amal qilishiga nisbatan mavjud bo'lgan 4 ta asosiy konseptual yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin<sup>131</sup>.

Birinchi konsepsiya asosida klassik siyosiy iqtisodiy postulatlar yotadi. Bu konsepsiya asosan neoklassiklar (Dj.Perri, M.Fidstayn, R.Xoll) tomonidan ilgari surilgan. 80-yillarda esa uni iqtisodiy taklif qilish konsepsiyasi tarafdorlari A.Laffer va boshqalar ham qo'llab-quvvatlashdi. Ushbu konsepsiya tarafdorlari mehnat bozori ham boshqa bozorlar kabi baho muvozanati asosida harakat qiladi, ya'ni bu yerda ham baho (bu holda ishchi kuchi bahosi) asosiy bozor regulyatori bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblashadi. Ularning fikriga ko'ra, aynan ish haqi yordamida ishchi kuchi talabi va taklifi tartibga solinadi hamda ularning muvozanati ta'minlab turiladi. Ta'lim va malaka oshirishga (inson kapitaliga) qilingan investitsiyalar mashina va uskunalarga qilingan investitsiyalar kabidir. Baho muvozanati modeliga ko'ra, toki bu qo'yilmalarga foyda me'yorini pasaymagunga qadar malakali investitsiyalar kelaveradi. Neoklassik konsepsiyaga ko'ra, ishchi kuchi bahosi talab va taklifga bog'liq holda goh ko'payib, goh kamayib bozor ehtiyojiga tezlik bilan moslashadi. Mehnat bozorida muvozanat mavjud bo'lgan sharoitda esa ishsizlik bo'lishi mumkin emas.

Ish haqining talab va taklif tebranishlarga to'la mos ravishda o'zgarishi ayniqsa, ishsizlikning mavjud bo'lmasligi borasida aniq tarzda gapirib bo'lmasligi tufayli bu konsepsiya tarafdorlari ular nazariyasining hayot bilan mos kelmasligiga bozorning qaysidir "nomukammalliklari"ni qilib ko'rsatishadi.

Bularga kasb uyushmalarining ta'siri davlat tomonidan ish haqi minimal darajasining belgilab qo'yilishi, yetarli axborot yo'qligi va hokozolar kiradi. Bundan tashqari ishsizlikning go'yoki erkin xarakteri to'g'risidagi fikr ham ilgari suriladi. Lekin shu o'rinda agar ishsizlik erkin xarakterga ega bo'lsa, nima uchun u iqtisodiy sikllar fazalariga bog'liq holda o'zgarib (tebranib) turadi, degan haqli savol paydo bo'ladi. Ammo ular bu savolga asosli javob berishmaydi.

**Keynscha yondashuv.** Keynes va monetarchilar mehnat bozorining amal qilish tartibini tushuntirib berishga boshqacha yondashadilar. Neoklassiklardan farqli ravishda ular mehnat bozoriga doimiy va fundamental muvozanat xos ekanini isbotlashga urinadilar.

Keynscha model (J.M.Keyns, keyinroq R.Rordon va boshqalar) ishchi kuchi bahosi (ish haqi) qat'iy belgilangan va amalda o'zgarmaydi (ayniqsa, kamayish tomonga) degan qoidadan kelib chiqadi. Modelning bu unsuri tasdiqlanib o'tirilmasdan shak-shubhasiz dalil sifatida qabul qilinadi. Keynschilar fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida to'la bandlikni kafolatlovchi hech qanday mexanizm mavjud emas. Mazkur nazariyaga ko'ra, bandlik darajasini oshirish va real

---

<sup>131</sup> Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 301

ishsizlikni kamaytirish tashqi omillarga bog'liq emas. Aksincha, mehnat bozoriga faol ta'sir o'tkazishni ichki omillar, jumladan, investitsiyalar va omonat qo'yilmalar orqali amalga oshirish darkor. Shu bilan birga, bozor sharoitida tovarlar va ishchi kuchi bahosi pasayish belgisiga egadir. Shunday qilib, bu omillar (tashqi - qurg'oqchilik, iqtisodiy pasayish va ichki omillar) iqtisodiyotni yanada qiyin ahvolga solib qo'yadi. Shuning uchun ham keynschilar mehnat bozorini avtomatik tarzda tartibga solish mexanizmini inkor qiladilar. Bu konsepsiyaga ko'ra, baho (ish haqi) bozor regulyatori emasligi (bo'lmasligi) tufayli ham u chetdan kiritilishi kerak. Bozor regulyator rolini davlat bajaradi. Davlat yalpi talabni kamaytirib yoki ko'paytirib mavjud tengsizlikka barham berish mumkin. Shunday qilib, bu modelga ko'ra, ishchi kuchiga talab mehnatga bo'lgan bozor baholarining tebranishlari bilan emas, balki yalpi talab bilan, boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarish hajmi bilan tartibga solinadi.

**Monetarcha model.** Keynscha yondashuv tarafdorlari singari monetarchilar maktabi vakillari ham ishchi kuchiga bo'lgan baholarning qat'iy strukturasi ham bu baholarning bir xil yo'nalishdagi o'sib boruvchi harakati shart-sharoitlaridan kelib chiqadilar. Monetarchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, ishsizlikning tabiiy darajasi mehnat bozorining strukturasi xos xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Uning o'sishi bozordagi baholarni tez moslasha oladigan qilib qo'yadi. Me'yoriy amal qilishiga to'sqinlik qiladi, muvozanatsizlikni va bundan kelib chiqqan holda ishsizlikni kuchaytiradi, deb hisoblashadi. Bu maktab vakillarining fikriga ko'ra, mehnat bozori beqarorligi kuchayishiga olib keluvchi bunday salbiy omillarga davlat tomonidan ish haqi minimal darajasining belgilab ko'yilishi, kasaba uyushmalarining yetarli kuchga ega ekanligi, vakansiyalar mavjudligi haqidagi hamda rezerv ishchi kuchi haqidagi axborotlarning yo'qligi kiradi. Monetarchilar bozorni muvofiqlashtirish uchun pul-kredit siyosati dastaklarini qo'llashni taklif qiladi. Bunda so'z markaziy bankning hisob stavkasi tijorat banklarining markaziy bank hisobidagi majburiy rezervlari hajmi kabi dastaklar haqida boryapti.

Jahon aholisi yoshiga bog'liq ravishda ikki tipdagi odamlarni o'z ichiga oladi: mehnatga layoqatli - 15-60 yoshlilar, mehnatga layoqatsiz – bolalar va qariyalar. Aholi umumiy hajmining taxminan 70 foizi birinchi tipga tegishli, biroq bu ulush turli hududlarda o'zgarib turadi. Masalan, Osiyo va Afrikada voyaga yetmaganlar, Yevropa va Shimoliy Amerikada qariyalar ulushi yuqoriroq.

O'z navbatida, mehnatga layoqatli aholi ham ikkiga ajratiladi: iqtisodiy faol va faol bo'lmaganlar. Uy bekalari, talabalar (ta'til paytida), davlat qaramog'idagi fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmaganlar iqtisodiy faol bo'lmaganlar qatoriga kiradi. Bizni iqtisodiy faol aholi, ya'ni mehnatga layoqatli va unga

intiluvchi odamlar qiziqtiradi. Fuqarolarning aynan shu toifasi mamlakat ichkarisida va xorijdan ish qidirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi uzoq tarixga ega bo'lsa-da, XX asrga kelib u ishlab chiqarish omillari harakatining yetakchi ko'rinishlaridan biriga, binobarin, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning alohida muhim sohasiga aylandi.

Ushbu holatni quyidagi sabablar bilan bog'lash mumkin:

- xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi;
- ijtimoiy-demografik o'zgarishlar;
- fan-texnika va axborot sohasidagi inqilob;
- integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;
- transmilliy korporatsiyalar faoliyati.

Bu omillar mehnatga layoqatli aholining harakatchanligining kuchayishiga sababchi bo'ldi. Zero, insonlar mamlakatlar va qit'alararo ko'chish uchun rivojlangan kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalanishadi. Hozirgi kunga kelib shunday jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) vujudga keldiki, bu bozorning asosini milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi jami migratsion aylanmasi tashkil etadi. XXI asrning boshiga kelib migrantlarning bir yildagi o'rtacha miqdori 35 mln. kishiga yetdi (1960-yilda 3,5 mln)<sup>132</sup>. Jahon ishchi kuchi bozori faqatgina migrantlarni emas, balki turli darajadagi migratsiya xizmatlarini, shuningdek, xorijiy mehnatkashlarning huquqiy maqomi, ularning mehnatini himoyalash, ularga ijtimoiy kafolatlar berish va boshqa shu kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarni ham o'z ichiga oladi. Fuqarolarni o'z vatanidan tashqarida ish qidirishga majbur etuvchi eng asosiy omil turmush darajasini yaxshilash va o'z qobiliyatlaridan unumli foydalanishga intilish hisoblanadi. Ayni paytda ishsizlik, qishloq xo'jaligida aholining ko'payib ketishi kabi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar ham yashash joyini vaqtincha yoki doimiy o'zgartirishga sabab bo'lmoqda.

## **8.2. Jahon ishchi kuchi bozorining rivojlanish bosqichlari, rivojlangan mamlakatlardagi demografik vaziyat va demografik muammolar**

Bugungi kunga qadar iqtisodiyot nazariyasida jahon mehnat bozorining rivojlanishini tadqiq etishga qaratilgan bir nechta nazariy va uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har biri jahon miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyot davrlarining ma'lum bir bosqichiga to'g'ri keladi. Ushbu nazariyalarning eng

---

<sup>132</sup> Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2005. 91-b.

mashhurlaridan biri – bandlikning klassik nazariyasi bo‘lib, u aholining to‘liq bandligini mavjud bozordagi raqobat mavjudligining zaruriy sharti sifatida belgilaydi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishiga asoslanadi<sup>133</sup>.

Bandlik klassik nazariyasining asosiy tamoyillari tashqi bozor aralashuvi natijasida muvozanatdan chiqib ketishi mumkin bo‘lgan erkin bozor faoliyati mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha yondashuvga asoslangan. Ushbu nazariya tarafdorlari bozor mexanizmini ishlab chiqarishni tiklaydigan hamda daromadlar va xarajatlar balansini ta‘minlaydigan, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qilishgan<sup>134</sup>.

Bandlik nazariyasining yangi konsepsiyasini J.M.Keyns o‘zining 1936 yilda nashr etgan “Bandlik, foizlar va pulning umumiy nazariyasi” nomli fundamental asarida e‘lon qildi. Unda bandlik nazariyasiga yangi konseptual yondashuv ko‘rsatilgan bo‘lib, J.Keyns bandlikni tartibga solish mexanizmi bozor iqtisodiyotiga xos emasligini asoslagan holda klassik nazariyani butunlay rad etadi va iqtisodiyotning muvozanatligiga davlatning tartibga soluvchi roli orqali erishilishini asoslab beradi<sup>135</sup>.

XX asrning ikkinchi yarmida Keynsning bandlik modeli sanoatlashgan jamiyat modeli bilan almashtirildi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Iqtisodiyotning barcha sohalarida ustun bo‘lgan sanoat texnologik ukladi shakllandi.

2. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida bandlik nisbati o‘zgardi: qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlarning ulushi pasaydi, sanoat tarmoqlari va xizmatlar sohasida bandlik ulushi ortdi.

3. Shaharlar va shahar aholisining jadal rivojlanishi yuz berdi.

4. Jahon miqyosida bandlikning sifat jihatlarini belgilab beruvchi umumiy savodlilik darajasi va milliy ta‘lim tizimlarining rivojlanishiga alohida ahamiyat berila boshlandi.

5. Aholi iste‘moli darajasi sezilarli darajada oshdi.

6. Umumiy inson xarajatlari tarkibida mehnat vaqti qiymati nisbatan qisqardi.

7. Jamiyat rivojlanishidagi demografik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, jumladan, tug‘ilish va o‘lim darajasining pasayishi, umr ko‘rish davomiyligining o‘sishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar kuzatildi.

---

<sup>133</sup>Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A., «Mehnat iqtisodiyoti» (Darslik) – T.: TDIU, 2011 y. -73-b.

<sup>134</sup> Сэй Ж.Б. Трактат по политической экономии. Серия «Политическая экономия: ступени познания». - М.: Дело, 2000.–С. 43-44.

<sup>135</sup> Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. / Дж. М. Кейнс. - М.: ЭКСМО, 2007. –С. 76-77.

Taraqqiyot qonuniyatlariga asosan, XX asrning ikkinchi yarmi oxirida sanoatlashgan jamiyat modeli postindustrial modelga aylana boshladi. Modellarning o'zgarishi ko'p jihatdan mehnat unumdorligining o'sishi va moddiy ishlab chiqarish sohasidagi talab dinamikasining xarakatlanishi bilan bog'liq bo'lgan bandlik jarayonidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan belgilanadi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy xususiyatlaridan biri – moddiy ishlab chiqarish darajasi o'sishi bilan sanoatda band bo'lganlar ulushining kamayishidir. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi va unda ishlaydigan ishchilar ulushining pasayishi bir vaqtning o'zida uning umumiy hajmining oshishi bilan ro'y beradi<sup>136</sup>. Aytish joizki, Keynsning ushbu yondashuvi yangi bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida yanada takomillashgan holda o'z isbotini topmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi ushbu sohadagi bandlik jarayonining muhim sharti sifatida qaraladi. M.Porterning fikricha, bandlik jarayonidagi bunday o'zgarishlar bir qator omillar – xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi va uning o'zgarishi, ya'ni ishlab chiqarishga xizmat qiladigan aniq funksiyalarni muayyan korxonadan tashqarida bo'lgan xamkorlarga topshirishga bog'liq. M.Porterning hisob-kitoblariga ko'ra, jalb qilingan xizmatlarning yakuniy mahsulot yoki xizmatga qo'shilgan qiymatdagi ulushi 80% gacha bo'lgan qismini tashkil qiladi<sup>137</sup>.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, dunyoda mehnat turlari asosiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha farqlana boshlandi. Ushbu sohada malakali ishchi kuchiga talabning o'sishiga olib keladigan, mustaqil biznes turi sifatida ajralib chiqadigan yuqori texnologiyali xizmatlarning roli ortib bordi. Bir qator iqtisodchilarning fikriga ko'ra, 90-yillarning oxirida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ehtiyojlarning tortilishi qonuni, intellektual resurslar miqdorining o'sishi va inson kapitali sifatining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keluvchi iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli omillari ta'sir ko'rsatdi<sup>138</sup>.

Jahon iqtisodiyotida aholi bandligini shakllantirishning zaruriy sharti bu – yuqori darajada rivojlangan moddiy ishlab chiqarishdir, chunki aynan shu shartga asoslangan holda ishchilarni xizmatlar sohasida qayta taqsimlash uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi. Bu tendensiyaga birinchi bo'lib A.Toffler o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida e'tibor qaratgan bo'lib, uning tadqiqotlarida mehnat shakllari

---

<sup>136</sup> Базылев Н.И. Макроэкономика / Н.И. Базылев, С.П. Гурко, М.Н. Базылева. - М.: ИНФРА-М, 2003. –С. 170-171.

<sup>137</sup> Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Е. Калининой. — М.: «Альпина Паблишер», 2008. — 720 с.

<sup>138</sup> Иноземцев В.Л. За пределами экономического общества. М.: Академия — Наука, 1998.–С. 103-104.



sarfidagi asosiy o'zgarish sifatida rivojlangan mamlakatlar aholisi faoliyatida jismoniy mehnat 50% dan ko'proq pasayishni boshlaganligi aniqlangan<sup>139</sup>.

Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadigan ushbu omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ilmiy va texnikaviy taraqqiyotning tarkibiy ehtiyojlari. Ushbu ehtiyojlar ta'sirida transport, moliyaviy, telekommunikatsiya xizmatlari iqtisodiyotning zamonaviy infratuzilmasi asosini tashkil etadi va shu bilan birga, tarmoqlararo munosabatlar tizimini shakllantirish orqali boshqa sohalarda yangi ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantiradi.

2. Aholi turmush darajasi dinamikasi. Bu omilni yetarli darajada e'tiborga olinsa, uning mazmun-mohiyatiga ko'proq daromadga ega bo'lgan aholi qo'shimcha xizmatlarga ko'proq pul sarflashi nazarda tutilgan.

3. Jamiyatda iste'molchi psixologiyasining o'zgarishi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida iste'mol madaniyatida o'zgarishlar yuz berdi<sup>140</sup>. Shuningdek, aholi daromadlari darajasi qayta baholanmoqda, bu, bir tomondan, ortib borayotgan daromadlar ta'siri va uning mehnat bozoriga ta'sirida aks etadi, ikkinchi tomondan, o'zlarining shaxsiy maishiy faoliyatini yollanma ishchilar bilan almashtiradigan yangi xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning kengayishiga olib keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi quyidagilarda namoyon bo'luvchi ishchilarga bo'lgan talabni ta'minlaydi:

1. Ishlab chiqarishning tobora murakkablashib borishi va kundalik hayot uchun ishlab chiqarishning o'sishi ushbu mahsulotni iste'molchiga yetkazish bilan bog'liq mehnat xarajatlari oshishi bilan birga yuzaga keladi.

2. Ta'limga bo'lgan ehtiyojning ortishi bevosita yangi talablarga muvofiq xodimlarni shakllantirish jarayoniga ta'sir qiladi.

3. Daromadlarning o'sishi bilan aholining o'z salomatligiga munosabati o'zgaradi, bu esa inson kapitalini shakllantirish omiliga aylanadi. Buning natijasida sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatni rivojlantirish jarayoni tez sur'atlarda kengayib boradi.

4. Hayot sifatining sezilarli yaxshilanishi rivojlangan mamlakatlarda umr ko'rish davomiyligining oshishiga olib keldi, bu esa ijtimoiy xizmatlarning, xususan, qariyalarga xizmatlarning keng spektrini rivojlantirish, sog'lomlashtirish markazlarini yaratish, dam olish xizmatlarini rivojlantirish kabi sohalarda ish hajmining ortishini rag'batlantiradi.

---

<sup>139</sup> Тоффлер, Э. Революционное богатство / Э. Тоффлер, Х. Тоффлер. — М.: АСТ, 2007. — 576 с.

<sup>140</sup> Лебедева Л.Ф. Структурные сдвиги в личном потреблении в России и США: особенности современного периода // США. ЭПИ. - 1997. - №12. - С. 36-37.

5. Ish bilan band ayollar sonining o'sishi. Murakkablik nuqtai nazaridan, xizmat ko'rsatish sohasida ko'pchilik ayollar, shu jumladan, maxsus ma'lumotga ega bo'lmaganlar va uy bekalarining band bo'lishi uchun imkoniyatlar kengaydi.

6. Shaharlashuv darajasining ortishi. Ushbu sharoit shaharlarda yashash bilan bog'liq bo'lgan yangi xizmat turlarini, jumladan, hayot xavfsizligini ta'minlash va boshqa maishiy xizmat turlarining rivojlanishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yangi ishchilarga bo'lgan talabni kengaytiradi, bu rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlikning industrial modeliga muayyan o'zgarishlar kiritmoqda. Bundan tashqari, yigirmanchi asrning oxirida insonning mehnatga motivatsiyasi tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Mehnat motivatsiyasi tizimida moddiy rag'batlantirish ikkinchi darajaga o'tib, bajarilgan ishdan qoniqish, o'z qobiliyatlarini namoyon etish, o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyati va boshqalar birinchi darajaga o'tdi.

Bandlikning yangi modeli postindustrial modelga o'xshash bo'lib, unda ishlab chiqarishning an'anaviy omillari roli o'zgaradi. Bunda axborot va bilim alohida o'rin egallab, asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga bog'liq bo'ladi. (8.1-jadval).

Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini va aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq past malakali ish o'rinlarini shakllantirish funksiyasini o'z ichiga oladigan xizmat ko'rsatish sohasi alohida o'rin tutadi.

Shunday qilib, bandlikning zamonaviy modeli quyidagi o'ziga xos asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadi:

1. Rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlikning asosiy tendensiyasi sifatida iqtisodiy faol aholi tarkibining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tishini ko'rsatish mumkin<sup>141</sup>.

2. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi bilan vaqtinchalik yollanuvchi ishchilar faoliyati keng tarqalmoqda. Shu munosabat bilan bandlikning yangi modeli - vaqtincha mehnatdan foydalanish hajmi ortmoqda.

3. Mehnat resurslari umumiy tarkibida ayollar ulushining ortishi.

4. Bandlik modelidagi mehnat intensivligi darajasiga qarab, ishchilarni ikki guruhga ajratiladi: mehnat sig'imi past, ammo ishchilarning yuqori kasbiy tayyorgarligi (telekommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar va boshqalar) talab etiladigan guruh; mehnat sig'imi yuqori va kasbiy tayyorgarlik darajasiga talablar past (savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va boshqalar) bo'lgan guruh.

---

<sup>141</sup> Седлак М. Тенденции развития секториальной структуры экономики // Проблемы теории и практики управления. - 1998. - №2. - С. 31-32.

5. Mehnat munosabatlarining qonuniylik holatiga ko'ra, yangi bandlik modelida bandlik rasmiy va norasmiy, shuningdek, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash (o'z biznesini yo'lga qo'yish, o'zini o'zi boshqarish) shaklidagi bandlik shakllari farqlanadi.

## 8.1-jadval

### Bandlik modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari<sup>142</sup>

<b>Bandlik modellari</b>	<b>Bandlik modellarining xususiyatlari</b>
Bandlikning klassik nazariyasi	Aholining to'liq bandligi muayyan bozordagi raqobat mavjudligining zaruriy sharti sifatida belgilanadi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishiga asoslanadi.
Keyns modeli	Bandlik bozor mexanizmi tomonidan muvozanatga kelmaydi, balki u davlatning ishsizlik va inflyatsiya darajasini tartibga solish bilan bog'liq iqtisodiyotga aralashuvi natijasida barqarorlashadi.
Bandlikning industrial modeli	Moddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlanishiga mutanosib holda sohada band bo'lganlar miqdorining ortib borishi kuzatiladi.
Bandlikning postindustrial modeli	Moddiy ishlab chiqarish va unda ishlaydigan ishchilar ulushining pasayishi bir vaqtning o'zida uning umumiy hajmi oshishiga olib keladi. Bandlikning moddiy ishlab chiqarishdan xizmatlar sohasiga ko'chish jarayoni boshlanadi.
Bandlikning yangi modeli	Ishlab chiqarish an'anaviy omillarining roli o'zgaradi. Bunda axborot va bilim alohida o'rin egallaydi. Asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga qaratiladi. Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini va aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq past malakali ish o'rinlarini shakllantirish funksiyasini o'z ichiga oladigan xizmat ko'rsatish sohasi alohida o'rin tutadi. Mehnat motivatsiyasi tizimi o'zgaradi, "mehnat" tushunchasiga nisbatan yondashuv o'zgaradi.

Erkin bozor munosabatlarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan mamlakatimizda mehnat bozorini takomillashtirishda yuqorida ko'rib o'tilgan bandlik modellari mohiyatidan kelib chiqqan holda tashkiliy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish milliy mehnat bozorining xalqaro mehnat bozoriga integratsiyasini tezlashtirish, bandlikka ta'sir etuvchi omillarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda aholi bandligi samaradorligini oshirish imkonini kengaytiradi.

So'nggi yillarda jahon miqyosida mehnat resurslari ba'zi mamlakatlarda ko'payib, ba'zilarida, aksincha, kamayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Mehnat resurslarining miqdoriy o'zgarishi bevosita bandlik masalalari dolzarbligini keltirib chiqarmoqda.

1820 yilda dunyo aholisi 1 milliard kishidan, 1960 yilga kelib esa 3 milliard kishidan iborat bo'lgan, 2019 yilda 7,7 milliard kishiga yetdi. Shundan, Xitoy

<sup>142</sup> Асракулов, А.С. Неформальная занятость и анализ факторов, влияющих на неформальную занятость в Узбекистане. // Региональная экономика: теория и практика, 2019. 17(12), 2328-2336.

aholisi 2017 yilda 1,4 milliard, 2019 yilda Hindiston aholisi 1,3 milliardni tashkil etadi. Shaharlarning tezda ko‘payib borayotgani ham bandlik tarkibiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Demografik jarayonlar natijasida jahonda aholi sonining keskin oshib borganligi, o‘z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish dolzarb masalalardan ekanligini ko‘rsatadi.

Aholining samarali bandligi ta‘minlangan holatda esa turmush darajasini oshirish imkoniyatlari kengayib boradi. Demografik jarayonlar aholining mehnatda bandlik holatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda aholining o‘sishi yuqoridir, ayni vaqtda dunyoning ba‘zi mamlakatlarida, jumladan, Yevropa mamlakatlarida aholining keksayishi kuzatilmoqda. Mazkur mamlakatlarda mehnat resurslariga nisbatan keksa aholi ulushi oshib borayotgani bandlikka ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Keksa aholi ulushi ko‘payishining sabablari:

1. Tug‘ilishning kamayishi, yoshlarning qisqarishi.
2. Umr ko‘rish yoshining oshib borishi.

Keksa aholi ulushining mehnatga layoqatli aholiga nisbatan oshib borishining oqibatlarini:

1. Aholining iqtisodiy faolligi, mehnat unumdorligining pasayishi.
2. Aholi harakatchanligining pasayishi.
3. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini to‘laydigan mehnatga layoqatli aholi ulushining qisqarishi.
4. Davlat ijtimoiy xizmatlariga ehtiyojlarning ortishi.

Demografik vaziyat 2050 yilda dunyo aholisi 9,3 milliard bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Bu davrda har bir ayolga 2 nafardan farzand to‘g‘ri keladi. Osiyoda ayollar ko‘payishi kutilmoqda. Bu bilan 15 dan kichik yoshdagilarning o‘sishi barqaror bo‘lib qoladi.

BMTning prognozlariga ko‘ra, 2050 yilda dunyo aholisining yarmidan ko‘pi Osiyoda, 25 foizi Afrikada, 8,2 foizi Lotin Amerikasida, 7,4 foizi Yevropada, 4,7 foizi shimoliy Amerikada yashashi kutilmoqda. XXI asr boshidan buyon aholi o‘shishining 97 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar, ya‘ni Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Rivojlangan davlatlarda esa mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar soni qisqarib boradi. Mazkur mamlakatlardagi demografik jarayonlar keksa yoshdagi aholi ulushining ko‘payishini iqtisodiy o‘shishga salbiy ta‘sir qilishi, natijada bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishini ko‘rsatmoqda.

2017 yilda dunyo miqyosida band bo‘lganlarning o‘rtacha yoshi 40 yoshdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2030 yilga borib 41 yoshga yetadi.

Dunyo miqyosida ishsizlik darajasi birmuncha barqarorlashgan bo'lsa-da, munosib mehnat turlari hali ham yetarlicha emasligi namoyon bo'lmoqda. Bu esa dunyo miqyosida yangi ish joylarini yaratish jarayonini jadallashtirishni, qo'shimcha chora-tadbirlarni qo'llashni talab etadi.

2017 yilda dunyo miqyosida ishsizlik 192,7 mln. kishini tashkil etgani holda, 2016 yilga nisbatan 2,6 mln. kishiga ko'paygan. 2017 yilda dunyo miqyosida ishsizlik darajasi 5,6%dan iborat bo'ldi.

Dunyo miqyosida global muammolardan biri shundaki, rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda yashayotgan ishchilarning aksariyati norasmiy bandlar toifasiga mansub bo'lib, ro'yxatdan o'tmagan firmalarda faoliyat olib bormoqdalar. Mazkur ish joylarining aksariyatida mehnat sharoiti talablarga javob bermaydi, ishchilar ijtimoiy sug'urta qilinmagan.

Shuningdek, dunyo miqyosida rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida ishchilar mayda dehqon xo'jaliklarida vaqtinchalik, barqaror ish haqi mavjud bo'lmagan past malakali mehnat faoliyati bilan banddirlar. Buning natijasida ularning aksariyati bir nechta ish joylarida ishlashga majburdirlar. Shunday bo'lsa-da, aksariyat hollarda ularning topgan mablag'lari o'zi va oilasi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashga yetmaydi.

Dunyo miqyosida bandlik bo'yicha dolzarb muammolardan biri norasmiy mehnatda bandlik oqimlarining kengayib borayotganligi, shuningdek, band bo'lganlarning aksariyati ish joylari yetishmasligi sababli qisqartirilgan ish kunida, nobarqaror ish joylarida band bo'lish bilan kifoyalanishga majbur bo'layotganligidir.

2017 yilda dunyo miqyosida band bo'lganlardan 1,4 milliard kishi barqaror bo'lmagan ish joylari bilan kifoyalanishga majbur bo'lgan, 2019 yilda ularning soni yana 35 million kishiga ko'payishi kutilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi ishchilarning to'rt dan uch qismi barqaror bo'lmagan ish joylarida band bo'lgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda «band bo'lgan kambag'allar» ulushining qisqarishi mehnat resurslarining o'sishiga nisbatan sekinlik bilan bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ayollar past ish haqi evaziga ishlashga majbur bo'lmoqdalar. 2017 yilda dunyo bo'yicha 300 mln. kishi kuniga 1,9 dollar ish haqi evaziga mehnat qilishiga to'g'ri kelgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan demografik muammolar global miqyosda turli mintaqalar va hududlarda jahon mehnat bozoridagi barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos yondashuvlar hamda chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi.

### **8.3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ko‘rinishlari, tarkibi, yo‘nalishlari va migrantlarni o‘ziga jalb qiluvchi markazlar**

Migratsiya lotincha so‘z bo‘lib, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish ma‘nosini anglatadi. Ushbu so‘z keng ma‘noda insonlar, hayvonlar, kapitallar hamda kimyoviy elementlarning yer qobig‘idagi ko‘chishini anglatadi<sup>143</sup>.

Har bir chegaraga ma‘lum aholining ko‘chishi emigratsion va immigratsion oqimlarning yig‘indisidan tuziladi. Emigratsiya chet elga chiqish bo‘lsa, immigratsiya chet eldan kelishni bildiradi. Ushbu ikki oqim o‘rtasidagi farq sof migratsiya hajmini, ularning yig‘indisi esa yalpi migratsiya hajmini belgilaydi.

Biron bir xalqaro mintaqadan boshqasiga ko‘chib o‘tish har doim insonlarga xos bo‘lgan doimiy xususiyatlardan biridir. Aholi migratsiyasi odamzod tarixida, yer sharida uning tarqalishida, xalqlarni paydo bo‘lishida katta rol o‘ynagan.

Migratsion jarayonlarning rivojlanishida odatda uchta yirik to‘lqin alohida ahamiyat kasb etadi<sup>144</sup>.

Birinchisi – eski migratsiya nomini olgan, davr nuqtai nazaridan XIX asrning deyarli 2/3 qismini o‘z ichiga oladi. Bu davr uchun sanoat ishchilarining ko‘chishi xarakterlidir.

Ikkinchi to‘lqin XIX asr oxiri – XX asrning boshida o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. U yangi migratsiya degan nom olgan. Ushbu davrda bankrotga uchragan xristianlar migratsiyasi kuzatiladi.

Ishchi kuchi migratsiyasining uchinchi to‘lqini Ikkinchi jahon urushidan so‘ng boshlandi. Bu bosqichda qoloq mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga o‘zaro qarama-qarshi ikkita migratsion guruhlarining ko‘chib o‘tishi xarakterlidir. Bir tomondan, kam o‘rganilgan va malakasiz ishchilar oqimining ustunlik qilishi kuzatilsa, boshqa tomondan, ilmiy kadr va mutaxassislarining sanoat markazlari sari ko‘chib ketishlari kuzatiladi.

Migratsion oqimlarning asosini ishchilar, past malakaga ega xizmatchilar tashkil etadi. Lekin xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida yangi ko‘rinish paydo bo‘lib, bu ilmiy - texnik kadrlarning ko‘chishi hisoblanadi. Insonlar yaxshiroq sharoitni izlab, o‘z kuchini samarali qo‘llash uchun hayot darajasi yuqori bo‘lgan joylarni qidirib, AQSh va G‘arbiy Yevropaga ko‘chib o‘tishmoqda.

Jahon hamjamiyati yaqin kunlarga xalqaro darajadagi migratsion jarayonlarning o‘ziga xosliklari va oqibatlari, ko‘lamlarini sezmay kelgan. Hozirda u keskin vaziyatlarni hal qilish va migratsion oqimlarni jamoaviy tartibga solish bo‘yicha bir qancha mamlakatlar harakatlarini tartibga solish ehtiyoji yuzaga keldi.

---

<sup>143</sup> Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 301

<sup>144</sup> Ливенцев Н. Международные экономические отношения. - Учебник. М.: 2005, С.306.

Oxirgi paytlarda noqonuniy immigratsiya kuchaydi. Xitoyliklar AQSh va Rossiya chegaralaridan o'tib borishmoqda, jazoirliklar Fransiyaga ko'chib o'tishmoqda va hakoza. Noqonuniy immigratsiya tadbirkorlarga eng arzon va huquqsiz ishchi kuchidan foydalanish va buning natijasida katta daromadga egalik qilish imkoniyatini yaratmoqda. Shuning uchun ham meksikalik noqonuniy immigrantlar oqimiga hatto Amerika politsiyasi ham bas kela olmayapti.

Institutsional, me'yoriy-huquqiy va boshqarishning moliyaviy mexanizmlari global, mintaqaviy va milliy darajalarda yaratilgan bo'lib, aholining xalqaro migratsiyasi va migratsion oqimlarni me'yorga keltirish sohasidagi keskinlikni asta-sekin kamaytirishga yordam berdi. XX asrning oxirgi o'n yilligi - XXI asrning boshlari shu bilan xarakterlidirki, mehnat resurslarini import va eksport qiluvchi mamlakatlar o'z migratsion siyosatiga qator o'zgarishlar kiritdi.

Bir qator mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishi jamiyatimiz hayotida turli o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni tadqiq qilish natijalari yoshlar uchun ish joylarini yaratish, ayollarning ishsizlik darajasi, qonunbuzarlikning ko'payishi, oila va qarindoshchilik aloqalarining susayishi kabi sohalarda muammolarni mavjudligini ko'rsatmoqda.

Mehnat migratsiyasi jahon kapitalistik xo'jaligining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga keldi. Jahon iqtisodiy rivojlanishining global xarakteri, jahon xo'jaligi aylanmasiga mamlakatlarning o'zaro bog'liqligi va ularning notekis iqtisodiy rivojlanishi migratsiyaning iqtisodiy sabablarini keltirib chiqaradi. Ularga quyidagilar kiradi:

- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va uning natijasida ish haqi, hayot, ijtimoiy ta'minlanganlik darajalaridagi mamlakatlararo farqlar;

- alohida mamlakatlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajalaridagi farqlar;

- milliy ishlab chiqarishda moddiy o'zaro bog'liqlikning o'sishi;

- TMKlarning rivojlanishi;

- iqtisodiy sikllarining o'sish davrida ishchi kuchiga talab ko'payadi, inqiroz davrida pasayadi;

- jahon xo'jaligida iqtisodiy integratsiya jarayonlari, ular o'zaro birlashuvchi mamlakatlar orasidagi xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini rag'batlantiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu jarayonlar uchinchi mamlakatlar uchun ishchi kuchini jalb qiluvchi yalpi markazlarga aylanmoqda;

- insonlar tomonidan boshqa mamlakatlar keng iqtisodiy imkoniyatlarga ega ekanligining tan olinishi, transport vositalarining rivojlanishi va arzonlashishi, xalqaro axborot tizimining kengayishi.

Xalqaro migratsiya aylanmasi tarkibini tushunib yetish uchun mehnat migratsiyasining ko‘rinishlarini belgilab chiqish zarur, ularni turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin. Jahon tajribasida ishchi kuchi migratsiyasining shakllari quyidagicha guruhlanadi<sup>145</sup>:

1. Yo‘nalishlar bo‘yicha:

- rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik mamlakatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;

- sanoati rivojlangan mamlakatlar doirasida;

- rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida;

- yuqori malakali ishchi kuchining sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga migratsiyasi;

- rivojlanayotgan mamlakatlardan sobiq sotsialistik mamlakatlarga migratsiya.

2. Geografik yo‘nalishiga ko‘ra:

- tashqi va ichki.

3. Davomiyligiga ko‘ra:

- doimiy, qaytmas (odatda, mintaqalararo migratsiya, shunindek, qishloqdan shaharga bo‘lgan migratsiyalar shunday xarakterga ega),

- vaqtinchalik, qoida bo‘yicha, mintaqa ichkarisida;

- mavsumiy, pul topish niyatidagi har yili borib kelishlar;

- mayatnikli, yashab turgan manzildan yiroqda joylashgan har kunlik borib kelishlarni nazarda tutadi.

4. Qonuniyligi darajasiga ko‘ra:

- qonuniy va noqonuniy. Mamlakatga ish qidirib kirib kelgan shaxslar yoki qonuniy ravishda mamlakatga kirib, noqonuniy ravishda ishga joylashadigan shaxslar noqonuniy migrantlar hisoblanadi.

5. Ijtimoiy tarkibiga ko‘ra:

- malakasiz ishchilar,

- o‘rta texnik va servis xodimlari,

- talabalar (ta‘til paytida),

- mutaxassislar,

- fan, madaniyat va sport arboblari, tadbirkorlar;

6. Tabiatiga ko‘ra:

- bevosita va bilvosita (TMK doirasida firma ichida).

7. Mehnat shartnomasi ko‘rinishiga ko‘ra

- shaxsiy va jamoaviy;

8. Qabul qiluvchi mamlakatdagi huquqiy holatga ko‘ra<sup>146</sup>:

- assimilyatsion (keyinchalik fuqarolik berilishi) va noassimilyatsion.

<sup>145</sup> Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. - М.: 2005, С. 308.

<sup>146</sup> Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU. 2005. 92-b.



Butun aholi migratsiyasi bilan birgalikda alohida uning guruhleri – ijtimoiy, etnik va boshqa guruhlarining migratsiyasi ham farqlanadi. Masalan, ishchi kuchi migratsiyasini joylashtirishdagi farqlar natijasida ishga layoqatli aholining ko‘chishi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti klassifikatsiyasi bo‘yicha bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ish va mablag‘ topish niyatida mamlakatga kirib kelgan shaxslar doimiy ishlab turuvchi migrantlar hisoblanadi.

BMT klassifikatsiyasiga asoslanib zamonaviy xalqaro migratsiyasining beshta asosiy turini farqlash mumkin<sup>147</sup>:

1. Bir joydan ikkinchi joyga doimiy tarzda yashashga ko‘chib kelganlar.
2. Kontrakt (shartnoma) bo‘yicha ishlaydiganlar (ushbu shartnomada qabul qiluvchi mamlakatda yashash muddati aniq belgilangan bo‘ladi).
3. Professionallar – yuqori darajadagi tayyorgarlik, tegishli ta’lim, amaliy ish tajribasiga ega bo‘lganlar, shuningdek, jahon tizimidagi oliy ta’limga asoslanib ko‘chib kelgan o‘qituvchi va talabalar.
4. Noqonuniy migrantlar – ish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, turistik yoki muddati o‘tib ketgan vizlarga ega bo‘lagan yoki umuman vizaga ega bo‘lmagan xorijliklar.
5. Qochoqlar – hayot uchun qandaydir xavf tug‘ilganda o‘z vatanini tark etishga majbur bo‘lganlar.

Zamonaviy xalqaro migratsiyaning ushbu beshta asosiy turi davrlar mobaynida shakllanib, hozirgi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan. Shu turdagi migrantlar mamlakat iqtisodiyotiga ham salbiy, ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro statistika ma’lumotlariga ko‘ra, migrantlarning asosiy qismini ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan kam malakali ishchilar tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, mutaxassislarining, ya’ni TMKlar tuzilmasida e’tiborli va yuqori haq to‘lanadigan mansablarni egallagan yuqori malakali ishchi kuchining migratsion oqimi («aqlning oqib chiqib ketishi») o‘sib bormoqda. Bundan tashqari yildan yilga Yevropa Ittifoqi kabi integratsion birlashmalarda ayollar va yoshlarning safarbarligi kuchaymoqda.

Geografik yo‘nalishga ko‘ra mintaqalararo va mintaqa ichidagi tashqi aholi migratsiyasi farqlanadi. Bunda mehnat migratsiyasi oqimlarining aniq qayerga harakat qilganligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ishchi kuchining birinchi ommaviy mintaqalararo ko‘chishi majburiy tarzda bo‘lgan. Bu XVII–XIX asrlardagi qullar savdosining rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Shunday oqim natijasida Afrika aholisi 1650-1850 yillarda 22 foizga qisqardi.

---

<sup>147</sup> Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. - М.: 2005, С..309.

Ishga yollangan mustaqil shaxslar ko‘chishi to‘g‘risida so‘z yuritilganda, XIX–XX asrlarda yevropaliklarning okean ortiga chiqib ketishini eng yirik migratsion oqim deb hisoblash mumkin. XIX asrda qariyb 30 mln. kishi emigratsiya qilgan. XX asr boshidan Birinchi jahon urushigacha Yevropadan 19 mln. ga yaqin kishilar chiqib ketgan. 1914-1918-yillarda migratsiya jarayonlari nisbatan pasaygan, keyinchalik esa qaytadan tiklandi va 1918-1939-yillarda 9 mln. kishi emigratsiya qildi. Ikkinchi jahon urushi Yevropadan okean ortiga aholi migratsiyasining to‘xtalib turishiga sabab bo‘ldi, urush tugagandan so‘ng u yanada tiklanib, so‘ngra tadrijiy ravishda yana susaya boshladi.

Emigrantlarning asosiy migratsiya oqimi kapitalizm jadal rivojlanayotgan AQShga tomon harakatlangan. Shu bilan birga, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina va boshqa davlatlarga ham ko‘chishlar mavjud. Ta‘kildlash joizki, ushbu mamlakatlar aholi soni o‘shining asosiy omili immigratsiya bo‘ldi. Irlandiya, Angliya, Fransiya, Germaniya kabi Yevropa mamlakatlaridan immigrantlar kirib kelgan.

Oxirgi o‘n yilliklarda nafaqat mintaqalararo, balki mintaqa ichkarisida yangi jahon ishchi kuchi bozorlari paydo bo‘ldi.

Mehnat migratsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayondir. Biroq uning jadallik darajasi jahonning u yoki bu hududlarida farq qiladi. Migrantlarning eng jadal oqimi ishchi kuchini eksport yoki import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida va tabiiy demografik o‘sh sur‘atida jiddiy farq bo‘lganda kuzatiladi. Migratsiyaning asosiy to‘rt yo‘nalishi ichida jami migratsiya oqimining hajmi bo‘yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon ishchi kuchlarining ko‘chishi birinchi o‘rinda turadi. Mutaxassislar quyidagi migratsiya oqimlarini alohida ko‘rsatib o‘tishadi: G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari o‘rtasida, sobiq sotsialistik mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o‘tish davri iqtisodiyotili davlatlar o‘rtasida (masalan, Janubiy Amerika chegarasida, Ukrainadan Rossiyaga).

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo‘nalishi, ya‘ni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan yoki o‘tish davri iqtisodiyotili davlatlarga migratsiya shaklida uchrasa-da, bu yo‘nalishni tanlovchi migrantlar soni unchalik ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Ular TMKlarning shahobchalari va sho‘ba korxonalarida band bo‘lgan xodimlar, turli xayriya tashkilotlari va fondlarining a‘zolari, shuningdek, sarguzasht izlovchilar hamda tavakkalchilardan iborat.

Migrantlarni o‘ziga tortuvchi boshqa bir “ohangrabo” Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridir. Xorijiy ishchi kuchi jami aylanmasining  $\frac{1}{4}$  qismidan ko‘prog‘i ularga to‘g‘ri keladi. Yevropa hamjamiyati mamlakatlarida migrantlar va ularning oila a‘zolarining o‘zi 13 mln. kishini tashkil etadi. Bu ma’noda Fransiya (mamlakat

aholisining 8 foizi – 4 mln.ga Yaqin Shimoliy Afrikadan kelgan immigrantlar), Germaniya (7,5 foiz – 4630 ming kishi) davlatlari yetakchilik qilmoqda. Belgiyada 1 mln.ga yaqin ispaniyaliklar va italiyaliklar, Shvetsiyada 1 mln. atrofida finlar mavjudligi hisobga olingan. Bulardan tashqari Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Avstriya ham ishchi kuchi qabul qilishda oldingi o‘rinlarda turadi.

Yevropa ekspertlarining bashorati bo‘yicha, umumiy bozor yaratilishidan so‘ng migratsion oqimlarda bir necha o‘zgarishlar ro‘y beradi. Past malakali ishchilar ommaviy immigratsiyasining yomon tashkil etilishi barobarida maqsadga yo‘naltirilgan jamoaviy kelishuvlar paydo bo‘ladi. Migratsiyaning ko‘p qismini past va o‘rta malakali ishchilar tashkil etayotganiga qaramay, bu yerda yuqori malakali ishchilar ustun turuvchi huquqqa ega bo‘ladilar.

Ishlovchi migrantlarni jalb qiluvchi ikkinchi markaz 70-yillarda Yaqin Sharq mintaqasida paydo bo‘ldi. Neft qazib oluvchi mamlakatlar Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Iordaniya, Yaman, shuningdek, Gretsiya, Turkiya, Italiyadan ko‘pchilikni ishga jalb qilgan. 90-yillar boshiga kelib u yerda 4,5 mln. xorijliklar ishlagan (mahalliy ishchilar shu davrda 2 mln. kishini tashkil etgan). Alohida mamlakatlar ishchi kuchining umumiy miqdorida immigrantlar ulushi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda Birlashgan Arab Amirliklarida u 97 %ni, Quvaytda 86,5 %ni, Saudiya Arabistonida 40 %ni, ya‘ni yalpi ishchi kuchining katta qismini tashkil etgan.

Yahudiylar Yaqin Sharqda migrantlarning ahamiyatli guruhini tashkil etadi. 1989-1994 yillarda MDH mamlakatlaridan Isroilga 500 ming kishi ko‘chib kelgan. Sobiq kommunistik mintaqadan yahudiylar ko‘chib ketishining asosiy sabablariga etnik vatanga qaytish, siyosiy noaniqlik va iqtisodiy qiyinchiliklardan qochish, qarindoshlar bilan birlashuv va diniy qarashlar kiradi. Isroil barcha yahudiylarni o‘zlarining tarixiy vatanlariga qaytarishga harakat qilmoqda. Yahudiylarning “Jannatmakon yer”ga migratsiyasi, umuman olganda, siyosiy sabablar tufayli yuz bergan bo‘lsa-da, uning iqtisodiy jihatlari ham mavjud. Turmush darajasi past bo‘lgan mamlakatlardan Isroilga kelayotgan migrantlar oqimining jadalligi ham bundan dalolat beradi.

Ishchi kuchini o‘ziga tortuvchi markazlar ichida eng yirik va 300 yildan beri mavjud bo‘lgan markaz Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada) hisoblanadi. Amerikalik mutaxassislarining ma‘lumotlariga ko‘ra, 90-yillar davomida belgilangan kvota 675 ming kishi bo‘lishiga qaramay yiliga 1 mln.dan ortiq migrantlar AQSh hududiga kirib kelgan. Tarixdan ma‘lumki, ushbu mamlakatning mehnat resurslari immigrantlar hisobiga tashkil topgan.

Hozirgi paytda ham mamlakat ishchi kuchining 5 %ga yaqinini xorijliklar tashkil etadi. Urushdan keyingi immigratsiya ushbu mamlakatda bir necha

bosqichlarga bo‘linadi. Birinchi bosqich kuchli Yevropa oqimini tashkil etib, G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan AQShga 6,6 mln. kishi kirib kelgan. Ikkinchi bosqich 1965 yilda boshlanib, bu paytda Osiyo va Lotin Amerikasidan kelganlarga qulay sharoit yaratuvchi qonun qabul qilingan. 1993 yildan uchinchi bosqich boshlanib, bu paytda Yevropa – Irlandiya, Polsha, shuningdek, Argentinadan emigrantlarga talab ko‘p bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqichdagi xalqaro mintaqa Avstraliya hisoblanadi. Ushbu mamlakatda 200 mingta xorijiy ishchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Avstraliya AQSh singari o‘z siyosatini immigrantlar o‘zlashtirishga yo‘naltirdi.

Bundan tashqari, 1982 yildan boshlab Avstraliya mamlakatda biznesning rivojlanishiga ko‘maklashuvchi migratsion siyosat olib bormoqda. Unga asosan, mamlakatga, birinchi navbatda, iqtisodiyotga investitsiya qiluvchi immigrantlar qabul qilinadi<sup>148</sup>.

Avstraliya hukumati mamlakat hududining katta qismida aholi zichligi darajasining pastligi va uning tarkibida xitoy millati ulushining ko‘payib borayotganidan xavotirda. Shuning uchun ham Kanberra tomonidan Avstraliya mamlakatiga qit‘aga oq irqqa mansub aholini, asosan, fertil (turmush qurish va farzand ko‘rishga qodir) yoshdagi ayollarning ko‘chib o‘tishini rag‘batlantirish borasida chora-tadbirlar majmui e‘lon qilingan.

Mehnat migratsiyasining beshinchi markazi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi – Bruney, Yaponiya, Gonkong, Malayziya, Singapur, Koreya, Tayvan, Pokiston hisoblanadi. Masalan, Yaponiya migrantlar sifatida dastlab koreyslarni kirita boshlagan bo‘lsa, oxirgi paytlarda qora ishni bajaruvchi eronliklar ham paydo bo‘la boshladi. Shu bilan bir paytda Yaponiya mazkur mintaqa mamlakatlariga uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini amalga oshiruvchi yuqori malakali ishchi kuchini chiqara boshladi. Ushbu migratsiya tranzit professional migratsiya degan nom olgan.

Lotin Amerikasida ishchi kuchini jalb qiluvchi oltinchi markaz tashkil bo‘lgan, u yerda immigrantlarni asosan Argentina va Venesuela qabul qiladi. Migrantlarning umumiy soni 3 mln. kishini tashkil qilib, ularning ko‘pchilik qismi lotin amerikaliklardan tarkib topgan. Biroq Argentina, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Chili va Paragvay sharqdagi yevropaliklarni jalb qilish bo‘yicha maxsus dasturni subsidiya qilishdi, shular qatorida sobiq Ittifoqdan chiqib kelganlar ham mavjud. Ular neftchilar, injinerlar, ximiklar, fermerlarga katta ehtiyoj sezmoqda.

Bundan tashqari Afrika markazi ham mavjud. Taxminiy baholarga ko‘ra, Afrikadagi mamlakatlararo migratsiya 2 mln. kishini tashkil etadi.

---

<sup>148</sup> Колосова Р.П., Артамонова М.В. и др. Глобализация экономики и занятость населения. Учебное пособие, М. 2000.

Asosiy migratsiya oqimining geografik yo'nalishlari bo'yicha jahon ishchi kuchi bozorining 4 ta yirik markazini asosiy deb aytish mumkin: Yaqin Sharq, G'arbiy Yevropa, AQSh va Kanada hamda Avstraliya.

MDH doirasida Rossiya yirik markaz bo'lsa-da, u ham eksportyor, ham importyor mamlakat sanaladi. Rossiyadan uzoq xorijga ishchi kuchi eksport qilinsa (yiliga 10 ming kishi), MDH mamlakatlaridan, asosan, Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikistondan (yiliga 2-3 mln. kishi) import qilinadi.

#### **8.4. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining dinamikasi, mintaqalararo migratsion jarayonlar va ularning ustuvor oqimlari**

Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi siklik o'zgarishlar globallashuv jarayonlari bilan parallel ravishda yuz bermoqda. Globallashuv oqibatida yuzaga kelayotgan iqtisodiy o'zgarishlar xalqaro mehnat bozoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib, migratsiya oqimining o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda dunyoda migrantlarning ulushi ko'rsatkichining barqarorligi kuzatiladi. 1970-2015 yillarda migrantlar umumiy sonining jahon aholisi sonidagi ulushi juda oz miqdorda, ya'ni 2,3 %dan 3,3 %gacha o'sdi. 1970 yilda jahon bo'yicha xalqaro migrantlar soni 84,5 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib bu ko'rsatkich 243,7 million kishiga yetdi (8.2-jadval).

#### **8.2-jadval**

##### **Jahon bo'yicha 1970-2010 yillarda xalqaro migrantlar sonining o'zgarishi<sup>149</sup>**

<b>Yillar</b>	<b>Migrantlar soni, mln. kishi</b>	<b>Xalqaro migrantlarning jahon aholisi soniga nisbatan ulushi, %</b>
1970	84,5	2,3
1975	90,3	2,2
1980	102,0	2,3
1985	113,2	2,3
1990	152,6	2,9
1995	160,8	2,8
2000	172,7	2,8
2005	191,2	2,9
2010	221,7	3,2
2015	243,7	3,3

<sup>149</sup> UN DESA, 2008 and 2015.

2015 yilda dunyo aholisi soni 7,3 milliard kishini tashkil etishi inobatga olinsa, 243,7 dunyo aholisi bo'yicha har 30 kishidan biri xalqaro migrant ekanligini ko'rish mumkin.

2015 yil bo'yicha xalqaro migrantlarning jinsi bo'yicha tahlili migrantlar umumiy sonidan 52 %i erkaklar va 48 %i ayollarni tashkil etganligini ko'rsatadi. Xalqaro migrantlarning yosh guruhlari bo'yicha o'rganish migrantlarning 72 %i (20-64 yoshda) mehnatga layoqatli yoshda ekanligini ko'rsatadi. Qolgan 18 % migrantlar 20 yoshgacha va 75 yoshdan yuqori bo'lganlarni tashkil etgan. Bunda 75 yoshdan katta migrantlarning 4,5 %i erkaklar va 6,8 %i ayollar (8.3-jadval)<sup>150</sup>.

### 8.3-jadval

#### Xalqaro migrantlarning yosh va jinsi bo'yicha tarkibi (2015 yil),%

Yosh guruhlari	Migrantlar sonidagi erkaklar ulushi	Migrantlar sonidagi ayollar ulushi
75 yoshdan yuqori	4,5	6,8
70-74	2,7	3,6
65-69	3,4	4,1
60-64	4,5	5,2
55-59	5,7	6,2
50-54	7,0	7,1
45-49	8,3	7,9
40-44	9,7	8,8
35-39	10,8	9,5
30-34	11,2	9,9
25-29	10,2	9,2
20-24	7,0	6,6
15-19	4,7	4,6
10-14	3,9	3,9
5-9	3,5	3,6
0-4	2,9	3,0

Xalqaro migrantlarning asosiy joylashuv mintaqalarini aniqroq ko'rish maqsadida ularning faoliyat ko'rsatish hududi 6 ta asosiy mintaqalarga ajratib olinishi maqsadga muvofiq: Afrika, Osiyo, Yevropa, Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Shimoliy Amerika va Okeaniya.

2000-2015 yillardagi migrantlar oqimi yo'nalishlari tahlili xalqaro migrantlarning asosiy oqimi Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerika mintaqalariga yo'nalganligini ko'rsatadi (8.4-jadval).

<sup>150</sup> World Migration Report 2018. International Organization for Migration (IOM), The UN Migration Agency, 2018. - p. 17.

Xalqaro migrantlar harakatini o'rganish asosida ularni eng ko'p immigratsiya va emigratsiya qilayotgan mamlakatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

#### 8.4-jadval

#### Xalqaro migrantlarning asosiy mintaqalar bo'yicha taqsimoti, million kishi

№	Mintaqalar	Yillar			
		2000	2005	2010	2015
1	Afrika	15,0	16,0	17,0	21,0
2	Osiyo	49,0	53,5	66,5	75,0
3	Yevropa	56,5	64,5	72,5	76,5
4	Lotin Amerikasi va Karib havzasi	6,5	7,0	8,0	9,0
5	Shimoliy Amerika	40,0	45,0	52,0	54,5
6	Okeaniya	5,2	5,5	5,7	5,8

2015 yilda dunyo bo'yicha xalqaro migrantlar immigratsiyasi yuqori bo'lgan 20 ta mamlakat ichida AQSh, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Saudiya Arabistoni va Buyuk Britaniya yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa, emigratsiya darajasi yuqori bo'lgan 20 ta mamlakat ichida Hindiston, Meksika, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Bangladesh yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan (8.5-jadval).

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda jahonda 244 mln.ga yaqin kishi o'z vatanini tark etib, chet elda yashaydi. Demak, migrantlarning umumiy soni ayrim mamlakatlar, masalan, Braziliya aholisidan ko'pdir<sup>151</sup>.

Ularning pul o'tkazmalari, ko'pincha, nafaqat ularning oilalari uchun eng muhim qo'shimcha doimiy daromad manbaiga, balki umuman mamlakat uchun ham valyuta tushumlarining muhim manbaiga aylanadi.

So'nggi yillarda ilmiy jamoatchilik, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik tuzilmalarining mamlakatlararo pul o'tkazmalarga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Bu mablag'lar ko'pchilik mamlakatlar, birinchi galda, kambag'al mamlakatlar uchun tashqi moliyalashtirishning yirik barqaror manbai sifatida qaraladi.

Hozirgi davrda jahon va mintaqaviy miqyosda bunday pul o'tkazmalarining roli, ko'lami va yo'nalishlarining qanday o'zgarayotganligi dolzarb masalaga aylangan. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan, shu jumladan, Afrika mamlakatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

<sup>151</sup> И.Абрамова. Денежные переводы мигрантов: роль в социально-экономическом развитии Африки. //МЭ и МО. 2009, №7.

## 8.5-jadval

**Xalqaro migrantlar immigratsiyasi va emigratsiyasi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlar<sup>152</sup>, mln. kishi**

<b>№</b>	<b>Immigratsiya darajasi yuqori mamlakatlar</b>	<b>Immigrantlar soni</b>	<b>Emigratsiya darajasi yuqori mamlakatlar</b>	<b>Emigrantlar soni</b>
1	AQSh	43,0	Hindiston	16,5
2	Germaniya	14,5	Meksika	14,9
3	Rossiya Federatsiyasi	13,0	Rossiya Federatsiyasi	12,0
4	Saudiya Arabistoni	10,0	Xitoy	8,8
5	Buyuk Britaniya	8,0	Bangladesh	7,3
6	BAA	7,6	Pokiston	6,5
7	Kanada	7,5	Ukraina	6,5
8	Fransiya	7,5	Filippin	5,8
9	Avstraliya	7,0	Suriya	5,0
10	Ispaniya	5,5	Buyuk Britaniya	4,9
11	Italiya	5,5	Afg‘oniston	4,8
12	Hindiston	5,0	Polsha	4,7
13	Ukraina	4,9	Qozog‘iston	3,9
14	Tailand	3,9	Germaniyya	3,9
15	Pokiston	3,9	Indoneziya	3,9
16	Qozog‘iston	3,2	Ruminiya	3,3
17	Janubiy Afrika	3,2	Misr	3,1
18	Iordaniya	3,0	Turkiya	3,1
19	Turkiya	2,9	AQSh	3,0
20	Quvayt	2,7	Italiya	3,0

Pul o‘tkazmalari xalqaro migratsiyaning bevosita va eng sezilarli samarasini namoyon etadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2000-2015 yillar davomida xalqaro pul o‘tkazmalari hajmi 5 marta ortib, 300 mlrd. AQSh dollaridan ortiqroqqa yetgan. Agar rivojlanayotgan o‘rtacha mamlakatning yillik yalpi ichki mahsuloti hajmi 50 mlrd. AQSh dollari ekanligi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, 2015 yildagi migrantlar tomonidan jo‘natilgan umumiy pul o‘tkazmalari hajmi 5-6 ta o‘rtacha rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti hajmidan ham ortiqroqni tashkil etgan.

Pul o‘tkazmalari jo‘natilgan va qabul qilingan mamlakatlar kesimidagi ko‘rsatkichlar tahlili migratsiya oqimini qabul qiluvchi va jo‘natuvchi mamlakatlar haqidagi yanada aniqroq tasavvur hosil bo‘lishiga yordam beradi.

<sup>152</sup> World Migration Report 2018. International Organization for Migration (IOM), The UN Migration Agency, 2018. - p. 19.



2000-2015 yillarda dunyo bo'yicha pul o'tkazmalari jo'natilgan 10 ta asosiy mamlakat qatorida AQSh va Saudiya Arabistoni oldingi 2 o'rinni egallab kelgan (8.6-jadval).

### 8.6-jadval

#### 2000-2015 yillarda pul o'tkazmalari eng ko'p jo'natilgan 10 ta asosiy mamlakat<sup>153</sup>, mlrd AQSh dollari

2000 yil		2005 yil		2010 yil		2015 yil	
Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi	Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi	Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi	Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi
AQSh	34,40	AQSh	47,25	AQSh	50,78	AQSh	61,38
Saudiya Arabistoni	15,40	Saudiya Arabistoni	14,32	Saudiya Arabistoni	27,07	Saudiya Arabistoni	38,79
Germaniya	9,04	Germaniya	12,71	Rossiya	21,45	Shveysariya	24,38
Shveyotsariya	7,59	Shveysariya	9,99	Shveysariya	16,88	Xitoy	20,42
Fransiya	3,77	Buyuk Britaniya	9,64	Germaniya	14,68	Rossiya	19,70
BAA	3,68	Fransiya	9,48	Italiya	12,89	Germaniya	18,56
Janubiy Koreya	3,65	Italiya	7,55	Fransiya	12,03	Quvayt	15,20
Isroil	3,26	Rossiya	6,83	Quvayt	11,86	Fransiya	12,68
Yaponiya	3,17	Lyuksemburg	6,70	Lyuksemburg	10,64	Qatar	12,19
Gollandiya	3,13	Janubiy Koreya	6,67	BAA	10,57	Lyuksemburg	11,35

Jadval ma'lumotlari o'tgan 15 yil davomida eng ko'p pul jo'natmalari o'tkazilgan mamlakatlar ro'yxatida sezilarli o'zgarishlar yuz berib, so'nggi yillarda Xitoy va neft eksport qiluvchi ayrim arab mamlakatlari ushbu ro'yxatga kirib borganligini ko'rish mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, ushbu mamlakatlarga xalqaro migrantlar oqimi va shu bilan birga, bu mamlakatlarda migrantlarning o'rtacha daromadi ortib borgan.

2000-2015 yillarda dunyo bo'yicha pul o'tkazmalari qabul qilingan 10 ta mamlakat qatorida Hindiston, Xitoy va Meksika barqaror holatda o'z o'rniga ega bo'lgan (8.7-jadval).

8.7-jadvalda ko'rsatib o'tilgan 15 yil davomida pul o'tkazmalari eng ko'p qabul qilingan 10 ta mamlakat ro'yxatida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, ushbu ro'yxatda Xitoy va Hindistonning egallagan o'rnida sezilarli o'zgarish yuz bermagan bo'lsa-da, bir qator mamlakatlar (AQSh, Yevropa mamlakatlari)ning o'rniga borgan sari pastga tushib, Osiyo va Afrika mamlakatlari o'rniga ko'tarilib borgan.

<sup>153</sup> World Bank, n.d.b. (accessed May 2017).

## 8.7-jadval

### 2000-2015 yillarda pul o'tkazmalari eng ko'p qabul qilingan 10 ta asosiy mamlakat<sup>154</sup>, mlrd. AQSh dollari hisobida

2000 yil		2005 yil		2010 yil		2015 yil	
Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi	Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi	Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi	Mamlakat	Pul o'tkazmasi hajmi
Hindiston	12,84	Xitoy	23,63	Hindiston	53,48	Hindiston	68,91
Fransiya	8,61	Meksika	22,74	Xitoy	52,46	Xitoy	63,94
Meksika	7,52	Hindiston	22,13	Meksika	22,08	Filippin	28,48
Filippin	6,96	Nigeriya	14,64	Filippin	20,56	Meksika	26,23
Janubiy Koreya	4,86	Fransiya	14,21	Fransiya	19,90	Fransiya	23,35
Ispaniya	4,86	Filippin	13,73	Nigeriya	19,75	Nigeriya	18,96
Turkiya	4,56	Belgiya	6,89	Germaniya	12,79	Pokiston	19,85
AQSh	4,40	Germaniya	6,87	Misr	12,45	Misr	16,58
Germaniya	3,64	Ispaniya	6,66	Bangladesh	10,85	Bangladesh	15,38
Buyuk Britaniya	3,61	Polsha	6,47	Belgiya	10,35	Germaniya	15,36

Umuman olganda, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida rivojlanayotgan mamlakatlar mehnat resurslari faollashib, migratsiya oqimi yo'nalishlari ham yuz berayotgan iqtisodiy taraqqiyotga bog'liq holda o'zgarib borgan. Shu bilan birga retsepiyent va migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlar ham ushbu o'zgarishlarga bog'liq holda o'zgarib boradi.

### 8.5. Ishchi kuchi eksporti va importining mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ishsizlikni kamaytirish, emigrantlardan valyuta mablag'larini kirib kelishi, qabul qiluvchi mamlakatda ularga yetarli darajadagi turmush sharoitini ta'minlashga ko'mak berish uchun emigratsion siyosat olib borilishi qayd etiladi.

Migrantlarning asosiy qismini 30-40 yoshdagilar tashkil etadi, ularning xorijga chiqishi ichki mehnat bozoridagi raqobatni yumshatish imkoniyatini beradi. Binobarin, milliy iqtisodiyotning beqarorligi sharoitida ijtimoiy keskinlik yumshatiladi.

Emigrantlarning o'tkazmalaridan kelib tushadigan valyuta mablag'lari jahondagi asosiy ishchi kuchi eksportyorlari (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari, shuningdek, ba'zi sobiq sotsialistik

<sup>154</sup> World Bank, n.d.b. (accessed May 2017).

davlatlar) uchun milliardlab dollar bilan o'lanadi. Bunday mamlakatlar o'nta atrofida. O'ttizdan ko'proq mamlakat yiliga 100 va undan ko'proq million dollar miqdorida emigrantlarning pul o'tkazmalarini oladi. Bunda kanal orqali valyuta daromadlari olishda ishlab chiqarish xarajatlari bilan kuzatilmaydi, zero bunday xarajatlar tovar savdosiga xosdir. Natijada ishchi kuchi eksportidan iqtisodiy samara tovarlar yoki xizmatlar savdosidagidan taxminan besh marta yuqori bo'ladi. Mutaxassislar migrantlarning chet elga chiqishidan keladigan valyuta daromadlarining beshta manbasini ko'rsatib o'tishadi: vositachi-firmalar foydasidan soliqlar, migrantlarning o'z yurtiga pul o'tkazmalaridan soliqlar, migrantlarning shaxsiy investitsiyalashlari, ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlardan eksportyor mamlakatlarga davlatlararo kanallar orqali kelib tushadigan kapitallar, xayriya fondlari va xalqaro tashkilotlarning subsidiyalari.

Bundan tashqari migrantlar chet elda ishlab qaytgandan so'ng, odatda, ikki-etti yil davomida valyuta o'tkazmalariga ekvivalent miqdorda qimmatli buyumlar va jamg'armalar olib kelishadi. Ishchi kuchi eksportining o'ziga xos ijobiy tomonlaridan biri shundaki, uzoq vaqt davom etgan xorijiy faoliyatdan so'ng bu ishchilarning umumiy kasb mahorati darajasi ortadi va ular o'z vatanlarida iqtisodiy hayotning yangi sohalarida ishlashga tayyor bo'lishini kiritish mumkin.

Ishchi kuchining chet elga yuborilishining salbiy jihatlari ichida eng asosiysi mehnatga layoqatli va yuqori malakali mutaxassislarning yo'qotilishi hisoblanadi.

Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlar odatda, migrantlar soni va sifatini tarkibini tartibga solib boruvchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardir. Tartibga solish dastaklari sifatida immigratsiya kvotalari va turli cheklashlardan (migrantning yoshi, ma'lumotlilik saviyasi, kasb mahorati darajasi, sog'ligi kabilar) foydalaniladi. Shuning uchun ham xorijdan ishchi kuchini jalb etishga tanlov tamoyilidan foydalanish to'g'risida aytish mumkin.

Ichki mehnat bozorida qo'shimcha ishchi kuchi paydo bo'lishining shubhasiz ijobiy jihatlari quyidagilarni kiritish mumkin:

- immigrantlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarning xarajatlarni kamayishi (xorijliklar importyor mamlakat fuqarolariga nisbatan faolroq va kamroq ish haqiga ishlashga tayyor bo'lishadi) hisobiga raqobatbardoshligi oshadi;
- migrantlar tomonidan tovar va xizmatlarga ichki talabning rag'batlantirilishi;
- malakali mutaxassislar tayyorlash, ijtimoiy dasturlar, shuningdek, boshqa davlatlardan patentlar, litsenziyalar va nou-xaular sotib olishga zarur mablag'larning tejalishi;
- ishchi kuchi taklifi sohasida raqobatni kuchaytirish orqali ichki mehnat bozoriga qo'shimcha egiluvchanlikni berish.

Biroq ishchi kuchini eksport qilishda bo‘lgani kabi singari uning importida ham salbiy jihatlar mavjud. Xususan, rezidentlar va migrantlar o‘rtasidagi ish joyi uchun qo‘shimcha raqobat ishsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Immigrantlar oqimining kengayishi bilan bog‘liq ravishda valyuta mablag‘larining mamlakatdan chetga chiqib ketishi ortib boradi. Bundan tashqari xorijiy ishchi kuchi, ayniqsa, afrikalik va osiyoliklar G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada milliy, irqiy va diniy negizdagi to‘qnashuvlarni keltirib chiqaradi, jinoiy holatlar soni ortadi.


Shunday qilib, migratsiya jarayonlarining jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga ta’siri yetarli darajada ziddiyatlidir, uning salbiy va ijobiy tomonlarini nisbiy baholash mazkur mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning global iqtisodiy munosabatlar tizimidagi holatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ishchi kuchi eksporti milliy iqtisodiyotda ijobiy oqibatlar bilan bir qatorda salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Bu eng avvalo “aqli kishilarning ketib qolishi” (ingl. brain-drain) deb ataluvchi yuqori malakali mutaxassislarning xorijga ketib qolishi bilan bog‘liqdir. Bu jarayonning mohiyati shundaki, mutaxassislar turmush darajasi past davlatlardan yuqori ish haqi, yaxshi mehnat sharoitlari, ijodiy imkoniyatlarni amalga oshirishga yetarli shart-sharoit, va nihoyat, ijtimoiy kafolatlar yaratib bera oladigan mamlakatlarga ketib qoladi.

Ishchi kuchini jo‘natuvchi davlat uchun salbiy bo‘lgan jihatlar qabul qilib oluvchi mamlakatlar uchun ijobiy hisoblanadi. Chunki kirib keluvchi ishchilarning aksariyat qismini yuqori darajada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faol bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bunga 1983-1987 yillarda Polshadan yosh kadrlarni chiqib ketishi bilan bog‘liq vaziyatni misol sifatida keltirish mumkin: bu mamlakatni tark etganlarning 15 foizini (50 ming kishi atrofida) oliy ma’lumotlilar tashkil etgan, ushbu emigrantlar Polsha oliy o‘quv yurtlarining bir yillik bitiruvchilariga to‘g‘ri keladi. “Intellectual migratsiya” jami ishchi kuchi migratsiyasi miqdorining 3-5 foiziga teng bo‘lsa-da, hozirgi paytda bu ulushning yildan-yilga ortib borishi kuzatilmoqda, binobarin, eksportyor mamlakat uchun iqtisodiy zarar miqdori ham oshib boryapti. Bu zarar ba’zi bir mamlakatlar milliy daromadining 10 foizigacha teng bo‘lmoqda. Mutaxassislarning chetga chiqib ketishi jahon bozorida raqobatchilarning mavqeini kuchaytiradi, chunki bu mutaxassislarning ko‘pchiligi yirik transmilliy korporatsiyalarga ishga joylashadi.

“Yuqori sifatli” ishchi kuchini o‘ziga jalb qiluvchi asosiy markazlar eng boy mamlakatlar AQSh, Kanada, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, kamroq darajada Yaponiya, Singapur, Tayvan sanaladi. Aqli kishilarning xorijga chiqib ketishida asosiy sabablardan birinchisi, xorijiy talabalar va aspirantlarni chet eldagi universitetlari tomonidan jalb etilishi bo‘lsa, ikkinchidan, tajribali mutaxassislarning xalqaro kompaniyalarda ishga taklif etilishi hisoblanadi.

Ishchi kuchi ko‘chib yurishining iqtisodiy sababi - mehnatga to‘lanadigan haqning turli davlatlarda turlichaligidir. Demak, xalqaro ishchi kuchi harakatining asosiy bosh sababini turli davlatlarda o‘rtacha real ish haqi darajasining har xilligi bilan asoslash to‘g‘ri bo‘ladi.



8.1-rasm. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligi

Tasavvur qilamizki, dunyoda “A” va “B” davlatlari mavjud. “A” davlat  $L_A$  miqdorda mehnat resurslari bilan, “B” davlat esa  $L_B$  miqdorida resurslar bilan ta‘minlangan. Ikkala davlatning umumiy mehnat resurslari  $LL'$  ga tengdir<sup>155</sup>.

$S_1$  va  $S_2$  to‘g‘ri chiziqlari bu ishchi kuchi evaziga yaratilgan mahsulot hajmi. Agarda, xalqaro mehnat migratsiyasi namoyon bo‘lmasa, “A” davlat ichki mehnat resurslari zahirasiidan foydalanib ularga o‘rtacha real ish haqi  $LS$  to‘laydi. “B” davlat ham o‘z mehnat resurslari zahirasiidan foydalanib  $L'D$  miqdorida o‘rtacha real ish haqi to‘laydi. “A” davlat bor ichki mehnat resurslaridan foydalangan holda  $a+b+s+d+e$  miqdorda mahsulot ishlab chiqaradi. “B” davlatning ishlab chiqaradigan mahsuloti hajmi  $i+j+k$  ga teng bo‘ladi. “B” davlat “A” davlatga qaraganda ishchi kuchiga bir muncha ko‘p haq to‘lamoqda.  $LS < L'D$ , ya‘ni “A” davlatdagi ish kuchi bahosi “B” davlatnikiga qaraganda past.

Davlatlarning real o‘rtacha ish haqlari turlicha bo‘lganligi munosabati bilan “A” davlatning bir qism  $AB$  ishchilari “B” davlatga o‘tishadi. Natijada, ikkala davlatning ish haqi darajalari  $BR$  muvozanat holatga erishadi. “A” davlatda qolgan mehnat resurslari va “B” davlatga ishlash uchun ketgan ishchi kuchi evaziga yaratilgan yalpi mahsulot hajmi  $a+b+s+d+e+h$  ga ko‘paygan. Bu yerda  $a+d+s+d$  “A” davlatdan ketmagan ishchi kuchiga tegishli yaratilgan mahsulot bo‘lsa,  $e+h$  “B” davlatga emigratsiya qilingan ishchi kuchi tomonidan ishlab chiqarilgan

<sup>155</sup> Кругман П. Международная экономика. 5-е изд. СПб.: Питер. 2003г.

mahsulot hajmini tashkil etadi. Rasmga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, "A" davlat mehnat unumdorligini oshirgani asosida va ko'chib o'tgan ishchilar mehnat samaradorligi hisobiga yaratilgan yalpi mahsulot h segmentiga ortgan. Bu esa ishlovchilar daromadining oshishiga olib kelmoqda. "B" davlatdagi o'zgarishni qaraydigan bo'lsak, "A" davlatdan kelgan migrantlar hisobiga, "B" davlatning o'rtacha real ish haqi  $L^D$  dan  $L^F=BR$  gacha pasayganligi kuzatiladi. Ammo, o'z navbatida, "B" davlatda yaratilgan ichki mahsulot hajmi  $i+j+h$  dan  $i+j+h+g+e$  ga ko'paygan. Bunda  $r+e$  segmentlar, xorijiy ishchi kuchidan yaratilgan mahsulot hajmiga to'g'ri keladi va bir qismi daromaddan ushlab qolinadigan soliqni ayirib tashlagan holda xorijiy ishchi kuchiga maosh tarzida to'lanadi. Sof ichki ishlab chiqarish hajmi esa  $g$  segmentni tashkil etadi. Real o'rtacha ish haqi darajasi pasayganligi munosabati bilan "B" davlatdagi ishlovchilar daromadlari  $j+k$  danga qisqaradi. Boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi  $i$ -dan  $i+g+j$  ga ko'tariladi. Bir davlatdan ikkinchi davlatga ishchilarni migratsiya qilish natijasida yaratilgan yalpi umumiy ishlab chiqarish hajmi  $[a+b+s+d+e] + [k+j+I]$  dan  $[a+b+s+d] + [e+g+h+i+j+k]$  ga ko'paygan. Bu yerda  $h$ , "A" davlatning bir kism mehnat resurslarining "B" davlatga emigratsiya qilish tufayli va qolgan ishchi kuchidan samarali foydalangan holda oshirilgan ishlab chiqarish hajmini anglatadi.  $g$ -segment esa "B" davlatning, xorijiy ishchi kuchidan foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir. Shunday qilib, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi tufayli ikkala davlat ham o'zaro manfaatli natijalarga erishishga muvassar bo'lishdi.

O'zbekiston ham xalqaro savdo va moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ishchi kuchining xalqaro migratsiyasida o'z ishtirokini kengaytirmog'i lozim.

## **8.6. Global inqirozlarning jahon ishchi kuchi miqyosi va tarkibiga ta'siri, xalqaro ishchi kuchi bozorini tartibga solish vositalari**

Ma'lumki, hozirgi vaqtda jahonda ro'y berayotgan moliyaviy inqiroz va uning oqibatlari jahon iqtisodiy tizimining turli sohalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Odatda, retsessiya uzoq muddatli iqtisodiy tendensiyalarga kuchli ta'sir o'tkazmaydi. Biroq global inqirozlar aholi daromadlari va bandligiga uzoq muddatli, hatto doimiy ta'sir etish kuchiga ega bo'ladi. Bu ta'sir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi.

Hozirda ko'plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko'plab

mamlakatlarga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda.

Xususan, 2008 yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. 2009 yilda ham jahon yalpi ichki mahsuloti hamda pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko'lamining yanada pasayishini kuzatilgan. Xalqaro savdo hajmi qariyb 15% dan ortiqroqqa pasaygan. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog'liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy transfertlarning ko'payishi davlat xarajatlarining o'sishiga olib keladi.

Shunga ko'ra, hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko'rish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Moliyaviy inqiroz tezda mehnat bozoridagi inqirozga aylandi. 2009 yilda iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlik darajasi 9 % dan ortib ketdi.

Global moliyaviy inqiroz davrida AQShda ishsizlik bu darajadan allaqancha oshib ketdi. 2009 yil may oyida 2007 yil dekabriga nisbatan 6 mln. ish joyi yo'qotilgan, ishsizlarning umumiy soni esa 14,5 mln. dan ortib ketdi. Ispaniyada 2009 yil aprelda umumiy ishsizlik darajasi 15 %ga, migrantlar orasida esa 28 %ga yetdi<sup>156</sup>.

Inqirozdan eng ko'p jabr ko'rgan hududlarga migrantlarning ko'pchilik qismi yashaydigan mamlakatlar, ya'ni rivojlangan mamlakatlar kiradi.

Inqirozning migrantlarga salbiy ta'sirini nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki Fors ko'rfazi, Sharqiy Osiyo va G'arbiy Afrikada ham kuzatish mumkn.

Mehnat bozoridagi inqiroz eng avvalo migrantlar uchun yomon ta'sir ko'rsatadi, chunki mamlakatlar inqirozli holatlarda birinchi navbatda xorijiy ishchilarni ishdan bo'shatadi. O'rtacha olganda migrantlar yoshroq bo'lib, pastroq malakaga va ish stajiga ega, odatda, vaqtinchalik lavozimlarda ishlaydi va siklli rivojlanuvchi tarmoqlarga jamlangan. Bu esa pasayish paytida eng zaif hisoblangan guruhga xos tavsiflardir. O'tkazilgan tahlillardan ma'lum bo'ldiki, iqtisodiy pasayish davrida migrantlar o'z vatanida yashovchilarga nisbatan ko'proq ish yo'qotadi. 1998-2008 yillarda 14 ta Yevropa mamlakatining yalpi ichki mahsulot va ishsizlik bo'yicha choraklik ko'rsatkichlari asosida aniqlanishicha, retsessiyani boshdan kechirgan mamlakatlarda migrantlar orasida ishsizlik darajasi boshqa guruhlarga nisbatan tezroq o'sadi. IXRT a'zo mamlakatlarida migrantlarning katta qismi siklli rivojlanuvchi tarmoqlarda, jumladan, qayta ishlash sanoati, qurilish, moliya, ko'chmas mulk, mexmonxona va restoran

---

<sup>156</sup> Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.41.

xo'jaligi kabi tarmoqlarda jamlangan. IXRTning deyarli barcha yuqori daromadga ega a'zo mamlakatlarida migrantlarning 40 foizi shu tarmoqlarda mehnat qilgan va bu sohalarida ish joylarining qisqarishi eng ko'p kuzatilgan.

Migrantlarning ko'chishiga inqirozning naqadar kuchli ta'sir etishini aniqlashda bir qancha omillarni hisobga olish kerak. Ushbu omillarga vatanida va chet elda bevosita rivojlanish istiqbollari, migratsiya, chet elda yashash va qaytish tavakkalchiligini anglash va kuchayib boruvchi to'siqlar kiradi. Ishchilarni jalb qiluvchi ayrim asosiy mamlakatlar qaytish uchun qulay imkoniyatlar (bonuslar, chiptalar, ijtimoiy to'lovlar bo'yicha yirik mablag'lar) yaratib berdi, shu bilan birga mamlakatga kirish va yashash bo'yicha to'siqlarni ham ko'paytirdi.

2008 yil mobaynida inqirozning kuchayishi natijasida rivojlangan mamlakatlarga migrantlar oqimining kamayganini ko'rish mumkin.

Buyuk Britaniyada mamlakatda yashayotgan xorijliklardan milliy sug'urta kartochkalariga talabnomalar soni 25 %ga kamaydi. AQSh aholini ro'yxatdan o'tkazish byurosi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar 2007 yil sentyabrdan 2008 yil avgustigacha meksikalik migrantlar oqimining 25 %ga kamayganini ko'rsatdi. Bu tendensiyalar 2009 va 2010 yillarda ham davom etganligi kuzatiladi. Biroq bunday teskari oqimlar paydo bo'lmasligi ham mumkin. 1970-yillarda Yevropa mamlakatlarining gastarbayerlar uchun dasturlar tajribasi ko'rsatishicha, teskari oqimlarning hajmi qabul qiluvchi mamlakatga qaytish istiqbolloriga, mamlakatning ijtimoiy ta'minot tizimiga, oila a'zolarining ehtiyojlari va o'z vatanidagi shart-sharoitlarga bog'liq.

Hozircha global inqirozlarning migratsiya modellariga ta'siri noaniq. Avvalgi retsessiyalarning ko'rsatkichlari inqiroz turli oqibatlarni keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Avstraliya, Argentina, Braziliya, Kanada, Buyuk Britaniya va AQSh mamlakatlari misolida o'rganilganda, 1850-1920 yillarda mamlakatda ish xaqining pasayishi immigratsiyaga cheklovlarning zaiflashishiga olib kelgan. Ayrim olimlarning ta'kidlashicha, Yevropada uzoq muddatli iqtisodiy stagnatsiya, tarkibiy ishsizlik va malakasiz ishchi kuchiga pasaygan talab davrini boshlab bergan 1973 yildagi neft inqirozi migratsiya modellariga shunday ta'sir ko'rsatdiki, natijada nisbatan boyroq bo'lgan Yaqin Sharq mamlakatlari yangi ishchi kuchini jalb qiluvchi markazga aylandi. 1980-yillarda Meksikada import o'rnini qoplash siyosatining tanazzulga uchrashi AQShga ommaviy migratsiya oqimini keltirib chiqardi va bu holat 1986 yilda bexosdan AQShda immigratsion islohotning o'tkazilishi bilan rag'batlantirildi. Shu bilan birga 1990-yillar oxirida ro'y bergan janubiy-sharqiy Osiyodagi moliyaviy inqirozning xalqaro migratsion oqimlarga uzoq muddatli ta'siri kuzatilmaydi.

Hozirgi bosqichda ro'y berishi mumkin bo'lgan tuzilmaviy o'zgarishlar turi va ko'lamini aniq aytib berish qiyin. Ayrim olimlarning fikricha, rivojlangan



mamlakatlarning muayyan tarmoqlarida inqirozning boshlanishi va faol rivojlanishi rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, Osiyo mamlakatlarining o'rnini kuchaytirishi va hatto jahon iqtisodiyotining tubdan o'zgarishiga ham olib kelishi mumkin.

Jahon moliyaviy inqirozining pul o'tkazmalar hajmiga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, inqiroz boshlanganda Yevropa mamlakatlaridan Afrikaga pul o'tkazmalar miqdori oshdi. Bunga sabab, ko'pchilik migrantlar mehnat qilayotgan mamlakatlardagi bank hisoblarini yopib, pul mablag'larini o'z yurtiga o'tkaza boshladilar va 2008 yilda bu ko'rsatkich rekord darajaga yetdi. Biroq keyingi davrda ularning miqdori tabiiy ravishda ancha qisqardi.

2009 yilda asosiy ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarda boshlangan va global tus olgan iqtisodiy inqiroz rivojlanayotgan mamlakatlarga pul o'tkazmalarining hajmi qisqarishiga olib keldi.

O'tkazmalarga kuchli bog'langan mamlakatlarga, jumladan, Bangladesh, Misr, Salvador va Filippinga pul oqimi jiddiy qisqardi.

Inqiroz turli mamlakatlar va turli mintaqalarda pul o'tkazmalar hajmiga har xil ta'sir ko'rsatdi. Tahlillarga ko'ra, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga pul o'tkazmalari nisbiy va miqdoriy jihatdan eng ko'p qisqardi. Bu Yevropa Ittifoqiga a'zolik va Rossiyadagi kuchli iqtisodiy ko'tarilish orqasidan kelgan kuchli teskari oqim bilan tushuntiriladi. Moldova va Tojikistonda YaIMda pul o'tkazmalarning ulushi dunyo bo'yicha eng yuqori (mos ravishda 45 va 38 foiz) bo'lib, global moliyaviy inqiroz ta'sirida 2009 yilda ular 10 % ga tushdi. Salvadorda YaIMning 18 %ni tashkil qiluvchi pul o'tkazmalarning jiddiy foizli qisqarishi ro'y beradi. Sahroi Kabirdan Janubiy Afrikaga pul o'tkazmalarning  $\frac{3}{4}$  qismi inqirozdan katta zarar ko'rgan AQSh va Yevropadan kelib tushgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga hanuzgacha o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buni dunyoning aksariyat mamlakatlarida ishsizlik darajasi ortib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin.

Mamlakat mustaqil kasaba uyushmalari Federatsiyasining ma'lum qilishicha, inqiroz paytida Rossiyada 2,6 million kishi rasmiy ishsizlar ro'yxatiga olingan. Ro'yxatga olinmaganlari bilan qo'shib hisoblaganda esa ishsizlarning umumiy soni 2010 yil yanvar oyi oxirida 6,8 million kishini tashkil etgan.

Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yilning 24 fevralidan 3 martigacha bo'lgan muddatda Rossiyada ishsizlik 0,1 foizga kamaygan bo'lsa-da, ammo yil davomida ishsizlik darajasining yana pasayishi kuzatilgan. Global inqiroz sharoitida ishsizlik darajasi ortib, bu birinchi galda fan va xalq ta'limi, sanoat, qurilish materiallari va ko'mir ishlab chiqarish sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatish taxmin qilinmoqda.

## 8.7. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tartibga solish masalalari

Jahon iqtisodiyotining XXI asrdagi integratsiyalashuvi va liberallasuvi jarayonida mehnat migratsiyasining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Globallasuv jarayonlari, mamlakatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga qaratilgan. Bosqichma-bosqich sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotda yangi sohalar va kasb-hunarlar paydo bo‘lishiga, mehnat resurslari oqimlarining o‘zgarishiga olib keladi.

### 8.8-jadval

#### O‘zbekistonda 2010-2019 yillardagi migratsiya jarayonlari ko‘rsatkichlari<sup>157</sup>, kishi

Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Ko‘chib kelganlar soni	139,8	136,6	169,7	155,1	145,3	139,3	141,5	157,1	160,1	158,9
Ko‘chib ketganlar soni	183,9	184,1	210,6	189,6	183,9	168,6	167,8	175,7	174,8	169,5
Migratsiya saldosi	-44,1	-47,5	-40,9	-34,5	-38,6	-29,3	-26,3	-18,6	-14,7	-10,6

O‘zbekistonda ham tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlari kuchaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2010 yilda ko‘chib kelganlar soni 139775 kishini tashkil qilib, ko‘chib ketganlar soni 183858 kishini tashkil qilgan, ya‘ni ko‘chib ketganlar soni ko‘chib kelganlarga nisbatan 44083 kishiga ko‘pdir. 2019 yilda respublika bo‘yicha kelganlar soni 158,8 ming kishini, ketganlar soni esa 169,5 ming kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i -10,7 ming kishini tashkil qildi (8.8-jadval).

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2,5-3,0 milliondan ortiq o‘zbekistonlik mehnat migranti sifatida xorijda istiqomat qiladi. Ularning oilalariga jo‘natayotgan pul o‘tkazmalari hajmi viloyatlar kesimida, umumiy aholi daromadining 5 foizidan 23 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Bu ayrim viloyatlarda oila daromadining o‘rtacha yigirmadan bir qismini, boshqa viloyatlarda esa aholi daromadlarining taxminan to‘rt dan yoki beshdan bir qismini tashkil etadi deganidir (8.9-jadval).

O‘zbekistonliklarning aksariyat qismi Rossiyada mehnat qilayotgan bo‘lsa-da, 2018 yilda mamlakatga qariyb 1 milliard AQSh dollarilik pulni boshqa yurtlarda ishlayotgan migrantlar jo‘natdi. So‘nggi yillarda boshqa mamlakatlarga mehnat migratsiyasi oshib bormoqda. Bizningcha, bunga 2014 yilda Rossiya rublining

<sup>157</sup> www.stat.uz

keskin qadrsizlanishi va buning ta'sirida ish haqi miqdori dollar hisobida bir yarim yoki ikki baravar kamayib ketgani sabab bo'ldi.

### 8.9-jadval.

#### O'zbekiston hududlariga xorijdan pul o'tkazmalarining umumiy daromaddagi ulushi

№	Hududlar	Xorijdan pul o'tkazmalarining umumiy daromaddagi ulushi, %
1.	Xorazm viloyati	23,2
2.	Samarqand viloyati	19,3
3.	Andijon viloyati	19,0
4.	Surxondaryo viloyati	17,4
5.	Buxoro viloyati	16,9
6.	Namangan viloyati	16,5
7.	Farg'ona viloyati	15,3
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,8
9.	Qashqadaryo viloyati	14,3
10.	Toshkent shahri	12,0
11.	Sirdaryo viloyati	10,0
12.	Jizzax viloyati	6,2
13.	Toshkent viloyati	5,4
14.	Navoiy viloyati	5,1

So'nggi 5 yilda ish topish maqsadidagi migratsiya geografiyasi o'zgara boshladi. Ishchilar oqimi AQSh, Turkiya, Isroil, Janubiy Koreya, BAA va Qozog'istonga tobora o'sib borayotgani kuzatilmogda (8.10-jadval).

Quyidagi rasmdan ko'rinib turganidek, qariyb 95 foiz pul o'tkazmalari mehnat migratsiyasining "kuchli yettilik"ka kiruvchi mamlakatlaridan jo'natilgan.

Ish topish maqsadida Rossiyaga ketayotgan o'zbekistonliklar soni yiliga 850 ming – 1 million kishi bo'lib turgan paytda boshqa mamlakatlarga ketayotgan mehnat migrantlari soni tobora oshib bormogda. 2018 yilda Rossiyadan yuborilgan pul mablag'lari 2 foizga kamaygan bo'lsa, qolgan mamlakatlardan jo'natilgan o'tkazmalar ulushi ortdi.

2018 yilda Qozog'istonga safari maqsadini "ish" deb ko'rsatgan o'zbekistonliklar statistikasi bundan mustasno. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, bunday migrantlar 3,5 million kishini tashkil etadi. Aftidan, bu fuqarolarning ko'pchiligi Qozog'istonga boshqa maqsadda chiqqan. U yerga borgan mehnat migrantlarining haqiqiy soni bundan ancha kam. Qozog'istondan O'zbekistonga jo'natilgan pul o'tkazmalari miqdorining 2017 yilga nisbatan 28 foiz oshganiga qaraganda, 2018 yilda Qozog'istonga ketgan mehnat migrantlari sonini 650 ming – 800 ming nafar deb taxmin qilsa bo'ladi. AQSh va Turkiyaga

ish topish maqsadida ketgan o'zbekistonliklar soni ham amalda bir oz kamroq bo'lishi mumkin. Biroq 2018 yilda ushbu mamlakatlardan jo'natilgan pul o'tkazmalari 30 foizga oshdi.

#### 8.10-jadval.

#### O'zbekistonga jismoniy shaxslarning transchegaraviy pul o'tkazmalari<sup>158</sup>, mln. AQSh dollari

Mamlakatlar	2016 yil		2017 yil		2018 yil	
	Miqdori	Ulushi	Miqdori	Ulushi	Miqdori	Ulushi
Rossiya Federatsiyasi	2998	79,3	3907,3	79,8	3963,1	77,5
Qozog'iston	248,9	6,6	317,9	6,5	320,0	6,3
AQSh	150,0	4,0	162,5	3,3	188,4	3,7
Turkiya	98,4	2,6	150,1	3,1	203,8	4,0
Janubiy Koreya	49,9	1,3	64,4	1,3	108,3	2,1
BAA	34,1	0,9	35,3	0,7	34,2	0,7
Isroil	20,7	0,5	22,4	0,7	54,5	1,1
Boshqa davlatlar	180,7	4,8	227,0	4,6	241,8	4,6
<b>Jami</b>	<b>3780,7</b>	<b>100,0</b>	<b>4896,6</b>	<b>100</b>	<b>5114,1</b>	<b>100</b>

O'zbekistonning iqtisodiy faol aholisi soni ko'payishi barobarida ish qidirib chetga chiqayotgan fuqarolar soni ham oshib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu raqamlarning o'zaro nisbati 10-11 foiz atrofida deyarli o'zgarmas bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonning har o'ninchi iqtisodiy faol fuqarosi har yili ish topish maqsadida xorijga chiqadi. Shu o'rinda 2018 yil statistikasida keltirilgan ma'lumotlar (4,1 million kishi) bundan mustasno ekanini qayd etish joiz.

Mehnat migratsiyasining zamonaviy davri oldingilaridan o'z ko'lami, tavsifi va ishtirokchilar tarkibi bilan farq qiladi. Ayniqsa, migratsion oqimlarning yo'nalishi jiddiy o'zgargan. Hozirgi vaqtda O'zbekistondan xorijga emigratsiyaning uchta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Markaziy Osiyoga (chegaraoldi hududlardan Qozog'iston va Qirg'izistonga). Umumiy migrantlar sonining 50-65% - bu hosil terimiga yoki uy-joy qurilishiga kelgan mavsumiy ishchilardir, atigi 2-3% qonuniy ravishda mehnatning malakali sohalarida ishlaydi.

2. MDHning Yevropa qismiga. Migrantlarning asosiy oqimi Rossiyaga, nisbatan kam qismi Ukraina (bu asosan qrim tatarlari) va Belorusiyaga jo'naydi.

3. Uzoq xorij mamlakatlariga – AQSh, Yevropa, Arab mamlakatlari, asosan, BAA, Misr, Bahrayn, Quvayt, Saudiya Arabistoni; janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, asosan, Janubiy Koreya, Tailand, Indoneziya, Malayziyaga.

<sup>158</sup> <https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/graphics/4423/>

**O‘zbekistondan “ish” safar maqsadi bilan chiqib ketgan fuqarolar va aholining iqtisodiy faol qatlami con, ming kishi**

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
O‘zbekiston aholisining iqtisodiy faol qatlami soni	13505	13768	14022	14353	14642
“Ish” safar maqsadi bilan chiqib ketgan O‘zbekiston fuqarolari soni	1435	1351	1450	1630	4134
O‘zaro nisbat, %	10,6	9,8	10,3	11,4	28,2

O‘zbekistonga ish izlab kelish borasida amalga oshirilgan, noqonuniy mehnat safarlar migratsiyasining bir nechta yo‘nalishlari mavjud<sup>159</sup>:

- O‘zbekistonda ushbu mamlakatlar bilan viza rejimi amal qilishi ushbu yo‘nalishlarni qiyinlashtirishiga qaramay, migrantlarning 60%i Tojikistondan, 20% Turkmaniston va Qirg‘izistondan keladi;

- O‘zbekistonga Afg‘onistondan Tojikiston orqali keluvchilar soni umumiy oqimning 2 - 4%ini tashkil qiladi;

- Bundan tashqari Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston va Turkmaniston orqali Xitoydan Eron, Pokiston, Hindistondan keluvchilar bor.

Ma’lumki, yurtimizda keyingi yillarda aholi bandligi va iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va mavjud ish o‘rinlarining barqarorligini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bunda, asosiy e’tibor ishsizlikni kamaytirish, mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash, birinchi navbatda aholining ijtimoiy zaif qatlami, xususan, ayollar, nogironlar, jazoni o‘tab kelgan shaxslar, odam savdosi jabrdiydalari, tashqi migratsiya ishtirokchilari va boshqalarning bandligini oshirishga qaratilmoqda. Bu borada so‘nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi oldiga qator muhim vazifalar qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5052-sonli Farmoni mamlakatimizdagi mehnat munosabatlari yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjatlardan biri bo‘ldi<sup>160</sup>.

<sup>159</sup> [www.catalog.fmb.ru/uzbekistan10.shtml](http://www.catalog.fmb.ru/uzbekistan10.shtml)

<sup>160</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5052-sonli farmoni. <http://lex.uz>

Iqtisodiy islohotlarni o'tkazish davrida mehnat migratsiyasining muhim ijtimoiy funksiyasi – aholi tashabbuskorligi hisobiga ish bilan ta'minlashning muqobil va ommabop tizimini yaratishdir.

Bunday sharoitlarda ishchi kuchlarini yaqin va uzoq chet davlatlarga eksport qilish muammoni yechish yo'llaridan biri hisoblanadi. Bunday mehnat faoliyatiga aholining ehtiyoji juda katta. Ijtimoiy so'rovlarga ko'ra, bu sohada taklif talabdan 15-20 marta katta. Shuni ta'kidlash kerakki, kishilar faqat kambag'al bo'lganliklari yoki o'z vatanlarida ish topa olmaganliklari uchungina, ya'ni faqat moddiy ta'minotni o'ylab chet elda ishlashga intilishmaydilar. Mehnat almashinuvi ob'ektiv voqelik hisoblanadi. Unda asosan yangiliklarni bilishga, zamonaviy texnologiyalarda qatnashish, ilg'or tajribalar orttirishga intiluvchi va umuman dunyoni chuqurroq bilishga intilgan va uni turist sifatida tomosha qilmoqchi bo'lmagan yoshlar qatnashadilar.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda 1,3 milliondan ortiq fuqarolar xorijiy davlatlarda mehnat qilganlar. Bu jami iqtisodiy faol aholining 8,2 foizini tashkil etadi<sup>161</sup>. Bunday holat tashqi mehnat migratsiyasi masalalariga davlat darajasida yanada jiddiyroq e'tibor qaratish, uni tartibga solish bo'yicha mavjud mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi.

Ushbu muhim vazifalarni tashqi mehnat migratsiyasi omillari, yo'nalishlari, natijalari hamda unda ishtirok etayotgan mehnat resurslari bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib hal etishning imkoni yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"da Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat migrantlari to'g'risidagi 97-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganib chiqish belgilangan. Ushbu Konvensiyada migrantlarning mehnat faoliyati, ularning mol-mulki va oila a'zolari bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlar qamrab olingan.

Bundan tashqari, yuqoridagi qarorga muvofiq "Aholi bandligiga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlari (rekruting agentliklari) faoliyati to'g'risida"gi qonun xususiy rekruting agentliklari faoliyatini qonun bilan tartibga solish, shuningdek, ham ichki, ham tashqi noqonuniy migratsiya oqimlarining sonini keskin kamaytirish imkonini beradi.

---

<sup>161</sup> Трудовая миграция в СНГ: социальные и экономические эффекты. /Отв. ред. Зайончковская Ж.А.- М.: ИНИП РАН, 2003.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining tashqi mehnat migratsiyasi faoliyatini tartibga solish maqsadida “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu qonunning qabul qilinishi natijasida mehnat migrantlarining qonuniy manfaatlari va haq-huquqlari himoya qilinishi ta‘minlanadi hamda fuqarolarning xorijiy davlatlarda ishga joylashish jarayonlari tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirishlari hamda chet el fuqarolarining O‘zbekistondagi mehnat faoliyatini tashkil etishlari uchun qonuniy asos yaratiladi va boshqarib bo‘lmaydigan noqonuniy migratsiya faoliyatlari bartaraf etiladi.

“Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi respublikada mehnat migrantlarining xalqaro-huquqiy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari joriy etilishiga asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi migratsiya siyosatining fundamental o‘zagi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, shuningdek, Iqtisodiyot va Tashqi ishlar vazirliklari hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi vakili tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi va BMT o‘rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 2017-2020 yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi chora-tadbirlar reja”si imzolangan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda boshqa bir qator tegishli vazirlik va idoralarga O‘zbekistonning Xalqaro migratsiya tashkilotiga kirish imkoniyatlarini baholash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, 2020 yilga qadar odam savdosiga qarshi kurashish, mehnat migratsiyasini tartibga solish, o‘zbek mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, bundan tashqari tashkilotning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘shma loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Shularni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 15 maydagi “Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 97-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning 4-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi har yili mehnat migrantlari bilan chuqurlashtirilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazib boradi.

Mehnat migratsiyasi borasda oqilona siyosatni ta‘minlash uchun jahon tajribasini ko‘rib chiqib bizning mamlakatga har tomonlama mos keladiganlarini joriy qilish foydadan holi bo‘lmaydi. Jahon tajribasidan shular ma‘lumki, ishchi kuchini eksport qiluvchi davlat o‘z ishchi kuchlarining malakasi oshishiga, ishlab chiqarishning yangi texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanishiga va asosiysi mamlakatga valyuta oqimi kirib kelishiga erishadi.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasining oqilona holatini ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Kelgusida ham xuddi shunday ishlarni davom ettirish lozimligini ko‘zda tutgan holda quyidagi takliflarni berish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, ayniqsa, yosharni chet el ishchilari bilan bemaolol raqobatlasha oladigan qilib tayyorlaydigan kurslar tashkil qilish (til o‘rganish, maxsuslashtirilgan kurslar);

- ishchilar yuborilgan ishlayotgan mamlakatdagi elchixonalarining xodimlarni muntazam ravishda nazorat qilib turishini ta’minlash;

- chet elga chiqib ishlamoqchi bo‘lganlarga turli imtiyozlar berish (masalan, ma’lum davr davomida chet elda ishlab valyuta kirib kelishiga hissa qo‘shgan bo‘lsa, ayrim turdagi moddiy boyliklarni olib kirishga to‘sqinlik qilmaslik) kerak;

- jahon standartlariga mos keladigan malakali kadrlar tayyorlash.

Yuqoridagi xulosa va tavsiyalarni amalda tadbiq etish respublikada mehnat migratsiyasi borasidagi mavjud muammolarni ilmiy asosda yechishga ko‘mak beradi va mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili bo‘lishiga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

### **VIII bob bo‘yicha qisqacha xulosalar**

XX asr ikkinchi yarmida aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyati hayotida eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylandi. Aholi migratsiyasi deganda ma’lum hududlarda insonlarning doimiy yashash joyini almashtirish yoki unga qaytish sharti bilan ko‘chib o‘tishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro (tashqi) migratsiyaning mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik va boshqa turdagi shakllari mavjud.

Jahon mehnat bozorining iqtisodiy talablariga javob beradigan me’yorda amal qilishi esa bir qator shartlarning mavjud bo‘lishini taqazo qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- talab va taklifning erkin amal qilishini kafolatlovchi huquqiy asoslarning mavjudligi;

- bozor sub’ektlarining erkin harakat qilishi uchun zarur zamin –iqtisodiy makonning mavjudligi;

- jahon mehnat bozori infrastrukturasi mavjudligi;

- ish haqi miqdorining chegaralanmaganligi, uy-joy bozorining mavjudligi va boshqalar.

Migratsiya - lotincha so‘z bo‘lib, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish ma’nosini anglatadi. Ushbu so‘z keng ma’noda insonlar, hayvonlar, kapitallar, kimyoviy elementlarning yer qobig‘idagi ko‘chishini anglatadi.



Har bir chegaraga tegishli aholining ko'chishi emigratsion va immigratsion oqimlarning yig'indisidan tuziladi. Emigratsiya chet elga chiqish bo'lsa, immigratsiya chet eldan kelishni bildiradi. Ushbu ikki oqim o'rtasidagi farq sof migratsiya hajmini ko'rsatadi, ularning yig'indisi esa yalpi migratsiya hajmini tashkil qiladi.

Biron bir xalqaro mintaqadan boshqasiga ko'chib o'tish har doim insonlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Qadimgi zamonlardan boshlab aholi migratsiyasi odamzod tarixida, yer sharida uning tarqalishida, xalqlarning paydo bo'lishida katta rol o'ynagan.

Jahon iqtisodiyotining XXI asrdagi integratsiyalashuvi va liberallasuvi jarayonida mehnat migratsiyasining ahamiyati muntazam oshib bormoqda. Globallasuv jarayonlari, mamlakatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga qaratilgan, sobitqadamlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotda yangi sohalar va kasb-hunarlar paydo bo'lishiga, mehnat resurslari oqimlarining o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasining oqilona holatini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlarni kelgusida ham davom ettirish lozimligini ko'zda tutgan holda quyidagi takliflarni berish mumkin:

- chet mamlakatda ishlamoqchi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet el ishchilari bilan bemalol raqobatlasha oladigan qilib tayyorlaydigan kurslar tashkil qilish (til o'rganish, maxsuslashtirilgan kurslar);

- mamlakat ishchilari ishlayotgan mamlakatdagi elchixonalarining xodimlarni doimiy ravishda nazorat qilib turishini kuchaytirish;

- chet elga chiqib ishlamoqchi bo'lganlarga turli imtiyozlar berish (masalan, ma'lum davr davomida chet elda ishlab valyuta kirib kelishiga hissa qo'shgan bo'lsa, ayrim turdagi moddiy boyliklarni olib kirishga to'sqinlik qilmaslik) kerak;

- jahon standartlariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlashdir.

### **Tayanch iboralar**

Ishchi kuchi bozori, xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori, jahon mehnat bozori, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, bandlik nazariyasi, xalqaro mehnat tashkiloti, immigratsiya, emmigratsiya, ishchi kuchi eksporti, ishchi kuchi importi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyatini tushuntiring.
2. Jahon ishchi kuchi bozorining rivojlanish bosqichlari qanday jarayonlar ta'sirida o'zgargan?

3. Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadigan omillarni ko'rsatib bering.
4. Xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi qanday holatda namoyon bo'luvchi ishchilarga bo'lgan yuzaga keltiradi?
5. Bandlik modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
6. Ishchi kuchi migratsiyasi shakllari jahon tajribasida qanday guruhlanadi?
7. BMT tasnifiga asosan, zamonaviy xalqaro migratsiya nechta asosiy turlarga ajratiladi?
8. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'zgarish tendansiyalarini tushuntiring.
9. Xalqaro migrantlar immigratsiyasi va emigratsiyasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlarni ko'rsating.
10. Ishchi kuchi eksporti va importining mamlakatlar iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
11. Ichki mehnat bozorida qo'shimcha ishchi kuchi paydo bo'lishining qanday ijobiy jihatlari mavjud?
12. Global inqirozlarning jahon ishchi kuchi miqyosi va tarkibiga ta'sirini tushuntiring.

## **IX BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA TRANSMILLIY KORPORASIYALAR**

### **9.1. Transmilliy korporatsiyalarning mohiyati, belgilari va jahon iqtisodiyoti globallashuvidagi o‘rni**

Biznesni baynalmilallashtirishning zamonaviy tendensiyalarida ko‘p millatli kompaniyalarda ishlab chiqarish va kapitalning yetakchi pozitsiyalarini transmilliyashtirish, nafaqat xalqaro miqyosda, balki kapital, transmilliy korporatsiya (TMK)lar va transmilliy bank (TMB)lar miqyosida ham amalga oshirilishi zarurligi ko‘rsatilmoqda.

Zamonaviy adabiyotlarda TMKlar tushunchasining bir yoqlama shakllantirilishi hamda ularni boshqa firmalardan farqlash mezonlari mavjud emas. “Transmilliy korporatsiya” kategoriyasini belgilashda tadqiqotchilar xalqaro operatsiyalarni TMKlarni rasmiylashtirishning asosiy xususiyati sifatida ko‘rsatadilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda TMKlarning ma’no jihatdan o‘xshash bir qancha ta’riflari mavjud. Bir necha o‘n yillar davomida BMTda TMKlar uchun ishlab chiqilgan Kodeks loyihasida TMKlar “... davlat, xususiy yoki aralash, ikki yoki undan ortiq mamlakatlardagi ofislar bilan, ushbu idoralarning huquqiy shakli va doirasidan qat’i nazar, bir yoki bir nechta qaror qabul qilish markazlari orqali izchil siyosat va umumiy strategiyaga imkon beruvchi muayyan qaror qabul qilish tizimi asosida ishlaydigan, mulk yoki boshqa munosabatlardan qat’i nazar, ularning bir yoki bir nechtasi boshqalarning faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi va, ayniqsa, bilim va resurslarni va mas’uliyatni boshqalar bilan baham ko‘ruvchi biznes tizimi” sifatida talqin qilinadi.

G.M.Velyaminovning fikriga ko‘ra, TMK – turli mamlakatlarda joylashgan va yagona markazdan boshqariladigan yagona iqtisodiy maqsad bilan birlashtirilgan turli mustaqil tashkilotlar majmuidir<sup>162</sup>. M.M.Boguslavskiy, eslatma sifatida, TMKlardagi iqtisodiy birlik qonuniy jihatdan ko‘pchilik tomonidan shakllantirilishi va ular o‘z egalarining manfaatlariga xizmat qilishini ko‘rsatib o‘tgan<sup>163</sup>. Bu yerda oddiy kompaniyalardan farqli ravishda TMK faoliyati strategiyasi xorijiy filiallar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy kompaniya tomonidan ishlab chiqiladi.

V.G.Yermolayev nuqtai nazaridan: “TMKlarning o‘ziga xos xususiyati unga tegishli bo‘lgan va turli mamlakatlarda joylashgan yuridik shaxslar va tarkibiy

---

<sup>162</sup> Вельяминов Г.М. Международное экономическое право и процесс. – М.: Wolters Kluwer, 2004.

<sup>163</sup> Богуславский М. М. Международное частное право: Учебник. М., 1999.

bo‘linmalar (filiallar, vakolatxonalar, sho‘‘balar)ning ma‘lum darajada mustaqilligi bilan markazlashgan boshqaruvning birlashuvidir”<sup>164</sup>.

Iqtisodiy ensiklopediyada TMKga quyidagicha ta‘rifi berilgan: “Ko‘p millatli korporatsiya – to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan shug‘ullanuvchi firma”<sup>165</sup>. Xuddi shunday ta‘rif Ye.A.Gryaznov tomonidan ham keltiriladi: “TMK ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda ishlab chiqarish aktivlariga egalik qiluvchi yoki nazorat qiluvchi korxonalar sifatida belgilanadi”<sup>166</sup>.

Zamonaviy iqtisodiy lug‘atda TMKlar chet el faoliyatining asosiy xususiyatini ko‘rsatuvchi kengaytirilgan ta‘rifi beriladi: “Ko‘p millatli korporatsiya – bu ro‘yxatga olingan mamlakatdan tashqaridagi operatsiyalarning asosiy qismini bajaradigan korporatsiya, ko‘pincha, filiallar, korxonalar tarmog‘iga ega bo‘lgan bir necha mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi firmadir”<sup>167</sup>.

Ye.V.Lenskiy va V.A.Svetkovlar tomonidan berilgan ta‘rif yanada TMK mohiyatini kengroq ochib beradi: “TMK o‘zi yoki bu korporatsiyalar negizida bo‘lgan mamlakat tashqarisida joylashgan ishlab chiqarish yoki xizmat majmualarini nazorat qiluvchi korxonalar (moliyaviy va sanoat birlashmalari)larga ega bo‘lgan, filiallari va ofislari keng tarmoqni egallab, muayyan mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha yetakchi o‘rnini egallovchi kompaniyadir”<sup>168</sup>.

Garvard universiteti tadqiqot dasturi ta‘rifiga ko‘ra, ko‘p millatli kompaniyalar oltidan ortiq xorijiy sho‘ba va kompaniyalarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro korporatsiyalar faoliyatini o‘rganuvchi BMT uzoq vaqt davomida (1960-yillardan boshlab) TMKlarni yillik aylanmasi 100 mln. dollardan oshadigan va kamida olti mamlakatda filiallarga ega bo‘lgan kompaniyalarnigina TMKlar deb yuritib keladi.

BMTning ayrim ekspertlari xorijda ishlab chiqarish ob‘ektlariga ega bo‘lgan har qanday kompaniyani TMK deb hisoblaydilar. Biroq, TMK konsepsiyasining talqini ko‘plab davlatlarning manfaatlariga ta‘sir qilishini hisobga olgan holda, BMTning transmilliy korporatsiyalar bo‘yicha komissiyasi TMKlar ta‘rifining kelishuv versiyasini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra “...huquqiy shakli va faoliyat sohasidan qat’i nazar, ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda izchil siyosat va umumiy strategiya uchun yagona boshqaruv markazi orqali birliklarni tashkil etadi, unda alohida birliklar mulkchilik orqali yoki boshqa tarzda bog‘langan bo‘lib, ulardan biri yoki bir nechtasi boshqalarning faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi

<sup>164</sup> Ермолаев В. Г., Сиваков О. В. Международное частное право: Курс лекций. М., 1998.

<sup>165</sup> Экономическая энциклопедия. М.: Экономика, 1999.

<sup>166</sup> Грязнов Э.А. ТНК в России. Позиции крупнейших в мире транснациональных корпораций в Российской экономике. -М.: ООО «Фирма Инограф», 2000.

<sup>167</sup> Современный экономический словарь. М.: Экономика, 1997.

<sup>168</sup> Ленский Е.В., Цветков В.А. Транснациональные финансово-промышленные группы и межгосударственная экономическая интеграция: реальность и перспективы. -М.: АФП Еженедельника «Экономика и жизнь», 1998.

va, xususan, boshqalar bilan bilim, resurslar va mas'uliyatlarni baham ko'rishi mumkin".

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning TMK bo'yicha komissiyasi xalqaro kompaniyalarni quyidagicha tavsiflaydi:

- yuridik shakli va faoliyat sohasidan qat'i nazar, ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda xo'jalik sub'ektlariga ega bo'lgan;

- bitta boshqaruv markazi orqali umumiy strategiyani amalga oshirish va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritishga imkon beruvchi qarorlar qabul qilish tizimi doirasida ish olib boradigan;

- mulkchilik orqali bir-biriga bog'langan alohida xo'jalik sub'ekti sifatida, bunda xo'jalik sub'ektlaridan bittasi yoki undan ko'prog'i boshqalarining faoliyatiga bilimlar, resurslar va mas'uliyatni boshqalar bilan birgalikda foydalanish orqali jiddiy ta'sir ko'rsata oladigan tashkilotdir.

Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deyilganda, jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi yirik kompaniyalar tushuniladi. Ular quyidagi shartlar asosida belgilanadi:

- yillik sotish hajmi 1 mlrd. dollardan kam bo'lmasligi;

- umumiy moliyaviy aylanma mablag'larining beshdan bir qismidan uchdan bir qismigacha xorijdagi operatsiyalar ulushiga to'g'ri kelishi;

- xorijdagi aktivlar ulushi 25% dan kam bo'lmasligi;

- kamida oltita mamlakatda filiallarga ega bo'lishi.

Ta'kidlab o'tish joizki, xalqaro korporatsiyalarning asosiy xususiyati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish jarayonidir.

Shunday qilib, har qanday xalqaro korporatsiya quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1) jahon iqtisodiyoti rivojlanishi va xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlarining faol ishtirokchisi;

2) milliy chegaralarda yuzaga keladigan jarayonlarda kapital harakatining nisbiy mustaqilligi bilan ajralib turadi;

3) jahon iqtisodiy munosabatlarini ob'ektiv ravishda tartibga soladi;

4) yuqori daromad olish uchun o'z operatsiyalarini amalga oshiradi.

Ko'pgina G'arb tadqiqotchilari transmilliy korporatsiyalarning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar:

1) bir nechta mamlakatda mahsulotlarni sotish (mahsulotlarining katta qismi chet elda sotiladi, shu bilan jahon bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi);

2) ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda filiallarining mavjudligi;

3) korporativ mulkning turli mamlakatlar aholisi o'rtasida taqsimlanishi (xorijiy korxonaning iqtisodiy faoliyati ustidan nazoratni ta'minlovchi va

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ifodalovchi xorijiy kapitalidagi xolis ishtiroki);

4) xodimlarning ko'p millatliligi. Bu yerda birinchi xususiyat eng muhim hisoblanadi. Ushbu mezonda mutlaq yetakchilik namunasi Shveysariyaning "Nestle" kompaniyasida bo'lib, u 98% dan ortiq mahsulotni eksport qiladi. Ishlab chiqarish va mulkni baynalmilallashtirishga kelsak, bu ikki xususiyat mavjud bo'lmasligi mumkin. So'nggi yillarda korporatsiyaning xalqaro holatini belgilovchi ko'rsatkichlar kompaniya mamlakatdan tashqarida sotayotgan tovarlar ulushi, boshqa davlatlar hududida joylashgan aktivlar ulushi, yuqori darajali boshqaruv tarkibi va shu kabilar bilan to'ldirildi. Amalda ko'p millatli korporatsiyalar toifasiga kirish uchun haqiqiy faoliyat yurituvchi korporatsiya bu mezonlardan birortasiga javob berishi kifoya, lekin ko'pgina yirik kompaniyalar bir vaqtning o'zida barcha xususiyatlarga ega.

Shunday qilib, transmilliy korporatsiyalar yirik kompaniyalar ko'rinishida bo'lib, xorijiy aktivlar yoki iqtisodiyotning bir yoki bir necha tarmoqlariga egalik, muhim imkoniyatlar va korporatsiya joylashgan mamlakatda iqtisodiy ta'sir ega turli milliy firmalar uyushmalari bilan korporatsion integratsiya va ba'zan uning chegaralari orqasida ekanligini aytish mumkin. Qaysi kompaniya ishlab chiqarishi, yagona global yoki mintaqaviy strategiyani amalga oshirishidan qat'i nazar, TMK doirasidagi alohida kompaniyalar (yoki ularning bo'linmalari) asosiy kompaniya bilan umumiy ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar borasida yaqindan bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, bir tomondan, TMK bir qancha mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish birliklari dispersiyasi asosida xalqaro ishlab chiqarish tizimini tashkil etish bilan xarakterlansa, boshqa tomondan, ilg'or ishlab chiqarish tarmoqlariga kirib, ularning jadal rivojlanishi uchun katta investitsiyalar va yuqori malakali kadrlar talab qilishi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi ularni milliy lashtirishga qaratilgan harakatlarda ishonchli xavfsizlikni ta'minlaydi.

Bir vaqtning o'zida ularning faoliyatini belgilovchi omillar bo'lgan zamonaviy TMKlarning xarakterli xususiyatlari orasida quyidagilar alohida ajratiladi:

- xalqaro yondashuvdan foydalanish – iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalarida (firmalararo va xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish, kapitalni baynalmilallashtirish va boshqalar) xorijiy operatsiyalarning alohida o'рни va ahamiyati;

- faoliyatning xalqaro xarakteri – transmilliy sanoat, tijorat va moliyaviy kompleksni uyda qaror qabul qilish markazi va boshqa mamlakatlardagi filiallar bilan shakllantirish mumkin<sup>169</sup>:

---

<sup>169</sup> Леонтьев Р.Г. Теория и практика менеджмента: Учеб. пособие. Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2000.

- yordamchi (sho‘ba) kompaniya, sherik kompaniya, bo‘linmaning asosiy kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan global strategiyaga muvofiq faoliyat yuritishi;

- xalqaro miqyosda raqobatga qarshi turish uchun jahon iqtisodiyotining rivojlanishida faol ishtirok etish va yuqori foyda olish.

TMKlar tarixan qisqa vaqt ichida “yangi industrial mamlakatlar”ning jadal sur’atlarda rivojlanishida muhim omil bo‘ldi.

Xalqaro korporatsiyalar shakllangan davrdan boshlab o‘z rivojlanish strategiyalariga ega bo‘lib, quyidagi belgilar ular uchun xosdir:

- ishlab chiqarishni xorijiy xomashyo bilan ta‘minlash;
- xorijiy bozorlarda o‘z filiallari yordamida mustahkam o‘rin egallash;
- ishlab chiqarishni xarajatlar nisbatan past bo‘lgan mamlakatlarda joylashtirish;
- ishlab chiqarish, savdo va moliya faoliyatini diversifikatsiyalash.

Xalqaro korporatsiyalar faoliyat olib borayotgan mamlakatlarida umumiy tartibdagi va multimilliyashtirish bilan bog‘liq raqobat afzalliklarini qo‘lga kiritish usullaridan foydalanishadi (9.1-jadval).

TMKning mahsulotni bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakatlardagi filiallarida ishlab chiqarish sabablarini aniqlash uchun uning hududiy jihatini ajratib ko‘rsatish zarur. Hududiy jihat korporatsiyaning arzon xomashyo va ish kuchidan foydalanish, mahsulotni tashish va saqlash xarajatlarini qisqartirish, bojxona va soliq to‘siqlarini chetlab o‘tishga intilishi bilan bog‘liqdir.

Baynalmilal jihat esa bir nechta mamlakatlarda o‘z filiallariga ega korporatsiya o‘z nisbiy ustunligidan foydalanishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Iqtisodiy mustaqil bir necha korporatsiyadan ko‘ra, mahsulotni bitta korporatsiya tomonidan qator mamlakatlarda ishlab chiqarish afzalroqdir. Shuningdek, TMK soliqlarni qisqartirish maqsadida hisobotni boshqarishi va unga tegishli bo‘lgan texnologiya ustidan nazoratni o‘rnatishi mumkin. Ushbu imkoniyat to‘liq nazorat qilinadigan filiallar yordamida amalga oshiriladi.

TMKlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa kompaniyalardan farqlanadi:

- xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchilari ekanligi;
- xalqaro ishlab chiqarish majmualarini yaratib, qo‘shimcha imkoniyatlarga ega bo‘lishi;
- global ishlab chiqarish kuchlari va resurslaridan foydalanish;
- ommaviy iste‘molchilar uchun ishlashi;
- kapitalning bazaviy mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshirishi;

## Xalqaro korporatsiyalar tomonidan raqobat afzalliklarini qo‘lga kiritish usullari<sup>170</sup>

Afzalliklar	Tavsif
<b>1. Umumiy tartibdagi raqobat afzalliklari</b>	
O‘z texnologiyasiga ega bo‘lish	Nou-xau yoki firmaga tegishli mahsulotni ishlab chiqarish, jarayon yoki boshqaruv texnologiyasi, uni boshqa firmalar faqat ITTKI yoki uning egasidan olishi mumkin.
Markaga yoki savdo belgisiga asoslangan “gudvill”	Sifat, xizmatlar va boshqalarga nisbatan tajriba asosida orttirilgan obro‘-etibor
Ishlab chiqarish ko‘lamlari bo‘yicha iqtisod qilish	Katta ko‘lamlarda ishlab chiqarish mahsulot birligi qiymatini pasaytiradi
Ishlab chiqarish diapazoni bo‘yicha iqtisod qilish	Bir nechta ishlab chiqarish turlari “bir tom ostida” birlashishi hisobiga xarajatlar kamaydi
Xaridlar ko‘lamlari bo‘yicha iqtisod	Xaridlarni katta hajmlarda amalga oshirish hisobiga xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar qiymatining kamayishi
Moliyalashtirishdagi afzallik	Yirik firmalar uchun ancha past stavkalarda moliyalashtirishdan foydalanish
Sotuvlardagi afzallik	Xom ashyo va mahsulotni katta partiyalarda yuklash mahsulot birligini tashish qiymatini pasaytiradi
Reklamadagi afzallik	Bir nechta bozorlardagi sotuvlar reklamani muayyan “bozorlararo” ixtisoslashishiga imkon beradi
Davlatning homiyligi	Davlat boshqaruvi ostida bozorga erkin yoki preferensial tarzda qo‘llab-quvvatlash orqali kirish
Xodimlar menejmenti	Band bo‘lganlarning guruhli faoliyatini rag‘batlantirish va mehnat unumdorligini maqbullashtirish ko‘nikmalari
<b>2. Multimilliy lashtirish bilan bog‘liq raqobat afzalliklari</b>	
Marketingning multimilliy imkoniyatlari	Bir nechta mamlakatlardagi bozorlarni o‘rganish, bilish va ulardan foydalanish
Multimilliy ta‘minot manbalari	Bir nechta mamlakatlardagi xomashyo, yarim tayyor mahsulotlardan erkin foydalanish, bu yagona manbaga nisbatan xarajatlarni ancha pasaytiradi
Multimilliy diversifikatsiya	Bir nechta mamlakatlarda operatsiyalar olib borish siyosiy va biznes qaltisligini pasaytiradi
Bir nechta mamlakatlarning menejmentdagi tajribasi	Bir nechta mamlakatlar tajribasi asosida shakllangan operatsiyalarni boshqarish ko‘nikmalari raqobatchilar oldida nisbiy afzalliklar beradi
Aglomeratsiya bo‘yicha iqtisod	Boshqa firmalar bilan hududiy ishlab chiqarish kooperatsiyasi natijasidagi aglomeratsiya bo‘yicha iqtisod qilish

- yuqori texnologiyali va fan sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan tarmoqlarda faoliyat olib borishi. Ushbu tarmoqlar rivojlanishi katta hajmdagi kapital qo‘yilmalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi.

<sup>170</sup> Вахабов А.В. Модели развития финансово-промышленных групп в мировой экономике и возможности его использования в Узбекистане. / «Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish bo‘yicha xalqaro tajriba va O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni takomillashtirish muammolari» mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – M., MGEI, 2008. 18-b.



Shu bilan birga TMKning rivojlanishi quyidagi qarama-qarshi tendensiyalarga ega:

- ular o'rtasida raqobatning keskinlashuvi;
- o'zaro hamkorlik munosabatlarining o'rnatilishi.

TMKlar yirik biznes tashkilotining shakli sifatida xalqaro mehnat taqsimotining zamonaviy tabiatiga mos kelib, bir tomondan, integratsiyalashgan korporatsiyaning yuqori iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga imkon beradi, boshqa tomondan, yangi sharoitlarga moslashuvchanlik va innovatsiyalarga ta'sirchanlikning katta salohiyatidan doimiy foydalanishga imkon beradi.

## **9.2. Transmilliylashuv indeksi, uni hisoblash usullari**

Jahon miqyosida so'nggi yillarda yirik TMKlar rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlariga kirishga urinmoqdalar va ushbu urinishlarning aksariyatida TMKlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni bu mamlakatlarning moliya-sanoat sektoriga kiritish orqali kuchli asosdagi tuzilmalarni shakllantirishga harakat qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan TMKlarning transmilliylashuv darajasi, ular ko'lamining shakllanish mezonlarini o'rganish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TMKlar faoliyatini davomiy o'rganib boruvchi BMTning Savdo va rivojlanish Konferensiyasi (United Nations Conference on Trade and Development, UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 70 mingga yaqin TMKlar faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan turli mamlakatlarda joylashgan 1 millionga yaqin sho'ba korxonalar faoliyati nazorat qilib borilmoqda.

TMKlarning "kuch" xususiyatlarini yoki ushbu kuch va ahamiyatga ega bo'lgan mezonlarni "tortish" mumkinligini tahlil qilish muhimdir. TMKlar "kuchi"ning asosiy xususiyatlaridan biri korporatsiyaning umumiy kapitallashuv darajasi va uning mamlakatlardagi mavjud aktivlaridir. Kapitallashuvning umumiy darajasi davlat va xalqaro tashkilotlarga, muayyan mamlakatlarda esa ularning davlat tuzilmalariga bosim o'tkazish kuchidan iboratdir. Shu munosabat bilan TMK faoliyatini tahlil qilishda "transmilliylashuv indeksi" tushunchasidan foydalaniladi. Transmilliylashuv indeksining ikki turi mavjud:

1. Kompaniyalarning transmilliylashuv indeksi ma'lum bir TMKning xorijda tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasini aks ettiradi. Bu quyidagi uch ko'rsatkichning o'rtacha miqdori sifatida hisoblanadi: jami xorijiy aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi, xorijga sotish hajmining umumiy sotish hajmiga nisbati va xorijiy bo'linmalardagi xodimlar sonining TMK umumiy xodimlari sonidagi ulushi.

2. Mamlakatning transmilliylashuv indeksi ma'lum bir mamlakat uchun xorijiy TMKlarning ahamiyatini baholaydi. Bu quyidagi to'rt o'zgaruvchi yig'indisi sifatida hisoblanadi:

- mamlakat ichidagi barcha kapital investitsiyalardagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi;

- mamlakatda to'plangan xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbati;

- mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi xorijiy kompaniyalar filiallarining ulushi;

- ushbu xorijiy kompaniyalarda ish bilan band shaxslarning mamlakatdagi umumiy ish bilan band shaxslar sonidagi ulushi.

Kompaniyalarning transmilliylashuv indeksini quyidagi bog'lanish asosida aniqlash mumkin:

$$I_t = ( A_{xa} / A_{ua} + C_x / C_u + X_x / X_u ) : 3$$

Bu yerda:  $I_t$  - transmilliylashuv indeksi;

$A_{xa}$  - xorijiy aktivlar hajmi;

$A_{ua}$  - umumiy aktivlar hajmi;

$C_x$  - xorijiy filiallar sotgan tovar va xizmatlar hajmi;

$C_u$  - tovar va xizmatlar sotishning umumiy hajmi;

$X_x$  - xorijiy xodimlar soni;

$X_u$  - kompaniyaning umumiy xodimlari soni.

Mutaxassislarning fikricha, bugungi kunda eng transmilliylashgan mamlakatlar Gonkong (86 %), Irlandiya (64%), Belgiya va Lyuksemburg (59%), Singapur (59%), Estoniya (47%) hisoblanadi. Boshqa mamlakatlarda transmilliylashuv indeksi ancha past: Braziliyada 15%, Rossiyada 14%, Germaniyada 11%, Xitoyda 10%, Yaponiyada esa 2%<sup>171</sup>. Agar Amerika TMKlarini Yevropa TMKlari bilan solishtirsak, unda o'ziga xos bir qonuniyatni ko'rishimiz mumkin: AQSh savdo bozorining kattaligi tufayli AQSh TMKlarining transmilliylashuv darajasi Yevropa TNKlariga qaraganda ancha past. Bundan tashqari, TMKlarning faoliyati uchun zaruriy sharoitlarni ta'minlab beruvchi AQSh va Yevropaning soliq tizimlari ham bir-biridan farq qiladi. Ayni vaqtda Yevropa TMKlari uchun ishlab chiqarish joyini Sharqqa ko'chirish ancha foydali. TMKlarni mamlakatda faoliyat boshlashini rag'batlantirish maqsadida hukumatlar ularga soliq, davlat subsidiyalari, mehnat yoki ekologik qonunlar tizimida alohida imtiyozlarni taklif etadilar.

---

<sup>171</sup> Мировая экономика и международные экономические отношения: Учебник/ Под ред. А. С. Булатова, Н. Н. Ливенцева. М.: Магистр, 2008.

Kapitallashuv darajasini baholashning iqtisodiy mezonlaridan tashqari, kompaniyani TMK sifatida tasniflashning bir qator boshqa mezonlari ham mavjud, masalan:

- korporatsiya faoliyat ko'rsatadigan mamlakatlar soni (kamida 2 tadan 6 tagacha);
- korporatsiyaning ishlab chiqarish ob'ektlari joylashgan mamlakatlarning minimal soni;
- korporatsiya erishgan hajm;
- korporatsiya daromadidagi yoki sotuvdagi xorijiy operatsiyalarning minimal ulushi (odatda 25%);
- korporatsiya xodimlari va yuqori boshqaruv organlaridagi xodimlarning xalqaro tarkibi.

Shuni ta'kidlash lozimki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish jarayonida TMKlarning roli muhim ahamiyatga ega. Xalqaro valyuta fondi tomonidan belgilanishicha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya – maqsadi boshqa iqtisodiy tizimi rezidenti bo'lgan kompaniyaning bir iqtisodiy tizim rezidenti bo'lgan yuridik shaxs tomonidan uzoq muddatli manfaati uchun kiritilgan investitsiya hisoblanadi. Uzoq muddatli foizlar investor va xorijiy kompaniya o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar mavjudligi va investorning tashkilot boshqaruviga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini nazarda tutadi.

## 9.2-jadval

### TMKlarning xorijdagi faoliyatini namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkichlar

Kompaniya nomi	Faoliyat sohasi	I	II	III
Royal Dutch/Shel	Energetika	67,8	73,3	77,9
Ford	Avtomobilsozlik	29,0	30,6	29,8
General Electric	Elektronika va elektrotexnika	30,4	24,4	23,4
Exxon	Energetika	73,1	79,6	53,7
General Motors	Avtomobilsozlik	29,4	29,2	33,9
Volkswagen	Avtomobilsozlik	84,8	60,8	44,4
IBM	Elektronika va elektrotexnika	51,9	62,7	50,1
Toyota	Avtomobilsozlik	30,5	45,1	23,0
Nestle	Oziq-ovqat sanoati	86,9	98,2	97,0
Bayer	Kimyo sanoati	89,8	63,3	54,7
ABB	Elektrotexnika sanoati	84,7	87,2	93,9
Nissan	Avtomobilsozlik	42,7	44,2	43,5
Elf Aquitaine	Energetika	54,5	65,4	47,5
Mobil	Energetika	61,8	65,9	52,2
Damler-Craisler	Avtomobilsozlik	39,2	63,2	22,2

Yuqorida aytib o‘tilganidek, TMKlarning xorijdagi faoliyatini namoyon etuvchi quyidagi ko‘rsatkichlar katta ahamiyatga ega: kompaniyaning umumiy aktivlarida xorijiy aktivlarning ulushi, umumiy savdo hajmida xorijdagi yillik savdo hajmining ulushi, umumiy ishlovchilar sonida xorijdagi kompaniyalarda band bo‘lganlarning ulushi.

I – kompaniyaning umumiy aktivlarida xorijiy aktivlarning ulushi.

II – umumiy savdo hajmida xorijdagi yillik savdo hajmining ulushi.

III – umumiy ishlovchilar sonida xorijdagi kompaniyalarda band bo‘lganlarning ulushi.

Yuqoridagi indekslar va ko‘rsatkichlardan foydalanilgan holda transmilliylashuv indeksini alohida korporatsiya yoki mamlakat miqyosida baholash mumkin.

### **9.3. Transmilliy korporatsiyalarning jahon iqtisodiyoti globallashuvidagi o‘rni**

Zamonaviy xalqaro korporatsiyalarning asosiy qismi TMK shakliga ega. TMKlarning asosiy xususiyati shuki, ularning ishlab chiqarish, savdo-sotiq va boshqa faoliyatlari mamlakatning davlat chegaralaridan tashqarisida amalga oshirilib, ular bazasida xalqaro ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yiladi. TMKlar dunyoning baynalmilallashuv va globallashuv jarayonlarini kuchaytiruvchi xalqaro mehnat taqsimotining ob‘ektiv tendensiyalaridan faol foydalanib, tashqi iqtisodiy faoliyat tizimida yangi aloqalar va o‘zaro munosabatlarni o‘rnatadi. TMK xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotiga bevosita investitsiyalar sarflash imkonini beradi.

TMKlar quyidagi maqsadlarda bevosita investitsiyalarni amalga oshiradi:

- o‘zini bevosita barqaror bozor bilan ta‘minlash yoki rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon bozorlariga chiqishida trampin vazifasini bajarish;

- u yoki bu soha bo‘yicha alohida mamlakatlarda o‘z “ichki bozorini” tashkil etish uchun shart sharoit yaratish;

- hududiy va xalqaro darajadagi manfaatlarini davlatlararo munosabatlar darajasiga ko‘tarish;

- davlatlararo munosabatlarda o‘zining hududiy va xalqaro darajadagi manfaatlarini amalga oshirish.

TMKlar bir mahsulotni birdaniga bir necha mamlakatdagi filiallarida ishlab chiqarishining sababini aniqlash uchun kamida ikkita jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin – hududiy va xalqaro. Bunda hududiy jihat korporatsiyaning arzon xomashyo va ish kuchidan foydalanish, mahsulotni tashish va saqlash sarf-xarajatlarini qisqartirish, bojxona va boshqa to‘siqlarni chetlab o‘tishga intilishdan iborat iborat bo‘lsa, xalqaro jihat bir necha mamlakatlarda filiallari bor

korporatsiyaning ma'lum ustunlikka ega bo'lishi bilan bog'liq. Iqtisodiy mustaqil bir necha korporatsiyadan ko'ra bitta mahsulotni bitta korporatsiya tomonidan bir qancha mamlakatlarda ishlab chiqarilishi afzalroqdir. Bundan tashqari u soliqni qisqartirish maqsadida hisobotni boshqarishi mumkin va unga tegishli bo'lgan texnologiya ustidan nazoratni ta'minlaydi. Bu imkoniyatni faqat to'liq nazorat qilinadigan filiallarga beradi.

Hozirgi zamon TMKlari bir qator xususiyatlarga ega:

- ular xalqaro mehnat taqsimotining faol qatnashchisi bo'lib, uni taraqqiy ettiradi;

- xalqaro ishlab chiqarish majmualarini yaratib, qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladilar;

- global ishlab chiqarish kuchlari va resurslaridan foydalanadilar;

- ommaviy iste'molchilarga xizmat ko'rsatadilar;

- TMKlar kapitalining harakati ularning baza mamlakatlarida bo'lib o'tayotgan jarayonlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi;

- TMKlar yuqori texnologiyali, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarga kirib bormoqda. Bu tarmoqlar katta hajmdagi kapital qo'yilmalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, tarmoqlarning monopollashtirilishiga olib keladi.

Zamonaviy bosqichda TMKlar taraqqiyoti ikki qarama-qarshi tendensiyaga ega:

- ular o'rtasida raqobatning keskinlashuvi;

- o'zaro hamkorlik munosabatlarining o'rnatilishi.

1960-1970 yillarda uchinchi dunyo mamlakatlariga xususiy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning katta oqimi kuzatilgan. Agar 1962 yilda investitsiyalarning yillik o'sishi 2,4 mlrd.doll.ni tashkil etgan bo'lsa, 1980 yilga kelib bu ko'rsatkich 17 mlrd.doll.ni tashkil etdi.

Biroq 80-yillarga kelib to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning rivojlanayotgan davlatlarga kirib borishi kamaydi va 16 mlrd.doll.ni tashkil etdi. 1995 yili to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 75 %i quyidagi o'nta davlatga to'g'ri keldi:

1. Braziliya - 12 %

2. Singapur - 12 %

3. Meksika - 11 %

4. Xitoy - 10 %

5. Gonkong - 7 %

6. Malayziya - 6 %

7. Argentina - 4 %

8. Tailand - 3 %

9. Misr - 3 %

10. Kolumbiya - 3 %

**TMKlar va ularning xorijdagi filiallarining mamlakat guruhleri bo'yicha taqsimoti<sup>172</sup>**

<b>Hudud - mamlakat</b>	<b>Hududda joylashgan bosh kompaniyalarning soni</b>	<b>Hududda joylashtirilgan xorijiy filiallarning soni</b>
Sanoati rivojlangan mamlakatlar	34 353	93 311
Rivojlanayotgan mamlakatlar	3 788	101 139
O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari	400	55 000
Butun dunyo	38 451	251 450

Ammo 90-yillarga kelib rivojlanayotgan davlatlarga kiritilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 25,2 % dan 17 % ga tushib qoldi. Bu ko'rsatkich 1968 yilda 31 % ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda TMKlar shu darajada rivojlanganki, yetarli sharoit mavjud bo'lganda ular dunyoning istalgan nuqtasida faoliyat olib bora oladi. TMKlarning siklik savdo hajmi rivojlanayotgan mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti hajmidan ham katta bo'lmoqda.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eng katta TMK deb tan olingan «Djeneral Motors» kompaniyasining yalpi savdo hajmi Indoneziya davlatining YaIM hajmidan katta. Umuman olganda, «Djeneral Motors» kompaniyasining yalpi savdo hajmi barcha rivojlanayotgan davlatlarning YaIM hajmidan katta, faqat Xitoy, Hindiston, Braziliya, Meksika va Janubiy Koreya bundan mustasno.

1970 yilda jahonning 14 ta yetakchi mamlakatlaridagi 7,3 mingta TMKlarning xorijdagi filiallari soni 27,3 mingta va ularning umumiy mablag'i 626 mlrd.doll.ni tashkil qilgan. 80-yillar o'rtalaridan jahon miqyosida TTXIlarning ulushi keskin o'sib borib yalpi ichki investitsiyalardan bir necha marotaba ortib ketdi.

1980 yilda bevosita, portfel va boshqa investitsiyalar jahon YaIMining 8,4%ni tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilda bu ko'rsatkich 22,6%ga yetdi. Ekspertlarning baholashlaricha TMK va transmilliy bank (TMB)lar xorijiy aktivlarining jahonning yalpi mahsulotiga nisbatan o'sishi 1945 yilda 4,9%dan 1995 yilda 56,8%gacha o'sdi<sup>173</sup>.

1999 yilda TMKlar soni 60 mingga yetib, ularning chet eldagi filiallari soni 600 mingdan oshib ketdi. Ular tomonidan to'plangan xorijiy kapital 4,8 trln.doll.ni tashkil etdi.

<sup>172</sup> Акопова Е.С., Воронкова О.Н. и др. Мировая экономика и международные экономические отношения. Ростов-на-Дону: «Феникс», 2000. –С. 367.

<sup>173</sup> Шишков Ю. Внешнеэкономические связи в XX в.- от упадка к глобализации//МЭиМО № 8, 2001, С.18.

**O‘nta yirik TMKlar va ba’zi davlatlar rivojining solishtirma xarakteristikasi,  
mlrd. AQSh dol. (2000 yil)**

<b>№</b>	<b>TMK reytingi, kompaniya va davlat</b>	<b>YaIM yoki yalpi savdo hajmi</b>
1	«Djeneral Motors» (AQSh)	125,1
	<i>Indoneziya</i>	107,3
2	«Roll Datch/Shell» (Angliya/Gollan .)	107,2
3	«Ekson» (AQSh)	105,9
	Norvegiya	105,8
4	«Ford Motorz» (AQSh)	98,3
	<i>Turkiya</i>	69,5
	<i>Argentina</i>	96,2
	<i>Tailand</i>	80,1
5	«IBM» (AQSh)	69,0
6	«Toyota» (Yaponiya)	64,5
7	«IRI» (Italiya)	61,4
8	«British Petroleum» (Angliya)	59,5
9	«Mobil» (AQSh)	58,8
10	«Djeneral Elektrik» (AQSh)	58,4
	<i>Portugaliya</i>	56,8
	<i>Venesuela</i>	48,3
	<i>Filippin</i>	43,8
	<i>Malayziya</i>	42,4
	<i>Kolumbiya</i>	41,1
	<i>Nigeriya</i>	34,7
	<i>Misr</i>	33,2
	<i>Bangladayesh</i>	22,8
	<i>Keniya</i>	7,5

Hozirgi kunda TMKlar jahon sanoati ishlab chiqarishining salkam 2/3 qismini, xalqaro savdoning 2/3 qismini, yangi texnika, texnologiya va nou-xaular patent va litsenziyalarining 4/5 qismini nazorat qiladilar. Eng ko‘p TMKlar quyidagi mamlakatlarda ro‘yxatga olingan: Germaniyada 7100 ta, Yaponiyada 3650 ta, Shvetsiyada 3550 ta, Shveysariyada 3000 ta, AQShda 3000 ta, Buyuk Britaniyada 2800 ta.

XX asrning eng yirik TMKlariga quyidagilar kiradi: «Djeneral elektrik» (AQSh), «Maykrosoft» (AQSh), «Royal-Datch/Shell» (Buyuk Britaniya/Niderlandiya), «Koka-Kola» (AQSh), «Ekkson» (AQSh), «Ay-Bi-Em» (AQSh), «Djeneral Motors» (AQSh), «Xitachi» (Yaponiya), «Matsusita» (Yaponiya), «Nestle» (Shveysariya), «Ford» (AQSh), «Alkatel» (Fransiya), «Filips» (Niderlandiya), «Mobil oyl» (AQSh), «Asu Braun Boveri» (Shveysariya),

«Alfakiten» (Fransiya), «Folksvagen» (Germaniya), «Toyota» (Yaponiya), «Simens» (Germaniya), «Daymler Bens» (Germaniya), «British Petroleum» (Buyuk Britaniya), «Yunilever» (Buyuk Britaniya/Niderlandiya)<sup>174</sup>.

90-yillar oxirlarida «Djeneral Motors» kompaniyasining yillik savdo hajmi Finlyandiya, Daniya, Norvegiya, Saudiya Arabistoni, Indoneziya va Argentinaning YaIMidan katta edi. «Toyota» kompaniyasining yillik savdo hajmi Misr, Nigeriya, Singapur, Peru, Chili va Marokkolar YaIM hajmidan 2 marotaba ko‘p edi. Shu davrda jahon TMKlarida 75 mln. kishi ish bilan band edi, bu dunyo mamlakatlari qayta ishlash sanoatida band bo‘lganlarning deyarli 10% ga teng. Undan tashqari 150 mln.kishi TMKlarda qo‘shimcha ravishda mehnat qilishar edi.

90-yillar oxirlarida yirik TMKlar xorijda 300 mingga yaqin filiallariga ega edilar. Eng ko‘p filiallar quyidagi mamlakatlarda ro‘yxatga olingan: Xitoyda 45 ming, AQShda 15,4 ming, Germaniyada 12 ming, Singapurda 11 ming, Braziliyada 8 ming, Fransiyada 7,6 ming, Meksikada 7 ming, Ruminiyada 6,9 ming, Portugaliyada 6,7 ming, Ispaniyada 6,3 ming, Kanadada 5,9 ming, Shveysariyada 4 ming, Buyuk Britaniyada 3,9 ming, Janubiy Koreyada 3,6 ming, Yaponiyada 3,2 ming, MDH davlatlarida 2 ming<sup>175</sup>.

Yirik TMKlar orasida rivojlanayotgan mamlakatlar (Osiyo va Lotin Amerikasi) TMKlari ham mavjud. Ularga “DEU” (Koreya), “Xatnison Uamtu” (Gonkong) va “Semeks” (Meksika)larni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

TMKlar jahon iqtisodiyotining barcha sohalarida (ishlab chiqarish, moliya, texnologiyalar, xizmatlar) ustunlikka ega bo‘lib bormoqda. Qiziqish sohalariga qarab TMKlar quyidagicha taqsimlanadi: 60% - sanoat, 37% - xizmatlar, 3% - bazaviy tarmoqlar (qazib olish, qishloq xo‘jaligi). Sanoat ishlab chiqarishining 30%i, xalqaro savdoning 50%i, TTXIlarning 90%i, patentlar va litsenziyalarning 95%i TMKlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro kredit sohasida 50 ta TMBlar, sug‘urta operatsiyalarida – 30 ta yetakchi kompaniyalar, reklama ishida – 20 ta yetakchi xalqaro agentliklar, havoda tashish bo‘yicha – 25 ta xalqaro aviatransport kompaniyalari hukmronlik qilishadi.

yuzlikka kiruvchi bu TMKlar uchun xarakterli xususiyatlar quyidagilardir:

- kelib chiqish nuqtai nazaridan eng yirik guruhni tashkil qiluvchi TMKlar AQShga tegishli bo‘lib (100 tadan 32 tasi), xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi ular hissasiga to‘g‘ri keladi;

- tez o‘sayotgan guruh bu yapon TMKlari (1990 yil – 11 %, 1992 yil - 19 %) hisoblanadi, ular elektronika sohasida yetakchilik qilishadi,

<sup>174</sup> Бюллетень иностранной и коммерческой информации. № 107, 10 сентября 1998 г. С.16

<sup>175</sup> Андрианов В. Транснационализация внешнеэкономических связей // Маркетинг № 4, 2001, С. 4.



- Yevropa TMKlari ximiya va farmatsevtika sanoatida sezilarli o‘rin egallashadi;

- ximiya va farmatsevtika sohasidagi TMKlar, keyin oziq-ovqat va elektronika sohasidagi firmalar tarmoqlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega hisoblanadi.

Yirik investorlarga tegishli rejalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi faol xorijiy operatsiyalarni amalga oshirishi rejalashtirilmoqda. Ammo bu yerda bir qator “geografik” cheklanish mavjud amerika firmalari G‘arbiy Yevropa bozorlariga intilmoqda (ayniqsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga va iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishga).

Yevropa kompaniyalari esa amerika bozorlarini tanlashmoqda, yapon firmalari uchun ustuvor yo‘nalish Osiyo mamlakatlari bo‘lib qolmoqda. Bevosita investitsiyalarning jahon bozoriga chiqib borishi bilan xalqaro savdo o‘rtasida ma‘lum bog‘lanishlar vujudga kelmoqda. Bu esa bevosita investorlarni davlat tomonidan turli vositalar yordamida boshqarishni zarur qilib qo‘ymoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi davlat uchun salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Jahon tajribasida bunday holatlarning to‘rt turi ma‘lum:

1. Xorijiy investitsiyalar boshqa iqtisodiyotga kirib kelishi bilan birga shu davlatning milliy zahiralarni va investitsiya kelishi qisqarishiga turtki bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga TMKlar davlat bilan eksklyuziv shartnoma tuzish orqali kuchli raqobatni yo‘qotib, ular tanho monopoliya o‘rnatishga urinadilar.

2. Agar TMKlar investitsiyasi kiritilishining birinchi bosqichida investitsiya qabul qiluvchi mamlakatning xorijiy valyuta zahirasini boyitsa, keyingi bosqichlarda esa valyuta tushumini cheklab qo‘yadi. Valyuta zahiralari esa yarim-fabrikatlar, texnologiya, import natijasida qisqaradi. Ishlab chiqarishdan olingan foyda esa shartnomaga asosan chetga olib ketiladi.

3. TMKlar davlatga korporativ soliqlar to‘laydi, lekin bu soliqlar korporatsiyaning davlat bilan tuzilgan soliq solishdagi yengilliklar haqidagi shartnomasiga binoan minimal miqdorda bo‘ladi.

4. TMKlarning tadbirkorlik va boshqaruv tajribalari milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam bermasligi, hattoki, salbiy ta‘sir etishi mumkin. TMKlar mahalliy bozorda hal qiluvchi o‘rinni saqlab qolishlari uchun o‘z tajribalarini boshqa kompaniyalarga yaqqol namoyon etmaydilar.

MDH mamlakatlarini geografik va ijtimoiy-madaniy yaqinligi, o‘zaro to‘ldiruvchi mineral xomashyo va ilmiy ishlab chiqarish bazasining tarixiy shakllangan ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining mavjudligi ular tomonidan TMKlar va moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning ob‘ektiv asosi bo‘lib xizmat qiladi.

#### **9.4. Transmilliy korporatsiyalarning turlari va ularning xalqaro kapitalni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi o‘rni**

Xalqaro korporatsiya yirik korporatsiya tashkiliy tuzilishining bir shakli bo‘lib, jahonning turli mamlakatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshiradi.

Xalqaro korporatsiyaning ikkita asosiy turi mavjud:

- transmilliy korporatsiya (TMK) (*transnational corporations*) – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli, filiallari esa dunyoning ko‘pgina mamlakatlariga tarqalgan.

- ko‘pmillatli korporatsiya (*multinational corporations*) - bosh kompaniya ikki yoki undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli, filiallari esa turli davlatlarda joylashgan.

Bosh kompaniya joylashgan mamlakatdan qabul qilayotgan mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish xalqaro korporatsiyaning asosiy belgisi hisoblanadi.

Baza mamlakat (*home country*) - bu xalqaro korporatsiyaning bosh ofisi joylashgan mamlakat.

Qabul qilayotgan mamlakat (*host country*) xalqaro korporatsiyalarning bevosita investitsiyalarini qabul qiluvchi mamlakat bo‘lib, qabul qiluvchilar ushbu korporatsiyalarning filiallaridir.

TMKlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

**1. Xalqaro firmalararo kooperatsiya.** Bu shakl birlamchi rivojlanayotgan mamlakatlarning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlaridagi korporatsiyalari bilan hamkorlik asosida faoliyat olib borishi sifatida namoyon bo‘lsa, keyinchalik yuqori texnologiyalar talab qiluvchi, ITT yutuqlarini keng qo‘llaydigan sohalarda amalga oshirila boshlandi;

**2. Strategik alyanslar** – jahon bozoridagi global masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo‘lib, bu ittifoq firmalarning boshqa sohalarda to‘liq raqobatlashuviga to‘sqinlik qilmaydi. Strategik alyanslarni yaratishdan maqsad:

- a) texnologik izlanishlar olib borish;
- b) qo‘shma ishlab chiqarishni amalga oshirish;
- v) mahsulotni realizatsiya (sotish) qilishda hamkorlik qilish;

**3. Strategik oilalar** – o‘zaro raqobatda bo‘lgan korporatsiyalarning bir-birini to‘ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi bo‘lib, ushbu strategiya ularning bozordagi muvaffaqiyatiga bog‘liqdir;

**4. Strategik tizimlar** - turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) ko'p sonli korxonalarining uzoq muddat hamkorlik qilish sharti bilan kooperatsion birlashmasi bo'lib, ularning asosiy maqsadi muhim axborotlar, personal va texnologiyalar almashishdir;

**5. Xalqaro qo'shib va yutilib ketishlar.** Xalqaro raqobatlashuv kuchayib borishi natijasida 80-yillar o'rtalaridan boshlab TMKlar ishtirokida firmalarning qo'shib va yutilib ketishi jarayoni kuchaydi. Buning asosiy sababi sanoat tarmoqlarida to'liq band bo'lmagan korxonalarining ko'payishi, TMKlar daromadining pasayishi, moliya sohasidagi o'zgarishlar oqibatida moliyalashtirishning yangi manbalari va vositalarining vujudga kelishi bo'ldi. 1998 yilda qo'shib va yutilib ketgan kompaniyalarning qiymati 544 mlrd.doll.ga teng bo'ldi, 1997 yilda esa bu qiymat 342 mlrd.doll.ni tashkil etgan.

Xalqaro qo'shib va yutilib ketishlarning 90%i rivojlangan mamlakatlar TMKlariga xosdir. Bu jarayon asosan bank, sug'urta, farmatsevtika va telekommunikatsiya sohalarida bo'lib o'tmoqda.

**6. TMKlarning xalqaro chatishib ketishi** deganda, korporatsiyalarning birlarining qimmatbaho qog'ozlariga ega bo'lib, ularni sherikchilik asosida boshqarishi tushuniladi. Xalqaro chatishib ketishlar, asosan, avtomobilsozlik tarmoqlarida yuz beradi.

Oxirgi 30 yil davomida xalqaro savdo va moliya oqimining jadal sur'atlar bilan o'sganligining sababini TMKlarning faol harakati bilan izohlash mumkin. Shimoliy Amerika, Yevropa va Yaponiya TMKlari investitsiya qabul qiluvchi davlatlar uchun bir tarafdin katta imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tarafdin bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda kapitalni davlatlararo taqsimlash iqtisodiy o'sishning faol omili bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot baynalmilallashgan sari kapital faoliyati milliy doiradan xalqaro miqyosga chiqadi va mamlakatlararo kapital eksporti yuz beradi. Jahon xo'jaligi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kapital sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlardan qoloq mamlakatlar tomon yo'nalgan edi. Jahon xo'jalik tizimi aloqalari rivojlangan sari kapital xarakati umumjahon doirasida yuz berib, uning oqimi har tomonlama, to'xtovsiz bo'ladi va pullik jang'armalarning investitsiyalarga aylanishi kapitalning xalqaro miqyosdagi harakatini bildiradi.

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro kapital migratsiyasining mohiyatini ochib beruvchi ikki xil yondashuv mavjud bo'lib, ular orasidagi farq quyidagi sabablar orqali ochib beriladi:

- bozor va uni tashkil etuvchi xo'jalik aloqalarining rivojlanishi;
- ushbu aloqalarning milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'liq rolining o'zgarishi.

Birinchi yondashuv tarafdorlari uchun xalqaro kapital migratsiyasi - bu ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o'sha mamlakatlar tomon oqib o'tadi. Bozorning alohida mamlakatlar milliy xususiyatlarini hisobga oluvchi universal qimmati bu yondashuv tarafdorlarining diqqat markazida turadi.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlarining fikricha, xalqaro kapital migratsiyasi ortiqcha ishlab chiqarish, moliya resurslarining foyda olish maqsadida xorijga uzluksiz joylashtirilishidan iboratdir. Bu yerda bozor sub'ekt sifatida emas, balki milliy, hududiy va xalqaro miqyosda muayyan maqsadga erishish vositasi, ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

XXI asr boshida iqtisodiyotning globallasuvi omillaridan biri kapitalning mamlakatlar o'rtasida harakatlanishining barqaror sur'atlarda o'sishi hisoblanadi.

Tovar ishlab chiqarishning muhim omillaridan hisoblangan kapitalning xalqaro harakati milliy iqtisodiyot chegaralaridan chiqib boshqa mamlakatlarga ko'chadi.

Xalqaro kapital migratsiyasi jahon xo'jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u mamlakatlarning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarining mustahkamlanishiga olib keladi, ularning tashqi savdo aylanmalarini oshiradi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytiradi, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, importyor-mamlakatlar texnik salohiyatini o'stiradi va mamlakatdagi bandlikni oshiradi.

Kapital migratsiyasining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- kapitalning foiz stavkasi bilan belgilanadigan turli chegaraviy unumdorligi;
- firmalarning o'z faoliyatini xalqaro diversifikatsiyalashtirishga intilishlari;
- tovarlarni import qilishga halal beradigan va xorijiy ta'minotchilarning bozorga kirish uchun kapital olib kirishga undaydigan boj to'siqlarining mavjudligi;

- barqaror siyosiy vaziyat va qulay investitsiyaviy muhit.

Kapital migratsiyasi jarayonlariga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining saqlab turilishi;

- jahon iqtisodiyoti va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar;

- ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasining chuqurlashuvi;

- jahon iqtisodiyotining transmilliylashishi;

- ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi va integratsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi;

- bozorlarning o'ta to'yinishi ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi;

- rivojlangan mamlakatlardagi sotuvchilar o'rtasidagi keskin raqobat;

- milliy bozorning yirik moliya-sanoat guruhleri tomonidan monopollashtirilishi;

- harakatdagi texnologiyalarni takomillashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;

- sanoati rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, bandlik darajasini, ilg'or sanoat tarmoqlarining rivojlanishini saqlab turish uchun salmoqli hajmda kapitallarni jalb qilishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati;

- xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro investitsiyaviy bo'shliqni erkinlashtirish siyosatining yuritilishi, investitsiyaviy sheriklikning universal me'yorlarini ishlab chiqish;

- mamlakatlar o'rtasida daromadlar va kapitalning ikki yoqlama soliqqa tortilishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi xalqaro kelishuvlar, ular savdo-sotiqning rivojlanishi va investitsiyalarning jalb qilinishiga ko'maklashadi.

Xorijiy investitsiyalar butunjahon iqtisodiyotiga va xalqaro biznesga quyidagi tarzda jiddiy ta'sir ko'rsatadi:

- kapital ekspansiyasi milliy xo'jalik hayotini baynalmilallashtirish missiyasini bajaradi;

- kapital ekspansiyasi yangi texnologiyalar va "nou-xau"larni butun dunyoga tarqatib, jahon bozorlarining diversifikatsiyasini yanada chuqurlashtiradi, jumladan, jahon ishlab chiqarishi xalqaro bozorining umumiy samaradorlik darajasini, uning raqobatbardoshligini oshiradi;

- kapital ekspansiyasi va uning jahon iqtisodiyotining daromadli o'sish nuqtalariga ko'chib o'tishi uzoq istiqbolda ishlab chiqarish shart-sharoitlarini tenglashtirish, milliy narxlarning jahon narxlariga yaqinlashishi, ish haqi va foiz stavkalarida milliy farqlarning yo'qolishi tendensiyasini yuzaga keltiradi;

- o'zi uchun bevosita yoki uchinchi mamlakatlar bozorlariga chiqish uchun tramplin sifatida barqaror bozorni ta'minlash;

- xalqaro korporatsiyalarning turli mamlakatlarda o'z "ichki bozor"larini, u yoki bu tarmoqlarini yaratishi natijasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi jarayoni bilan to'ldiriladi;

- o'z manfaatlarini mintaqaviy va yuqoriroq xalqaro darajadagi davlatlararo munosabatlarga kiritish;

- sherik mamlakatlarning ichki ishlari va davlatlararo munosabatlariga aralashmaslik, tenglik, o'zaro manfaatlarini hisobga olish, investitsiyalarni qabul

qiluvchi mamlakatlar milliy an'analari va madaniy qadriyatlarini, mehnatkashlar huquqlarini hurmat qilish bo'yicha umume'tirof etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda xalqaro investitsiyalarni xalqaro hamkorlikning muhim omili sifatida belgilash.

Mamlakatning xalqaro kapital migratsiyasidagi ishtirok etish darajasi qator ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Birinchi guruh ko'rsatkichlarga quyidagi mutlaq ko'rsatkichlar kiradi: kapital eksporti va importining hajmi, kapital eksporti-importi qoldig'i, mamlakatdagi xorijiy kapitali korxonalar soni, ulardagi bandlar soni va h.k. Kapital eksporti-importi qoldig'idan kelib chiqib, jahon mamlakatlari kapital eksport qiladigan (Yaponiya, Shveysariya), kapital import qiladigan (AQSh, Buyuk Britaniya) hamda eksport va import hajmi taxminan bir xil bo'lgan mamlakatlarga (Germaniya, Fransiya) ajratiladi.

Boshqa guruh ko'rsatkichlar nisbiy ko'rsatkichlar bo'lib, ular xalqaro kapital migratsiyasining markazlari va mamlakatning kapital importi-eksportiga bog'liqligini aks ettiradi:

1. Kapital importi koeffitsiyenti – xorijiy kapitalning mamlakat YaIMdagi ulushini ko'rsatadi.

2. Kapital eksporti koeffitsiyenti - eksport qilinadigan kapitalning YaIMdagi ulushini aks ettiradi.

3. Xorijiy kapitalning mamlakat kapital qo'yilmalariga bo'lgan ichki ehtiyojdagil ulushini aks ettiruvchi kapital.

4. Boshqa nisbiy ko'rsatkichlar: xorijiy yoki aralash kompaniyalarning milliy ishlab chiqarishdagil ulushi, kapital eksporti-importining oldingi davrga nisbatan o'sish sur'atlari, mamlakat aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi.

Kapitalni xorijga chiqarish, uning davlatlar orasida faol migratsiyasi zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ajratib turuvchi tomoniga aylandi.

Xalqaro kapital migratsiyasi-kapital egasi uchun foyda keltiruvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Har bir davlat bir vaqtning o'zida kapitalning importyori va eksportyori bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning eng muhim sabablari quyidagilardan iboratdir:

- kapital olib chiqilayotgan davlatda uning ortiqcha to'planganligi;
- jahon xo'jaligining turli zvenolarida kapital talabi va taklifining mos kelmasligi;
- mahalliy bozorni monopol qilish imkoniyati mavjudligi;
- kapital eksport qilinadigan davlatda arzonroq xomashyo va ishchi kuchining mavjudligi;
- barqaror siyosiy holat va umuman qulay investitsion muhitning mavjudligi.

Amaliy hayotda investitsiya qilish zaruriyati o'zida investitsion muhitning barcha qismlarini mujassamlashtirgan sabablar kompleksi va shuningdek, ayrim bozorlarning nisbiy ustunligi tamoyillari bilan belgilanadi.

### **9.5. Transmilliy korporatsiyalarning mintaqaviy va tarmoq tarkibi, holati va rivojlanish tendensiyalari**

Taniqli iqtisodchilarning jahondagi TMKlar bo'yicha tahliliga ko'ra, bugungi kunda TMKlar reytingida Amerika korporatsiyalari yetakchilik qilmoqdalar, yapon korporatsiyalari ikkinchi o'rinda, undan keyin Xitoy va Buyuk Britaniya, ulardan keyin esa Fransiya, Germaniya, Kanada, Braziliya, Janubiy Koreya, Italiya va Hind korporatsiyalari turadi<sup>176</sup>.

Sektorlar bo'yicha bunday korporatsiyalarning ishlab chiqarish sanoatida yetakchi ulushni saqlab qolgan holda, xizmat ko'rsatish sohasida ham o'z ulushini oshirib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

So'nggi yillarda TMKlar filiallari jahon bozorida alohida o'ringa ega bo'la boshladi, UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, jahon savdosining 33% i va jahon yalpi mahsulotining 10 %i ular hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bundan tashqari TMKlar jahon miqyosida ilmiy tadqiqotlar rivojlanishida tobora muhim rol o'ynay boshlaydi, barcha patentlar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'larning 80 %i ular hisobiga to'g'ri kelmoqda.

9.5-jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra TMKlarning eng katta guruhi bank-moliya sektorida jamlangan. U asosan AQSh va Xitoydagi korporatsiyalardan iborat bo'lib, hozirgi kunda TMKlarning moliyaviy sektorda faoliyat olib boruvchi alohida guruhi ko'p millatli banklar (TMB) deb yuritiladi.

TMKlarning ikkinchi eng yirik guruhi neft-gaz qazib olish va qayta ishlash sohasiga tegishli bo'lib, unda ham yetakchi o'rinlarni AQSh va Xitoy korporatsiyalari egallab turibdi. Bu guruhga Rossiya vakillari hisoblangan "Gazprom", "Rosneft", "Sberbank" va boshqa TMKlar ham kiradi.

TMKlarning uchinchi guruhi farmatsevtika ishlab chiqarishi va biotexnologiyaga qaratilgan. Ushbu guruhga Fransiya va Shveysariya korporatsiyalari kirib, bu guruh 22 ta ko'p millatli korporatsiyadan iborat.

Xalqaro amaliyot va tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, "TMKlarning tarmoqlararo bo'linish" tendensiyalari jahon iqtisodiyoti tizimining tashkil topishidagi o'zgarishlar bilan yuzaga keladi. Empirik tarzda real sektor bilan bog'liq TMKlar turli inqirozlar ta'sirida yanada moslashuvchan bo'ladi. Real sektorda TMKlar tarkibining o'zgarishi faqat uzoq muddatli davrda yuzaga kelishi mumkin.

---

<sup>176</sup> Хасбулатов Р.И. Международные экономические отношения. – М: ЮРАЙТ, 2012.

**Ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va mamlakatlar bo'yicha yirik TMKlarning taqsimlanishi (2012 yil)**

Faoliyat sohalari	TMKlar miqdori	Ta'sischi mamlakatlar	Faoliyat sohalari	TMKlar miqdori	Ta'sischi mamlakatlar
Neft va gaz qazib olish	43	AQSh, Xitoy, Rossiya va boshqalar	Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish	16	AQSh, Yaponiya, Tayvan va boshqalar
Bank-moliya xizmatlari	71	AQSh, Xitoy, Avstraliya va boshqalar	Avtomobillar va avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarish	17	Yaponiya, Germaniya, AQSh va boshqalar
Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati	9	Shveysariya, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqalar	Farmatsevtika ishlab chiqarishi va biotexnologiyalar	22	Shveysariya, Fransiya va boshqalar
Dasturiy ta'minot, kompyuter xizmatlari	13	AQSh, Germaniya, Hindiston, Yaponiya va boshqalar	Chakana savdo sohasi	17	AQSh, Ispaniya, Meksika va boshqalar
<b>JAMI</b>				<b>208</b>	

Globalashuv sharoitida TMKlar faoliyat xususiyatlarining o'zgarishi ularning milliy va mamlakatning o'ziga xos omillarini hisobga olishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, zamonaviy TMK mamlakat mansubligini baholash Danningning milliy chegaralar bo'ylab kapital oqimlari nazariyasi asosida amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkich ma'lum bir mamlakatda joylashgan asosiy kompaniyalar soni bilan belgilanadi. Asosiy bosh kompaniyalar TMKlarning "yuragi" bo'lib, ular joylashgan mamlakatlar butun TMK faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, Danning nazariyasiga ko'ra, bunday TMKlarning miqdori va sifati "mamlakat ichidagi ortiqcha investitsiyalar oqimi"ni ko'rsatadi, bu esa ma'lum darajada mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiradi.

9.6-jadvalni shakllantirish uchun turli istiqbolli xalqaro hududlarni "milliy chegaralardan tashqaridagi kapital oqimlari" nuqtai nazaridan tavsiflash uchun tanlab olindi. Eng ko'pi yirik korporatsiyalar AQShda jamlangan – 174 ta, ikkinchi o'rinda Yaponiya – 38 ta, Fransiya va Xitoyda joylashgan transmilliy korporatsiyalar soni bir-biriga yaqin bo'lib, bu ulardagi iqtisodiy rivojlanish va ichki kapital yetarlilik darajasining deyarli bir xilligini ko'rsatadi.



## 9.6-jadval

### Zamonaviy TMKlarning mamlakatlar bo'yicha mansubligi (2012 yil)

TMKlar asosiy kompaniyalariga ega mamlakatlar	TMKlar soni	Eng yuqori bozor qiymati, mlrd. doll.	Eng past bozor qiymati, mlrd. doll.
AQSh	174	559,0	18,0
Xitoy	34	279,0	18,3
Fransiya	24	120,4	18,3
Yaponiya	38	149,6	18,2.
Rossiya	10	145,8	23,4
Braziliya	12	170,8.	26,8
Buyuk Britaniya	38	222,4	18,1
Germaniya	19	92,0	18,7
Shveysariya	15	207,4	19,0
Hindiston	12	48,2	19,5

Shuningdek, oldingi bo'limlarda TMKlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun mezbon mamlakatda malakali mehnatning mavjudligi omili yoritib berilgan. Bu malakali ishchi kuchini mezbon mamlakat ichki resurslaridan, shuningdek, tashqi inson resurslaridan olishi mumkin. Biroq, buni zaruriy darajadagi ish haqi bilan ta'minlash orqali amalga oshirish mumkin, biroq bunda xarajatlar miqdori ortadi.

Ko'rib o'tilgan omillarni tasdiqlash uchun alohida tahlil o'tkazish talab etiladi. Bu tahlil iqtisodiy inqirozlar ta'sirida eng jozibador va barqaror bo'lgan TMK tarmoqlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun eng yaxshi 500 ta TMK faoliyati tahlil qilinadi. 2007-2012 yillar davrida sanoat bo'yicha TMKlar soni dinamikasi 9.7-jadvalda ko'rsatilgan. Tahlil natijalari asosida "Top 500" xalqaro reytingiga asos solindi.

## 9.7-jadval

### Faoliyat sohalari tarkibidagi TMKlar soni o'zgarishi

Faoliyat sohalari	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Neft va gaz qazib olish	43	43	44	45	46	43
Bank-moliya sohasi	83	71	56	69	75	71
Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati	7	9	11	9	9	9
Dasturiy ta'minot, kompyuter xizmatlari	11	10	12	12	12	13
Yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish sohalari	21	18	18	21	19	16
Avtomobillar va ularga ehtiyot qismlar ishlab chiqarish sohalari	10	10	8	11	15	17
Farmatsevtika va biotexnologiya	22	23	25	20	20	22
Chakana savdo sohasi	16	12	19	19	15	17
<b>Jami</b>	<b>213</b>	<b>196</b>	<b>193</b>	<b>206</b>	<b>211</b>	<b>208</b>

9.7-jadvalda 6 yil mobaynida TMKlar faoliyatining 8 ta asosiy yoʻnalishlari yoritilgan. Maʼlumotlarda koʻrsatilishicha, global iqtisodiy inqirozlar sharoitida eng barqaror 43-46ta TMK darajasida oʻzgarish yuz bermagan. Bu haqiqatni oʻz iqtisodiyotining ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarining resurs taʼminotida import qiluvchi mamlakatlar ehtiyojlarini qondiruvchi, bir xil darajada qolayotgan energiya xomashyosi jahon bozoridagi barqaror talab bilan izohlash mumkin.

Bank-moliya sektori esa eng koʻp zarar koʻrgan. Chunki bu sohadagi TMKlar soni 2009 yilga kelib 83 tadan 56 taga kamaydi. 2010 yilda ular yana koʻpaya boshlaganiga qaramay, inqirozdan oldingi koʻrsatkichga yetib bormagan. Bu moliyaviy va iqtisodiy sohaning iqtisodiy larzalarga barqaror emasligini tasdiqlaydi.

TMKlarning hozirgi rivojlanish bosqichi nafaqat global korporatsiyalarning paydo boʻlishi, balki ular strategiyasining chuqur evolyutsiyasi bilan ham xarakterlanadi va u quyidagi tendensiyalarda namoyon boʻladi:

- ilmiy va texnologik inqilob va kuchli global raqobat sharoitida, ular faoliyatining asosiy maqsadi faqat foydani maksimallashtirishdan iborat boʻlib qolmasdan, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik fonida foyda va “bozor”ni maksimallashtirish, yaʼni korporatsiyaning strategik barqarorligini taʼminlashni ham nazarda tutadi;

- kompaniyaning yagona global strategiyasi doirasida global ishlab chiqarish va sotish tarmoqlarini yaratish. Shu bilan birga, TMKlar bir mamlakatda toʻliq ishlab chiqarish siklini yaratish bilan qanoatlanmasdan, har bir korxonani global tarmoqda alohida tugun sifatida yakuniy bosqich uchun komponent ishlab chiqarishda ixtisoslashtirishga intiladi;

- TMKlar doirasida xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi ishlab chiqarish, tadqiqot, sotish va dunyoning turli burchaklarida tarqalgan kompaniya boʻlinmalari boshqa faoliyatining gorizont va vertikal integratsiyasiga asoslangan;

- TMKlar tomonidan yaratilayotgan xalqaro ishlab chiqarish nafaqat moddiy, balki nomoddiy xarakterga ham ega, yaʼni soʻnggi oʻn yil ichida xizmatlar va ilmfan taraqqiyoti yoʻnalishiga kiritilayotgan TTXI hajmi tez oʻsib bormoqda;

- TMKlarning qayta ishlash sanoatini rivojlantirish strategiyasi moddiy, moliyaviy va inson resurslarining sifat jihatidan yangi (global) kombinatsiyasiga asoslangan boʻlib, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan (baʼzi hisob-kitoblarga koʻra, 2025 yilda qayta ishlash sanoatining ulushi jahon yalpi mahsulotining 10 %idan oshmaydi, ammo samaradorlikning ortishi tufayli dunyoning soha mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojlari toʻliq qondiriladi;<sup>177</sup>

---

<sup>177</sup> Динамика расходов на НИОКР в промышленно развитых странах // БИКИ. 2006. №21. - 21 февраля. С.4-5.

- TMK bo‘linmalari o‘rtasida ichki korporativ savdoni jadal rivojlantirish (hozirgi kunda butun jahon savdosining taxminan 1/2 qismini tashkil etadi);

- xalqaro korporatsiyalar tomonidan kapitalni TTXI shaklida eksport qilish nafaqat xorijiy filiallar sonini oshirishga, balki rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologik bo‘shliqni kamaytirishga qaratilgan: mahsulot va xizmatlarning sifati, ishlab chiqarish mamlakatidan qat’i nazar, xalqaro standartlarga javob berishi kerak;

- texnologiyalarni rivojlantirish, uzatish va ulardan foydalanishni asosan yopiq korporativ tarkibda foydalanish, shuningdek, raqobat xavfini kamaytirish maqsadida – qo‘shma tadqiqot markazlari va dasturlarini yaratish, boshqa korporatsiyalar bilan o‘zaro litsenziyalash;

- xalqaro korporatsiyalar faoliyatini shakl bo‘yicha diversifikatsiyalash (15 ga yaqin). Tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar, kapital, texnologiyalar va bilimlar harakatining gibrid yoki murakkab shakllarda diversifikatsiyalashuvi eng samarali hisoblanadi. “Liksfreksding” - litsenziya almashinuvi, franchayzing, tovarlar eksport qilish va TTXIning murakkab kombinatsiyasi jahon amaliyotida tobora keng tarqalmoqda. Moddiy bo‘lmagan ishlab chiqarish sohasida tashqi iqtisodiy faoliyatning muayyan turlari (moliyalash, sotish, boshqarish, sug‘urta) bo‘yicha ixtisoslashishga nisbatan aniq tendensiya mavjud;

- turli milliy va xalqaro markazlarga tegishli TMKlarning “o‘zaro hamkorligi” va strategik tizimlar, oilalar, ittifoqlar, birlashish va sotib olish shaklida o‘zaro aloqalarini mustahkamlash.

TMKlarning o‘rni hozirgi vaqtda ishchi kuchi va xomashyoning ko‘pligi bilan emas, balki inson kapitalining sifati, innovatsion faoliyati, ta’lim darajasi va bilimlardan amaliy foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ilmiy tadqiqotlarga xarajatlar bo‘yicha Shvetsiya yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o‘rinlarni Finlyandiya, AQSh, Yaponiya, Daniya va Germaniya egallagan. Umuman, eng yaxshi besh mamlakat – AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya ilmiy tadqiqotlarga ko‘proq dunyodagi barcha boshqa mamlakatlarga nisbatan pul sarflaydi va bu guruhda AQShning ulushi 50% dan oshadi.

Ilmiy-texnika sohasidagi globallashtirishning zamonaviy jarayonlari tadqiqot va rivojlanishning mazmuni va yo‘nalishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Tabiatan baynalmilal bo‘lgan fundamental fan, nihoyat, davlatlararo to‘siqlarni yengib o‘tib, dunyo taraqqiyotini bashorat qilib, koinot sirlariga va insoniyatning o‘z-o‘zini bilishiga kirib borishning umumiy tsivilizatsion vositasiga aylanadi. Eng rivojlangan va yangi rivojlangan mamlakatlarda xorijiy tadqiqotlarni moliyalashtirish o‘z-o‘ziga borayotgan mutanosib yangilik sohasida TMKlarning tadqiqot bo‘limlarini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. O‘rtacha rivojlangan

mamlakatlarda, tadqiqot va rivojlantirish uchun xorijiy moliyalashtirish ulushi taxminan 10% edi.

TMKlar o'z mamlakatlarida tashkil etilgan o'z ishlab chiqarish ob'ektlari ehtiyojlarini qondirish uchun, birinchi navbatda, xorijiy tadqiqot bo'linmalarini ochishga harakat qiladi. So'nggi paytlarda ko'proq xorijiy bo'linmalar faoliyati global tadqiqot salohiyatidan foydalanishga, jumladan, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlarni jalb etishga qaratilgan.

## **9.6. O'zbekistonda transmilliy korporatsiyalar faoliyati va moliya-sanoat guruhlarini tuzish istiqbollari**

XX asrning 90-yillariga kelib, aksariyat mamlakatlarda yirik moliya-sanoat guruhleri shakllantirildi. Hozirgi kunda ular o'zida turli sohalar sanoat korxonalarini, jumladan, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, energetika va boshqalarni birlashtirgan tarzda murakkab tuzilmalar shaklida faoliyat yuritadi. Moliya-sanoat guruhleri o'zida yirik miqdordagi kapitalni to'plagan holda, yanada diversifikatsiyalashga imkon beruvchi istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarida faoliyat yuritadi. Ta'kidlash joizki, moliya-sanoat guruhleri ishtirokchilarning haqiqiy imkoniyatlari va manfaatlarining umumiyligi asosida tashkil etilishi kerak.

Zamonaviy moliya-sanoat tuzilmalari, shubhasiz, mamlakatda va jahonda yirik iqtisodiy va moliyaviy markazga aylanishi mumkin. Ularning milliy va jahon iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi yangi iqtisodiy hududlarning tashkil topishida, milliy va jahon moliya bozorlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Yirik moliya-sanoat guruhlarining savdo aylanmasi dunyoning ko'plab mamlakatlari YaIM hajmidan oshib ketadi. Dunyodagi ikki yuzta yirik transmilliy kompaniyalarning umumiy savdo aylanmasi AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, XRR, Braziliya, Kanada, Ispaniyadan tashqari barcha mamlakatlarning YaIM hajmidan ortiqdir. So'nggi 25 yilda ushbu ko'rsatkich, mazkur tuzilmalardagi ishchilar soni 14,4% ga oshgani holda, deyarli 4 marta ko'paygan<sup>178</sup>.

Moliya-sanoat guruhleri milliy iqtisodiyot tarmoqlari doirasida ishlab chiqarish resurslarini to'plash, ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy hamda texnologik sharoitlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sanoatning yuqori o'sish sur'atlariga erishgan ko'pgina mamlakatlarda (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Italiya, Janubiy Koreya va boshqalar) moliya-sanoat guruhleri milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish

---

<sup>178</sup> Федорович В.О. Крупные корпоративные образования: концентрация факторов производства и экономический рост //Аваль. Сибирская финансовая школа. – 2005. – №1. – С. 87.

va butun iqtisodiyotda jadallashtirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan muhim omil sifatida qaraladi.

Moliya-sanoat guruhlarining milliy va jahon iqtisodiyoti uchun muhimligi ular shakllanishi va faoliyat yuritishi jarayonlarining tegishli ilmiy tahlilini talab etadi. Kapital va ishlab chiqarishning keng ko'lamda bir joyga to'planishi asosida yuzaga keluvchi birlashgan korporativ tuzilmalar bugungi kunda milliy va jahon iqtisodiyotining muhim sub'ektlari bo'lib hisoblanadi.

## 9.8-jadval

### Moliya-sanoat guruhlarining jahon moliya muassasalari umumiy aktivlaridagi ulushi<sup>179</sup>

№	Moliyaviy muassasalar	2006 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	Banklar	26	25	25	26	25	26
2	Investitsiya fondlari	21	22	22	23	22	23
3	Moliya-sanoat guruhlari	19	20	20	21	20	21
4	Pensiya fondlari	10	9	11	10	12	13
5	Sug'urta kompaniyalari	7	10	12	11	9	9
6	Boshqalar	17	14	10	9	12	8
<b>Jami</b>		<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Jahon amaliyotida moliya institutlariga investitsiya fondlari, moliyaviy konglomeratlar, pensiya fondlari, investitsiya paychilari, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari va boshqa tashkilotlar kiradi. Quyidagi jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, moliya-sanoat guruhlarining jahon moliya muassasalari umumiy aktivlaridagi ulushi 2006 yilda 19 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2015 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 21 foizni tashkil qilgan holda 2 foizli punktga oshgan. Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, moliya-sanoat guruhlari aktivlari salmog'iga ko'ra banklar va investitsiya fondlari aktivlaridan keyingi o'rinni egallagan. Mazkur holat, jahondagi moliya muassasalari tarkibida moliya-sanoat guruhlari faoliyatining sezilarli darajada rivojlanganligi va pirovardida ular aktivlari hajmining oshganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, jahon iqtisodiyotida moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining quyidagi modellari keng tarqalgan, ya'ni: anglo-amerika, germaniya, lotin va yapon.

Anglo-amerika modeli, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya va Kanada mamlakatlarida amal qiladi. Ushbu mamlakatlarda sanoatlashtirishning negizi bo'lib tadbirkorlik asosida kapital to'plash mexanizmi hisoblanadi.

<sup>179</sup> Ataniyazov J. X. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish modellari va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №3, iyun, 2017 yil.

Kapital institutsional aksiyadorlarning (banklar, sugʻurta kompaniyalari va pensiya fondlari) mablagʻlari hisobidan shakllanib alohida va mustaqil aksiyadorlar mexanizmi orqali faoliyat yuritadi.

Moliya-sanoat guruhleri rivojlanishining anglo-amerika modeliga xos boʻlgan yana bitta xususiyatli tomon – ulardagi aksionerlik kapitalining birmuncha tarqoqligidir. Ushbu mamlakatlardagi moliya-sanoat guruhleri korporativ kapitalning unchalik katta boʻlmagan qismiga ega boʻlgan koʻp sonli mulkdorlarga ega.

Germaniya modeli Germaniya va Avstriyada amal qilib, yirik hamda oʻrtacha korporatsiyalarning moliyaviy asosini bank tizimi tashkil qiladi, bunda alohida aksiyadorlarning roli unchalik ahamiyatli emas. Germaniya modelining bank mexanizmi korporativ munosabatlar tuzilmasida moliya va sanoat tarmoqlari oʻrtasidagi uzoq muddatli investitsiya munosabatlariga yoʻnaltirilgan. Ushbu modelda banklar tashqi moliyalash manbalariga ehtiyoj sezayotgan kompaniyalar uchun qarz kapitalini yetkazib beruvchi hisoblanadilar.

Germaniyada yirik banklar koʻplab yuqori integrallashgan nemis korporatsiyalari kapitalining katta qismiga egalik qiladi. Jumladan, Germaniyaning yirik banklaridan hisoblangan «Doyche bank» yetakchi milliy korxonalarining «Daymler-Bens» (28,34%), «Filipp Xolzman» (30%), «Karlstadt» (25,08%) aksiyalariga egalik qiladi. Mazkur banklar faqatgina ularning innovatsion rivojlanishidagi ehtiyojlarini moliyalashtirib qolmasdan, balki bankning moliyaviy barqarorligini ham oshirib boradi<sup>180</sup>.

Germaniya moliya-sanoat guruhlarining muvofiqligi birdaniga bir nechta mexanizmlarni taʼminlaydi. Birinchidan, bir vaqtning oʻzida mazkur guruhga kiruvchi turli kompaniya va firmalarning boshqarma aʼzosi boʻlib hisoblangan mansabdor shaxslarning nisbatan kichik doirasini mavjudligi; ikkinchidan, moliya-sanoat guruhiga kiruvchi moliya-kredit institutlari muvofiqlashtiruvchi rolni bajarishi (bugungi kunda ularga mamlakatdagi 25 ta yirik sanoat korxonalarining 30% aksiyasi tegishlidir)<sup>181</sup>; uchinchidan, guruhlar ichidagi integratsiya, shuningdek, oʻzaro kesishgan aksiyalashtirishga (kapitalda ishtirok etish) xizmat qilishi.

Germaniya anʼanalarining muhim xususiyati bank bilan sanoatning oʻzaro uzviy aloqalari bilan belgilanadi. Moliyaviy, aksiyadorlik, shuningdek, ish aloqalari asosida moliya institutlari bilan sanoat korxonalarining tarmoqlararo integratsiyasida barqaror gorizontol moliya-sanoat birlashmalari sodir boʻladi. Oʻz navbatida, konsernning bir muncha barqaror negizi atrofida koʻpgina yirik va oʻrta

---

<sup>180</sup> Бабаева Н.М. Пути повышения эффективности участия банков в деятельности высокоинтегрированных корпоративных структур: автореф. дис...канд. эконом. наук. – Ташкент, 2010.– С. 8.

<sup>181</sup> Mirzayev F.I. Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. –Т.: «Moliya», 2008. –197 b.

kompaniyalar guruhlanadi. O'rta hisobda guruhlarning bosh xoldingi aksiyalarga egalik qiladi va taxminan 150 kompaniya faoliyatini nazorat qiladi. Banklar nafaqat investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, balki korxonalarni boshqarishda ham ishtirok etishini qabul qilishadi. Shuning uchun ham, Germaniyada moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning markazi mavjud bo'lib, odatda, bu vazifani yirik banklar bajarishadi. Uchta yetakchi moliya-sanoat guruhlari boshida turuvchi yirik banklar bo'lib, "Doyche Bank" AG, "Drezdner Bank" AG va "Kommersbank" AG hisoblanadi. Ularga mamlakat aksiyadorlik kapitalining mos ravishda 1/3, 1/4 va 1/8 qismi to'g'ri keladi<sup>182</sup>.

Lotin modeli esa, Fransiya, Belgiya va Italiya mamlakatlarida amal qiladi. Bu modelda yakka tartibdagi va oilaviy korporatsiyalar investitsiya kompaniyalari va investitsiya banklari xoldinglari tomonidan birlashtirilishi natijasida erkin korporativ tarmoqlar shaklida yuzaga kelgan. Kapitalning qarama-qarshi munosabatlari iqtisodiy aloqalarning murakkab tarmoqlarini yuzaga keltirdi. Ushbu tarmoqlarda davlat korxonalarining roli tobora oshib bormoqda.

Yapon modeli esa, investitsiyalarni sanoatga uzoq muddatga yo'naltirilganligi, moliya va sanoat tarmoqlari o'rtasida yaqin aloqalarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Mazkur modelning o'ziga xos xususiyati guruhlashish tendensiyasidir. Xo'jalik birliklari korporativ guruhlarini tashkil etgan holda aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish mexanizmi orqali bir-biri bilan yaqin aloqa o'rnatgan. Har bir guruhning kapitalni to'plash mexanizmi guruh banki yordamida amalga oshiriladi.

Yapon moliya-sanoat guruhlarining muhim xususiyati – bosh bankdan moliyalashtirishdir. Guruh ichidagi bitimlar bosh savdo kompaniyasi orqali amalga oshiriladi, bu savdo kompaniyasi guruh a'zolari bo'lgan kompaniyalar ishlab chiqargan mahsulotlarni sotadi va xomashyolarni sotib oladi.

Yaponiyaning 49 ta kompaniyasi kapitallashuv darajasi bo'yicha dunyoning yirik 500 ta kompaniyalari ro'yxatiga kiritilgan. Quyidagi 9.9-jadvalda ulardan eng yiriklari keltirilgan. Hozirda Yaponiyaning yirik moliya-sanoat guruhlaridan biri moliyaviy markazi yirik yapon banki Mitsubisi YuFJ Faynenshl Grupp bo'lgan Mitsubisi guruhi hisoblanadi. Guruhning tarkibiga 29 ta kompaniya kiradi, dunyoda o'z o'rniga ega bo'lgan Mitsubisi Xevi Industriz, Mitsubisi Motors Korporeyshn, Nikon Korporeyshn, Kirin Brevery Ko. kabilar mavjud. Mitsui Sumitomo guruhida, Sumitomo Mitsui Banking Korporeyshn uning asosini tashkil etadi. Jumladan, uning tarkibiga Sumitomo Xevi Industriz, Sumitomo NYeK Korporeyshn, Sumitomo Mitsui Konstrakshn Ko. kabi kompaniyalar kiradi.

---

<sup>182</sup> Цветков В.А. Финансово-промышленные группы в современном мире // Промышленная политика в РФ. №6, 2000. - С. 36-47.

Yaponiyada moliya-sanoat guruhlari o'zagini banklar va bosh savdo kompaniyalari tashkil etadilar. Yapon moliya-sanoat guruhlarida barcha a'zolar tomonidan ta'sis etilgan kompaniyalar mavjud. Masalan, xorijdagi neft manbalarini rivojlantirish uchun, axborot texnologiyalari bilan bog'liq masalalarni yechish uchun, kosmik aloqalar uchun tuzilgan kompaniyalar. Guruh qatnashchilari umumiy axborot manbaidan foydalanadilar.

Yaponiya banklari faqatgina kredit berish bilan cheklanib qolmasdan moliya-sanoat guruhlarini moliyalashtirish va o'zaro hamkorlik uchrashuvlarini tashkil etish faoliyatini ham bajaradi. Shuningdek, bank o'z mijozlariga o'zaro hamkorlik qilishi uchun sheriklar topishda hamda biznes xizmatlar ko'rsatishda yordamlashadi. Guruhga kiruvchi kompaniyalar faoliyati barqaror bo'lgan sharoitda bosh bank uning faoliyatiga aralashmaydi. Mabodo kompaniyaning moliyaviy holati yomonlashsa, bosh bank riskli operatsiyalarni kamaytiradi hamda bu holatni yaxshilashga yordam beradi.

### 9.9-jadval

#### Yaponiyada yetakchi korporatsiyalarning kapitallashuvi (2015 yil holatiga ko'ra)

Kompaniyalar	Mlrd.doll.	Kompaniyalar	Mlrd.doll.
Toyota Motor	168,0	Denso	38,1
Nippon Telegraph & Telephone	90,3	Canon	33,0
NTT DoCoMo	80,0	Sony	31,1
Mitsubishi UFJ Financial Group	67,6	Mitsubishi Estate	28,7
Japan Tobacco	67,0	Fanuc	28,0
KDDI	64,8	Hitachi	27,4
Softbank	60,0	Mitsubishi	26,3
Honda Motor	57,5	Panasonic	23,5
Sumitomo Mitsui Financial Group	52,0	Mitsubishi Electric	21,5
Mizuho Financial Group	50,2	Mitsui	21,3
Nissan Motor	44,0	Nintendo	16,3
Takeda Pharmaceuticals	39,7	Komatsu	15,4
Seven& I Holding	38,2	Inpex	14,3

Jahon amaliyotida, moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish bir nechta yo'llar orqali amalga oshiriladi: ishtirokchilarning tashabbusiga ko'ra, davlat organlarining qarorlari bo'yicha hamda hukumatlararo bitimlarga ko'ra. Barcha iqtisodiy-huquqiy vakolatlar hamda tegishli yuridik va xo'jalik majburiyatlari bilan yangidan tashkil etilgan tashkiliy tuzilmani o'zida ifodalovchi aksionerlik jamiyatini tuzish va alohida ishtirokchilarning kapitallarini ixtiyoriy birlashtirish birmuncha keng tarqalgan usul hisoblanadi. Ikkinchi usul, tashkil etilayotgan



moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari o'zlarining aksiya paketlarini guruh ishtirokchilaridan biriga, odatda, bank yoki moliya-kredit institutiga ixtiyoriy ravishda boshqarishga berishi hisoblanadi. Uchinchi usul esa guruh ishtirokchilaridan biri boshqa korxonalar va tashkilotlarning aksiya paketlarini egallashidan iborat bo'lib, buning natijasida moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari shakllanadi. Aksiya paketlarining bunday egallanishi har doim ham ixtiyoriylik xususiyatiga ega bo'lmaydi. Biror kompaniyaning boshqasiga qo'shilishi va singishi jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda, davlatga tegishli bo'lgan aksiyalar paketlari, davlatga tegishli bo'lgan aksiyalar paketlarini vakolatli boshqarishga berilishi yoki ularning sotib olinishi orqali moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishga olib kelganda ularning miqdori monopoliyaga qarshi qonunchilik talablarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasida moliya-sanoat guruhlarini faoliyatini tashkil qilishda quyidagi modellardan foydalanish mumkin:

- Yaponiya modeli;
- Germaniya modeli.

Ushbu ikki modelning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda moliya-sanoat guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasini asosan banklar bajaradi.

Xalqaro amaliyotda bir qator mamlakatlarda tijorat banklari ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish amaliyoti keng tarqalgan bo'lib, ular samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Odatda, tijorat banklari ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlarini a'zolari o'rtasida moliyaviy resurslarning samarali qayta taqsimlanishi va faoliyat yuritish mexanizmi qulayligi tufayli keng tarqalgandir. Mamlakatimizda ham tijorat banklari tashabbuskorligi va faol ishtirokida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Banklar ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlarini markazida moliya-kredit tashkilotlari, aksariyat hollarda yirik tijorat banki boshchiligidagi bank xoldingi birlashmasi turadi. Odatda, ular tarkibiga investitsion kompaniyalar, sanoat korxonalarini, savdo kompaniyalarini, trust va moliya kompaniyalarini, reklama va konsalting, sug'urta firmalarini kiradi.

Xorijiy mamlakatlarda banklar moliya-sanoat tuzilmalarining markaziy organi hisoblanadi. Bank ma'lum korxonalar doirasida faoliyat yuritishi bilan birgalikda ularning moliyaviy holati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Biror muammo yuzaga keladigan bo'lsa, u zarur bo'lgan choralarni qabul qiladi. Chunki ishlab chiqarish jarayonining natijasi uning shaxsiy iqtisodiy manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moliya-sanoat guruhi ishtirokchisi bo'lgan korxonaning moliyaviy holati yomonlashganda, bank moliyaviy sog'lomlashtirishda faol

qatnashadi, ma'lum bir pul oqimlarini va tuzilmaviy o'zgartirishlarni o'tkazishda bankdan barqaror moliyaviy holat talab etiladi.

Tijorat banklarining integratsiyalashgan tuzilmalar tarkibida ishtirok etishi natijasida faoliyat ko'lamini kengaytirish, sanoat bilan mustahkam munosabatlarni o'rnatish, o'zaro foydali investitsion loyihalarni hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish hamda investitsion siyosatni samarali yuritishda qulay imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, mazkur tuzilmalar doirasida investitsion siyosat yuritish tijorat banklariga qator qulayliklar tug'diradi. Bular jumlasiga, ishonchli mijozlarning mavjudligi, ular moliyaviy holatini doimiy tahlil qilish imkoniyati, investitsion loyihalar bo'yicha tizimli nazoratning yo'lga qo'yilishi, investitsion jarayonlarni prognozlashni yaxshilash hisobiga bank raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarning ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish, yuqori ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsion loyihalarni ishlab chiqish darajasini oshirish va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, moliya-sanoat guruhlarining shakllantirilishi va faoliyat yuritishi orqali, birinchidan, bank kapitalini sanoatga yo'naltirish muammosi hal etiladi; ikkinchidan, butun bank tizimiga bo'lgan ishonch ortadi va uning tuzilmasi takomillashadi; uchinchidan, moliya-sanoat guruhleri o'rtasida yangi yirik tashkilotlarni jalb etish uchun, banklar o'rtasida esa guruhning eng foydali ishtirokchilariga xizmat ko'rsatish bo'yicha raqobatlashuv jarayoni kuchayadi.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslash jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

1. Iqtisodiyotda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning loyihasini ishlab chiqish va mavjud imkoniyatlarni tahlil etish.

2. Moliya-sanoat guruhlarini yuqori ilmiy sig'imga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish hamda ular faoliyatini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini hisobga olish.

3. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularga bo'lgan talabni o'rganish.

4. Moliya-sanoat guruhleri faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni baholash.

5. Moliya-sanoat guruhleri faoliyatini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish korxonalarining vertikal integratsiyasi orqali xoldinglar shaklidagi moliya-sanoat korporativ tuzilmalarini shakllantirish va ular faoliyatiga tijorat banklarining investitsiyalarini yo'naltirish amaliyotini rivojlantirish lozim. Mazkur korporativ tuzilmalarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo korxonalarining integratsiyasini ta'minlash, shuningdek,

tuzilma tarkibiga boshqa korxonalarni shartnoma asosida jalb etish tizimini yaratish lozim.

Integratsiyalashgan tuzilma tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy kompaniya faoliyatida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor berish lozim deb hisoblaymiz:

- strategik rivojlanish va marketing faoliyatini tashkil etish;
- ishlab chiqarishga innovatsiyalarni tatbiq etish va istiqbolli loyihalarga investitsiyalarni jalb etish;
- faoliyat natijalarini iqtisodiy tahlil etish va istiqbolni prognozlashtirish;
- aksionerlar bilan korporativ munosabatlarni samarali tashkil etish va boshqarish;

– tuzilma doirasida yagona ilmiy-texnikaviy va investitsiyaviy siyosatni shakllantirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish jarayonini iqtisodiyotning istiqboldagi tadrijiy o‘sishi va modernizatsiyalashning umumiy dasturlari doirasida amalga oshirish mumkin.

Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish strategiyasi respublikadagi mavjud iqtisodiy jarayonlarga, ta‘minot va sotuv bozorlari tahliliga, umumdavlat ustuvor yo‘nalishlariga, mamlakat ichidagi va boshqa mintaqalardagi korxonalarining murakkablashgan aloqalariga asoslanishi kerak. Mazkur strategiya antimonopol siyosat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi boshqa dasturlarni amalga oshirish bilan o‘zaro moslashishi lozim. Xorijiy moliya-sanoat guruhlarini tajribasiga tayangan holda alohida guruhlarining muayyan faoliyat bo‘yicha ixtisoslashuviga erishish lozim, bu holat tayyor mahsulotlar sifatini oshirish hamda texnologiyalarni takomillashtirish jarayonida muhim o‘rin tutgan holda sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatining jadal rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatimizda moliya-sanoat tuzilmalarini shakllantirishda quyidagilarga alohida ahamiyat berish lozim:

– moliya-sanoat kapitali integratsiyasini ta‘minlash orqali yuqori darajada integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish va ularda zamonaviy texnologiyalar asosida eksportga yo‘naltirilgan yuqori ilmiy sig‘imli mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish lozim;

– tijorat banklari tomonidan korxonalarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish orqali ularning ustav kapitaliga yo‘naltirilgan qo‘yilmalarni oshirish asosida banklar va korxonalar o‘rtasida kapital integratsiyasini kuchaytirish lozim;

– integratsiyalashgan moliya-sanoat korporativ tuzilmalarda tijorat banklarining ishtirokini ta‘minlash va ulardagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishni inobatga olgan holda, qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi hisobiga ularning kapitallashtirish darajasini oshirish va investitsiya faoliyatini kengaytirish;

– kapitallashuv darajasi yuqori bo‘lgan tijorat banklari hamda ularning sanoat tarmoqlaridagi yirik mijozlari bilan ushbu tijorat banklari yetakchiligida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish va ularda yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

– iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarda, investitsiya dasturlarini amalga oshirishda, birinchi galda iqtisodiyotning real tarmoqlariga investitsiya kiritish uchun mablag‘lar jalb etishda tijorat banklarining faol ishtirokini rivojlantirish;

– qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni transportirovka qilish, savdo va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan hamda o‘z ichiga zamonaviy yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarish, savdo va servis xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarini qamrab olgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish;

– qayta ishlab chiqarish sanoatidagi korxonalar va moliyaviy institutlar integratsiyasi asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, mahsulotlar sotuvchi, xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi yuqori integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish va uning doirasida yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli loyihalarni amalga oshirish lozim.

Moliya-sanoat guruhlarini faoliyat yuritishining jahon tajribasini o‘rganish asosida shuni aytish mumkinki, ular sanoatni modernizatsiyalash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishning ta’sirchan instrumenti bo‘lib xizmat qiladi. Sanoat korxonalarini, moliyaviy va tijorat tuzilmalari bilan birlashishi mamlakat iqtisodiyoti real sektorining tiklanishi va taraqqiy etishiga yordam beradi. Mamlakatimizda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish ishlab chiqarish sur‘atlarini o‘sishiga, bank-moliya tizimini yanada rivojlanishiga hamda pirovard natijada aholi turmush farovonligini oshishiga xizmat qiladi.

## **IX bob bo‘yicha qisqacha xulosalar**

Biznesni baynalmilallashtirishning zamonaviy tendensiyalarida ko‘p millatli kompaniyalarda ishlab chiqarish va kapitalning yetakchi pozitsiyalarini transmilliylashtirish, nafaqat xalqaro miqyosda, balki kapital, transmilliy korporatsiya (TMK)lar va transmilliy bank (TMB)lar miqyosida ham amalga oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deyilganda jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi yirik kompaniyalar tushuniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- yillik sotish hajmi 1 mlrd. dollardan kam bo‘lmasligi;

- umumiy moliyaviy aylanma mablag'larining beshdan bir qismidan uchdan bir qismigacha xorijdagi operatsiyalar ulushiga to'g'ri kelishi;

- xorijdagi aktivlar ulushi 25% dan kam bo'lmashligi;

- kamida oltita mamlakatda filiallarga ega bo'lishligi.

TMKlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa kompaniyalardan farqlanadi:

- xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchilari ekanligi;

- xalqaro ishlab chiqarish majmualarini yaratib, qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi;

- global ishlab chiqarish kuchlari va resurslaridan foydalanish;

- ommaviy iste'molchilar uchun ishlashi;

- kapitalni bazaviy mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirilishi;

- yuqori texnologiyali va fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarda faoliyat olib borishi. Ushbu tarmoqlar rivojlanishi katta hajmdagi kapital qo'yilmalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi.

Xalqaro korporatsiya yirik korporatsiya tashkiliy tuzilishining bir shakli bo'lib, jahonning turli mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshiradi.

Xalqaro korporatsiyaning ikkita asosiy turi mavjud:

- transmilliy korporatsiya (TMK) (transnational corporations) – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli. Filiallari esa dunyoning ko'pgina mamlakatlariga tarqalgan.

- Ko'pmillatli korporatsiya (multinational corporations) bosh kompaniya ikki yoki undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli, filiallari esa turli davlatlarda joylashgan.

TMKlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1) Xalqaro firmalararo kooperatsiya.

2) Strategik alyanslar – jahon bozoridagi global masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq.

3) Strategik oilalar – o'zaro raqobatda bo'lgan korporatsiyalarning bir-birini to'ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi.

4) Strategik tizimlar - turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) ko'p sonli korxonalarining uzoq muddat hamkorlik qilish sharti bilan kooperatsion birlashmasi.

5) Xalqaro qo'shilib va yutilib ketishlar.

6) TMKlarning xalqaro chatishib ketishi deganda korporatsiyalarning bir-birlarining qimmatbaho qog'ozlariga ega bo'lib, ularni sherikchilik asosida boshqarishi tushuniladi.

## **Tayanch iboralar**

Transmilliy korporatsiyalar, ko'pmillatli korporatsiya, transmilliylashuv indeksi, eksportyor mamlakatlar, importyor mamlakatlar, kapital ekspansiyasi, investitsiya, xalqaro korporatsiyalar, xalqaro kapital migratsiyasi, strategik alyanslar, strategik tizimlar, kapital importi koeffitsiyenti, kapital eksporti koeffitsiyenti.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Transmilliy korporatsiyalar turlari va ularning xalqaro kapitalni taqsimlash bo'yicha xususiyatlarini tushuntiring.
2. Transmilliy korporatsiya (TMK) larning mohiyatini tushuntiring va ularni mamlakatlar iqtisodiyoti samaradorlik holatini izohlang.
3. Ko'pmillatli korporatsiyalarning maqsad va vazifalarini tushuntiring.
4. TMKlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari qanday shakllarda namoyon bo'ladi?
5. Strategik alyanslar yaratishdan maqsad nima?
6. Kapital migratsiyasining asosiy sabablari nimalardan iborat?
7. Xorijiy investitsiyalar butunjahon iqtisodiyotiga va xalqaro biznesga qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning eng muhim sabablari nimalardan iborat?
9. Iqtisodiy adabiyotda xalqaro kapital migratsiyasining mohiyatini ochib beruvchi qanday yondashuvlar mavjud?
10. Xalqaro korporatsiyalar tomonidan raqobat afzalliklarini qo'lga kiritish usullarini tushuntiring.
11. TMKlar qanday xususiyatlari bilan boshqa kompaniyalardan farqlanadi?
12. Transmilliylashuv indeksining qanday turlari mavjud?
13. TMKlar qanday sabablarga ko'ra bevosita investitsiyalarni amalga oshiradilar?
14. Kapitallashuv darajasini baholashning iqtisodiy mezonlaridan tashqari kompaniyani TMK sifatida tasniflashning qanday mezonlari mavjud?

## **X BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALASHUVI SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI**

### **10.1. Milliy xavfsizlik tushunchasining mohiyati, turlari va ularning guruhlanishi**

Xavfsizlik muammosi mustaqil davlatchilikning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarning qaror topishi bilan bir paytda vujudga keladi. Rober ma'lumotnomasiga ko'ra, "xavfsizlik" tushunchasi 1190 yilda paydo bo'ldi. Bu tushuncha o'zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holatini ifodalagan<sup>183</sup>. Mazkur termin G'arbiy Yevropa xalqlarida XVII asrgacha ushbu ma'noda qo'llangan. Tarixning keyingi davrlarida davlat tuzilmalarining shakllanishi bilan bog'liq ravishda xavfsizlik tushunchasi moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarida davlat qurilishi, boshqarish organlari tendensiyalariga mos keladigan real xavf-xatar (jismoniy va ma'naviy)ning yo'qligi natijasida vujudga keladigan tinchlik holati ma'nosini anglatgan<sup>184</sup>.

XX asrning oxirlariga kelib, «xavfsizlik» va «milliy xavfsizlik» tushunchalari bizning leksikonimizda tez-tez qo'llanila boshladi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg'in qurollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatdagi xatar yatlarning og'irligi, yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum yemirilganidan keyin davlatlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o'zgarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.

"Xavfsizlik" tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, turli ma'nolarda talqin etiladi. Shunga qaramasdan, ularda umumiy g'oya ham mavjud bo'lib, bunga ko'ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalalanish, kafolatlanish ma'nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavf-xatar namoyon bo'lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmalar, portlashlar va larzalar, krizislar, tangliklar, revolyutsiya, qo'zg'olon, isyon, urush, qurolli to'qnashuvlar kiradi.

Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo'lmasin ularning barchasi umumiylik xususiyatiga egadir. Umuman, xavfsizlik xavf-

---

<sup>183</sup> Основы экономической безопасности. – М., 1996. С.3.

<sup>184</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: изд-во РАГС, 2001.- с.8.

xatardan himoyalash sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat hayot-faoliyatining normal amal qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuningdek, u hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan, milliy manfaatlarni himoya qilish va ro'yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi sifatida ham talqin etiladi<sup>185</sup>.

“Xavfsizlik” tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, o'zining ob'ektlari va sub'ektlari nuqtai nazaridan turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ammo hozirgi davrda bu tushunchaning umumlashgan shakli milliy xavfsizlik deb ataladi.

Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli hisoblanadi. Shuningdek, u mamlakat milliy manfaat ehtiyojlarining namoyon bo'lish shakli hamdir. Boshqacha aytganda, manfaat ehtiyojlarini qondirish va moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi tasavvurlarning jamini ifodalaydi.

Milliy xavfsizlik fuqarolar, ya'ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shaxs, fuqaro manfaatlari o'z ichiga ularning konstitutsion huquq va erkinliklari, yashash xavfsizligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, jismoniy, ma'naviy, intellektual rivojlanishini ko'rsatadi.

Jamiyat manfaatlari demokratiyani mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlash, aholining yaratuvchanlik faoliyatini oshirish va uning barcha ijtimoiy va etnik guruhlarining ma'naviy rivojlanishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Davlat manfaatlari esa konstitutsion tuzum, mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitlikni himoya qilish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirish, qonunlarning so'zsiz amal qilishini ta'minlash, huquq-tartibotni qo'llab-quvvatlash va teng sheriklik asosida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Ushbu manfaatlar bir-birlari bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ular jamiyat a'zolarining mustaqilligini ta'minlash, xalq farovonligi va turmush darajasini oshirish, uning madaniyati ma'naviy qadriyatlarini saqlashga bo'lgan intilishlarini ifodalaydi. Shu boisdan har qanday mamlakat manfaatlari uchta muhim maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi:

- xalq farovonligini oshirish;
- mamlakat hayot faoliyati va hududini himoya qilish hamda obod etish;
- milliy madaniyatni rivojlantirish<sup>186</sup>.

Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy, informatsion va boshqa omillar hamda tahdidlardan

<sup>185</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАГС, 2001. с.7.

<sup>186</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: изд-во РАГС, 2001.- с. 29.



himoya qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu boisdan milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lib, siyosiy, harbiy-mudofaa, g'oyaviy, iqtisodiy, ekologik, informatsion xavfsizliklarni o'z ichiga oladi.

Siyosiy xavfsizlik mamlakatning milliy davlat tuzilishini, konstitutsion tuzumni himoya qilishga yo'naltiriladi. Harbiy-mudofaa xavfsizligi mamlakat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan. G'oyaviy, mafkuraviy xavfsizlik hozirgi davrda dolzarb ahamiyat kasb etib, u har qanday jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Chunki mafkura mavjud bo'lmasa, har qanday jamiyat o'z tanlagan yo'lini yo'qotishi mumkin, qayerda mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishga intiladi.

Ekologik xavfsizlik tabiat va insonning o'zaro munosabatlaridagi muayyan qonuniyatlarning buzilishi oqibatida yuzaga keladigan ekologik falokatlarning oldini olishga qaratilgan. Bu xavf-xatar, falokatlar insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmasdan, tabiiy va mineral xomashyo zahiralardan vahshiylarcha, ekstensiv usulda, katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslanib, xo'jalik faoliyatini yuritish oqibatida yuzaga keladi.

Iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishga qodirligini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Axborot xavfsizligi yuqorida ko'rib o'tilgan milliy xavfsizlikning barcha shakllarini, ayniqsa, g'oyaviy, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, "milliy xavfsizlik" tushunchasi ko'p qirrali va xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ammo shunga qaramay, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- birinchidan, milliy xavfsizlik aniq tarixiy mazmunga ega, ya'ni jamiyatga qaysi sohalarda va qanday darajada tahdidlarning vujudga kelayotganligini aniqlashga qaratilgan aniq holatlardagi tahlillarni talab qiladi.

- ikkinchidan, milliy xavfsizlik bir-biriga zid o'lchamlar, jamiyatga xavf soluvchi tahdidlar va ularni bartaraf etadigan ijtimoiy-iqtisodiy parametrlar hamda ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

- uchinchidan, milliy xavfsizlik muammosining ahamiyati va keskinligi jahon hamjamiyati hamda ayrim mamlakat, hudud taraqqiyotining burilish davrlarida g'oyatda oshadi.

- to'rtinchidan, milliy xavfsizlik tamoyillari va parametrlari, ko'rsatkichlari o'zgaruvchan hamda turli mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ammo shunga qaramasdan, har bir mamlakatning milliy xavfsizligi insoniyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining umumiy tendensiyalari bilan bog'liqdir.

Shuningdek, umumbashariy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar milliy xavfsizlikka ta’sir o‘tkazib turadi.

- beshinchidan, xavfsizlikka milliy davlat manfaatlari va milliy g‘oya, milliy mafkura ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

- oltinchidan, milliy xavfsizlikni ta’minlashda iqtisodiy xavfsizlik muhim o‘rin tutadi. Chunki milliy xavfsizlikni, jumladan, mamlakatning siyosiy, konstitutsion tuzumini, davlat mustaqilligini va suverenitetini saqlash, harbiy qudratini oshirish, ekologik muammolarni yumshatish va hal etish, avvalambor, mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga va qudratiga, uning iqtisodiy xavfsizligining qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq.

## **10.2. Iqtisodiy xavfsizlik, uning turlari, ko‘rsatkichlari va indikatorlari tizimi.**

### **Tashqi va ichki xavflar**

Milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uni ta’minlashning eng muhim sharti iqtisodiy xavfsizlikdir. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasida eng umumiy tarzda mamlakatning moddiy va nomoddiy, qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan iqtisodiy salohiyati aks etadi.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining mazmuni ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Bir guruh olimlar ushbu tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyati, davlat siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo‘lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining holati sifatida ta’riflaydilar<sup>187</sup>.

Ikkinchi guruh olimlar mazkur tushunchani xalqning mustaqil ravishda tashqi kuchlarning aralashuvisiz va tazyiqisiz iqtisodiy taraqqiyot yo‘li va shakllarini o‘zi belgilab olishiga imkon beradigan holat sifatida tavsiflaydi<sup>188</sup>.

Uchinchi guruh olimlar “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarini samarali qondirishga qodirligi deb ta’riflaydi<sup>189</sup>.

To‘rtinchi guruh olimlar esa mazkur tushunchani iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining muhim sharti, bu sohada shaxs, jamiyat va davlatning eng muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalaniishi deb tavsiflashadi. Ularning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash – shaxs, jamiyat va davlat mavjudligi va ularning izchil rivojlanishiga imkon yaratadigan talab-ehtiyojlarning qondirilishi demakdir<sup>190</sup>.

<sup>187</sup> Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. – М.: ЗАО «Финстатинформ», 1998, - С.12

<sup>188</sup> Жандаров А.М., Петров А.А. Экономическая безопасность России: определение гипотезы, расчёты// Безопасность, 1994, №3, -С. 8.

<sup>189</sup> Архипов А., Городецкий А., Михайлов Б. Экономическая безопасность: оценки, проблемы, способы обеспечения// Вопросы экономики. 1994, №12, Экономика, 2003, №4.


<sup>190</sup> Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности// Общество и экономика, №4, 2003.

Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uch elementni ko'rsatib bergan:

- iqtisodiy mustaqillik. Hozirgi jahon xo'jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o'zaro bog'liq qilib qo'yadi. Bunday jarayonda iqtisodiy mustaqillik davlatning iqtisodiy resurslar ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatini, jahon savdosi, kooperatsiya aloqalari, ilmiy-texnika yutuqlarini ayirboshlashda teng ishtirok etish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ishlab chiqarish, samaradorlik va sifat darajasiga erishishni anglatadi;

- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. Bu shaklidan qati nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishi (ya'ni iqtisodiyotdagi kriminal tuzilmalarga qarshi kurash, daromadlar taqsimlanishida jiddiy farqlar, tabaqalanishning kelib chiqishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'yimaslik)ni taqozo etadi;

- o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirlik. Bu esa investitsiyalar va innovatsiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning muntazam modernizatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajalarining o'sib borishi milliy iqtisodiy barqarorlik mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi<sup>191</sup> (10.1-rasm).



**10.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik mazmuni**

Ushbu fikrlarga asoslangan holda "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi, deb ta'riflash mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli sub'ektlariga tegishli bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- alohida fuqarolar;
- xususiy tadbirkorlik, biznes;
- davlat korxonalarini;
- milliy iqtisodiyot;

<sup>191</sup> Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы// Транзитная экономика, 1998. – с.3.

- davlat.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir.

Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Turli iqtisodiy tahdidlar, noxush holatlar oqibatida ko'rilgan zararlarning o'rnini qoplash uchun zarur bo'lgan xarajatlarni prognoz qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Buning natijasida favquloddagi holatlar oqibatida ko'riladigan zararlarni qoplash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan resurslarni baholash va o'z vaqtida shakllantirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Mamlakat iqtisodiy tizimining turli darajalaridagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy xavfsizlik ob'ektlari hisoblanadi:

- makroiqtisodiy darajadagi mamlakat iqtisodiyoti;

- hududiy va tarmoq darajasidagi hudud va tarmoq iqtisodiyoti;

- oila va shaxs darajasidagi mamlakat fuqarolarining har birining iqtisodiy manfaatlari. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asosan xulosa qilib, keng ma'noda iqtisodiy xavfsizlikni milliy iqtisodiyotning samarali, dinamik o'sishiga, uning jamiyat, davlat, shaxs ehtiyojlarini qondirishning, tashqi bozorda raqobatga bardoshlilikini ta'minlovchi, turli tahdid va yo'qotishlardan kafolatlovchi ichki va tashqi sharoitlar yig'indisi deb ta'riflash mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllarini uning sub'ektlari va ob'ektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin. Iqtisodiyot sub'ektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;

- korxonalar (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi;

- davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda va mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining himoyalanganini ifodalaydi.

Korxonalar (firma)larning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonalar

(firma) ixtisosligiga ko‘ra xavfsizligini ta‘minlash xususiyatlari ham turlicha bo‘lishi tabiiydir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uning mamlakat ichki muammolari va tashqi iqtisodiy faoliyati hamda xalqaro moliyaviy tashkilot va uyushmalarda ishtirok etishi bilan bog‘liq xavf-xatarlar nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xavfsizlik xo‘jalik faoliyati sohalarida yuzaga kelishi nuqtai nazaridan asosan uch yo‘nalish, ya‘ni ishlab chiqarish-xo‘jalik, xo‘jalik-iste‘mol va moliyaviy sohalar bo‘yicha turkumlanadi<sup>192</sup>. Shu bilan birga, ushbu uch yo‘nalish barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgani bilan, ayrimlari uchun qo‘shimcha yo‘nalishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo‘jalik, xo‘jalik-iste‘mol, moliyaviy, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy sohalar bo‘yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

Ko‘rsatib o‘tilgan uch yo‘nalish barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgani bilan, ayrimlari uchun qo‘shimcha yo‘nalishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O‘zbekiston uchun xalqaro bozorlarga chiqishda yangi transport yo‘laklari, kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, aholining turmush darajasi, daromadlar bo‘yicha tabaqalanishi bilan bog‘liq ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash ham alohida o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo‘jalik, xo‘jalik-iste‘mol, moliyaviy, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy sohalar bo‘yicha turkumlash samarali hisoblanadi (10.2-rasm).

Ishlab chiqarish-xo‘jalik sohasida energetik va texnologik xavfsizlikni ta‘minlash alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda, ayniqsa, energetika resurslarining ahamiyati yuqoridir. Chunki bu resurslar har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik xomashyo hisoblanib, uning salohiyatini, mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Mamlakat iqtisodiyoti energetika xomashyo resurslarining importiga bog‘liq bo‘lib qolsa, u holda iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyati chegaralanadi. Texnologik xavfsizlikning ta‘minlanishi istiqbolda fan-texnika va texnologiya yutuqlaridan o‘z vaqtida va to‘liq foydalanish imkoniyatini, intellektual salohiyatdan iqtisodiy faoliyatda foydalanish darajasini ifodalaydi. Shu boisdan energetik va texnologik xavfsizlikning ta‘minlanishi mamlakat iqtisodiyotining salohiyatini, qudratini va mustaqilligini hamda raqobatbardoshligini ifodalaydi.

---

<sup>192</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. –М.: Изд-во РАГС, 2001.- с.39.



**10.2-rasm. Xo‘jalik faoliyati sohalaridagi iqtisodiy xavfsizlik turlari**

Texnologik xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotining ilg‘or texnika va texnologiya bilan jihozlanganligi hamda boshqa mamlakatlardan keltiriladigan texnologiyalarga qaram emasligini bildiradi. Shuningdek, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasini, intellektual, innovatsion va muhandislik salohiyatining himoyalanganligini ham aks ettiradi. Texnologik xavfsizlik mamlakat iqtisodiy qudratini aks ettirgan holda, o‘zining texnologiyasiga asoslangan, jahon bozorlarida o‘xshashi yo‘q, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda o‘z ifodasini topadi<sup>193</sup>. Uning asosiy ko‘rsatkichlari ilmtalab va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarilishida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda jahon mamlakatlari iqtisodiy xavfsizligi tarkibiy qismi hisoblangan oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Quyida iqtisodiy xavfsizlikning asosiy qismi bo‘lgan oziq-ovqat xavfsizligining o‘ziga xos jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Oziq-ovqat xavfsizligi bu – iqtisodiyotning shunday holatiki, bunda jahon bozorlari tebranishlaridan qat’i nazar, bir tomondan, ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlarga mos miqdorlarda, ikkinchi tomondan, tibbiy me‘yorlar darajasida iste‘molni qondirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash kafolatlanadi.

<sup>193</sup> Кушлин А. Мировые технологические тенденции и экономическое переустройство России// Экономист, 1998, №7.;

Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Из-во РАГА, 2001, - С. 410.

Oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning asosiy maqsadi ichki va tashqi salbiy ta'sirga bog'liq bo'lmagan holda qayta ishlovchi korxonalarni xomashyo, aholini – oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdir. U hatto valyutaning yetishmasligi, chetdan mahsulotlarni olib kirishda embargo (boshqa mamlakatlar tomonidan to'siqlar qo'yish) narxlarning o'sishiga hech bog'liq bo'lmagan bo'lishi kerak.

Oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning muhim shartlari:

- har bir inson uchun oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli bo'lishi (etarli miqdorda uning taklifi);

- aholi barcha itimoiy toifalari, shu jumladan, kam ta'minlangan aholi tomonidan oziq -ovqat mahsulotlarini sotib olishning iqtisodiy jihatdan imkoniyati (iste'molchi talabining to'lov qobiliyati);

- me'yorda ovqatlanish uchun yuqori sifatli mahsulotlarni iste'mol qilishning yetarli miqdorda bo'lishi.

FAO mutaxassisleri fikriga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi jihatidan holat oziq-ovqat xavfsizligi omillari, ko'rsatkichlari, ta'minot barqarorligi, ega bo'lish imkoniyati va sog'lomligi bilan belgilanadi.

Oziq-ovqat ta'minoti yo'nalishida jahon hamjamiyati oldida turgan asosiy muammolar qatoriga quyidagillarni kiritish mumkin:

- aholi o'sish sur'atlarining yuqoriligi;

- bir qator mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sur'atlarining pasayishi;

- rivojlangan mamlakatlar yordamining qisqarishi;

- ocharchilikning avj olishi;

- tabiiy resurslarning ozayishi;

- jahon bozorlarida uzoq muddat qishloq xo'jaligi mahsulotlariga past narxning saqlanib turishi.

Butunjahon oziq-ovqat muammosi, ochlikka qarshi kurash va ular bilan bog'liq bo'lgan turli kasalliklar milliy davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir.

Ochlik va to'yib ovqat yemaslikning an'anaviy muammolari daromadlar keskin tabaqalanishi sohasida: ijtimoiy planda – sinflar va jamiyatdagi tabaqalar o'rtasida, tizimli-geografik - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida keskin tus olmoqda. Shu bilan bir qatorda hozirda zamonaviy, yuqori texnologiyali va global taraqqiyot ovqatlanish muammosiga yangi jihatlarni qo'shdi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar bo'ylab «to'kin-sochinlik paradoksi» harakatda bo'lib, faol tarqatib kelinayotgan «tezkor ovqatlanish» transmilliy texnologiyalari (masalan, “Makdonalds”, “Kentukki chickens”, “Pitssa xot”) bilan bir qatorda noratsional ovqatlanish bilan kasalliklar, ortiqcha vazn va semirish, salomatlikka tahdid kuchayishi tarqalishi bilan birgalikda kechmoqda.

Agar XX asrning 70-yillarida jahon aholisining uchdan bir qismi to‘yib ovqatlanmagan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘ratkich 20%ni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining jahon savdosi hajmi uch baravar oshdi, shu bilan bir qatorda jahon qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘shish sur‘atlari keyingi o‘n yillikda 3%dan 1,6% ga tushdi. Bunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmi jahonning 90 ta mamlakati, jumladan, Afrikaning 44 ta mamlakatlarida pasaydi. Bu jahonda aholi soni yiliga 90-100 mln.kishiga oshib borayotgan va 795 mln.dan ortiq to‘yib ovqatlanmayotgan sharoitda yuz bermoqda (10.1-jadval).

Milliy darajada oziq-ovqat xavfsizligiga darajasining tahlili oziq-ovqat balansi (OOB) da, ya‘ni mamlakatda oziq-ovqat mavjudligida aks ettiriladi. OOB muayyan davrda mamlakatda oziq-ovqat ta‘minoti va inson iste‘moli uchun mavjud oziq-ovqat miqdori va ularning ozuqaviy qiymatiga oid statistik ma‘lumotlarning hisob-kitoblarini ta‘minlaydi. Oziq-ovqat balansida oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va importga oid ma‘lumotlar yig‘ilgan bo‘lib, mamlakatda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sharoitini hamda mamlakat qay darajada importga qaramligini (importga qaramlik ko‘rsatkichi) baholashga imkon beradi.

#### 10.1-jadval

#### Jahonda ochlik geografiyasining o‘zgarishi: hududlar bo‘yicha ochlikka mahkum aholi soni va ulushi<sup>194</sup>

№	Mamlakatlar	Aholi soni, mln kishi		Ulushi, %	
		1990 yil	2014 yil	1990 yil	2014 yil
1	Rivojlangan mamlakatlar	20	15	2,0	1,5
2	Janubiy Osiyo	291	281	28,8	35,4
3	Afrika mamlakatlari (Sahroi Kabirdan janubiy qismi)	176	220	17,4	27,7
4	Sharqiy Osiyo	295	145	29,2	18,3
5	Janubi-Sharqiy Osiyo	138	61	13,6	7,6
6	Lotin Amerikasi va Karib havzasi	66	34	6,5	4,3
7	G‘arbiy Osiyo	8	19	0,8	2,4
8	Shimoliy Afrika	6	4	0,6	0,5
9	Kavkaz va Markaziy Osiyo	10	6	0,9	0,7
10	Okeaniya	1	1	0,1	0,2

Aholining oziq-ovqat xavfsizligi holatini baholash quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi:

- mamlakatning barcha hududida to‘lovga qobil talabga mos keladigan miqdorda va assortimentda oziq-ovqat mahsulotlarining doimiy ravishda mavjudligi;

<sup>194</sup> D.N.Saidova, I.B.Rustamova, Sh.A. Tursunov. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi, 2016. – 257 b.



- barcha iste'molchilar uchun uning ijtimoiy maqomi va yashash joyidan qat'i nazar oziq-ovqat mahsulotlarini minimal darajada iste'mol qilish imkoniyatining mavjudligi;

- oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi – inson uchun ushbu mahsulotni yaroqsiz holga keltiruvchi yoki xavfli bo'lgan moddalarning mavjud emasligi;

- oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, ya'ni har kuni inson tomonidan unga zarur bo'lgan miqdordagi kaloriya va ozuqaviy komponentlarning uning yoshi va faoliyat sohasiga bog'liq ravishda iste'mol qilinishi. Bunda ovqatlanish sifati mutasaddi tashkilotlar tomonidan tavsiya qilingan ratsional me'yorlarga muvofiq keladigan oqsil, yog', uglevodlar, vitaminlar, makro va mikroelementlarni uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini umumlashtiruvchi mezon belgilanadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini baholashda muayyan belgilari asosida ham miqdori, ham sifati bo'yicha bo'sag'aviy qiymat butun dunyoda mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlashi va o'tkinchi zahiralarning darajasi hisoblanadi. Bu miqdor zahiralarning 15-20 %ini tashkil qilishi kerak.

Ma'lum bir davrda qishloq xo'jaligining rivojlanishi nuqtai nazaridan oziq-ovqat xavfsizligining erishilgan darajasini quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholash mumkin:

1. Asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori. Ushbu ko'rsatkich yordamida iqtisodiyotning mazkur sektoridagi takror ishlab chiqarish jarayonining dinamikasini ko'rib chiqilayotgan davrda aholi sonining o'zgarishini inobatga olgan holda baholash mumkin.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya etilgan standartlariga va xalqaro standartlarga mosligi. Shu standartlarga muvofiq holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning ularni jon boshiga iste'mol qilishining yetarli darajasini ta'minlash uchun miqdor va sifat tarkibini tavsiya etish mumkin.

3. Asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar. Davlat yoki hududlar darajasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining moliyaviy-iqtisodiy holatini tezkor baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

- qishloq xo'jaligi korxonalarining butun faoliyatidan olingan qoldiq natija (foyda minus zarar);

- foyda olib yoki zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar soni;

- umuman qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining, jumladan, o'simlikchilik hamda chorvachilikning rentabellik darajasi.

Alohida uy xo'jaliklarining oziq-ovqat xavfsizligiga, asosan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad katta ta'sir ko'rsatadi, chunki har bir kishining amalda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishlari ularning daromadlari darajasiga bog'liq. Daromadlar, o'z navbatida, oiladagi ishlovchi a'zolarining ish haqi miqdoriga, nogironlar, pensionerlar va aholining kam ta'minlanganlar qatlamlarining pensiyalari va ijtimoiy nafaqalariga; individual faoliyatdan keladigan daromadlarga bog'liq bo'ladi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlariga ketadigan xarajatlarning real pul daromadlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining, ASMning oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari bilan korrelyatsiyalashuvi yuz beradi.

Aholi ovqatlanishining miqdor va sifat ko'rsakichlari bo'yicha quyi chegarasi tarkibiga ma'lum bir tovar va xizmatlar to'plami kiritiladigan minimal iste'mol savati sifatida qarash mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar doimiy, shartli doimiy va davriy tavsifga ega bo'ladi.

Doimiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- muayyan hududning tabiiy iqlim sharoiti;
- mamlakat yoki hududlardagi agrar ishlab chiqarishning tabiiy salohiyati sekin-asta susayib borishi va buning oqibatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomondan qo'shimcha ta'sir o'tkazilmagan holda oziq-ovqat ta'minoti darajasining pasayib ketishi.

Ma'lum bir davr uchun shartli-doimiy omillarga quyidagilar misol bo'ladi:

- kambag'allik chegarasidan pastda joylashgan va zarur oziq-ovqat mahsulotlari to'plamini sotib olish uchun yetarli miqdordagi daromadga ega bo'lmagan aholi guruhlari;
- alohida aholi guruhlari ovqatlanishining muvozanatlashmaganligi, bu ularning salomatligiga tahdid solishi mumkin;
- muayyan omillarning ta'siri tufayli faqat bozor mexanizmidan foydalangan holda oziq-ovqat bilan ta'minlashning imkoni bo'lmagan hududlar aholisi;
- oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish darajasining pastligi, bu holat kishilar salomatligiga tahdidlarni vujudga keltirishi mumkin;
- jahon bozorlari kon'yunkturasining nobarqarorligi va importdan keladigan valyuta tushumlari tufayli.


Dunyoning ko'p mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish qishloq xo'jaligi va savdo tarmog'ida strategiya va dasturlarning tatbiqiga bog'liq. Ularni to'rtta guruhga bo'lish mumkin:

1. Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash siyosati;
2. Savdo siyosati;
3. Iste'molni qo'llab-quvvatlash strategiyalari;

#### 4. Ozuqa moddalar ta'minoti dasturlari.

Bunday dasturlar bir birini cheklamagan va ko'p mamlakatlarda bir vaqtda amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash siyosati yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida "Yashil inqilob" nomi bilan tanilgan ekinlar hosildorligi birdan yuksalishi jarayoni sharofati bilan oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi ancha oshdi.

Iqtisodiy xavfsizlik turlarining mohiyati, vujudga kelish sabablarini o'rganish, milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish va ulardan muhofazalanish chora-tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatarlar va xavfsizlik darajasini aniqlash, ularning ko'rsatkich va mezonlarini o'rganish lozim bo'ladi.



**10.3-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari**

Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko‘rsatkichlari (indikatorlari) quyidagilardan iborat:

- aholi turmush darajasi va sifati;
- inflyatsiya sur‘ati;
- iqtisodiy o‘shish;
- budget defitsiti;
- davlat qarzi;
- jahon iqtisodiyotiga kirib borganlik;
- “hufyona iqtisodiyot” ko‘lami;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi;
- bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.

Hududiy darajada umumiy ko‘rsatkichlardan tashqari yana quyidagi ko‘rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikni ifodalaydi (10.3-rasm):

- aholi daromadlari;
- chakana narxlar darajasi;
- uy-joy bilan ta‘minlanganlik;
- qochoqlar, emigrantlar va boshqalar soni;
- hududning mamlakat YaIMdagi ulushi;
- hududning to‘lov balansi;
- eksport-import saldosini.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar miqdorining tahlikali quyi chegarasini ko‘rsatish va aniq belgilash lozim bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich miqdori belgilangan quyi chegaradan pastga tushganda iqtisodiy tahdid vujudga keladi. Ushbu tahlikali quyi chegara – iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan xo‘jalik faoliyati proporsiyalarining eng quyi maqbul nisbatlarini ifodalovchi miqdoriy indikatorlar bo‘lib, ularga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarish turli elementlarining iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi.

Tahlikali quyi chegaraning miqdoriy o‘lchamlarini aniqlash uchun quyidagilarga asoslanish lozim bo‘ladi:

- milliy iqtisodiyot holati va undagi mutanosibliklar hamda takror ishlab chiqarish elementlari va omillari holatining birlamchi muhim xususiyatlarini tavsiflash;
- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarni to‘liq va keng qamrovdi ifodalash;
- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga xavf soluvchi tahdidlarni to‘liq va har tomonlama hisobga olish;

- iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasini ifodalovchi indikatorlardan hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiyoti holatini aniq baholashda va boshqa mamlakatlar bilan qiyoslashda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- ushbu indikatorlarning mamlakat hisob, statistika va prognozlashtirish tizimi bilan muvofiq kelishi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har qaysisidagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi.

Jahon miqyosida qabul qilingan iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari 10.2-jadvalda keltirilgan.

**10.2-jadval**

**Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari**

Ko'rsatkichlar	Quyi tahlikali chegara	
	Mazmuni	Darajasi, %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %	16
Ihsizlik darajasi	Iqtisodiy faoli aholiga nisbatan, %	8
Monetarizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %	25
Tashqi qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %	40
Ichki qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %	30
Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbatan, %	25
Mudofaa xarajatlari	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %	3
Ta'limga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %	1,5
Innovatsion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, %	15
Sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, %	25
Davlat budjeti defitsiti	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat budjeti xarajatlari hajmiga nisbatan, %	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, %	7,0
Aholi daromadlari bo'yicha tabaqalanish	Detsil koeffitsiyenti	8,0

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik quyi tahlikali chegarasi indikatorlari 50 ta ko'rsatkichni o'z ichiga olgan holda quyidagicha turkumlangan<sup>195</sup>:

<sup>195</sup> Илларианов А. Критерии экономической безопасности// Вопросы экономики, 1999. №10. Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие(книга четвертая) / Ин-т экономики РАН.- М., ЗАО Финстатинформ, 2002- с.72-78;  
 Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. –М., Изд-во РАГС, 2001- с.176-180;  
 Прохожев А., М.Корнилов О проблеме критериев и оценок экономической безопасности// Общество и экономика, №4-5. 2003.- с. 232-233.

- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zahiralarini bo'yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi;

- moliyaviy tizim barqarorligi ko'rsatkichlariga davlat budjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi;

- ijtimoiy soha ko'rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni o'z ichiga oladi;

- tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo'yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

### **10.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar.**

#### **Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillarning o'rni**

Iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish mavjud axborotlarni yig'ish, konsepsiyalash orqali ichki va tashqi xavf belgilarini aniqlash va ularni tasniflashni nazarda tutadi. Bunday tadqiqotda asosiy e'tibor iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri ajratib olishga qaratiladi.

Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga oid axborotlarni topish va jamlashda iqtisodiy xavfsizlik nazariyasida biror bir tabiiy yoki ijtimoiy hodisani keltirib chiqaruvchi voqea sababini aniqlaydigan omilli tahlil usulidan foydalaniladi. "Omil" tushunchasi adabiyotlarda – sabab, biror bir voqeaning harakatlantiruvchi kuchi, hodisalarning xususiyatlarini ko'rsatuvchi jihatlar sifatida ta'riflanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni omilli tahlilga asoslanmagan holda tadqiq etib bo'lmaydi, chunki iqtisodiy xavfsizlik tizim bo'lib, u bir qator o'zgaruvchi hodisalar bilan bog'liq. Ko'p omillar o'zaro bog'liqlikda bo'lib, bu omillarning ko'pchiligi bir-birining o'rnini bosuvchi hisoblanadi. Lekin shu bilan birga ba'zi omillarning iqtisodiy xavfsizlikka bilvosita ta'siri ham kuzatiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish omillari omilli matritsa deb nomlanuvchi ko'rsatkichlar bilan bog'liqdir. Omilli matritsa tahlil davomida aniqlangan omil va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqlik darajasini xarakterlaydi. Omilli tahlilning asosiy maqsadi – shaxs, jamiyat va davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydigan

umumiy qoidalar ishlab chiqish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonidagi nuqsonlarni aniqlash, bu sohalarda eng muhim ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan uzviy bog‘lanishini ta‘minlashdan iboratdir.

Sobiq ittifoq davridagi adabiyotlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, samaradorlikni oshirish omillariga katta e‘tibor berilgan. Ishlarning aksariyati ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va iqtisodiy o‘shishni tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Rossiyalik iqtisodchi A.Anishkin o‘z tadqiqotlarida ishlab chiqarish omillari va cheklangan iqtisodiy resurslarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Bu tadqiqotlar asosan ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini aniqlashning matematik yo‘lini aniqlashga qaratilgan.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimi bir qator omillar ta‘sirida amal qiladi. Ushbu omillar xususiyatlari, manbalari va tizimga ta‘sir darajasiga ko‘ra ob‘ektiv, sub‘ektiv, tashqi va ichki bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi bu – davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy-texnologik, axborot shart-sharoitlaridir. Milliy iqtisodiy xavfsizlik omillari tizimi xalqaro iqtisodiy xavfsizlik tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning ob‘ektiv omillari mustaqil bo‘lib, ularga tabiiy sharoitlar va resurslarni kiritish mumkin.

Ikkinchi tomondan qaraganda, tabiiy va boshqa resurslar sub‘ektlar ta‘sirida tashqi aloqalar tizimiga kiradi va buning natijasida iqtisodiy xavfsizlik kuchayadi yoki aksincha, susayadi. Shundan kelib chiqib, ko‘proq iqtisodiy xavfsizlikning sub‘ektiv omillariga to‘xtalib o‘tish mumkin.

Taraqqiyotning hozirgi davrida ilmiy tadqiqotlar va tahlillar asosida iqtisodiy xavfsizlik omillarining quyidagi tasniflarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

**1. Iqtisodiy omillar:** mehnat resurslari, mehnat vositalari, ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, aholi turmush darajasi, strategik zahira va boshqalar.

**2. Tabiiy-iqlim omillari:** yoqilg‘i-energetika resurslari va mahsulotlari, mineral xomashyo, o‘rmon, suv, yer, biologik resurslar, iqlim sharoitlari, relef, grunt tarkibi va boshqalar.

**3. Iqtisodiy va tabiiy sharoitlarni sintezlovchi omillar:** davlatning tuzilishi, mulk shakllari, davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati, ishlab chiqarishning jamoaviy shakli, tabiiy resurslarni saqlashga qaratilgan tadbirlar, atrof-muhitni himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

**4. Ijtimoiy-siyosiy omillar:** hududlarning muvozanatli rivojlanishini ta‘minlash, milliy va madaniy masalalarni hal qilish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va boshqalar.

**5. Ilmiy-texnologik omillar** – barcha omillarga ta’sir ko’rsatib, ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirini kuchaytirishi yoki aksincha, sustlashtirishi mumkin.

**6. Ijtimoiy-demografik omillar:** aholining yoshi, jinsiy bo‘linishi, bilim darajasi, huquqiy va siyosiy madaniyati, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichi, sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanish darajasi va boshqalar.

**7. Etnografik va iqtisodiy omillar:** aholining milliy tarkibi, etnik guruhlarning joylashuvi, etnik guruhlarda tug‘ilish va o‘lim darajasi, millatlararo munosabat madaniyati, etnik guruhlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar va boshqalar.


**8. Axborot va axborot-psixologik omillar:** axborot aylanishi, axborotning aylanish davri, axborotning yo‘nalishi, axborot oqimlari, axborotlardagi milliy o‘ziga xosliklar, axborotni qayta ishlash tizimi, sirning oshkor bo‘lmalik va himoyalanganlik darajasi.

**9. Siyosiy omillar:** davlatning rivojlanish darajasi, jamiyat, madaniyat, siyosiy harakatlar va partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlari, milliy xavfsizlikni ta’minlovchi tizim bo‘linmalari.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillar tarkibini iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir nuqtai nazaridan ichki va tashqi omillarga ajratib o‘rganish ham mumkin (10.4-rasm).

Iqtisodiy havfsizlikning ichki omillari qatoriga mavjud tabiiy resurslar (qazilma boyliklar, lanshaft, hayvonot va o‘simliklar olami, relef, iqlim, suv, yer resurslari) kiritilib, ularning mavjudligi va holati ko‘p jihatdan mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi yoki qaramligini belgilovchi ahamiyatga ega.

Ichki omillar qatoriga yuqoridagi tasnifda ko‘rib o‘tilgan ijtimoiy-demografik va ilmiy-texnologik omillarni ham kiritish mumkin, chunki ushbu guruh omillari ko‘p jihatdan tashqi ta’sirlarga bog‘liq bo‘lmaydi.



**10.4-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillar**



Mamlakatning ichki iqtisodiy sohadagi xavfsizligi tabiiy, texnik-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy va boshqa makro va mikroiqtisodiy rivojlanish omillari, ichki immunitet va turli beqarorlik, tangliklar ta'siridan himoyalaniş orqali ta'minlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin (10.5-rasm):

- sobiq tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalashgan iqtisodiyotning meros bo'lib qolganligi;

- iqtisodiyot tarmoqlari aksariyatining qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig'imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;

- iqtisodiyotdagi monopollashuv darajasining yuqoriligi;

- inflyatsiya darajasining beqarorligi;

- infratuzilma ob'ektlarining yetarli darajada shakllanmaganligi va mustahkam emasligi;

- mineral-xomashyo bazalarining kam o'rganilganligi va iqtisodiy faoliyatga kiritish imkoniyatlarining chegaralanganligi;

- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish miqyosining pastligi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo'nalishlarida ilg'or o'rinlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat nufuzining tushib ketishi;


- mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining, jumladan, xorijiy kompaniyalar tomonidan iste'mol tovarlarining ichki bozorlardan siqib chiqarilishi;

- hududiy ajratmachilik tendensiyasi va boshqarish qarorlarini qabul qilishda tarmoq lobbizmining yuqori darajada ekanligi;

- investitsion faollikning sustligi, milliy mentalitetda jamg'arishga moyillikning yuqori ekanligi;

- kapital xarajatlardan ko'ra joriy xarajatlarning afzal ko'rilishi;

- ishsizlik darajasining yuqoriligi, aholi o'rtasida tabaqalanishning keskinlashib ketishi natijasida ijtimoiy ziddiyatlarning kelib chiqish xavfi mavjudligi;



### 10.5-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki omillar tarkibi

- iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy va shartnomaviy intizomining pastligi;
- iqtisodiyotning kriminallasuvi va korrupsiyaning kuchayishi;
- daromadlarni yashirish va soliq to'lashdan qochish holatlarining ko'payishi;
- kapitalni xorijga noqonuniy ko'chirish va boshqalar.

Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillarni, o'z navbatida, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Iqtisodiy tizimning siklli rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq omillar. Bu omillar guruhi ta'siri oqibatida ma'lum sharoitlarda makroiqtisodiyot darajasida salbiy oqibatlar kelib chiqishi va davlatning iqtisodiy xavfsizligi tahdid ostida qolishi mumkin.

2. Iqtisodiy tizimning siklli rivojlanish qonuniyatlariga bog‘liq bo‘lmagan omillar. Bu guruh omillari esa uzoq muddatli davrda iqtisodiy tizim muhim elementlarining takror ishlab chiqarilishi sharoitida to‘plangan noxush tendensiyalar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Bu o‘rinda quyidagilar noxush tendensiyalar sifatida qaralishi mumkin:

- mamlakatning ishlab chiqarish, innovatsion va ilmiy-texnikaviy salohiyatidan foydalanish darajasi va samaradorligi;
- xo‘jalik yuritish va boshqarishning iqtisodiy munosabatlari;
- ijtimoiy soha;
- atrof-muhit holati;
- mamlakat hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy holat.



**10.6-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi tashqi omillar tarkibi**

3. Tashqi qarzlarning hajmining o‘sib borishi.

Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun, birinchidan, jahon xo‘jaligi aloqalarda ishtirok etib, milliy ishlab chiqarish uchun

qulay sharoitlar yaratish, ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish taqozo etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi omillar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish imkoni yo'q, faqat uning salbiy ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir etuvchi tashqi omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi (10.6-rasm):

1. Eksport tarkibida xomashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi.

2. Mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi.

4. Eksport va valyuta, shu bilan birga, bojxona chegaralari nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi.

5. Raqobatbardosh eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarining rivojlanmaganligi hamda import tarkibining ratsional emasligi.

6. Eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

#### **10.4. Milliy va xalqaro raqobatbardoshlik tushunchalarining mohiyati, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari va mezonlari**

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi o'rnini uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro raqobat texnik taraqqiyotning eng muhim omili hisoblanadi. Ishlab chiqarish, boshqaruv texnologiyalarining doimiy yangilanib borish jarayoni uning ta'sirida davom etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot yangilanadi va sifati oshib boradi. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanish sur'atlarini ta'minlash, xalqaro raqobatni vujudga keltirishning muhim sharti dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining ochiqligi bilan belgilanadi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, tashqi dunyoga nisbatan yopiqlik, albatta, inqirozga olib keladi. Mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyalashish darajasi - bu iqtisodiyotning ochiqlik ko'rsatkichidir.

Milliy iqtisodiyot uchun jahon bozoriga jalb etilganlik muhim ahamiyat kasb etadi. «Ochiqlik»ning ratsional darajasi va tavsifini tanlash milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlab berishi mumkin.

Ochiq iqtisodiyot - bu tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlangan, milliy iqtisodiyotdagi nisbiy ustunliklariga tayanib, jahon xo'jaligi tizimiga

integratsiyalashib boruvchi iqtisodiyotdir. Ochiq iqtisodiyot, odatda, milliy iqtisodiyotga nisbatan qo'llaniladi.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotning ochiqlik darajasi kuyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- eksport kvotasi;
- import kvotasi;
- tashqi savdo kvotasi;
- import elastikligi koeffitsiyenti;
- eksport elastikligi koeffitsiyenti;
- eksport va import tarkibi;

- iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar va chetga chiqarilgan kapitalning jami kapital hajmidagi ulushlari. Agar ichki investitsiyalarda xorijdan kelgan mablag'lar ulushi qancha katta bo'lsa va kapital tashqariga qancha ko'p chiqsa, iqtisodiyot shunchalik ochiq bo'ladi;

- mehnat resurslari tarkibida xorijdan kelgan va xorijga chiqib ketgan ishchi kuchi hissi. Ushbu ko'rsatkich qancha katta bo'lsa, iqtisodiyot shuncha ochiq bo'ladi.

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar kuyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasining yuqoriligi;
- iqtisodiyot tarkibida qayta ishlash va yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyatining hajmi;
- mamlakatning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi.

Ba'zi iqtisodchilarning fikricha, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi milliy ishlab chiqarishning tarmoq tarkibiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish hajmining umumiy tarkibida bazaviy tarmoqlar ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi shunchalik past bo'ladi. Ushbu holat bazaviy tarmoqlarning xalqaro ixtisoslashuv jarayoniga kam darajada jalb etilganligi va asosan ichki bozorga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.


Ichki talab va taklif muvozanatining makroiqtisodiy tahlillari ko'rsatishicha, odatda, ushbu muvozanat real amaliyotda o'z tasdig'ini topmaydi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu ko'rsatkichdan chetlanish shunchalik yuqori bo'ladi. Mamlakatning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuqoriligi tovarlar va xizmatlar taklifining ko'payishiga va tashqi iqtisodiy faoliyatning rag'batlantirilishiga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotning ochiqligini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi yuqori, texnologik jihatdan chuqur mehnat taqsimotiga asoslangan tarmoq tarkibiga ega mamlakatlarda

iqtisodiyotning ochiqlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Mutlaq ko‘rsatkichlar bo‘yicha iqtisodiy salohiyati past, tabiiy resurslar bilan kam ta‘minlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqlik darajasi past bo‘ladi.

Qayd etib o‘tilganidek, iqtisodiyotning ochiqligi xalqaro raqobatning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatlarning raqobatbardoshligi qanday aniqlanadi va u nimalarga bog‘liq? Nima sababdan ba‘zi mamlakatlar raqobat jihatdan boshqa mamlakatlarga nisbatan ilgari ketgan?

Raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha sub‘ektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat – bozor sub‘ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq nafillikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.



**10.7-rasm. Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari**

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste‘mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta‘sir o‘tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya‘ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxonalar, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxonalar (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.

Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan ne'matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi. Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak, mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan, yangi korxonalarining paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda o'z mahsulotlarini sotishiga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bilan farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanishiga harakat qiladi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarining mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilari – fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining narx siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan raqobatning to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o'rganish, cheksiz ko'p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobat shakllari ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud bo'lishiga ko'ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;
- 2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;
- 3) turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;
- 4) monopolistik birlashmalarning o'zi ichidagi raqobat.

Miqyosiga ko'ra raqobat ikki turga - tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalarini o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi




darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda ko'rsatkichiga erishish uchun olib boriladigan kurashdan iborat.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda g'irrom va halol raqobatlashuv usullari ham farqlanadi. Raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g'irrom raqobat deb yuritiladi. G'irrom raqobat orqali firmalar o'z raqiblarning tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechtirish, yetakchi mutaxassislarni og'dirib olish, narxni keskin pasaytirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Halol raqobat esa raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan, iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat (10.8-rasm).



**10.8-rasm. Raqobatlashuv usullari**

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

Narxsiz raqobatda esa asosiy omil tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Raqobatbardoshlik tushunchasiga iqtisodiy adabiyotda "firmalarning mavjud sharoitda raqobatchilariga nisbatan baho va bahosiz tavsifiga ko'ra tovarlarni loyihalashtirish, tayyorlash va sotish borasidagi real va potensial imkoniyatlaridir" deya ta'rif beriladi.

XX asrning 90-yillarida amerikalik iqtisodchi Garvard universiteti biznes maktabi vakili Maykl Porter o'zining "Mamlakatlarning raqobat afzalliklari" nomli kitobida xalqaro raqobatning zamonaviy muammolarini tahlil etdi.

M.Porter fikricha, mamlakatning raqobatbardoshligini milliy kompaniyalar ta'minlab beradi, shuning uchun dastlab mamlakat raqobatbardoshligini emas, balki milliy kompaniyalar raqobatbardoshligini tahlil etish lozim. Mamlakat kompaniyalari muvaffaqiyatini ta'minlab beradigan qulay muhitni yaratish quyidagi to'rtga muhim ko'rsatkichga bog'liqligini ta'kidlaydi:

- ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik;
- talab ko'rsatkichlari;
- yaqin va xizmat ko'rsatuvchi (yordam beruvchi) tarmoqlar;
- raqobat muhiti va firma strategiyasi.

Ushbu muhit doirasidagi milliy kompaniyalarning samarali faoliyati mamlakatning raqobatbardoshlik reytingini belgilab beradi.

### **10.5. Mamlakatning raqobat ustunliklari nazariyasi va raqobatbardoshlikni aniqlash usullari**

Raqobat – iqtisodiy kategoriya sifatida bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi, bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'i nazar raqobat muhiti mavjud bo'lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shaklini o'zgartirib boradi.

Raqobat tushunchasi shu qadar serqirradi, uni qandaydir yagona umumiy ta'rif bilan qamrab olish mumkin emas. «Raqobat» tushunchasini aniqlashtirishning ba'zi bir nuqtai nazarlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqobat tushunchasi turli izohli lug'at va ma'lumotnomalarda turlicha ta'riflanadi. Jumladan, «Yazyk biznesa» nomli lug'atda: «Raqobat (lotincha concurrere – to'qnashuv; inglizcha competition, rivalry) – bozorda ishtirok etayotgan korxonalar o'rtasidagi o'z mahsulotlarini sotishning eng qulay imkoniyatlarini ta'minlash, xaridorlarning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish

maqsadidagi o‘zaro ta’sir, o‘zaro aloqa va iqtisodiy kurash jarayonidir. Raqobat va monopoliya dialektik birlikni tashkil etib, doimo bozorda bir-birlariga qarama-qarshi turadilar»<sup>196</sup>, deb ta’riflangan. Bundan ko‘rinadiki, raqobat nafaqat kurash, balki o‘zaro ta’sir va aloqa jarayoni sifatida ham talqin etilgan.

XVIII asrning o‘rtalariga kelib raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to‘laqonli nazariy qoidalar paydo bo‘lgan. Bunda klassik siyosiy iqtisod vakillari sanalgan A.Smit va D.Rikardoning xizmatlari kattadir.

Keyingi davrlarda F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontev, Y.Shumpeter, P.Sraffa, M.Porter, F.Kotler kabi olimlarning mehnatlari tufayli raqobat nazariyasi yanada rivoj topdi. Raqobat mohiyatiga to‘xtalar ekanmiz, uni asosan uch xil yondashuvga bo‘lish mumkin. Jumladan, xulq-atvor yondashuvi, strukturali yondashuv va funksional yondashuv.

Bugungi kunda raqobat tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, U.G‘afurovlar tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida raqobatga berilgan ta’rifda asosan ikki jihat:

- uning iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvidan iborat ekanligi;
- yuqori foyda va naflikka ega bo‘lish uchun kurash ilgari suriladi.

Raqobat – bozor sub’ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashishidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naf olishiga erishish uchun kurashni anglatadi.

Bunda ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko‘proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish oqibatida tovarlarni sotish doiralari, ya’ni qulay bozorlar uchun, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun tomonlar orasida kurash boradi<sup>197</sup>.

Har bir bozor o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lishiga qaramay, raqobatning mohiyati uning tabiati va intensivligini ochib berish va baholash imkonini beruvchi yagona konsepsiya orqali ifodalanishi mumkin. Taniqli amerikalik olim M.Ye.Porterning tadqiqotlariga ko‘ra, alohida bozordagi raqobatning holatini beshta raqobat kuchi orqali tavsiflash mumkin<sup>198</sup>:

1. Raqobatlashuvchi sotuvchilar o‘rtasidagi bellashuv (har bir firma raqobat afzalliklaridan foyda olish va qulay mavqega ega bo‘lish uchun o‘zining shaxsiy raqobat strategiyasiga amal qiladi).

<sup>196</sup> Язык бизнеса. Термины. Под ред. В.А.Чжена. Т.: ИПК«Шарк», 1995, с. 216.

<sup>197</sup> Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Т.: Moliya, 2005, 159-b.

<sup>198</sup> Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с англ. – Международные отношения, 1993, с.224.

2. Bir-birining o'rnini bosuvchi va narx nuqtai nazaridan raqobatbardosh bo'lgan tovarlar o'rtasidagi raqobat (o'rnini bosuvchi tovarlar tomonidan yuzaga kelgan xavf tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

3. Yangi raqobatchilarning paydo bo'lish xavfi (yangi raqobatchilar paydo bo'lishi xavfi tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

4. Mol yetkazib beruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari (mol yetkazib beruvchilarning imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

5. Xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari (xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

Raqobatbardoshlikning rivojlanishi quyidagi to'rtta bosqichda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish omillari asosidagi raqobatchilik;
- investitsiyalar asosidagi raqobatchilik;
- nou-xaular asosidagi raqobatchilik;
- boylik asosidagi raqobatchilik.

Dastlabki uchta bosqich iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, oxirgisi esa turg'unlik va inqirozni keltirib chiqaradi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi – halol raqobat sharoitida jahon bozori talablarini qondiruvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hamda o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyatidir.

Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Davlat budjetidan ITTKI (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari) uchun ajratilgan xarajatlar;
2. Insonni rivojlantirishga (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ehtiyojlarga) katta qo'yilmalar;
3. Mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqarorligi;
4. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ulushi;
5. Aholi hayot kechirishining uzoqligi;
6. Resurslardan foydalanishning yuqori samaradorligi;
7. Optimal eksport tarkibi va hajmi;
8. Past inflyatsiya darajasi;
9. Raqobatbardosh firmalarning katta ulushi;
10. Mehnat resurslarining raqobatbardoshligi;
11. Moliyaviy tizimning egiluvchanligi;
12. Ichki bozorning o'zgaruvchanligi;

13. Me'yordan ortiq davlat qarzlarning mavjud emasligi;
14. Mamlakat aholisi ta'lim darajasining yuqoriligi;
15. Faoliyatning barcha sohalarida bilimlar asosidagi kuchli raqobat;
16. Mamlakatning ochiqligi, xalqaro integratsiya va kooperatsiyalashning yuqori darajasi;
17. Bozorlar va mintaqalar infratuzilmasining yuqori sifati;
18. Past soliq va bojxona stavkalari;
19. Mamlakatda biznesning yuqori madaniyati.

Agar O'zbekistonning raqobat jihatdan ustunliklarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni alohida ajratish mumkin: mamlakat siyosiy va hukuqiy tizimining barqarorligi; insonni rivojlantirishga (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ehtiyojlarga) katta qo'yilmalar; aholi hayot kechirishining uzoqligi; mehnat resurslarining raqobatbardoshligi; mamlakat aholisi ta'lim darajasining yuqoriligi.

Bir mamlakatda nisbiy va mutloq raqobat jihatdan ustunliklarning integratsiyalashuvi uning global iqtisodiy kenglikdagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Mutaxassislar mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlash uchun 340 dan ortiq ko'rsatkichlar va 100 dan ortiq usullardan foydalanishadi.

Mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlashda quyidagilar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi: iqtisodiy salohiyat va iqtisodiyotning o'sish sur'atlari; sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi; ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanish darajasi va uni o'zlashtirish sur'atlari; xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish; ichki bozor hajmi va dinamikasi; iqtisodiyotda davlatning roli; moliya tizimining egiluvchanligi; mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va malaka darajasi; ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holat; iqtisodiyotning jahon talabiga moslashish darajasi va qobiliyati.

Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan Menejmentni rivojlantirish xalqaro instituti (International Institute of Management Development, IMD) har yili dunyoning 47 ta yetakchi mamlakatiga raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan baho beradi. Tahlillar 8 ta katta guruhga biriktirilgan 287 mezon bo'yicha amalga oshiriladi: milliy iqtisodiyot tavsifi - YaIM hajmi, investitsiyalar va jamg'armalar hajmi, pirovard iste'mol darajasi, aholi turmush darajasi, iqtisodiyotning amal qilish samaradorligi darajasi; iqtisodiyotning baynalmilallashuv darajasi; siyosiy tizimning barqarorligi; moliya tizimi; infratuzilma; boshqaruvning samaradorligi; fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasi; mehnat resurslarining tavsifi.

Mamlakatlar raqobatbardoshligini tahlil etuvchi xalqaro tadqiqotlardan biri - bu Jahon iqtisodiy forumining (World Economic Forum, WEF) metodikasi hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida mamlakatning iqtisodiy o'sishini baholashda o'rta va uzoq muddatli rivojlanish dinamikasini tavsiflovchi muhim makro va

mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida raqobatbardoshlikning agregat indekslari hisoblanadi. Ushbu metodika 30 yildan buyon ko‘llaniladi va uning natijalari Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik to‘g‘risidagi (The Global Competitiveness Report) ma‘ruzasida chop etiladi.

Mamlakatning raqobatbardoshligini baholash ko‘psonli ma‘lumotlarni yig‘ish asosida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini asosiy omillar bo‘yicha hisoblashni ko‘zda tutadi. Keyin barcha omillarning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichiga qo‘shgan hissasini aks ettiruvchi agregat indeks va subindekslar hisoblanadi. Zamonaviy raqobatbardoshlik metodikasida 12 ta asosiy omil ajratiladi (10.9-rasm).

Qayd etib o‘tilgan omillar uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruh bazaviy talablarni o‘z ichiga oladi, ikkinchi guruh biznes muhit samaradorligini oshiruvchi omillarni qamrab oladi, uchinchi guruh esa biznesni takomillashtirish omillarini birlashtiradi.

Har bir guruh muayyan subindekslar bilan tavsiflanadi. Subindekslarni hisoblayotgan vaqtda har bir guruhning vazni quyidagicha belgilanadi birinchi guruh - 25%, ikkinchi guruh - 17%, uchinchi guruh - 50% (10.3-jadval).

Bunda har bir subindeksning aniq mamlakat uchun hisoblangan natijaviy Global raqobatbardoshlik indeksiga (GCI) qo‘shgan hissasidan kelib chiqib, ushbu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash mumkin bo‘ladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy rivojlanish jihatdan turli darajadagi mamlakatlarning raqobatbardoshligini taqqoslash imkonini beradi.


### 10.3-jadval

#### Rivojlanishning har bir bosqichida asosiy uch guruh ko‘rsatkichlarining ulushi, % da<sup>199</sup>

Subindekslar	Resurslarga yo‘naltirilgan bosqich	Samaradorlikka yo‘naltirilgan bosqich	Innovatsiyaga yo‘naltirilgan bosqich
Bazaviy talablar	60	40	20
Samaradorlik ko‘rsatkichlari	35	50	50
Innovatsion salohiyat va rivojlanish omillari	5	10	30

Angola va AQSh misolida ko‘radigan bo‘lsak, agar Angola uchun eng muhim vazifa bazaviy talablarga (ishlab chiqarishni mavjud resurslarni maksimal jalb etgan holda rivojlantirish) erishish bo‘lsa, AQShda allaqachon innovatsion omillarga e‘tibor qaratilgan.

<sup>199</sup> The Global Competitiveness Report 2009-2010 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 8.



### 10.9-rasm. Raqobatbardoshlik koʻrsatkichlarining guruhlanishi<sup>200</sup>

Mamlakatlar rivojlanish bosqichlariga koʻra quyidagi ikki mezon boʻyicha guruhlanadi (10.4-jadval):

- aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi YaIM hajmi (bozor baholarida);
- mamlakatning omillarga bogʻliqlik darajasi. Ushbu koʻrsatkich xomashyo eksportining umumiy eksportdagi ulushi orqali aniqlanadi.

Eksportning 70% dan ortigʻi xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar resurslariga bogʻliq boʻladi.

Ushbu uch bosqich tarkibidagi qaysidir ikki bosqichi oʻrtasida joylashgan mamlakatlar “oʻtish bosqichidagi” mamlakatlar hisoblanadi (10.5-javdal).

<sup>200</sup> Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Oʻquv qoʻllanma. / i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - T.: Moliya, 2011. – 770-71 bb.

**Iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlarini aniqlashda qo‘llaniladigan daromadlar chegarasi<sup>201</sup>**

Rivojlanish bosqichlari	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM hajmi, AQSh doll.
Birinchi bosqich: Resurslarga yunaltirilgan	<2000
<i>Birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish</i>	2000-3000
Ikkinchi bosqich: Samaradorlikka yo‘naltirilgan	3000-9000
<i>Ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o‘tish</i>	9000-17000
Uchinchi bosqich: Innovatsiyaga yo‘nalgirilgan	>17000

Raqobatbardoshlik muammosi bilan bog‘liq muhim masala - bu iqtisodiy xavfsizlik masalasidir.

Milliy iqtisodiyot va kompaniyalarning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligi bilan bog‘liq mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi turli pozitsiyalari mamlakatning ichki va tashqi holati, iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy ta‘sir etishi mumkin.

Mamlakatlarning notekis rivojlanishi o‘zaro munosabatlarda teng bo‘lmagan sharoitlarni yaratadi. Tabiiyki, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy bosim o‘tkazishlari mumkin. Shu bilan bog‘liq holda rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlik to‘g‘risidagi masala ko‘tarilgan. Natijada 1974 yilda Jamoaviy iqtisodiy xavfsizlikning Braziliya konsepsiyasi qabul qilingan.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik bu - mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar keltiruvchi xavflar va ularning iqtisodiyotini izdan chiqarishga bo‘lgan urinishlarni bartaraf etishning kafolatlangan mexanizmini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Ushbu ekspansiya quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

***umumiy yo‘nalishda:***

- savdo sharoitining o‘zgarishi;
- embargoning qo‘llanilishi;
- yuqori tarif cheklovlari;
- savdoda miqdoriy cheklovlar;
- demping;
- texnologiyalar harakatidagi to‘siqlar;
- ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarining tarqalishidagi to‘siqlar;

<sup>201</sup> The Global Competitiveness Report 2009-2010 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 11.



**Mamlakatlarning rivojlanish bosqichlariga ko‘ra guruhlanishi<sup>202</sup>**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Taqqoslanayotgan mamlakatlar</b>	<b>Ushbu bosqichdagi boshqa mamlakatlar</b>	<b>Raqobatbardoshlikning muhim sohalari</b>
Birinchi bosqich (omillarga yo‘naltirilgan)	Hindiston	Misr, Qirg‘iziston, Moldova, Fillipin, Tojikiston	Bazaviy talablar (zarur) va samaradorlik ko‘rsatkichlari (juda muhim)
Birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish	Xitoy, Ozarbayjon, Qozog‘iston	Armaniston, Venesuela	Bazaviy (zarur) talablar va samaradorlik ko‘rsatkichlari (ahamiyati ortib boradi)
Ikkinchi bosqich (samaradorlikka yo‘naltirilgan)	Argentina, Braziliya, Kolumbiya, Meksika, Ruminiya, Ukraina	Bosniya va Gersogovina, Bolgariya, Peru, Serbiya, Janubiy Afrika, Tailand, Tunis, Urugvay	Bazaviy talablar (juda muhim) va samaradorlik ko‘rsatkichlari (zarur)
Ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o‘tish	Chili, Estoniya, Litva, Polsha, Turkiya, Rossiya	Vengriya, Slovakiya, Latviya, Tayvan, Xitoy	Barchasi yuqoridagidek muhim, ammo innovatsion omillarning ahamiyati ortib boradi
Uchinchi bosqich (innovatsiyaga yo‘naltirilgan)	AQSh	Chexiya, Fransiya, Germaniya, Irlandiya, Isroil, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Ispaniya, Shvetsiya	Ucha soha ham muhim: bazaviy talablar, samaradorlik ko‘rsatkichlari va innovatsion omillar

***pul-kredit siyosati va valyuta rejimi sohasida:***

- valyuta kursini o‘zgartirish;
- xorijiy banklarda mamlakat jamg‘armalarini muzlatish;
- kredit cheklovlarini joriy etish;
- “kapitalning chiqib ketishi” va h.k.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir kursatuvchi salbiy oqibatlar:

- “aqlarning oqib ketishi”;
- transport aloqalarining buzilishi;
- ekologik holatning izdan chiqishi;
- narkotiklar kontrabandasi, qurol-yarog‘, xavfli viruslarning tarqalishi va h.k.

<sup>202</sup> The Global Competitiveness Report 2009-2010 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 11.

Ushbu siyosatga qarama-qarshi vosita sifatida jarima, ta'sir o'tkazish bosimi, kredit berish imkoniyatini to'xtatish, xalqaro tashkilotlar a'zolidan chiqarish kabi ta'sir etishning amaliy vositalari xizmat qilishi mumkin.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakat takror ishlab chiqarish jarayoniga xavf soluvchi, aholi turmush darajasining pasayishi hamda ijtimoiy to'qnashuvlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi ichki va tashqi salbiy oqibatlardan milliy iqtisodiyotning himoyalanganlik darajasidir.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy salohiyati, milliy boylik hajmi, resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

Jahonda iqtisodiy xavfsizlikning nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Masalan, agar oziq-ovqat va boshqa tovarlar importi jami importning 20% idan oshib ketsa, ushbu holat milliy iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi va uning tarkibini o'zgartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Demak, xo'jalik hayotining baynalmilallashuv jarayoni xalqaro va milliy iqtisodiy xavfsizlikni saqlab turish hamda qo'llab-quvvatlash jarayonidagina rivojlanishi mumkin.


## **10.6. Globallashuv sharoitida mamlakat milliy raqobatbardoshligini oshirish omillari**

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi masalasi doimo iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu masaladagi zamonaviy nazariyalarning ko'piga asos bo'lgan fikrlar M.Porterning izlanishlarida yoritilgan. M.Porter mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligi uning resurslar bilan yaxshi ta'minlanganligigagina bog'liq emasligini, raqobat ustunligini shakllantirish, ta'minlab turish mumkinligini ko'rsatib berdi va unga mamlakat firmalarining raqobatdoshligini ta'minlash orqali erishiladi, degan fikrni ilgari surdi. Raqobatdoshlikni shakllantirish va rivojlantirishning M.Porter konsepsiyasiga ko'ra, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari "milliy romb"ni tashkil etuvchi to'rtta unsurdan iborat (10.10-rasm).

M.Porter konsepsiyasiga ko'ra, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari "milliy romb"ni tashkil etuvchi to'rtta unsurdan iborat.

Ular quyidagilar:

1. Omillar bilan ta'minlanganlik.
2. Talab parametrlari.
3. O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar.
4. Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti.



**10.10-rasm. M.Porterning raqobat ustunliklari rombi<sup>203</sup>**

**1. Omillar bilan ta'minlanganlik.** Ishlab chiqarish omillari nazariyasi bo'yicha tovar aylanishining oqimi ishlab chiqarishning mehnat, yer, tabiiy resurslar, sarmoya, infratuzilma kabi omillarini belgilab beradi. Mamlakatda ishlab chiqarish omillarining mavjudligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Ishlab chiqarish omillarini shakllantirish va yangilashning tezligi va samaradorligi hamda iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlarida qo'llash muhimdir. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat.

Mehnat, material, bilim, pul, infratuzilma resurslari bilan ta'minlanish mamlakatning raqobatdoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu resurslarning ba'zilari oldindan mavjud bo'lsa, ayrimlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

**2. Talab parametrlari.** Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorlardagi talabning hajmi, tarkibi va ularning o'zgarishi milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu mahsulotlarga talab hajmining oshishi milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshiradi va aksincha, pasaytirish.

**3. O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar.** Raqobatdosh hamkor tarmoqlarning mavjudligi murakkab mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mamlakat ichidan qimmat resurslarni topish, mahsulot yetkazib beruvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, yangiliklarni joriy qilishga ko'maklashish imkonini beradi.

Turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar determinanti quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

<sup>203</sup> Yaxshiyeva M.T. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 73-74 bb.

- Mamlakat siyosiy va huquqiy tizimining barqarorligi;
- Insonni rivojlantirishga (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ehtiyojlarga) qaratilgan katta qo'yilmalar;
- Aholi hayot kechirishining uzoqligi;
- Ishchi kuchi resurslarining raqobatbardoshligi;
- Mamlakat aholisi ta'lim darajasining yuqoriligi.

**4. Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti.** Firmani boshqarishda raqobatning xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bunda turlicha strategiya va maqsadlar ishlab chiqiladi. Ichki bozorda keskin raqobatning mavjudligi firmalarni o'z faoliyatini takomillashtirishga, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun tashqi bozorlarga chiqishga undaydi. Kuchli ichki raqobat muhitida toblangan firmalar tashqi bozorlarda ham osonroq muvaffaqiyatga erishadi.

M.Porter konsepsiyasiga asoslangan zamonaviy model mamlakatning umumiy xususiyatga ega bo'lgan va unda ishlab chiqaruvchilar raqobatlashadigan bozor muhitini shakllantiruvchi 4 ta xususiyatdan iborat. Ushbu muhit raqobat ustunliklarini shakllantirishga ko'maklashishi yoki aksincha unga to'sqinlik qilishi mumkin.

Globalashuv sharoitida mamlakat milliy raqobatbardoshligini oshirishga M.Porterning "raqobat ustunliklari rombi"da ko'rsatilganlar bilan birga narx va narx bilan bog'liq bo'lmagan boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Narxni shakllantirish mehanizmi bozor iqtisodiyoti sharoitida narx shakllanishi qoidalarini belgilovchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. JST (Jahon savdo tashkiloti)ga kirish jarayonida O'zbekiston oldida murakkab vazifa turibdi - ishlab chiqarishni maksimal samaradorligiga va raqobat afzalliklariga erishish maqsadlarida xarajat va narxlarning shakllanishiga davlatning ta'sir ko'rsatishini saqlagan xolda, bozor narxlariga to'liq ravishda o'tish masalasi.

Narx shakllanishini tartibga solishning samarali modeli mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam ko'rsatishi kerak. Bunda korxonaning sof daromadi ko'lamlari "olib sotarlik omillari" (narxlarni oshirish o'yini)ga emas, balki resurslardan samarali foydalanishga bog'liq bo'lishi kerak. Narx shakllantirish mexanizmi (renta va boshqa to'lovlar) yordamida turli hududlardagi tabiiy-iqlim, geografik va boshqa xo'jalik sub'ekti faoliyatiga bog'liq bo'lmagan omillarning ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxiga ta'sirini "tekislab yuborish" zarur. Davlat boshqaruvining yana bir muhim vazifasi ijtimoiy tovar ishlab chiqaruvchilarini import mahsulotlar bilan bir qatorda, mahalliy korxonalar tovarlariga ham qo'yilishi mumkin bo'lgan demping (asossiz ravishda pasaytirilgan) narxlardan himoya qilishdir. Bu narsani import mahsulotlari bo'yicha asoslangan ravishda "keltiriladigan mollarga ustama narx" (aksiz yoki boj) joriy etish, mahalliy tovarlar bo'yicha esa - xarajatlar tarkibini shakllantirish

qoidalari va alohida xarajatlarning me'yoriy ko'rsatkichlarini o'rnatish, tannarxni kalkulyatsiya qilish tizimini yaxshilash, barcha korxonalar uchun qonun tomonidan tasdiqlangan hamma uchun majburiy bo'lgan mehnatga haq to'lashning eng kam va eng yuqori stavkalarini tasdiqlash orqali amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari narxlar shakllanishining davlat tomonidan tartibga solib turishda konchilik sanoati mahsulotlari, yonilg'i-energetika majmuasi, metallurgiya, shuningdek, monopolistlar tovarlari (xizmatlari) narx (tarif)larining belgilanishi ustidan nazorat qilish ham ko'zda tutiladi.

Umuman olganda, narx shakllanishining davlat tomonidan boshqarish tizimi davlatning narx bo'yicha siyosati yo'nalishlari asosida shakllangan bo'lishi lozim.

Narxlarni erkinlashtirish – iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ko'p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog'liq bo'ladi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi, umuman olganda, ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina mahsulotning individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, uning narxini arzonlashtirish imkoni tug'iladi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamida ham raqobat bo'lishi mumkin. Bunday holatda yangi tovarlar sifatining oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ularning narxi oshishiga qaraganda tezroq natija beradi.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalari ega bo'lishi mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar.

Narxsiz raqobat usullari ichida marketing muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalarining har doim raqobat kurashida yutib chiqish imkoniyati ortadi.

Mamlakatlarning milliy va xalqaro raqobatbardoshligiga iqtisodiy omillar bilan birga ijtimoiy omillar ham ta'sir etadi. Taraqqiyotning bugungi davrida "inson omili" raqobatbardoshlikning asosiy ijtimoiy omili sifatida qaraladi va bu omilning shakllanishi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hamda texnologik shart-sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim uning asosiy tarkibiy qismlardan biri ekanligi yangilik emas. Soddalashtirilgan statistika tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inson rivojlanishi indeksining qariyb 40 %i ta'lim darajasi ko'rsatkichiga bog'liq. O'z navbatida, buning uchdan ikki qismi qismi katta yoshli aholisining savodxonlik darajasi, uchdan bir qismi ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotganlarning jami koeffitsenti, ya'ni 6 yoshdan 24 yoshgacha bo'lganlar ulushi bilan belgilanadi.

O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida turadi. O'zbekistonda ta'lim ko'rsatkichi 0,998 ni tashkil etgani holda jahon bo'yicha ushbu o'rtacha ko'rsatkich 0,77 ga tengdir.


Mehnatni bilimlar bilan almashtirish bilan bog'liq tub o'zgarishlarning mohiyati shundan iboratki, bilimlar resurslarini qayta ishlashga jalb qilinar ekan, mehnat emas, balki bevosita bilimlar qiymat manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining mutaxassislari tomonidan bilimga asoslangan iqtisodiyotga batafsilroq ta'rif berilgan, ya'ni u "bilimlar barcha tarmoqlar, barcha sektorlar, iqtisodiy jarayonlarning barcha qatnashchilarini boyitadigan iqtisodiyotdir. Ayni paytda bunday iqtisodiyot turli shakllardagi bilimlardan foydalanibgina qolmasdan, balki mazkur bilimlarni yuqori texnologiyali mahsulotlar, yuqori malakali xizmatlar, ilmiy mahsulot va ta'lim sifatida yaratadi" (10.11-rasm)<sup>204</sup>.

Bilimga asoslangan iqtisodiyot "moddiy iqtisodiyot"dan "intellektual iqtisodiyot"ga o'tishni nazarda tutadi. Buning mohiyati shundan iboratki, bilimlar va maxsus noyob ko'nikmalar barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy manbai va hal qiluvchi omiliga aylanadi.

---

<sup>204</sup> Yaxshiyeva M.T. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 90 bet.



### 10.11-rasm. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning tarkibiy qismlari

Bilimga asoslangan iqtisodiyot infratuzilmasiga iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan quyidagi omillar kiradi:

- yuksak sifatli turmush darajasini amalga oshiradigan samarali davlat institutlari;
- yuqori sifatli ta'lim;
- samarali ilm-fan;
- samarali ilmiy-texnikaviy venchur biznesi;
- yuqori sifatli inson kapitali;
- bilimlar va yuqori texnologiyalarning yaratilishi;
- axborot jamiyati yoki bilimlar jamiyati.

Hozirgi vaqtda faqat AQSh hamda Yevropa Ittifoqiga a'zo ayrim davlatlarining iqtisodiyotini bilimlarga asoslangan iqtisodiyot deb atash mumkin. Jahonning ushbu taraqqiy etgan davlatlari olimlar g'oyalarini tovarlar va mahsulotlarga tez va samarali aylantirish uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratdilar. Bevosita ilmiy tadqiqotlar, inson kapitaliga investitsiyalarning ortishi va buning natijasida eng yangi texnologiyalarning o'zlashtirilishi jahonning yetakchi mamlakatlariga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash imkoniyatini bermoqda.

## **10.7. Mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda milliy iqtisodiyot xavfsizligi o'rnining kuchayib borishi**

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimoti asosida milliy iqtisodiyotlar o'rtasida barqaror, har tomonlama o'zaro aloqadorlikning shakllanishi oqibatida xo'jalik hayotining xalqaro miqyosda baynalmilallashuvini ifodalaydi. Buning oqibatida iqtisodiy makon vujudga kelmoqda. Ushbu makonda xalqaro tovarlar, xizmatlar, xomashyo resurslari, moliyaviy mablag'lar, kapital, ishchi kuchi bozorlari vujudga kelib, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik hamda bog'liqlik kuchaymoqda. Jahon miqyosida global-texnologik, moliyaviy, axborot, madaniy tizimlar jadal ravishda rivojlanmoqda.

Iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi, qo'shma korxonalar ko'paya bordi, ichki bozorlar sifatli mahsulotlar bilan to'la boshladi. Ammo, shu bilan birga, buning mamlakat manfaatlariga zid tomoni ham ko'zga tashlana boshladi. Bunday holat quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- respublikaning ilg'or texnologiyalarga ega bo'lishiga muayyan cheklovlarning o'rnatilishi;
- mamlakatga ma'naviy va moddiy jihatdan eskirgan texnika hamda texnologiyalarni olib kirishga urinish;
- milliy raqobatbardosh mahsulotlarni xorijiy bozorlarga chiqarishga to'sqinlik qilish, ilgari o'zlashtirilgan bozorlardan siqib chiqarishga urinish;
- milliy boylikning bir qismini xorijiy kapital tomonidan qo'lga kiritilishiga imkon yaratilishi;
- muhim xomashyo tovarlari va kapitalni chetga chiqarish ustidan nazorat qilish mexanizmining yetarli darajada shakllanmaganligi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning erkinlashtirilishi sharoitida xo'jalik sub'ektlari faoliyatini nazorat qilish mexanizmining takomillashmaganligi tufayli, bu sohada jinoiy guruhlar, korrupsiya, xufyona iqtisodiyot, narkobiznes, iqtisodiy qaroqchilik ham jonlana boshladi. Shuningdek, ayrim holatlarda jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuv maqsadlari bilan milliy ishlab chikaruvchilar manfaatlari o'rtasida ziddiyat vujudga kelganligi tufayli, asosiy energiya va xomashyo mahsulotlarining jahon hamda ichki narxlari o'rtasida nomutanosibliklar vujudga keldi.

O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda iqtisodiyotni tezda ochiq qilib qo'yish, tashqi iqtisodiy faoliyatni jadal erkinlashtirish mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarning kuchayishiga olib keldi. Bu holat esa milliy ishlab chikaruvchilar faoliyatining cheklab qo'yilishi, moliyaviy pul tizimining normal



faoliyatiga xavf tug'ilishi, importga, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga o'ta qaram bo'lib qolishga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayoni evolyutsion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, manfaatlariga tahdidlardan himoyalani uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- taklif etilayotgan investitsion loyiha va xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan yirik bitimlar, iqtisodiy xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda, dastlabki mustaqil ekspertizadan o'tkazish;

- xorijiy kapital uchun ustuvor soha va tarmoqlar bilan bir qatorda, ularning kiritilishi ma'n qilinadigan soha va tarmoqlar ham qonuniy asosda belgilab qo'yilishi kerak;

- xorijiy investorlar tomonidan ayrim sohalarda aksiyalarni xarid qilish jarayonlarini qat'iyilashtirish;

- xorijiy investorlarning strategik tarmoqlarda milliy boylikning katta qismini qo'lga kiritishlariga yo'l qo'ymaslik;

- mamlakat bank tizimining ishonchini himoyalash;

- tashqi faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlaridagi rahbar kadrlarning malakasini oshirish, ularni o'qitish va qayta tayyorlash;

- ichki bozorni, milliy ishlab chikaruvchilarni tashqi raqobatchilar tajovuzidan himoya qilish;

- tashqi iqtisodiy aloqalar infratuzilmasini rivojlantirish;

- tashqi bozorlarda milliy eksportchilar va ishlab chikaruvchilarning diskriminatsiya qilinishi, turli shakldagi kamsitilishlardan himoya qilish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi nizo va kelishmovchiliklarni ko'p tomonlama tartibga solish mexanizmlari teng huquqli shartnomalar tuzish orqali hal qilinishiga intilish lozim bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor mamlakat tovar ishlab chikaruvchilari va fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi;

- chet ellardagi respublika mulkini himoya qilish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi savdodan yuqori foyda, iqtisodiy samara olishga intilish bilan bir vaqtda, mamlakatning jahon iqtisodiyoti tizimida o'ziga mos nufuzli o'rinni egallashiga intilishi kabilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashda davlat markaziy o'rin egallaydi. Bu boradagi davlatning vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- davlatni mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko'lamlarini o'z ichiga oladigan taktik xamda strategik qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta'minlash;

- iqtisodiy va ma'muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalga oshirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko'rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;

- boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar tizimida himoyalaniшни rag'batlantirish tartiblarini ko'zda tutadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni hayotga tatbiq etish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy jihatdan himoyalashni ta'minlash;

- iqtisodiyotda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdor shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdagi faoliyatini uyg'unlashtirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv ishlari, o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib boriladi:

- iqtisodiy huquqbuzarliklarning manbalari va ularning sub'ektlariga qarshi kurashish;

- barcha qonun, me'yoriy hujjatlar hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash talablariga mosligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasi uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat milliy iqtisodiyot resurslari, zahiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, bozor strukturasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor kon'yunkturasining o'zgarishlarga moslashuvchanligi boshqa mamlakatlarning qo'llab-quvvatlashi, xalqaro uyushma va tashkilotlarda ishtirok eta olishi bilan ifodalanadi.

Mamlakatning iqtisodiy mustahkamligi, unga nisbatan qo'llanilayotgan blokada, sanksiya va tahdidlar kuch bilan ta'sir qilishga qarshilik ko'rsatishga qodirligini o'ziga mujassamlashtiradi. Uni ta'minlash uchun milliy manfaatlarni kelishtirish, muvofiqlashtirishning siyosiy mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish lozim.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun milliy iqtisodiyotning jahon hamjamiyati bilan takror ishlab chiqarish jarayonlariga to'sqinlik kilmaydigan hamda tahdidlar xavfini keskin kamaytirishga imkoniyat beradigan o'zaro uyg'unlashgan sharoitlarini yaratishga intiladi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim bo'ladi. Buning uchun mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy

tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo, oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni, mahsulotlarni eksport qilishga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning samarali tizimi shakllantirilishi lozim. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barcha turdagi korxonalar va tashkilotlar xo'jalik yuritishining umumiy qoidalarini o'rnatuvchi makroiqtisodiyotni tartiblash;

- iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va indikativ rejalashtirish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi salohiyatini muvofiqlashtirish hamda davlat mulkini boshqarishning samarali metodlarini qo'llash.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiyotning kriminallashtirishga qarshi kurashish lozim. Jinoiy guruhlarining iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish;

- nodavlat xo'jalik sub'ektlarining ayrim faoliyat turlarini qonun yo'li bilan cheklash;

- ro'yxatdan o'tmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni ma'n qilish;

- iste'molchilar salomatligiga zarar yetkazuvchi mahsulotlar va litsenziyasiz, sifat sertifikatizatsiyasiz tovar sotishni ma'n qilish;

- bankrotlik qonuni talablarini hayotga qat'iy tatbiq etish;

- hukuq-tartibot organlarida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limlari faoliyatini kuchaytirish;

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli nazorat va davlat organlarining tadbirkorlar xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarini cheklash va bunga qarshi kurashish;

- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari erkin amal qilishini ta'minlash bilan bir qatorda, davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish faoliyati samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish.

Mamlakat ichki xavfsizligiga tahdidlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholi, shu jumladan, mehnatga layoqatli aholi, mehnat resurslari sonining o'sish sur'atlarining asosiy fondlar yaratayotgan yangi o'rinlarning o'sish sur'atlariga nisbatan orqada qolishi, kelgusida ishsizlar, daromad olish imkoniyatiga ega bo'lmagan kishilar sonining o'sishiga oshib kelishi mumkin;

- ish haqining aholi, shu jumladan, yollanma ishchi va xizmatchilarning oila daromadlaridagi ulushining kamayishi, ish haqi rag'batlantiruvchanligining pasayishi;

- aholi tarkibida nafaqa yoshidagi keksa kishilar ulushining ko‘payishi (kelgusida ularning ijtimoiy ta‘minoti masalalarida muammolar vujudga keladi);
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillarning ko‘payishi;
- soliq yukining og‘irligi.

Bu omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilib, ijtimoiy ziddiyatlar va tahdidlarni vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga kishilar o‘rtasidagi noformal, iqtisodiy aloqa va munosabatlar ham tahdid soladi. Bu tahdidga sabab bo‘luvchi holatlarni kassa nazoratidan tashqaridagi hisob-kitoblar, maishiy xizmat ko‘rsatish, uy-joylarni ijaraga berishdagi naqd pulli noformal munosabat va aloqalarda ko‘rish mumkin.

Xufyona iqtisodiyot sektorining mavjudligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Xufyona iqtisodiyotning eng xavfli faoliyat sohasi bu narkobiznes sanaladi. Narkotik moddalar ishlab chiqarish uchun jalb etilayotgan mehnat, yer, kapital va tadbirkorlik harakatlari arzon, ulgurji narxlari ham pastdir, lekin uning jamiyatga keltiradigan zarari o‘ta yuqori.

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun korxonalar xo‘jalik moliyaviy faoliyati, jismoniy shaxslarning daromad olishi va xarajatlari to‘g‘risidagi haqqoniy axborotlarni to‘plash, tahlil qilish asosida iqtisodiy-ijtimoiy jaarayonlarni keng qamrovli nazorat qilish tizimini shakllantirish lozim. Bunda davlat boshqa organlar, nodavlat tashkilotlar, uyushmalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda aloqadorlik, hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi kerak bo‘ladi.

## **X bob bo‘yicha qisqacha xulosalar**

Xavfsizlik muammosi mustaqil davlatchilikning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarning qaror topishi bilan bir paytda vujudga keladi. “Xavfsizlik” tushunchasi 1190 yilda Rober ma’lumotnomasiga ko‘ra paydo bo‘ldi. Bu tushuncha o‘zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holatini ifodalagan.

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli sub‘ektlariga tegishli bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- alohida fuqarolar;
- xususiy tadbirkorlik, biznes;
- davlat korxonalari;
- milliy iqtisodiyot;
- davlat.

Oziq-ovqat xavfsizligi bu – iqtisodiyotning shunday holati bo‘lib, bunda jahon bozorlari tebranishlaridan qat’i nazar, bir tomondan, ilmiy asoslangan

ko'rsatkichlarga mos miqdorlarda, ikkinchi tomondan, tibbiy me'yorlar darajasida iste'molni qondirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash kafolatlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish omillari omilli matritsa deb nomlanuvchi ko'rsatkichlar bilan bog'liqdir. Omilli matritsa tahlil davomida aniqlangan omil va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqlik darajasini xarakterlaydi. Omilli tahlilning asosiy maqsadi – shaxs, jamiyat va davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydigan umumiy qoidalarini ishlab chiqish va ularning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonidagi nuqsonlar va bu sohalarda eng muhim ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan uzviy bog'lanishini ta'min etishdan iboratdir.

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimoti asosida milliy iqtisodiyotlar o'rtasida barqaror, har tomonlama o'zaro aloqadorlikning shakllanishi oqibatida xo'jalik hayotining xalqaro miqyosda baynalmilallashuvini ifodalaydi. Buning oqibatida iqtisodiy makon vujudga kelmoqda. Ushbu makonda xalqaro tovarlar, xizmatlar, xom ashyo resurslari, moliyaviy mablag'lar, kapital, ishchi kuchi bozorlari vujudga kelib, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik hamda bog'liqlik kuchaymoqda. Jahon miqyosida global-texnologik, moliyaviy, axborot, madaniy tizimlar jadal rivojlanmoqda.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, tashqi dunyoga nisbatan yopiqlik muqarrar inqirozga olib keladi. Mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyalashish darajasi - bu iqtisodiyotning ochiqlik ko'rsatkichidir.

Milliy iqtisodiyot uchun jahon bozoriga jalb etilganlik muhim ahamiyat kasb etadi. «Ochiqlikning» ratsional darajasi va tavsifini tanlash milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlab berishi mumkin.

### **Tayanch iboralar**

Milliy xavfsizlik, siyosiy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, texnologik xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya, milliy iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiyotning ochiqligi, xufyona iqtisodiyot.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini izohlang.
2. Mamlakat iqtisodiy tizimining qanday darajalaridagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy xavfsizlik ob'ektlari hisoblanadi?
3. Iqtisodiyot sub'ektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik qanday shakllarda namoyon bo'ladi?

4. Oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning muhim shartlari qaysilar?
5. Aholining oziq-ovqat xavfsizligi holatini baholash qanday ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi?
6. Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko'rsatkichlari (indikatorlari) nimalardan iborat?
7. Taraqqiyotning hozirgi davrida ilmiy tadqiqotlar va tahlillar asosida iqtisodiy xavfsizlik omillari qanday tasniflanadi?
8. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki omillar tarkibini tushuntiring.
9. Iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir etuvchi tashqi omillar qatoriga qaysilar kiritiladi?
10. Jahon amaliyotida iqtisodiyotning ochiqlik darajasi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?
11. Iqtisodiyotning ochiqlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
12. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va manfaatlariga tahdidlardan himoyalaniş uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim?
13. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning qanday samarali tizimi shakllantirilishi lozim?
14. Qanday unsurlar mamlakat ichki xavfsizligiga tahdidlar sirasiga kiradi?

# **“GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH” FANI BO`YICHA TESTLAR**

## **I BOB. “GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

**1. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlaridan biri xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global ravishda rivojlanib borishi qaysi davrlarga to‘g‘ri keladi?**

- A) XIX asrning iqkinchi yarmi va XX asrning boshlarida
- B) XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning o‘tgan 20 yilida
- C) XX asrning birinchi yarmi va XXI asrning boshlarida
- D) XX asrning 80 yillarida

**2. Global iqtisodiy munosabatlar tizimiga qanday munosabatlar kiradi?**

A) Ilm-fan taraqqiyoti, global miqyosdagi material, xalqaro kapital va investitsiyalar harakati, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.

B) Kredit va qarz, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, global iqtisodiy integratsiya, moliyaviy va savdo operatsiyalarning qoida va chegaralarini universallashtirish.

C) Xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, xalqaro kapital va investitsiyalar harakati, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, global iqtisodiy integratsiya.

D) axborot, global miqyosdagi material, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, kapitalni joylashtirish.

**3. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi rivojlanish jarayonida nechta rivojlanish bosqichini o‘tdi?**

- A) 2 ta
- B) 5 ta
- C) 4 ta
- D) 3 ta

**4. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi shakllanishining birinchi bosqichi qaysi davrlarga to‘g‘ri keladi?**

- A) XIV – XIX asr oxiri
- B) XV – XVI asr oxiri
- C) XIX asr oxiri - XX asr boshlari
- D) I va II jahon urushlari o‘rtasidagi davr

**5. Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi bir nechta muhim iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq holda yuz beradi. Ushbu jarayonlarga qaysi jarayonlarni kiritish mumkin?**

- A) xalqaro kapital migratsiyasi, erkin savdo, tashqi savdo siyosati.
- B) xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, global iqtisodiy integratsiya.
- C) Xalqaro mehnat taqsimoti, erkin savdo, kapitalni joylashtirish
- D) global miqyosdagi material, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, tashqi savdo siyosati

**6. Jahon xo‘jaligi rivojlanishining ikkinchi bosqichi qaysi davrlarga to‘g‘ri keladi?**

- A) XIV – XIX asr oxiri
- B) XV – XVI asr oxiri
- C) XIX asr oxiri - XX asr boshlari
- D) I va II jahon urushlari o‘rtasidagi davr

**7. Globallashuvning uchinchi bosqichi qaysi davrlarga to‘g‘ri keladi?**

- A) ikkinchi jahon urushi oxiridan 90–yillar boshigacha
- B) XV – XVI asr oxiri
- C) XIX asr oxiri – XX asr boshlari
- D) I va II jahon urushlari o‘rtasidagi davr

**8. Integratsion birlashmalarning ko‘rinishlari qaysilardan iborat?**

- A) Erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq
- B) Erkin savdo hududi, Yevropa ittifoqi, umumiy bozor, MYeRKOSUR
- C) NAFTA, bojxona ittifoqi, MYeRKOSUR, iqtisodiy ittifoq
- D) MYeRKOSUR, bojxona ittifoqi, Yevropa ittifoqi, iqtisodiy ittifoq

**9. Pol Roberts nechta savdo blokini taklif etgan?**

- A) 2 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 3 ta

**10. Globallashuvning to‘rtinchi bosqichi qaysi davrlarga to‘g‘ri keladi?**

- A) 90–yillar boshidan hozirgi davrga qadar
- B) ikkinchi jahon urushi oxiridan 90–yillar boshigacha
- C) XIX asr oxiri – XX asr boshlari
- D) I va II jahon urushlari o‘rtasidagi davr



**II BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI  
KONSYEPSIYALARINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH  
BOSQICHLARI VA YO‘NALISHLARI**

**1. Globallashuv atamasi birinchi marta kim tomonidan qo‘llanilgan?**

- A) R.Robertson
- B) T.Levit
- C) I.Vallerstrayn
- D) N.Luman

**2. Globallashuv atamasi qachon amerikalik sotsiolog J.Maklean tomonidan konseptual atamalardan biri sifatida ishlatilgan?**

- A) 1981 yilda
- B) 1983 yilda
- C) 1950 yilda
- D) 1987 yilda

**3. Hozirgi kunda globallashuv atamasining talqiniga necha xil yondashuv mavjud?**

- A) 2
- B) 5
- C) 3
- D) 4

**4. Globallashuv haqidagi ilmiy g‘oyalarning 1950 yildan hozirgi kungacha rivojlanishi nechta davrni o‘z ichiga oladi?**

- A) 6
- B) 5
- C) 4
- D) 3

**5. Qaysi tashkilot ekspertlari globallashuvni “...tovarlar, xizmatlar va global kapital oqimlaridagi xalqaro bitimlarning ko‘payishi va xilma-xilligi natijasida dunyodagi mamlakatlarning o‘sib borayotgan iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, texnologiyaning tobora tez va keng tarqalishi» sifatida talqin qilishadi?**

- A) Xalqaro valyuta jamg‘armasi
- B) Jahon banki
- C) Transmilliy banklar
- D) Jahon savdo tashkiloti

**6. Skeptitsizmning faol tarafdorlari qatoriga S.Xantington, P.Xirst, G.Tompson va S.Krasnerlarni kiritish mumkin?**

- A) S.Xantington, R.Robertson, A.Appadurai va S.Krasnerlarni

- B) N.Luman, P.Xirst, B.Terner va A.Zinovevlarni
- C) S.Xantington, P.Xirst, G.Tompson va S.Krasnerlarni
- D) I.Vallerstrayn, D.Meyer, G.Tompson va R.Robertsonlarni

**7. Kimlarning fikricha XX asrning 90-yillari oxirigacha erishilgan iqtisodiy hayotning baynalmilallashuv darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, jahon iqtisodiyoti hali to'la globallashtirmagan?**

- A) P.Xirst va G.Tompson
- B) N.Luman va P.Xirst
- C) S.Xantington va G.Tompson
- D) I.Vallerstrayn va R.Robertson

**8. 1968 yilning aprelida insoniyatning hozirgi va kelajakdagi murakkab ahvolini muhokama qilish maqsadida Rimda qancha olim, iqtisodchi, pedagog va xodimlardan iborat guruh to'plandi?**

- A) 100 nafar
- B) 30 nafar
- C) 40 nafar
- D) 50 nafar

**9. Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya (ARXK) qachon tashkil etildi?**

- A) 1985 yilda
- B) 1950 yilda
- C) 1983 yilda
- D) 1974 yilda

**10. Globallashtiruvning "jahon tizimlari" nazariyasi asoschisi kim?**

- A) F.Brodel
- B) K.Sorinel
- C) R.Robertson
- D) I.Vallersteyn

### **III BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLARI, BYELGILARI VA SHAKLLARI. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**1. Transmilliy korporatsiya (TMK)lar taraqqiyoti ularning son va sifat jihatidan o'sishi bilan XXI asrning boshlariga kelib son jihatidan qancha miqdorga yetib keldi?**

- A) 50 mingdan ortiqroqqa
- B) 200 mingdan ortiqroqqa
- C) 100 mingdan ortiqroqqa

D) 150 mingdan ortiqroqqa

**2. TMKlarning qo‘l ostida xususiy ishlab chiqarish fondlari (XIChF)ning necha foizi nazorat qilinmoqda?**

A) 30 %

B) 50 %

C) 40%

D) 20%

**3. Yuqori texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar bozorida bozorning necha foizini nazorat qilayotgan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya mamlakatlarining kompaniyalari yetakchilik qilmoqda?**

A) 30%

B) 80%

C) 50%

D) 70%

**4. Rus tadqiqotchisi V.Kollontayning fikriga ko‘ra globallashuvning qanday modeli quyidagi asosiy xususiyatlarga ega?**

A) liberal

B) bozor iqtisodiyoti

C) raqobat

D) noliberal

**5. ... – bu korxonalarining raqobatchilar mahsulotiga nisbatan narx va narx bilan bog‘liq bo‘lmagan xususiyatlari bo‘yicha iste‘molchilarga yanada jozibador bo‘lgan mahsulotlarni loyihalashtirish, ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha real va potensial qobiliyatidir.**

A) liberalizm

B) noliberalizm

C) raqobatdoshlik

D) pul-kredit siyosati

**6. Kapitalning ishlab chiqarish va banklar ishidagi konsentratsiyasi, xo‘jalik aloqalarining baynalmilallashuvi, banklararo telekommunikatsiyalarning rivojlanishi kabi jarayonlar qaysi bozorlarni tashkil topishining ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi?**

A) Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar bozorlari

B) Transmilliy korporatsiya, qimmatli qog‘ozlar bozorlari

C) Jahon valyuta, jahon moliya, ilmiy-texnikaviy bozorlari

D) Xalqaro moliya bozorlari, qimmatli qog‘ozlar bozorlari

**7. Qanday shaharlar jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada integratsiyalashgan markazlar hisoblanadi?**

A)  $\beta$ -beta shaharlar

- B)  $\alpha$ -alfa shaharlar
- C)  $\gamma$ -gamma shaharlar
- D) global shaharlar

**8. Qanday shahar “alfa shahar” deb ham yuritiladi? U global iqtisodiy tizimning muhim elementi hisoblangan shahardir.**

- A) global shaharlar
- B)  $\gamma$ -gamma shaharlar
- C)  $\alpha$ -alfa shaharlar
- D)  $\beta$ -beta shaharlar

**9. Geosiyosiy markazda joylashgan va bir-biri bilan raqobatlashuvchi faqat uch alfa shaharlar mavjud. Bular tarkibiga qaysi shaharlar kiradi?**

- A) Nyu-York, Parij va Madrid shaharlari
- B) Moskva, London va Parij shaharlari
- C) Parij, London va Seul shaharlari
- D) Nyu-York, London va Tokio shaharlari

**10.  $\beta$ -shaharlar tarkibiga qaysi shaharlar kiradi?**

- A) Nyu-York, Parij va Seul shaharlari
- B) Moskva, London va Parij shaharlari
- C) Moskva, Sanpaul, Seul shaharlari
- D) Nyu-York, London va Sanpaul shaharlari

#### **IV BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV MUAMMOLARI VA ULARNING GURUHLANISHI**

**1. Global muammolarning belgilari sifatida odatda nechta mezonga javob beradigan belgilar ko‘rsatiladi?**

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 6 ta

**2. Kimning fikricha, global muammolarning keskinlashuvi bilan insoniyat xavf-xatarga to‘la tarixiy davrga kirib bormoqda, bu davrda nafaqat odamlar, balki barcha jonzorlar xavf ostida bo‘ladilar.**

- A) A.I.Kostinning
- B) I.T.Frolovning
- C) B.Shnaydarning
- D) V.V.Zagladinning

**3. Qachon ishlab chiqilgan va umumiy qabul qilingan tasnifga ko‘ra, global muammolarning uchta asosiy guruhi mavjud?**

- A) 1950-yillar o'rtalarida
- B) 1980-yillar boshida
- C) 1970-yillar oxirida
- D) 1990-yillar boshida

**4. Global muammolarning umumiy xususiyati asosidagi o'ziga xos tasnifi kim tomonidan taklif qilingan?**

- A) V.V.Zagladin
- B) A.I.Kostin
- C) B.Shnayder
- D) Yu.Gladkiy

**5. Kimning fikricha, g'arbiy Yevropa shaharlari va mamlakatlari o'rtasidagi savdoning keskin o'sishi natijasida XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab "Yevropa jahon iqtisodiyoti", ya'ni Yevropa mamlakatlarini qamrab olgan global iqtisodiyot shakllana boshladi?**

- A) A.I.Kostin
- B) V.V.Zagladin
- C) I.Uollershteyn
- D) Yu.Gladkiy

**6. Globallashuv tarixining 1-davrini ko'rsating.**

- A) XII asr o'rtalari – XV asr oxiri
- B) XVI asr o'rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi
- C) XI asr o'rtalari – XIV asr oxiri
- D) XV asr o'rtalari – XVI asrning ikkinchi yarmi

**7. Globallashuv tarixining 2-davrini ko'rsating.**

- A) XII asr o'rtalari – XV asr oxiri
- B) XVI asr o'rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi
- C) XI asr o'rtalari – XIV asr oxiri
- D) XV asr o'rtalari – XVI asrning ikkinchi yarmi

**8. Globallashuv jarayoni bosqichlari uning alohida xususiyatlari va belgilariga ko'ra nechta asosiy davrga bo'lib ko'rsatiladi?**

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

**9. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ikkinchi global integratsiya sikli nechanchi yildan boshlandi?**

- A) 1942
- B) 1956
- C) 1945

D) 1946

**10. Globallashuv tarixining 5-davrini ko'rsating?**

A) XII asr o'rtalari – XV asr oxiri

B) XVI asr o'rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi

C) 1960-yillarning oxiri – hozirgi davr

D) XVI asr o'rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi

**V BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI  
MUAMMOLARINING OQIBATLARI VA HAL ETISH YO'LLARI**

**1. Qaysi davrda globallashuv jahon iqtisodiyoti rivojlanishining eng muhim omillaridan biriga aylandi?**

A) XIX asr oxiri va XX asr boshlari

B) XX asr oxiri va XXI asr boshlari

C) XX asr o'rtalari

D) XVIII asr oxiri va XIX asr boshlari

**2. Davlatlarning o'sib borayotgan o'zaro iqtisodiy bog'liqligi sharoitida xalqaro institutlar paydo bo'ldi?**

A) Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Jahon savdo tashkiloti

B) Xalqaro savdo tashkiloti, Jahon banki

C) Jahon banki, Xalqaro moliya instituti, Osiyo taraqqiyot banki

D) Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro savdo tashkiloti va Jahon savdo tashkiloti

**3. 1970-yillarda xalqaro savdo hajmi jahon yalpi mahsulotining qancha foizini tashkil etgan?**

A) 40%

B) 60%

C) 30%

D) 20%

**4. Xalqaro banklararo tizim va hisob-kitob tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi kunlik qancha miqdordan ortiqroqni tashkil etadi?**

A) 10 trillion dollar

B) 4 trillion dollar

C) 1,2 trillion dollar

D) 6 trillion dollar

**5. Qaysi hujjatlarida atrof-muhitni muhofaza qilishning hududiy strategiyalarini rivojlantirish va Yevropa hududidagi tabiiy resurslardan uzoq kelajakda ham oqilona foydalanish zarurati bir necha bor ta'kidlangan?**

A) BMT

B) Jahon savdo tashkiloti

- C) Yevropa Ittifoqi
- D) Xalqaro valyuta fondi

**6. Siyosatshunoslikda suverenitet davlatning to'la mustaqilligi, ya'ni ichki siyosatda ustunligi va tashqi siyosatda mustaqilligi shaklidagi eng muhim xususiyati sifatida ta'riflanadi. Bu tushuncha qachon keng tarqalgan?**

- A) XIX asrda
- B) XVIII asr oxiri – XIX boshlari
- C) XX asrda
- D) XV asr o'rtalari – XVI asrning ikkinchi yarmi

**7. Qaysi olimning globallashuv sharoitida mintaqalashuvni o'rganish asosidagi “yangi iqtisodiy geografiya” nomli tadqiqoti iqtisodiyot yo'nalishida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan?**

- A) B.Shnayder
- B) Pol Krugman
- C) A.I.Kostin
- D) V.V.Zagladin

**8. XXI asr boshida xalqaro savdo hajmi jahon yalpi mahsulotining qancha foizini tashkil etgan?**

- A) 30%
- B) 40%
- C) 60%
- D) 50%

**9. Savdo-siyosiy ochiqligi davlat makroiqtisodiy siyosatining qaysi yo'nalishlari bilan aniqlanadi?**

- A) tashqi savdo, fiskal, valyuta
- B) pul-kredit, valyuta, byudjed-soliq
- C) xalqaro savdo, pul-kredit
- D) pul-kredit, xalqaro savdo, byudjed-soliq

**10. Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi davrda alohida mintaqalarda mavjud bo'lgan qanday muammolar bir-biri bilan integratsiyalashib, global muammolar ko'rinishiga keladi?**

- A) turli texnogen holatlar
- B) kommunikatsiyalarning intensivlashuvi
- C) budjet-soliq
- D) transchegaraviy

## **VI BOB. GLOBALLASHUV VA XALQARO SAVDONING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

### **1. “Iqtisodiy globallashuv” tushunchasi qanday jarayonlarga ajratiladi?**

- A) davlat, xizmatlar, moliyaviy resurslar
- B) texnologiyalar, investitsiyalar, xalqaro ayrboshlash
- C) umumjahon, davlat, tarmoq va alohida kompaniya darajasiga erishish
- D) trans milliy kompaniyalar, tarmoq, tovar va xizmatlar

### **2. Globallashuvning qaysi belgilari orqali ajratiladi?**

A) axborot texnologiyalaridagi inqilob; iqtisodiy inqilob; liberal demokratiyaning o‘rnatilishi; milliylashtirish siyosati sifatida - “lokallashuv”; gorizontaal munosabatlar; qutblashish (polyarizatsiya)

B) axborot texnologiyalaridagi inqilob; iqtisodiy inqilob; liberal demokratiya o‘rnatilishi; milliylashtirish siyosati sifatida - “lokallashuv”

C) axborot texnologiyalaridagi inqilob; iqtisodiy inqilob; liberal demokratiya o‘rnatilishi; milliylashtirish siyosati sifatida - “lokallashuv”; gorizontaal munosabatlar;

D) axborot texnologiyalaridagi inqilob; iqtisodiy inqilob; liberal demokratiya o‘rnatilishi;

### **3. XX asrda globallashuv jarayoni ta’sirida tashqi savdo siyosatini amalga oshirish tamoyillariga qaysilar kiradi?**

- A) Dj.M.Keyns
- B) Dj.M.Keyns, M.Fridman, A. Smit
- C) M.Fridman
- D) A. Smit

### **4. ... – bu boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish siyosatidir.**

- A) xalqaro investitsion siyosat
- B) bozor iqtisodiyoti siyosati
- C) raqobat siyosati
- D) proteksionizm siyosati

### **5. Savdo siyosati instrumentlariga nimalar kiradi?.**

- A) import
- B) eksport
- C) bojxona bojlari, tarif kvotasi, subsidiyalar, kreditlash litsenziyalash
- D) import, eksport

### **6. Tashqi savdoni tarifli tartibga solish usullari jumlasiga nimalar kiradi?**

- A) bojxona bojlari, bojlar, yig‘imlar, shuningdek, boshqa bilvosita soliqlar
- B) aksizlar



C) yigʻimlar,

D) soliqlar

**7. ... – internetning rivojlanishi nafaqat yangi kommunikatsion tizimga, balki moliyaviy operatsiyalar, marketing va reklamani amalga oshirishda, mutaxassislar malakasini oshirishda hamda xalqaro savdoning tez surʻatlar bilan oʻsishi, yangi shakllari paydo boʻlishiga (elektron savdo) kabilarda oʻz aksini topadi.**

A) “E-economy” – elektron iqtisodiyot

B) “E -commerce” – elektron savdo

C) “E -company” – elektron kompaniya

D) global axborot tizimi

**8. ... rivojlanishining muhim tendensiyasi boʻlib, milliy xoʻjalik subʻektlari manfaatlarini davlat milliy chegaralaridan chiqishi, transmilliy iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalar faoliyat sohalari yaratilishi va kengayishi; xususiy, milliy iqtisodiy muammolarni yechish uchun jahon xoʻjalik manfaatlari va jahon resurslari mobilizatsiyasini talab etuvchi, global, jahon darajasiga koʻtarilishini anglatadi.**

A) xalqaro iqtisodiy munosabatlar

B) global iqtisodiy munosabatlar

C) global rivojlanish

D) xalqaro rivojlaniish

**9. Global iqtisodiyotdagi xavf-xatarlarga qaysilar kiradi?**

A) bir mamlakatdan boshqa mamlakatga koʻchayotgan tovarlar va xizmatlar

B) kapital va ishchi kuchi oqimlari

C) global kompaniyalar va axborot tizimlari

D) barcha javoblar toʻgʻri

**10. Zamonaviy globallashuv integratsiyasi nimalar bilan tavsiflanadi?**

A) barqaror iqtisodiy oʻsish

B) zamonaviy texnologiyalar rivoji

C) barqaror iqtisodiy oʻsish, zamonaviy texnologiyalar rivoji, boshqaruv usullarining tatbiq etilishi

D) xalqaro tashkilotlarning koʻpayishi

## **VII BOB. GLOBAL, MINTAQAVIY VA MILLIY MOLIYAVIY BOZORLAR**

**1. Qachon “Umumiy bozor” deb atalgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YeIH) – hozirgi Yevropa Ittifoqi (YeI) tashkil topgan?**

A) 1957 yil

B) 1958 yil

C) 1950 yil

D) 1971 yil

**2. XX asrning 60-yillarida qaysi davlat iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishi, Uzoq Sharq biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi?**

A) Yaponiya

B) Xitoy

C) Singapur

D) Janubiy Koreya

**3. "Rim klubi" nomi bilan mashhur G'arbiy Yevropa olimlari "dunyo miqyosida tez orada tabiiy resurslarning global taqchilligi yuzaga keladi" deb qachon bashorat qilgan edilar?**

A) 1950-yillar o'rtalarida

B) XX asrning 70-yillarida

C) XX asrning 80-yillarida

D) 1990-yillar boshida

**4. Transmilliy korporatsiyalar jahon savdosining qancha qismini nazorat etadi?**

A) 1/3

B) 3/4

C) 1/2

D) 2/3

**5. Jahondagi mavjud patent, litsenziya va nou-xaularning qancha qismi TMKlar tomonidan nazorat qilinadi?**

A) 4/5

B) 2/3

C) 3/4

D) 1/2

**6. Yaponiya iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishi. Uzoq Sharq biznes faoliyatida qachon yangi imkoniyatlarni vujudga keltirgan?**

A) XV asr o'rtalari – XVI asrning ikkinchi yarmi

B) XVI asr o'rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi

C) XI asr o'rtalari – XIV asr oxiri

D) XX asrning 60-yillarida

**7. 1971-1973 yillarda qaysi tizimining qulashiga olib kelgan jahon moliyaviy inqirozlari valyutaning belgilangan kursi tizimidan suzuvchi valyuta kurslariga o'tgan?**

A) "Umumiy bozor"

B) Brettonvuds

C) OPYeK

D) NAFTA

**8. Qachondan boshlab AQSh korporatsiyalarining o‘z xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi kuchayadi?**

A) 1970 yil

B) 1980 yil

C) 1950 yil

D) 1940 yil

**9. Davlatlararo fondlardan qaysilari Yevropa Ittifoqi (YeI)da tashkil etilgan?**

A) Xalqaro Vaqt Byurosi, Atom energetikasi bo‘yicha Xalqaro Agentlik, Dengiz aloqasi bo‘yicha Xalqaro Tashkilot, Ilmiy xizmatchilarning umumjahon Federatsiyasi

B) Yevropa Ittifoqining budjeti, Yevropa Taraqqiyot fondi, Yevropa Valyuta Hamkorlik fondi

C) Xalqaro biologiya dasturi, Xalqaro geodinamik loyiha, Xalqaro osoyishta quyosh yili, 1957 yildan boshlab har ikki-uch yilda chaqiriladigan Xalqaro tog‘ kongressi

D) Yevropa Ittifoqining budjeti, Xalqaro Vaqt Byurosi, Yevropa Taraqqiyot fondi

**10. Xalqaro Valyuta Fondi qachondan o‘z faoliyatini amalda boshlagan?**

A) 1950 yil

B) XVI asr o‘rtalari – XVII asrning ikkinchi yarmi

C) 1960 yil

D) 1946 yil

## **VIII BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA ISHCHI KUCHI BOZORI VA MIGRASIYASI MUAMMOLARI**

**1. Qanday nazariyasining asosiy tamoyillari tashqi bozor aralashuvi natijasida muvozanatdan chiqib ketishi mumkin bo‘lgan erkin bozor faoliyati mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha yondashuvga asoslangan?**

A) Mehnat bozori nazariyasi

B) Bandlik klassik nazariyasi

C) A.Toffler nazariyasi

D) Bandlikning industrial modeli

**2. Bandlik bozor mexanizmi tomonidan muvozanatga kelmaydi, balki u davlatning ishsizlik va inflyatsiya darajasini tartibga solish bilan bog‘liq**

**iqtisodiyotga aralashuvi natijasida barqarorlashadi. Bandlik modellarining ushbu xususiyati qaysi modelda nazarda tutilgan?**

- A) Bandlikning postindustrial modeli
- B) Bandlikning klassik nazariyasi
- C) Keynes modeli
- D) Bandlikning yangi modeli

**3. Moddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlanishiga mutanosib holda sohada band bo'lganlar miqdorining ortib borishi kuzatiladi. Bandlik modellarining ushbu xususiyati qaysi modelda ko'rsatib o'tilgan?**

- A) Bandlikning yangi modeli
- B) Bandlikning klassik nazariyasi
- C) Keynes modeli
- D) Bandlikning industrial modeli

**4. Ishga yollangan mustaqil shaxslar ko'chishi to'g'risida so'z yuritilganda qachon yevropaliklarning okean ortiga chiqib ketishi eng yirik migratsion oqim deb hisoblanadi?**

- A) XVIII–XIX asrlarda
- B) XX asrning 50-yillarida
- C) XIX–XX asrlarda
- D) XIX asrning o'rtalarida

**5. Migratsion jarayonlarni rivojlanishining bu to'lqini XIX asr oxiri – XX asrning boshida sodir bo'lib, eski migratsiya nomini olgan. Bu davr uchun sanoat ishchilarining ko'chishi xarakterlidir.**

- A) ikkinchi to'lqin
- B) birinchi to'lqin
- C) uchinchi to'lqin
- D) ikkinchi va uchinchi to'lqin

**6. Migratsion jarayonlar rivojlanishining nechanchi to'lqini XIX asrning deyarli 2/3 qismini tashkil qiladi va sanoat ishchilarining ko'chishi xarakterli bo'lib, eski migratsiya nomini olgan.**

- A) ikkinchi to'lqin
- B) birinchi to'lqin
- C) uchinchi to'lqin
- D) ikkinchi va uchinchi to'lqin

**7. Ikkinchi jahon urushidan so'ng qoloq mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga o'zaro qarama-qarshi ikkita migratsion guruhlarining ko'chib o'tishi migratsion jarayonlar rivojlanishining nechanchi to'lqini sifatida belgilanadi?**

- A) ikkinchi to'lqin

- B) birinchi to‘lqin
- C) uchinchi to‘lqin
- D) ikkinchi va uchinchi to‘lqin

**8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti klassifikatsiyasi bo‘yicha kimlar doimiy ishlab turuvchi migrantlar deb ataladi?**

- A) Bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ish topish niyatida mamlakatga kirib kelgan shaxslar
- B) Bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib kelgan shaxslar
- C) turistik maqsadda tashrif buyurgan shaxslar
- D) Kontrakt (shartnoma) bo‘yicha ishlaydiganlar shaxslar

**9. BMT klassifikatsiyasiga asoslanib zamonaviy xalqaro migratsiya nechta asosiy turga ajratiladi?**

- A) 4 ta
- B) 3 ta
- C) 6 ta
- D) 5 ta

**10. Asosiy migratsiya oqimining geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jahon ishchi kuchi bozorining 4 ta yirik markazi mavjud: Bular qaysilar?**

- A) Yaqin Sharq, G‘arbiy Yevropa, AQSh va Kanada, Avstraliya
- B) Markaziy Osiyo, G‘arbiy Yevropa, AQSh va Rossiya, Ispaniya
- C) Janubiy Amerika, Shimoliy Yevropa, AQSh va Kanada, Avstraliya
- D) Markaziy Yevropa, Yaqin Sharq, AQSh va Braziliya, Osiyo

## **IX BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA TRANSMILLIY KORPORASIYALAR**

**1. TMK – turli mamlakatlarda joylashgan va yagona markazdan boshqariladigan yagona iqtisodiy maqsad bilan birlashtirilgan turli mustaqil tashkilotlar majmuidir. Ushbu ta’rif muallifi kim?**

- A) M.M.Boguslavskiy
- B) V.G.Yermolayev
- C) G.M.Velyaminov
- D) V.A.Svetkov

**2. Qaysi yillarda uchinchi dunyo mamlakatlariga xususiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning katta oqimi kuzatilgan?**

- A) 1950-1960 yillar
- B) 1960-1970 yillar
- C) 1980-1990 yillar
- D) 1920-1930 yillar

**3.  $I_t = (A_{xa} / A_{ua} + C_x / C_u + X_x / X_u)$ :3 ushbu bog‘lanish qanday indeksni nazarda tutadi?**

- A) Kompaniyalarning transmilliylashuv indeksini
- B) Oziq-ovqat sanoati indeksini
- C) Elektrotexnika sanoati indeksini
- D) Xalqaro valyuta fondi indeksini

**4. Korporatsiya daromadidagi yoki sotuvdagi xorijiy operatsiyalarning minimal ulushi odatda necha foizni tashkil etadi?**

- A) 30%
- B) 35%
- C) 25%
- D) 20%

**5. Strategik alyanslar...?**

A) O‘zaro raqobatda bo‘lgan korporatsiyalarning bir-birini to‘ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi

B) Turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) ko‘p sonli korxonalarning uzoq muddat hamkorlik qilish sharti bilan koooperatsion birlashmasi

C) Jahon bozoridagi global masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq

D) Xalqaro firmalararo kooperatsiya

**6. 90-yillar oxirlarida qaysi kompaniyaning yillik savdo hajmi Finlyandiya, Daniya, Norvegiya, Saudiya Arabistoni, Indoneziya va Argentinaning YaIMidan katta edi?**

- A) «Maykrosoft»
- B) «Koka-Kola»
- C) «Xitachi»
- D) «Djeneral Motors»

**7. Yevropa TMKlari qaysi sohada sezilarli o‘rin egallagan?**

- A) Ximiya va farmatsevtika
- B) Avtomobilsozlik
- C) Elektronika va elektrotexnika
- D) Kimyo sanoati

**8. 90-yillar oxirlarida yirik TMKlar xorijda qancha filiallariga ega edilar?**

- A) 300 mingga yaqin
- B) 200 mingga yaqin
- C) 500 mingga yaqin

D) 400 mingga yaqin

**9. Strategik tizimlar tushunchasiga to‘g‘ri izoh berilgan qatorni toping.**

A) Xalqaro firmalararo kooperatsiya

B) Turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) ko‘p sonli korxonalarining uzoq muddat hamkorlik qilish sharti bilan kooperatsion birlashmasi

C) Jahon bozoridagi global masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq

D) O‘zaro raqobatda bo‘lgan korporatsiyalarning bir-birini to‘ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi

**10. Strategik oilalar tushunchasi qanday ma‘noni anglatadi?**

A) O‘zaro raqobatda bo‘lgan korporatsiyalarning bir-birini to‘ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi

B) Xalqaro firmalararo kooperatsiya

C) Jahon bozoridagi global masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq

D) Turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) ko‘p sonli korxonalarining uzoq muddat hamkorlik qilish sharti bilan kooperatsion birlashmasi.

**X BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI SHAROITIDA  
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MILLIY IQTISODIYOT  
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASH MUAMMOLARI**

**1. Rober ma‘lumotnomasiga ko‘ra “Xavfsizlik” tushunchasi qachon paydo bo‘ldi?**

A) XX asrning oxirlarida

B) 1120 yildi

C) 1190 yilda

D) XVII asrda

**2. Qaysi yo‘nalishdagi xavfsizlik mamlakatning milliy davlat tuzilishi hamda konstitutsion tuzumni himoya qilishga, harbiy-mudofaa xavfsizligi, mamlakat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta‘minlashga qaratilgan?**

A) Ekologik xavfsizlik

B) Siyosiy xavfsizlik

C) Iqtisodiy xavfsizlik

D) Milliy xavfsizlik

**3. ... mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishga qodirligini ta'minlashga yo'naltiriladi.**

- A) Ekologik xavfsizlik
- B) Siyosiy xavfsizlik
- C) Iqtisodiy xavfsizlik
- D) Milliy xavfsizlik

**4. XX asrning 70-yillarida dunyo aholisining qancha qismi to'yib ovqatlanmagan?**

- A) uchdan ikki qismi
- B) to'rt dan uch qismi
- C) ikkidan bir
- D) uchdan bir qismi

**5. Raqobat...?**

A) Iqtisodiy kategoriya sifatida bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi, bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

B) Raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi

C) Raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlari yo'lida umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

D) Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarining shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

**6. Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to'laqonli nazariy qoidalar faqat qachon paydo bo'lgan?**

- A) XVII asrning o'rtalari
- B) XVIII asrning boshlari
- C) XVIII asrning o'rtalari
- D) XVII asrning oxiri

**7. M.Porterning raqobat ustunliklari rombida qaysi jihat ishlab chiqarishning mehnat, yer, tabiiy resurslar, sarmoya, infratuzilma kabi omillarini belgilab berishi ko'rsatilgan?**

- A) Omillar bilan ta'minlanganlik
- B) Talab parametrlari
- C) O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar
- D) Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti



**8. M.Porterning raqobat ustunliklari rombida qaysi jihat mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorlardagi talabning hajmi, tarkibi va ularning o'zgarishi milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb belgilangan?**

- A) O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar
- B) Talab parametrlari
- C) Omillar bilan ta'minlanganlik
- D) Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti

**9. M.Porterning raqobat ustunliklari rombida Firmani boshqarishda raqobatning xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bunda turlicha strategiya va maqsadlar ishlab chiqilishi ko'rsatilgan. Ular qaysilar?**

- A) Omillar bilan ta'minlanganlik
- B) Talab parametrlari
- C) O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar
- D) Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti

**10. M.Porter konsepsiyasiga ko'ra, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari "milliy romb"ni tashkil etuvchi qanday unsurdan iborat?**

A) 1. Omillar bilan ta'minlanganlik. 2. Talab parametrlari. 3. O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar. 4. Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti.

B) 1. Milliy iqtisodiy xavfsizlik. 2. Talab parametrlari. 3. O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar. 4. Biznesning rivojlanish darajasi.

C) 1. Pul-kredit siyosati. 2. Innovatsion salohiyat. 3. O'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar. 4. Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti.

D) 1. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik. 2. Talab parametrlari. 3. Moliya bozorining rivojlanganligi. 4. Firmalar strategiyasi tarkibi va raqobatchilik muhiti.

## ATAMALAR LUG`ATI

<b>Antiglobalizm</b>	globallashtirish jarayonlarning hozirgi kunda namoyon bo'layotgan ba'zi salbiy jihatlariga qarshi yo'naltirilgan siyosiy harakat.
<b>“ATTAC” (Association for the Taxation of Financial Transactions for the Aid of Citizens)</b>	antiglobalistlar tashkiloti.
<b>Bojxona ittifoqi</b>	ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini qo'llashi.
<b>Valyuta</b>	ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlar valyutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari, XVF va Yevropa valyuta tizimi a'zolari tomonidan ko'p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birliklari.
<b>GATT</b>	Savdo va tariflar bo'yicha bosh bitim — tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt.
<b>Global muammolar</b>	olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan va o'z yechimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi dunyoviy sivilizatsiyasining eng dolzarb masalalari.
<b>Global moliyaviy-iqtisodiy bozor</b>	jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.
<b>Davlat budjeti</b>	davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

<b>Deflyatsiya</b>	inflyatsiya davrida muomaladagi qog‘oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.
<b>Diversifikatsiya</b>	(lotinchadan diversus - har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohasini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish.
<b>Yevropa Ittifoqi (YeI)</b>	Yevropaning 27 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.
<b>Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB)</b>	1991 yilda o‘z faoliyatini boshlagan, 34 mamlakati uning ta‘sischilari hisoblanadi. YeTTBning asosiy vazifalari loyihalarni moliyalashtirish va kreditlash, xususiy kapital qo‘yilmalarga kafolatlar berish, iqtisodiyot tuzilishini qayta qurish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqarish.
<b>Yevropa valyuta tizimi (YeVT)</b>	YeI a‘zolarining hududiy valyuta guruhi.
<b>UNCTAD</b>	bu tashkilot 1964 yilning 30 dekabrda tashkil topgan bo‘lib, unga BMTning barcha a‘zo mamlakatlari va boshqa davlatlar ham kiradi. Vazifasi: xalqaro savdoning rivojlanishiga xomiylik qilish, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, xalqaro savdo, shuningdek, xalqaro savdo bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir.
<b>Jahon banki</b>	1944 yilda Xalqaro valyuta jamg‘armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir, o‘z faoliyatini 1946 yil 25 iyunda boshlagan.
<b>Jahon bozori</b>	moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko‘rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish,

		taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol bosqichlarni o'z ichiga oluvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarining (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalarning) o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.
<b>Jahon konyunkturasi</b>	<b>bozori</b>	jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.
<b>Jahon bahosi</b>		talab va taklif egri chiziqlari ta'sirini hisobga olgan holda milliy narx ko'rsatkichlari ta'sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo'ladigan baho me'yorlari.
<b>Jahon savdo tashkiloti (JST)</b>		xalqaro savdoni institutsional va huquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.
<b>Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi</b>		mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozorida o'z o'rnini va mavqegini saqlab qolish va kengaytirish olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati.
<b>Iqtisodiyotning sektori</b>	<b>real</b>	iqtisodiyotning bevosita sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini o'z ichiga oluvchi moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi.
<b>Iqtisodiy o'sish</b>		real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmi yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.
<b>Immigrant</b>		muxojir, boshqa mamlakatdan ko'chib kelgan kishi.
<b>Import</b>		mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish.
<b>Investitsion hamkorlik</b>		xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan

	<p>iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.</p>
<b>Investitsiya</b>	<p>bu iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.</p>
<b>Innovatsion texnologiyalar</b>	<p>joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini o‘z ichiga oluvchi iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo‘llaniluvchi usul va vositalar majmui.</p>
<b>Innovatsiya jarayoni</b>	<p>yangilik g‘oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste‘molchi tomonidan iste‘mol qilinishigacha bo‘lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon.</p>
<b>Inflyatsiya</b>	<p>pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o‘shishi.</p>
<b>Infratuzilma</b>	<p>tovar ishlab chiqarish shartlarini ta‘minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi majmui.</p>
<b>Ishsizlik</b>	<p>iqtisodiy faol aholining bir qismi o‘z kuchini qo‘llay olmay "ortiqcha", mehnat zaxirasi bo‘lib qolish hodisasi.</p>
<b>Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS)</b>	<p>BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo‘lib, uning xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.</p>
<b>Iqtisodiy integratsiya</b>	<p>hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo‘li orqali milliy xo‘jalik komplekslarining o‘zaro yaqinlashish va bir-biriga</p>

	kirib borish jarayoni.
<b>Iqtisodiy ittifoq</b>	iqtisodiy integratsiyaning oliy ko‘rinishi, u umumiy huquqiy me‘yorlar, soliq bazasining soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarning joriy etilishi, yagona valyutaga o‘tish kabilar bilan tavsiflanadi.
<b>“Katta yigirmalik”</b>	20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo‘lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi ular hissasiga to‘g‘ri keladi.
<b>Kon’yunktura</b>	bu bozorda ma‘lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holat (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog‘liq bo‘lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).
<b>Kooperatsiya aloqalari</b>	turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma‘lum mahsulotni tayyorlash bo‘yicha uzoq muddatli aloqalar o‘rnatish.
<b>Korxonaning innovatsion salohiyati</b>	korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati.
<b>Kredit</b>	jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.
<b>Modernizatsiya</b>	ob’ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me‘yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish.
<b>Moliya tizimi</b>	moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

<b>Moliya-bank tizimi</b>	tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmui.
<b>Moliyaviy institutlar</b>	belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.
<b>Monopoliya</b>	biror jarayon nisbatan masalan, tovarlar ishlab chiqarish, savdo qilish, tashqi savdo, xizmatlar ko'rsatish va boshqalarga favqulodda huquq.
<b>Narx</b>	tovar qiymatining puldagi ifodasi.
<b>Nou-xau</b>	mualliflik guvohnomasi (patent) bilan himoyalangan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlari.
<b>Oziq-ovqat xavfsizligi</b>	milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati.
<b>Portfel investitsiyalar</b>	xo'jalik ob'ektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish xuquqini kafolatlovchi kapital qo'yimalari.
<b>Preferensiya</b>	iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.
<b>Proteksionizm</b>	davlatning ichki bozorni xorij raqobatidan himoya qilish siyosati mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish miqdoriy cheklaydi yoki umuman ta'qiqlaydi.
<b>Pul-kredit siyosati</b>	davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.
<b>Pul</b>	hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan,

	umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.
<b>Samarali iqtisodiy siyosat</b>	davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o‘zaro uyg‘unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.
<b>Soliqlar</b>	belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari.
<b>Savdo va taraqqiyot bo‘yicha BMT anjumani (YuNKTAD)</b>	BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.
<b>Sanoat taraqqiyoti bo‘yicha BMT Anjumani (YuNIDO)</b>	BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.
<b>Stagnatsiya</b>	iqtisodiyotdagi turg‘unlik.
<b>Tashqi qarz</b>	mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag‘larining umumiy hajmi.
<b>Tashqi nodavlat qarzlar</b>	mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag‘larining umumiy hajmi.
<b>Tashqi savdo</b>	bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.
<b>Tashqi savdo siyosati</b>	bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati.



<b>Transmilliy korporatsiyalar (TMK)</b>	chet el aktivlariga ega bo'lgan yirik kompaniyani iqtisodiy tashkillashtirish ko'rinishi.
<b>Turmush darajasi</b>	aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.
<b>To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar</b>	bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish.
<b>To'lov balansi</b>	muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet ellardan tushgan to'lov summalari nisbati.
<b>Fond bozori</b>	qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.
<b>Xalqaro kredit</b>	valyuta va tovar resurslarini qaytarish yoki shoshilinch to'lov shartlari bilan belgilangan kelishuv.
<b>Xalqaro tashkilotlar</b>	yer yuzida olib borilayotgan xalqaro siyosat iqtisodiy taraqqiyot umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan mamlakatlar faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar tizimi.
<b>Xalqaro tranzit</b>	mamlakat hududidan tashqarida xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish, maxsus chegara punktlar orqali tashilishidir.
<b>Xizmat ko'rsatish sohasi</b>	ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari.
<b>Xalqaro valyuta fondi (XVF)</b>	xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944

		yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti.
<b>Xalqaro munosabatlar</b>	<b>iqtisodiy</b>	mamlakatlar va hududlar o'rtasida, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.
<b>Xalqaro ishlab kooperatsiyasi</b>	<b>chiqarish</b>	ishlab chiqarish bosqichlarining bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning o'zaro hamkorlik qilishi.
<b>Xalqaro chiqarishning ixtisoslashuvi</b>	<b>ishlab</b>	mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti ko'inishi bo'lib, unda o'zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha biror turdagi mahsulot tayyorlash bilan shug'ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi yuz beradi.
<b>Shimoliy mamlakatlarning iqtisodiy tashkiloti (NAFTA)</b>	<b>Amerika hamkorlik</b>	Shimoliy Amerikaning 3 yirik davlatini (AQSh, Kanada, Meksika) birlashtirgan bu tashkilot 1989 yilda tashkil topdi.
<b>Eksport</b>		tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.
<b>Eksport kvotasi</b>		mamlakat eksporti qiymatining unig yalpi ichki mahsulotiga nisbati.
<b>Emissiya</b>		qog'oz pullarning g'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.
<b>Embargo</b>		biror mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiqlash.
<b>Erkin iqtisodiy hududlar</b>		mamlakatning olib kirilgan tovarlar uchun milliy bojxona yurisdiksiyasidan holi hududi hisoblanadi, binobarin, bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya'ni - bu milliy iqtisodiyotning bir kismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshka

hududlarida qoʻllanilmaydigan oʻziga xos imtiyozlar va ragʻbatlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

**Erkin savdo hududlari (ESH)**

preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

**Yalpi ichki mahsulot**

mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

**Yangi industrial davlatlar (YaID)**

iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to‘g‘risida"gi Qonuni, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xorijiy investorlar huquqlari himoyasi kafolatlari va choralari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2000 y.
6. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb yetishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son farmoni.
7. “Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 martdagi PQ 26-son qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. 16.07.2008
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Krizisga qarshi dasturga kiritilgan qo‘shimcha infratuzilma ob‘ektlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-1073-son qarori. 17.03.2009.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 505-sonli qarori.
11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016. – 56 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016 yil 7 dekabr // Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.
13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 4 yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil, 22 dekabr.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2018 yil, 28 dekabr.

17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

18. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.

19. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.

20. Абрамова И. Денежные переводы мигрантов: роль в социально-экономическом развитии Африки. //МЭ и МО. 2009, №7.

21. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 196 с.

22. Аверьянов, Ю. И. (сост.) 1993. Политология. Энциклопедический словарь. М.: Изд-во Моск. Коммерч. ун-та.

23. Alimov A., Namidov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. – T., 2004.

24. Акопова Е.С., Воронкова О.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебное пособие. –Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.

25. Апухтина Н.Г. Человек в эпицентре глобальных проблем современности. –Челябинск, 1997. С.6.

26. Бек У. Политическая динамика в глобальном обществе риска// Мировая экономика и международные отношения. – М., 2002. – №5.

27. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: учебник. – М., 2007.

28. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая Российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1998. – С. 1233.

29. Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм. XV–XVIII вв. Т. 3. Время мира. М.: Прогресс, 1992. — 679 с.

30. Валлерстайн И. Исторический капитализм. Капиталистическая цивилизация / Пер. с англ. М.: КМК, 2008. — 176 с.

31. Василевский Э. Информационные технологии: масштабы и эффективность использования. //МЭ и МО, 2006, №5, с. 4.
32. Габдулхакова Р.В., Махов А.А. Глобальные проблемы современности: Учебное пособие. – Уфа: Изд-во УГНТУ, 2000.- 54 с.
33. Гладкий Ю. Глобалистика: трудный путь становления // Мировая экономика и международные отношения, 1994.- № 10.- С. 104-116.
34. Глобализация мирового хозяйства: учебное пособие / под ред. Осмовай М.Н., Бойченко А.В. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 376 с.
35. Громько А.А. Глобализация и глобальное управление: возможности и риски / Громько Ан. А. // Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 25 Международные отношения и мировая политика. – 2013. - №3. – с.3 – 25.
36. Денчев К. Феномен антиглобализма. - М.: Издательский дом ГУ-ВШЭ. 2005.
37. Джерри, Д., Джерри, Дж. (сост.) 1999. Большой толковый социологический словарь: в 2 т. Т. 2. М.: Вече.
38. Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009.
39. Еремин А.В. Влияние процесса глобализации на формирование и трансформацию конкуренции. // Евразийский международный научно-аналитический журнал. Проблемы современной экономики, №3 (11), 2004. – С. 64-66.
40. Jumayev N.X., Abduraxmonov O.Q. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – Т.: Akademnashr, 2010. – 160 b. Isadjanov A.A. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. – Т.: JIDU, 2008, - 185 b.
41. Загладин В.В., Фролов И.Т. Глобальные проблемы современности: научный и социальный аспект. – М.: 1981.
42. Иванов Н. Глобализация и проблемы оптимальной стратегии развития. // Мировая экономика и международные отношения. 2000. № 2. – С. 15.
43. Ishmuxamedov A.E. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. – Т.: TDIU, 2004.
44. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Milliy va jahon iqtisodiyoti: darslik. – Т., 2010 у. – 16-18 bb.
45. Кирьянова Л.Г. Общество в контексте глобально-локальных отношений / Л.Г.Кирьянова. –Томск: Дельтаплан, 2007. 136 с.
46. Колесев В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: учебник. – М.: INFRA-М, 2008.
47. Колосова Р.П., Артамонова М.В. и др. Глобализация экономики и занятость населения. Учебное пособие. – М., 2000.

48. Контурсы инновационного развития мировой экономики: прогноз на 2000-2015 гг. / Под ред. А.А.Дынкина. – М.: Наука, 2000.
49. Кропоткин В. Экономические связи Восточной Европы в I тысячелетии нашей эры. – М.: 1967 г., с. 118-124; И.Спасский. Русская монетная система. Историко-нумизматический очерк. – М., 1960 г., - С. 23.
50. Кузнецов В. Что такое глобализация? // Мировая экономика и международные отношения. – М., 1998. – №2, 3.
51. Кузнецов В.И. Что такое глобализация? // Мировая экономика и международные отношения, 1998, №2, с. 16.
52. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия – 2050. Стратегия инновационного прорыва. – М. Экономика. 2004.
53. Ливенцев Н. Международные экономические отношения: учебник. – М.: 2005.
54. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов ВУЗов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.
55. Ляменков А.К. Тенденции развития международной торговли в условиях глобализации мирового хозяйства. В кн. Глобализация мирового хозяйства и место России. – М., 2000. – С. 161.
56. Мартин, Г.П. Западная глобализации: атака на процветание и демократию: пер. с нем. / Г.П.Мартин, Х.Шуман. – М.: АЛЬПИНА, 2001. – С. 52–53.
57. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения / Под ред. Л.Н.Красавинова. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 576 с.
58. Мировая экономика: прогноз до 2020 года / под ред. акад. А.А.Дынкина. – М.: Magistr, 2008.
59. Мировая экономика: учебник / под ред. Б.М.Смитиенко. – М.: Высшее образование, Юрайт-Издат, 2009. – 581 с.
60. Мировая экономика: Учебник для ВУЗов / Под ред. проф. Ю.А.Щербанина. М.: ЮНИТИ–ДАНА, 2004. С. 84-85.
61. Nazarova G.G. va boshqalar. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. – T.: RAM-S, 2007.
62. Nazarova G.G., Xaydarov N.H. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2005. – 273 b.
63. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. 224 b.
64. Некипелов А. Глобализация и стратегия развития экономики России // Проблемы прогнозирования, 2001, №4. – С.7.

65. Нечай А. Глобализация мировой экономики и роль государства // Журнал международного права и международных отношений, 2010. – №4.
66. Пономарева Е. Суверенитет в условиях глобализации// Свободная мысль. – М., 2007. – №11.
67. Потапов М. Мировой экономический кризис и Восточная Азия. //МЭ и МО. 2009, №12, с.19-25.
68. Пороховский А.А. Новая экономика: американский вызов. //США – Канада: экономика, политика, культура. 2001, №6 – С.10.59. Статистическое обозрение Узбекистана. Т.: 2011.
69. Роцеско С. Глобализация: взаимодействия в рамках многообразия. Сборник научных докладов «Глобализация и крупные периферийные страны». – М. Международные отношения, 2003. – С.45.
70. Семёнов К.А. Международные экономические отношения. Учебник для ВУЗов. – М: ЮНИТИ – ДАНА, 2003.
71. Смутс М.К. О «хорошем» управлении в международных отношениях// Международный журнал социальных наук. 1998. – №22.
72. Социально-демографические процессы в современном Узбекистане //Материалы Республиканской научно-практической конференции. – Т., 2009. – С. 126.
73. Стриженко А.А. Глобализация мировой экономики: основные тенденции // Ползуновский альманах. – 2000. – №3.
74. Трейвиш А. И. От Персеполиса до Франкфурта / А. И. Трейвиш // Независимая газета. Сценарии, 22.04.2008.
75. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сборник статей /Отв ред. Абдуллаев Е.В. – Т., 2008.
76. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления / под ред. В.В.Попкова. Учебник. – М.: ЗАО «Экономика», 2007. – 295 с.
77. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. – М.: Магистр, 2009. – 397 с.
78. Филатова А. С. Анализ основных рисков глобализации / А. С. Филатова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 8.2 (67.2). — С. 57-59
79. Филипп Р. Лейн и Джан-Мария Милези-Фиретти. Изучение глобальных дисбалансов // Финансы и развитие (МВФ). – 2006. – март. – С.38-41.
80. Фишер Г. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. - М.: 2000.



81. Xodiyev B.Yu. va b. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
82. Холопов А. Глобализация и макроэкономическое равновесие // Мировая экономика и международные отношения. – 2005. – №2. – С. 15–23.
83. Центральная Азия и Кавказ. 2007. № 6. с. 43.
84. Шишков Ю. Регионализация и глобализация мировой экономики: альтернатива или взаимодополнение? //МЭ и МО, 2008, № 8, с.7.
85. Fiorentino R., Verdeja L., and Toqueboeuf Ch. The Changing Landscape of Regional Trade Agreements. 2006.
86. Goubert P. L’ancien regime. Paris, 1969-1973, tome II, p. 198; Mandrou R. La France aux XVIIe et XVIIIe siecles. – Paris, 1987, p. 89.
87. Keyes R. The Post-Truth Era: Dishonesty and Deception in Contemporary Life. – New York: St. Martin's, 2004
88. Maull H.W. World Politics in Turbulence // Internationale Politik und Gesellschaft Online. 2011, N.1. – P. 11–25. – [http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-1\\_03\\_a\\_maull.pdf](http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-1_03_a_maull.pdf)
89. Rosenau J.N. Turbulence in World Politics. A Theory of Change and Continuity. – Princeton (N. J.): Princeton University Press, 1990. – 480 p.
90. Rosenau J.N. Along the Domestic-Foreign Frontier: Exploring Governance in a Turbulent World. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – P. 144–173.
91. Soriel C. Immanuel Wallerstein’s World System theory // Annals of the University of Oradea, Economic Science Series. – 2010. Vol. 19. P. 220–224.
92. Costanza Giovannelli. Trends in international migrant stock: The 2008 Revision. - United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division, Migration Section, Eighth Coordination Meeting On International Migration. - New York, 16-17 November 2009.
93. Hodges R., Whitehouse D., Mohammed, Charlemagne and The Origins of Europe. – Oxford, 1983, pp. 4, 169-176.
94. Huntington S.. The Clash of Civilizations and the Remaking of the World Order. — N.Y., 1996.
95. Wallerstein I. The modern world-system. Vol. I: Capitalist agriculture and the origins of the European world-economy in the sixteenth century. – San Diego: Academic Press, 1974. — 440 p.
96. Wallerstein I., The Modern World-System. Capitalist Agriculture and the Origins of the European World-Economy in the Sixteenth Century. – New York, 1974, pp. 15-18.

97. UNCTAD World Investment Report -2009.
98. Economic and Social Survey of Asia and Pacific-2009. N.Y., ESCAP, 2009.
99. World Economic Situation and Prospects-2009. N.Y., UN, 2009.
100. World Trade Report 2007.
101. UNIDO Industrial Statistical Database. Vienna. November 2007.
102. UNCTAD. Trade and Development Report. 2007.
103. VR Statistical Review of World Energy, June 2007.
104. UNIDO Industrial Development Report 2005. Vienna, 2005.
105. World Economic Outlook. IMF, September 2005.
106. Annual Report, WTO, 2003.
107. World Development Indicators. The World Bank, 2003.
108. World Economic Outlook, IMF, September. 2002.
109. Fake news is «very real» word of the year for 2017 // The Guardian. 2017. – 2 November. – <https://www.theguardian.com/books/2017/nov/02/fake-news-is-very-real-word-of-the-year-for-2017>
110. UNCTAD, World Investment Report, 2002. Transnational Corporations and Export competitiveness. – New York and Geneva: United Nations, 2006. P. 3.
111. World Migrant Stock: The 2005 Revision Population Database (<http://esa.un.org/migration>)
112. [www.un.org](http://www.un.org) – BMT sayti
113. [www.un.org.esa](http://www.un.org.esa) – BMT statistikasi
114. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) – Jahon banki sayti
115. [www.unctad.org](http://www.unctad.org) – YUNKTAD sayti
116. [www.wto.org](http://www.wto.org) – JST sayti
117. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O'zbekiston Respublikasi milliy axborot agentligi
118. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
119. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati
120. [www.pravo.vsem.uz](http://www.pravo.vsem.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi yangiliklar
121. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) – O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.  
[www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligi
122. [www.aci.uz](http://www.aci.uz) – O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi
123. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi
124. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi
125. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.  
[http://www.intereconomic.ru/str\\_21.php](http://www.intereconomic.ru/str_21.php)

**Xankeldiyeva Go'zal Sherovna  
Muminova Elnora Abdukarimovna  
Mirzayev Abdullajon Topilovich  
Asraqulov Abduraxmon Sulstonovich**

## **GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH**

*Oliy o'qiv yurtlari talabalari uchun darslik*

Bosh muharrir: M.Ashurov

Musahhih: M.To'xtasinova

Sahifalovchi: SH.Jamoliddinov

Bosib chiqarish uchun imzolangan 16.04.2021

Xajmi: 3,2 MB

Internet nashr



“Al – Ferganus” nashriyoti  
Farg‘ona sh., Aeroport ko‘chasi,  
[alferganus.ltd@gmail.com](mailto:alferganus.ltd@gmail.com)







